



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MEROSI VA JADIDCHILIK HARAKATINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

2025-yil 29-oktabr



SAMARQAND - 2025

UDK 891.79

“Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidchilik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2025-yil 29-oktabr. SamDU nashri. – 261 BET.

Mazkur to‘plam 2025-yilning 29-30-oktabr kunlari o‘tkazilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidchilik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat bo‘lib, unda xorijiy va mamlakatimizning bir qancha taniqli olimlari, yosh tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislarining maqolalari o‘rin olgan. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning aniqligi yuzasidan mualliflar mas’uldir.

TAHRIR HAY’ATI:

Prof. H.A.Xushvaqto‘v (Tahrir hay’ati raisi),
Prof. J.D.Eltazarov, prof. R.Abriyev (Mas’ul muharrir),
Prof. Sh.Hasanov, prof. B.Ergashev, dots. T.Maxmudov

TAQRIZCHILAR:

Prof., f.f.d. U. Qobilov
Prof., t.f.f.d. D.Vafoyeva

Nashrga tayyorlovchilar:

Prof., f.f.d. A.Nasirov
Dots, PhD D.Jabborova
Prof., t.f.d. G.Normuroda
Dots., t.f.n. Sh.Ravshanov

Musahhih:

dots., f.f.n. M.Vafoyeva

ISBN 978-9922-9829-5-7

© *Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2025*

“PADARKUSH” DRAMASIDA DAVR VA SHAXS FOJIASI TALQINI

**Qurdosh Qahramonov,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
professori, filologiya fanlari doktori**

Turkistonda jadidchilik harakatining rahnomasi sifatida tan olingan atoqli mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudi o‘zbek yozma dramaturgiyasining asoschisi ham hisoblanadi. Xalqini ma’rifatli qilish, hur va ozod ko‘rish istagi bilan yashagan alloma butun umrini millat bolalari uchun yangi tipdagi jadid maktablarini ochish, ularga atab darsliklar yaratish, kutubxonlar tashkil etish, safarnomalar yozish, davrning muhim masalalariga bag‘ishlangan publitsistik maqolalar bitishga safarbar etdi.

“Padarkush” dramasi yaratilishiga ham shu faoliyatning mantiqiy davomi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Uning ijodkor sifatida boshqa badiiy asar yaratishga harakat qilmaganining tub sababi ham shunda bo‘lsa kerak. 1909-yilda “Turkiston viloyatining gazetisi”da e’lon qilingan “Oq elpog‘ichli chinli xotun” nomli hikoya esa berilgan izohga ko‘ra xitoy adabiyotidan olingan bo‘lib, Behbudiyning qayta talqini asosida chop etilgan. Hikoya mazmuni ham shundan dalolat beradi.

Behbudiyshunoslarning dalolat berishicha, mutafakkir Turkistonda teatr san’atining tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyatiga katta e’tibor beradi. Uni “ibratxona” deb ataydi hamda o‘zbek milliy teatrchiligining “...nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqdi” [1, 66-bet].

M.Behbudiyning o‘zi bu haqda “Teyotr nadur?” maqolasida shunday yozadi: “Teyotr o‘yinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rib, kar quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa, teyotr va’z va tanbih etuvchi hamda zararlik odat, urf-taomilni, qabih va zararini ayonan ko‘rsatuvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir” [2, 110-bet]. Ko‘chirmadan ham ma’lum bo‘lyapdiki, “Padarkush”ning yaralishidan asosiy maqsad jamiyatdagi “umumiy hollarni”, zararlik odat, urf-tamoyillarni, qabih va zararlarni hech bir rioya qilmasdan yuziga oyina tutib o‘zlariga ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Toki ko‘z bilan ko‘rib, kar quloqlar bilan eshitib, o‘zlari uchun xulosa chiqarsinlar.

M.Behbudi dramani “3 parda 4 manzarali, milliy birinchi fojia” deb ataydi. Darhaqiqat, drama fojiaiy asar. Unda mustamlaka zulmi ostida ezilgan xalqimizning XX asr tongidagi ayanchili turmush tarzi, savodsizlik, taraqqiyotsizlik oqibatida ma’naviy inqirozga yuz tutgan qismati umumlashma tarzda ifoda etiladi. Asarda zamon va millat fojiasi uyg‘un tarzda aks etadi. 1911 yilda yozilgan asarning chop etilishi bilan bog‘liq voqealar haqida taniqli jadidshunos olim B.Qosimov shunday yozadi: “Xullas, 1911- yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop

etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi" [3, 295-bet].

Binobarin, asarni nashr etish uchun chor senzurasiga yon bosib, unga mutloqa aloqasi bo'lmagan Borodino jangiga deb yozilgan bag'ishlov ham davr va millat ziyolilarining fojiasi sifatida yuzaga chiqmoqda. Asardagi fojeliq ham vokelik fonida, ham qahramonlar xatti-harakatlari orqali ochila boradi. "Adabiyot va san'atda shunday asarlar borki, unda tasvirlangan xarakterlar holati, voqealarning oqimi asl mohiyati bilan fojia, bu fojia holatlar, xarakterlar holati voqealar tasviridan bevosita kelib chiqadi" [4, 317-bet].

Dramada boy ham, Toshmurod va uning ulfatlari ham fojiaviy obrazlar sifatida talqin etiladi. Asarning dastlabki sahnasidayoq fojeliq qirralari namoyon bo'la boradi. Bu fojeliq boy huzuriga kelgan domullo va ziyoli bilan kechgan suhbat asnosiida yuzaga chiqadi. Garchi bu sahna asardagi asosiy voqealarga nisbatan bir ekspozitsiya rolini o'ynasa-da, lekin muallif badiiy niyatini ochuvchi o'ziga xos kalit – ijtimoiy fojeliq sifatida talqin etiladi. Domullo boydan o'g'lini o'qitmayotganinig sababini so'rab, "...o'qitmoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratudur", degan gaplariga "...dunyo sababi, izzati – boylik", deb javobni oladi. Hisob-kitob ishlarini yuritishda ham ilmning zarurligi haqida gap ketganda, boy xizmatkori Xayrulloqa etti so'm bersa mirzolikni ham, mehmonxona ishlarini ham bajarishini, hatto kechalari uyqu oldidan kitob ham o'qib berishini aytadi. Shariat ilmidan so'z ochilganda esa savodsiz bo'lsa ham besh vaqt namoz o'qish uchun kerakli duolarini bilishini bayon etadi.

Butun sahna davomida domullo va ziyolining millat kelajagi bo'lgan farzandlarni bilimli qilish, vatan va millat taqdiri ularning qo'lida ekani haqidagi kuyunchalik bilan aytgan gaplariga boyning uyqisiragan beparvo munosabati, e'tirozlari fojilikning tub omillari sifatida ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, M.Behbudiy ma'rifatparvar ziyoli sifatida birinchi navbatda Turkiston xalqlarini jaholat botqog'idan qutqarish uchun ularni savodli qilish, o'z haq-huquqlarini anglashi zarur deb bilgan. Ma'rifatsizlik, ilmsizlik, qashshoqlik, boylarimizning manqurtligi va kaltabinligi, yurt boyliklarining, birinchi navbatda, savdo-sotiq, ishlab chiqarishning armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'liga o'tib ketishini davr fojiasi deb biladi. Asarda bu fojeliqni domullo va ziyoli tilidan aytilgan gaplar orqali ifodalaydi.

Shu jihatdan boyning savodsiz bo'lsam ham, "...shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman", degan e'tiroziga nisbatan aytgan quyidagi fikrlari xarakterlidir. "Ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'liga o'tdi, muni sababi bizlarning o'qimag'onimizdur. O'qumagan boyvachchalarni ko'ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur, binobarin, o'g'lingizni o'qutmoqni sizga taklif qilurman" [5, 41-bet]. Ziyoli tomonidan aytilgan: "Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, eri va asbobi kundan-kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur" [5, 43-bet], degan gaplarida nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va diniy inqiroz haqidagi mushohadalarni ilgari surmoqda.

Akademik N.Karimov o'z maqolasida asar yozilishiga sabab bo'lgan yana bir ijtimoiy omil – fojiaiy qismat haqida so'z yuritadi. Olim Behbudiy bilan zamondosh va maslakdosh yozuvchi, ma'rifatparvar Qo'qonboy Abduxoliqzodaning xotiralariga tayanib, o'sha kezlari Samarqandda merosga tezroq egalik qilish uchun boylarning o'g'illari tomonidan o'ldirilayotgani haqidagi ma'lumotlarni keltirib, quyidagilarni yozadi. "M.Behbudiy 1908-2910 yillarda Samarqandda ro'y bergan va shahar ahlini tahlikaga solgan bunday ayanchli hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki eshitgan. Va u "Padarkush"ni Mirfayozboyning o'z o'g'lining jo'ralari tomonidan o'ldirilishi vaqeasi ta'sirida yozgan. Bu, bir tomondan, asarning yozilish tarixiga oydinlik kiritsa, ikkinchi tomondan, "Padarkush" tragediyasining xalq va jamiyat uchun g'oyat muhim ijtimoiy va ma'naviy masalaga bag'ishlanganidan dalolat beradi" [6, 67-bet].

Demak, tragediyaning ikkinchi pardasida Toshmurodning ulfatlari bilan mayxonadagi maishatparasliklari, ichkilik ichib kayf qilishlari aks etgan manzaralar hayotiy asosga ega bo'lib, olim aytgan voqealarning o'ziga xos tasvirlaridir. Muallif bu fojiaiy asl sababini, boyvuchcha va ulfatlarining ma'naviy tubanligini ilmsizlik va maishatparaslik bilan bog'laydi. Arman millatiga mansub Artunning mayxonasida mayxo'rlik qilib kallasi qizigan ulfatlar fohisha Lizani eslab qolishadi. Mayxonachidan uni topib kelishini so'rashadi. Artun Liza o'n besh manatsiz kelmasligini, uni olib kelish uchun faytunchiga ham pul to'lash zarurligini aytadi. Biroq ulfatlar mayxonachi aytgan pulni to'play olmagach, Tangriqul bilan Toshmurodni boyning uyiga yuborib, pul o'g'irlab kelish taklifini aytishadi. Bu taklifga boyning o'g'li Toshmurod ham rozi bo'lib, "Eshikning biri onamning uyidan ochilur, men kirib, hovli tarafdagi eshigini ocharman, so'ngra Tangriqul akam kirar", deya rejasini ochiqlaydi.

Uchinchi pardaning dastlabki manzarasida uydagi shovqindan boyning uyg'onib ketishi va kaltak bilan baqir-chaqir qilib Tangriqulga tashlanishi hamda u tomonidan pichoqlanib yiqilishi voqealari fon sifatida yoritiladi. Sandiqdan boyning hamyonini olib voqea joyidan qochib qolgan Tangriqul va Toshmurod esa mayxonaga borib Liza bilan maishatni davom ettirishlari fojia sifatida talqin etiladi. Voqeadan xabar topgan boyvuchcha esa dod solib o'g'lini padarkush, deya qarg'aydi. Ham boyimdan, ham o'g'limdan ayrildim, deb faryod qiladi. Muallif, bu fojeliyning asl sabablarini yoritishni yana domullo va ziyoli zimmasiga yuklaydi. Sahnada hozir bo'lgan domullo tomonidan aytilgan ushbu fikrlar fojeliy omillarini fosh qilishga qaratilgandir. "Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, ba'manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi" [5, 48-bet].

Ziyoli aytgan quyidagi fikrlar muallif konsepsiyasini yanada aniqroq ifodalayadi. "Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shudir. Agarda bularni otasi o'qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi...Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdir. ...hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir" [5, 49-bet].

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning ushbu asari xalqimizni XX asr tongida jaholat uyqusidan uyg‘otish, savodini chiqarib o‘z haq-huquqlarini tanish, eng muhimi, “Haq olinur, berilmas” tamoyiliga amal qilib, milliy mustaqillik uchun kurash konsepsiyasini ilgari surishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. Бехбудий – жадид театрининг назариётчиси// Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. №4.–Б.66.
2. Бехбудий М. Теётр надур? Танланган асарлар. –Тoshkent, 1997.–Б.150.
3. Қосимов Б. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: 2022. – Б.295.
4. Қўшжонов М. Танланган асарлар.-Т.: 2018. – Б. 317.
5. Бехбудий М. Танланган асарлар.-Т.: 1997. – Б. 41.
6. Каримов Н. Бехбудий – жадид театрининг назариётчиси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019, №4. – Б.67.

BEHBUDIYNING YANA BIR IZDOSHI

Shavkat Hasanov
filologiya fanlari doktori,
Samarqand davlat universiteti professori

Mirzo Qo‘qonboy Abduxolizoda XX asr birinchi yarmi Samarqand adabiy muhitida yashab ijod etgan ma‘rifatparvar adiblardan biri. Akademik B.Valixo‘jayev o‘zining oxirgi maqolalaridan birini ana shu adibning hayoti va ijodiga bag‘ishlagan edi. “Mirzo Qo‘qonboy kim bo‘lgan?” deb nomlangan ushbu maqolada olim adibning boy adabiy merosi haqida qimmatli ma‘lumotlar berib o‘tadi, uning o‘z davri adabiy muhitida tutgan mavqeiga muayyan aniqliklar kiritadi.

Mirzo Qo‘qonboy Abduxolizoda (1869-1948) ning nomi ayrim asarlar, to‘plamlarda uchrashini qayd etgan B.Valixo‘jayev, jumladan, quyidagilarni yozadi: “1899-yil nashr etilgan tarjima asarida, 1940-yil lotin yozuvida nashr etilgan “Namunahoyi adabiyoti tojik” majmuasida Mirzo Qo‘qonboyning “Namoz” romanidan parcha e‘lon qilingan. Ammo romanning to‘liq matni, boshqa asarlari nashr etilmadi va hatto, keyinchalik Mirzo Qo‘qonboy Abduxolizodaning nomi tilga olinmay qoldi.”

Mirzo Qo‘qonboy Abduxolizoda fors, arab, ozarbayjon, turk tillari qatorida rus tilidan yaxshi xabardorligi bois, uni o‘z iborasi bilan aytganda “chinovnik”lik ishiga oladilar, ya‘ni Chor hukumati ma‘muriy idoralarida tarjimon, tergovchi vazifalarida bir muddat ishlaydi. Ish jarayonida u chorizmning bosqinchilik siyosati bilan yaqindan tanishadi, mustamlakachilikning Turkiston ahli boshiga hali ko‘p kulfatlar solishini anglab yetadi. Adibning tarjimayi holi to‘g‘risida aniq faktlar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, uning idora ishlaridan chetlashtirilgach, boyga gumashta tushgani, do‘kon ochib baqqollik qilgani, tirikchilik va ro‘zg‘orni tebratish uchun dehqonchilik bilan shug‘ullangani ma‘lum. Adib “Tog‘ qizi” romanida baqqolning ayyorligini, o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tap tortmasligini o‘ta mahorat va psixologik izchillik bilan tasvirlaydi. Shuningdek,

romanda Juma, Qurbon obrazlari talqini misolida dehqonchilikning sir sinoatlarini mahorat bilan badiiylashtiradiki, bu sohalar ya'ni baqqollik va dehqonchilikdan bexabar kishi bu kasb-korlarning ikir-chikirlarini romandagidek aniqlik bilan ochib berolmasdi.

Bugun Mirzo Qo'qonboyning "Tog' qizi" romani, "Jizzax qo'zg'oloni" hujjatli qissasi o'zbek tiliga tarjima qilindi. Garchi bu asarlarning ayrim o'rinlarida uzilishlar, sahifalarning ba'zilar yo'qolib ketgan bo'lsa-da, biroq ularda aks ettirilgan epizodlar, motivlar, voqealar tasviri ma'rifatparvar adibning, el-yurt ozodligi va saodatini orzu qilgan ijodkorning biroz g'amangiz bo'lsa-da, nurli siymosini ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalandira oladi, bizni uning dunyoqarashi, orzu armonlaridan ogoh etadi.

Bugungi kunda kim ko'p "yozuvchi", "shoir" ko'p, nima ko'p "badiiy manzuma"lar ko'p. Mirzo Qo'qonboy Abduxoliqzodning nomi notanishligi bois uning tojikchada chop etilgan asarini ko'rib xayolimdan shunday o'ylar kechganligini yashirishga hojat yo'q. Lekin bu romanni o'qigan sari adibga ixlosim oshaverdi: tasvirlar hayotiy, qahramonlarning o'y-fikrlari, yurish-turishlari psixologik izchillikda dalillangan, kompozitsiya – pishiq, uslub shakllangan, o'ziga xos, hayotdan tanlab, saralab olingan sujet voqealari bir-biriga uzviy bog'langan, rang-barang xarakterlar, turfa taqdirlar, ko'ngil hasratlari, qismat o'yinlari, xullas, barcha tashvishlarni yig'ishtirib asarni o'qib chiqishga majbur bo'lasiz.

"Tog' qizi" romani voqealari XX asr boshlari Turkiston ahli turmush tarzidan olingan. Voqea tog' qishloqlaridan biri Mog'oniyonning Farobida va asosan, Samarqandda kechadi.

O'tgan asr boshlarida o'ziga to'q va badavlatlar tog' qishloqlariga borib och va muhtoj oilalarining qizlarini arzimagan narsa evaziga sotib olishgan. Ana shunday "kuyov"lardan biri borganida asar qahramoni Juma bu bedodlikka chidolmay 14 yashar qizchasi bilan Samarqandaga qochishga majbur bo'ladi. Biroq Samarqandda ham taqdir ularga o'z o'yinlarini tayyorlab qo'ygan bo'ladi... adib ana shu alohida taqdirlar misolida o'tgan asr boshlari xalq boshiga tushgan falokatlar ildiziga nazar soladi, ijtomoiy muhit va ma'naviy-axloqiy kategoriyalarga juda aniq xarakteristika beradi. Jamiyatda mavjud har bir sotsial tabaqaning yurish-turishi, mashg'uloti, o'y-niyatlariga to'g'ri tashxis qo'yadi. Sujet voqealari kechgan davrdan qariyb bir asr kechgan bo'lsa-da, adib qo'ygan tashxislarning to'g'riligiga bugun ham shubha qilmaysiz. Davronlar, zamonlar o'zgargani bilan inson atalmish sinoatning dunyoqarashi, ko'ngil mayllari, xatti- harakatlari, nafsi ammorasi bilan bog'liq muammolarning o'zgarishi nihoyatda mushkulligiga imon keltirasiz. Jumladan, roman so'zboshisida yozuvchi mavjud tabaqalarga quydagicha sharx beradi: "... mahalliy aholi to'rt toifaga bo'lingandi: birinchisi, mulla, ikkinchisi, savdogar, uchinchisi, kosib-u kambag'al, to'rtinchisi, mansabdor. Mullalar bu dunyodan tamoman qo'l yuvib, go'r-u qiyomat safsatasi bilan mashg'ullar. Savdogar hisob-kitob va kambag'alni xonavayron qilishdan boshqani o'ylamaydi. Kosib-u kambag'al esa ertadan kechgacha bir parcha non va qarzdin qutilishni o'ylar, mansabdor esa shu bugun har ne qilib bo'lsa-da, besh tanga topish va bu oqshom kayf-u safo qilish ilinjida o'tirardi..."

Adib o'z davrining ma'rifatparvarlik g'oyalarini asarga ustalik bilan singdirgan. Jamiyat, oila, tarbiya, burch masalalari asardagi g'oyaviy-badiiy konsepsiyaning muhim nuqtalaridir. Garchi ayrim boblar mutoyiba ohangiga yo'g'rilgan bo'lsa-da, lekin ularda ham ma'rifatparvar adibning nuqtayi nazarini ilg'ash mumkin. Bu ayniqsa, oxirgi boblarda aniq-ravshan namoyon bo'ladi. Yozuvchining mahorati yana shunda ko'rinadiki, u portret va peyzaj tasvirini berganda yetuk rassomdek mukammal polotno yaratishga muvaffaq bo'ladi, qahramonlarning ruhiy kechinma va tug'yonlarini aks ettirishda psixologdek mulohaza yuritadi, davr, shart-sharoit, milliy-mahalliy kolorit, mavjud tuzum hamda tartibotlarga faylasufdek baho beradi.

Yozuvchi qahramonlariga ortiqcha xarakteristika bermaydi, xolislikni saqlagan holda ularni o'zlari haqida gapirishga "majbur" qiladi. Mohzoda, yengiloyoq Samarxon portretini chizishda natyumort san'atini qo'llaydi, natijada tasvirning aniq-tiniqligiga erishadi.

Adib asarga yozgan so'zboshisida S.Ayniy, A.Qodiriy asarlaridan ilhomlanganligini aytadi. Chindan ham Mirza Qo'qonboy asarlarida nomlari qayd etilgan adiblarning ijodiy ta'sirini payqash mumkin. Mirzo Qo'qonboyning ham aksariyat asarlari tarixiy mavzuda bitilgan. Chunonchi uning "Tog' qizi" romanidagi Ashurqul oqsoqol obrazi ayyorlik va shumlikda S.Ayniy talqinidagi Arbob Kamoldan qolishmaydi, badnafslilikda Qori Ishkambani ora yo'lda qoldirib ketadi. Romandagi Boboqudrat obrazi o'ziga xos xarakter bo'lish barobarida A.Qodiriyning Toshpo'lat tajang va Kalvak Maxzumlariga bir qadar yaqin turadi.

S.Ayniy "Esdaliklar"da otasining do'sti tayinlab yuborgan gapni o'yin bilan ovora bo'lib, faromush qilganligi, otasi so'raganda yolg'on gap to'qiganligini eslab o'tadi. O'shanda otasi uning qulog'ini cho'zib dashnom beradi. Ana shundan so'ng yana tanbeh eshitmaslik uchun yosh Sadriddin har bir voqea-hodisani, kerakli gap-so'zlarni esda saqlab qolishni odat qilgan ekan. Huddi shu kabi o'z davrining og'ir sharoiti Mirzo Qo'qonboyning ham "qulog'idan cho'zgan" ko'rinadi. Chunki u muayyan voqea-hodisalarni hikoya qilar ekan, bir qarashda arzimasdek tuyuladigan eng mayda-chuyda detal, shtrixlarni sinchikovlik bilan tasvirlaydi, ta'sirdorlik va hayotiylikka erishadi. "Tog' qizi" romanida bosinqirab kishnab, depsinib chiqqan saman ot haqida bir epzod bor. Mana o'sha tasvir: "... Ma'lum bo'ladiki, ko'pkariga tayyorlanayotgan saman uyqusida tush ko'rib, qay bir ot bilan olishishga chog'langan, saman ot ko'pkarilar yo boshqa paytlardagi harb-u zarblarini tush ko'rgan bo'lishi ham ehtimoldan yiroq emas. Ajab emaski, uning jismida avlod-ajdodining jang-u jadallarda ko'pirgan qoni uyg'ongan, odam bolasiga muteligi qiynagan bo'lsa, ya'nikim ming yillar avval sero't-u kimsasiz dasht-u biyobonlarda qirchang'i uyurining sardori bo'lib, o'zga uyurning sardorini mavh etib, uning qirchang'ilariga ham sardor bo'lgan muzaffar damlari irsiyat qonunlari shaklida jism-u jahoniga alanga yoqqan bo'lishi mumkin".

E.Xeminguey badiiy asarni aysberg – muz tog'iga qiyoslaydi. Aysbergning sakkizdan bir qismi suv yuzasida, qolgan yetti qismi suv tubida nihon bo'ladi, deydi u. Shunga ko'ra yuqoridagi parchada garchi saman otning bosinqirashi haqida gap ketayotgan bo'lsa-da, aslida saman ot bir timsol. Uning vositasida ozodlikni tush ko'rgan, erkka tashna insonning orzu-a'mollari ifodalanmoqda.

“Tog‘ qizi” romani 1937-1940-yillarda yozilgan. Asarning oxirgi boblaridan biri “Yangi turmush” deb nomlangan bo‘lib, unda adib sovet davri voqeligi haqida muxtasar ma‘lumot beradi, ya‘ni inqilobdan keyin asar qahramonlarining muallimlik kurslarini bitirganliklari eslab o‘tiladi.

Ma‘limki, 1937-1938 yillarda yozuvchilar, shoirlar, umuman qalbida el-yurt dardi bo‘lgan ma‘rifatli kishilar qatli kush qilingan edilar. Agar yozuvchi jur‘atsizlik qilganida ayni o‘sha yillarda yaratilgan romanda sovet voqeligini ulug‘lovchi yangidan-yangi voqea-hodisalar, epizodlar, boblarni kiritishi hech gap emasdi. Biroq u o‘z jonini saqlash evaziga haqiqatga qarshi bormaydi. Yashamoq baxtidan benasib bo‘lishni hech kim xohlamaydi. Adib ham buni tushungan. Shu bois asarlarini chop etishga shoshilmagan ko‘rinadi. Ikkinchidan, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda 1931-yili ikki oyga qamalib, o‘zining begunohligini isbotlaydi va ozodlikka chiqadi. Qamalib chiqqanligi oqibatida siyosiy “hushyor” nashriyot muharrirlari uning asarlarini chop etishga ruxcat bermaganliklari ham ehtimoldan xoli emas.

Asarda Jumaning qiziga xalq dostonlaridan parchalar o‘qib bergani, Mohzoda o‘zini dostonlardagi malikalardek tutib xayol surganlari, shuningdek, bazmda xalq qo‘shiqlari kuylanganligi, ko‘pkari tasviri, Boboqudratning latifanoma hikoyatlari Mirzo Qo‘qonboyning folklor asarlaridan samarali foydalanganidan dalolat beradi. Izchil realist uslub xalq dostonlaridagi ko‘tarinki romantik ohang bilan uyg‘unlik kasb etib, adibning o‘ziga xos tasvir manerasini tayin etadi.

“Jizzax qo‘zg‘oloni” – hujjatli qissasi tarixiy-adabiy manba sifatida bugun ham qimmatlidir. Unda adib o‘zi guvoh bo‘lgan, ko‘rgan, eshitgan voqea-hodisalarni qalamga oladi, qo‘zg‘olonning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib beradi. Turkiston ahlini g‘aflat va arosatda saqlashga qaratilgan chorizm siyosatini, mafkurasini aniq fakt va dalillar bilan fosh qiladi. Mahalliy aholini dasht-u biyobonlarga badarg‘a qilib, ularning suvli va ekindor yerlariga Rossiyadan kelgan muhojirlar uchun posyolkalar tiklanishi, soliqlarning ko‘payishi, jabr-u zulmning avj olishi, mahalliylarga eng past sort sifatida qarash aholining sabr-kosasini to‘ldiradi – deydi adib. Shuningdek, ilgari sud tergovchisi vazifasida ishlaganligidan qo‘zg‘olonchilar ustida kechayotgan sud jarayonlarini kuzatib boradi, sudya, prokurorlarning nayrangbozliklarini miridan sirigacha ochib beradi. Adib Jizzax “qo‘zg‘oloni”ning beshinchi daftari oxirida lirik chekinish qilib, bevosita kitobxonga murojaat qiladi: “Sofdil inson, yirtqich bo‘rining panjalari orasida yotgan qo‘y jonidan umidvor bo‘lurmu? Yirtiqchalar galasi bo‘lgan bu sud hay‘ati qurbon ustiga qurbon talab qiladi. Bu qonxo‘rlarni sen o‘qimishli, ziyoli deysan. To‘g‘ri ular odam o‘ldirish, xonumonga o‘t qo‘yish, g‘orat qilish bo‘yicha saboq olishadi.”

Adibning asarda sud hay‘ati ustidan chiqargan hukmi sud hukmidan ko‘ra asosli va mantiqiy yangraydi. Qo‘zg‘olonda bor-yo‘g‘i 200 ga yaqin odam ishtirok etgan. Qo‘zg‘olon bahonasida Chor askarlari, muallifning guvohlik berishicha mingga yaqin kishining yostig‘ini quritadilar.

Adibning mazkur asarini mardikor olish arafasidagi Turkiston voqeligining solnomasi deyish mumkin.

Mirzo Qo‘qonboy Abduxolizoda serqirra iste‘dod sohibi, u 1925-1931 yillar davomida maktab o‘quvchilari uchun tibbiyot, bialogiya, anatomiya, astranomiya fanlaridan o‘nga yaqin darslik va o‘quv qo‘llanmalarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qiladi. Shuning o‘ziyoq uning yetuk ma‘rifatparvarligini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos N.Karimov “Cho‘lpon” deb atalgan ma‘rifiy romanida Mirzo Qo‘qonboyning Munavvarqori, Cho‘lpon, Vadud Mahmud kabi ma‘rifatparvarlar bilan hamkor-u hamfikir bo‘lgani haqida to‘xtaladi. Bugungi kunda topilgan adibning boy merosi ham uning adabiyotimiz, ilm-fanimiz, ma‘rifatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shganligini ko‘rsatib turibdi. Uning asarlarining asl matnini chop qilish, uy-muzeyini tashkil qilish, asarlari yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, xullas, nomini abadiylashtirish galdagi muhim vazifalardandir.

БҮРКІТ ЫСҚАҚОВ ӘДЕБИ МҰРАСЫНЫҢ МЕКТЕП БАҒДАРЛАМАСЫНДА ҚАМТЫЛУЫ

Prof. Dr. Ercan ALKAYA
Fırat Üniversitesi, İnsan ve Toplum Bilimleri Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü
Elazığ / TÜRKİYE

Жансая АУБАКИРОВА
Қазақстан, Л.Н.Гумилев атындағы Еуразия ұлттық университеті,
«Қазақ тілі мен әдебиеті» мамандығының докторанты

Аталмыш мақалада қазақ ақыны Бүркіт Ысқақовтың шығармашылығын жалпы орта білім беру бағдарламасына енгізудің ғылыми- әдістемелік негіздері қарастырылады. Ақынның поэзиясындағы табиғат лирикасы, патриоттық сарындағы және адамгершілік тақырыптардағы өлеңдер мазмұнына талдау жасалады. Зерттеу барысында мазмұндық талдау, пәнаралық интеграция және педагогикалық эксперимент әдістері қолданылды. Ұсынылған әдістемелік модель оқушылардың ұлттық құндылықтарды, эстетикалық талғамды және тілдік қабілеттерді дамытуға бағытталған.

Ұлттық әдебиетке өлшеусіз еңбек сіңіріп, ұлт руханиятына аянбай еңбек еткен белгілі ғалым, айтулы ақын Бүркіт Ысқақовтың әдеби бай мұрасы әлі де толық зерттеуді қажет етеді. Балалар әдебиетін жандандырып, тыңнан түрен салған ақынның өмірі мен шығармашылығы өскелең ұрпаққа өлшеусіз өнеге. Мектеп бағдарламасына ақынның ғажап өлеңдерін кіргізу, өсіп келе жатқан өскелең ұрпақтың санасына сәуле түсіріп, рухани өсуіне ерекше ықпал етеді.

Ақын, жазушы Бүркіт Ысқақовтың поэзиялық туындылары оқушылардың таным көкжиегін кеңейтіп, ұлттық рухты бойына дарытып, туған жер мен туған елге деген сүйіспеншілікті арттырады. Ақынның

туындылары қазақ халқының тыныс-тіршілігінен хабар беріп, өскелең ұрпақтың рухани мелжемді болып қалыптасуына әсер етеді.

Ақын, жазушы Бүркіт Ысқақовтың шығармашылығымен етене таныс аға буын өкілдері саликалы пікір білдіріп, ақын туралы тамаша ойлар айтқан. Сафуан Шаймерденов “Ғасыр асуы алдында...” деген мақаласында Бүркіт Ысқақов туралы мынандай пікір айтқан: “Албасты да қас-қабаққа қарап басады. Қарын ашқан кезде күштісі әлсізін, әкесі баласын жеп қоятын акула секілді бір-бірімізге шоқпар сілтей берсек, келешегіміз күмәнді. Тірі жанның бетіне тіке қарамаған ғалым – жазушы Бүкеңе, Бүркіт Ысқақовқа кезінде жала жауып, айдатып жіберген жазушысымақтар бүгін арамызда мұртынан күліп жүр. Мұны әсте естен шығаруға болмайды” [1].

Бүркіт Ысқақов – қазақ әдебиетіне сүбелі еңбек сіңіріп, өшпес із қалдырған қайраткер тұлға. Қай кезде де, небір қысталаң шақтарда өз ойын ашық айтып, әділдік үшін тайсалмай күрескен қайсар қайраткер болды. Кеңестік жүйенің меһнатына қарамастан, әдебиет пен руханият жолында барынша адалдық танытып, поэзия әлемінде ұлттық рухты, азаттық идеясын ерекше жырлады. Қапаста отырған шақтарда да шығармашылықтан қол үзбеді. Керісінше, шынайы өмірдің шындығын еш боямасыз бейнелеген өлеңдер жазды. Сөйте келе, қазақ әдебиетінде ерекше бағыт қалыптастырды.

Шынтуайтында, Б.Ысқақов ғылыми еңбектерімен де қазақ жұртына танылды. Себебі, өзі қылышынан қан тамған кеңестік дәуірде филология ғылымдарының кандидаты дәрежесін үлкен абыроймен қорғап, әдебиеттану саласына мәні зор, мазмұны айрықша ғылыми еңбектер алып келді. Балалар әдебиетінде де өзіндік ерекше қолтаңбасын қалдырды. Қазіргі таңда қазақ ғалымдары Бүркіт Ысқақовтың мол мұрасын зерттеп, есімін ұлықтауда аянбай еңбек етуде. 2024 жылы туғанына 100 жыл толуына орай өткен ғылыми конференцияларда ол XX ғасырдағы ұлт-азаттық идеясының жаршысы, әділдік пен шындық жолындағы күрескер ақын ретінде бағаланды. Бүгінде ақтаңгер ақынның есімін көшелер мен мекемелерге беру жөнінде бірқатар маңызды ұсыныстар айтылып жүр [2].

Қазақ әдебиетінің алтын қорына енген қаламгерлердің шығармаларын мектеп бағдарламасына енгізу — жас ұрпақтың рухани дамуының басты кепілі болып саналады. Солардың ішінде Бүркіт Ысқақовтың поэзиясы — ұлттық болмыс, ұлттық рух, жанкештілік пен ұлтжандылық, табиғат әсемдігі, туған жерге деген сүйіспеншілік пен адамгершілік құндылықтарды асқан шеберлікпен көркем етіп суреттеген туындыларымен ерекшеленеді. Оның шығармашылығын мектеп бағдарламасына енгізу — жас буын өкілдеріне тілдік, эстетикалық және патриоттық тәрбие берудің тиімді жолы, төте жолы десек те болады [3].

Мақаланың басты мақсаты Бүркіт Ысқақовтың ғажап шығармалары арқылы оқушылардың көркем әдебиетке деген қызығушылығын арттыру, әдебиетке деген сүйіспеншілікті ояту болып саналады. Сонымен қатар, ұлттық құндылықтарды дәріптеп, рухани-адамгершілік тәрбие беру, қазақ тілінің оралымды да ырғақты, шұрайлы бай тілін өресі өргек, санасы сергек

жастарға сіңіру болым табылады. Мақаланың маңызды мақсатымен қатар, мынадай айшықты міндеттері бар:

1. Ақын шығармашылығындағы негізгі тақырыптарды жүйелеу. Яғни, ақын Бүркіт Ысқақовтың поэзиясындағы ғибратқа толы өнегелі өлеңдердің ішкі мазмұнын тереңінен талдап, сараптау.

2. Оқушылардың жас ерекшеліктеріне қарай шығармаларды іріктеу. Мәселен, төменгі сынып оқушыларына Отан, ана, туған жер туралы терең өлеңдерді оқыту керек болса, жоғары сынып оқушыларын экология, география, тіпті физика пәндеріне байланысты мәлімет беретін туындылармен таныстыру.

3. Поэзиялық туындыларды талдауға арналған әдістемелік тапсырмалар әзірлеу. Поэзия оқушылардың ойлау қабілетін дамытып, сөздік қорын байытып, жан-дүниесіне тамаша әсер береді. Өз ойын еркін жеткізе алатын дәрежеге жетіп, ой дүниесі, қиял әлемі жоғары деңгейге көтеріледі.

4. Пәнаралық байланыс орнату (әдебиет, тарих, экология, музыка). Әсіресе, Бүркіт Ысқақовтың шығармашылығы әдебиет, тарих, экология, музыка іспетті әртүрлі салаларда оқушының дамуына ерекше ықпал етеді. Ақын қиялының шексіздігі соншалық, ақын білімінің тереңдігі соншалық, ақынның шығармашылығымен сусындап өскен оқушы бір емес, бірнеше саланы меңгеріп, таным көкжиегі кеңейеді.

5. Мультимедиялық және сахналық форматтар арқылы шығармаларды меңгерту. Ақынның туындыларын сахналық форматтар арқылы меңгеру оқушылардың өнерге деген сүйіспеншілігін оятып, әдебиетке деген құрметін арттырады.

1. Табиғат лирикасы. “түн Жазғы”, “Туған жер”, “Желмен сырласу” секілді өлеңдер табиғат көрінісін шебер суреттейді. Экология, география сабақтарымен байланыстыра оқытуға болады. Пәнаралық байланыс орнатуға болатын тақырыптар легі.

2. Патриоттық және тарихи сарын. Туған жерге сүйіспеншілік, ел тарихын қастерлеу тақырыптары. Тарих пәнімен интеграция жасауға қолайлы.

3. Адамгершілік және философиялық ой. Мейірімділік, ізгілік, адалдық, өмір мәні туралы толғаныстар. Сынып сағаттарында, тәрбие сағаттарында қолдануға ыңғайлы.

Сынып бойынша енгізу ұсынысы. 4-сыныпқа табиғат лирикасынан ойы ұшқыр, бейнелі өлеңдер (мәнерлеп оқу, сурет салу, өлеңді жатқа айту) қосу қажеттігі. Ақынның жырын мәнерлеп оқу оқушының сөйлеу дикциясын қалыптастырып, ой дүниесін дамытады. Өлеңді жатқа оқу, оқушының есте сақтау қабілетін жақсартады.

6–8 сынып оқу бағдарламасына патриоттық, туған жер туралы жырлар (шығарма жазу, поэтикалық талдау) енгізу. Ақын Бүркіт Ысқақовтың туындыларын талдап, шығарма жазу оқушылардың ой ұшқырлығын шыңдап, парасат-пайымын кеңейтеді.

10–11 сыныпқа философиялық, күрделі образды өлеңдер (әдеби талдау, салыстырмалы зерттеу) қосу. Ақынның пәлсапалық сарындағы терең

жырлары терең зерттеуді қажет етеді. Оны 10-11 сынып оқушылары орындап, ақын шығармашылығы арқылы тұщымды ой айтып, тұжырымды пікір білдіре алады.

Мәнерлеп оқу және жатқа айту – тілдік дағдыларды дамыту. Шығармашылық тапсырмалар – өлеңге иллюстрация салу, сахналық қойылым. Дискуссия және пікірталас – шығарманың идеялық мәнін талқылау. Интерактивті әдістер – аудио-бейне материалдарды пайдалану.

Нәтижесінде оқушылар қазақ поэзиясының бай тілдік қазынасын тереңінен меңгереді. Сонымен қатар, ұлттық мәдениетке, тағылымды тарихқа құрмет артып, эстетикалық талғамы мен шығармашылық қабілеті өрістейді. Бүркіт Ысқақов шығармашылығын мектеп бағдарламасына енгізу – қазақ әдебиетінің жаңа буын оқырмандарына тың серпін беретін, ұлттық рух пен тілді ұрпақ санасына сіңіретін бірден бір тиімді әдіс.

Теориялық негіздер. Әдебиеттану теориясы (Қ.Жұмалиев, З.Ахметов, С. Қирабаев еңбектері негізінде) – ақын шығармашылығындағы тақырыптық, көркемдік және жанрлық ерекшеліктерді анықтау. Педагогикалық психология – оқушылардың жас ерекшеліктерін, қабылдау деңгейін ескеру (Л.С. Выготскийдің “Жақын даму аймағы” тұжырымы). Құндылыққа негізделген оқыту – ұлттық және адамзаттық құндылықтарды сіңіру (UNESCO-ның “Values Education” концепциясы).

1.Мазмұндық талдау – Бүркіт Ысқақовтың өлеңдеріндегі негізгі тақырыптарды, образдар жүйесін, тілдік ерекшеліктерін айқындау.

2.Компаративтік талдау – ақын шығармаларын мектеп бағдарламасындағы өзге авторлардың туындыларымен салыстыру.

3.Пәнаралық байланыс – әдебиет, тарих, география, экология, музыка пәндерімен интеграциялау әдісі.

4.Сауалнама және сұхбат – мұғалімдер мен оқушылардың пікірін білу, қабылдау деңгейін анықтау.

5.Педагогикалық эксперимент– ақын шығармаларын сабақта сынақ ретінде өткізіп, оқушылардың оқу мотивациясына және тілдік дағдысына әсерін бағалау.

6.Оқыту формалары: Дәстүрлі сабақ – мәнерлеп оқу, талдау, сұрақ-жауап. Интерактивті сабақ– топтық жұмыс, рөлдік ойындар, дебат.

Шығармашылық жұмыс – өлеңге иллюстрация салу, сахналық қойылым, өлең жазу. Цифрлық формат – мультимедиялық презентациялар, аудиожазбалар, бейнефильмдер.

1.Бағалау өлшемдері. Танымдық нәтиже – өлең мазмұнын түсіну, негізгі идеяны анықтау. Эмоциялық қабылдау – поэзияны сезіне білу, кейіпкердің көңіл күйін түсіну. Шығармашылық қабілет – өз ойын көркем тілмен жеткізу. Тілдік дағды – сөздік қордың, көркем сөз қолданысының артуы.

2.Күтілетін ғылыми-практикалық нәтиже. Мектеп бағдарламасында Бүркіт Ысқақов шығармашылығы жүйелі түрде оқытылады. Оқушылардың ұлттық мәдениетке, әдебиетке қызығушылығы артады. Мұғалімдер үшін әдістемелік құрал және сабақ жоспары дайындалады.

Мектепте әдебиетті оқытудың әдістемелік негіздерін анықтау.

Қазіргі әдістеме әдеби шығарманы зерттеудің технологияларын, әдістері мен тәсілдерін, кезеңдерін, әдеби шығарманы талдау жолдарын жеткілікті түрде егжей-тегжейлі әзірледі, әдебиеттің өнердің басқа салаларымен пәнаралық байланысын орнатуда айтарлықтай табыстар бар.

1. Оқушының мәдениет әлеміне енуі – әдеби білім берудің бірінші кезектегі міндеті. Әдебиет пәнінің қазіргі заманғы эксклюзивтілігі оның студентті мәдениет әлеміне мәндер әлемі және құндылықтар әлемі ретінде енгізу функциясын жүзеге асыратын бірден-бір пән екендігінде (музыка және сурет пәні «екінші» қатар деп аталатын пәндер болып табылады. Әдебиетті мәтінге бағытталған оқу бүкіл мәдениеттің кілті бола алады: «Мәдениетті түсіну дегеніміз – оның «мәтіндерін оқи білу», онымен қарым-қатынасқа түсу үшін оның грамматикалық және семантикалық кодын меңгеру» (Ю. М. Лотман). Ал мектептегі білім берудегі семиотикалық көзқарас (ең алдымен гуманитарлық пәндер кешенінде) қазіргі мектепке тән мәдени ақпараттың бытыраңқылығын еңсеруге, оқушыны жүйелеу, демек, білімді әмбебаптандыру құралымен қаруландыруға мүмкіндік береді.

2. Фактіден таным әдісіне. Тәрбиелік шындық соншалық, қазіргі мектеп оқушысынан талап етілетін тарихи-әдеби білімнің көлемі соңғы жылдары орасан зор кеңейді. Қазақ әдебиетінің идеологиялық себептермен «болмаған» тұлғаларының қайта оралуы, шетелдік авторлардың шығармашылығының елеулі қабаттарының енгізілуі, жазушы шығармаларының санының мектептегі бұрыннан бар монографиялық тақырып көлемінде де кеңеюі, мұның бәрі есте сақтау қабілетінің немесе материалды игерудің ұқсас формаларының орташа оқушының нақты мүмкіндіктерінен асып түсуіне әкелді. Демек, кеңестік мектептен мұраға қалған үстем идеология мен фактіні (ол күні бүгінге дейін бар) үстемдік етуші әдіспен алмастыру керек. Мәдени шындықтың объектісі жаттанды емес, зерттелуі керек, яғни әдеби білім беру парадигмасын өзгерту мақсаты «есте сақтаудан түсіну мен түсіндіруге» арналған нұсқауларды өзгерту болуы керек. Ол үшін оқу барысында оқушы тиісті құралдарды (әдеби білім беру жағдайында, мысалы, мәтінді талдаудың әртүрлі технологияларын) меңгеруі керек.

3. Оқушы – оқу үрдісінің орталық буыны. Бұл арқылы В.Г. Маранцман өңдеген әдебиет бағдарламасында тұжырымдалған қағидаларды айтамыз. Әдебиет бағдарламасының құрылымы мен пәндік мазмұны:

-әдеби материалдың оқушының жас ерекшеліктеріне, пәнге деген көзқарасын анықтайтын жас ерекшеліктеріне сәйкестігі;

әр кезеңдегі іс-әрекеттің жетекші кезеңін негізге ала отырып, бағдарлама мазмұны мен әдебиет бойынша жұмыс сипатын оқушының дамуына бағыттау;

-ағдарламада тұтас дүниетанымның, дүниеге жүйелі көзқарастың қалыптасуына ықпал ететін өнердің тарихи дамуының негізгі дәуірлерін көрсету;

-бағдарламаның уақыттың әлеуметтік сұранысына, ұрпақтың әлеуметтік психологиясына бағытталуы.

Зерттеу нәтижелері Бүркіт Ысқақовтың шығармашылық мұрасын жалпы білім беретін мектеп бағдарламасына енгізу бірқатар мәдени, әдеби және тәрбиелік тұрғыдан тиімді болатынын көрсетті. Ақынның поэзиясы қазақ әдебиетінің ұлттық бояуы қанық, табиғат пен адам болмысының нәзік қырларын бейнелейтін туындылармен ерекшеленеді.

Сауалнама және мұғалімдермен жүргізілген сұхбаттар нәтижесінде респонденттердің 82%-ы Ысқақов шығармаларының оқушылардың әдеби талғамын, тілдік қорын және ұлттық дүниетанымын кеңейтуге ықпал ететінін атап өтті. Сонымен қатар, әдебиет пәні мұғалімдерінің басым бөлігі ақынның өлеңдері мектеп бағдарламасындағы қазіргі тақырыптармен сабақтасып, оқушыларға көркем мәтін арқылы патриоттық, экологиялық және эстетикалық тәрбие беруге мүмкіндік жасайтынын көрсетті. Мәселен, ақынның мына бір өлең шумақтарынан Отанға деген ыстық ықылас есіп тұрған тәрізді:

Жүрсем де кең дүниенің қай жағында,
Мейлі Фин, мейлі Корей аймағында.
Шығармай түндетүстен, күндіз естен,
Туған ел, тек бір сенсің ойларымда!

Ішінде әскери сап, қалың қолда аттаныс, алыссапар, ауыржолда, жүрсем де қилы-қилы жорықтарда, Туған ел, ту деп білдім сені онда. Ақынның жердің қай ұшпағында жүрсе де, Отанына деген махаббат шексіз екендігі менмұңдалап тұр. Немесе:

Айдалған алыс сапарға
Ілияс, Сәкен, Бейімбет
Қосылып қайта қатарға,
Естідім елге келді деп.
Оралыпты үйіне
Қаныш, Мұхтар, Жұбанов,
Халқы қарсы ап, сүйіне,
Той жасапты қуанып.
Әлемдегі бар күй-ән
Кеудеме жыр боп құйылып,
Жүрегім, жаным - партиямИ,
Жүруші ем саған сыйынып.
Жеңді ғой ақыр адалдық,
Шешті ғой әділ съезің.
Атымен айтам адамдық:

Жолыңа құрбан сый -өзім!-дейді ақын еш шімірікпестен. Туған жерге деген сағыныш, туған елге деген сағыныш ақынның жүрегін тілкемдеп бітті [4]. Бірақ ақын мойымады. Ертеңге деген сенім, болашаққа деген үміт ақынды меселін қайтармай, рухты да айбынды намыспен алға жылжуға даңғыл жол салды. Талдау барысында Ысқақов поэзиясының лексикалық және көркемдік ерекшеліктері, оның ішінде метафоралық образдар, ұлттық фольклорлық сарындар мен табиғат суреттерінің байлығы айқындалды. Бұл

элементтер оқушылардың мәтінді талдау, мәнерлеп оқу және шығармашылық жазу дағдыларын дамытуға ықпал етеді. Сонымен қатар, Бүркіт Ысқақовтың шығармаларын мектеп бағдарламасына енгізу барысында әдебиет тарихы, аймақтық әдебиет және заманауи поэзия сабақтарында пәнаралық байланыс орнату мүмкіндігі туындайды. Бұл тәсіл оқушылардың сыни ойлау қабілетін дамытып, әдебиетке деген қызығушылығын арттырады. Жалпы, зерттеу нәтижелері ақын мұрасын оқу бағдарламасына кезең-кезеңімен енгізу, арнайы әдістемелік құралдар әзірлеу және мұғалімдерге арналған біліктілікті арттыру курстарын ұйымдастыру қажет екенін дәлелдеді [5,6].

Зерттеу барысында әдебиет пәні мұғалімдерінің көпшілігі (78%) Бүркіт Ысқақов шығармаларын оқу бағдарламасына енгізуді қолдады. Олардың айтуынша, ақын поэзиясы оқушылардың сөздік қорын байытып қана қоймай, көркем мәтінмен жұмыс жасау дағдыларын жетілдіреді. Мұғалімдер Ысқақовтың табиғат тақырыбына арналған өлеңдерін экологиялық тәрбие беру мақсатында, ал тарихи және ұлттық болмысты бейнелейтін шығармаларын патриоттық тәрбиеде пайдалануға болатынын атап өтті. Сондай-ақ, ұстаздар оның шығармаларының тілінің қарапайым әрі поэтикалық мәнерде жазылғанын, бұл оқушыларға қабылдауды жеңілдететінін ерекше бағалады.

Сауалнама нәтижелері бойынша, оқушылардың 69%-ы Ысқақов өлеңдерін қызығушылықпен қабылдағанын айтты. Оқушылар ақынның шығармаларында табиғат суреттерінің айқын, бейнелі берілуін және сезім мен көңіл-күйді жеткізудегі шеберлігін жоғары бағалады. Кейбір респонденттер оның өлеңдерінен туған жерге, ұлттық мәдениетке деген сүйіспеншіліктің анық сезілетінін атап өтті. Сонымен қатар, оқушылар ақын туындыларын мәнерлеп оқу, әдеби талдау және шығармашылық жұмыстарда қолдануға ынталы екенін білдірді.

Зерттеу нәтижелері Бүркіт Ысқақовтың шығармашылығын мектеп бағдарламасына енгізу оқушылардың әдеби талғамын қалыптастыруға, ұлттық мәдени құндылықтарды сіңіруге және көркемдік-эстетикалық тәрбиесін жетілдіруге айтарлықтай үлес қосатынын көрсетті. Ақын поэзиясы табиғат пен адам болмысының үйлесімін бейнелеуде, туған жерге сүйіспеншілікті оятуда және өмірдің мәні туралы философиялық ой тудыруда ерекше орын алады. Мұғалімдер мен оқушылардың пікірлері Ысқақов шығармаларының тілінің көркем әрі жеңіл қабылданатынын, ал тақырыптарының өзектілігі қазіргі білім беру процесінің мақсаттарымен сәйкес келетінін дәлелдейді. Сондықтан, оның туындыларын мектеп бағдарламасына енгізу – ұлттық әдебиетті насихаттаудың, жас ұрпақтың рухани дамуын қамтамасыз етудің тиімді жолы болып табылады. Болашақта ақын мұрасын жүйелі оқыту үшін арнайы әдістемелік нұсқаулықтар, электрондық оқу құралдары және интерактивті тапсырмалар жинағын әзірлеу ұсынылады.

Пайдаланылган адабиётлар тізімі:

1. Ысқақов, Б. Таңдамалы өлеңдер. – Алматы: Жазушы, 2010. – 256 б.
2. Қирабаев, С. Қазақ әдебиеті: оқулық. – Алматы: Мектеп, 2015. – 320 б.
3. Жұмаділов, Қ. Ұлттық рух және әдебиет. – Астана: Фолиант, 2018. – 288 б.
4. Әуезов, М. Әдебиет тарихы. – Алматы: Ана тілі, 1991. – 240 б.
5. Сыздық, Р. Сөз құдіреті – Алматы: Санат, 2004. – 208 б.
6. Қазақстан Республикасы Оқу-ағарту министрлігі. Жалпы орта білім берудің мемлекеттік жалпыға міндетті стандарты. – Астана, 2023.
7. Қалиұлы, А. Мектептегі әдебиет сабағы: әдістемелік нұсқаулар – Алматы: Мектеп, 2019. – 192 б.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY BADIY TAFAKKURIDA YOSHLAR MA‘NAVIYATI MASALALARI

**Hulkar Hamroeva,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
professori, filologiya fanlari doktori (DSc)**

**Shahlo Naralieva,
Qozog‘iston Respublikasi J.Tashenev nomli
universitet xalqaro hamkorlik
departamenti direktori,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiyning yoshlar ma‘naviyatiga doir ma‘rifiy-falsafiy qarashlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, Turkiston, qadriyat, Behbudi, birlik, o‘tmish, an‘ana, bag‘rikenglik, millat, ma‘naviy tarbiya, jadid.

Jamiyatda ma‘naviy-ruhiy va siyosiy iqlimni barqarorlashtirishda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etadi. Yurt ozodligi uchun jonini ham ayamagan vatanparvar, taraqqiyparvar, jadid bobolarimizning oliy maqsadlari xalqni ma‘rifatli qilish yo‘li bilan o‘lka mustaqilligini qo‘lga kiritish edi. Atoqli olim, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor B.Qosimovning fikricha, “Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan, ular manfaati uchun kurashgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qiladi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta‘bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi” [1, 121- bet].

Ulug‘ ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi, o‘lka jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrshunos, noshir, jurnalist – buyuk salohiyat va zakovat

egasi edi. U tariximizning g'oyat og'ir va ziddiyatli, inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan bir davrida yashadi.

Behbudiyning tarixiy xizmatlari shu darajada buyukki, ularni bir-bir sanash va izohlash nihoyatda mushkul. U birinchilardan bo'lib, milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi. Yoshlarni buyuk ajdodlari, milliy g'ururi, boy madaniy merosi bilan faxrlanishga, asriy an'analarga ega milliy qadriyatlarni asrab qolishga da'vat qildi. Professor D.Alimovanning fikricha, «Behbudiy milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka boshqaruviga olib kelishini juda yaxshi tushungan» Milliy ozodlik uchun kurashning, keng qamrovli islohotlarning genetik asosini yaratdi. Jumladan, «Yoshlarga murojaat» maqolasida qayd etilganidek, «... hozirgi zamon ishlariga xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun, kirib vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan» [2, 48-bet].

Milliy uyg'onish va milliy yuksalish jarayonida har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari va madaniy an'alarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda ko'rishi, uyg'unlikda his qilishi zarur. Ma'lumki, har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va o'ziga xos ijtimoiy-hayotiy tamoyillari bo'ladi. Jamiyat yangilanayotgan bir paytda yangi yondashuvlar va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, takomilga erishishida Behbudiyning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va «ilmi zamoniy» haqidagi o'tli fikrlari nihoyatda qimmatli va qadrlidir.«Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat» milliy va mintaqaviy ehtiyojlarni nazarda tutgan muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi Qarorida ta'kidlanganidek,

«Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir».

Jadidlar yo'l boshchisining «Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat» maqolasini nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunimizning ham ulkan voqeligi sifatida e'tirof etish mumkin. Uning daholik hamda siyosiy arboblilik qudrati shundaki, u davrning eng dolzarb muammolariga munosib yechim topishga intildi va eng asosli, hayotiy-ijtimoiy fikrlarni ilgari surdi. Jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi, umumbashariy birlikka tahdid soluvchi illatlarni fosh qildi. Olim taraqqiyotdan orqada qolmaslik shart ekanligi, aks holda millatning, yurtning va mintaqaning istiqboli parokanda bo'lishi haqida qayg'uradi. Mintaqada tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash uchun turkiy tilli xalqlarning birlashishi zarur ekanligini ta'kidlaydi: «Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutilub, hatto, tilini yo'qotgan bu jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqqa jon va kuchlarini sarf

etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdir. Turk tomirig‘a bolta urmoqlikdir».

XX asr boshidagi adolatli davlat boshqaruvi, mintaqada tinchlik hukm surishi uchun millatlararo totuvlik ulkan ahamiyatga ega ekanligi haqidagi qarashlarni qamrab olgan “Qozoq qarindoshlarimg‘a ochiq xat”, “Muhtaram yoshlarga murojaat” kabi maqolalar jadidchilik harakati etakchisiining dunyoviy va ruhoniy aql-zakovat, umuminsoniy tafakkur hamda yurtga sadoqati uyg‘unligi asosida vujudga kelgan mukammal vatanparvarligining yorqin namunasidir.

Zero, hamma zamonlarda ham millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish ustuvor vazifa bo‘lib, ijtimoiy-etnik muammolarni hal etishda davlat faqat adolatga tayanishi shart. Behbudiy milliy va millatlaro munosabatlarni muayyan tizim sifatida tartibga tushirish tamoyillari haqida o‘z fikrlarini bildiradi: «Hammangizga ma‘lumdurki, Turkiston, demak -turkiy el bo‘lib, mundagi xalqning qozog‘i, qirg‘izi, sarti, o‘zbeki, turkmani, tatari – hammasi aslan... jahongir... Temurning avlodi yoki og‘a – inisidurlar».

Behbudiy buyuk «jahongir... Temurning avlodi yoki og‘a – ini»lari, ularning yangi avlodlari faqat birlik ilm orqali saodatga erishishlarini qayta - qayta takrorlaydi: «... Turkiston yoshlari muallim etushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bukungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallim etushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak».

«Xurshid» gazetasining 1906-yil, 11-oktabr sonida bosilgan «Xayr ul-umuri avsatuhu» («Ish (amal)larning yaxshisi o‘rtachasidir») sarlavhali maqolasida u birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirish zarur, degan g‘oyani o‘rtaga tashlaydi. Behbudiy o‘zining butun faoliyati davomida yagona, mustaqil Turkiston birligi uchun kurashdi.

«Chirog‘larim, birlashaylik! Ko‘rasiz, bu kungi ruslarda birlashmoqdadurlar. Endi birlashmoq zamonidir. Agarda siz ayrilsangiz, turkman qarindoshlar-da ayrilsa. Turkiston turklari uch erga bo‘linib ketar va barchaga muxtoriyatdan nasiba chiqmay qolur. Ettisuvdagi musulmon qarindoshlarga ham aytaturg‘on so‘zim shuldur».

So‘nggi 7-8 yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi aloqalar misli ko‘rilmagan darajada yuksalib, konstruktiv va o‘zaro manfaatli sheriklikning mukammal namunasini namoyish etmoqda. Eng muhimi, ikki yaqin qo‘shni davlat rahbarlari global va mintaqaviy siyosat masalalarida ham bir-birlarini hamisha qo‘llab-quvvatlaydilar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bu do‘stona va yaqin qo‘shnichilik munosabatlari nafaqat O‘zbekiston va Qozog‘iston, balki butun mintaqa uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi Shartnoma imzolangani bejiz emas. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Umumiy tariximiz, madaniy va ma’naviy qadriyatlarimiz, an’ana va urf - odatlarimiz bizni birlashtirib turadi. Qozog‘iston O‘zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli va davr sinovidan o‘tgan hamkordir. Bugungi murakkab zamonda o‘zaro munosabatlarimiz davlatlararo hamkorlikning namunasi bo‘la oladi, deb hech mubolag‘asiz aytishimiz mumkin”. Ikki qardosh mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali

munosabatlarning jadal rivojlanayotganligi xalqlarimizning qalban yaqinligini bildiradi.

Akademik B.Nazarovning fikricha, “Jadidchilik davlat,tuzum, boshqaruvni isloh etish, va millatni rivojlantirish orqali, umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlantirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o‘ynagan Turkistondek ulkan tarixiy bir o‘lkada ko‘p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G‘arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlaganini hamda XX asr tongida yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lida kurashga kirishganini ko‘rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o‘zida ifoda etdi”. Atoqli ma‘rifatparvar olim Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy jurnalistika, milliy adabiyot, milliy ta‘lim bilan bir qatorda milliy davlatchilik, mintaqaviy yakdillik taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo‘shdi. Uning rahbarligida jadidlar milliy davlatchilik qurish uchun harakat qildilar. Ya‘ni, yagona Turkiston birligi uchun kurashdilar va milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldilar. Ozodlik, milliy g‘urur kabi unutilgan qadriyatlarni tiklashga urindilar. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Qonuni Ovrupo” (“Yevropa qonunlari”) maqolasini ham tilga olish. Unda Behbudiy o‘z xalqining taraqqiyotini nafaqat ma‘rifat bilan balki siyosiy o‘zgarishlar, Turkiston birligi va mustaqillikka erishish bilan bog‘lagan. Jadidshunos olim R.Sharipovning fikricha, “Jadid ziyolilari o‘z oldida turgan asosiy vazifa kelajakda o‘zbek xalqini fojiali oqibatlariga olib borishi mumkin bo‘lgan ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashish, yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, milliy urf – odatlar va san‘at turlarini saqlab qolish va yaqin kelajakda amalga oshishi lozim bo‘lgan mustaqillik haqidagi orzularni yoshlar shuuriga singdirish edi”. Millatni fojidan asrashning yagona yo‘li sifatida jadidlar “yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, milliy urf-odatlar va san‘at turlarini saqlab qolish”ga qattiq kirishadilar.

Behbudiy doimo millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga va ilmga alohida e‘tibor berdi. U o‘z asarlarida yosh avlod ma‘lumotli, madaniyatli bo‘lishi, ular she‘r va maqolalar yozish, yod olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur deb hisobladi va “Padarkush” kabi sahna asarlari orqali millat bolalarini yetuk iste‘dodli qilish uchun jon kuydirdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining millat va Vatan, jamiyat va axloq, ona tili, yangi usul maktablari, komillik tarbiyasi, ta‘lim va sharqona odob, madaniy meros kabi mavzularda 300 dan ortiq maqolalar yozdi.

Maqolalarning o‘ziga xos tarixiy, ilmiy va falsafiy qadriyati beqiyos. Ular bugungi kunda ham juda katta iztirob va ehtiros bilan o‘qiladi. Ularning har birida zalvorli fikrlar aytilgan, olimning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-mafkuraviy, madaniy-ma‘rifiy qarashlari aks etgan. Behbudiyning ko‘p qirrali faoliyatida huquqiy-ijtimoiy, ma‘naviy-mafkuraviy, madaniy-ma‘rifiy tamoyillar ustuvorlik qiladi.

Ulug‘ alloma har qanday huquqiy davlatning negizida adolat va demokratiya, milliy g‘urur va bag‘rikenglik bo‘lishi zarurligini qonuniy asoslagan. Har bir jamiyat o‘z a‘zolarining yetukligi, barkamolligi, salohiyati bilan faxrlanadi. Chunki, komil

insonlar ko‘p bo‘lgan jamiyat ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan gullab yashnaydi. Buyuk ma‘rifatparvar, ulug‘ alloma va jamoat arbobi, o‘zbek dramaturgiyasining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari mustaqillik sharoitida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyaning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Туркистон жадиблик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Бехбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги Қарори. ЎЗА, 2025 йил, 5 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири С.Дониёровнинг саволларига жавоблари. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. “Янги Ўзбекистон” газ. 2021йил, 17 август.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига йўллаган табриги. uza. uz 27. 06. 2020й.
4. Алимова Д. Жадиблик : ислоҳот, янгиланиш мустақиллик ва тараққиёт учун кураш.Т.: 1999.
5. Бехбудий М. Танланган асарлар. “Маънавият”, Т.: 2020
6. Ражабов Қ. Жадиблик – истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари // Ўзбекистон тарихи; янги нигоҳ. Жадиблик ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. - Т.: 1998.
7. Ризаев Ш. Жадиблик рамаси. - Т.: Шарқ, 1997.
8. Қосимов Б. Маслаҳатлар. Т.: 1994.
9. Шарипов Р. Жадиблик адабиётида янгиланиш, ислоҳот ва мустақиллик учун кураш.-Т.: 2005.
10. Қосимов С. Бехбудий ва жадиблик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989. – 3 январь.

EL ARDOG‘IDAGI INSON - AVLODLAR EHTIROMIDA

G‘afforov Shokir Safarovich

SamDU professori, tarix fanlari doktori

(O‘zbek milliy davlatchiligi uchun kurashgan davlat va jamoat arbobi, jadid va ma‘rifatparvar Fayzulla Xo‘jaev tavaluddiga bag‘ishlanadi)

Fayzulla Xo‘jayevdek buyuk insonlar tarixining burilish pallasida muayyan xalq hayotida har yuz- ikki yuz yilda faqat bir marta paydo bo‘ladigan kamyob iste‘dod egalari, daho shaxslardir. Ne baxtki, o‘zbek xalqi qismatida ham XIX asr oxirida Buxoroda tug‘ilgan bu inson muhim o‘rin tutadi. U XX asr birinchi yarmida xalqimizning eng mashhur davlat va jamoat arbobi sifatida tarix sahifalaridan mangu o‘rin egallagan siymodir.

Fayzulla Xo‘jayevdek faoliyati voqealarning borishiga shu qadar katta ta‘sir ko‘rsata olgan, unga baho borishda shunchalik ko‘p qarama-qarshiliklar bo‘lgan, ko‘klarga ko‘targan va nihoyat asossiz yerga urilgan, lekin xalq qalbida abadiy

qolgan biron bir siyosiy arbobni XX asr O'rta Osiyo respublikalari yohud turkiy dunyo davlat rahbarlari orasidan topish qiyin bo'lsa kerak. Uning hayoti ham faoliyati singari murakkab va ziddiyatli kechgan.

Fayzulla Xo'jayev milodiy 1896-yil 1-iyulda Buxoro shahrida amirlik xududidagi yirik savdogar Ubaydullaxo'ja Qosimxo'ja o'g'li (1859-1912) oilasida dunyoga kelgan. Uning onasi – Rayxon Saidmurod qizi (1882-1938) Peshku tumanidagi Zandane qishlog'idan bo'lib, bu mushtipar ayol oddiy dehqon oilasida voyaga yetgan edi.

Fayzulla Xo'jayev yorug' olamga ko'z ochib kelgan payt sharqona muchal bo'yicha maymun yilining saraton oyiga to'g'ri keladi. Yil ag'darib, muchal ko'targanda maymun yilida Alisher Navoiy, Muhammad Xorazmiy, Xoja Axror Vali, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi allomalar dunyoga kelganining guvohi bo'ldik. Saraton oyida esa Fayzulla Xujayevning ikki daho hamyurti: muhaddislar peshvozi Imom Ismoil Buxoriy hazratlari va shayxur rais Abu Ali ibn Sino kabi allomalar tug'ilgan ekanlar. Ushbu mos kelishlar bejiz emasdir. Chunki Tangri taolo saraton oyida tug'ilganlarga ham, maymun yilida tavallud topganlarga ham ayricha iste'dod va qobiliyat ado etarkan.

Fayzulla Xo'jayev bolalik chog'ida eski usuldagi maktabga qatnab savod chiqardi va Buxoro madrasalaridan birida ikki yil tahsil olib, Qur'oni Karimni yod oldi. Fayzulla Xo'jayev o'n yoshidan sal oshganida otasi uni Moskvaga olib boradi. Bu paytda Moskva ko'chalarida birinchi rus inqilobi harakati ham so'nmagan edi. Besh yil Moskvada o'tgan davr (1907-1912) Fayzulla Xo'jaevning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu yerda u xususiy muallimlar qo'lida ta'lim oldi. Bungacha madrasa tahsili orqali Sharq madaniyatidan ancha-muncha xabardor bo'lgan Fayzulla Xo'jaev endi Yevropa va Rossiya urf odatlari, ularning tartiblari bilan tanishdi. U yoshligidanoq o'zbek, tojik, rus tillarini bir xilda mukammal bilar edi. Zamondoshlarining guvohlik berishlaricha Fayzulla Xo'jaev hatto nemis tilida ham o'z fikrini ravon bayon eta olgan. Fayzulla Xo'jaevning atoqli davlat arbobi bo'lib shakllanishida yoshlikda olgan ta'limi muhim o'rin egallagan.

Fayzulla Xo'jayev 15-16 yoshidayoq Mahmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa jadidchilik harakati namoyondalarining asarlarini qunt bilan o'rganib, o'zi ham ular safida bo'ldi. Ayniqsa, unga domla Fitratning asarlari kuchli ta'sir qildi. Fayzulla Xo'jayev shuning uchun ham Bexbudiy va Fitratlarni o'zining dastlabki ustozlari deb bilgan edi.

Ushbu o'rinda Fayzulla Xo'jayevning tarjimai holiga doir muhim bir dalilni keltirib o'tmoqchimiz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida 1925-yilda Fayzulla Xo'jayev shaxsan o'z qo'li bilan rus tilida to'ldirilgan bir qancha anketalardan iborat hujjat saqlanib kelgan. Ushbu nodir hujjat muqovasida "O'zSSR MIK a'zosi Fayzulla Ubaydullaevich Xo'jayevning shaxsiy ishi" deb yozilgan. Bundan 95 yil muqaddam to'ldirilgan "ish" sahifalarini varaqlasak, unda Fayzulla Xo'jayev hayotiga oid juda qimmatli ma'lumotlar mavjud ekanligini ko'ramiz. Fayzulla Xo'jayev yashil siyohda to'ldirilgan anketalarining birida u 1912-yil 16 yoshdan boshlab Buxorodagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashganligi va inqilobiy "Yosh buxoroliklar" firqasi a'zosi ekanligi qayd etadi. Mazkur "ish"dagi qizil siyoh bilan to'ldirilgan boshqa bir anketada u 1913 -yildan boshlab

Yosh buxorolik inqilobchilar firqasi Markaziy Qo‘mitasining a‘zosi bo‘lganligini ham yozadi. (O‘zbekiston MDA, 86-fond, 1-ro‘yhat, 1934-ish, 6-8-varaqlar).

Qisqa muddat ichida yosh Fayzulla Xo‘jayev Buxorodagi jadidchilik harakatining asosiy rahbarlaridan biriga aylandi. 1917-1920-yillar Fayzulla Xo‘jayev hayotida o‘chmas iz qoldirdi. Milodiy 1917- ilon yili jahon tarixida ikkita rus inqilobi sifatida kirdi. Milodiy 1920 -yil 2-sentabrda – maymun yilining sunbula oyida esa Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darib tashlanib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzildi.

1918-yil yozida Fayzulla Xo‘jayev Moskvaga jo‘naydi. Yo‘lda oq gvardiyachilar uni ushlab, hibsga olishdi. Dutovning buyrug‘i bilan u Orenburgda 4 oy qamoqda yotdi. O‘lim jazosiga hukm qilingan Fayzulla Xo‘jaev do‘stlarining yordami bilan katta mablag‘ evaziga qamoqdan qochishga muvaffaq bo‘ldi. Ahmad Zaki Validiy Fayzulla Xo‘jayevning qamoqdan qochishini uyushtirishda ishtiroki borligini keyinchalik o‘z xotiralarida yozib qoldirgan.

Fayzulla Xo‘jayev 1918-yil oktabridan 1920-yilning yanvar oyigacha Moskvada bo‘ldi. Yosh buxoroliklar firqasi Markaziy Qo‘mitasi Moskva komiteti raisi bo‘lib ishladi. Fayzulla Xo‘jayev Moskvada Sovet hukumatining raisi V.Lenin va uning safdoshlari I.Stalin, V.Kalinin, M.Frunze, Ya.Rudzutak, Sh.Elueva bilan ko‘p muloqotda bo‘ldi. Fayzulla Xo‘jaev 1920-yil yanvarida Toshkentga keladi va yangi tashkil topgan inqilobchi Yosh buxoroliklar firqasining Toshkentdagi Turkiston byurosi raisi bo‘lib ishladi.

Buxoro amirigida 1920-yil yozida siyosiy vaziyat juda keskinlashdi. 25-avgustda Turkiston fronti qo‘mondoni M.Frunze Buxoroga hujum uyushtirib, 1920-yil 2-sentabrda Buxoro shahrini egalladi. Buxoro qizil armiya tomonidan armonsiz talandi. Amirning xazinasi M.Frunze va V.Kuybishevning ko‘rsatmasi ila zudlik bilan Moskvaga jo‘natildi.

Tadqiqotchilar arxividagi manbalar asosida Buxorodan hammasi bo‘lib ikki eshelonda (har bir eshelonda 14 tadan vagon bo‘lgan) oltin va qimmatbaho buyumlar olib ketilganligini e‘tirof etishmoqda. Bu boyliklarning umumiy qiymati o‘sha paytdagi narx bilan taxminan 77 million tilla so‘mdan iborat bo‘lgan. Bu mablag‘ni hozirgi bahoga chaqadigan bo‘lsak, taxminan 80 milliard dollarni tashkil qiladi.

Bu voqealarga ham qariyb 100 yil bo‘ldi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan turib, Buxorodagi sentabr fojealariga nazar tashlansa va mushohada etilsa, bir haqiqat oydinlashadi. Buxorodagi amirlik istibdodi haqiqatdan ham kelgusi taraqqiyot uchun to‘siq bo‘lib turadi. Buni mardona e‘tirof qilmoq kerak. Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Yosh buxorolik jadidlar esa mamlakatni yevropacha andozadagi rivojlangan davlat darajasiga ko‘tarish, Buxoroda demokratik tuzum va huquqiy jamiyat qurish uchun chin dildan intilgan edilar.

1920-yil 14-sentabrda bo‘lib o‘tgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi, inqilobiy Qo‘mita (revkom) va Buxoro Kommunistik partiyasining umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi – Abdulqodir Muhiddinov) va respublika xukumati – 11 kishidan tashkil topgan xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi - Fayzulla Xo‘jayev) tuzildi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) davlat tuzumi jihatdan xalq demokratik hokimiyati bo'lgan. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros bo'lib qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Bu ishlarni amalga oshirishda Buxoro hukumatining rahbari Fayzulla Xo'jayev katta rol uynaydi.

Xullas, taniqli davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo'jayevning 1920-1924 yillarni o'z ichiga olgan Buxoro davri alohida ajralib turadi. Bu paytda u bir vaqtning o'zida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Sho'rosining raisi (1920-1924), BXSR tashqi ishlar noziri (1920-1922), harbiy ishlar noziri (1921- 1924), ichki ishlar noziri (1922), BHSR mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922- 1924) kabi mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan edi. (O'zbekiston MDA, 86- fond, 1-ro'yhat, 1934- ish, 9-varaq). Shuningdek, Fayzulla Xo'jayev sharqiy Buxoro inqilobiy harbiy kengashi raisi (1922-1924), SSSR harbiy-dengiz ishlari xalq kommissarligining O'zbekiston SSR bo'yicha rasmiy vakili (1925-yildan) ham Oliy harbiy unvon-komandiri (armiya qo'mondoni: hozirgi armiya generali) unvoni ham berilgan. 1922-yil Fayzulla Xo'jaev BXSR ning "Qizil yulduz" (1-darajali) ordeni bilan mukofotlangan.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki Fayzulla Xo'jaev davlat va jamoat arbobi bo'lish bilan birga mohir diplomat edi. U Eron, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon kabi sharq davlatlaridan tashqari G'arb mamlakatlari Angliya, Germaniya, shuningdek, Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga katta kuch-g'ayrat sarfladi. Buxoro bilan Germaniya o'rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, savdo-sotiq avj oldirilgan. Fayzulla Xo'jayev 1922-yil oktabr-noyabr oylarida Germaniyada bo'lib, turli banklar va kompaniyalar bilan shartnomalar tuzgan. Shu vaqtga kelib u nemis tilini juda puxta bilgan. U talabalarni xorijga jo'natib o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Fayzulla Xo'jayev, Fitrat, Mukammil Burhonovning tashabbusi bilan 100 ga yaqin turkistonlik talaba BXSR hukumati hisobidan Germaniyada, o'nlab talabalar Turkiya va boshqa davlatlarda o'qishgan.

Tarixdan ma'lumki, 1924-yil oxiri va 1925-yil boshlarida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, O'zbekiston SSR tashkil topdi. Fayzulla Xo'jayev bu murakkab davrda O'zbekiston SSR inqilobiy ko'mitasi (Revkom) – Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi (1924- yil noyabr-1925 -fevral) lavozimida ishladi. U 1925-1937-yillarda O'zbekiston SSR Xalq Kommissarlari Soveti raisi va SSSR MIK raislaridan biri bo'ldi.

Fayzulla Xo'jaev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston kompartiyasi MKga nisbatan muxolifat mavqeida turgan o'n sakkizlar guruhi (1925-yil noyabr)ning g'oyaviy bo'lgan quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan, O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakka hokimligiga olib keladi deb hisoblagan. F. Xo'jaev O'zbekistonning ishlab chiqarish kuchlarini o'rganishga bag'ishlab Leningradda o'kazilgan maxsus ilmiy konfrensiyada (1932 -yil 19-28-dekabr) qilgan ma'ruzasida O'zbekiston manfaatlarini ko'tarib chiqqan. Sport inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan.

Fayzulla Xo‘jayevning faoliyati nihoyatda ko‘p qirrali edi. Fayzulla Xo‘jaev davlat arbobi, tarixchi va iqtisodchi olim, publistik-jurnalist sifatida o‘zbek va rus tillarida o‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan. 1925-1935-yillarda uning 16 ta kitobi va 200 dan ortiq maqolalari nashr etilgan. Xususan uning “Buxoro inqilobining tarixiy materiallari” (1926), “Buxorodagi revolyusiya va O‘rta Osiyoning milliy chegaranishi tarixiga doir” (1932), “ O‘zbekiston yuksalishda” (1936) kitoblari va ruscha yozilgan “BXSR dagi iqtisodiy ahvol”(1924), “ Yosh buxoroliklar to‘g‘risida”(1926), “Jadidlar“ (1926), “Bosmachilik” (1930) maqolalarida O‘zbekiston tarixining XX asr birinchi choragidagi jiddiy muommolari yoritilgan edi.

Fayzulla Xo‘jaev XX asr sovet davrida nafaqat O‘zbekistonda, balki O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublikalari siyosiy doiralari orasida yetishib chiqqan eng yetuk zakovatli davlat arbobi edi. 42 yillik umr ko‘rgan bo‘lsa shundan 17 yil davomida Buxoro jumhuriyati va O‘zbekiston SSR hukumatlarini boshqardi. Afsuski F.Xo‘jaev 41 yoshga ham to‘lmagan bir paytda qatag‘on qilindi. Falakning sir-asrorlarini qarangki, 24 yoshida Buxorodagi inqilobga yetakchilik qilib, Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosining raisi bo‘lgan (tarixda bu yoshda sulolalar vakillaridan tashqari, hokimiyat tepasiga kelgan boshqa biror bir davlat arbobi topilarmikan). Oradan 4 yil o‘tib O‘zbekiston jumhuriyati tashkil topib uning birinchi hukumat boshlig‘i lavozimini egallagan (1925-1930 yillar). Bu fidoyi inson o‘zi xizmat qilgan mafkura tomonidan o‘limga hukm qilinib, bu hukm yana kommunistik e‘tiqod o‘chog‘i qizil Moskvada amalga oshirilsa! Ehtimol, Fayzulla Xo‘jaevning ulkan baxti ham, mislsiz fojiasi ham shundadir.

O‘zbekiston Kompartiyasining VII syezdi (1937-yil 10-17 iyun) da Fayzulla Xo‘jayevning “millatchilik” faoliyati fosh etilgach, u VKP (b) va SSSR rahbari I. Stalin bilan uchrashish uchun oilasini oldi va Moskvaga jo‘nab ketdi. Biroq I.Stalin uni qabul qilishdan bosh tortdi. Fayzulla Xo‘jaev 1937-yil “Natsional” mehmonxonasida qamoqqa olindi va Lefortovo qamoqxonasiga tashlandi. Unga hokimiyatga qarshi aksilsovet o‘ng troskiychi blok faoliyatiga qo‘shilganlik hamda “Milliy Ittixod” yashirin tashkiloti faoliyatiga 1921-1924-yillarda rahbarlik qilganlik “bosmachilik” harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlik kabi ayblovlar qo‘yildi. Uzoq davom etgan qiynoqlardan so‘ng Akmal Ikromov, N.Buxarin, A.Rikov va boshqalar 17 kishi bilan birgalikda Fayzulla Xo‘jaev ham SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining qarori bilan otishga hukm qilindi. Hukm Moskva atrofidagi Butovo qishlog‘ida 1938 yil 15 mart kuni ijro etiladi. Yana 4 kishi uzoq muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi.

Sovet rejimining qatag‘on siyosati Fayzulla Xo‘jayevning ulkan xonadonini ham chetlab o‘tmadi. Fayzulla Xo‘jaev qamoqqa olingach, uning qaramog‘idagi katta xonadon a‘zolari (16 kishi) ham sovet rejimi tomonidan qatag‘on qilindi. Fayzulla Xo‘jaevning onasi Rayhon Saidmurod qizi, rafiqasi Malika Muhammadjon qizi Xo‘jaeva (1903-1957), qizi Viloyat Xo‘jaeva (1921-1987 yy.)

qamoqqa tashlandi (1937-yil sentabr – oktabr). Uning opasi Robiya Xo‘jaeva (1885-taxminan 1962), yangasi Alina Xo‘jaeva va jiyanlari hamda asrandi o‘g‘li va qizi qo‘lga olinib turli joylarga surgun qilindi, ayrimlari qamoqxonaga tashlandi. Ularning ko‘pchiligiga O‘zbekistonni qayta ko‘rish nasib etmadi. Akasi Ibodulla Xo‘jaev tazyiqlarga chiday olmay 1936-yil o‘zini otib o‘ldirgan edi. Totalitar sovet rejimi o‘zining mudhish siyosatini Fayzulla Xo‘jayev va uning xonadon a‘zolarini qatag‘on qilish orqali yana bir bor namoyish etdi.

Chex adibi Echon Ervin Kish 1934-yilda bunday deb yozadi: “Buxoro kelganimdan keyin meni Fayzulla Xo‘jaev qiziqtdi. Fayzulla Xo‘jayevning boshiga shunchalik ko‘p oltin va‘da qilingan ediki, dunyodagi biron bir bosh shunchalik yuqori narxlanmagan edi”. O‘shanda yozuvchi bu oltin boshni-amir sarbozlari kesolmagan, “bosmachilar” qilichi chopolmagan, oq gvardiyachilar o‘qi o‘tmagan. O‘n marta ajaldan omon qolgan afsonaviy boshni “odil sovet qonunlari” osongina tanidan judo qilinishi, uni Moskvaning allaqachon kunjiga janovasiz ko‘mib yuborishlarini payqaganmikan?... Shunday daqiqalarda alam va iztirob ila el ardog‘idagi O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning quyidagi misralari yodimizga tushadi:

*Sizni qiynagan kim, Sizni sotgan kim,
Sizni otganlar kim – bilmaydi, hech kim,
Siz ketgan tarafdin kelmaydi hech kim,
O‘zingiz qaydasiz, Fayzullo bobo?..*

*Yurakka sanchilib ag‘yor otgan o‘q,
Yotarsiz yerga ham ozoringiz yo‘q.
Yo‘qlab boray desak mozoringiz yo‘q,
O‘zingiz qaydasiz, Fayzullo bobo.*

1965-yil 6-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi Fayzulla Xo‘jaevni aybsiz deb topdi va oqladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning xotirasini abadiylashtirish yo‘lida olib borayotgan siyosatini amalga oshirish yo‘lida Fayzulla Xo‘jayev faoliyatini o‘rganish, siyosiy arbobning xotirasini abadiylashtirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi poytaxti bo‘lgan Samarqandda (1925-1930 yillar) Fayzulla Xo‘jaev 1925-1930-yillarda yashagan hozirgi Zafarnoma ko‘chasi 1 uy (Vereshagin) joylashgan binoni qayta rekonstruksiya qilgan holda Fayzulla Xo‘jaev uy-muzeyini tashkil etish;

2. Fayzulla Xo‘jaev yashagan hozirgi Zafarnoma ko‘chasiga Fayzulla Xo‘jaev nomini berish;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598 son Farmoyishi hamda qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xavfsizlik xizmat arxivlaridagi muomalaga kiritilmagan arxiv hujjatlari asosidagi ma’lumotlarni kiritgan holda Fayzulla Xo‘jaevning tanlangan asarlarini qayta to‘ldirilgan holda nashr ettirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Izoh: Ushbu maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi fondlaridan, O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi, Fayzulla Xo‘jaevning tanlangan asarlari, shuningdek, tarixchi olimlar D.A.Alimova, Qaxramon Rajabov, Sulaymon Inoyatov va boshqalarning tadqiqotlaridan foydalanildi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY - TILSHUNOS OLIM

**Karimov Suyun Amirovich,
SamDU professori
Raxmatova Dlafruz Nusratilloevna,
Zarmed Universiteti dotsent**

Annotatsiya: Maqolada jadidlarning, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek tilining rivojlanishi, sayqal topishi haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, olimning funksional-uslubshunoslikning shakllanishidagi xizmatlari bayon etiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Usuli savtiya” jadid maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yozilgan “Kitobat ul-atfol” darsligida rasmiy uslubga xos xat va maktublarning yozilishi, tuzilgan “Loyiha-proektlar” da esa dastlabki siyosiy partiyalarning nizomlari ko‘rsatilishi ahamiyatga molik. Behbudiyning o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, uning adabiylikiga hamda rasmiy ish yuritish vositasiga aylantirilishiga erishish, funksional uslublar doirasidagi qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, arab, fors-tojik, rus va boshqa tillarga oid birliklarning milliy til lug‘at tarkibida me‘yorlashuvi, til ta’limining metodik jihatlariga oid qarashlari lingvistik ta’limotning tarkibiy qismlari edi.

Maqolada, shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi ham tahlilga tortilgan.

Annotation: The article analyzes the views of the Jadids, in particular Mahmudhoja Behbudi, on the development and improvement of the Uzbek language, and also reveals the contribution of the scientist to the formation of functional stylistics. It is important that Mahmudkhoj Behbudi's textbook "Kitobat ul-atfol" for primary school students of the "Usuli savtiya" Jadid schools contains writing of letters and epistles in the official style, and the "Projects" compiled contain the statutes of the first political parties. Behbudi's efforts to give the Uzbek language the status of the state language, to achieve its literary status and

transformation into a means of official business, to determine the features of its use within the framework of functional styles, to standardize units related to Arabic, Persian-Tajik, Russian and other languages in the national language vocabulary, and to view the methodological aspects of language teaching were components of linguistic teaching.

The article also analyzes Mahmudkhoj Behbudi's drama "Padarkush".

Kalit soʻzlar: rasmiy uslub, publitsistik uslub, soʻzlashuv uslubi, darsliklar tili, jadidlar, sodda til, til taʼlimi.

Keywords: official style, journalistic style, colloquial style, textbook language, Jadids, simple language, language education.

Jadidlarning oʻzbek milliy nutqi madaniyatini rivojlantirishda oʻziga xos oʻrni bor. Ularning bu boradagi qarashlarini bir tomondan milliylikka asoslangan taʼlim usullari va zamonaviy pedagogika taʼsiridan ajratib qarab boʻlmaydi. Nutq madaniyatiga sohiblik malakalari taʼlim va tarbiya jarayonlarida shakllantiriladi. Dunyo tilshunosligida tildan toʻgʻri va mahorat bilan foydalanish qoidalarini oʻrgatish, yaʼni "...madaniy nutq tuzish yoʻllarini koʻrsatish bilan shugʻullanadigan soha til didaktikasi yoki lingvodidaktika nomi bilan ham yuritiladiki, bunda nutq madaniyati va pedagogikaning bir qismi boʻlgan didaktika oʻrtasidagi zich aloqa yaqqol namoyon boʻladi"¹.

Mahmudxoʻja Behbudiy oʻzbek lingvodidaktikasi qatori tilimiz meʼyorlashuvi, nutq madaniyati rivojiga ham munosib hissa qoʻshdi. Professor S.Karimov "Behbudiy – oʻzbek tilining jarchisi" maqolasida allomaning nutq madaniyati va til meʼyori masalalariga ham alohida eʼtibor berganligiga toʻxtalib oʻtadi. Muallifning qayd etishicha, Behbudiy 1908-yilda yozgan "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar kitobi") darsligida til amaliyotiga eʼtiborni qaratib, yozma nutqdagi, xususan, maktublardagi meʼyoriy holatlarga doir mulohazalarini bayon qiladi. Taʼkidlaydiki, yozadigan kishi oʻz muddaosini yaxshi tushunsin, bilmaydigan soʻzni yozmasin, yozuvda imlo qoidalariga rioya qilsin, chet soʻzlarni qoʻllashdan tiyilsin, oʻqiydigan odamni ham hisobga olsin, sodda va tushunarli yozsin².

Ushbu darslikning faksimilesidan foydalangan holda taʼkidlash lozimki, Behbudiy maktub, xat, rasmiy xat, javob xati kabi rasmiy hujjatlarning yozilish tartibini juda qulay tartibda oʻquvchilarga misollar tariqasida keltira olgan. Oʻz yaqinlariga yoziladigan maktublarning rasmiy idoralarga yuboriladigan xatlardan keskin farq qilishi, turli xatlarda ishlatiladigan tinish belgilardan foydalanish tartibi haqida ham batafsil maʼlumot keltirgan³.

Ushbu darslik xat va maktub yozish tartiblari, davr punktuatsion belgilari xususida aniq maʼlumot bersa-da, darslik "Muqaddima"si tili va matnlar tili keskin farq qiladi. "Muqaddima"da Turkiston maktablari uchun yaratilayotgan

¹Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007. – Б.38.

²Каримов С. Беҳбудий – ўзбек тилининг жарчиси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2002. – Б.34-37.

³Беҳбудий Маҳмуд Хўжа. كتابتالاطفال (Китобат ул-атфол). – Самарқанд: Типо.литографін. Т-во "Б.А.Газаровъ", 1914. – 31 б.

darslikning ahamiyati, qaysi yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, xat va maktub yozish qoidalari jadidlarning o'zlari ta'kidlaydigan "umumturkiy til"da berilgan. Unda qorishiq tilni kuzatish mumkin, ya'ni arab, fors-tojik tilidan olingan so'zlar, iboralar bilan birga ozarbayjon va turkcha so'zlar ham uchraydi. Gapning sintaktik qurilishi ham bunga dalolat beradi. "...shogirdlar ibtidoiy maktabg'a kirib, qalam yurguzgonidan so'ng har nav maktub ta'lim olmoq ila batadrij usuli tahrir va kitobati zamoniya va mahalliy ham adabiyoti milliy tahsilini boshlab, bora-bora tahsillarini oxirig'acha mahorat etadurlar". "Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda, o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib, so'ngra yozsa kerak".

"Muqaddima"dan keltirilgan birinchi misolimizda arab, fors tillaridan o'zlashma so'zlarning ko'pligi va gap tuzilishining murakkabligi ko'rinib turibdi. Ikkinchi gap tuzilishi esa bugungi kun o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Chunki ushbu gap "Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda, shu muddaoni o'zi yaxshi tushunib olishi kerak" shaklida me'yorlashgan.

"Muqaddima"da berilayotgan tilshunoslikka oid termin, grammatik qonun-qoidalar, harflarning yozilishi, chetdan kirib kelayotgan so'zlarning qo'llanishi, unda arab yozuviga xos bo'lgan harakatlarning qo'yilishi haqida ma'lumot berar ekan Mahmudxo'ja Behbudiy tilshunos olim sifatida bir muhim narsani ta'kidlaydi. Uning til borasidagi fikrlari ana shu ta'limotida ham namoyon bo'lgan. "Maktabimizni asosi bolalar va barcha talaba toqatincha "tavhidi lison" ta'mim va tafhim maktuboti turkiya va forsiyadan iboratdur". Ma'lumki, matbuotda o'zbek tili tarkibidan arab, fors-tojik tillaridan olingan so'zlarni chiqarib tashlash masalalari ko'tarilayotgan edi. Behbudiyning 1910-yillargacha yozilgan asarlari tili ham ana shunday "qorishiq" tillar ta'sirida bo'lgan. Ayrim ziyolilar undan soddaroq, jonli xalq tilga yaqinroq yozishni taklif etishgan. Behbudiy ushbu darslikda shu taklifni inobatga olganligini, berilayotgan mashq va matnlar xalq tiliga yaqinroq qilib yozganligini ta'kidlaydi. Shunda ham, "...yozilaturgon so'zlar ichiga har kim bilmayturgon lug'at mumkin qadarincha yozmasga va inchunin, avomcha va ko'chagi iborat va ayb sanalaturgon kalima va laqablarni yozmasga kerak", deb ta'kidlaydi.

Maktub yozilishida kishilar nomiga uning kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, axloqi, tashqi ko'rinishi bilan bog'liq laqablar qo'yilishiga qarshi keskin fikrlarni bildiradi. Hatto, hukumat doirasida, sud "hukmnoma"larida shunday holatlarning borligi uni tashvishga soladi. O'sib kelayotgan yosh avlodga nafaqat tilshunoslikka oid ta'lim berilgan, balki odob-axloq yuzasidan ham tarbiya berilganligini kuzatish mumkin. "Maktubg'a haqorat, ta'na, hazl, fisq va gunohga taalluq so'zlar aslo yozulmasun", deb ta'kidlab o'tadi.

Darslik tarkibida berilgan maktub namunalari tili oddiy. U bolalar zehni uchun "yengil suratda" bitilgan.

NAMUNA XATLAR

Ulug' tangrim oti ila mehribon otajonim xizmatlarig'a

*Tangrim, soyai davlatingizni boshimdan o'ksik etmagay, aziz qiblagohim!
Bu oqshom uyga janobi xalifamning ziyofatga taklif qildim. Onajonim dedilarki,*

go'sht va birinch yo'qdur, marhamat qilib taomga keraklik nimarsalarni olib xizmatkordan yuborsalar, xursand bulo'r edim, afandim.

To'g'ri, xat matni tarkibida arab, fors-tojik, turk tilidan olingan ayrim so'zlar uchraydi. Ular ma'lum vaqt o'tgach qo'shimcha qo'shish orqali o'zbek tilining lug'at tarkibiga kiritilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston maktablari uchun yozilgan "Tarixi Islom" darsligida ham shunday holatni kuzatish mumkin⁴. "Maqsad" ("Muqaddima" shunday yozilgan – D.R.) umumturkiy tilga xoslangan. *"Ma'lum ulvalo basar durki zamoni hoziraning biljumla balad islomiyasi, ya'ni Misr, Arabiston, Istanbul, Hind, Qafkaz va Qozondagi barcha mintadin maktablarida tarixi islom av o'qutmoq ko'pdan beri joriydur. Nakkax faqot olami islom makotibig'a tarixi din o'qutmoq odat bo'lsa, balki umummillatlar xud natarav.....farqi bo'lsun o'z maktablarida tarix maqsad nomida tarix dinlari va ahvol anbiyo etib o'qulub, har bir nasr va nomrai bahud shogirdlari o'z dinining badont va tashkilidan ogoh va vafoti tarixidan xabardor bo'lub ko'zi ochilur"* kabi.

Darslik ichida berilgan kichik matnlar o'quvchilar tushunishi uchun qulay tilda yozilgan. Unda olamning paydo bo'lishi, quyosh, oy, yulduzlarning joylashishi, yerdagi quruqlik, suv havzalari joylashishi haqida hikoya qilinadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlari bilan bog'liq ibratli hikoyalar, u kishining shajaralari, Islom dinining paydo bo'lishi va tarqalish hududlari, Makka va Madina shaharlarining joylashishi va boshqa islomiy tushunchalar kichik matnlarda o'z aksini topgan. Darslikning qulay tomoni shundaki, har bir matn so'ngida "Tamarinot" ("Savol va topshiriqlar" – D.R.) berilganligi o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. *"Qur'on necha yilda nozil bo'ldi?", "Musulmonlarga kimni qo'shulganidan so'ngra nomoz va azonni oshkora o'qudilar?", "Hazratni quvishlaridan so'ng necha yilda payg'ambarlik keldi?", "Ka'bani kim bino etgan?", "Hazratni kim tarbiya etdi?"* kabi.

Har ikki parchaning tilida keskin farq borligi ko'rinib turibdi. Darslik "Muqaddima"lari Ismoilbek Gaspiralinig g'oyasiga ko'ra "umuturkiy til"da yozilishidan maqsadni tushunish mumkin. Samarqand jadid maktablari vakillari o'zlari tuzgan darsliklarning Rusiya musulmonligi bo'ylab tarqalishiga ishonishgan yoki shunga harakat qilishgan. Lekin matnlar mahalliy o'quvchilarga tushunarli, o'z ona tillarida (shevalarida) yozilishini nazorat qilishgan. Bola tilni onadan o'rganar ekan, boshlang'ich ta'lim tili ham onalar tiliga moslangan bo'lishi kerak.

XX asr boshlaridagi darsliklar tilini pedagogik jihatdan tahlilga tortgan D.Yo'ldosheva to'g'ri xulosalar beradi. "...maktab darsliklari, "Muqaddima"larda, maqolalarda bu *sun'iy tilga* ("umuturkiy til" nazarda tutilmoqda – D.R.) tayanishga harakat qilingan bo'lsalar-da, haqiqatda asosiy tahlil va bolalarga o'rganishga mo'ljallangan matnlarni o'zbek adiblarining an'analari hamda mahalliy shevalarga tayangan holda yozganlar"⁵ Olima ta'lim tilini tahlilga tortar

⁴Махмудъ-Хаваджа бинни Бегбудъ-Хаваджа. Исторія Ислама. Краткій первый выпускъ. Типо-Литографія Т-во "Новое Дѣло" въ Самаркандѣ. 1909. – Б.41.

⁵Йўлдошева Д. Махмудхўжа Бехбудий ва таълим тили. М.Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2014. – Б.123.

ekan, umumturkiy til nazariyasi davlat siyosati natijasida vujudga kelganligini e'tirof etadi.

Jadidlarning asosiy maqsadlari mahalliy xalqni savodli qilishdan iborat bo'lgan ekan, har qanday yo'l bilan bo'lsinda, tuzgan darsliklari mavjud senzura o'tishini xohlashdi. Shu bois, darsliklar "Muqaddima"si tili umumturkiy tilda, matnlar esa sodda, oddiy va tushunarli tarzda yozildi⁶.

XIV-XVII asr adabiy tilida uning soddaligi, ommaga tushunarli bo'lishi uchun boshlangan kurash XIX asrning ikkinchi yarmi XX boshlarida avj pallaga chiqdi. Jadidlar tilning nafaqat soddaligi va aholining barcha qatlamlari uchun tushunarli bo'lishiga harakat qildilar, balki ta'lim tilining nomini "o'zbekiy" deb atalishiga erishdilar. Ular adabiy til bilan jonli til teng emasligini isbotlab, darsliklar tilini jonli tilga – ona tiliga moslashtirishga harakat qildilar.

Behbudiyning o'zbek tilidagi kitobiy va so'zlashuv uslublarini bir-biridan ajratganligini ham anglash mumkin bo'ladi: *"Turkiston, Buxoro, Xiva, Turkiston Afg'oni va Koshg'ar o'lkalaridagi turkcha shevasi doxil o'n qadar buzuq va tuzuk lahjaga ayrilib, ammo bu lahja ila so'zlayturgonlarning har biri boshqasini so'ziga tushunadurlar. Kitobatg'a kelsak, bugung'acha Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o'z lahjasig'a muvofiq yozsa ham, bir-birig'a qaribdur"*.

Behbudiy tilning funksional uslublarini farqlaganligini uning quyidagi fikrlaridan ham anglash mumkin bo'ladi: *"Sodda til nima uchun kerak? Atrofndagi qavm-u qarindoshi ilan so'ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag'a kerak? Mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun"*.

Mutafakkir bu muammoning ikkinchi tomoni haqida ham mulohaza yuritadi. Arab va forslarning nafaqat tili, balki ilmi, hunari va madaniyati ham ustun ekanligi barobarida turkiy xalqlarda bu sifatlarning kam ekanligidan afsuslanar ekan, qozoq tilini misol qilib keltiradi: *"Qozoq shevasinda kelganda, eng sodda turkiy va sahroyi, ya'ni ibtidoiy tilni ko'rarmiz. Ammo na foyda? U til ila ilmiy va ijtimoiy va fanniy kitoblar yozib yetkurib bo'lmaydur. Masalan, qozoqqa bir rushdiy maktab ta'sis edilsa, jo'g'rofiya, hikmat, tarix, handasa va xay'atg'a o'xshash kitoblarni tasnif etilmog'i qozoqiy va yoinki har bir sahroyi tili va, hatto, tatar shevasini lug'at va masolih yetkurolmasligi ma'lumdur. Fanniy kitoblar nari tursin bir sayohatnoma yozmoqqa va zamoniy muhim ba'zi risolalarni tarjimasig'a so'z yetkurolmaydur"*⁷.

Mushohada va mulohaza qilishda davom etar ekan, Behbudiy Turkiston va O'rta Osiyo xalqlari orasida nufuzli hisoblangan o'zbek tilining ahvolini ham tahlil qiladi. Alisher Navoiy asarlarini ushbu tilning muhim kitobi sifatida yodga olib, xalqning bu tilni buzayotganligidan afsuslanadi. *"Buzmoq nari tursun, – deb yozadi u. – Turkistonning har bir shahrining va, hatto,, ba'zi bir qasaba va ko'ylarining shevasi boshqadur. Masalan: anda, munda, shundani "ul yerda, bul*

⁶Raxmatova D. Til o'rganishning foydasi.//Til va adabiyot ta'limi.– Xalqaro jurnal.– Toshkent, 2023.- 12-15 b.

⁷Behbudiy "Turkiston viloyatining gazetisi" 1906-yil 12-aprel sonida bosilgan "Samarqanddan maktub" maqolasida ham kitobni avom tilida yozib bo'lmashligini, yozilganda ham barcha avomlarning tushuna olmasligini, ularga "biroz adabiy-arabiy iboratlar qo'shulgan"i o'zidan avval o'tgan mualliflarning ham odati bo'lganligini aytgan. Qarang: Бехбудий М. Тил масаласи // Танланган асарлар, II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.244-245.

yerda, shul yerda; o'lda, bo'lda, sho'lda; etta, betta, shetta; o'rda, bo'rda, sho'rda; o'ra, bo'ra, sho'ra kayfiyatida so'ylaydurgon shaharlar bo'lub, munday buzug so'zlarni nav'i va adadi juda ko'pdur".

Behbudiy Turkistonda adabiy til hanuz bir me'yorga keltirilmayotganidan afsuslanadi. Sheva va lahjalar birlashib, me'yorlashtirilgan adabiy til asosida so'zlash va yozish lozimligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham maqolaning muhim bir qismini tilni mumkin qadar soddalashtirish va adabiyashtirish borasidagi qarashlari tashkil etadi. Rusiya va Kavkaz musulmonlari matbuotini taqqoslab o'rganishi, "Vaqt", "Sho'ro", "Yulduz" jurnallarini solishtirishi natijasida ularning matbuot tili so'zlashuv tilidan (muallif uni *ko'cha tili, avom tili, sodda til* degan nomlar bilan ataydi – D.R.) bir necha daraja yuqori ekanligini va kun sayin takomillashib borayotganini qayd etadi.

Matbuot nashrlarini, ilmiy asarlarni so'zlashuv tilida yozish mumkin emas. Ilm-fan va kasb-hunar rivojlanib bormoqda. Hozirda narsa-hodisalarni o'zga tildagi nomlar bilan atamoqqa majbur bo'lmoqdamiz. Ularni o'z tilimizda ifodalash uchun narsalarga turkiy nom qo'yadigan jamiyatlar barpo etish lozim.

Binobarin, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ham shu maqsadda yozilgan asardir. Ammo muallifning oldida qator muammolar turgan. Hali o'zbek dramaturgiyasining shakllanmaganligi, dramatik asarlar yozish borasida tajribaning yo'qligi, xalqimiz bu kabi sahna asarlarini ko'rishga tayyor emasligi kabilar ana shunday omillardan hisoblanadi.

Bunday asarni yaratishning o'z talablari bor, albatta. Eng avvalo, asar sodda xalq tilida yozilgan va omma uchun tushunarli bo'lishi kerak edi. Ammo asar yozilgan paytlar – XX asrning boshlarida Turkistonda, bir tomondan, arab yozuvining amalda bo'lganligi, ikkinchi tomondan, dinga qarshi kurash niqobi ostida bu yozuvda yaratilgan ilmiy va badiiy merosning o'rganilishiga ta'qiq qo'yilganligi vaziyatni murakkablashtirib qo'ygan edi. Xalqning jonli so'zlashuv tili bilan matbuot va badiiy til o'rtasida ma'lum ma'noda tafovutlar paydo bo'lgan edi.

Masalan, Behbudiy asarni yozish bilan xalqqa yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oyalari va fikrlarini badiiy obrazlar – Ziyoli va Domla nutqiga ko'chirdi.

Drama qahramonlarini ko'zdan kechirib, "Padarkush"dagi har bir obraz ham badiiy, ham til jihatdan puxta ishlangan, degan fikrga kelamiz. Ularning har biri o'z tili va gapirish uslubiga ega. Masalan, dramadagi Ziyoli obrazini olaylik. Ziyoli ruscha o'qigan, turmush tarzi ham ruscha deyish mumkin: yevropacha kiyinadi, papiros chekadi va hokazo. Ammo muallif asosiy urg'uni uning millatchi (millatparvar) musulmon ekanligiga beradi. Bu obraz haqidagi dastlabki taassurotlar ana shu tasvirlar sababli paydo bo'lsa, uning to'laqonli tasavvuri nutqi orqali yuzaga chiqadi. Behbudiy o'z davridagi zamon ruhiga moslashib borayotgan avlodga xos xususiyatlarni shu obraz xatti-harakatlari, nutqi, atrofdagilarga munosabati orqali ochib berishga intiladi.

Sahnaga kirib kelishidanoq salom berishi va boyga "janob boy", "boy afandi" deb murojaat qilishining o'zi uning madaniyatli va o'qimishli kishi ekanligiga ishora qiladi: – ZIYOLI. **Janob boy**, sizni kayfsiz ko'raman, mumkinmi sababini bilsam? **Boy afandi**, sizga malol kelmasun, ushbu to'g'ridin men ham

sizga qachonlardur bir necha soʻz aytmoqchi edim kabi.

Ziyoli obrazi rus tili taʼsiri kundan kun ortib borayotgan davrdagi yoshlarning badiiy qiyofasi.

Ziyoli nutqida qoʻllanilgan ruscha, arabcha soʻzlar, forsiy izofalar uning maʼnaviy-maʼrifiy qiyofasini tomoshabin koʻz oʻngida shakllantirib boradi. *Doktor, zakoʻnchilik, injener, sudy*a kabi ruscha soʻzlar dastlab ana shu qahramon tilida qoʻllaniladi. Yana: *Ah-ha, qiziq va **interesniy** hodisa emish (odamlarga qarab), bu shaharda boylarga amri maʼruf qilaturgʻon mulla bor ekan, Xudoga shukr.*

Ziyoli tilida keltirilgan *zakoʻnchilik* soʻzi *zakon* soʻzining rus tilidan shundayligicha qabul qilingani va oʻsha davr tilida tezda ommalashgani, undan yangi soʻz yasashga ulgurilganidan dalolat beradi: ...**gimnaziya** va *shahar maktablarini oʻqub tamom qilgʻonlaridan soʻng Peterburgʻ, Maskov dorulfununlariga yuborib, doktorlik, zakoʻnchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi sanʼat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni oʻqutmoq lozimdir.* Matndagi *gimnaziya* soʻzi ham Oʻrta Osiyo xalqlari hayotiga ruslar aralashuvining ilk davrida ommalashgan til birliklaridandir.

Ziyoli, bir tomondan, arab va fors tillarini bilgan, diniy dunyoqarashga ega boʻlgan, ikkinchidan, hayotga shiddat bilan kirib kelayotgan rus tili, ruscha urf-odatlar taʼsirida ulgʻayib borayotgan shaxs. Ziyoli nutqidagi arabcha soʻzlar, forsha qurilmalar esa uning diniy ilmlardan xabardor ekanligiga ishoradir. *Olimi diniy, olimi zamoni*y, *zaruriyati diniya, ummati islomiya, kamoli nodonlik* jumalari ham shu ziyolining tilida qoʻllaniladi: *Bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri **olimi diniy**, digari **olimi zamoni**y. Olimi zamoni*y boʻlmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, **zaruriyati diniya** va oʻz millatimiz tilini bilaturgondan soʻngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur. Al-on biz – Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha oʻqub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy formasida yursa, masxara qiladurlar, agar izvoschiklik va yo qora mehnatkash boʻlub, ovrupolilarning eski libosini kiysa va oʻyinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydurki, bu **kamoli nodonlik** va dunyodan xabarsizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki? Ilohi, Xudoyo! **Ummati islomiyaga**, xususan, biz – turkistonlilarga rahming kelsun!.. (Roʻmoli ila koʻz yoshini artib chiqib ketar) kabi.

Bulardan tashqari, dramadagi Ziyoli tilida qoʻllanilgan *kayfsiz koʻrmoq, mavquf boʻlmoq, amri maʼruf qilaturgʻon, ul janobi haqqoniy domullo, muddaoni tabdil qilmoq, qasd etmoq, saʼy qilmoq, hukmfarmo, xun begʻayri haqqin qilmoq, faqru zarurat* singari jumalalar ham uning tili oddiy xalq tilidan muayyan darajada farq qilishligini va ifoda uslubining bir qadar yuqori ekanligini dalillaydi: *Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni oʻqutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo **hukmfarmo** boʻlsa kerak* kabi. Bu kabi soʻz va jumalarni, odatda, oddiy xalq ishlatmaydi.

Ziyoli tilida qoʻllanilgan soʻzlarning yuqorida tahlil qilingan qismi uning maʼnaviy qiyofasini yoritish, nutqiga rasmiy tus va koʻtarinki ruh berishga xizmat qilgan boʻlsa, ikkinchi bir qismi badiiyatni, maʼnoning va ayrim oʻrinlarda taʼkidni kuchaytirishga xizmat qiluvchi poetik vositalar hisoblanadi. Masalan, quyidagi *Biz*

– musulmonlarga alalxusus. Bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy, **digari** olimi zamoniyy gapida ishlatilgan forscha-tojikcha soʻz – digar elementi matnga oʻta rasmiy tus berish bilan birga ekspressivlik ottenkasining kuchliligi bilan ajralib turadi.

Asarda obrazlarning bir-biriga munosabati, til birliklarni qoʻllash mahorati dialogik nutq jarayonida namoyon boʻladi.

Xullas, Mahmudxoʻja Behbudiy Ziyoli tilidan oʻz maslaklarini ifoda etadi, ayni paytda, badiiy obraz sifatida uning shaxsiyatini ham saqlab qoladi. Bu esa Ziyoli qoʻllagan soʻzlarda aniq maʼlum boʻlib turadi: *Rusiya **vatanina** va **davlatina bilfeʼl** sherik boʻlmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim, toki maishati ehtiyoji zamonamiz toʻgʻrisida vatan va **millati islomga** xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf etkurulsa va ham **davlati Rusiyaga** sherik boʻlunsa kabi.*

Shu maʼnoda Ziyolining drama finalida – oʻz otasini oʻldirgan padarkushning qilmishlarini koʻrib aytgan gaplari nihoyatda taʼsirlidir: *ZIYOLI (Kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odamlarga qarab). Ilm va tarbiasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi oʻqutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir boʻlmas va bular ichkilikni **boʻyla ichmasdan, xun begʻayri haqqin qilmas** edi... **Oh, haqiqatda boyni oʻldirgan beilmlikdur.** Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgon tarbiasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, **faqru zarurat** va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir. **Dunyogʻa taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi.***

Dramadagi ikkinchi jiddiy obraz – Domla obrazi. Xuddi Ziyoli kabi dramadagi Domla obrazi ham maʼrifatli kishi, islom dini, ilm ahli namoyandasi va targʻibotchisi sifatida namoyon boʻladi. Boy bilan boʻlgan suhbatda oʻgʻlini oʻqitishga daʼvat qiladi. Paygʻambarimiz (s.a.v.) hadislaridan iqtiboslar keltiradi: *oʻqumoq farz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur, – deydi. Agarda oʻgʻlingizni oʻqutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizga savob boʻlur. Shariat ilmi va zaruriyati diniya bilmoq uchun boyvachchani oʻqutmoq albatta sizgʻa lozimdur, – deb nasihat qiladi. Oʻqimagan boyvachchalarni koʻramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor boʻlur, binobarin, oʻgʻlungizni oʻqutmoqni sizgʻa taklif qilurman, tarzida qatʼiy fikr bildiradi.*

Uning nutqidagi gap qurilishi ham ziyolining nutqi kabi ilmiy va rasmiy uslublarga xoslangan: *Xudo umr bersun, usuli jadida maktabigami oʻqiydur yoinki eski maktabga?* kabi. Ayni paytda, *mullo, namoz, musulmonchilik, savob boʻlmoq, shariat ilmi, zaruriyati diniya, nauzambilloh, oxirat, farz, amri maʼruf, inshoolloh, alifni tayoq demoq, gunohkor boʻlmoq, musibat, jaholat, qurboni jaholat, Olloh sabr bersun* singari soʻz va iboralarning qoʻllanilganligi bilan farq qilib turadi. Oʻtmishda bu kabi harakatlarning amalga oshishi madaniyat belgisi ham hisoblangan.

Mahmudxoʻja Behbudiyning koʻpqirrali faoliyatida til masalalari alohida oʻrin tutadi va bu borada oʻziga xos taʼlimot yaratdi. Oʻzlikni anglash va ilm-u maʼrifatli boʻlishning, dunyoga chiqishning asosiy sharti til oʻrganishlikda deb

bilgan olim Turkiston xalqini nafaqat o'z ona tillarini, balki dunyoning ko'plab tillarini bilishga da'vat qildi. Behbudiyning o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, uning adabiyligiga hamda rasmiy ish yuritish vositasiga aylantirilishiga erishish, funksional uslublar doirasidagi qo'llanish xususiyatlarini aniqlash, arab, fors-tojik, rus va boshqa tillarga oid birliklarning milliy til lug'at tarkibida me'yorlashuvi, til ta'limining metodik jihatlariga oid qarashlari ana shu ta'limotning tarkibiy qismlari edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бехбудий Махмуд Хўжа. كتابتالاطفال(Китобат ул-атфол). – Самарқанд: Типо.литографин. Т-во “Б.А.Газаровъ”, 1914. – 31 б.
2. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2018.- 405 б.
3. Ёўлдошева Д. Махмудхўжа Бехбудий ва таълим тили. М.Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2014. – 123-126 б.
4. Каримов С. Бехбудий – ўзбек тилининг жарчиси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2002. – 365 б.
5. Махмудов Н.Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти . 2007. – 234 б.
6. Raxmatova D. Til o'rganishning foydasi.//Til va adabiyot ta'limi.– Xalqaro jurnal.– Toshkent, 2023.- 12-15 b.

BEHBUDIYNING TILSHUNOSLIK HAQIDAGI QARASHLAIGA TAHLILY YONDASHUV

Pardayev Azamat Baxronovich, Sharof
Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslikka doir qarashlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilish, milliy til ta'limi rivojiga qo'shgan hissasini alohida mavzu doirasida o'rganish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Prezidentimizning “2025-yilda Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi Qarorni imzolashi O'zbekiston tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanishi, milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan inson sifatida qadr topishiga asos bo'ldi.

Mustaqillik yillarida jadidlar, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiyning lingvistik qarashlari, uning o‘zbek adabiy tilining me‘yorlashuvi, sayqallanishi, takomili hamda rivojida qo‘shgan hissasi, Mahmudxo‘ja Behbudi asarlari leksik qamrovi va tarkibi, asarlarida kuzatilgan fonetik, grammatik jihatlar, leksik qatlamlardagi o‘zgarishlar bugungi kun o‘zbek tili adabiy me‘yori nuqtayi nazaridan asoslangan. Bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy faoliyati, pedagogik va falsafiy qarashlari, nashr va noshirchilik ishlari, publitsistik maqolalari hamda jadidona qarashlari bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.Normamatov, S.Halimova, N.Egamqulova, Sh.Bobomurodova, Q.Qodirov, Yo.Saidov, N.Yangiboevalarning ilmiy izlanishlarida XX asr boshlaridagi lingvistik jarayon, jadid adabiyotining tili va uslubiy xususiyatlari, o‘zbek tili grammatikasi haqidagi fikrlari jamlangan. F.Bobojonov Behbudi va Avloniy dramalari misolida jadidlarning o‘zbek milliy adabiy tili shakllanishidagi rolini izohlagan. N.Avazov Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy merosini ilmiy o‘rganish jarayonida adibning badiiy, publitsistik asarlarini tahlil qilgan. Ushbu sanalgan tadqiqotlarda Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi e‘tirof etilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat olib borgan jadidchilik harakati namoyandalari ham, Mahmudxo‘ja Behbudi ham asosiy til islohotini turkiy xalqlarni umumiy bir til atrofida birlashtirish, arab, fors-tojik va rus tili singari chet tillaridan kirib kelgan so‘zlardan foydalanishni tartibga solish va bunda davr taraqqiyotini inobatga olish, zamonaviy o‘zbek tilining imlo lug‘atlarini yaratish, grammatikasini ishlab chiqish, punktuatsiyasini takomillashtirish, funksional til uslublarni shakllantirish, Turkistonning turli hududlaridagi shevalarni chuqur o‘rganishga qaratishgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudi muntazam ravishda gazeta va jurnallarda tilga oid maqolalar berib borgan. Masalan, “Oyina” jurnalining 1915-yildagi 11 hamda 12-sonida “Til masalasi” sarlavhasi ostida nashr qildirgan maqolasida Behbudi o‘zbek tili imlosi va adabiy normasi bilan bog‘liq bir qator dolzarb masalalar yuzasidan so‘z yuritgan. Maqolada ko‘tarilgan jiddiy muammolardan biri o‘zbek (chig‘atoy) tilining ko‘p shevali til ekanligi bo‘lib, bu hol esa o‘zbek adabiy tilini me‘yorlashtirishda o‘ziga xos qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligi xususida gap borgan.

1913-yilda yozilib, “Oyina” jurnalida chop etilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi buyuk ma‘rifatparvarning nafaqat tilga bo‘lgan munosabatining, balki dunyoga chiqishning yo‘llari ko‘rsatib berilganligi bilan ahamiyatli asardir [2, 396-398.]. Professor S.A.Karimov shunday deydi: “Behbudi – o‘zbek tilining jarchisi” maqolasida quyidagilarni yozgan edi: “o‘tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste‘molda bo‘lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste‘mol uchun muhimlik darajasi ma‘lum ma’noda o‘zgargan bo‘lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantig‘ini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan olim muhim bir g‘oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha

ko‘p til o‘rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi”[4,34-37].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning Ismoilbek Gaspirali arxivida saqlanayotgan Rossiya davlat III Dumasiga yuborilgan loyihasi 1907-yilda ishlab chiqilgan va Temur Xo‘ja o‘g‘li tomonidan 2001-yilda ilk marta e‘lon qilingan [3] loyihada Turkistonda milliy til masalasini ilgari surish edi. Asrlar davomida o‘zbek tili qatlamiga xoh ixtiyoriy, xoh majburiy kiritilgan arab, fors so‘zlaridan voz kechish, uning o‘rnida turkiy so‘zlarni ishlatish, buning uchun esa shevalarga murojaat etish mumkinligi haqida qayg‘urishi Mahmudxo‘ja Behbudiyning til bilimdoni sifatidagi haqiqiy millatparvar ekanligidan dalolat beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkistonda turkiy tilni rasmiy idora tili sifatida qabul qilish zarurligi xususida 1908-yilda rus amaldorlariga bir necha bor murojaat qilgan[1]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkistonda turkiy tillar ichida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lgan o‘zbek tilini davlat tili sifatida tan olinishini muntazam taklif qilib kelgan. Murojaatlarini gazeta va jurnallar orqali berib borar ekan, unda o‘zbek tilini davlat tili darajasiga olib chiqish masalasini bir necha bor ko‘taradi.

So‘zimiz xulosasida aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatining tashkilotchisi va asoschilaridan biri, zamonasining buyuk ma‘rifatparvari, Chor Rossiyasi, keyinchalik Sho‘rolar hukumati istibdodiga qarshi otashin kurashchi va milliy til himoyachisi sifatida Turkiston xalqini nafaqat o‘z ona tillarini, balki dunyoning ko‘plab tillarini bilishga da‘vat qildi, o‘zbek tilini davlat tili darajasiga olib chiqish masalasini dolzarb masalaga aylantirdi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, uning adabiyligiga hamda rasmiy ish yuritish vositasiga aylantirilishiga erishish, arab, fors-tojik, rus va boshqa tillarga oid birliklarni milliy til lug‘at tarkibida me‘yorlashtirish, o‘zbek tilini rivojlantirish borasida o‘ziga xos lingvistik ta‘limot yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдиев М. Бехбудий ўз даврида ўзбек тилини давлат тили сифатида тан олиниши учун курашганмиди? <http://zarnews.uz/6h5>. 18.01.2021.
2. Бехбудий М. Икки эмас, тўрт тил лозим / Танланган асарлар, I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2018. –Б.396-398.
3. Бехбудий М. Танланган асарлар, I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.137.
4. Каримов С. Бехбудий – ўзбек тилининг жарчиси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2002. –Б.34-37.

ТҮРКІ ТҮТАСТЫҒЫН КӨКСЕГЕН ҰЛТ КӨСЕМДЕРІ

**(Бехбудий Махмудқожа және Ахмет
Байтұрсынов шығармашылығы)**

**Абенова Лаззат - Жұмабек Ахметұлы Тәшенев
атындағы университеті, «Қазақ тілі мен әдебиеті»
кафедрасының қауымдастырылған профессор м.а.,
филология ғылымдарының кандидаты**

Түбі бір түркі халықтары арасындағы бірігу идеясы әлі күнге дейін өз өзектілігін жоймай келеді. Түркі тілдес халықтар арасынан шыққан әртүрлі кезеңдердегі ұлт көсемдері ең алдымен ұлт тұтастығын содан кейін түркінің тұтастығын көксеріп, ұлы мақсаттар қойып, соның жолында күрес жүргізді. Қаншама рет бас көтеріп, еркіндікке ұмтылып, бірігу ұранын басшылыққа алған түркі халықтары екі империя тарапынан басылып-жаншылып, қуғындалғанымен, олар түркі тілдес халықтардың бірігуге деген талпынысын толықтай жоя алған жоқ. Қазақтар да өзге түркі тілдес халықтар секілді түрікшілдікті ежелден-ақ өздерінің басты идеялары ретінде ұстанды, оның басты себебінің бірі түркі халықтарының діни-философиялық көзқарасын бір арнаға салып, рух бірлігін нығайту жолында үлкен еңбек сіңірген Қожа Ахмет Яссауи қазақ жерінде еңбек етті. Оның шәкірттері Яссауи ілімін түркі дүниесінің төрт бұрышына түгел жеткізді.

Өзге түркі тілдес халықтар секілді қазақ ұлтынан шыққан зиялылар да түрікшілдік идеясын басшылыққа алып, өз саяси бағыттарын айқындай алды. Осы кезде түрікшілдікпен қатар қазақ зиялылары арасында Орталық Азияда, түркі дүниесінің орталығы саналатын Түркістан жерінде біртұтас мемлекет құру идеясы алдыңғы қатарға шыққан еді. Зерттеуші ғалым Д.Қыдыралиевтың ойынша, түрікшілдіктің ішінде жалпы Ресей түріктерінің бірлігі идеясы мен Тұтас Түркістан идеясын жеке-жеке алып, қарастыру керек.

Әрине, Түркістан жайлы сөз болғанда оның рухани көсемі М.Шоқайұлының идеяларына тоқталмау мүмкін емес, Орталық Азияны мекендеген халықтың тек бірлесе отырып қана өзін екі жақтан қысымға алған алып империялар құрсауынан босана алатынына сенген ол өз ойларын жан-жақты дәлелдеп, орнықты пікірлер қалыптастыра білді. Ол өз жазбаларында «Түркістан – түркілер елі деген сөз. Түркістан ұзақ кезеңдік терең дағдарыс пен құлдырау сатысын бастан кешті. Түркілердің бір бөлігі Кіші Азияға көшті де, Византия империясы құрандылары үстіне, өз туының астына мұсылман әлемінің көп бөлігін біріктірген Осман империясын құрды. Өз атамекенінде қалған түркілердің бір бөлігі Темір дәуірінен кейін өздерінің дербес өмір сүруін тек қана жеке кеудемсоқтыққа негіздеген бірнеше хандықтарға ұсақталып кетті», дейді.

Жалпы түркі тілдес халықтар арасындағы алауыздық пен араздықтың болмауын көздеген «Азат» қайраткерлері халықтар арасындағы достастықтың дәнекері болуды көздеді, болуы мүмкін қайшылықтардың орын алмауын көкседі. Соның бір мысалы ретінде С.Ақатайдың «Өзбекстандық қазақ-түркі халқына үндеуін» атап өтуге болады. Аталмыш үндеуде қазақ пен өзбектің түбі бір туыс екендігі еске алынып, қалыптасып отырған саяси ахуал сарапқа салына отырып, олардың арасында қақтығыстың болмауына екі жақтың да атсалысуы қажеттігі көтеріліп, «Қазақ бауырларым! Өзбек достарыңа, көршілеріңе, тамыр-таныстарыңа сырт бермей, жақынырақ түсінісіп, тіл табысыңыздар.

Өзара түсінісу негізінде болашақ «Түркістан Одағының» шаңырағын көтеруге ат салысалық. Егер Өзбекстан мен Қазақстан дербес те тәуелсіз

мемлекеттер бола алмаса, Түркістан Одағын да құру мүмкін емес, өзара түсінісу де мүмкін емес» деген ақыл-парасатқа толы тілектер айтылды. Бұл өз кезегінде М.Шоқайдың идеяларының жаңаша сипатта қайта жандануының көрінісі болды. Ұлттық санасы оянып, өз ұлттық мүддесі үшін күрес жүргізетін жағдайға жеткен кезде ғана саяси мүдде жайы қолға алынуы тиіс. Түрікшілдік идеясының қазақ жерінде бүгінгі күні қайта жандануының өзі қазақ халқы үшін оның маңызының арта түскенін көрсетеді, бұл өз кезегінде қазақшылдық пен түрікшілдіктің қабысып жатқандығына меңзейді.

Соның бір айғағы:Түркістандағы жәдидтік қозғалыс жетекшілерінің бірі, өзбек драматургі, журналист, қоғам қайраткері. Самарқан медресесін бітірген (1884) Бехбудий Махмудқожа. М.Бехбуди 1875 ж. 20 қаңтарда Самарқан маңындағы Бахшитөпе ауылында мүфти отбасында туған. Әкесі Бехбуқожа Салихқожаұлы Түркістандық, шежіре бойынша Қожа Ахмет Иассауидің тікелей ұрпағы. Нағашы атасы тегі Хорезмдік Ниязқожа. XVIII ғ. соңында Самарқанға қоныстанған.

Зиялылар отбасындағы орта М.Бехбудидің әдебиет, саясат, ғылымға деген қызығушылықтарының артуына себепші болды. Әкесінің ислам ғұламасы білгірі, мүфти болуы оған қатты әсер етті. Ол кейіннен ол өз мақалаларының бірінде "Хидая" (ислам құқығы жайлы) кітабының тағдырына қаншалықты қатты әсер еткенін атап өтеді.Бастапқыда Самарқанда, сосын Бұхарада медреседе оқиды. Оқуды тәмамдап имам-хатиб, қазы, артынша мүфти болады.

1900-1902 ж.ж қажылыққа атанып, Меккеде, Египетте, Стамбұлдәуірде, Самарқанға оралған соң жеке кітап баспаханасына ашыады.

1903-1904 ж.ж Мәскеу, Петербург барып, 1907 ж. Қазан, Уфа т.б қалаларда болып, ондағы жаңа үлгідегі мектеп жүйелерімен танысады. Ондағы татар зиялыларымен байланыс орнатып, жәдид мектептері үшін оқулықтар жазуға кіріседі. Әсіресе, қырым-татар ғалымы, жәдидшіл И.Ғаспыралы мен оның редакторлығындағы "Тәржәман" газеті М.Бехбудиді жәдидшілдік жетекшілерінің біріне айналдырды.

1914 ж. "Самарқан" газетін өзбек және тәжік тілдерінде, аптасына екі рет шығарып отырды. Осы газеттің 45 саны шыққаннан соң, қаржылық жағдайға байланысты тоқтады. Дәл осы жылы 20 тамыздан апталық "Айна" журналын шығара бастады.

"Айна" журналында өзінің құқық, тарих, тіл мен әдебиетке т.б қатысты мақалалары басылды. Түркістан халқын өз атауымен атау туралы мәселерді көтеріп, Түркістан халықтарын бірігуге үндеді.

Түркістан өлкесіндегі жәдидшілдік, дін, тіл мен әдебиет, мәдениет салаларының дамуына, Түркістан автономиясының қалыптасуына М.Бехбуди көп үлес қосты.

Оның "Падаркуш" - "Оқымаған баланың ахуалы" атты драмасы өзбек драматургиясына, жалпы айтқанда театрға негіз салды.

М.Бехбудидің осы күнге дейінгі белгілі, 300 ге жуық мақалалары бар.

Оның "Рисалаи асбаб сауат" (Сауат шығару кітабы, 1904), "Рисалаи жуғрафия ғимрани" (Әлем географиясына кіріспе", 1905), "Мунтахаб жуғрафия умуми" (Қысқаша жалпы география, 1906), "Китабул атфал" (Балалар кітабы, 1908), "Амалияту ислам" (1908), "Тарихул ислам" (1909), сияқты бірнеше еңбектері белгілі.

1919 ж. сапарға шыққан жолында ұсталып, Бұхар әмірі Сейіт Әлімхан бұйрығымен өлтірілді.

Махмудқожа Бехбуди:

-1900 ж. Мысыр мен Түркияға саяхат жасады;

-1903 ж. Қазан мен Уфа (Уфі) қалаларында болып, ондағы жәдит мектептерінің жұмысымен танысты;

-1904 ж. Самарқан қаласында жәдиттік мектеп ашты;

- Жәдит мектептеріне арнап *“Қысқаша жалпы география”*, *“Ислам тарихы”* оқулықтарын, *“Түркістан, Бұхара және Хиуа картасын”* бастырып шығарды;

- Ресей империясындағы түркі тілдес мұсылман халықтарын бірлікке шақырған мақалалар жариялады. *“Ресей мұсылмандары одағы”* ұйымының бағдарламасын қолдады;

- 1908 ж. Самарқан қаласында тегін қызмет көрсететін кітапхана ашты;

-1911 ж. *“Падаркуш”* (“Әке өлтіруші”) атты пьеса жазды;

-1914-15 ж. *“Айна”* журналын шығарды;

-1917 ж. сәуірде Ташкент қаласында өткен Түркістан мұсылмандарының 1-съезіне қатысты. Осы жылы 28 қарашада өткен Түркістан мұсылмандарының 4-съезінде Түркістан автономиясы үкіметінің құрамына сайланды;

-Бехбудий 1919 ж. қаңтарда Бакуге сапарға аттанып бара жатқанда Бұхара әмірі Бектерінің қолына түсіп, тұтқындалды;

- Бехбудий Қаршы қаласында азапталынып өлтірілді.

Жоғарыда аталған бірнеше сипаттың барлығын дерлік Ахмет Байтұрсынұлы салған ғылыми мектебінің өнбойынан табамыз. Мәселен, Ахмет Байтұрсынұлы және оның ізбасарлары ортақ ғылыми-ағартушылық идеяда, көзқараста болды, олардың еңбектеріндегі ғылыми принциптері де ұқсас еді, ғылыми құндылықтар да сабақтасып жатты, олардың белсенділігі аз уақыттың ішінде маңызды ғылыми-педагогикалық шаруа тындыруында, олардың еңбектері қазақ қоғамы үшін үлкен прогрессивті қадам болды, қазақ қоғамында ғылыми ойлаудың дәстүрі қалыптасты. Сонымен Ақаң ізбасарлары үшін ғылыми көшбасшы ғана емес, адамгершілігі зор тұлға да еді. Міне, осындай ғылыми мектепке тән негізгі қасиеттердің барлығы алғашқы қазақ оқымыстыларына тән болғандықтан және олар көшбасшының тікелей ұстаздығын көргендіктен біз Ақаңды ғылыми мектептің негізін салушы тұлға ретінде бағалаймыз.

Жалпы, Ахмет Байтұрсынұлын «ұлт ұстазы» деудің мәні осы ғылыми мектеп мәселесімен де тікелей орайлас деуге боларлық. Әлбетте, Ақаңның әліпби

түзуі, тіл және оқу құралдарын жазуы, сөйтіп, тұтас ұлттың сауаттануына жол ашуы оны ұлттық алғашқы ұстазы деңгейіне көтерсе, ғылыми мектептің басында тұруы осы мәртебелі атақ пен даңқты бекіте түседі. Осы орайда, Мұхтар Әуезовтің: «Ақаң ашқан қазақ мектебі» деген дәл тарихи сөзі осы екі мағынаны да толық қамтиды.

Ахмет Байтұрсынұлы қазақ ғылымының тарихында үш саланың басында тұрады. Олар: тіл білімі, әдебиеттану және әдістеме салалары. Бұл салалар әрқайсысы ғылымның дербес түрлері және сонымен бірге өзара тығыз байланысты. Өйткені тіл – сөз өнерінің негізі, әдістеме осы алдыңғы екеуін үйретудің амалдары мен тәсілдерінен тұрады. Ұлт ұстазы ең алдымен ғылымның осы үш саласына барды десек, оның жауабы оңай. Біріншіден, тіл адам баласына ең жақын рухани құбылыс. Ол әрі табиғаттан адамға берілген үлкен нығмет, әрі адамдарды ұжымдастыратын құндылық.

Ақаң айтқандай, «адамдық белгісінің зоры». Сондықтан тілді зерттейтін ғылым да адамға жақын таным түрі. Яғни тілдің табиғатын тану арқылы адамды да, қоғамды да тануға болады. Екіншіден, қазақ сияқты отаршылдық жағдайдағы халықты сақтайтын ең негізгі ұлттық атрибуттардың бірі – тіл. Олай болса, тілге қауіп төнсе, тұтас ұлтқа қауіп төнеді. Ақаң қайраткер ретінде осыны терең сезінді. Ал әдебиетке келсек, қазақ сияқты халықтың қоғамдық мінбері де, саяси мінбері де сөз өнері еді. Сонымен бірге жазба мәдениеті қалыптаспаған қазақ сияқты халықтың философиясы да, тарихы да, моральдық-этикалық құндылықтарының да қазынасы – сөз өнері. Яғни Ахмет Байтұрсынұлы тіл мен сөз өнерін зерттеу және оның ғылымын қалыптастыру арқылы тұтас халықтың өзін таныды һәм өзіне танытты. Ал әдістеме қосымша ғылым есепті алдыңғы екеуін игертуші, танытушы ролінде болды.

Тағы да ілгерідегі пікірімізді қайталасақ, сол кезеңдегі қазақтың жағдайында Ақаң бірден монография жазбас еді. Себебі ең алдымен қалың қазақты сауаттандыру міндеті тұрды. Ол үшін оқу құралдары қажет. Сөйтіп, ол «Оқу құралдары» мен «Тіл құралдарын» жазып, қазақ тілінің табиғаты қамтылып, оның ғылыми жүйесі жасалды. Сөйтіп, ол пәннен ғылымға барды. «Әдебиет танытқышы» да осындай оқу құралы. Ал әдістемелік көзқарастары оның «Баяншы» сияқты кітаптарынан және мақалаларынан байқалды.

Ұлттық тіл білімі мен әдебиеттанудың негізін қалаушы дегенде біз оны тұңғыш ізашар әдіснамашы ғалым ретінде де айрықша бағалағанымыз жөн. Себебі «ғылымның негізін салушы» ұғымының өзі жалпы жаңа, тың интеллектуалдық әрекет бола отырып, объектіні, құбылысты белгілі бір мақсатты және жүйелі әдістердің негізінде зерттегенін танытады. Осы ойдан және бір қорытынды жасауға боларлық. Егер оны ізашар әдіснамашы ғалым деп танысақ және басқаларға үлгі дарытса, дәстүр қалыптастырса, онда ғылыми мектеп жөнінде де әңгіме айтудың реті бар.

Ахмет Байтұрсынұлының оқымыстылық көзқарастары оқулықтардан өрістеп, педагогика мен ғылымның түйісінде жасалғандықтан біз оның мектебін «ғылыми-педагогикалық мектеп» деп атағанымыз жөн. Бұл мектепке Ақанның лингвистикалық ілімін тікелей жалғастырған Е.Омарұлын, лингвистикалық-педагогикалық дәстүрін жалғастырған Т.Шонанұлын және оның нұсқауымен және дәстүрімен оқулықтар жазған Х.Досмұхамедұлын, М.Дулатұлын, Ж.Аймауытұлын, М.Жұмабаевты, Ж.Күдерінді, т.б. жатқызуға болады.

1912 жылы Орынборда жарық көрген «Оқу құралы. Усул сотие жолымен тәртіп етілген қазақша әліппе» кітабы. Біздің ойымызша, Ахмет Байтұрсынұлының тұңғыш оқулығы болумен бірге жаңа ғылыми бағыттың да негізін салған еңбек. Ол қазақтың ғылым мен білім, жалпы мәдениет тарихындағы үлкен интеллектуалдық секіріс болды. Біз көбінесе Ақанның «Қырық мысал», «Маса» жинақтарын қазақ әдебиетіндегі үлкен жаңалықтар ретінде қараймыз. Бұл таза әдеби-эстетикалық үдеріс ауқымында өте дұрыс та. Дегенмен біздің ойымызша, жалпы қазақ тарихы үшін Ақаң еңбектері ішінде аталған «Оқу құралының» маңызы аса айрықша. Себебі осы еңбегі ар- қылы тұтас халықтың қолына әліппи сияқты өз тілінің табиғатына тікелей негізделген жазу құралын ұстатты.

Жалпы, жазудың пайда болуы адамзат үшін әрі мәдени, әрі тарихи зор төңкеріс болса, Ахмет Байтұрсынұлының ұлттық әліппиі де осындай айрықша ренессанстық құбылыс. Соған орай біз Ақанның оқу құралын поэтикалық жинақтардың қай-қайсысынан да жоғары қоямыз. Егер поэтикалық жинақтар қазақ ойының, тұрмысының, тарихының, адамның әрі объект, әрі субъект ретіндегі танымы мен сезімінің көркем шежіресі болса, ал жазу құралы солардың барлығын сақтайтын және жеткізетін, сонымен бірге қоғамдық өмірдің барлық саласына тұтас мәдени ілгерілеу өзгерісін әкелетін айрықша оқиға. Сондықтан да Ахмет Байтұрсынұлы әліппи және қазақ тілі- нің емле ережелерін, заңдылықтарын жасау арқылы тұтас ұлт үшін өркениеттің жаңа бетін ашты, жаңа биігін бағындырды. Бұл шын мәнінде мәдениет, өркениет құралы болды.

Ахмет Байтұрсынұлының осы еңбегінен бастап қазақ тарихында тұңғыш рет ғылыми мектептің негізі қалана бастады. Әліппи түзу, тілдің емле ережелерін жасау дәл «Оқу құралынан» кейін арналы дәстүрге айналып, оның шәкірттері Елдос Омарұлы, Телжан Шонанұлы тағы да басқа Алаш оқымыстыларының еңбектерінде толықтырылды. 1930 жылы латын әліппиіне, 1940 жылы кирилл әліппиіне көшкенде де Ахмет Байтұрсынұлының әліппи түзудегі, оның емле ережелерін жасаудағы ғылыми-әдістемелік тәжірибелері негізге алынды, әлі де алына бермек. Қазіргі қазақ орфографиясында да Ақанның ғылыми әдіснамасының ізі сайрап, жалғасын тауып келеді. Басқаша болуы мүмкін емес.

Алаш көсемі, ұлт ұстазы, тәлімгер оқымысты ретіндегі тұлғасы Ахмет Байтұрсынұлының адами қасиеттермен селбесіп, тұңғыш ұлттық ғылыми мектептің негізін салуына, маңайына шәкірттері мен ізбасарларының топтасуына ықпал етті. Ақаңның адами тұлғалық қасиеттері М.Дулатұлының, Е.Омарұлының, М.Әуезовтің және тағы да басқа замандастарының мақалаларынан айқын аңғарылады. Біздің ойымызша, бүгінгі ғылыми қауымға Алаш оқымыстыларының ғылыми ұстанымдары мен дәстүрлері ғана емес, кісілік қасиеттері де үлгі болмағы игі. Қазір қазақ ғылымына әділ, ашық бәсеке қажет. Ғылым төңірегіндегі ұсақ әңгімеден, қайсыбір мүдделерге құрылған топшылдықтан, объективті сынды көтере алмайтын шамшылдықтан арылып, шынайы ғылыми орта қалыптастыратын уақыт келді. Ахмет Байтұрсынұлының, жалпы Алаш зиялыларының ұстаздық, ғалымдық тұлғасы, өмірі мен шығармашылығы бізді осыған үндейді.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Шоқай М. Түркістанның қилы тағдыры. Құрастырған Б.Қошым-Ноғай. А., Жалын 1992ж.
2. Шоқай М. Таңдамалы. 1 том. А., Қайнар 1998.
3. Дәрімбет Б. Азат қозғалысы. А., Өркениет, 2001ж.
4. Елшібек Ә. «Идеалымыз - Түрік бірлігі». Түрік бірлігі. 1992 ж. №1.
5. Қыдыралиев Д.Қ. Біртұтас Түркістан идеясы: теориялық негіздері және іске асырылу жағдайлары. Тарих ғылымдарының докторы ғылыми дәрежесін алу үшін дайындалған диссертацияның авторефераты. А., 2010.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Janna Botabaeva,

Jumabek Tashenev nomli universitet

Jahon tillari instituti direktori, f.f.n., dotsent

Gulmira Jumabaeva,

Jumabek Tashenev nomli universitet katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk alloma, serqirra iste’dod sohibi Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston xalqlari teatr san’ati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy ozodlik harakati, teatr, “Padarkush”, turkiy xalqlar ma’naviyati, ta’lim-tarbiya.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson manfaatlarini himoya qilish, uning qadri va qaddini ko‘tarish, milliy qadriyatlarni asrashdan iboratdir. XX asr boshida Turkiston jadidchilik harakatining bosh maqsadi ham milliy ozodlik va xalq erki uchun kurashishdan iborat edi.

Akademik B.Nazarovning fikricha, “Jadidchilik davlat, tuzum, boshqaruvni isloh

etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlantirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistondan ulkan tarixiy bir o'lkada ko'p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G'arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlaganini hamda XX asr tongida yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lida kurashga kirishganini ko'rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o'zida ifoda etdi"[1, 4].

Ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi, o'lka jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrshunos, noshir, jurnalist - buyuk salohiyat va zakovat egasi edi. U tariximizning g'oyat og'ir va ziddiyatli bir davrida yashadi, inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan payt edi.

Behbudiy 1875-yilda Samarqandda, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785–1800) Samarqandga kelib qolgan. Otasining vafotidan so'ng yosh Mahmudxo'ja tog'asi, qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga etadi, 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O'z ustida qunt bilan ishlab, shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. Haj safarida bo'lgan vaqtida (1899-1900-y.) Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqadi. Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon" va boshqa taraqqiyparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi gazeta va jurnallari bilan tanishadi. Ular ta'sirida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.

Buyuk alloma 1903-yilda Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajab amin qishlog'ida Abdulqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Shu yili Qozon va Ufaga borib, u erdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan ma'rifiy-adabiy aloqani yo'lga qo'yadi. Keyinchalik Shakuriyning Rajab amindagi maktabini Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keladi. "So'ngra bu maktablar uchun "Risolayi asbobi savod"(1904), "Risolayi jug'rofiyai umroniy" (1905), "Kitobat ul-atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908),"Tarixi islom" (1909), "Ehtiyojii millat" singari kitoblarni yaratdi" [2, 89- bet].

U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashab, ijod qildi. Olim "Turkiston jadidchilik harakatining karvonboshisidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan" [3, 6-bet].

Darhaqiqat, Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy milliy jurnalistika, milliy adabiyot, milliy ta'lim bilan bir qatorda milliy davlatchilik taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning rahbarligida jadidlar milliy davlatchilik qurish uchun harakat qildilar. Ya'ni, yagona Turkiston birligi uchun kurashdilar va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldilar. Ozodlik, milliy g'urur kabi

unutilgan qadriyatlarni tiklashga urindilar. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qonuni Ovrupo" ("Yevropa qonunlari") maqolasini tilga olish mumkin. Unda Behbudiy o'z xalqining taraqqiyotini nafaqat ma'rifat bilan balki siyosiy o'zgarishlar, mustaqillikka erishish bilan bog'lagan.

Mutafakkirning eng mashhur "Padarkush" dramasi 1911-yilda yozilgan bo'lib, u o'zbek dramachiligining birinchi namunasidir. Rosa qarshiliklarga uchrab oradan ikki yil o'tgach, ya'ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan birinchi asar sifatida baholaydilar.

"Padarkush" dastlab Samarqandda 1914-yilning yanvarida sahnaga qo'yildi. Xalq bu asarni juda katta qiziqish bilan kutib oldi. Mahalliy gazetalar spektaklni ko'rishni istagan odamlar nihoyatda ko'pligi, "belat" yo'qligi, tomoshabinlar tik oyoqda bo'lsa ham "teatru" ko'rish orzusida ekanliklari haqida yozardi.

Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida buyuk ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyning "Turon" truppasi tomonidan sahnaga qo'yildi. Va tez orada Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi. Muallif o'qimagan bolaning holini, ayanchli oqibatlarini yoritishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta'lim olishi va kamolga etishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o'z g'oyasini "Bizlarni xonavayron bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir" degan ma'noni anglatadi.

"Padarkush" so'zi lug'aviy jihatdan "ota qotili" degan ma'noni bildiradi. Dramada Boy, uning o'g'li Toshmurod yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo'lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyasi shu obrazlarning o'zaro suhbatlari, bahs - munozaralari jarayonida namoyon bo'ladi. Muallif ishtirokchilarni ta'riflar ekan Ziyoliga millatchi musulmon degan sifat beradi. Bu o'rinda millatchi so'zini «millatparvar» tarzida tushunish lozim. Chunki Ziyoli tabiatida musulmonchilik ham, millatparvarlik ham jamlangan.

Professor D.Alimovaning fikriga ko'ra: "Behbudiy o'zining "Qonuni Ovrupo", "Haq olinur, berilmas!", "Qozi va biylar haqida loyiha" maqolalarida Turkistonda vujudga kelgan huquq sohasidagi og'ir vaziyat haqida yozadi. Shuningdek, huquqiy masalalarni hal qilishni ellikboshi va qozilarning ixtiyoriga butunlay topshirib qo'yilganligi oqibatida, ular nafaqat diniy, balki maishiy masalalarni ham poraxo'rlik asosida hal qilayotganlari uchun rus hukumatini tanqid qiladi. Behbudiyning islom shariatida Rossiya siyosati va rus madaniyatiga muvofiq kelmaydigan, lekin musulmonlar talablariga javob beradigan qonun – qoidalar bor ekanligiga imoni komil. Islom qonunchiligiga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish, unga qonunbuzarliklarni, qozilar tomonidan shaxsiy manfaatlari yo'lida shariat normalarini soxtalashtirib talqin etishlarini ayon ko'rib turishiga imkon bergan" [4, 49-bet].

Behbudiy o'z maqolasida keraksiz va zararli urf - odatlar haqida yozadi, ayniqsa dabdabali to'y va dafn marosimlarini nazarda tutib ularga ketadigan sarf - xarajatlarni butunlay ortiqcha hisoblaydi. Isrofgarchilik yaxshilikka olib kelmaydi, o'sha

mablag'ni farzandlaringizning ilm olishlari uchun sarflaganingiz ma'qul, deydi. Istiqbolchi jadidlar e'tibor bergan asosiy masalalardan yana biri, milliy ruhni tarbiyalash va mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Jadidchilik harakatining yo'l boshchilari mustaqillikka erishishning asosiy yo'llaridan biri, hukumat va boshqa davlat korxonalari, idora va muassasalari rahbar kadrlarini mahalliy kadrlar bilan almashtirishdan iborat deb bildi. Behbudiy milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlakaga olib kelishini juda yaxshi tushungan. Uning nazarida mustaqillik yo'lidagi muhim shartlardan biri keksa avlod bilan yoshlarning birlashuvidir. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlarining qonunlarini ham yaxshi bilgan. Zero, "Qozi va biylar haqida loyiha" maqolasida qozilik sudlari tizimini bekor qilish, ularning o'rniga Turkistondagi 5 ta viloyatning har birida appelyatsiya komissiyasi tashkil etilgan davlat sudlarini tuzish zarur ekanligini ta'kidlaydi" [4, 49-bet].

Behbudiy milliy davlatchilikka, shariat qonunlariga, ya'ni fiqh ilmiga, milliy jurnalistika va adabiy tanqidga, yoshlarning ta'lim olishiga katta e'tibor bergan. Jamiyat va davrning xususiyatlarni anglashga intildi. Bu mavzuda turkum maqolalar yozdi. U doimo millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo'ldi. Shuning uchun ham tarixga va ilmga alohida e'tibor berdi. U o'z asarlarida yosh avlod ma'lumotli, madaniyatli bo'lishi, ular she'r va maqolalar yozish, yod olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur deb hisobladi va "Padarkush" kabi sahna asarlari orqali millat bolalarini yetuk iste'dodli qilish uchun jon kuydirdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek millatining chinakkam fidoyilaridan biri edi. Jadidlar Turkiston xalqlarining sha'n-u shavkatini himoya qildilar, Mustaqillik uchun kurashdilar. O'zining millat va Vatan, jamiyat va axloq, ona tili, yangi usul maktablari, komillik tarbiyasi, ta'lim va sharqona odob, madaniy meros haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Bu mavzularda 300 dan ortiq maqolalar yozdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy uchun birinchi navbatda maktab – ta'lim va tarbiya o'chog'i bo'lgan. Shuning uchun u Turkiyada ham, arab shaharlarida ham maktab va dorilfununlar ahvoli bilan ko'proq qiziqdi. Yangi maktablar uchun ulardan ko'p narsalar o'rgandi. U shunday deydi: "Ilm-ma'rifatsiz hech bir millat... hayot maydonida tura olmas. Xoh u millat hokim va xoh ul millat mahkum bo'lsin, ilm-ma'rifatdan mahrumligi u uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilurg'a majburdirlar. Boy bo'lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Hunarli va boy bo'lmoq uchun nima lozimdur? Albatta, ilm va ma'rifat lozimdur" [5, 73-bet].

Behbudiy ma'naviyat fidoyisi sifatida millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni o'zi va vatandoshlari uchun komillik belgisi deb bilardi. Professor B.Qosimovning fikricha, "Oyna" jurnalining birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij, (mas., fransuz) tilini bilish shart, deb hisobladi" [6, 17-bet]. Behbudiy yoshlarni ilm olishga, ko'p kitob o'qishga, xorijiy tillarni o'rganishga va ilmiy fikrlashga undar ekan, bu xususiyatlar milliy ozodlik va mustaqil davlat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Б. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: 1999. -Б.4.
2. Шарипов Р. Жадид адабиётида янгиланиш, ислохот ва мустақиллик учун кураш. Т.: 2005. -Б.89.
3. Қосимов Б. Карвонбоши. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Т., 1999. –Б.6.
4. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. Жадидчилик: Ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: “Университет”, 1999. Б. -49.
5. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 1997. Б. -73.
6. Қосимов Б. Маслакдошлар. Т., “Университет”, 1994. 17-б.

TANAZZULGA YETAKLOVCHI A'MOLLAR

Nasirov Azimiddin Normamatovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori,

Qobilov Usmon Uralovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti professori, filologiya fanlari doktori,

Ernazarova Gulbahor Isakovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek milliy uyg'onish harakatining yirik siymosi, jadidchilikning nazariy va amaliy asoschilaridan biridir. U Turkiston tarixida o'zining islohatparvarlik, adabiy va pedagogik merosi bilan chuqur iz qoldirgan; jadidchilik faoliyatida nafaqat adib, balki siyosiy faol pedagog, jurnalist va teatr asoschisi sifatida alohida e'tiborga loyiq shaxsdir. “Darhaqiqat, millat (xalq) tushunchasi hamisha vatan bilan yonma yondir, misoli jism-u jondir. Birini birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tariximizning milliy uyg'onish davri deb atalgan XX asrning boshida vatan va millatni anglash, mustaqillik uchun kurashish eng muhim masalalardan bo'lgan edi. Xususan “jadidlar”, “taraqqiychilar” nomlari bilan tarixga kirgan fidoyi otalarimiz bu borada katta shijoat ko'rsatdilar” [1, 155-bet].

Mahmudxo'ja Behbudiy millatni butunlay tanazzulga yetaklovchi illatlar deganda, “o'pka sili”, “maxov” va shunga o'xshagan jismi jonni azoblovchi kasalliklardan ham yomon bir-ikki illatni “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida alohida tilga oladi. Bu illatlar xalqni xalq qilmaydi, millatni millat sifatida shakllanishiga, to'q va farovon yashashiga, ilm-ma'rifatni oshno tutishiga yo'l qo'ymasligini yozadi. Millatni xonavayron va g'arib etguvchi bir dardni quyidagi fikrlarida dalillashga harakat qiladi: “Biz turkistoniylarni shahri qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizgacha istilo etib, butun tirikligimizga sorilg'on va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalataturg'on to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman” [2, 145-bet].

Muallif Qur'oni Karimdan bir oyati karima keltiradi: "O'z qo'llaringiz bilan o'zingizni tahlikaga otmangiz". Mazkur ogohlantirish bizning xalqqa qarab aytilganga o'xshaydi, deydi adib. Bu xalq xudoning amriga bo'yun qo'ymasdan ahmoqona odatlaridan sira forig' bo'lg'usi yo'qligini aytib afsus, nadomat chekadi. Birgina Ko'pkari va uloq chopmoqlik odatini keskin qoralaydi. Har viloyatdan necha-necha kishilar bu ko'pkari tomoshasi uchun ovvora-yu sarson. Bundan qancha kishi o'lib, qanchasi mayib-majrux bo'ldi. Odamlar sayr va ko'pkari shumlig'i ila ziroatdan, ishdan qoladilar. Bir necha yuz so'mga ot olib, bola-chaqa rizqidan qisib ot boqadilar. Nima uchun deb o'ziga o'zi savol beradi, muallif. Maqsad o'quvchiga tushunarli, ta'sirli bo'lish uchun shunday yo'l tutadi. Qo'ygan savoliga shunday javob beradi. "To'y va sayrga ko'pkari chopmoq uchun". "O'n- yigirma chaqirimga to'y bo'ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo'yub, otlanib ko'pkariga ketar. Dehqon uchun oltindan aziz vaqt favt bo'ldi-ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar, birgina kun so'ngra yig'ilgan uchun yog'inga qolib, ba'zi xirmonlar chirib ketar".

Behbudiy nazarida, o'z mehnati qadrini bilmagan bu olomon o'z kelajagi uchun qayg'urarmi deb og'riqli savol qo'yadi. Bu Xalq o'z savodsizligidan yaratib olgan urf-odatlarini o'zini tanazzul sari tobora tortib borayotganligidan xabari yo'q. Bunday bilimsizlik keskin zulmning oqibati, natijasi ekanligini uqtiradi.

Bu o'rinda muallif yerli turkiylar, o'zbeklar bilan armani, yaxudiylarni qiyoslaydi. Ulardagi ishbilarmonlik, tadbirkorlikni ko'zgu sifatida keltiradi. Ular deydi, hattoki o'luklarini oqshom borib ko'marlar, chunki kunduzi ishdan qolmaslik uchun. Biz esa bir to'y, bir o'luk uchun haftalab, hatto oylar ishdan qolurmiz, deb yozadi.

Behbudiy har bir fikriga davr ruhiga, zamonga mos tarzda islomiy qonun qoidalar jamuljami Qur'on va Hadislardan misollar keltiradi. Zero, bu millatga ta'sir qilsa, haytovur xudodan qo'rqa, uning (xudoning) ko'rsatgan yo'l- yo'riqlariga yursa deb o'ylaydi.

Muallifning mazkur fikrlari har bir davrda ham muhim zarurat sifatida qaralgan. Bugungi kunda ham yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan to'y va makrakalarni qisqartirish borasidagi fikr-mulohazalar bilan uyg'unlashib ketadi. O'xshashlik nimada? Millat va xalq kelajagining yanada porloq bo'lishligini ta'minlashga qaratilgan maqsadlarning birligida. Odamlar yig'gan daromatini to'y, maraka-mavrutga emas, bolalarning sog'lom, komil inson bo'lib yetishishi uchun, qolaversa uning ilm-ma'rifat olishiga sarflashi kerak. Shunda ezgu tilaklar ezgu amallarga aylanadi.

"Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. u o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi... Uning millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi" [3, 261-bet].

To'yni qarzga qilib, o'likni barcha marosim-odatlarini bajarib, qarzga tushib qolib, otasidan qolgan uy-joyini armani, yahudiya sotib maqtanganlari ham borligini aytadi. Bundan kulishingni-da bilmaysan, yig'lashingni-da bilmaysan, ularni devonalig'ini-da hisobig'a yetmaysan, deb hayratini yashirmaydi muallif.

“Bir tanob yerimizni 200 so‘m sotib to‘y qilmakchi bo‘lsak, yerni xo‘b pulg‘a urdum – deb majnunona shodlanurmiz. Insonni bu qadar axmoqlig‘i ajibdur”.

Adib Samarqanddagi ba‘zi bir mahallalarni yo‘q bo‘lib ketayotganligidan afsuslanadi. Ular deydi, pulga qiziqib uy-joylarini yaxudiylarga sotib, qayerlargadir daydib ketmoqdalar. Musulmonlar yo‘qolib, kamayib bormoqda, deb iztirobga tushganini maqola mutolaasidan anglaymiz.

Behbudiyning “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolasida sarlavhada aytilganidek davr yoshlariga e‘tibor qaratiladi. Taraqqiyotning darvozasi madaniyat-ma‘rifat ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Madaniyat va maorif salohi bilan qurollangan millat rohat va saodat yuzini ko‘rolmasligini hamda bu yorug‘ dunyoda boshqa xalqlarga mag‘lub bo‘lib, oyoqlar ostida qolib, dini va diyonatini qo‘ldan berib qo‘yishligini kuyinchaklik bilan yozadi. Shu bilan birga, bu yo‘ldan qutilib chiqib ketishning birdan bir yo‘li bolalarimizni har jihatdan tarbiyalash, diniy-dunyoviy tahsilarga jalb etish deb biladi. Buning uchun esa, albatta, maktablar, muallimlar zarurligini esdan chiqarmaydi.

“Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar bo‘lgani uchun endi biz Turkiston musulmonlariga ibtidoiy maktablarni ko‘paytirmak lozimdir. Tabiiy, maktab muallimsiz ko‘paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo‘lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskorlarini kundan kun ziyodalashmoqdadirki, muallimlar mavjud bo‘lgan taqdirda har yil Turkistonda maktab ochmoq mumkindir”, deb yoshlarga murojaat qiladi. Bu murojaatni “millatimizning tilagi” deb bilishligini ta‘kidlab, “g‘ayrat sizlardan bo‘lsin, tavfiq ollodan bo‘ladi” deb maqolani yakunlaydi.

“Turkiston tarixi” kerak” maqolasida ham muhim muammolarni ko‘tarib chiqadi. Millat oldiga kerakli, yechimini topish zarur bo‘lgan masalalarni qo‘yadi. Tarix kitoblarining bo‘lgani yaxshi, yozadi muallif. Agar Turkiston tarixi yozilganda edi. biz bobolarimizni qanday yo‘llar bilan taraqqiy etganlarini anglagan bo‘lardik. Bular bizga o‘rnak bo‘lardi. Biz ham o‘sha yo‘llarni istar edik, intilar edik. Garchi teskari bo‘lsa, ularning tanazzuli sabablarini o‘rganar edik, saboq olardik. Biz uchun ular maktab vazifasini o‘tagan bo‘lardi. Turkiston tarixi haqida ozmuncha yozilgan kitoblar bor, ular talabga javob bermaydi. Haqiqatni oshkor etmaydi. Chunonchi, tarix yozuvchilar turk o‘g‘lonlari emas. Ularni forslar, ruslar va boshqa millatlar yozganlar deb muallif ayni haqiqatni yozadi.

“Tarixiy asarlardan biz turkistoniylar istifoda etib, yangi muhokama va tadqiqot ila o‘z shevamizda muntazam bir asar vujudga keltirganimiz yo‘q. Balki bizlar andog‘ tarixiy kitoblardan aksariyati ila xabarsiz bo‘lib, ba‘zisidan xabardor bo‘lsak ham, alarning tab’ va nashrig‘a ahamiyat bermaymiz. Chunki bizning xalqlar andog‘ kitoblardan ko‘ra xurofotlik qissa, hikoya va oshiqona g‘azal kitoblariga ziyoda rag‘batlig‘ bo‘lg‘onidan moddiy foydasini ko‘zlab, shunday afsona va aqlsiz kitoblarni tab’ va nashr etmoqdamiz”.

Mazkur fikrlar hozir ham o‘zining qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Mustaqillikning ilk odimlarida ham ko‘pgina nashriyotlarimiz o‘zlarining manfaatlarini ko‘zlab saviyasi past, oldi-qochdi, adabiy didni o‘tmaslashtiradigan, sharm-hayosiz kitoblarni nashr etgandilar. Bu holat hozirda bir oz barham topgan. Behbudiynazarida, Turkiston tarixini o‘z o‘g‘lonlari bor haqiqatlari bilan yozsalar,

haqiqiy tarix avlodlarni uygʻotish qudratiga ega boʻladi.

Mahmudxoʻja Behbudiyning “Aʼmolimiz yoʻnki murodimiz” maqolasida oʻzbekning bu yorugʻ dunyoga kelib qilayotgan ishi, maqsadi haqida yoziladi. Insonki, dunyoga kelar ekan oldiga bir maqsad qoʻyadi. Bu maqsad asta-sekinlik bilan butun bir millatga, xalqqa tarqalib urf-odatga, marosimga aylanib ketadi. Masalan, yaxshi yeyish, yaxshi kiyish, boy-badavlat yashash, mashina xarid qilish kabi oʻz kelajagini yo kafolatlash, yo barbod berish. Bizning millat kelajagi, qilaturgʻon ishi, maqsadi aniq: “Endi aʼmolimizga diqqat qilmoq kerak. Aksar xalqimizni aʼmoli shulki, ishlasa va foyda qilsa. Shoyadki, oʻgʻil va qizini toʻy qilsa va ham qanday! Oʻz qatoridagi odamlarni qilgan toʻyidan ziyodaroq!”

Bechora kosibning aʼmoli toʻydir. Oʻzi rohat yuzi koʻrmaydir. Kecha kunduzni 18, balki 20 soatni mehnatgʻa oʻtkazaturgʻon kosiblarimiz bordir. Haqqincha yemaydur, kiymaydur. Oʻn va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan oʻgʻil tilar, toʻy qilmoq uchun. Ana bechorani aʼmoli. Yigirma sanalik mehnati uch kun toʻyda tamom. Uch kunlik toʻyning azosi baʼzi oilalarda oʻn yil, hatto bir umr surar, balki bewatan va xonavayronlikgʻa sabab boʻlur” [3, 156-bet].

Aql-hushi oʻzida inson dunyoga faqat yemak, ichmak uchun kelmaydi. Odam ato va momo havo nafsi ammorasi sabab jannatdan quvilgan emasmi?! Odamzot xoh dunyoviy ilm boʻlsin, xoh diniy ilm boʻlsin uni egallamogʻi kerak. Bu oxirat uchun ham, zamonaviy dunyo uchun ham kerakli bir narsadir. Oʻzini ana shunday xayrli ishlarga bagʻishlab, el-yurtini yanada yuksalishiga hissa qoʻshmogʻi, kashfiyotlar yasab, oʻzidan ortda mangu nomlar qoldirmogʻi, millati, xalqi, bolalari erkin, hur yashashlari uchun najot izlamogʻi kerak emasmi?! Shundan kuyadi Behbudiy domla.

Biz oʻzimiz hayotda loqayd, befarq yashaymiz-da, agar biror narsamiz yetishmasa, davlatni rahbarlarni yozgʻirishga oʻtib olamiz. Oynani birinchi oʻzimizga tutmaymiz. Bir donishmand aytganiday “dunyo kitobini yanglish oʻqiymizda, boz ustiga haqiqat, adolat istaymiz”. Ertamizni nurli, porloq qilishimiz uchun, millat sifatida, oq-qorani tanigan inson sifatida hayotda yashashdan bir maqsad boʻlishi kerak. Oʻsha ezgu-maqsad bizni ertasi, kelajagi kafolatlangan jamiyat sari yetaklashi kerak. Uylanish, oʻgʻil farzand koʻrish, katta-katta toʻylar qilish axir bu aʼmol emas, deb iztirob chekadi muallif.

Behbudiy domla bir millatparvar, maʼrifatli ziyoli inson sifatida el oʻgʻlonlariga qatʼiy murojaat qiladi: “Hozirgi moʻysafidlarimiz tursun, oʻrta yoshlar yaqinda oʻlib ketar, zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrli va fununi zamoniyani darbar qilgan odamlarni talab qilur. Bukundan boshlab, har shahardan har sana oʻn-yigirmalab hukumat maktablarida bola berilsa, oʻn besh sana soʻngra har shaharda 4-5 zamona odami tayyor boʻlur va hukumat mansablarigʻa, zamona doiralarigʻa, tijorat va sanoatxonalarida kirib, bizlarga manfaat yetkarar. Kelar zamon boshqadir. Hatto hozir ikkimiz urushsak, yahudiy va ajnabiy zakunchilariga borurmiz. Sabab nadurki, oʻzimiz oʻqib zamoniy odam boʻlmaymiz! Ana endi biz uchun toʻy-maʼraka va koʻpkari oʻrnida shul yuqorida aytulgʻon ishlar aʼmol – ideal – murod – tilak – mudda boʻlsun. Vaholanki, munsiz biz kundan kun yoʻq va zabun boʻlarmiz”.

Behbudiy har bir mamlakatda boʻlishi mumkin boʻlgan avlodlar almashinuvi haqida fikr yuritadi. Bugun bizlar, bizlarga oʻxshagan ziyolilar, ilmlilar bor, ertaga

ular yo‘q. Shuning uchun ham ilm va hunarga bugundan barcha yoshlar rag‘bat ko‘rsatishlarini istaydi. Yoshlarni shu bo‘shliqni to‘ldirishga chaqiradi. Endi kundalik tanazzulga tortadigan to‘y, maraka uchun yashashdan tiyilib, tijoratchi, iqtisodchi, ishboshqaruvchi bo‘lish lozimligini uqtiradi. To‘y- marakadan orttirgan pullariga bolalarini Rusiyaga, Istambulga o‘qishga yuborib, ajnabiyar egallagan hunarlarni, kasblarni ham o‘zimiz egallashimiz kerak, deb jon kuydiradi. Aks holda chuqur inqiroz bo‘lib, o‘zligimizdan, bor-yo‘g‘imizdan ajralib tugab bitishimizni bot-bot eslatadi. Haqiqatan ham, tilimiz kesilib, o‘zligimiz yo‘qolib, milliy g‘ururimiz sinib marquqqa aylanib qolishga-da bordik. Bu bashoratlar afsona emasligi bugungi kunda har bir o‘zbekka, turkistonlikka kun va tunday ravshan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy nima uchun Vatanini boshqa bir bosqinchi millatlarga berib qo‘ymaslik uchun jon kuydirgan. Uning bunchalar jon kuydirishiga sabab bo‘lgan Vatan o‘zi nima?!

“Vatandan tashqarida vatan yo‘q. Mana shuning uchun inson faqat jonajon yurtida o‘zini mag‘rur, xotirjam his qiladi. Vatan sevgisidan yurak yorug‘, E’tiqod va Imon uyg‘oq. Jamiki insoniy jasoratlarning doyasi – Vatan. O‘z diyorida kishining qo‘rqishga, bosh egib yashashga haqqi yo‘q. Chunki bu vatanga munosib bo‘lolmaslik, yanada yomoni uning sha‘nini tahqirlashdir. Vatan ishq o‘limdan ustun. Qalbida Vatan muhabbati bor kishini dunyoda hech bir yovuz, hech qaysi jallod yenga olmagan. Qiynagan, ayovsiz haqoratlagan, o‘ldirgan, lekin mag‘lub qilolmagan. Vatanni sevish – burch, kurash, zarur chog‘da, hech ikkilanmasdan jonni qurbon qilishdir” [4, 272-bet].

Ko‘rinadiki, Behbudiy mag‘rur yashash uchun, ko‘ngil xotirjamligini his qilish uchun kurashdi. Yuragi yorug‘, e’tiqodi ustun, imoni uyg‘oqligi uchun iztirob chekdi, jonini ayamadi. O‘z vatanida bir kelgindi oldida tilini tiyib, boshini egib yashashni xohlamadi. Jim turish, Vatan sha‘nini himoya qila olmaslikni or bildi. Vatan ishq o‘limdan ustun keldi. U kurashdi. Uni xoinlar o‘ldirdilar. U qurbon bo‘ldi. Vatanni sevish va unga xizmat qilish burchligini anglagan odam shu tabarruk vatan ozodligi yo‘lida mavh bo‘lsa, u yerga emas, botir, ziyoli, Vatanparvar jangchilar qalbiga ko‘miladi. Behbudiy domlani unutishga hech bir turk o‘g‘lonining haqqi yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. Т. Маънавият. 2011.
2. Бехбудий М. Асарлар. Сайланма.. Т. Маънавият. 1997.
3. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т. Маънавият. 2004.
4. Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. Т. Тафаккур томчилари. 2021.

VATAN OZODLIGI YO‘LIDA SHAHID BO‘LGAN BEHBUDIY

Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, f.f.d (DSc),

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati yoritilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifat va adabiyotga qiziqishi oiladagi muhit, undagi ma’rifat va adabiyotga bo‘lgan intilishidan

shakllangan. Mahmudxo‘ja Behbudiylar maqolalarida Turkistonda keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy, ta‘lim islohotlarini amalga oshirish g‘oyalari ilgari surilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘g‘itlari hamon dolzarb, zamon andozalariga mos. Behbudiylar qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma‘rifiy meros yosh avlodga xizmat qilib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, matbuot, drama, senzura, qurultoy, gazeta, Turkiston muxtoriyati.

Abstract: This article highlights the life and work of the enlightener Mahmudkhoja Behbudiylar. His interest in education and literature was shaped by the intellectual atmosphere in his family, which nurtured his inclination toward enlightenment and literary pursuits. In his articles, Mahmudkhoja Behbudiylar put forward ideas about implementing large-scale political, economic, and educational reforms in Turkestan. His advice remains relevant today, in line with the standards of the modern era. The rich and diverse literary, cultural, and educational heritage left by Behbudiylar continues to serve the younger generation.

Keywords: Jadidism, press, drama, censorship, congress, newspaper, Turkestan autonomy

Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lgan taniqli dramaturg, publitsist va jamoat arbobi, Mahmudxo‘ja Behbudiylar 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiylar ota tomonidan Xoja Ahmad Yassaviylar avlodidan bo‘lib, ona tomoni ham ziyolilar bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiylar 6-7 yoshlarida Samarqandda tog‘alari yordamida xat-savod chiqarib, keyinchalik otasi ko‘magida Qur’onni o‘rganadi. O‘n besh yoshida esa tog‘asi qozi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik, keyinchalik muftilik lavozimlarida ishlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylarning ma‘rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishi oiladagi muhit undagi ma‘rifat va adabiyotga bo‘lgan intilishda bo‘lgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Behbudiylarning otasi Behbudxo‘ja Solixxo‘ja o‘g‘li islom huquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan. Bu haqda Mahmudxo‘ja Behbudiylarning o‘zi maqolalarining birida otasi yozgan “Hidoya” (“Islom huquqiga sharhlar”) asari uning taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘z yurtining ozodlikka erishishi uchun, eng avvalo, ozod yurtni boshqara oladigan va o‘z yurtini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan yangi avlodni tarbiyalash zarurligi g‘oyasini ilgari suradi va shu g‘oyalarni amalga tatbiq etish maqsadida yangi maktablar ochishga kirishadi. Natijada, 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi qishlog‘ida Siddiqiy Ajziylar va Rajabamin qishlog‘ida Abduqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktablar ochadi. 1908-yilda Abduqodir Shakuriylarning Rajabaminidagi maktabini Samarqanddagi o‘zining hovlisiga ko‘chirtirib keltiradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar 1903-1904-yillarda Qozon va Ufa shaharlariga borib u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi. Tatar ziyolilari xususan, Ismoil Gaspirinskiylar bilan yaxshi aloqani yo‘lga qo‘yadi. Uning ma‘rifatparvarlik borasidagi ta‘limotini qo‘llab quvvatlab, o‘z o‘lkasiga ham shunday ishlarni amalga

oshirishga kirishadi. Xususan, Ismoil Gaspirinskiy bosh muharrirligidagi “Tarjumon” gazetasini doimiy o‘quvchisiga aylanib, o‘zining maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘ibotiga bag‘ishlangan qator maqolalarini mazkur nashrlarda chiqara boshlaydi. Natijada Ismoil Gaspirinskiy Mahmudxo‘ja Behbudiyni “buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi” darajasiga ko‘taradi [Behbudiy, 2013].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik harakatlari birgina maktab bilan rivojlanishi mushkul edi. Zamona taraqqiyoti va dunyo rivojlanishi bilan tanishib borish barobarida, taraqqiyotga intilish uchun millat va Vatanning bugungi ahvolidan, kundalik hayotidan xabardor bo‘lish, aholini g‘aflat uyqusidan uyg‘otish uchun bir mo‘jizaviy oyna kerak edi. Behbudiy ushbu mo‘jizani kashf etish uchun teatr va matbuotni tanlaydi. Teatr orqali razolat va qabohatni, ilm- ma’rifat, shijoat va taraqqiyotni ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Natijada, 1911- yilda ilk o‘zbek dramasi bo‘lgan “Padarkush” dunyo yuzini ko‘radi.

“Padarkush” dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. Lekin, o‘sha davrning siyosiy to‘siqlari sabab mazkur drama 1913-yilda rasman nashrdan chiqarilib, kitob jildiga “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi”, degan yozuvlarning yozilishi dramaning o‘sha davrdagi “Tibilisi senzurası” dan oson o‘tmaganligini ko‘rsatadi.

“Tibilisi senzurası” haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo‘lsak, u 1837-yil 23-dekabrda, Rossiya imperatorining farmoni asosida Gruziya boshqaruv organlari tomonidan bosmaxonalarada chiqariladigan kitoblarni senzuradan o‘tkazish maqsadida tashkil etilib, 1848-yil 18-dekabrda rasman “Kavkaz senzura qo‘mitasi” (Кавказский цензурный комитет) nomini olgan. 1914-yil 20-iyuldan 1917-yil 27-aprelgacha Birinchi jahon urushi davrida harbiy senzura to‘g‘risida muvaqqat farmon qabul qilinib, barcha turdagi bosmachilik faoliyatlari qat’iy nazoratga olingan. “Senzura qo‘mitasi”ga aksilinqilobiy nashrlarni aniqlash va nashr etilishiga yo‘l qo‘ymaslik topshirilgan. 1918-yil 26-mayda Gruziyada matbuot senzurası bekor qilingan biroq, senzura siyosati qatag‘on yillarida ham amalda bo‘lgan [Newspaper Communist, 2020]. “Padarkush” ana shu senzuradan mohirona yo‘l bilan o‘tkazilgan edi.

Chin ma’noda “Padarkush” – o‘zbek dramaturgiyasining birinchi namunasi bo‘lib, mutaxassislar tomonidan ham janr, ham mazmuniga ko‘ra, yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholangan. Drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n bo‘lib, unda jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qilinadi. O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan ushbu asar Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bo‘lganligi e’tirof etilgan. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy 1915-yildagi o‘zining bir maqolasida “1913-yilda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim” deb qayd etgan [X.Davron, 2013].

“Padarkush” dramasi dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yiladi. Mahalliy matbuotda pyesani ko‘rish uchun “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilek yetmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketgan”ligi

yoziladi. Toshkentda esa drama 1914-yilning 27-fevralida sahnaga olib chiqiladi. Spektakl boshlanishidan oldin Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rnini haqida nutq so'zlaydi. Padarkushdagi bosh rol ya'ni, boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb nomlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilning aprel oyidan turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marotaba, dastlab ikki, so'ngra to'rt sahifada chop etiladigan "Samarqand" gazetasini faoliyatini, ushbu gazeta moddiy tanqislik sabab 45 ta sondan so'ng to'xtagach, 1913-yilning 20-avgustidan esa "Oyna" jurnalining nashrini yo'lga qo'yadi. "Oyna" jurnali suratli, haftalik jurnal bo'lib, asosan o'zbek tilida nashr qilingan va unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilgan. Jurnalning Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiya davlatlarigacha tarqatilgani va uning nashri 1914-yil oktyabr oyiga qadar davom etgani, maqolalarda Turkiston o'lkasini isloh qilish g'oyalari ilgari surilganligi va bu maqolalar o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinganligi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. [Ziyo Said, 1974: 17].

Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan yana bir masala – millat masalasi edi. Bunda o'sha davrda millat sha'nini oyoq osti qiluvchi fikr-mulohazalarga qarshi chiqish jasorat talab qilar edi. Ana shu jasorat Behbudiyda bor edi. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib, "Sart so'zi majhuldur" degan maqola yozadi. Maqolada: "Alhosis, ushbu kun Turkistoni Rusiyaning besh viloyatini va Buxoro xonligining barcha turk va o'zbek xalqini "sart" demak va yozmak insofsizlik, istibdod royining boisi, shubha va tafriqadur — buyuk xatodur, vassalom", – deb Sho'ro majlisidan iqtibos keltiriladi [Behbudiy, 1915].

Alloma umrining taxminan oxirgi ikki yili ilk sho'ro davriga to'g'ri kelgan. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko'p bilim egasi ekanligi, sho'rolarning turli jabhalarda boshlagan "inqilobiy" ishlariga aynan Behbudiyning jalb etilishiga sabab bo'ladi. U hatto Eron va Afg'oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilinadi. Biroq, Behbudiy o'z sog'lig'i yomonligini bayon qilib bu lavozimdan bosh tortadi [Shodmonov, 2023]. Yana bir tadqiqotda quyidagicha ma'lumotlar ham keltiriladi: "1918- yilda bolsheviklar undan qutulish uchun Afg'onistonga Sho'ro hukumati nomidan elchi qilib yuborish harakatiga tushadi. Behbudiy siyosiy o'yinni anglab, e'tiroz bildiradi, albatta" [Haydarov, 2020: 9]. Biroq, ushbu hujjatlar Behbudiyning Turkiston siyosiy doirasida munosib o'rnini bo'lganligini ko'rsatadigan beqiyos dalildir.

Turkiston muxtoriyatini zo'r mamnuniyat bilan qarshi olgan Mahmudxo'ja Behbudiyning ozodlik haqidagi orzulari vaqt o'tgan sayin sarobga aylanib boradi. U muxtoriyatning nechog'li zaif ekanligini yaxshi bilar, shuning uchun Turkiston xalqlarining birlashmog'ini va shu orqaligina muxtoriyatni saqlab qolinishi mumkinligini jon-jahdi bilan tushuntirishga urinardi. Bu haqida Behbudiy o'zining "Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz" maqolasida "Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas... Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi

qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar...” degan, xitob bilan chiqadi [Qosimov, 2016]. Siyosiy vaziyatni tahlil qilib, yaxshi tushunib turgan Behbudiy “qog‘oz ustidagi” muxtoriyatni yo‘q qiluvchi illat milliy birlik va ahillikning yo‘qligi, amaldorlarning nafsoniyat va g‘urur havosiga berilishi ekanidan ogohlantiradi, istiqlolni amaliyotga aylantirish uchun turli tabaqalarning ittifoq tuzib, unga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy hamrohlari Mardonqul Shomuhammadzoda va Muhammadqul O‘rinboy o‘g‘li bilan birga Qarshi begi Tog‘aybek buyrug‘iga ko‘ra zindon yaqinidagi “podsholik” chorbog‘ida amirning Qarshi shahridagi voliysi Nuriddin Og‘aliq tomonidan 1919-yil 25-martda vahshiyona qatl qilingan.

Xususan, Hoji Muin Shukrulloh Behbudiyning shahid bo‘lganligi xususida shunday ma’lumotlarni keltiradi: “... Shunda alarning qatlari o‘zlariga bildirilgan va o‘zlari uchun shu bog‘da to‘rt qabr qazdirilgan. So‘ngra Behbudiy afandi va yo‘ldoshlari tahorat olib, namoz o‘qimoqchi bo‘lg‘onlar. Lekin shul chog‘da, rahmsiz jallod mahoviylari ila yetishub kelib, alarni namoz o‘qirg‘a qo‘ymagan va eng avval Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan. Bu holni ko‘rib, Mardonquli, Maxammadquli va Ahmad afandilar tavhid va shahodat kalimalarini o‘qib, o‘limni kutib turg‘onlar. Andan keyin jallod alarning boshini bir-bir kesgan, so‘ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning nishlarini chiqarib, o‘zlari qazg‘on qabrlarg‘a ko‘mganlar va qabrlarini (bilinmasun deb) yer ila tegiz (tekis) etganlar” [Hoji Muin, 1922].

Behbudiy va uning hamrohlarini qo‘riqlash uchun qo‘yilgan navqiron askar yigit (Hoji Muin ma’lumotlarida farg‘onalik 17 yoshli Sodiqjon ismli yigit ekanligiga oydinlik kiritiladi) mahkumlar bilan muloqotda bo‘lib, Behbudiy bilan yaqindan tanishadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning qatl etilganligi haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt bo‘lgan Samarqandga 1920-yilning aprelida ya’ni alloma o‘limidan roppa-rosa bir yil o‘tib ma’lum bo‘lgan. Behbudiy vafotidan butun Turkiston motam tutgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy sharafiga o‘nlab marsiyalar yozilgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat “Behbudiyning sag‘anasini izladim” nomli she’r yozgan bo‘lsa, Sadridin Ayniy “Behbudiy ruhig‘a ithof” degan marsiya bitgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy vafotidan oldin vasiyat maktubini yozib, yashirin tarzda nazoratchi askar yigit Sodiqjonga berib qo‘yadi. Behbudiyning iltimosiga ko‘ra, uning o‘limidan so‘ng nazoratchi yigit bu maktubni Samarqandga olib borib, marhumning do‘stlariga topshiradi. Faqat, oradan deyarli bir yil o‘tganidan keyingina Behbudiyning so‘nggi kunlari tafsilotlari ma’lum bo‘ladi. Mutafakkirning o‘z davrining yetuk ziyolilariga yozgan maktub-vasiyati uning safdoshlari, hukumatdagi do‘stlari va shogirdlari tomonidan davriy matbuotda e’lon qilinadi.

Manbalarga ko‘ra, vasiyatnomada Mahmudxo‘ja Behbudiyning do‘stlari Siddiqiy Ajziy, Abdurauf Fitrat, Akobir Mahdum, Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy va Sadridin Ayniyning nomlari zikr etilgan [Hoji Muin, 1922].

Behbudiyning vahshiyona va xiyonatkorona o‘limi xalqni junbushga keltiradi. Natijada 1920-yilning aprelida Samarqand shahrida Buxoro amiri va uning johil amaldorlariga qarshi katta umumxalq namoyishi bo‘lib o‘tadi. Namoyishchilar amirdan Behbudiy qotillarini jazolashni qat’iy talab qilishadi. Biroq, amirlik

tomonidan xalq talabi inobatga olinmaydi. Keyinchalik, 1923-yilda esa sud tomonidan soliq idorasining taftishi natijasida aniqlangan kamomadlar sabab, Nuriddin Og‘aliquing o‘zi otishga hukm qilinadi.

Nuriddin Og‘aliqu otish hukmi 1923-yil 19-sentyabr kech soat yettida Registonda bo‘lib, besh mingga yaqin kishi ishtirok etadi. Bu haqda gazetada “Behbudiy va rafiqlarining o‘ldirilishiga sabab bo‘lg‘on fuqaro hukumatining molig‘a xiyonat qilgan mazkur Og‘aliq 19-sentyabrda (1923-yil) odil hukumatimiz tomonidan otildi, demak, Behbudiy va rafiqlarining o‘chlari olindi”, deb yoziladi [Hayitov, 2020].

Shunday qilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘limidan to‘rt yil o‘tib qotil o‘zining jazosini oladi. Buxoro hukumati tomonidan mas‘ullarga Behbudiy qabrini qidirib topib, uning haykalini o‘rnatish vazifasi topshiriladi. Biroq, bu safargi topshiriq ham oxiriga yetkazilmaydi. Behbudiyning qabri topilmaydi. Taxminlarga ko‘ra, Behbudiyning qabri Qarshi shahridagi “Eshoni shahid” qabristonida ekanligi, 1926–1936-yillarning matbuot nashrlari hamda arxiv hujjatlariga ko‘ra, darvozadan ellik qadamcha ichkarida “Eshoni shahid” maqbarasi, uning quyi etagiga yaqin joyda Behbudiyning qabri bo‘lganligi, qabr ustiga ayvon ham tiklanganligi, keyinchalik bu ayvon ham buzib tashlanib allomaning qabri xususidagi ma‘lumotlar ham yo‘qolib borganligi haqidagi ma‘lumotlar tadqiqotlarda keltiriladi [Ravshanov, 2020: 66].

1920-yilda Qarshi shahrining nomi Behbudiy, deb o‘zgartiriladi. 1926-37-yillarda ya‘ni 11 yil davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritilgan. Biroq, adib nomining adabiy lashtirilishi shunchaki bir niqob bo‘lib, 1926-yildayoq jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho‘roviy harakat sifatida qoralash boshlab yuborilgan. Stalin qatog‘onlari boshlangach, ya‘ni 1936-yilda uning nomi olib tashlanib, yana Qarshi nomi qaytarilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalarida Turkistonda keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy, ta‘lim islohotlarini amalga oshirish g‘oyalari ilgari surilgan. Mahalliy aholining taraqqiyotga to‘siq bo‘luvchi eski urf-odatlar va eskicha qarashlardan voz kecha olmayotganlariga qarata “...biz ham musulmonmiz, faqat taraqqiyotni, farovonlikni, ma‘rifatni istaymiz. Fursat ketib boryapti, biz qoloqlashib ketdik, yangilikka intilishimiz, yangiliklarni o‘zlashtirishimiz lozim. Qoloqligimiz tufayli biz mustamlakaga aylandik, bizni tobe qilib olishdi. Endi o‘tmishimiz buyuk deb yuravermasdan, xatolarimizdan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimiz, rivojlanish yo‘llarini izlashimiz kerak. Boshqalar ham bizni hurmat qilishi, ular bilan teng mavqeda muloqotga kirishishimiz, musulmonlar manfaatlari himoyasi uchun nimalar qilishimiz zarurligi haqida bosh qotirish vaqti keldi”, degan g‘oyalarni ilgari surgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy to‘y va aza dabdabalariga berilish bu ilmsizlik, soxta obro‘ va hashamat ishtiyoqi bilan yashash, vaqtni zoye ketkazish, korrupsiya, poraxo‘rlik va ilm ahliga bepisandlikni taraqqiyotga to‘siq bo‘ladigan illatlar deb atagan. Alloma porani o‘z maqolalarida rishva deb nomlagan va pora-rishva olishni la‘natlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining barcha ma‘lum va noma‘lum sahifalarini tadqiq qilar ekanmiz, uning yuksak madaniyatli va ma‘naviyatli jamiyatni orzu qilganligini guvohi bo‘lamiz. Alloma o‘z maqolalarida qo‘ldan

berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o'z qadr- qimmatini unutib, juda ko'p moddiy va ma'naviy zararlar ko'rishidan nadomat chekadi. Shuningdek, Turkiston o'lkasi dunyo hamjamiyatidan ortda qolganligini, bu yerda islohotlar, o'zgarishlarni amalga oshirish vaqti kelganligini, uzoq yillar davomida adoqsiz ichki nizo va urushlar, XV-XVI asrlardan boshlangan parokandalik Turkiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning rivojlanishdan qolib ketganligini ta'kidlaydi. Bularning barchasidan xulosalar chiqarib, Chor Rossiyasi davrida Turkistonning mustamlakaga tushib qolganligi sabablarini birinchilardan bo'lib matbuotda chop ettiradi va Turkistonni ozod qilish rejalarini ishlab chiqadi. Shu boisdan Mahmudxo'ja Behbudiyni Turkiston ozodligi yo'lida shahid bo'lgan ma'rifatparvar jadid edi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudi (1875–1919). – Ziyouz.uz. [Elektron manba]. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-mahmudhuja-behbudi-1875-1919> (murojaat qilingan sana: 03.07.2016).
- 2.Hoji Muin. Mufti Mahmudxo'ja Behbudi hazratlarining qanday shahid bo'lg'anlig'i va aning tomonidan yozilg'an vasiyatnoma. – “Inqilob” jurnali, 1922-yil, №1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/1920-yilning-aprelida-butun-turkiston-motam-tutgan-edi.html> (murojaat qilingan sana: 20.01.2014).
- 3.Mahmudxo'ja Behbudi (1875–1919). – Ziyouz.uz. [Elektron manba].<https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/mahmudxoja-behbudi> (murojaat qilingan sana: 04.07.2013).
- 4.Behbudi M. Sart so'zi majhuldur (1915). – “Oyna” jurnali, 1915-yil, 22–23– 25–26-sonlar. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/1915-sp-219654846> (murojaat qilingan sana: 28.02.2014).
- 5.Shodmonov N. Behbudiyning vasiyati. – Yuz.uz. [Elektron manba]. <https://yuz.uz/news/behbudiyning-vasiyati> (murojaat qilingan sana: 31.07.2023).
- 6.Newspaper Communist. – 20 August 1937, №164. The Overview of the Censorship of the Georgian Press and Print Media. – IDFI. [Elektron manba]. https://idfi.ge/en/georgian_press_and_print_media_review(murojaat qilingan sana: 03.05.2020).
- 7.Ravshanov P. Behbudiyning so'nggi manzili. – “Zarnews.uz”, 2020-yil 4-iyun. – In: “Zarafshon”ning Behbudiysi [Matn] / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: A. Haydarov. – Toshkent: “Sahhof” nashriyoti, 2020. – 144 b.
- 8.Hayitov Sh., Rahmonov K. Behbudiya suiqasd qanday sodir bo'lgandi? – Xalq so'zi.uz. [Elektron manba]. <https://xs.uz/uzkr/post/behbudijga-suiqasd-qandaj-sodir-bolgandi> (murojaat qilingan sana: 12.03.2020).
- 9.Davron X. Turkistonda ilk dramatik asar chop qilinganiga 100 yil to'ldi. – Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/turkistonda-ilk-dramatik-asar.html> (murojaat qilingan sana: 19.01.2013).
- 10.“Zarafshon”ning Behbudiysi [Matn]: maqolalar / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: A. Haydarov. – Toshkent: “Sahhof” nashriyoti, 2020. – 144 b.
- 11.Said Z. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927). – Toshkent–Samarqand: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1974. – 50 b.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ВА ТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР

Д.А. Алимова – т.ф.д., проф.
ФА Миллий археология маркази
бош илмий ходими

Маҳмудхўжа Беҳбудий Туркистоннинг сиёсий аҳволига қандай муносабатда бўлган? У ўз халқининг тараққиётини нафақат маърифат, балки сиёсий мақомининг тубдан ўзгариши, мустақилликка эришиш билан боғлаган. Ўзининг кўплаб мақолалари ва фаолиятида у Россия империяси ва Муваққат ҳукуматнинг мустамлакачилик сиёсатини фош этган, улар чиқарган қонунларини танқид қилган. Масалан, Муваққат ҳукумат ўз моҳиятига кўра демократикдек туюладиган 25 ёшга тўлган ҳар қандай киши қози ёки мингбошилиikka сайланиши мумкин бўлган қонун чиқарган. Бироқ сайланадиган шахснинг қобилятидан далолат берувчи ҳеч қандай талаблар, ҳужжатлар кўзда тутилмаган. Демак, масаланинг бундай қўйилиши саводсиз, виждонсиз одамларнинг лавозимларни сотиб олишига имконият яратади деган хулосага келади М.Беҳбудий. «Мустабид ва золим ҳукуматнинг мақсади ҳукмронларнинг бу қилган жабрлари ўзлари учун энг яхши, биз, мусулмонлар, учун энг жонсиз ва хароблиги (юз) берди. Бу закўн бизга саводсиз қозиларни ақча ва ришва ила сайланмоғига ёрдам этди. Нодон ва жоҳил кишиларни қози ва муфти бўлиш учун бу закўн замона ёрдам берар эди. Қози, муфти, мударрис ва ўзгалардан салоҳият бобинда, илм ва истеъдод тўғрисида на шаҳодатнома сўралур эди, нада имтиҳон қилинур эди» [Беҳбудий М. Бизга ислоҳ керак // Нажот. 1917 й. 7 ноябрь]. Мадрасада ўқитувчилар сонининг қисқартирилиши кекса мударрислар ўрнини билими паст ёш йигитлар эгаллашига олиб келган, икки-уч нафар мударрис алмаштирилган ҳолатда битта «нодон» бир неча фандан дарс берган.

«Натижада уламо озайди. Ахлоқ бузилди, уламои мусулмонияга жоҳил ва хоин сарф-саводсиз кишилар қози бўлди. Тадрис ва афтодан ожиз кишилар муфти, мударрис бўлди. Бир мулла ҳам қози ва мударрис ва ҳам оқсоқол бўлиб, талаба, маориф ва аҳоли ишларини сактага учратди. Бошқа тарафга қарасак, қози ва мударрислик учун истеъдод томони бўлган уламоимиз оч юрадур. Оҳ, золим ҳукумат ва миссионерлар бизга налар қилдилар!» [Беҳбудий М. Бизга ислоҳ керак // Нажот. 1917 й. 7 ноябрь]. Аммо курашсиз мустақилликка эришиб бўлмайди. Бунга М. Беҳбудийнинг ишончи комил.

«Ҳақни олинур, берилмас», – деб таъкидлайди [Беҳбудий М. Ҳақ олинур, берилмас // Ҳуррият. 1917 й. 13 июль; Ўша муаллиф. Баёни ҳақиқат // Улуғ Туркистон. 1917 й. 12 июнь]. Тарих ҳақ олиниши кераклиги ҳақида кўплаб мисолларни билади деб ёзади Беҳбудий. «Билмоқ керакки: «Ҳақ олинур, берилмайдур!» Ҳар бир миллат ва мамлакат халқи ўзини ҳуқуқи диния ва сиёсиясини ҳаракат ва иттифоқ ила бошқалардан олади. Дунё жиҳодгардур. Жиҳод – жаҳд ва жиҳодни шакли ҳар замонда бошқа бўлур... Ҳозир бизни жиҳодимиз фикр, газет ва басират ҳамда иттифоқ ила бўлур. Биз мусулмонлар, хусусан, Туркистон мусулмонлари истаймизки, ҳеч бир киши бизнинг дин ва миллатимизга зулм ва таҳдид қилмасин ва бизни ҳам бошқаларга таҳдид қилмоққа асло фикр ва ниятимиз йўқ» [Беҳбудий М. Баёни ҳақиқат // Улуғ Туркистон. 1917 й. 12 июнь]. У шунга ўхшаш

«Хуррият берилмас, олинур» [Мунаввар қори. Хуррият берилмас, олинур // Нажот. 1917 й. 26 март] деган мақола ёзган Мунаввар қори билан ҳаммаслак. Аммо Мунаввар қори эркинликка фақат қон тўкиш ва қурбон эвазига эришиш мумкин деб ёзади. Беҳбудий аксарият жаҳидлар каби мустамлакачилик билан қонсиз кураш тарафдори бўлган, у ҳар қандай инқилобларга қарши эди. У доимий равишда ва диққат билан Дума фаолиятини кузатиб борган ва парламент кураши орқали кўп нарсага эришиш мумкин деб ҳисоблаган. Мухториятнинг қизғин тарафдори сифатида тараққиётга эволюцион йўл билан боришни маъқул кўрган, ҳатто Россия империяси таркибида ҳам Туркистон мустақилликка эришиши мумкин деб билган.

Бироқ, М. Беҳбудийнинг энг яқин сафдоши ва шогирди Ҳожи Муиннинг гувоҳлик беришича, Маҳмудхўжа ёшлик чоғларида инқилобий ғояларга асир бўлган, айниқса, 1905 йилги рус инқилоби унга кучли таъсир кўрсатган. Аммо йиллар ўтиб у мустақилликка эришишнинг тинч йўллари кидириш зарур деган қарорга келган. Шарқшунос Лазиз Азизода М. Беҳбудий вафот этган куннинг етти йиллигига бағишланган мақоласида ёзади: «Беҳбудий илк бор халқ онгига Туркистонни чор ҳокимияти истибдодидан озод қилиш ғоясини сингдирганлардан бири, илк бор халқнинг ночор аҳволини тушуниб етган, айтишнинг турли самарали йўллари топа олганлардан биридир... У ўз мақолаларида чор ҳукуматини танқид қилган, уни баъзан ошкора, баъзан Бухоро амирлигини танқид қилиш орқали кесатиб фош этган» [Азизода Л. Беҳбудий // Маориф ва ўқитғувчи. 1926. №2].

Мустақиллик йўлидаги энг муҳим шартлардан бири, М. Беҳбудий фикрича, ёшлар ва кекса авлодни бирлаштиришдир. Ёшлар жинсқиликни йиғиштириши ва сабрсизликни енгиши, масалага илмий ёндашиши керак. Афсуски, ўзим ҳам тезкор ҳаракатлар тарафдори бўлганман деб эътироф этади Беҳбудий, лекин ҳамма нарса режа асосида амалга оширилиши зарур ва кекса авлод ёшларни миллатга хизмат қилиш имкониятидан маҳрум қилмаслиги даркор [Улуғ Туркистон. 1917 й. 12 июнь¹].

М. Беҳбудий ҳам барча жаҳидлар каби Россиядаги февраль инқилобини хурсандчилик билан қаршилаган. У жаҳидларнинг Туркистон мустақиллиги ҳақидаги дастурини амалга ошириш учун кенг имкониятлар эшигини очишини тушунган. Туркистон маҳаллий халқларининг сиёсий, миллий ва иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш 1917 йил баҳори ва ёзида, то Қўқон мухторияти тор-мор этилгунга қадар жаҳидлар, хусусан, М. Беҳбудийнинг фаолиятида асосий ўрин тутган. Заки Валидий Тўғон ўз эсдаликларида М. Беҳбудийнинг Россиянинг федератив тузилишини ҳимоя қилиш борасидаги фаолиятига алоҳида урғу беради. «Кураш ниҳоятда аёвсиз тус олди, агар сизга қарши чиқса, ҳатто дўстларингизни ҳам аяб ўтириб бўлмасди. Тошкент муниципалитетининг собиқ раиси, кадетлар партиясининг етакчиларидан бири профессор Малесткий (*Н.Г. Маллицкий назарда тутилмоқда – Д.А.*) билан шиддатли кураш олиб боришга тўғри келди. Мени Самарқанд муфтийси, адиб Маҳмудхўжа Беҳбудий ва эсерлар, асосан, Вадим Чайкин ва шарқшунос Лев Зимин кўллаб-қувватладилар. Кадетлар партияси кўплаб ўрта

осиёлик зиёлиларнинг ишончини қозонди, лекин қозоқ, ўзбек ва туркман қишлоқларининг кўзи очила бошлаган вакиллари унга эҳтиёткор муносабатда бўлди. Улар билан Маҳмудхўжа олиб борган очиқ суҳбатлар ўз таъсирини кўрсатди ва биз вилоятлардан келган мусулмон делегатларни ишонтиришга, уларни федерация тарафдорига айлантиришга муваффақ бўлдик» [Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Уфа: Китап, 1994. С. 176.]. Қайд этиш керакки, федератив тузумга қарши бўлганлар агар Россия федератив республика мақомини олса, мусулмонлар ютқазиди, негаки улар мухторият асосида ўзларини бошқаришга тайёрланмаган, тараққиётга ғов бўлиб турган руҳонийлар тобелигига тушиб қолишди деб ҳисоблаганлар. Маҳаллий аҳолидан бўлган делегатларнинг маълум қисми ҳам ушбу қарашлар таъсири остида эди. Шу боис Беҳбудий тушунтириш ишларини олиб борган. У Туркистон парламентида фақат рус тилида гапирилиши катта хато бўлади, туркий ва рус тиллари тенг ҳуқуққа эга бўлиши керак ва бу эртами-кеч амалга ошади деб ҳисоблаган. 1917 йил 9 – 16 апрель кунлари бўлиб ўтган Туркистон ўлкаси ижроия қўмиталари съездида чиқиш қилар экан, Беҳбудий Валидий билан ҳамкорликда маҳаллий аҳолининг сайланадиган органларда иштирок этиш ҳуқуқини ҳимоя қилган. Кадетлар партиясининг шовинистик сиёсати ва Н.Г. Маллицкийнинг нуқтаи назарига қарши чиқишда давом этиб М. Беҳбудий шаҳарнинг ҳар икки қисми

– эски ва янги қисмлари учун ягона ўзини ўзи бошқариш органини яратиш зарурлигини қайд қилади. «Шаҳарнинг ўзини ўзи бошқариш органларини бўлиб юбориш руслар учун ҳам мақсадга мувофиқ эмас: кўплаб шаҳарларда руслар яшайдиган қисм ўз эҳтиёжларини ўзлари қондиролмай қолади. Руслар ёш мусулмонлар билан ишлашлари керак. Мусулмонларнинг ўзлари эркинлик ва маданият йўлида ўз ўринларини русларга бўшатиб берадилар». Нотик мурасага келишга ва русларга барча ўринларнинг учдан бирини ажратишга тайёр бўлган. «Руслар жабр кўришдан хавфсирамасликлари керак. Бухорода яҳудийлар мусулмонлар орасида 1200 йилдан бери яшаб, бойиб, ривожланиб келишди. Маданият ва кўшинга эга европаликлар ҳеч нарсадан хавотирланмасалар ҳам бўлади, аммо мусулмонларнинг ҳуқуқлари камайтирилиши демократия принципларига зид келган бўларди» [Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Уфа: Китап, 1994. С. 174.]. Бу материал кўп нарсалар ҳақида мулоҳаза юритиш имконини беради: биринчидан, «Туркестанские ведомости»да М. Беҳбудийнинг нутқи сал бошқачароқ кўринишда бўлган. Туркистон ижроия қўмиталари съезди ҳужжатларида унинг иккита фикри тушиб қолган (биз юқорида келтирган фикрлар). Газетада М. Беҳбудий мусулмонлар мурасага бориб 1/3 қисмнинг ўрнига барча ўринларни русларга беради деб айтган дейилган [Протоколы съезда делегатов Исполнительных Комитетов Туркестанского края. 9 – 16 апреля, 1917 г. Ташкент: Типография «Туркестанских ведомостей», 1917. С. 29.]. Бундай бўлиши мумкин эмасди. Н.Г. Маллицкий, афтидан, ўринларнинг пропорционал миқдори принципи русларнинг маҳаллий аҳоли билан таққослаганда кам сонли эканини ҳисобга олганда уларга умуман жой қолдирмаслигидан хавфсираган кўринади. Шундан келиб чиқилса, М.

Бехбудий мураса сўзи остида русларга кўп ўрин, яъни учдан бирини тақдим этишни назарда тутган. Унинг нутқида, газета материалларига кўра, бир муҳим деталь бор – бу куйидаги сўзлар эди: «Бўлинишга уринишлар бўлмаслиги керак, акс ҳолда, мусулмонларнинг ўзлари тенгҳуқуқлилика эришадилар». Хужжатларда мазкур фикр кескинроқ янграйди: «Агар руслар бунга рози бўлмасалар, мусулмонлар умумий масалалар бўйича келишув комиссиясини ташкил этган ҳолда ажралиб чиқишга мажбур бўладилар» [Ўша жойда. 30-б.]. Демак, М. Бехбудий Туркистон Мухториятига асос солингунга қадар ҳам муваффақиятсизлика учралган тақдирда ва сиёсий кучлар номувофиқ тақсимланган ҳолатда мустақил давлатни ташкил этиш эҳтимолини кўзда тутган.

М. Бехбудий жаидлар ўртасида катта ҳурмат-эътиборга сазовор бўлган. Унинг ишонтириш қобилияти сафдошларининг шубҳа ва қийинчиликларни ортда қолдиришига ёрдам берган. Валидийнинг гувоҳлик беришича, у кенг миллий ҳаракатни авж олдиришни уддалашларига ишонган. Ҳатто турли гумонлар қуршовида қолган Мунаввар қори ҳам унга қулоқ солган, деб ёзади Заки Валидий. Унинг съезддаги танқиди туфайли Туркистонда шаҳар бошқарувининг икки шакли – руслар учун алоҳида ва маҳаллий аҳоли учун алоҳида сайловлар ҳақидаги хавфли усул рад этилган, ўзини ўзи бошқаришнинг ягона тизими таклиф қилинган. М. Бехбудий фаолиятида миллий манфаатлар етакчи ўрин эгаллаган, бироқ у барча сиёсий кучлар, миллий ҳаракат ғояси тарафдорларининг бирлашишини ёқлаган. Шу билан бирга, Аҳмад Заки Валидийнинг гувоҳлиги Бехбудийнинг большевикларга муносабати салбий бўлганини тахмин қилиш имконини беради. Ҳар ҳолда, «Мунаввар қори, Бехбудий ва бухоролик жаидлар ҳам кадетларга, ҳам социализмга қарши чиққанлар» деган жумла фақат шу маънода тушунилиши мумкин [Заки Валиди Тоган. Воспоминания. С.176.]. М. Бехбудий ўша пайтда мавжуд партияларнинг ҳаммасидан хабардор бўлган. 1906 йилиёқ махсус мақолада тўрт партияга, жумладан, большевиклар партиясига баҳо берган [Ўша жойда. 186-б.]. Сарлавҳа сифатида арабча «Хайр ул-умури авсатуҳо» мақоли танланган, унинг мазмунини «Ҳар бир ишда ўрталикни танлаган маъқул» деб ифодалаш мумкин.

Биринчи партияни М. Бехбудий монархистлар, эски тузум тарафдорларидан ташкил топган «буйрукратия-мустабид» деб атайди. Агар бу тузум, М. Бехбудий фикрича, Туркистоннинг мустақил ривожланиши учун тамомила яроқсиз бўлса, социал-демократик партия (иштирокиюн аъмиюн маъишат муштарака фирқаси) дастурини нафақат яроқсиз, балки зарарли деб ҳисоблайди: «Ҳар ҳолда, бу партиянинг муроди мумкин лойиқи ёинки хаёлийдек кўрунуб, бу тоифага кўшулмоқ биз, мусулмонлар учун ниҳоятда зарарлиқдур. Програмларини(нг) молия моддаларина бир оз тағйир бермагунча, шариятга мувофиқ ўлмағони каби жоний ва оила бобидаги фикрлари ҳам асло-асло тўғри келмайдур» [Бехбудий М. Хайр ул-умури авсатуҳо // Ҳуррият. 1906 й. 11 октябрь]. Бехбудийнинг мазкур муносабати совет тадқиқотчилари томонидан социализм мақсадларини тушуниб етмаслик, марксизмни билмаслик, кейинчалик англаб етилган хато сифатида талқин

этилган. Аммо «Хайр ул-умури авсатуҳо» мақоласининг асл нусхаси билан танишиш М. Беҳбудийнинг социал-демократик партия ва унинг дастурига салбий баҳоси аниқ-равшанлигига шубҳа қолдирмайди. У кадетлар партияси (кадет аъвомия маъишат маршрута фирқаси) ҳақида радикалроқ, ҳатто хайрихоҳлик билан фикр билдиради, лекин кейинроқ апрелда Туркистон ўлкаси ижроия қўмиталари делегатлари съездида ушбу партия аъзоларининг ҳатти-ҳаракатларига тўқнаш келиб ҳафсаласи пир бўлган ва уларнинг нуқтаи назарини кескин танқид қилиб чиққан.

М. Беҳбудий баҳо берган тўртинчи партия «Русия мусулмонлари иттифоқи»дир. Ушбу партиянинг сиёсий дастури кадетларникига ўхшаш бўлган, бироқ у мусулмонларни диний, иқтисодий, мафкуравий жиҳатдан бирлаштирган. Беҳбудий мазкур ҳаракатда Туркистон, Бухоро ва Хиванинг ҳар бир вилоятидан умумий ҳисобда 30 нафардан кам бўлмаган мусулмонлар вакиллари бўлиши, Туркистоннинг ривожланиши учун хизмат қиладиган қўмита яратилиши керак деб ҳисоблаган [O'sha joyda] . Шундай қилиб, у ўзининг нуқтаи назарини «олтин ўрталиқ» деб атаб Туркистон замини учун энг мақбул партияни танлайди. Ўзининг енгил ва жонли тилда ёзилган фельетони билан ўқувчиларга тўртала партиядан ҳар бирининг мақсад ва вазифаларини тушунтириб беришга ҳаракат қилади. Бироқ биз, муаллифдан фарқли ўлароқ, бу асарни фельетон эмас, балки мустақил баҳо ва тизимлаштиришга эга таҳлилий мақола сифатида баҳолаймиз.

JADIDCHILIK G'OYALARINING SHAKLLANISHIDA XORIJIY SAFARLARNING O'RNI

(MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING SAFAR XOTIRALARI MISOLIDA)

Djalilova Xurshida Mirxoliqovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti dotsent,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkiston o'lkasida jadidchilik g'oyalarining shakllanishida ma'rifatparvarlarning chet el mamlakatlariga qilgan safarlarining o'rni Mahmudxo'ja Behbudiyning safar xotiralari misolida tahlil etiladi. Behbudiy Sharq va G'arb mamlakatlariga sayohatlari natijasida jahonning ilg'or mamlakatlari hayoti bilan tanishib, dunyoqarashi va tafakkurida ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi, natijada unda taraqqiy etish g'oyalari shakllanib, ular ijtimoiy-madaniy hayotda amaliy ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan, Mahmudxo'ja Behbudiyning safar xotiralarini tadqiq etish nafaqat avtobiografik ma'lumotlar, balki jadidchilik harakatining shakllanish va rivojlanish omillarini ham teran anglashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvar, taraqqiy, g'oya, safar, sayohat, dunyoqarash.

Abstract: This article analyzes the role of the travels of enlighteners to foreign countries in the formation of Jadidism ideas in Turkestan at the end of the

19th and beginning of the 20th centuries using the travel memoirs of Mahmudkhodja Behbudi as an example. As a result of Behbudi's travels to the East and West, he became acquainted with the life of advanced countries of the world, and positive changes occurred in his worldview and thinking, as a result of which ideas of progress were formed in him, which found practical expression in socio-cultural life. From this point of view, the study of Mahmudkhodja Behbudi's travel memoirs allows us to deeply understand not only autobiographical information, but also the factors of the formation and development of the Jadidism movement.

Keywords: Jadidism, Enlightenment, progress, idea, journey, travel, worldview.

XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati keng quloch yoydi. Jadidlar nafaqat yangi maktablar, kutubxonalar, teatrlar ochganlar, balki madaniyatli va ma'rifatli barkamol inson haqidagi qarashlari va g'oyalarini o'zlari yaratgan publitsistik hamda badiiy asarlarda keng ifodalaganlar, matbuot ishini yo'lga qo'yib, gazeta va jurnallar chop ettirdilar. Jadidlar Chor Rossiyasining XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda olib borgan siyosatidan norozi xalqni jaholat girdobidan qutqarib, ilm, ma'rifat va milliy ruhni singdirishga bel bog'ladilar.

“Jadidchilik hodisasi, avvalambor, Sharq va Yevropa madaniyatini bilish bilan belgilanadigan nihoyatda yuksak rivojlangan aql-zakovatda yotadi. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olib, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy she'riyati, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining falsafiy risolalari asosida tarbiyalangan, uni Sharq va Yevropa xorijiy madaniyat yutuqlari bilan boyitgan. Bu omillar jadidlarning falsafiy dunyoqarashining xususiyatlarini ham belgilab berdi va ularning ta'lim va umuman ma'rifatni isloh qilishdagi faoliyatida o'z ifodasini topdi” [Alimova D., 2022: 272]. Turkistonda yangi ilg'or ma'rifatparvar g'oyalarining shakllanishi va jadidchilik harakatining boshlanishida xorijiy safarlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'plab jadidlarimiz dunyoqarashini kengaytirish, jahon mamlakatlari hayoti bilan tanishish maqsadida Fransiya, Germaniya, Gollandiya kabi Yevropa davlatlariga safar qilishgan. Ularning bu sayohatlari Yevropa madaniyati va ma'rifatining ularga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatganini yaqqol tasdiqlaydi. [Saidov U., 2004: 10].

Turkiston jadidchiligining asoschisi, birinchi dramaturg, noshir va mohir pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning dunyoqarashi va ilg'or fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanishida chet ellarga qilingan safarlar muhim rol o'ynagan. O'zbek adabiyoti va madaniy hayoti tarixida Behbudiyning “Padarkush” (1911) ilk dramatik asarning yaratilishida Mahmudxo'ja Behbudiyning xorijiy davlatlar bo'ylab sayohatlari turtki bo'lgan. Ushbu asarning 1913-yilda sahnalashtirilishi bilan o'zbek teatrining tarixi boshlanadi.

Behbudiyning 1899-1900-yillardagi Makka ziyorati uning dunyoqarashini tubdan o'zgartirib yubordi, safar davomida ko'plab Sharq va Yevropa davlatlarini bosib o'tar ekan, o'z xalqining ayanchli ahvolini, bu holning sabablarini yanada yaqqolroq anglab yetdi. 1903-1906-yillardagi Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodga qilingan safarlar Behbudiyni jadidchilik harakatining ilg'or g'oyalari bilan ilhomlantirdi. Safardan qaytgan Behbudiyn Samarqandda yangi usuldagi maktablarni ochdi. Keyinchalik, 1913-yilda esa Samarqandda nashr etilgan

ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy "Oyina" jurnaliga asos soldi. Behbudiy ushbu jurnalda muntazam nashr etilgan sayohat tafsilotlarida safar yo'nalishi "Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Orenburg, Hindistondan kerakli kitoblarni olib, Kavkaz va Qrim orqali Istanbulga, keyin Yunonistonga, keyin Bayrut orqali Misrga Qohiraga va yana Istanbulga" [Бехбудий М., 1999:54] yo'l olinishini qayd etadi. Sayohat kundaligi sahifalarida muallif shaxsan o'zi guvoh bo'lgan voqealarni aks ettiradi. Shulardan biri Behbudiyning 1914-yilda Ismoil Gasprinskiyni Istanbulda uchratib qolganligi haqidagi xotiralari ayniqsa muhim tarixiy va biografik fakt sifatida alohida e'tiborga loyiq. Behbudiy uchun ustoz bilan bo'lgan ushbu uchrashuv so'nggi uchrashuv bo'lganligi uchunmi, adib bu haqida nafaqat g'urur, balki ayni paytda qalbidagi qayg'u va iztirob bilan eslaydi. O'sha davrdagi jadidchilik harakatining asoschisi va rahbari bo'lgan Ismoil Gaspralini kasal ahvolda tasodifan Istanbul parklaridan birida ko'rib, shunday yozadi: "Istanbulda janob bilan tasodifan uchrashib, suhbatlashish xayolimga ham kelmagan. Alloh taoloning marhamati bilan u bilan 7 soatlik suhbatdan shu qadar xursand bo'ldimki, zavqimni so'z bilan ta'riflab bera olmayman va bu suhbatdan olingan zavq qalbimda mangu saqlanib qoladi" [Бехбудий М., 1999:54]. Muallif "Qasdi safar" asarida usuli jadid maktablarining nazariyotchisi va amaliyotchisi bo'lgan ustoz bilan uzoq suhbat asosan musulmon mamlakatlari taqdiri, ularning taraqqiyoti va gullab-yashnashi haqida, shu bilan bir qatorda Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg'ona, umuman Turkistondagi ta'lim-tarbiya masalalari to'g'risida ekanini hayajon bilan eslaydi. Darhaqiqat, Gasprinskiyning birgina "Tarjimon" gazetasi jadidchilikning ma'rifiy g'oyalarini keng targ'ib etishga beqiyos hissa qo'shganini, uning sahifalaridan kitobxonlar yangi, ilg'or g'oyalar olamini kashf etganini yodga olsak, ushbu uchrashuvning Behbudiy uchun nechog'lik muhim va qadrli ekanini anglash qiyin emas.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1899-1900-yillarda haj safariga borgan bo'lsa, 1903-1904-yillarda esa Moskva va Peterburgga, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod kabi shaharlarida xizmat safarida bo'ladi. "1325 sanai hijriyasida Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni yorminkasinda milliy ishlar to'g'risida mashvarat qilinaturgan majlisg'a musharraf bo'lmoq uchun O'runburg yo'li ila Masko'v, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novag'o'ro'd borib edim"[Бехбудий М., 1999: 54], deb, ushbu safar haqida Behbudiyning o'zi shunday ma'lumot beradi. Amerikalik olim Adib Xolid jadidlar ijodini tahlil qilar ekan, ularning hayoti va faoliyatida sayohatlarning muhim o'rin egallaganini ta'kidlaydi: "Deyarli barcha jadidlar rus tilida gaplashardi, lekin bu zamonaviy bilimlarni Markaziy Osiyoga uzatishda muhim kanal emas edi. Yozma adabiyotdan tashqari, xorijga sayohat qilish musulmon harakatlarida va ziyolilar bilan muhim aloqalarni o'rnatishni ta'minladi. Jadidlar har doim boshqa musulmon mamlakatlariga sayohat qilishgan. Behbudiy hayotidagi burilish nuqtalaridan biri uning 1900-yilda Misrga sayohat qilib, u yerda al-Azharga tashrif buyurgani va Muhammad Abdu kabi islohotchilar bilan uchrashganidir"[Khalid A., 1998: 112].

Behbudiy ham o'zga yurtlarni ko'rish, ularning tajribalarini o'rganish maqsadida sayohatga intilgan. U o'zining ikkinchi bor 1907-yildagi safari haqida shunday yozadi: "Safar 25 kun, 7 sanadan beri ikki da'fa Buxoro va bir da'fa

Fargʻonani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yoʻq edi. Azbaski, “tiriklik” kasaligʻa mubtalolik, roʻzgʻor qaydigʻa giriftorlik sayohat neʼmatidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar tarafdin alloyiqi roʻzgor, tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq “Samarqand” jaridasi va hozirgi “Oyina” idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. Aʼzo va havaslarga kasolat paydo boʻldi” [Бехбудий М., 1999: 54]. Adibning oʻzi guvohlik berishicha tabiblar unga sayohat qilishni maslahat berishgan, biroq uning asosiy maqsadlari keyingi satrlarda ochiqqlanadi: “digar tarafdin, Istanbul, Misr, Qirim, Kafkaz, Qozon, Oʻrunburg, Hindiston kitoblaridan kelturmoq kerak. “Oyina”da qoʻymoq uchun Rusiya va xorijiyanning mashhur imorat va manzara akobirlarining rasm va suratlari, ilmiy va fanniy maqolalar uchun fanniy va tarixiy naqshlarni qolibi-klishesi lozim” [Бехбудий М., 1999: 54- 55].

Behbudiy oʻz safarining yoʻnalishini ham aniq belgilab, “Kafkaz va Qirim vositasi-la Istanbulgʻa, andin Yunonistongʻa kirib, soʻngra Bayrut tariyqi-la Misr al-Qohiragʻacha borib, yana qaytishga Istanbulgʻa kirib, Rum eli temur yoʻli ila Bulgʻoriston, Avstriya va Berlin tariyqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistongʻa advat etilsa, ikki-uch oydin beri ushbu safarning tahiyyasida eduk” [Бехбудий М., 1999: 55], deya, oʻz xotiralarining nashr etilishini va shundoq ham ogʻir ahvolda qolgan matbuot ishlari va ayniqsa oʻsha davr senzurasidan oʻtish niyatida oxirigi misralarni, yaʼni vatani azizimiz Rusiya va Turkiston tariqasida yozishga majbur boʻlgan. Behbudiy oʻz sayohati davomida guvoh boʻlgan voqealar haqida “Oyina” jurnalida oʻquvchilarga “sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib tururmiz. Agarda sayohatdan eson qaytsak, sayohatnomamiz muttasil va musavvar bosilib chiqsa kerak” deb, niyat qiladi. Behbudiyning mazkur asari aniq va qiziqarli maʼlumotlarga boy boʻlib, turli masalalarga oid muallif fikr- mulohazalarining teranligi bilan ajralib turadi.

Behbudiy safar xotiralarida tashrif buyurgan shaharlarini tasvirlashda obyektiv boʻlishga, publitsist sifatida koʻzga tashlangan kamchiliklarga tanqidiy munosabatini berishga intilgan. Safar davomida muallif oʻzi koʻrgan va guvoh boʻlgan eʼtiborli voqealar, faktlarni shunchaki qayd qilib qoʻymaydi, balki ular haqida mushohada yuritadi, tahlil etadi. Shu sababli sayohatnomada faktografik va tahliliy qatlamlar yonma-yon boradi, asar markazida turuvchi muallif-sayyoh obrazi esa ikki qatlamning uygʻunligiga intiladi. Behbudiy sayohatida oʻz koʻzi bilan koʻrgan, guvoh boʻlgan voqea-hodisalarni bayon etish bilan bir qatorda hamrohlari, yoʻlda uchratgan insonlar orqali eshitganlarini ham batafsil bayon etadi. Behbudiy safari davomida koʻrgan va eshitganlari natijasida musulmon xalqining ogʻir abgor ahvolining sababini savodsizlikda, ilmsizlikda ekaniga yana bir bor guvoh boʻladi va oʻz oʻquvchilariga bilim olish naqar muhim ekanini sodda va jonli misollar yordamida uqtirishga harakat qiladi. Maʼrifatparvar adibning xalqni bilim va hunar egallashga chorlovini, xorijiy tillarni oʻrganish nechogʻlik muhim ekanligi haqidagi bongini uning ushbu masalalarga bagʻishlangan bir qator maqola va ocherklarida ham kuzatish mumkin.

Muallif oʻzining achchiq kinoyasi orqali oʻzi koʻrgan va kuzatgan holatlarni bayon etar ekan, “isloh etmak” zarurligiga yana bir bor amin boʻlib, bu kabi holatlarning asl sabablari ularning savodsizligida, deb biladi. Muallif-sayyoh safari

davomida uchratgan turli din va millatga mansub odamlarning xatti-harakatini kuzatadi, qiyoslaydi, har birining ijobiy va salbiy jihatlarini o'z pozitsiyasi orqali ko'rsatib beradi. Muallif-sayyoh o'zi kezgan yurtlardagi ayrim masjidning xaroba ekanini ko'rib dili og'risa, aksincha "sayqal berilgan" va "tavsifiga qalami ojiz" binolarni ko'rib, qalbida g'urur hissi bilan bunyodkor ajdodlarga qarata: "Ey, o'tmish muqaddas musulmonlar! Ey boniylar! Ey fotihlar! Olloh Sizlarni nihoyasiz rahmatlarga g'arq etsunki, zamonangizda bu qadar lohutiy asarlar va muqaddas buq'alar bino etibsiz. Chin musulmonlar, haqiqiy insonlar sizlarsiz" deb, tahsinlar o'qiydi [Бехбудий М., 1999: 115].

Behbudiy o'z asarini yozishdan asosiy maqsadi vatandoshlariga ularning ayanchli ahvolini ko'rsatish, o'zga rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ibratga loyiq holatlarni solishtirish uchun jonli misol tariqasida keltirish edi. Shu sababli muallif o'z g'oyasini o'quvchi ongiga yetkazish niyatida oson, tushunarli va yengil tilda yozadi, ularning ta'sir kuchini oshirish maqsadida turli badiiy usullarni qo'llaydi. Mahmudxo'ja Behbudiyning sayohat xotiralarini tahlil qilgan nemis olimasi Ingeborg Baldauf: "muqaddas yurtga haj safari to'g'risida maqolalar yozish orqali Behbudiy vatan haqidagi achchiq haqiqatlarni tilga olishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan" [Балдауф И., 2001: 29] deb, xolisona baho beradi. Olima adibning asosiy maqsadi muqaddas qadamjolarini ta'riflash emas, balki o'z yurtining og'ir ahvolini qiyoslash orqali ko'rsatish, buning sabablarini ochib berish ekanini ta'kidlaydi.

Adibning sayohat xotiralarini tahlil qilar ekanmiz, muallifning safarga yo'l olishiga sabab bo'lgan omillarni ham sanab o'tganini kuzatdik. Biroq hozirgi kunga qadar ba'zi sabablarga ko'ra yetib kelmagan ma'lumotlar ham bo'lganini inkor eta olmaymiz. Tojikistonlik olim Murodi Murod Berdining haqli ravishda ta'kidlashicha, "Hozirgacha Behbudiy hayotining oxirigi kunlari haqidagi ma'lumotlar gipotetik xarakterga ega bo'lib, uning yangi ijtimoiy tuzumdan hafsalasi pir bo'lishi, kutilmagan sayohati va o'ldirilishi sabablari sirliqicha qolmoqda" [Муроди Мурод Берди, 2024: 32].

Naim Karimov adibning g'oyaviy maqsadini shunday izohlaydi: "1899-1900 va 1914-yillarda haj safariga chiqqan Behbudiyning safarnomalari bilan tanishgan kishi uning XX asr boshlaridagi dunyo faqat musulmonlar va xristianlardan emas, boylar va kambag'allardan ham iborat ekaniga, bu dunyoni urush maydoniga aylantirayotgan narsa xalqlar va dinlar o'rtasidagi nizo emas, balki moddiy boylik va moddiy boylik manbayi – oltin, kumush, neft konlarini egallash uchun kurash ekanligiga amin bo'lganini sezadi. 1903-1904-yillarda Moskva va Peterburgga, 1906-yilda esa Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlariga borgan Behbudiy safarnomalarini o'qigan kishi uning shu shaharlardan "Behbudiya" kutubxonasi uchun nodir kitoblar va xaritalarni olib kelganidan xabar topadi" [Karimov N., 2023: 14]. Shu bilan bir qatorda N.Karimov Behbudiyning safarlari davomida o'zi guvoh bo'lgan holatlar, jumladan, bir maktabning bir sinfida musulmon bolalarning xristian bolalari bilan birga tahsil olayotganida xalqlarning osuda va munavvar kelajagini ko'rishini alohida ta'kidlaydi. Behbudiyning biror xorijiy mamlakat yoki shaharga borganida ushbu mamlakatda qancha aholiga nechta gazeta nashr etilayotgani, qancha aholiga nechta teatr xizmat ko'rsatayotgani masalasi bilan ham qiziqqanini qayd etadi. "Aytish mumkinki, har bir xorijiy safar Behbudiy uchun

Turkistondagi turmush darajasini ko'tarishga, xalqning ijtimoiy ongi va madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishga yordam bera oladigan vosita edi" [Karimov N., 2023: 14].

Ushbu fikrga qo'shilgan holda, Behbudiy hayoti va ijodi misolida o'sha davrlardagi sayohat va xizmat safarlarining jadidlar dunyoqarashining shakllanishida, umuman, jadidchilik harakatining kirib kelishi, keng tarqalishida, shuningdek, yangi jadid adabiyotining rivojida muhim bir omil, vosita bo'lgan deb e'tirof etamiz. Shu nuqtai nazardan Mahmudxo'ja Behbudiyning safar xotiralarini tadqiq etish nafaqat avtobiografik ma'lumotlar, balki umuman jadidchilik harakatining shakllanish va rivojlanish omillarini ham teran anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимова Д.А. Жади́дчи́лик феномени. – Т.: Akademnashr, 2022.
2. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Т.: Академия, 2004.
3. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1999.
4. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998. <http://ark.cdlib.org/ark:/13030/ft8g5008rv/>
5. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001.
6. Муроди Мурод Берди. Общие черты и особенности исследований о Махмудходже Бехбуди в Таджикистане (обзорный анализ). Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasi va jadid matbuotida ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – T., 2024, 19-yanvar.
7. Karimov N. Turkistonda jadid adabiyotining vujudga kelish manbalari. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023, 6-7-mart.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY QARASHLARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASI

Normurodova Go'zal

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti professori, t.f.d.

M. Abdujabborova, D. Yaqubova
SamDU 2-bosqich talabalari

Abstract. This scientific article discusses the issue of interethnic harmony in the views of Mahmudkhaj Behbudi. It is shown that the "Father of the Jadids" promoted the ideas of tolerance in his works and activities, and that the ideas of interethnic equality and interreligious harmony were always in the center of his attention.

Keywords: Mahmudkhaj Behbudi, Turkestan Jadids, interethnic relations, religious tolerance, solidarity.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda tarix sahnasiga chiqqan jadidlar millatlararo va dinlararo bag'rikenglik masalasining ko'p qirralik ahamiyatini xilma-xil vositalar orqali o'z qarashlari va faoliyatlarida ko'rsatib berdilar. Taraqqiyparvar jadidlar Turkiston mustamlaka sharoitida kuchaygan madaniy qoloqlik, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik, tanglik holatidan chiqish yo'llarini jahon taraqqiyoti tajribasiga tayanib izlashga harakat qildilar. Qolaversa, jadidlar nazdida har qanday ko'pmillatli davlatning taraqqiyoti ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar va ahloqiy tamoyillar bilan bir qatorda, elatlar va diniy konfessiylarning o'zaro hamjihatligiga bog'liq, deb hisoblangan.

Markaziy Osiyolik jadidlarning Qrim, Kavkaz, Turkiya, Misr, Eron, Afg'oniston, Hindiston kabi xududlarga tashriflari, turli diniy konfessiya vakillari bilan muloqotlari, madaniy sohada tajriba almashinuvi bu xududlar o'rtasida madaniyatlararo aloqalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Rossiyaning musulmon xududlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari va madaniy islohotlar o'z mahalliy xususiyatiga ega bo'lsa-da, milliy, madaniy jihatdan yuksalish g'oyalari ularni birlashtiruvchi omillardan sanalgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, Ahmad Zaki Validiy, Abdurauf Fitrat, Saidrizo Alizoda va boshqa taraqqiyparvar vakillar diniy va milliy tolerantlik tamoyillari asosida Yevropa xalqlarining madaniyat va texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan bahramand bo'lish qo'yilgan maqsadlarga erishuvda asosiy o'rin egallashini nafaqat, o'z qarashlarida, balki amaliy faoliyatlarida ham ko'rsatdilar. Taraqqiyparvarlar Turkiston va unga tutash mintaqalarida tobora ko'p elatli va ko'p konfessiyali muhitining kuchayib borayotgan sharoitida - muloqotning oqilona tamoyillarini izladilar, o'zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, taraqqiyotga intilishlari bilan tolerantlik g'oyalari tarafdorlari bo'lib chiqdilar. Buni tasdiqlagan amerikalik olim Adib Xolid: "islom dini o'z-o'zidan mavjud bo'lmadi, musulmonlar boshqa din vakillari bilan faol munosabatda bo'ldilar va zamonaviy Yevropa madaniyatini o'zlashtirib, taraqqiyot, millat, jamiyat va davlat qurilishi yangi shakllari kabi g'oyalarning kuchli ta'sirida bo'lganlar [Adib Xolid, 2007: 15].

Darhaqiqat, Turkiston ziyolilari birinchi bosqichda asosiy e'tiborini butun ijtimoiy tizimni o'zgartirishdan ko'ra, ma'naviyat sohasini yangilashga qaratdilar. Islohotchilar yangi usuldagi maktablarni ochish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etish, g'arb texnika va texnologiyasini o'rganish zaruriyatini, Yevropa madaniyati yutuqlaridan foydalanishni targ'ib etish orqali milliy dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratdilar. Qolaversa, bu ishlarning barchasi mintaqalararo bog'langan taraqqiyparvar kuchlarning o'zaro muloqoti va birdamligi yo'lida erishib borildi.

Ta'kidlash lozimki, Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ijodida bag'rikenglik masalasi yuqori o'rinda turgan. Jadidshunos olim Begali Qosimov Mahmudxo'ja Behbudiyni "Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir" deb bejizga ta'kidlamagan edi. Etnik, diniy bag'rikenglik masalasiga to'xtalar ekanmiz, Behbudiy barcha xalqlar va millatlarning birligini yakkaxudolikda ko'rgan. U XX

asr boshida 300 mln. ortiq musulmonlardan so'ng nasroniylarni ta'riflar ekan, ular 400 mln. kishiligini aytib, dunyoda nasroniylarchalik kuchli va dunyoviy bilimlarni egallagan konfessiya yo'qligini qayd etadi. XX asr boshida soni 10 mln. ga etgan yahudiylarni ta'riflar ekan, bu xalq kichik jamoalarga birlashib, deyarli barcha mamlakatlarda yashashini ta'kidlaydi [Murtazaeva, 2019: 124]. Bunday ta'riflash usuli bilan Behbudiy ushbu dinlarning vakillariga hurmat uyg'otishga harakat qilgan, musulmonlar Qur'on bilan bir qatorda ularning muqaddas kitoblariga ham hurmat bilan qarashlari lozim deb hisoblagan.

1898-1899-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Xoji Baqo bilan Istanbul, Misr, Hijozga safar qilib haj amalini bajaradi. Haj adib ko'zda tutgan e'tiqodiy masala, ammo shu bahona xorij musulmon o'lkalarining maorif tizimini o'rganmoqchi bo'ldi. Misrning islom olamiga dong'i ketgan "Al-Azhar" madrasasi, Istanbul maktablari ta'lim-tarbiya usullari va turk matbuoti bilan tanishadi. Hatto nasroniylarning maktab va tarbiya usuliga katta ahamiyat beradi [Behbudiy, 2018: 41]. Ana shu paytda yangi orttirilgan do'stlar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar, "Tarjimon" gazetasi va uning muharriri amalga oshirmoqchi bo'lgan olmaslum ishlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan.

Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Xalvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jugrofiyai umroniy" (1905), "Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905), "Kitobat-ul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi. [Qosimov, 2002: 219].

U 1907-yilda Moskva, Peterburg, Qozon, Ufa va Nijniy Novgorod shaharlariga sayyohat qildi. Qisqacha qilib aytganda, Behbudiy Ismoil, Gaspirinskiy, Abdurashid qozi Ibrohimov, Muso Jorulloh Begiev, Rizoiddin bin Faxriddin, Sadri Maqsudiy, Alimardonbek To'pchiboshev, Yusuf Oqchura kabi atoqli shaxslarning "xalqqa burilish", "Vatan istiqloliga zamin yaratish" harakatlari Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmud kabi turkistonlik ziyolilarni, xususan Mahmudxo'jani Behbudiyni o'z so'zi bilan aytganda "xodimul millatga" aylantirdi [Behbudiy, 2018: 41].

Behbudiy bu davrda Rossiyaning har tarafidan Turkiston o'lkasiga, xususan Samarqandga ham "Tarjimon", "Ulfat", "Irshod", "Hayot" va "Yulduz", "Ozod", "Nur" kabi gazeta va nashlar kelib o'z o'quvchilarini topganligini qayd etadi. O'zi ham mazkur gazeta va jurnallarni alohida e'tibor bilan mutolaa qilib borgan. Shu bilan birga, 1903-1904 yillardan Turkiston va Rusiyadan turkiy tildagi matbuotda faol qatnasha boshlagan. Fikriy aloqalar jismoniy uchrashuvlarga zamin hozirlagan. Jumladan ichki Rossiya musulmon ziyolilari xususan, musulmon fraksiyasi a'zolari "Ittifoqi muslimin" muassasalari bilan aloqa o'rnatishiga sabab bo'ladi. 1907-yili Moskva, Peterburg, Qozon, Ufa va Nijniy Novgorod shaharlariga sayohat qiladi. Bunda "Tarjimon" va "Ulfat"da maqola e'lon qilishdan avval Ismoilbek va Abdurashidbek qozilar bilan maktub orqal tanishgan. Nijniyda o'tgan musulmonlar qurultoyida Ismoilbek Gaspirinskiy va Abdurashid qozi Ibrohimov bilan yuz ko'rishib, do'stona munosabatni mustahkamlagan [Behbudiy, 2018: 42]. 25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy "Oyna" jurnalida shunday ma'lumot bergan

edi: “1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijni Novgo‘rud borib edim” [Qosimov, 2002: 219].

Ma‘lumki, Markaziy Osiyo, jumladan Turkistonda islohotchilik g‘oyalarining shakllanishi, ma‘rifiy, siyosiy bosqichlarni belgilab olishda Rossiya jadidchilik harakatining rahnamosi bo‘lgan Ismoil Gasprinskiy (1851-1914) o‘rni o‘ziga xosdir. Shu o‘rinda, Gasprinskiyning bag‘rikengligi, u Turkiston xalqlarining boy ma‘naviy merosini Rossiya musulmonlari orasida yangilanish va islohotchilik harakatlari uchun ma‘naviy asos deb bilgan. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun najot yo‘lini izlaydi va buni islohotda ko‘radi. Shunga ko‘ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan bevosita bog‘liq edi. Shu bois, bu qarashlar Turkistonda yoyilib, turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilari uchun dasturulamal vazifasini bajardi [Ағзамходжаев, 2012: 25]. Gasprinskiy Qrimda usuli jadid maktablarini bir yo‘lga qo‘yib olgandan so‘ng, musulmonlar yashaydigan boshqa mintaqalarda ham ushbu yo‘nalishni joriy qilishga kirishadi. Chunki u musulmon millatini qoloqlikdan chiqishiga asosiy turtki maorif, o‘qitish usulini yangilashda, deb bildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning safar xotiralaridan dunyoqarashini kengaytirish, amaliy aloqalarni o‘rnatish va boshqa mamlakatlarning madaniyat va maorif sohasidagi tajribani o‘rganish ekanligini anglash mumkin. Shu maqsadda, Istanbul, Misr va dunyoning boshqa davlatlariga sakkiz oylik safarga o‘tlanadi. Bu navbatdagi haj ziyorati ayni damda zukko aql sohibining maqsadli ma‘lumot olish safari edi. Sayohat davomida u katta ishlarni amalga oshiradi: yo‘li tushgan barcha mintaqalar iqtisodiyoti, geografiyasi, tarixi aholisining ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganadi va kundalik qaydlarni o‘zi “Sayohat xotiralarini” deb atab, Oyna jurnalning 15 ta sonida chop etgan [Alimova, 2022: 148].

Islohotchilik sharoitida boshqa millatlarning maorif sohasiga bergan e‘tiborini namuna sifatida ko‘rsatgan Behbudiyning bu haqda: “Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o‘z millatlari uchun katta hayr va ehson qiladurlar. Inchunun, Qrim, Kavkaz va Qozondagi musulmon birodarlarimizning boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o‘z birodarlarig‘a mol, aqcha, qalam va ilm ila ko‘p iona qiladurlar” [Behbudiyn, 2018: 41] deb ta‘kidlaydi. Buyuk taraqqiyparvar yoshlarni Makka, Madina, Misr, Istanbul va Rossiya ta‘lim dargohlariga yuborib, diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan yetuk ziyolilar bo‘lib yetishishini astoydil yoqlaydi.

Ozərbayjon-Turkistonning ilmiy va maorif aloqalarida Behbudiyning izdoshi bo‘lgan Saidrizo Alizodaning (1887-1945) sezilarli roli bo‘lgan. Dastlabki ta‘limni Samarqandda olgan S. Alizoda 1908-yilda Eronda safarda bo‘lib, Mashhad madrasasidan, keyinroq Ozarbayjonga borib Boku madrasasidan ta‘lim olgan. U 1913-yilda Samarqand shahriga qaytib, bu erda Hayot, Yangi hayot va A. Shakuriyning yangi usul maktablarida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan [Alizoda, 2022: 4]. Alizoda o‘zining shoir, tarjimon, jurnalist, pedagog va ma‘rifatparvarlik faoliyati davomida Sharq xalqlarining jadid adabiyoti va jadid ta‘limiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Bag‘rikenglik, erkinlik va barcha xalqlarga nisbatan do‘stona munosabat

jadidlarning siyosiy faolligi yuqori bosqichga ko'tarilishining bosh omili edi. Behbudiy ham Turkistonda davlat boshqaruvining shakllari xususidagi qizg'in munozaralar paytida, xususan Turkiston o'lkasi Ijroiya qo'mitalarining 1917-yil aprelda bo'lib o'tgan qurultoyida tub aholining saylangan idoralar ishida teng huquq bilan ishtirok etishini qattiq turib himoya qilgan. "Musulmonlarni qoloq va mutaassib deb aytish noto'g'ri bo'lur edi, deb ta'kidlaydi u, - biz umuman bir-birimizni yaxshi bilmaymiz, biz birgalikda yashayotganimizga ko'p bo'lgani yo'q va faqat endigina ozodlik bizni birlashtiradi, bunday birlashuvdan musulmonlar manfaatdordirlar. Shahar boshqarmalarini bir-biridan ajratib qo'yish ruslar uchun ham manfaatli emas, ko'pgina shaharlarda ruslar yashaydigan qismlar o'z ehtiyojlarini qondira olmaydilar. Ruslar yosh musulmonlar bilan birgalikda ishlashlari kerak. Ruslar qisuvga tushishdan xavfsiramasinlar. Buxoro musulmonlari orasidagi yahudiylar 1200 yildan beri yashab, boyib, rivojlanib bormoqdalar. Madaniyatga va qo'shinlarga ega bo'lgan ovro'poliklar hech cho'chimasinlar, o'z navbatida musulmonlarning huquqlarini kamaytirish demokratiya tamoyillariga zid bo'lur edi" [Alimova, 2009: 117].

Qisqacha xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'da Behbudiy va uning izdoshlari, milliy taraqqiyparvarlar boshqa mintaqalar bilan madaniyatlararo aloqalarda muhim tarixiy iz qoldirdilar. Ular millatlararo hamjihatlik va dinlararo totuvlik jamiyatda barqarorlikni va uning rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan deb hisobladilar. Bunda nafaqat, Rossiya imperiyasi musulmon dunyosi bilan, balki boshqa mintaqalar xalqlari bilan ham yagona g'oyaviy birlikda madaniy aloqalar olib bordilar. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qarashlari va faoliyatida G'arb jamiyatlarining ilm-fan, madaniyat va texnologiyadagi yutuqlaridan samarali foydalanish orqali mintaqalar jamiyati rivojlanishi mumkinligini ilgari surdi. Madaniy jihatdan yuksalish yo'lida avvalo, maorifni rivojlantirish va uning muhim vositasi bo'lgan xorijiy tillarini bilish shartligini o'z qarashlari va amaliy faoliyatida ko'rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. T.: Akademnashr, 2022.
2. Alimova D. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. Часть 2. – Tashkent: Uzbekistan, 2009.
3. Adeeb Khalid. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. University of California Press, 2007.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.: Ma'naviyat, 2002.
5. Агзамходжаев С., Улугбекова З. "Ал-ислох" журнали Туркистондаги ислохотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915–1918 йиллар). -Тошкент, 2012. Б.25.
6. Murtazaeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. – Toshkent, 2019.
7. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 1-jild. -Toshkent: Akademiya, 2018.
8. Saidrizo Alizoda. Murosilot / Maktublar. – Samarqand, 2022.

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING
“BOLALAR UCHUN YOZUV KITABI” HAQIDA**

Qo‘ldoshev Sherali Temiralievich

O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d.

Idiev Akbar Avaz o‘g‘li

O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat ul-atfol” asari tahlil qilinadi. Darslikning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadid maktablari uchun yozilgan ilk uslubiy qo‘llanmalardan biri sifatidagi o‘rni yoritiladi. Asarda xat yozish qoidalari, hujjatchilik asoslari, xususiy va rasmiy xatlar, hujjat namunalari hamda yozish madaniyati keng bayon etilgani ta’kidlanadi. Shuningdek, asarda til qoidalari, tinish belgilarining o‘ziga xos nomlanishi va tarbiyaviy ahamiyati ham ochib beriladi. Behbudiyning mazkur asari hujjatchilik tarixi va jadid maktablari ta’lim metodikasida muhim manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadid maktablari, hujjatchilik, “Kitobat ul-atfol”, Turkiston, ta’lim, xat yozish qoidalari.

Annotation. The article analyzes Mahmudkhoja Behbudi’s work Kitobat ul-atfol (“Children’s Writing Book”). This textbook, published in 1908 and later revised in 1914, was one of the first methodological manuals created for Jadid schools in Turkestan at the turn of the 19th–20th centuries. The book introduces the rules of letter writing, principles of documentation, samples of private and official letters, and models of administrative documents. It also highlights linguistic norms, unique terminology for punctuation marks, and the moral-educational dimension of writing culture. Behbudi’s Kitobat ul-atfol is evaluated as an important historical source for the study of documentation practices and educational methodology in Jadid schools.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, Jadid schools, documentation, Kitobat ul-atfol, Turkestan, education, letter writing rules.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek jadidlarining harakati yosh avlod ta’limi hamda ilm-fanning muhim sohalarini o‘zlashtirishga qaratilgan intilish bilan boshlangan edi. Albatta, Turkiston yoshlarining savodini chiqarish ko‘plab xududlarda yangi usul maktablari ochildi. Biroq, bu maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan zamonaviy bilim berishda zarur bo‘lgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratish lozim edi. Jadid ma’rifatparvarlari bu ishni ham uddasidan chiqdi.

Birgina Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zi “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1903), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1904), “Muxtarasi tarixi islom” – “Qisqacha islom tarixi”(1904). “Amaliyoti islom” (1905), “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” (1908) kabi maktab darsliklari va qo‘llanmalarini misol tariqasida keltirish mumkin. SHulardan biri Mahmudxo‘ja Behbudi tomonidan yozilgan

“Kitobat ul-atfol” (Bolalar uchun yozuv kitobi) kitobi bo‘lib, 1908 va 1914 yillarda Samarqandda ikki marta nashr qilingan. “Kitobat ul-atfol” kitobi Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida usuli jadida maktablariga hujjatchilik va til qoidalarini o‘rgatish maqsadida yaratilgan yangi usuldagi uslubiy qo‘llanma hisoblanadi. Bu masalaga Mahmudxo‘ja Behbudiydan boshqa jadid ma‘rifatparvarlar ham e‘tibor qaritgan edi. Jumladan, Mirzo Rahimbobo “Tamsil ul-insho”, Mulla Odilxoji Mahdumning “Majmuati insho” kabi qo‘llanma yozishgan edi. Bu asarlar qo‘lyozmalari hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda [1,36-bet]. Behbudiy qalamiga mansub “Kitobat ul-atfol” darsligi ilk bora 1908 yilda nashr etilgan, keyinchalik ikkinchi bor ma‘lum o‘zgartirishlar kiritilgan holda 1914 yilda nashr etilgan. Asar titul sahifasining yuqori qismida “Nashriyoti Behbudiy” jumlasini, uning ostida yuqorida nomi qayd etilgan asarning to‘liq nomlanishi, undan so‘ng Samarqandda hijriy 1332/1914-milodiy sanada chop etilganligi hamda qiymati 13-iyinni tashkil etganligi qayd etiladi. So‘ngra darslikning rus tilidagi nomlanish va unga oid ma‘lumotlar beriladi. Sahifaning quyi qismida rus tilida nashriyot manzili Samarqand shahar Reshetnikov ko‘chasi 9 uy ekanligi, 290 ularning telefon raqami bo‘lgani hamda “V.A. Gazarov” bosmaxonasida 1914 yilda chop etilgani qayd etilgan. Mazkur ma‘lumotlar asarning sahifalanmagan so‘nggi betining quyi qismida ham keltiriladi [2, 572-bet].

Asarni shartli ravishda besh qismga ajratish mumkin:

1. Kirish (Darslikni yozishdan maqsad aks etgan);
2. Xat yozish shartlari;
3. Avsof va odobi maktub;
4. Xususiy xatlar;
5. Umumiy xatlar

“Kitobat ul-atfol” asarini so‘zboshi qismida Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday yozadi: “Turkistonning qadim maktablaridagi bolalar 4-5 yil o‘tkargandan so‘ng xat mashq qilib, ba’dinda insho yozadurlar. O‘shal insholar nihoyat mushkul suratda arabiy, forsiy va turkiy yozilgandurki, (maktabdorlar) shogirdlari nari tursin, ba’zi maktabdorlar zo‘rg‘a bilur. Mushkul (satrlar) iboratlik uzun insholar, albatta bola zehni ochmay, balki fikrini yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘lur”.

Shu bois, Mahmudxo‘ja Behbudiy jadid maktablarida xat yozish, xujjatshunoslik, ish yuritish tizimini o‘quvchilarga sodda, mukammal tarzda o‘rgatishni maqsad qilgan. Chunki, jadid maktabini tamomlagan o‘quvchi barcha zamonaviy fanlarni egallash bilan bir qatorda, Turkiston o‘lkasida tijorat ishlari bilan shug‘ullanishi yoki biror davlat idoralarida mirzo sifati ishlashiga imkoniyati bo‘lsa, etarlicha xat yozish, idora hujjatlarini tushunishi lozim edi.

Ma‘lumki, azaldan maktublar xususiy va umumiy xatlarga ajratilgan. Muallifning ta‘rifiga ko‘ra, xususiy xatlar ikki kishi orasida yoziladigan munosabat xatlaridir. Manbada xususiy xatlarning ham odabi ko‘rsatib beriladi. Ya‘ni, xat yozadigan fuqaroning ismi, mansabi, muddosi kabi sifatlari ko‘rsatiladi.

Qo‘llanmada “xat yozmoq shartlari”ni alohida berilgan. Ular jami 18 ta shartlar iborat bo‘lib, xat yozishdan maqsadi, so‘zlarning ma‘nosini bilmasa ularni xatga ko‘chirmaslik, boshqa tillardagi lug‘atlardan, shevalardagi so‘zlardan

foydalanmaslik, inson nuqsoni va sha'niga tegishli ma'lumotlarni keltirmaslik, ayniqsa, kishini laqabi bilan atamaslik, "ilmiy va siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratda" yozilishi, kamso'z, serma'no, xatolarsiz, haqoratlarsiz, hissiyotga berilmasdan yozish, ota va onaning bolalarga munosabatlari; ota-ona oldidagi burchi; bolalarning huquqlari; xat yozmoqning qoidalari va shartlari; mahalliy hokimiyatga ariza yozish; ma'lumotnoma; tasdiqnoma; mamlakat fuqaroligi uchun va xorijiy pasport berish; shahodatnoma; tilxat kabi hujjat namunalarining yozilish tartibi va qoidalari o'z aksini topgan. Xat oxirida imzo qo'yish bilan bir qatorda oy, kun va yilni to'g'ri qo'yilishi lozimligi ta'kidlangan. SHu bois, qo'llanmada hijriy, milodiy yil va oylari, ularning arab, fors, rus va o'zbek tillaridagi nomlari alohida jadval tarzida berilgan. SHuningdek, qo'llanmada "Namuna xatlar" qismida o'quvchining otasi, onasi, ustozi, aka-ukalari, do'sti, farzandiga o'ttizdan ortiq xususiy xatlar keltirilgan. SHuningdek, pasport (Tazkirai murur, ya'ni erkin yurish xujjati), horijga chiqish uchun tasdiqnoma, shahodatnoma, davlat idora vakili, hokimga rasmiy xatlar, iqronoma kabi yigirmaga yaqin rasmiy xatlar va xujjatlar namunalari berilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy ish yuritishda so'zning qudrati, so'zning muhimligiga alohida e'tibor qaratib, har bir so'zni o'z qoidasi, o'z imlosi bo'yicha yozish talab etilishi ko'rsatiladi. Xatni shaxsiy fuqarolarga bo'lsin, idoralarga bo'lsin uni mulohaza qilib, uning etib borganida oluvchiga o'z ta'sirini o'tkazishini o'ylab, fahm bilan yubormoq maqsadga muvofiq, deyiladi.

O'zbek hujjatchilik tarixida til, uning odobi, axloqi, uning ish yuritish sohasidagi qoidalari mavjud asarlar ichida "Kitob ul-atfol" alohida ajralib turadi. Unda tinish belgilarni ham o'ziga xos nomlanishlari o'rin egallagan. Jumladan, so'roq belgisini alomati savol; undov belgisni alomati nido, taajjub xitob; tere esa, ikki so'zni farq qilaturgon alomat; barobar esa, ikkisi bir pog'onada; vergul esa, ozgina turmoq uchun; ikki nuqta esa bayon va tafsil uchun; ko'p nuqtalar esa, notamom so'zlar; so'zning oxiri yoki vaqfi tom alomati kabi atamalar bilan berilganligini ko'ramiz.

"Kitobat ul-atfol" hujjatchilik sohasida tarixiy qo'llanma hisoblanib, ayni paytda jadidlar maktabida darslik sifatida foydalanilgan. Unda til qoidalari mujassamlashgan. Ya'ni matnlar, xatlar, hujjatchilikka oid tahlillar berilganki, bular o'quvchini, talabalarni tarbiyalash va o'z savodlarini anglashida alohida vosita hisoblanadi. Qo'llanmada berilgan matnlarda odob va axloq qoidalarining yuqori darajada qo'llanganligini ko'ramiz.

SHu boisdan Behbudiyning "Kitob ul-atfol" kitobi hujjatchilikning manbasi sifatida tarixiy qimmatga ega. U bir asrdan oshganligiga qaramasdan hali ham o'z kuchini yo'qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехбудий. М. Китобат ул-атфол. Самарқанд, 1908. ЎЗР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 3029, 7269, 14325. 36-саҳифа.
2. Idiyev, A. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" asarining tarkibiy tuzilishi // XXI asr: fan va ta'lim masalalari ilmiy elektron jurnali, вып. 1. Zenodo, 2025., -B. 572, <https://doi.org/10.5281/zenodo.15579538>.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI HAQIDA

Toshpo‘latov Akram

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Jadidlar millat fidoyilari sifatida g‘oyat murakkab bir davrda tarix sahnasiga chiqdilar. Xususan, Behbudiyning faoliyati Turkistonda mustamlaka avj pardaga ko‘tarilgan, Chor Rossiyasi bosqini yangi bir nom – bolsheviklar harakati ostida Turkiston yerlarini qaytadan g‘orat qilishni boshlagan, mamlakatda esa urug‘chilik, jaholat, turg‘unlik, mutaassiblik kundan kun kuchayib millatni butkul holdan toydirgan paytlarga to‘g‘ri keladi. “U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan zamonasining eng yirik nomoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnomasi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi” [1, 5-6-betlar].

Badiiy adabiyotning tug‘ilishi o‘z-o‘zidan adabiy tanqidning ham yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan hodisalardandir. O‘zining birinchi dramatik asari – “Padarkush”ni yozishni maqsad qilgan Mahmudxo‘ja Behbudi adabiyotning, jumladan, teatr san‘atining Turkiston yoshlari dunyoqarashida muhim ta‘sirini yuqori bir intellektuallik darajasida anglaydi. Shuning barobarida, umuman jamiyatda, yoshlar tarbiyasida tanqidning kuchini juda yuqori qo‘yadi. O‘tmishda va o‘sha davrda yo‘l qo‘yilgan jiddiy xatolarni anglab yetish, mulohaza qilish uchun ham o‘z-o‘zini so‘roqqa tutish va uning o‘ziga xos yechimini topish zarurligini uqtiradi. Shunday tafakkur tarzining maydonga chiqishi tabiiyki, adabiy tanqidni, teatr tanqidini taqozo etadi, shuning bilan birgalikda, muammoni kun tartibiga qo‘ya oladi. Shunday tarixiy ehtiyoj tufayli “Behbudi adabiy tanqidga katta e‘tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so‘ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o‘rtaga qo‘ydi. uning ushbu mavzuga bag‘ishlangan jiddiy maqolalaridan biri “Tanqid saralamoqdir” deb nomlangan edi” [2, 226-bet].

Mahmudxo‘ja Behbudi ushbu maqolasida, avvalo “tanqid” so‘zini izohli ma‘nosini tushuntirishga harakat qiladi. Gazeta va jurnallarning katta bir xosiyati shundaki, unda tanqidning mavjudligi, ya‘ni saralashning imkoniyati yuqori ekanligi bilan baholanishini alohida ta‘kidlaydi. Ma‘rifatparvar adibning fikriga tayanadigan bo‘lsak, uning jonkuyarlik bilan “yangi maktablar uchun darsliklar yaratilmoqda – shu darsliklarda ayrim kamchiliklar, xatoliklar yuzaga kelmoqda. Ularning kamchiliklarini ko‘rsatib, xatolarini tuzatish, bu muallifga hujum, dushmanlik emas, balki unga yaqindan berilgan yordam, ko‘mak sifatida qabul qilinishi kerak. Shu orqali ta‘limda sifat samaradorlikka erishishi mumkin” degan mulohazalarini anglab yetish qiyin emas.

“Bizda maktablar bino qilinyapti, yangi-yangi risolalar bosilib turibdi. Jurnallarga, gazetalarga maqolalar berilyapti. Ammo ularni tartibga soladigan tanqid

davrigacha yerishganimcha yo‘q”, deb adabiy tanqid darajasini juda yuqori baholaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy tanqidning vazifasini tez va o‘rinli o‘rganmaguncha badiiy asarlarda, maqolalarda, risolalarda saviya bo‘lmasligini o‘z vaqtida anglab etadi.

“Ittifoqo, tanqid shaklida bir nimarsa yozilsa, bizlarga qattiq tegar. Yozganlarimizni buzuvchiligi va fikrimizni xatoligi, ishimizning noqisligini biror kishi ko‘rsatsa, achchig‘imiz kelur. Va ul odamni dushman ko‘rib, shaxsidan nafrat va fikriga norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishga boshlaganimizdan, boshqa til ila, noqisligimizdandir. Biz eskilarni ayblamaymizki, alarni islohdan so‘zlasak, chiday olmaydurlar. Ammo o‘zimizni maktab, risola, tahrir maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid so‘zini tinglamaymiz” [1, 149-bet].

Tanqidni to‘g‘ri ma’noda tushunib yetish, tabiiyki, barcha xalq vakillariga oson emas. Inson tabiati o‘zidagi kamchiliklarga shunchaki hakamlilik qilavermaydi. Uning uchun ma’lum bir tafakkur tarziga ega bo‘lishni talab etadi. O‘zbilarmon, nafsiga qul, savodsiz, mutaassib, kaltafahm, dunyo ko‘rmagan, o‘z manfaatidan boshqa narsaga qiziqmaydigan, to‘g‘rirog‘i insoniy tushunchaga tufurib qo‘ygan kishilar uchun tanqid uni haqorat qilish bilan barobar. Nazarimda, tanqidga qandaydir qonuniy tus berish, kerakka o‘xshaydi. Zero, muallif adolatli, demokratik jamiyatlarda bular allaqachon yo‘lga qo‘yilganligini eslatib o‘tadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning zamondoshlaridan biri, shoir Laziz Azizzoda ustozining ilmiy-ijtimoiy faoliyatiga shunday baho beradi: “Uning qimmatini tarixning ma’lum bir bosqichida va tarixiy rivojlanishida qilgan xizmatlari uchundir. Behbudiyning xizmati fransuzlarning Jan Jak Russolari, Kafkaz turklarining Fathali Oxundov va Najibbek Vazirovlari, tatarlarning Sh.Marjoniy va Q.Nosiriysi ila birdir. O‘zbek milliy adabiyoti ham Behbudiy bilan boshlanib, yangi bir yo‘lga kira boshladi. Behbudiy, eng avvalo, Turkistonni chor hukumati qo‘lidan qutqarish g‘oyasini elga talqin qiluvchilardan, aholining ezilganligini birinchi sezganlardan va bu haqda turli usta yo‘llar ila xalqni istiqlol kurashiga chaqirganlardandir.

Turkistonning uyg‘onish tarixini uch qismga – maorif, matbuot va jamiyatga bo‘lib, shu davr rahbarlarini tekshira boshlasak, bu harakatlarning boshida Behbudiy turganligini ko‘ramiz” [3, 38-bet]. Ko‘rinadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy kelajakni yaratishda tarixni inkor etishni nazarda tutmaydi, balki maorif, matbuot orqali jamiyatdagi o‘z davrini yashab bo‘lgan qonun-qoidalarni isloh qilishni maqsad qiladi. Isloh qilish esa plyuralizm – ya’ni fikrlar qarama-qarshiligining mavjudligi bilan bog‘liq jarayondir. Bu yo‘nalishda esa asosiy maydonga baholash, xolislik, obyektivlik; shularning negizini tashkil qiladigan tanqid ko‘tariladi. Shuning uchun ham olim, ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy “tanqidga layoqat paydo etishni” birinchi planga olib chiqadi. Tanqidga layoqat paydo qilish, bu nimani bildiradi? Bu degani, birinchidan, tanqidni to‘g‘ri tushunish bo‘lsa, ikkinchidan, to‘g‘ri, haqqoniy, adolatli, obyektiv tanqid qilishni nazarda tutadi.

Behbudiy nazarida tanqidning turi ko‘p. Qaysi sohani tanqid qilsang, sen bilan yoqalashadigan kasb egalari chiqadi. Biror soha yo‘qki, seni to‘g‘ri tushunsa, barchasini faoliyatidagi kamchiliklarni aytmoqchi bo‘lasan, ularni sendan ko‘ngli qoladi. “Bas muharrirlar uchun sukutdan boshqa ish qolmaydi”. Bu ketishda

davlatda ham, jamiyatda ham turg'unlik, o'zibo'larchilik avj olishligini, o'z xatti-harakatlarimiz bilan mustamlakachilikning keng miqiyosda ildiz otishiga yo'l qo'yib bergan bo'lamiz, deb yozadi muallif.

Mahmudxo'ja Behbudiy bir teatr tadqiqotchisi sifatida Turkistonda yuz berayotgan yangiliklarni, xalq uyg'onayotganligini xursandchilik bilan yodga oladi. U teatrni "ibratxona" deb ataydi. Teatrni ko'zguga o'xshatadi. Ko'zi borlar ko'radi, quloqsizlar-karlar eshitadi, ta'sirlanadi, deb yozadi. Bu o'rinda so'zning ko'chma ma'nolari ham yo'q emas. "Ko'zi borlar ko'radi" deyilganda qalb ko'zlari nazarda tutiladi. "Quloqsiz-karlar eshitadi" deyilganda eshitishni xohlamaydigan, o'zini go'llikka solib yuruvchi "aqlli" ahmoqlar ham teatrdan jiddiy ta'sirlanishi, ya'ni mushohada qilishligi istifoda etiladi.

Adabiy tanqidchi teatrning o'ziga xos afzalliklari haqida fikr yuritarkan, taraqqiy etgan millatlar o'zlari uchun teatrxonani "ibrat" va "adab maktabi" deb atashini eslatadi. Teatrning yaxshi yoki yomon tomonlarini aytib turuvchilarni munaqqid deb atashadi, deb yozadi. Bu bilan biror voqea-hodisotga, adabiy asarlarga, sahna asarlariga u yoki bu tarzda baho berish tanqidchi zimmasidagi ish ekanligini uqtiradi.

"Bu zamonda teyotrxonalar ham yamon va zararli odatlarni ehtisob va tanqid qilib yamonligini, qabihini xaloyiqqa ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydir. Teyotrxona sahnalarida qo'yilaturg'on asarlar, fojia, ya'ni qayg'u, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqqa ko'rsatilur, ul voqeadagi yamonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rib, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshilikka harakat qilmoqqa, teyotrdan ko'rsatilgan voqealar sabab bo'lur".

Sahnaga qo'yuvchi yoki dramatik asarini qayta ishlovchi rejissorga, dramaturgga bahoni, tanqidni xaloyiq, tamoshabin tomonidan berilishi alohida ta'kidlanadi. Xaloyiqqa ma'qul bo'lsa, teatr muharriri xursand bo'ladi, agar xalqqa ma'qul bo'lmasa, u g'amli bo'ladi, ya'ni g'amga botadi. Bu holatdan yo quvonadi, yo iztirobga tushadi, deb tanqidning o'tkir tig'ini nimalarga qodir ekanligini tasvirlamoqchi bo'ladi.

Maqolani so'ngida Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasi borasida ham fikr yuritadi. Uning yozilish sababi, uning teatrga qo'yilishi, millat nafi uchun qilgan xizmatlari to'g'risida to'lib-toshib gapiradi.

"Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz "Padarkush"ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'qand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarida millat nafi uchun ko'ngillilar sahnaga qo'yib, to'rt-besh ming so'm pulni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foydasiga berdilar".

Asar muallifini, ya'ni Behbudiy o'zini o'ta kamtarlik bilan "bir ojiz muharrirning asarini sahnaga qo'yib" deb fikrini asoslashga harakat qiladi. Adib "Padarkush"ning bir necha shaharlarda o'ynalganini alohida e'tirof etadi. Rollarni maxsus tayyorlangan teatr aktyorlari emas, balki, shunchaki ko'ngillilar o'ynaganini ta'kidlaydi. Bu bilan madrasa toliblari yangidan ochilgan jadid maktablari uchun xayriya tomoshalari o'tkazgandek taassurot qoldiradi. Tushgan pullar maktab foydasiga hadya qilinadi. Bunday millat uchun fidoyilikni jadidchi bobolarimiz

yuqori darajaga yetkazadiki, ular uchun millat bolalarning kelajagi, yurt ozodligi har narsadan ustun turganligini bugungi kunda tasavvur qilishning o'zi qiyin. Dramaturg o'z asarini qayta-qayta sahna namoyishidan g'ururlanib ketmaydi, balki o'z asarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ular tomonidan eshitishni xohlaydi.

“Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rganlari gunoh bo'lgan joyini ko'rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuqlarin matbuot birlan bayon etsalar, toki bu ish isloh bo'linsa”, - deb yozadi. “Tanqid kelajakning mevasi” degan aqidaga sodiqligini yana bir karra namoyon etadi. Bu bilan har bir yangi asarni o'z vaqtida kamchiliklarini matbuot ila ko'rsatish shart ekanligini o'z asari misolida ko'rsatib beradi. Ya'ni tanqiddan qo'rqmaslikni, balki o'zi tilab olish zarurligini uqtiradi.

“Men asarimni tabrik etganlardan ko'ra, tanqid etganlarga ziyodaroq tashakkur aytaman, boisi islohdur”. Haqiqatda tanqid qilingan asar, “buzuq joylari” ko'rsatilgan asar kelgusida yanada pishiydi, badiiy mukammallik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy “Tanqid saralamoqdir”, “Teyotr nadur” kabi adabiy-tanqidiy maqolalarida tanqid so'zining ilk marta ilm-fanga, adabiy jarayonga keng miqiyosda jalb etishni yoqlab chiqadi va o'zi o'rnak bo'ladi. Tanqid nazariyasini yaratishga harakat qiladi. Muhimi, tanqid so'zidan qo'rqmaslikni, balki asarlarini tanqid qilmasliklaridan qo'rqish kerakligini ta'kidlaydi. O'zi namuna sifatida “Padarkush” dramasi borasidagi fikr va mulohazalarga atroflicha to'xtalar ekan, uni tabrik etmaslikni, balki kamchiliklarini ko'rsatishga harakat qilishlarini istaydi. Bu holat XX asr boshlari tanqidchisining asl qiyofasini belgilab beradi. Uni obro'-e'tiborli qiladi. Tanqiddan qo'rqqanlarga ibrat maktabi bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б. Карвонбоши. Сўз боши.Бехбудий М. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият. 1997.
2. Қосимов Б. Миллий тикланиш. – Т.: Маънавият. 2002.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон. 2008.

YOSHLARDA DUNYOVIY VA DINIY DUNYOQARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYA METODLARINING O'RNI

Yuldashev Rustam Daniyrovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
dosenti, falsafa fanlar doktori (PhD)

Annotatsiya. Ilmiy maqolada yoshlarni dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya metodlari, Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqish va amalda qo'llash usullari, uning obyekt va subyektlari o'rtasidagi bog'lanishlarning ko'p o'lchovli ekanligini tadqiq qilish zarurligi haqida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, yoshlarni ishontirish, namuna, odat, mashq, rag'batlantirish, ma'naviy raqobat, tanbeh, yoshlar, jahon, zamonaviy fikrlash,

ta'lim, tarbiya, aholi, uyg'unlashtirish, dunyoviy va diniy dunyoqarash.

Аннотация. В научной статье излагаются имеющие научное и практическое значение философские идеи относительно методов воспитания, направленных на гармонизацию светского и религиозного мировоззрения молодежи, методов разработки и практического применения современных концептуальных основ формирования и развития мировоззрения молодежи в условиях строительства нового Узбекистана, необходимости изучения многомерности связей этих объектов и субъектов..

Ключевые слова. Новый Узбекистан, убеждение молодежи, пример, привычка, упражнение, поощрение, духовное состязание, порисание, молодежь, мир, современное мышление, образование, воспитание, население, гармонизация, светское и религиозное мировоззрение

Annotation. The scientific article presents philosophical ideas of scientific and practical significance regarding educational methods aimed at harmonizing the secular and religious worldviews of young people, methods for developing and practically applying modern conceptual foundations for the formation and development of the worldview of young people in the construction of a new Uzbekistan, and the need to study the multidimensionality of the connections between its objects and subjects.

Keywords. New Uzbekistan, persuasion of youth, example, habit, exercise, encouragement, spiritual competition, reprimand, youth, world, modern thinking, education, upbringing, population, harmonization, secular and religious worldview.

Yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya metodlari o'z navbatida bir qator alohida elementlarga bo'linadi, ayni vaqtda ularni ta'lim-tarbiyani qo'llash usullari (texnikasi) deb ham atash mumkin. Bunda ta'lim-tarbiyaga qo'yilayotgan vazifa, uning mazmuni, amalga oshirish instrumentlari (shart-sharitlari, vositalari, usullari) ta'lim-tarbiya beruvchi subyektlar tomonidan dunyoqarash sohasida biron bir ko'zlangan maqsadga etishishlari uchun bir birlari bilan uzviy ravishda birlashtiriladi.

Yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishga qaratilgan har qanday ta'lim-tarbiya usulini aniqlanadigan maqsaddan, belgilanadigan mazmundan, qo'llaniladigan zarur vositalardan ajratib ko'rib chiqish mumkin emas. Ta'lim-tarbiya beruvchi subyektlarning mahorati yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirishda barcha tarbiyaviy metodlarning tarkibiy qismlarini bir nuqtada birlashtirishdan iborat. Bunda tajribali murabbiy, tajribasiz murabbiydan farqli o'laroq, hozirgi sharoitda maqsadga erishadigan aniq yoshlar bilan muayyan vaziyatda o'zaro ta'sir qilish usulini qanday tanlashni yaxshi bilishiga shubhaga o'rin qoldirmaydi.

Ta'lim-tarbiya ishlarining nazariyasi va amaliyoti ko'plab ta'lim-tarbiya usullari mavjuddir. Masalan, ishlantirish, talab, istiqbol, rag'batlantirish, jazo, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish, hikoya, suhbat, tushuntirish, misol, tanqid, o'z-o'zini tanqid qilish, mashq qilish, trening, tarbiyaviy vaziyatlar, ziddiyatli vaziyatlar,

biznes-ishbilarmonlik raqobati, musaboqa, topshiriq, ishonch, “portlash”, ma’qullash, tanbeh berish va boshqalar shular jumlasidandir.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uygʻunlashtirishga qaratilgan metodlarini, ularni amalda qoʻllash shart-sharoitlariga koʻra:

yoshlarning ongini, qarashlarini, eʼtiqodlarini, dunyoqarashlarini rivojlantirishga;

yoshlarning xulq-atvorini shakllantirishga;

yoshlarga motivasiya berish, ularning faoliyati va xulq-atvorini ragʻbatlantirishga qaratilgan metodlarga ajratish mumkin.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uygʻun shakllantirish uchun individual shaxsiy ongi, qarashlari, eʼtiqodlari, dunyoqarashlarini oʻstirishga qaratilgan metodlar. Eʼtirof etish kerakki, bu metod yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan taʼlim-tarbiya jarayoni oqimini toʻgʻri yoʻnalishga yoʻnaltirishda etakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Chunki, bu metodlar birinchidan, qoʻllanilayotgan usullarning insonparvarlik yoʻgʻrilgan dunyoqarashlilik yoʻnalishini; ikkinchidan, har bir yoshning ongi va xatti-harakatining birligini oʻzida aks ettiradi. Bu guruhga kiruvchi taʼlim-tarbiya metodlari taʼlim-tarbiya oluvchi subyektlarning qarashlari va ideallarini, eʼtiqodi va naʼmunaviy xulqini, dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuygʻulari va irodasiga koʻp qirrali taʼsir qilish usullarini oʻz ichiga oladi.

Ishontirish metodi. Bu metod boshqa metodlardan taʼlim va tarbiya oluvchilar ongida mafkuraviy, axloqiy, kasbiy, huquqiy, axloqiy maqsadlar va qadriyatlar tizimiga asoslangan dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni uygʻun shakllantirish, ularga chuqur shaxsiy jilo va barqarorlik berishi, shu asosda yoshlarning dunyoqarashlari borasidagi xatti-harakatlari va faoliyat motivlarini aniqlash imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Bu metodni qoʻllashda taʼlim-tarbiya beruvchi subyektlar taʼlim-tarbiya oluvchi yoshlarni ishontirmoqchi boʻlgan narsaning maqsadga muvofiqligi hamda toʻgʻriligiga chuqur ishonch hosil qilsa, oʻz fikrini ishonchli isbotlay olsa, ishontirish usulidan foydalanish kerak boʻladi. Aks holda esa bu usuldan foydalanish teskari natija beradi.

Shu tariqa taʼlim-tarbiya beruvchi subyektlar yoshlarni olamning Alloh tamonidan yaratilganligiga yoki uning tabiiy ravida paydo boʻlganligiga ishontirmoqchi boʻlsa, unda ularga nafaqat dunyoviy bilim, balki dunyoviy va diniy bilimlar integratsiyalashuvidan tashkil topgan umumiy bilim hamda sabr, chidamlilik, xushmuomalalik ham kerak boʻladi.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uygʻun shakllantirishda qoʻllaniladigan ishontirish usulini muvaffaqiyatli qoʻllash shartlari:

a) yoshlar nazdida taʼlim-tarbiya beruvchi shaxsiy obroʻsining borligi yoki yoʻqligi;

b) yoshlarning psixologiyasini, ularning dunyoqarash tizimi, qarashlari va eʼtiqodlarini bilish zaruriyati;

v) yoshlar va murabbiylar oʻrtasida oʻzaro ishonch muhiti, psixologik aloqa, sheriklarning bir-birini “eshitish” istagining borligi yoki yoʻqligi;

g) yosh suhbatdoshning ayni damdagi emotsional, yaʼni asabiylik,

xafagarchilik, jizzakilik, achchiqlanish, g'azablanish, qayg'uga tushish kabi holatlarini hisobga olish;

d) yoshlarning yoshi, oilaviy ahvoli, madaniy darajasiga bo'lgan e'tiborni nazardan qochirmaslik;

e) yoshlar bilan ishlashda mutlaq samimiylilik, haqiqat, fakt va dalillarning ishonchligiga tayanib faoliyat yuritish kabilardan iborat.

Ishontirish metodini qo'llashda quyidagi: yolg'on dunyoqarashlarga ishonish, har xil nayranglar bilan jamoada soxta obro' orttirish; yaqinlarni namuna qilib ko'rsatish asosida o'zidan "xudo" yasash; dinning asl mohiyatini tushunmasdan dindorlar ongini jo'nbushga keltirish kabi salbiy holatlarning qanday oqibatlariga olib kelishidan yoshlarni ogohlantirish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish uchun qo'llaniladigan ishontirish metodi shaklan sodda bo'lishiga qaramay, juda murakkab mazmunga ega bo'lgan, belgilangan maqsadlar, qo'yilgan shartlar bajarilgandagini, yoshlarga dunyoqarash masalasida "muvaffaqiyatga erishish kaliti"ni beradigan usulblardan biri ekanligi, hech kimda shubha uyg'otmaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Namuna ko'rsatish metodi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirishda qo'llaniladigan ta'lim-tarbiyaning namuna ko'rsatish metodi – bu ta'lim-tarbiya oluvchilarning ongi va xulq-atvoriga biron bir namunali idealni yaratish orqali ta'sir ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish iborat.

1. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirishda namuna ko'rsatish usulini qo'llashning maqsadga muvofiqligi tavsiya etilgan idealning ta'lim-tarbiya oluvchi subyekt uchun shaxsan qanchalik qiziqarli va ahamiyatli bo'lishi bilan bog'liq. Ushbu metod talablarini buzgan holda, ayrim murabbiylar ba'zan ta'lim-tarbiya oluvchi yoshlarni o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalarning dunyoqarashlari bilan oshna qilishga urinadilar. Bu aslida ular tomonidan yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish borasida qilinadigan muvaffaqiyatsiz urinishlardan biridir. Chunki, ularda aks etgan axloqiy-ma'naviy ideal tarixiy makon va zamonda hozirgi idealdan ancha uzoqlashib ketganligidadir.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirishda qo'llaniladigan namuna ko'rsatish usulini muvaffaqiyatli qo'llash shartlari:

1) ko'rsatiladigan namunaning shaxsiy qiymatini bilish;

2) namunani qo'llab-quvvatlovchi jamoatchilik fikrining mavjud yoki mavjud emasligini hisobga olish;

3) taqlid qilish uchun namuna ko'rsatish predmetining borligini bilish;

4) ta'lim-tarbiya oluvchilarning o'z ustida ishlash zarurligini anglashi, o'zini-o'zi tanqid qilish kabilarda ishlarni bajarish kabilardan iborat.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unligini ta'minlashda qo'llaniladigan individual shaxsiy ongini shakllantirish metodi targ'ibot-tashviqotning: ma'ruzalar, suhbatlar, munozaralar, viktorinalar, seminarlar, disputlar, konferenqiylar kabi shakllari orqali amalga oshiriladi.

2. Yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'lim-tarbiyaning yoshlar xulq-atvorini shakllantirish metodlari.

Bularga to'g'ri xulq-atvor tajribasini to'plashga hissa qo'shadigan, irodani tinchlantiradigan va mustahkamlaydigan, zarur xulq-atvor odatlarini shakllantiradigan kundalik hayotni tashkil etishdan iborat bo'lgan odatlar, mashg'ulotlar, mashqlar kiradi.

Odatni shakllantirish metodi. Bu metod yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishda yoshlarning: muassalar ichki tartib qoidalariga bo'ysunish; o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor berish; shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish; ta'lim-tarbiya oluvchi va beruvchilar o'rtasidagi o'zaro madaniy muloqot qoidalarini buzmaslik; asosiy mehnat ko'nikmalarini hosil qilish; madaniy hordiq chiqarish va boshqalarni rivojlantirish orqali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashq qildirish metodi. Mashq yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishda, ularning irodaviy fazilatlarni rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tinchlantirish maqsadida ishlatiladi.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishda mashq qilish va odatni shakllantirish metodlarini muvaffaqiyatli qo'llash shartlari:

- yoshlarning o'rnatilgan rejim, bo'ysunish va boshqalar bilan tartibga solinadigan xulq-atvor qoidalari talablarning maqsadga muvofiqligini bilishi;
- yoshlarning bajarishi uchun taqdim etilgan talablarning barqarorligi va natijadorligi;
- qo'yiladigan talablarning tushunarliqligi va aniqqligi;
- talablarga rioya qilgan holda mashqlarning tizimlilik va muntazamligi;
- yoshlarda to'g'ri xulq-atvor stereotiplarini shakllantirishga hissa qo'shuvchi hayot va turli faoliyatni aniq tashkil etish;
- amalga oshirish mumkin bo'lgan ishlarning hajmi, muddatlari va sifati bo'yicha talablarning mavjudligi;
- barcha murabbiylar tomonidan qo'yilayotgan talablarning bir xil mazmunga egaligi kabilarni ta'minlashga qaratilgan vazifalarni bajarishdan iborat.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishda Odatni shakllantirish usullari va mashqlarni amalga oshirish texnikasiga:

- muayyan faoliyat turlariga kirish orqali zaruriy fazilatlarni shakllantirish;
- miqdor ortidan quvmasdan sifatning mustahkamlanishiga yordam beruvchi psixologik vaziyatlarni yaratish;
- kundalik topshiriqlar, vazifalar tizimini shakllantirish;
- topshiriq va vazifalarning bajarilishini nazorat qilish;
- yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish va tuzatish chora-tadbirlarini ko'rish kabi vazifalarni bajarishlar kiradi.

3. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish uchun motivasiya berish, faoliyati va xulq-atvorini rag'batlantirishga qaratilgan metodlar. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish ishlarini samarali tashkil qilishda ularni sog'lom raqobat qilishga chorlash, konstruktiv tanqid qilish, rag'batlantirish, kezi kelganda tanbeh berish va jazolash ham kerak bo'ladi. Bularni yoshlarning dunyoviy va diniy qarashlarini uyg'unlashtirishning motivasion usuli sifatida talqin qilish mumkin.

Sogʻlom maʼnaviy raqobat metodi. Maʼlumki, hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyoti sharoitida "...iqtisodiy raqobot nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda". Bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalarini yaxshi bilmagan yoshlar ruhiy tushkunlikka tushib, kelajakka boʻlgan ishonchini yoʻqotib

axloqiy-maʼnaviy jihatdan tanazzul (degradasiya) balosiga giriftor boʻlmoqdalar. Bu esa oʻz navbatida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun shakllantirish ishlariga salbiy taʼsir oʻtkazmoqda.

Xoʻsh, raqobat nima, degan savol tugʻiladi? Bunga faylasuf olimi Sh.Sh.Negmatova: "Raqobat deb tabiat va jamiyatda mavjud boʻlgan tirik, ongli va ongsiz mavjudodlarning oʻzaro yashash uchun kurash olib borish jarayonida gʻoliblikni qoʻlga kiritish uchun sodir etadigan bellashuv, tortishuv, musobaqa, munozara, moslashuv kabi xatti-harakatlarning muayyan tizimiga aytiladi", - degan falsafiy taʼrif bergan. Biz ushbu taʼrifni metodologik asos qilib olgan holda, uning (raqobatning) gnoseologik xususiyatlaridan kelib chiqib taʼlim-tarbiya sohasida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun rivojlantirish uchun sogʻlom maʼnaviy raqobat shaklida amal qilishi haqida mulohozalar yuritamiz.

"Sogʻlom maʼnaviy raqobat deb, olamni yovuz kuchlardan qutqazish uchun shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatlarning oʻzaro jaholat ustidan gʻoliblikni taʼminlash uchun halollik va adolat, imon va eʼtiqod, tinchlik va tenglik, oʻzaro hurmat va ishonch, oʻzaro yordam va foydali hamkorlik asosida sodir etadigan oʻy-fikr va xatti-harakatlariga aytiladi". Bunday raqobat oʻzining quyidagi: ochiqlik va oshkoralik; ezgulikka yoʻnaltirilganlik; begʻarazlilik; doʻstonalik; halollik; insoflilik va shu kabilar xususiyatlari bilan nosogʻlom maʼnaviy raqobatdan ajralib turadi.

"Nosogʻlom maʼnaviy raqobat deb, olamda yovuz kuchlarning hukmronligini taʼminlash uchun ayrim katta moliyaviy imkoniyatlarga ega boʻlgan shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatlarning oʻzaro maʼrifatli dunyo ustidan gʻoliblikni taʼminlash uchun gʻirromlik, aldoqchilik, vijdonsizlik, zoʻrlilik, qoʻrqitish, oʻgʻrilik, qaroqchilik, ifloslik, koʻnamaklik, tekinxoʻrlilik, tovlamachilik, firibgarlik kabilar asosida sodir etadigan eng jirkanch oʻy-fikr va xatti-harakatlarga aytiladi" va ularga xos boʻlgan xususiyatlarga: pinhoniylilik, yovuzlikka yoʻnaltirilganlik, gʻarazgoʻylik, dushmanlik, haromilik, diyonatsizlik, adolatsizlik va shu kabilar kiradi. Ular oʻrtasidagi kurash har xil shakllarda yuz berib yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun shakllantirish ishlariga oʻzining ijobiy va salbiy taʼsirini oʻtkazishlari, tabiiydir.

Yangilanayotgan Oʻzbekiston sharoitida yoshlarning yangicha mazmundagi dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun rivojlantirish taʼlim-tarbiya sohasida obyektiv va subyektiv shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda sogʻlom maʼnaviy raqobatni joriy qilish oʻzining ijobiy natijalarini berishi shubhasizdir.

Yoshlarning yangicha mazmundagi dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan taʼlim-tarbiya jarayonidagi sogʻlom maʼnaviy raqobat - bu taʼlim-tarbiya muassasalarida taʼlim-tarbiya oluvchi va beruvchilar, ularga xizmat koʻrsatuvchilar oʻrtasida dunyoviy va diniy bilimlarni egallash, hosil qilingan koʻnikma va natijalar boʻyicha adolatli tarzda yuksak axloqiy-maʼnaviylilik sari yetaklovchi raqobatdir. Chunki, bunday raqobat yoshlarning yangicha mazmundagi dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻun

shakllantirish va rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya oluvchilarni:

- dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi;
- ilmiy-amaliy va badiiy ijodkorligini rag'batlantirib, yangi usullar, texnologiyalardan foydalanishga chorlaydi;
- individual ongida "ishimdan birgina o'zim emas boshqalar ham bahraman bo'lishi kerak", degan yaxshilikka intiluvchi qarashni hosil qiladi;
- "innovatsion shaxsni" shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratib beradi;
- ta'lim-tarbiya beruvchilar hamda ular faoliyat yuritayotgan muassasalarni sifatli ta'lim berishga majbur qilib ta'lim-tarbiyaning sifatini oshiradi.

Yoshlarning yangicha mazmundagi dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagi olib boriladigan sog'lom ma'naviy raqobatlarini:

a) ishtirokchilari bo'yicha: ta'lim-tarbiya oluvchilar o'rtasidagi raqobat; ta'lim-tarbiya beruvchilar o'rtasidagi raqobat; ta'lim-tarbiya muassasalari o'rtasidagi;

b) yo'nalishiga ko'ra: bilimlarni egallash va fan sohalarini o'zlashtirish (olimpiadalar, imtihonlar); sport va madaniyat sohasida (musobaqa, tanlovlar); ilmiy-innovatsion loyihalarni tayyorlash va tijoratlashtirish;

v) uslubiyatiga asosan: sog'lom ma'naviy raqobat (adolatli baholash, qoidalarga rioya qilish va sh.k.); nosog'lom ma'naviy raqobat (tuhmat, baxillik, soxta natijalar va sh.k.) kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Sog'lom ma'naviy raqobatni metod shaklida muvaffaqiyatli qo'llash shartlari:

- raqobatlashishning maqsadlari, vazifalari, obyektlarini aniq belgilashning zarurligi;
- raqobatlashuv mezonlarining mavjudligi, ularning tushunarli, sodda tarzda taqqoslanadigan bo'lishi;
- oshkoralik, xalqchilik, tanlovning borishi va natijalarini tezkor aks ettirishi;
- qabul qilingan majburiyatlarni bajarish uchun barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratilishi;
- raqobot natijalarning xolis va shaffof baholanishi;
- barcha qatnashuvchilar uchun bir xil ta'lim-tarbiya olish sharoiti yaratilishi;
- ta'lim-tarbiyada insof, samimiyat va axloqiy qoidalarga rioya qilinishi;
- raqobat bir birlariga dushmanlikni emas, balki hamjihatlik rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi;
- tanlov g'oliblarini adolatli tarzda moddiy va ma'naviy jihatdan munosib rag'batlantirishning qanchalik darajada yo'lga qo'yilganligi kabilarni o'z ichiga qamrab oladi..

Shunday qilib yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagi olib boriladigan sog'lom ma'naviy raqobat – kun sayin ulg'ayib borayotgan yosh avlodning zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirib halol bellashuvga asoslangan holda insonparvarlik tuyg'usini ko'ngliga joylagan dunyoqarashlar tizimini uyg'un shakllantirishning "drayveri" sifatida xizmat qiladi.

Konstruktiv tanqid qilish metodi. Bu yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya

metodlaridan biri sifatida ta'lim-tarbiya beruvchi yoki oluvchi, yoki guruh, jamoa tomonidan har bir yoshning yashash faoliyatiga nisbatan talablar qo'yish orqali amalga oshiriladigan va uning qilayotgan xatti-harakatlarining ayrim tomonlarini baholash shaklida ifodalanadigan tarbiyaviy ta'sirlarni optimal tashkil etishdan iborat.

Konstruktiv tanqid qilish metodi yoshlarning dunyoqarashlarini har tomonlama shakllantirishda qo'llaniladigan kuchli tarbiya vositalaridan biri bo'lib, undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi nufuzli shaxs tomonidan qilinadigan konstruktiv tanqidning ta'lim-tarbiya oluvchi va beruvchilarning manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqishi kerakligi bilan belgilanadi. Agar shunday qilinmasa tanqid qanchalik o'tkir bo'lmasin, u yoshlar tomonidan qabul qilinmaydi.

Xo'sh, shunday ekan "tanqid" nima degan savol tug'iladi. Bu to'g'risida "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Tanqid [arabcha - baho berish maqsadida o'rganish, tahlil qilish va shu asosdagi xulosa]

1. Ish-harakat, faoliyat, asar, ta'limot va sh.k. ning yutuqlarini qayd etish, kamchilik va nuqsonlarini belgilash va bartaraf etish maqsadidagi muhokama, tahlil.

2. Biror narsaning to'g'ri, haqqoniy ekanini ilmiy tahlil etish, tadqiq etish.

3. Adabiy faoliyatning badiiy, ilmiy va boshqa turdagi asarlarni, shuningdek, ularda aks ettirilgan hayotiy hodisalarni talqin va tahlil qiluvchi maxsus turi.

4. Kamchilik, nuqson, xatolik va shu kabilarni qayd etish, qoralash, shuningdek, ularni hal etish maqsadida bildiriladigan tanbehli fikr-mulohaza, gap-so'z", -degan ta'rif va tavsiflar berilgan.

Bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni: tanqidchilar - adabiy, ilmiy, publisistik asarlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini o'rganish va baholash bilan shug'ullanuvchi shaxslar deyilsa; bo'lar-bo'lmasga tanqid qilish, hamma narsadan kamchilik izlashni yaxshi ko'radigan shaxslarni tanqidbozlar deb atash iste'molga kiritilgan.

Konstruktiv tanqid qilish – bu tanqidiy fikrlovchi shaxslar tomonidan hayotda erishilgan yutuqlarning yanada samaraliroq bo'lishi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tezroq bartaraf etishi yuzasidan har tomonlama asoslangan, amal qilsa bo'ladigan do'stona tarzda bildiriladigan fikr-mulohozalardan iborat bo'lib, ularni yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo'llash uchun quyidagi shartlarni:

- tanqid mazmunining ishonarliligi va xolisligi;
- tanqidning ijobiyligi va xayrixohligi;
- tanqidchi talablarini qo'llab-quvvatlovchi jamoatchilik fikrining mavjudligi;
- qayd etilgan kamchilikni bartaraf etish yo'lini ko'rsatish kabilarni bajarish talab etiladi.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishda mazkur usulning texnikaviy tomonini – yoshlarning tanqidga bo'lgan munosabatini to'g'ridan to'g'ri, bevosita baholash va bilvosita ifodalash tashkil qiladi.

Rag'batlantirish metodi. Bu metod tarbiyaviy ta'sir usuli sifatida ta'lim-tarbiya oluvchilarning xulq-atvori va ishiga ijobiy baho berish shaklida ifodalanadigan, ularni yangi yutuqlarga undaydigan hamda erishgan yutuqlarini yanada yuqori darajada takrorlash istagini uyg'otadigan obyektiv va subyektiv

ta'sirlar tizimidir. Ulardan yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishda rag'batlantirish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishda ushbu metoddan muvaffaqiyatli foydalanish shartlari quyidagilarni:

- yoshlarning yaxshi tomonga o'zgarishlarni aniqlash va ularni ta'kidlashni o'z vaqtida amalga oshirish;

- yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish asosli, bajargan ishiga munosib bo'lishini ta'minlash;

- yoshlarni rag'batlantirish faqat o'z ustida ishlashdagi harakatlar uchun bo'lishi, bunda qilingan avvalgi harakatlari bir marta rag'batlantirilgan bo'lsa, ularni yana qayta rag'batlantirmaslik;

- yoshlarni erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirish jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan bo'lishi;

- yoshlarga beriladigan mukofot ta'lim-tarbiya oluvchilarda, jamoada ijobiy emotsional kayfiyat yaratishi;

- yoshlarni rag'batlantirish uchun beriladigan mukofot nostandart, ya'ni o'ziga xos bo'lishi kabilarni bajarishdan iborat bo'lishi lozim.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishda rag'batlantirish usulni qo'llash texnikasi – ma'qullash, istiqbollarni yaratish, maqtash, avans berish, ishonch bildirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni birgalikda qo'llashlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tanbeh berish va jazolash metodi. Bu metod yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish sharoitida bilib yoki bilmay turib dunyoviy va diniy ilmlarga, urf-odatlariga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishlarining oldini olishda qo'llaniladigan noodatiy bo'lgan tanbeh berish yoki jazolashga qaratilgan choralari tizimi hisoblanadi. Unda ta'lim-tarbiya oluvchi yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini ichki qayta qurish bilan bog'liq bo'lmagan nisbatan oddiy fazilatlar va xulq-atvor shakllarini rivojlantirish hamda rag'batlantirish uchun foydalanishga oid tavsiyalar berilib boriladi.

Yuqorida bayon qilingan barcha fikrlarni xulosalab, shuni aytish mumkinki, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan bu metodni muvaffaqiyatli qo'llash uchun quyidagi:

- yoshlar tomonidan noloyiq xatti-harakatlarning sabablarini aniqlash va ularni hisobga olish;

- ta'lim-tarbiya oluvchi yoshlarning o'z xatti-harakatining noto'g'riligini bilishi;

- qo'llaniladigan jazoning adolatliligi, uning o'ziga xos yagonaligi;

- jazolovchining qat'iyat bilan ish ko'rishi;

- tayinlangan jazoni ijro etish zarurligi;

- jamoatchilik tomonidan qo'llaniladigan jazo turlarining adolatli ekanligini qo'llab-quvvatlagandagina, jazo berish ijrosini ta'minlashning zarurligi kabi bir qator shartlarni bajarishni taqozo etadi.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishi sharoitida bilib yoki bilmay turib dunyoviy va diniy ilmlarga, urf-odatlariga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishlarining oldini olishda qo'llaniladigan

noodatiy bo'lgan tanbeh berish va jazolash metodini qo'llash texnikasi – odatda, qat'iy talabni qo'yish; sanksiyalar haqida ogohlantirish; sanksiyalarni qo'llash; jamoatchilik tomonidan axloqiy-ma'naviy jihatdan majburlash kabilar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.3. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Negmatova Sh.Sh. O'zbekistonda sog'lom raqobatni rivojlantirishning ma'naviy,axloqiy va huquqiy jihatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Yuldoshav R.D. Ta'lim falsafasi – ta'lim jarayonini rivojlantirishning nazariy-konseptual asosi. Monografiya. – Toshkent: TAMADDUN,2020.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAFAKKURIDA YOSHLAR VA MILLAT RAVNAQI

Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna
ISFT Instituti v.b.professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va tafakkurida yoshlar tarbiyasi, millatning ma'naviy yuksalishi hamda taraqqiyot g'oyalari tahlil qilinadi. Behbudiy o'z davrining eng ilg'or ma'rifatparvarlaridan biri sifatida yoshlarni ilmiy, vatanparvar, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni millatning kelajagi bilan bevosita bog'lagan. Maqolada uning asarlaridagi pedagogik, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy qarashlar tahlil etilib, bugungi kunda ularning dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, yoshlar, ma'rifat, millat ravnaqi, tafakkur, islohot, ta'lim, o'zlikni anglash.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onish davrida yetishib chiqqan eng yirik ma'rifatparvar, pedagog, siyosiy arbob va milliy uyg'onish harakati rahbarlaridan biri sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. U nafaqat jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi, balki millatni jaholat va g'aflatdan ozod etish yo'lida fidokorona kurashgan ziyoli edi. Behbudiy tafakkurida yoshlar masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u yosh avlodni millatning ertangi kuni, taraqqiyot garovi deb bilgan. U o'z asarlari, maqolalari va nutqlarida yoshlarni ilm-fan, axloq, iymon va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Behbudiy nazarida har qanday xalqning ravnaqi, avvalo, uning farzandlarining ma'rifatli va bilimli bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun ham u “Bilim – najot”, “Ilm – millatning qudrati” degan g'oyalarni ilgari surgan. U yoshlarni diniy ilmlar bilangina emas, balki dunyoviy fanlarni ham o'rganishga chaqirgan. Uning fikricha, millatning ozodligi va taraqqiyoti uchun zamonaviy fan, texnika va ilmiy

tafakkur zarur edi. “Padarkush” dramasi orqali u jaholat, savodsizlik va eski qarashlarning yoshlar ongiga salbiy ta’sirini fosh etgan, o‘z farzandlarini zamon talablariga mos qilib tarbiyalash zarurligini ta’kidlagan.

Behbudiy yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, Vatanga muhabbat bilan qarashga o‘rgatish tarafdori edi. U o‘z maqolalarida shunday yozadi: “Bizning millatning kamoloti yoshlarning ilm olishi, o‘zini va yurtini tanishidadir”. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Behbudiy nazarida milliy tafakkur va ma’naviy uyg‘onish faqat bilimli yoshlar orqali amalga oshadi. Shu boisdan ham u o‘z faoliyatini asosan ta’lim sohasiga qaratdi.

U “usuli jadid” maktablarini tashkil etib, ta’lim tizimini yangilashga uringan. Behbudiy uchun eski maktablarning yodlashga asoslangan tizimi o‘tgan asrning merosi bo‘lib, yangi davr uchun samarasiz deb hisoblangan. U yoshlarni mustaqil fikrlashga, savol berishga, tahlil qilishga o‘rgatish zarurligini ilgari surgan. “Yangi maktablar orqali biz millatni uyg‘otamiz, yoshlarni tafakkurga o‘rgatamiz”, — degan edi Behbudiy. U o‘z darsliklari va qo‘llanmalarida o‘qituvchilarga ilmni hayot bilan bog‘lash, yoshlarni faqat o‘qishga emas, fikrlashga, ijod qilishga undashni tavsiya etgan.

Behbudiy uchun yoshlarning ta’lim-tarbiyasi faqat maktab bilan cheklanmaydi. U oilaning, jamiyatning va muhitning ham tarbiyaviy rolga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, ota-onalar farzandlariga nafaqat moddiy ta’minot, balki ma’naviy ozuqa ham berishlari kerak. U shunday degan edi: “Farzand tarbiyasida otaning ilmi, onaning mehr-muhabbati eng buyuk maktabdir”. Bu g‘oya yoshlarni jamiyatning faol, ijobiy a’zolari sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Behbudiy tafakkurida millat ravnaqi bevosita yoshlarning ongi va tafakkuri bilan bog‘langan.

U yoshlarni milliy birlik, adolat, halollik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashni millat istiqbolining asosi deb bilgan. U “Ravnaqi millat – ravnaqi yoshlar” degan fikrni ilgari surib, yoshlarning faolligi, ma’naviy uyg‘oqligi va mehnatsevarligi orqali millat yuksalishini orzu qilgan. Shuningdek, Behbudiy ta’lim orqali milliy uyg‘onishning poydevorini qo‘ygan. Uning “Maktablar ochilsin, xalq o‘qisin!” degan da’vati butun Turkiston bo‘ylab yangragan. U matbuotni ham ma’rifat tarqatish vositasi sifatida ko‘rgan. “Oyna” jurnali orqali u yoshlarni ilm, madaniyat, tarix va siyosiy jarayonlardan xabardor bo‘lishga chaqirgan. Behbudiy yoshlar uchun namunali shaxs edi — u o‘z hayotida ilm, e’tiqod va vatanparvarlikni uyg‘unlashtirgan.

Bugungi kunda ham Behbudiyning g‘oyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning yoshlar haqidagi qarashlari zamonaviy ta’lim islohotlari bilan hamohang. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida ham yosh avlodni ilmli, tafakkurli, g‘oyaviy barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada Behbudiy merosi biz uchun bebaho manba, o‘rnak bo‘la oladi. Chunki u yoshlarni shunchaki bilimli emas, balki mas’uliyatli, millat manfaatiga xizmat qiluvchi insonlar sifatida tarbiyalashni orzu qilgan.

Behbudiy tafakkurining eng muhim jihatlaridan biri – bu yoshlar tarbiyasini millat kelajagi bilan uyg‘un holda ko‘rishdir. U ta’limni faqat bilim olish emas, balki ma’naviy yuksalish vositasi sifatida talqin qilgan. U uchun ilmning maqsadi insonni

o'zgartirish, jamiyatni isloh etish edi. Behbudiy yoshlarni "zamonaviy musulmon", "vatan fidoyisi" sifatida tarbiyalashni orzu qilgan. Uning fikricha, millatning baxti yoshlarning ongida shakllanadi, millatning qulashi esa ularning beparvoligidan boshlanadi. Behbudiy bugungi yoshlar uchun ham ibrat manbai bo'lib qolmoqda. Uning hayoti, asarlari va fidokorona faoliyati yoshlarni ilmga, adolatga, vatanparvarlikka chorlaydi. U millat ravnaqi yo'lida o'z hayotini fido qilgan, ammo orzusi – ozod, ilmi va birlikdagi xalq orzusi – bugungi kunda ro'yobga chiqmoqda. Shuning uchun ham Behbudiy g'oyalari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy g'oyaviy dastur sifatida qadrlanadi. Uning "Millatni saodatga eltuvchi yo'l – ilm yo'li" degan so'zlari har bir yosh uchun hayotiy shior bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy tafakkurida yoshlar masalasi millatning kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Uning g'oyalari yosh avlodni ma'rifat, ilm, axloq va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Behbudiy nazarida millatning ravnaqi — yoshlarning tafakkur darajasi, bilimga bo'lgan intilishi va o'zlikni anglashiga bog'liq. Shuning uchun bugungi ta'lim siyosati Behbudiy merosidan ilhomlanib, yoshlar tafakkurini shakllantirish, ularni millat va Vatan xizmatiga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim. Behbudiy merosi yosh avlod uchun yo'lchi yulduz, millat taraqqiyoti uchun esa abadiy ilhom manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. *Padarkush*. – Samarqand: Matbaa-i Behbudiya. 1914.
2. Qosimov B. *Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi*. Toshkent: O'zbekiston. 1999.
3. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
4. Qodirov N. *Jadidchilik va milliy uyg'onish*. – Toshkent: Fan. 2010.
5. Rashidov S. *O'zbek ma'rifatparvarlari merosida yoshlar tarbiyasi*. –Toshkent: Istiqlool nashriyoti. 2020.

SAMARQAND JADIDLARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIGIDAGI O'RNI

Dilafro'z JABBOROVA
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti dotsenti, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri XX asr boshida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayon adabiyotshunosligida "jadid adabiyoti" yoxud "milliy uyg'onish davri adabiyoti" kabi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'lishida Samarqand taraqqiyparvarlarning o'rni tahlilga tortiladi.

Tayanch so'zlar: jadid, jadidchilik, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik.

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida dastlab Qrim va Tatariston va Kavkazda yuzaga kelib, keyinchalik Turkistonga yoyila boshladi. Qator ma'rifatli shaxslarning yangi siyosiy va ijtimoiy g'oyalarni ilgari surishi jadidlik harakatini yuzaga keltiradi. Bu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma'rifiy va ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deb nomlandi. Jadidchilik g'oyalari qayerda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha xalqlar doimo bir-biri bilan aloqada bo'lishadi. Tatarlar va Rossiya musulmonlari o'zlarining O'rta Osiyo musulmonlariga munosabati masalasida Turkiston jadidlarning rahnomosi sifatida Behbudiydan maslahat olib turishgan. Shu ma'noda aytish mumkinki, jadidchilik g'oyalarining yoyilishida Samarqand adabiy-ma'rifiy muhitining ham o'ziga xos o'rni bor. Jadidlarning asosiy maqsadi, jadid usulidagi maktablarni ochish va xalqni savodli qilish edi. 1912-yilda Turkistonning barcha viloyatlarida jadidchilik harakatlari boshlab yuboriladi. Birgina Samarqandda jadidlarning soni 12 ta bo'lib, ularning sa'y-harakatlari evaziga bir necha kutubxonalar ochiladi.

Harakat asoschisi qrim-tatar o'g'loni Ismoil Gasprali 1883-1914 yillarda Bog'chasaroyda "Tarjumon", tatarlar 1905-1918-yillari Orenburgda "Vaqt" gazetasini nashr qildiradi va ozodlik, taraqqiyot g'oyalarini targ'ib qiladi. Bog'chasaroyda Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan nashr qilingan "Tarjumon" gazetasi butun musulmon o'lkasiga, jumladan Turkiston bo'ylab tarqala boshlaydi. Bu hol Turkiston ma'naviy-ma'rifiy hayotiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Gasprinskiy 1893-yilda Samarqandga keladi. Abduqodir Shakuriy tomonidan ochilgan maktablarni ko'radi va kamchiliklarni ko'rsatadi.

Hoji Muinnig e'tirof etishicha: Gasprinskiy 1908-yilda yana Samarqandga keladi va Behbudiy hamda uning maslakdoshlari bilan uchrashadi. Behbudiy Gasprinskiy bilan ko'rishib: "Bu kun sizning huzuringizga kelib suhbatingizga istifoda qilaturg'on ziyolilarimiz yo'q" [1, 5-brt], degan afsusni bildiradi. Gasprinskiy Behbudiyga yig'ilgan odamlarni ko'rsatib, bular oz emasligini, harakat qilinsa, millat uchun kerakli ko'p insonlarni yetishtira olishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu yillardan boshlab, Samarqandda jadid maktablari ochila boshlaydi. Bu maktablar uchun eski maktablardagi hujra va xas-hashakli o'rindiqlar o'rniga parta va yozish uchun xontaxtalar qo'yildi. Bu kabi dastlabki islohotlar ularni bir maqsad atrofiga birlashishga undaydi.

Ismoilbekning Turkistondagi izdoshlari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo'jayev, Hamza, Xolmuhammad Oxundiy, Ibrohim Davron, Mirmuhsin Shermuhammedov, Nazir To'rqulov, Sadriddin Ayniy, Munzim, Abdulvohid Burxonovlarni ta'kidlash mumkin. Ular milliy uyg'onish harakatining yalovbardorlari sifatida namoyon bo'ladi. Jadidlarning siyosiy talabi, maqsadi, dasturi bitta edi. U ham bo'lsa, Turkistonni mustaqil qilish, ularni jaholat botqog'idan olib chiqish g'oyalari bilan bog'langan edi. Ular bu yo'lda aziz boshlarini ham, shirin jonlarini ham ayashmaydi.

Samarqandda Behbudiy, Shakuriy, Saidahmad Vasliy, Siddiqiy Ajziy, Mirzo Ho'qandboy Abduxoliqzoda, Said Rizo Alizoda, Hoji Muin, Vadud Mahmudlarni millatparvar fidoyilari sifatida e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, ular

jonbozligida yangi usuldagi jadid maktablari ochiladi, darsliklar, qo‘llanmalar yoziladi, hatto millat bolalarini o‘zlarini hisobidan savodli qilishga bel bog‘aydilar.

Islomiyat dunyosida qorong‘ulik va muntazam jaholat botqog‘iga botib borayotgan Turkiston o‘lkasi ustoz va yo‘lboshchilarga muhtoj edi. Jadidlarning rahnomasi sifatida Samarqandda, hatto Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy uyg‘onish yo‘lidagi harakatni boshlab berdi. Mahmudxo‘janing muftiy oilasida tarbiya topganligi unda vatanparvarlik ruhini shakllantirdi. U boshlang‘ich ta‘limni, arab, rus va boshqa fanlarni tog‘asi mufti mulla Odildan o‘rgandi hamda olgan ilmini xalqni ma‘rifatli qilishga sarfladi. U otasi vafotidan so‘ng ma‘lum muddat muftiylik ham qiladi. Yangi dunyoviy ilmlarga qiziqib qolganligi bois, 1899-1900-yillarda Arabiston Misr, Istanbul shaharlarida bo‘ladi.

Behbudiy ham dastlabki faoliyatini maktablarni isloh qilishdan boshladi. U dastlab 1905-yilda Samarqand chekkasidagi Kaftarxona qishlog‘ida maktab ochadi. 1906-yilda “Turkestanskiye vedimosti” gazetasida ta‘lim-tarbiyaga, jadid maktablarining tartib-intizomiga bag‘ishlangan “Jadid maktablarining imtihoni”, 1906-yil rustilida chiqqan “Samarqand” gazetasining 20-may (37-)sonida “Samarqandda jadid maktablari” nomli maqola chop etiladi. Ushbu maqolada bola uch-to‘rt yillik bilimni bir yilda egallashi mumkinligini, imtihon qilingan bolalarning yuqori natija egallagani qayd qilinadi. Hoji Muin “Uchqun” jurnalining 1923-yil 1-sonida e‘lon qilingan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” maqolasida Behbudiy ham Hijoz safaridan keyin “Tarjumon” gazetasini o‘qiy boshlaganini, ikkinchi tomondan turli fanlardan ilmiy kitoblar mutolasi bilan ma‘lumotlarini kengaytirganini ta‘kidlab o‘tadi. Behbudiyning munosib shogirdi Hoji Muinning ta‘rificha Behbudiy afandi halim, ziyrak, g‘oyat zakovatli va quvvaihofizasi zo‘r bo‘ldig‘idek, so‘zga-da nihoyat darajada usta edi. Behbudiy dastavval Turkiston o‘lkasida milliy gazeta yo‘qligi, “Tarjimon” gazetasining shevasi og‘irligi va hali Turkistonda keng tarqalmaganligi sababli 1901-yilda Toshkentda Nikolay Ostroumov muharrirligi ostida chiqayotgan “Turkiston viloyatining gazetasi”ga maqolalar yoza boshlaydi. Bu orada Turkistonda milliy gazeta va jurnallar nashr qilina boshlaydi (faoliyati uzoqqa cho‘zilmasa-da). Hatto 1903-yilda Samarqandda yangi usuldagi jadid maktablari ochila boshlaydi. Behbudiy rahnomoligida bu maktablarning soni ko‘paya bordi. Ularning asosiy maqsadi xalqni ma‘rifatga chorlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan ona tilidagi darsliklarning yetishmasligi sababli o‘zbek va fors tilida darsliklar yozishga kirishadi. Hatto o‘z tilimizda xarita va teatr risolasini yozib, nashr qildiradi.

1913-yilda Samarqand adabiy muhitida jadidchilik g‘oyalarini keng miqiyosda targ‘ib qilish maqsadida birinchi marta “Samarqand” gazetasini nashr qildiradi. Lekin gazeta moddiy qiyinchilik tufayli 44-sonidan keyin yopiladi. Keyinchalik 1913-1915-yillarda “Oyina” jurnali nashr qilinadi. Abdulla Avloniy “Oyina” jurnali haqida: “Oyina chiqquncha, chiqqan jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi edi” deb ta‘kidlaydi. Jurnal muqovasi Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga yozgan arizasiga ko‘ra o‘zbek, tojik, va rus tillarida nashr qilinishiga ruxsat berilishiga qaramasdan arab, o‘zbek, fors va rus tillarida “Mir‘ot”, “Ko‘zgu”, “Zerkalo” va “Oyina” tarzida nashr qilinadi. Bu jurnal ham

ikki yillik faoliyatidan so'ng, 68-sonidan keyin o'z faoliyatini to'xtatadi. Jurnalda nashr qilingan maqolalar vatanimizning yaqin o'tmishdagi ozodlik harakatlari tarixini o'rganishimizda hozirgi kunda ham dasturulamali bo'lib xizmat qiladi.

Behbudiy rahnama sifatida xalqqa ziyo tarqatish yo'lida tinimsiz mehnat qiladi. Ayniqsa, Kafkaz, Tatariston va Turkistonda chiqayotgan barcha gazetalarga doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy maqolalar yozib turadi. Bu maqolalar Turkiston o'lkasida faol jadidlarning tomonidan faoliyat yuritilayotgan "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Tujjor", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo". "Turon", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Tirik so'z", "Tarjumon", "Vaqt", "Sho'ro", "Ulfat", "Irshod", "Toza hayot" kabi gazeta va jurnallarda 200 dan ortiq maqolalar nashr qildiradi. Bu gazetalarda bosilgan maqolalar muhim masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Behbudiy jadidlarning yo'l boshchisi sifatida o'z atrofiga adabiy muhitni yig'a oldi va jadidlarning otasi nomiga musharraf bo'ladi. Samarqand adabiy muhiti jadidchilik g'oyalarini tarqalishida qulay va asosiy joy vazifasini o'tadi. Jumladan, Fitrat va Cho'lpon 1913-1914-yillar Samarqanddan nashr qilinadigan "Oyna" jurnal bilan hamkorlik qilaboshlaydi. Abdurauf Fitrat 1917-yil Samarqanddan nashretgan "Yurt" gazetasida Turkiston xalqlarini uyg'otish, birlashtirish, o'z Vatani ni himoya qilish chorloviga oid asarlarni yozib chiqaradi. Cho'lpon ham Fitrat ko'magida gazetada millatparvarlik ruhida she'rlarini yozib chiqaradi.

Turkistondagi yangilanish jarayoniga va taraqqiyotiga o'zining munosib ulushini qo'sha olgan asli tatar millatiga mansub ijodkor Shokir Muxtoriy bo'lib u o'z davrining yetuk muallimi va muharriri bo'lgan. 1906-yil Farg'onagako'chib kelib Isfara guzarida maktab ochib, 40 ta o'quvchiga dars beradi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin oilasi bilan Samarqandga ko'chib kelgan va "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida 10 oy davomida ishlaydi. Samarqandda ochilgan doral muallimin va turli muallimlar kurslarida dars bergan.

XX asr Vasliy Samarqandda faoliyat yuritishni boshlagan jadid maktablariga darsliklar tayyorlab xalqni savodli qilish yo'lida bel boylagan ziyolilardan edi. Hatto Samarqandda eng ko'p faoliyat yuritgan bir-ikki maktablarning ochilishida ham Vasliyning xizmati beqiyos. U 1906-yildan Turkistondan chiqib boshlagan har bir o'zbekcha gazetalarda she'r va maqolalari nashr qilinib turgan. Vasliy fors, o'zbek va arab tillarini mukammal bilgan, shu bois o'quv maktablarida forscha adabiyot va arabcha sarfu nahvdan dars bergan, muallimlik qilgan va o'zi darsliklar nashr qildirib, tarqatib turgan.

Said Rizo Alizoda 1887-yil 15-fevralda Samarqandda tavallud topgan 1900-yilda Samarqandda Demurov-Sliyanov bosmaxonasiga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. U bolaligida madrasada arab, fors tillarini mukammal o'qigan, Qur'on Karimni yod bilgan. Keyinchalik, rus va boshqa tillarni mustaqil o'rganadi. 14 ta (o'zbek, tojik, fors, rus, arab, turk, urdu, ozar, tatar, arman, ivrit, ingliz, fransuz, turkman qozoq) tillarini mukammal bilgan, o'tkir zehn sohibi bo'lgan.

Samarqandda jadidlar tomonidan turli sohada kutilgan yangiliklar samarasini bermaydi. Maktablar, nashriyotlar majburiy yopila boshlaydi. Shunday bo'lsada, Behbudiy o'z oldiga qo'ygan maqsadda sobit qoladi. Behbudiy milliy

dramaturgiyaning birinchi namunasi sifatida “Padarkush” dramasini yozadi. Asar jadidchilar tomonidan tez sahnalashtirilib, xalqqa taqdim etiladi. Ular ham aktyor sifatida o‘zlari sahnada asarni ijro qilib, xalqqa asosiy mohiyatni anglatishga yordam beradi. “Padarkush” dramasi Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Badriyning “Juvormarg”, “Ahmoq”, Hoji Muyinning “Ko‘knori”, “Eski maktab”, “Yangi maktab”, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ish qurbonlari” kabi pe’salarning dunyoga kelishiga asos bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri XX asr boshida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘lkada zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo‘ldi. Ularning millatni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi mardonavor kurashi jadidlik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Bunda Samarqand adabiy muhitining qolaversa, Mahmudxo‘ja Behbudiy rahnomoligidagi taraqqiyparvarlarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шамсутдинов Р. Жадидчилик: Ҳақиқатвауйдирма. Мулоқот. – Тошкент, 1991. № 11.
2. Qosimov B. Ismoilbek G‘aspirali. “O‘zbekim” to‘plami. –Тошкент: Sharq. 1992. 159- bet.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – Тошкент: Ma’naviyat. 2010.
4. Avloniy A. Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi. Turkiston, 1924, 24-iyun.
5. Oyina. – Тошкент: Akademiyanaashriyoti. 2001.
6. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. – Тошкент: Ma’naviyat. 2020.
7. Karimov N. Cho‘lpon. – Тошкент: Sharq. 2003.
8. Fidoyilar (Nashrga tayyorlovchi Saidmurod Xo‘jayev). – Тошкент: Fan, 1990. 25-bet.
9. Karimov N. Istiqlol fidoyilari. – Тошкент: Sharq, 1993.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JASORATI –YOSHLARNI MILLIY VA JANGOVAR RUHDA TARBIYALASHDA IBRAT MAKTABIDIR

**Boboyev Xurshidbek Yusupovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy
tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent**

Annotatsiya. Ushbu maqolada vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiyning tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi, ma’rifatparvarligi, mutafakkir va ijtimoiy faol sifatida o‘z xalqi taqdiri uchun jonkuyarligi haqida yozib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-ma’rifat, axloq, vatanparvarlik, erkin fikr, jadidchilik, meros, millat, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik.

Аннотация. В этой статье описывается стремление Махмудходжи Бехбуди к развитию молодежи и нации, просвещению, судьбе своего народа

как мыслителя и общественного деятеля, проявившееся в начале XX века, в чрезвычайно сложный и испытательный период в истории нашей Родины.

Ключевые слова: наука-просвещение, мораль, патриотизм, свободомыслие, джайнизм, наследие, нация, патриотизм, просвещение.

Annotation. In this article, the thinking of Mahmudhaja Behbudi, who took the field at the beginning of the 20th century, a very complex and testable period in the history of our motherland, records the prosperity, enlightenment, enthusiasm for the fate of his people as a thinker and social activist.

Keywords: science-enlightenment, morality, patriotism, free thought, jaidism, heritage, nationality, patriotism, enlightenment.

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy- ma'rifiy harakat [2].

XX asr boshlarida Turkistonda boshlangan jadidchilik harakati – jaholat va istibdodga qarshi ma'rifat bilan kurashish, millatni uyg'otish va uni taraqqiyot sari boshlashga qaratilgan umummilliy harakat bo'ldi. Jadidlar millatning ma'naviy uyg'onishiga, ongli avlodni shakllantirishga, zamonaviy bilimlarni tarqatishga xizmat qiluvchi vosita sifatida matbuot va teatrni faol ravishda qo'lladilar. Ular bu ikki yo'nalish orqali keng xalq ommasini tarbiyalash, uyg'otish va zamonaviy fikrlashga undashga intildilar.

Turkiston jadidlarining matbuoti va teatri – ma'naviy uyg'onish va milliy taraqqiyotning muhim poydevori bo'lib xizmat qildi. Bu vositalar orqali jadidlar jamiyat ongini shakllantirdi, xalqni zamonaviy dunyoga tayyorlashga intilishdi. Ular ilm-ma'rifat, axloq, vatanparvarlik va erkin fikr g'oyalarini yoshlar ongiga singdirib, mustaqil va sog'lom jamiyat barpo etishga harakat qildilar. Bu boy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki jadidlar qoldirgan g'oyalar hozirgi mustaqillikni qadrlash, erkin fikrlash va jamiyatni isloh qilish yo'lida muhim ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyondasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir [1].

Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan.

Bu harakat o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, XIX asr boshlarida mavjud bo'lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo'lgan avlodning qarashlari asosan ma'rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma'rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o'zgartirish yo'lidan bordilar [2].

Turkiston jadidlari milliy matbuotni shakllantirishni ma'rifat tarqatish, jaholatga qarshi kurashish, millatda siyosiy va fuqarolik ongini uyg'otish vositasi deb bilishgan. Bu davrda paydo bo'lgan ilk gazetalar va jurnallar jadidlar g'oyalarini xalq orasiga yoyishda katta ahamiyat kasb etdi. Turkistonda o'sha paytda e'tiborga molik nashrlar paydo bo'ldi. Jumladan, "Taraqqiy" Mahmudxo'ja Behbudiy tahririda chiqqan ilk o'zbek gazetalaridan biri. Unda ta'lim, axloq, fan va siyosat haqida maqolalar chop etilgan, "Xurshid", "Oyina", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Achiq so'z" - jadidlar tomonidan tuzilgan, turli ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy mavzularga bag'ishlangan nashrlar, muhimi, bu nashrlarda yangi fikrlar, millat, ta'lim, ayollar huquqi, iqtisodiyot va siyosiy erkinlik kabi mavzular keng yoritilgan.

Jadidlar teatrni xalq ongini shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'rdilar. Teatr tomosha orqali jamiyatdagi muammolarni **hayotiy obrazlar, ahloqiy saboqlar** orqali xalqqa yetkazish imkonini berdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy – o'zining mashhur "Padarkush" dramasida ota-onaga ehtiromsizlik, jaholat va buzg'unchilik kabi muammolarni tanqid qildi. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar ham dramaturgiya orqali ijtimoiy tanqid va tarbiyani olib borishgan. Asarlar mazmunida oilaviy munosabatlar, ta'lim, yuksak axloq, erkinlik va inson haqlari kabi mavzular qamrab olingan.

Teatrning jamiyatga ta'siri:

1. Teatr tomoshalari orqali xalq jamiyatdagi kamchiliklarni tan oldi, ular ustida fikr yuritdi.

2. Yosh avlodda ahloqiy tarbiya va ijtimoiy faollik ruhi shakllandi.

3. Teatr milliy san'atning rivojiga yo'l ochdi va mamlakat madaniyatida yangi sahna an'alarini boshladi.

Jadidlar uchun matbuot va teatr - jamiyatni isloh qilishning ikki asosiy ideologik quroli edi. Bu ikki vosita orqali ular: taraqqiyotga eltadigan g'oyalarni xalqqa yetkazdilar, millatning ma'naviy uyg'onishiga turtki berdilar, hukumat va amaldagi zulmga qarshi intellektual kurash olib bordilar, ayollar haqlari, bolalar ta'limi, din va zamonaviy fan uyg'unligi kabi ilg'or mavzularni ilgari surdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biri, taniqli ma'rifatparvar, mutafakkir va ijtimoiy faol sifatida o'z xalqi taqdiriga befarq bo'lmagan zot edi. Uning faoliyati va tafakkurida millatning taraqqiyoti, yoshlarning bilim olishi va ma'naviy yuksalishi asosiy o'rinni egallaydi. Behbudiy o'z hayotini jaholatga qarshi kurashga, bilim va ma'rifatni tarqatishga, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalashga bag'ishlagan.

Prezident 2025-yilda Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Mutafakkir hayotiga oid ijodiy uchrashuv, ilmiy konferensiya va tanlovlar o‘tkazilib, Qarshidagi ko‘chaga uning nomi beriladi [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy – jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri sifatida, o‘z davrida yoshlar tarbiyasi, bilim va ma‘rifat orqali millat ravnaqiga erishish g‘oyasini ilgari surgan mutafakkir, maorifparvar va ijtimoiy faol shaxs hisoblanadi. Uning tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi o‘zaro uzviy bog‘liq masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Behbudiyning qarashlarida yoshlar jamiyatning eng muhim qatlami sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z asarlarida va maqolalarida yoshlarning ma‘naviy, intellektual va axloqiy kamolotini millatning taraqqiyoti uchun asosiy omil sifatida ko‘rsatgan. Shu sababli: zamonaviy ta‘limga alohida e‘tibor qaratgan, yangi usuldagi maktablar tashkil etib, yoshlarni ilm-fanga jalb qilishga harakat qilgan, o‘z asarlari va maqolalari orqali milliy uyg‘onish, vatanparvarlik va taraqqiyot g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishni maqsad qilgan.

Behbudiy ta‘lim-tarbiyani millatning ma‘naviy va iqtisodiy yuksalishining asosi deb bilgan. Uningcha, faqat ilm, bilim va ma‘rifat orqaligina: millat kambag‘allikdan, nochorlikdan xalos bo‘ladi, jaholat va xurofotdan qutulish mumkin, milliy ong va milliy g‘urur uyg‘onib, mustaqil fikrlaydigan avlod voyaga yetadi. Behbudiy o‘z faoliyatida zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalangan. U: “Taraqqiy” va “Samarqand” kabi gazetalarni chiqargan, yoshlar ongini uyg‘otish va ularni ijtimoiy faollikka undash uchun publitsistik maqolalar yozgan, teatr san‘atini rivojlantirib, “Padarkush” dramasi orqali jamiyatdagi muammolarni ko‘targan va yoshlarni yaxshi tarbiyaga chaqirgan.

Uning fikricha, har bir millat o‘z kelajagini o‘zi qurishi lozim. Buning uchun esa: yoshlar bilimli, dunyoqarashi keng va fidoyi bo‘lishi kerak, tashabbuskor, vataniga muhabbatli, erkin fikrlaydigan avlod voyaga yetishi zarur, millat o‘z tili, dini, an‘analariga tayangan holda zamonaviy taraqqiyotni o‘zlashtirishi lozim.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma‘rifat orqali millat taraqqiyoti g‘oyasi ilgari surgan. Behbudiyning fikricha, millatning yuksalishi va ravnaqi, avvalo, ilm-fan, ma‘rifat va axloqiy tarbiyaga bog‘liq. Uning “millatni uyg‘otish” g‘oyasi, zamonaviy ta‘lim tizimini yaratish va yoshlarni ilmga oshno etish kabi harakatlarida o‘z aksini topdi. U shunday degan edi: “Bizning millati afg‘onlar, forslar, turklar, ruslar singari oldingi qatorlarga chiqishimiz uchun faqatgina ilm va ma‘rifat kerakdir.” Bu so‘zlar orqali u jamiyatdagi tug‘ma nochorlik yoki taqdirga ishonish g‘oyalariga qarshi chiqqan va millat ravnaqini insonlarning bilim olishga intilishi bilan bog‘lagan.

Behbudiy ta‘limni faqat kattalar uchun emas, avvalo yoshlar uchun muhim deb bilgan. U yoshlarni milliy uyg‘onish harakatining asosiy ishtirokchilari sifatida ko‘rgan. Shu bois, Behbudiy: yangi usuldagi maktablarni tashkil etdi, yoshlar uchun darsliklar, qo‘llanmalar va ommabop adabiyotlar yozdi, ularni zamonaviy fanlar, texnika, tillar va axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirishni maqsad qildi.

Uningcha, zamonaviy ilm bilan qurollangan yoshlarga millatni jaholatdan xalos etishi va taraqqiyotga yetaklashi mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy siyosiy jihatdan ham faol bo‘lib, millat manfaatlarini

himoya qilishda qat'iy pozitsiyaga ega edi. Uningcha, millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishi lozim. Buning uchun: insonlar erkin fikrlay olishi, so'z erkinligi va tanqidiy fikrga e'tibor berilishi, milliy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiya muhiti yaratilishi kerak. Bu g'oyalar orqali u millatni o'z qadr-qimmatiga ega, mustaqil fikrlaydigan shaxslar jamiyatiga aylantirishni ko'zlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnaliga asos soldi. 1914-yilda "Turon" teatrida sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'ldi [1].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiyning tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi uzviy bog'liq tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'lim-tarbiya, ma'rifat, teatr va matbuot sohalaridagi faoliyati bu g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Behbudiy uchun yoshlar - millat kelajagining poydevori, ularning ma'naviy, ilmiy va axloqiy kamolotga erishishi esa millatning umumiy ravnaqi uchun kafolatdir. Behbudiyning hayoti va merosi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Yosh avlodni bilimli, ma'rifatli va vatanparvar etib tarbiyalash yo'lida uning g'oyalari barcha davrlar uchun ibrat namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2024 yildagi "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog mahmudxo'ja behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-462-sonli Qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/7287373>
2. <https://oyina.uz/kiril/teahause/1171>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/03/mahkmudkhodja-behbudiy/>

ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ УНИКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ МАХМУДХОЖИ БЕХБУДИ

Курбанов Гани Абилович

старший преподаватель Учебного центра
военной подготовки Национального
Университета Узбекистана, доцент

Аннотация. В статье раскрыты особенности подготовки преподавателей высших военных образовательных учреждений.

Ключевые слова: преподаватель, высшее военное образовательное учреждение, образование, воспитание, Махмудхожа Бехбуди, наследие.

Abstract. The article reveals the features of training teachers of higher military educational institutions.

Key words: teacher, higher military educational institution, education,

upbringing, Mahmudkhoja Behbudi, heritage.

История развития педагогической науки доказала, что период первого и второго Ренессанса удивительно богат на труды великих мыслителей Востока, в их числе Махмудхожа Бехбуди. Вот почему в настоящее время уделяется большое внимание увековечению памяти, глубокому изучению жизни и деятельности, широкой популяризации научных и художественных произведений Махмудходжи Бехбуди. Ярким тому подтверждением является Постановление Президента Республики Узбекистан «О широком праздновании 150-летия со дня рождения основателя джадидского движения в Туркестане, выдающегося писателя, общественного деятеля, издателя и педагога Махмудходжи Бехбуди» [1].

На наш взгляд, наиболее важным является изучение творчества Бехбуди для преподавателей высших военных образовательных учреждений, которые в настоящее время занимаются подготовкой квалифицированных военных кадров [2].

Махмудходжа Бехбуди был одним из ярких представителей джадидского движения, издателем уникальных трудов, выдающимся деятелем узбекской литературы. Как и другие джадиды, он выступал за развитие национального искусства и литературы, равноправие женщин, реорганизацию деятельности духовенства и реформирование политического устройства страны, преподавание в школах на национальном языке, боролся за введение в мусульманских школах нового метода обучения и новейших предметов. Его слова «Права не даются, а завоевываются!» стали девизом для представителей новометодных школ.

Махмудходжа Бехбуди родился 20 января 1875 года в городе Самарканде. Получив образование в медресе, он стал активным участником образовательного и культурного движения своего времени. В начале своей профессиональной деятельности Махмудхожа Бехбуди работал учителем и занимался просвещением народа. По его инициативе были открыты первые школы. Так, в 1903 году близ Самарканда в селах Халвойн и Ражабами организованы новометодные школы для детей местного населения. В 1905 году в селе Кафтархона он открыл свою школу и приступил к созданию учебников для учеников и учителей школ. Кроме того, издал книги «Рисолаи асбоби савод» («Обучение грамоте», 1905), «Рисолаи жуғрофияи умроний» («Введение в общую географию», 1906), «Китобат ул-атфол» («Детское письмо»), «Тарихи ислом» («История ислама», 1908).

Деятельность Бехбуди была направлена на распространение грамотности и развитие национального сознания узбекского народа. Он активно поддерживал идеи реформирования образования, стремился модернизировать учебные заведения, внедряя новые образовательные программы и методики, подчеркивал важность светского образования и обучения на родном языке.

Махмудходжа Бехбуди являлся главным редактором журнала «Ойна», который стал одним из первых узбекских литературных и культурных изданий. Первый выпуск журнала вышел 20 августа 1913 года, а последний –

15 июня 1915 года. Всего в свет вышло 68 выпусков, тираж составлял от 400 до 600 экземпляров. Изначально журнал выходил каждую неделю на 24 страницах, со временем стал выходить на 35 страницах два раза в месяц. Выпускался на узбекском (арабо-персидской письменности) языке. «Ойина» с узбекского переводится как зеркало, что символизировало стремление отражать актуальные проблемы и изменения в обществе. В издании публиковались оригинальные произведения узбекских авторов и переводы классических работ мировой литературы. Бехбуди был автором более двухсот статей, в которых поднимал актуальные социальные и образовательные проблемы.

Языковые вопросы всегда находились в центре внимания редакции. Большое внимание Бехбуди уделял вопросу национального языка и считал, что для развития нации необходимо знать несколько языков. Так, в августе 1913 года в первом номере журнала появилась статья «Надо знать не два, а четыре языка, но главное – в совершенстве овладеть своим родным языком».

Вершиной писательского мастерства Бехбуди является драма на узбекском языке «Падаркуш», вышедшая в Самарканде в 1911 году. Драма была напечатана в 1912 году в газете «Турон», а в 1913 году вышла отдельной книгой. Пьеса, являясь первым произведением узбекской драматургии, была поставлена на сценах театров Самарканда, Бухары, Ташкента. Основу драмы составляет идея просветительства.

По мнению Бехбуди, все несчастья и беды в обществе происходят от отсутствия знаний. Через все произведение проходит мысль о том, что причина невежества, бескультурья и других бед именно в безразличном отношении к науке, интеллекту, просвещению. Молодежь должна быть образованной и культурной.

Махмудходжа Бехбуди считал, что смысл национального прогресса заключается в воспитании всесторонне развитого образованного гражданина, в экономике и образовании. Что будущее Туркестана в новых кадрах, специалистах и образованной молодежи. А поэтому нужны новые методы обучения. В трудах Махмудходжи Бехбуди описана педагогическая интерпретация воспитания молодежи в духе патриотизма и уважения к национальным ценностям. Взгляды Махмудходжи Бехбуди в сфере образования тесно связаны с психикой, образом жизни, национальными ценностями узбекского народа, его богатое педагогическое наследие послужило ценным источником в развитии национальной школы, национальной педагогики. Бехбуди в сотрудничестве с передовой интеллигенцией открыл школы «Усули хорижи, в которых преподавались светские науки. Он думал о роли воспитания детей. Имя Махмудходжи Бехбуди – его наследие и судьба являются предметом исследования ученых Германии, Турции, Америки, Японии, государств Центральной Азии.

Деятельность Махмудходжи Бехбуди остается важным этапом в истории образования и культуры Узбекистана. Его идеи о просвещении и национальном самосознании актуальны и сегодня. Он вдохновил своих последователей на развитие и процветание узбекской литературы и культуры.

Имя Махмудходжи Бехбуди навсегда вписано в историю страны золотыми буквами. Идеолог и лидер джадидизма нес просвещение в народ, стремился разбудить в нем самосознание человека будущего – свободного, интеллигентного, образованного.

В трудах Махмудходжи Бехбуди описана педагогическая интерпретация воспитания молодежи в духе патриотизма и уважения к национальным ценностям. Взгляды Махмудходжи Бехбуди в сфере образования тесно связаны с образом жизни, национальными ценностями узбекского народа, его богатое педагогическое наследие послужило ценным источником в развитии национальной школы, национальной педагогики. Бехбуди в сотрудничестве с передовой интеллигенцией открыл школы «Усули джадид», в которых преподаватель вел светские науки и думал о роли воспитания детей как учитель. По мнению П.Ш.Бегбудиевой «Имя Махмудходжи Бехбуди – его наследие и судьба являются предметом исследования ученых Германии, Турции, Америки, Японии, государств Центральной Азии» [Бегбудиева П.Ш., 2021:84]. Джадиды были уверены, что общество должно переходить в лучшее состояние, в первую очередь, на основе реформ в области образования и просвещения, через познания научных достижений и духовное воспитание молодого поколения. Бехбуди прекрасно знал состояние обучения молодых людей в мактабах и медресе, во многих случаях ученики не получали должных знаний. В одной из своих публикаций «Ох ва хасрат» он писал: «Каждому известно, что из ста мусульман Туркестана девяносто девять полностью безграмотны. В кишлаках и окраинах положение ещё хуже. Из тысячи один, возможно, найдётся грамотный. Причина этому заключается в том, что обучение проходило недолжным образом» [3]. Большинство мыслей Махмудходжи Бехбуди обращено к молодому поколению. В статьях «Бизга ислох керак» – («Нам нужна реформа») «Хак олинур, берилмас» («Права завоевываются, но не даются»), «Ешларга мурожаат» – («Обращение к молодежи»), «Бизни камирувчи иллатлар» («Явления, съедающие нас») и другие наряду с талантом литератора раскрывают его как педагога. В одной из своих статей газеты «Самарканд» Махмудходжи Бехбуди писал: «Обратим внимание на жителей махали и села. Есть очень много неграмотных. Мы мусульмане. Исламу нужны знания и действия. Читать надо. Почему в других странах из ста есть 1 неграмотный, а у нас – из сотни грамотных есть 1 грамотный? Молодые люди других национальностей учатся в школе, а наши – нищенствуют и попрошайничают. Конец этому – разрушение. Через двадцать или тридцать лет будет еще хуже, нация останется вечной и стойкой по средствам морали и развития ремесленничества».

Таким образом, изучение деятельности и произведений великого мыслителя и педагога Махмудхожи Бехбуди, его уникального наследия, философских учений о личности, педагогические воззрения, идеи, суждения, принципы, методические указания и рекомендации, требования к учителю актуальны сегодня и являются основой подготовки будущих преподавателей высших военных образовательных учреждений.

Литература:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-62 «О широком праздновании 150-летия со дня рождения основателя джадидского движения в Туркестане, выдающегося писателя, общественного деятеля, издателя и педагога Махмудходжи Бехбуди» от 27 декабря 2024 года.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qonuni: <https://lex.uz>
3. Бегбудиева П.Ш. Анализ педагогических взглядов Махмудхожа Бехбуди, их влияние на становление национальной системы образования Туркестана // Хорижий филология. – Т., 2021. – № 1. – С. 82-85.

JADIDLARNING TURKISTONDA HARBIY ISLOHOTLAR O‘TKAZISHGA DOIR QARASHLARI TAHLILI

Mirzayev Gulom Rizoqulovich

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
dotsenti, tarix fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistondagi harbiy islohotlarga doir takliflarning jadidlar asarlarida aks etishi masalalari haqida so‘z yuritiladi. Jadidlarning Turkistonda harbiy islohotlar o‘tkazishga qarashlari tahlili berilgan. Jadidlarning ozodlik va milliy mustaqillik haqidagi qarashlari, Turkistondagi harbiy qurilish va milliy armiya masalalariga munosabatlari qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, Jadidlarning harbiy qurilish sohasidagi islohotlarni amalga oshirishga doir takliflari, harbiy qurilishni amalga oshirish, qudratli armiyaga ega bo‘lishining ahamiyati dalillar bilan yoritilgan. Mazkur sohada hamkorlikni rivojlantirishga doir muallifning bir qator takliflari ilgari surilgan va xulosalari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadidchilik, qo‘shin, milliy qo‘shin, milliy armiya, milliy-ozodlik harakati, dastur.

Annotation: This article discusses the issues of the reflection of proposals for military reforms in Turkestan in the works of the Jadids. An analysis of the views of the Jadids on military reforms in Turkestan is given. The views of the Jadids on freedom and national independence, their attitude to military construction and the issues of the national army in Turkestan are studied in a comparative-historical way. Also, the Jadids' proposals for implementing reforms in the field of military construction, the importance of carrying out military construction and having a powerful army are illustrated with evidence. A number of the author's proposals for developing cooperation in this area are put forward and his conclusions are expressed.

Key words: Turkestan, Jadidism, troops, national army, national liberation movement, program.

Mustaqillik tufayli buyuk jadid mutafakkirlarining ilmiy, ijodiy, g'oyaviy, ijtimoiy-siyosiy merosini chuqur o'rganish, mazmun-mohiyatini xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy mulkiga aylantirish, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, harbiy sohaga doir qarashlari hamda g'oyalarini tadqiq va targ'ib qilish, istiqloq qadriyatlariga uyg'un milliy davlatchilik siyosatiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5598-son Farmoyishining e'lon qilinishi bejizga emas. Bu bilan jaddilardan bizga meros bo'lib qolgan noyob asarlarini o'rganib, jamiyatni yuksaltirishda ularning tajribasiga tayanish va g'oyalarini bugungi kunga tatbiq qilishdan iborat [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5598-son Farmoyishi].

Ta'kidlash joizki, ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini o'rganish, nafaqat yurtimiz olimlari, balki qo'shni davlatlar va yetakchi xorijiy davlatlarning tarixchi olimlari tomonidan keng o'rganilmoqda. Buning misoli sifatida 2023-yil 11-dekabrda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi, unda ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosini xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilishini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga tabrigida ta'kidlaganidek, "... taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jaddilarning milliy davlatchilik rivojida o'rni va ta'sirini o'rganish, XX-asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega". Ayniqsa, "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jaddilarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosini tadqiq etish" [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to'g'risida" 2020-yil 30-sentabrdagi Farmoni // Xalq so'zi] dolzarb vazifalardandir.

Jadid mutafakkirlarning ozodlik va milliy mustaqillik haqidagi qarashlarini ifodalab, tarixchi olim H.Ziyoyev shunday fikrlarni yozadi: "Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg'ulari ham jaddilar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jaddilar sharoit taqozosiga ko'ra, birinchi navbatda, xalqning savodini chiqarish, bilimni oshirish, milliy his-tuyg'ularni va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashdilar. Boshqacharoq aytganda, ular faoliyatining dastlabki bosqichida ma'rifatparvarlik salmoqli o'rinni egalladi. Ammo, bu ularda siyosiy g'oyalar va maqsadlar yo'q edi deyish emas, albatta. Aksincha, siyosiy qarashlar mavjud edi. 1917-yilda Rossiyada Romanovlar sulolasi

ag‘darilib, siyosiy kurashga imkon tug‘ilishi bilanoq jadidlar, Turkiston mustaqilligi uchun siyosiy kurash boshladilar” [Ziyoyev Hamid, 1999: 22].

Taraqqiyparvar jadidlar davlat mustaqilligiga harbiy qurilishni amalga oshirmay, qudratli armiyaga ega bo‘lmasdan turib erishish mumkin emasligini teran anglab yetgandilar. Shu boisdan ular harbiy qurilish va milliy armiya masalalariga alohida diqqat-e’tiborni qaratdilar. Jadidlar har bir mamlakat o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi uchun zamonaviy texnika bilan qurollangan, har tomonlama puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan armiyasi bo‘lishi zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surdilar va bu borada katta kuch-g‘ayrat sarfladilar.

Turkiston jadidlarining rahnamalaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham Turkistonning davlat mustaqilligiga erishish uchun Milliy Armiyani tuziy va milliy askarlarga ega bo‘lish nihoyatda zarur ekanligini ta’kidlaydi. U “Bayoni haqiqat” maqolasida yozadi: “Turkiston hukumatini ta’sis etsak, o‘zimiz majlis mashvaratimiz bo‘lsin, desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z qonun va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar.

Turkiston yahudiy, nasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e’tiborga oladigan qonunlar tuzilsin. Agarda biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni... ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo‘ysalar ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, mulkdor va ulamomiz birlashib din va millat, Vatan rivoji uchun xizmat etsak... O‘zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo‘lsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarzi maishatini o‘zimiz tayin qilurmiz” [Behbudiy Mahmudxo‘ja, 1999: 24]. Yoki uning mana bizning oldimizda eng katta ishlar turibdur, hozirgi ahvoliga qaraganda yana biz musulmonlar ruslarning fuqarosi va raiyasi bo‘lgan o‘lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlakot) qoidasi ila bizni idora yetarlarki, bunga o‘z ixtilofimiz sabab bo‘lur [Behbudiy Mahmudxo‘ja, 1999: 24].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikriga ko‘ra, askar masalasi nihoyatda muhimdir. Ammo, umumiy majburiy ravishda askarlikka olinmasligi kerak. Musulmonlar bunga o‘rganmagan va hali tayyor emaslar. Askarlik xizmatining juda zarur ekanligini xalqning ruhiyatiga singdirish lozim. Toki ayrim salbiy fikrli fitnachilar fuqaroning noto‘g‘ri fikridan foydalanib, ba’zi bir fitnalarni uyushtirmasalar hamda siyosatdan mutlaqo bexabar fikri noto‘g‘ri kishilar qo‘llariga qurol olib kutilmagan yomon hodisalarni paydo qilmasalar. Shuning uchun taklif qilamanki, - deb yozadi Behbudiy, - to xalq o‘rganib, biroz ahvol o‘zgarguncha umumiy majburiy askarlikka olinmay, targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilib, xalqning ahvoliga qarab, ko‘ngilli tarzda askarlikka olinsa edi maqsadga muvofiq bo‘lardi [Behbudiy Mahmudxo‘ja, 1918, 2 avgust: 505]. Ma’rifat, madaniyat va ta’lim tarbiya tarqatishni asosiy vazifasi deb bilgan jadidlar, jadid matbuotida askarlik masalalari, shu jumladan harbiy masalalar ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Taraqqiyparvar jadidlardan Abdurauf Fitrat harbiy va mudofaa masalasi yuzasidan, Buxoro amirligi davlatida sarbozlik, ya’ni askarlik xizmatini, mamlakat harbiy mudofaa ishlarini chuqur o‘rganib, tahlil qilar ekan, uning ta’kidlashicha, Amir askarlari Vatanni himoya qilish sharaflil burch ekanligini bilmaydilar. Vatan bizning valine’matimizdir, valine’matga xizmat qilish burchdui, bas, Vatanga

xizmat burchdir [Fitrat Abdurauf, 2010: 195]. Fitratning mazkur fikri – “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” [O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.] deb belgilab qo‘yilgan Konstitutsiyamizning 64-moddasi bilan hamohang va g‘oyaviy nuqtai-nazardan mushtarakdir.

Abdurauf Fitrat amirlikdagi sarbozlar faoliyatini tanqid qila turib, ularning nima sababdan jinoiy hatti-harakatlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lishlarini aniq dalillar asosida ochib berdi. Buning ikki sababini ma’lum qiladi: birinchidan, sarbozlikka olinishidan oldin bu kishi oyning birinchi yarmida hammollik qilib, har kuni o‘rtacha o‘n besh tangadan, ya’ni yuz ellik tangani qo‘lga kiritar va oyning qolgan yarmini farog‘at bilan o‘tkazar edi. Sarboz bo‘lgandan keyin esa oyiga yigirma tanga oladi va boshqa ish qilolmaydi; Ikkinchidan, u avval o‘g‘irlik qilmas, chunki sarbozlardan qo‘rqar edi. Endi u sarboz bo‘lgach, uning uchun o‘g‘irlikdan ustun va manfaatli kasb yo‘qdir [Fitrat Abdurauf. Hind sayyohi bayonoti, 2000: 121]. Bu, sarkarda va yuzboshilarning g‘ayriqonuniy hatti- harakatlarining mudhish oqibatidir.

Abdurauf Fitrat harbiy qurilish va milliy armiya masalasiga alohida e’tibor qaratib, shuni ta’kidlaydiki, qo‘shinning qurol-aslahasi shamshir va egri kamondan iborat bo‘lmasligi kerak [Fitrat Abdurauf, 2000: 88]. Davlat o‘z qurolli kuchlarini zamonaviy qurollar bilan ta’minlashi shart. Bu, davlat va fuqarolar xavfsizligini tashkil etishda-Vatan sarhadlarini, xalq tinchligi va farovonligini himoya qilish, ularning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbir va rejalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatni mustaqil mamlakat sifatida e’tirof etish uchun sabab bo‘ladigan davlat belgilaridan biri – uning milliy armiyasi ekanligini, milliy askar tashkil etmasdan turib milliy davlat tuzib bo‘lmasligini, shubhasiz chuqur anglagan.

Fitrat askarlarning tarkibi o‘g‘ri va qotillardan [Fitrat Abdurauf. 2000, 121], yetmish yashar mafluk (jabr ko‘rgan) sarbozlardan [Fitrat Abdurauf, 2000: 88] iborat bo‘lgan – Amir armiyasini tanqid qiladi. Xalq madadiga tayanadigan, yagona qo‘mondonlik boshchilik qiladigan Milliy Armiyaga ega bo‘lmasdan turib, Vatan osoyishtaligi va fuqaro tinchligini ta’minlab bo‘lmaydi, deb uqtiradi. Mamlakat mudofaasini tashkil etish va amalga oshirishda oliy hukmdor javobgardir, deydi. Davlat mudofaasi – mamlakat hududi, fuqarolar manfaatlari himoya qilinishi, ularning tinch hayot kechirishini ta’minlashi, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarning oldini olishi va chetdan qilinadigan harbiy hujumga qarshi har qanday sharoitda qurolli himoyalaniishi uchun barcha shart- sharoitlarni yaratish, zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak, deb ko‘rsatgan edi Fitrat.

Rivojlangan davlatlar - mamlakat mudofaasi uchun o‘z harbiy askarlar, olovli harbiy qurollari to‘p, miltiq, dinamit, bomba kabi zamonaviy harbiy qurollariga va askarlarini safarbar etish uchun esa kema va bronepoyezdlarga egadirlar. Musulmon davlatlari ham o‘zlarining yangi harbiy qurollariga ega bo‘lishlari shart, zero bulardan tashqari mudofaa bo‘lmaydi” [Fitrat Abdurauf, 2000: 91.], - deb uqtiradi.

Mamlakat mudofaa qobiliyatining muhim tarkibiy qismi bu – davlat va fuqaro xavfsizligini mustaqil ravishda himoya qilishga qodir bo‘lgan, har qanday vaziyatda dushmanga munosib zarba bera olish qudratiga ega bo‘lgan uning Quroli Kuchlaridir, deb ko‘rsatadi Fitrat, - davlat o‘zining nomuntazam askarini tayoq, pichoq, xanjar, egri shamshir va eski kamon bilan qurollantirmasligi, ot-aravalarda yo‘lga chiqib, ular hech qanday qarshiliksiz dushmanga mag‘lub bo‘lmasligi kerak [Fitrat Abdurauf, 2000: 92].

Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan, tashqaridan yuz berishi mumkin bo‘lgan hujumga qarshi kuch ishlatishga tayyor holda turgan, zamonaviy qurollar bilan ta‘minlangan Qurolli Kuchlar – davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Taraqqiy topgan davlatlar o‘z mudofaasi uchun, shon-shavkatini himoya qilishi, shuhratining ortishi, mulkining ta‘mini va xalqining tinchligi uchun zamonaviy qurollar ishlab chiqarganlar. Musulmon mamlakatlarining Quroli Kuchlari ham, har tomonlama zamon talablariga javob beradigan harbiy qurollar bilan ta‘minlashlari kerak [Ergasheva Minavvar, Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari. 2024: 230].

Abdurauf Fitrat harbiy ilm va mashqlarni puxta, mukammal egallagan, haqiqiy jangovarlik qobiliyatiga ega bo‘lgan askargina o‘z Vatani va xalqini himoya qila olish kuchi va qudratiga ega bo‘la oladi, deb uqtiradi. “Nasroniylarning eng kichik amirlari ham bir lak doimiy sarbozga ega bo‘lgan bir paytda, biz o‘ng ming o‘g‘rini atrofimizga to‘plab, bolalarimizning o‘yinchog‘i qilib qo‘yganmiz” [Fitrat Abdurauf, 2000: 97.], - deya qattiq norozilik bildiradi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, 1918-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan Dastur loyihasida harbiy xizmatchilar va milliy armiya masalalariga juda katta ahamiyat berilgan [Buxoroda islohot loyihasi, 2005: 58.]. Dastur loyihasining asosiy moddalaridan o‘rin olgan harbiy masalalarning mazmuni quyidagilardan iboratligini bildirib, “... birinchi navbatda loyiha askarning sonini orttirish masalasiga to‘xtaydir. Rossiyaning bugungi hukumati bilan tuzilgan mushohadaga binoan Buxoroning askari 12 mingdan iborat bo‘lsa kerak edi, lekin amir shu mushohadadan foydalana bilmadi. Askarni tuzishda Ovrupa usullarini kirgizish kerak: “Askariy xizmat hamma uchun majburiy bo‘lishi lozim”. Askariy xizmatga olinadurgan kishilar do‘xturlar qaramog‘idan o‘tushlari kerak. Kasallar, mayiblar bundan ozod bo‘ladilar. Askariy xizmat muddati ikki yil qilinsin. Yigirma ikki yoshga yetilgan har kim askariy xizmatga majburan chaqiriladir. Bundan keyin loyiha askarlarni o‘rgatish va ta‘min qilish masalasiga to‘xtaladir. Loyiha juda katta kazarmalar ishlatishni, Buxoroda qo‘mondonlar tayyorlash uchun harbiy maktablar ochishni askar uchun xazinadan ovqat, kiyim berishni, askarlarga oz bo‘lsa ham oylik maosh berishni talab etadir” [Xo‘jayev Fayzullo, 1926: 110].

U askarlarning yuksak harbiy tajribaga va yetuk siyosiy tafakkurga ega bo‘lishlari o‘ta muhim, murakkab jarayon ekanligiga alohida ahamiyat beradi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning siyosiy ongi jamiyat hayotidagi voqealarning tub mohiyatini anglashi va ularning ijtimoiy turmushda sodir bo‘layotgan voqealarga faol ishtirok etishi natijasida rivojlanib boradi. Mamlakat aholisi va hududini ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qilishlari uchun davlat o‘zining

Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini muntazam ravishda oshirib borishi kerak, deb uqtiradi.

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida siyosiy partiyalar davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishda o'z ta'sirlarini kuchaytirishlari uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor qozonishlari, keng siyosiy faoliyat olib borishlari, mulkiy mustaqillikka erishishlari, katta siyosiy tajriba orttirishlari, jamiyatda o'z mavqelariga va o'zlarining doimiy saylovchilariga ega bo'lishlari to'g'risida ilg'or g'oyalar ilgari surilgan edi [Ergasheva Minavvar, 2024: 504].

Turkiy federalistlar (Turk Adami Markaziyati) siyosiy partiyasi, ilk bor Turkistondagi rus siyosiy partiyalaridan mustaqil holda tizimlashgan siyosiy dasturni ilgari surdi va mahalliy xalq orasida muxtoriyatchilik kayfiyatini kuchaytirdi. Xalq milliy-hududiy muxtoriyat g'oyasidan hayajonga keldi. U Turkiston jamiyatining turli qatlamlari orasida tobora qo'llab-quvvatlana bordi, musulmonlar manfaatlarini himoya qildi. Natijada muxtoriyatchilik harakati mahalliy siyosiy hatti-harakatlar doirasidan tashqariga chiqib, milliy ozodlik harakatining siyosiy tashkillashgan ustuvor bo'g'iniga aylandi [Azamxo'jayev S. 2000: 106-107].

Turkiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilar orasida qardosh turkiy xalqlar vakili, Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun olib borgan kurashida faol ishtirok etgan - boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy "Xotiralar" asarida Jadid "Taraqqiyparvarlar" partiyasining 19 banddan iborat dasturi hujjati haqida so'zlaydi va uning qisqa mazmunini keltiradi.

1. Milliy madaniyatga ega bo'lib, mustaqil millat sifatida yashamoq hayotning tub asosi bo'lishi kerak. Maqsadimiz Turkistonda mustaqil va milliy hukumat tuzishdir.

2. Ozod Turkistonda davlat shakli va idorasi respublika bo'lib, hokimiyat manbai demokratik asoslarda saylangan milliy parlament.

3. Markaziy hukumat a'zolari millat kengashining roziligi bilan Respublika rahbar (Prezident)i tarafidan tayinlanadi. Millat kengashi, Respublika rahbar viloyat kengashlarining saylash tartibi mustaqil Turkistonning ilk qurultoyi tomonidan belgilanadi - tasdiqlanadi.

4. Turkistonda kamchilikni tashkil etuvchi (aholisi oz) millat va elatlar ham fuqarolik huquqidan teng foydalanadilar.

5. Turkiston milliy hukumati Turkiston milliy qo'shiniga tayanadi, harbiy xizmat majburiydir.

6. Ichki tinchlikni, huquqiy tartibotni muhofaza qilish uchun viloyat idoralari, mahalliy militsiya tashkiloti vujudga keltiriladi va bu tashkilot mamlakatning milliy mudofaa tizimiga bog'liq bo'ladi.

7. Mamlakatda vijdon erkinligi to'liq bo'lur.

8. Matbuot va nashriyot erkinligi, shaxs erkinligini davlatning asosiy qonuni asosida ta'min etiladi.

9. Mamlakatning solig'i daromadga mutanosib bo'lur.

10. Yer masalasida asos yer, suv, yer osti boyliklari va o'rmonlar davlat mulki hisoblanadi. Yer dehqonlarga xususiy mulk sifatida berilur.

11. Xususiy shaxslar yer-suv masalasida oldi-sotti qilmaydilar. Bunday

muomalalar faqat davlat yo‘li va davlat qo‘li bilan amalga oshiriladi.

12. Turkiston ozodligi faqat iqtisodiy mustaqillik sharoitida bo‘lishi mumkin. Shuning uchun Turkiston boshqa qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni zamonaviy shaklda va yanada rivojlantirilishiga harakat qilur.

13. Turkistonda yer muammosining asosi suvdir, shuning uchun millatning barcha kuchi sug‘orish va obodonlashtirish ishlarini kengaytirishga sarf etiladi.

14. Turkistonda, ayniqsa, qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlarida eng muhim masala ko‘chmanchilikdan o‘troq hayotga o‘tmog‘idir.

15. Turkistonda ishchi masalasining yechimi – bu mamlakatda milliy sanoat taraqqiyotiga, rivojlantirilishiga bog‘liq.

16. Adliya masalalarida mustaqil va har kimga teng huquq. Diniy va dunyoqarashlariga qaramasdan zamonaviy qonunlar qabul qilinib ularni himoya qilishni ta‘minlash.

17. Maorif tizimida umumiy bepul boshlang‘ich ta‘lim tatbiq etilur.

18. Turkistonda birinchi navbatda ayniqsa, kasb-hunar maktablariga alohida ahamiyat beriladi.

19. Qadimiy sivilizatsiya o‘chog‘i bo‘lgan Turkistonda asrlar davomida shakllangan va to‘planib kelingan madaniy yodgorliklar muhofazaga olinadi va bular milliy madaniyatni yuksalish yo‘lida xizmat qiladi [Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, T: 2014, 341].

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida, maromnoma nizomnomalarida asosiy e‘tibor o‘z davlat tuzilishini barpo etish, qonunlar chiqarishni amalga oshirish, mustaqil vakolatli o‘lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizlarini ishlab chiqishga qaratildi.

Atoqli jamoat va davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev har bir mamlakat o‘z xavfsizligini ta‘minlashi va aholining tinch hayotini himoya qilishi uchun yetarli miqdorda Qurolli Kuchlariga ega bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida ilg‘or g‘oyalarni ilgari suradi. Uning ta‘kidlashicha, milliy armiya mamlakatning davlat mustaqilligini ta‘minlovchi, uni ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qiluvchi vosita bo‘lib, har bir mamlakat o‘tish davrida o‘zining milliy armiyasiga ega bo‘lishi zarur [Xo‘jayev Fayzullo, 1925: 418]. U shuningdek, milliy armiya tuzishda uning moddiy jihatdan ta‘minlanishiga asosiy e‘tiborni qaratish, askarlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, joy bilan butunlay ta‘minlash va muayyan miqdorda xizmat haqi berib turish kabi masalalar ahamiyatiga ko‘ra nihoyatda muhim ekanligini tushuntirib beradi. Moddiy ta‘minot armiyada xizmat qilishni yengillashtirsa, shu bilan birga, askarning harbiy texnikaviy jangovar tayyorgarligini muttasil oshirib borishga imkon ham beradi, armiyaning kuch- qudrati, jipsligi va jangovar qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi, demak, mamlakat mustaqilligini ta‘minlaydi [Xo‘jayev Fayzullo, 1922, 22.].

Fayzulla Xo‘jayevning “Buxoro Askarlariga Xitobnoma”si alohida e‘tiborga loyiqdir. “Xitobnoma”da, Rusiya davlati eng zolim davlat bo‘lsa ham Buxoro amirlaridan kuchli zulm qilmas edi, deb qayd qiladi. Shunga qaramay, Rusiya xalqlari, ya‘ni qo‘shini, ishchilari, dehqonlari va ziyolilari hammasi birgalikda, eski hukumatni tugatdilar. Musulmon xalqlari esa, jumladan, Turkiya, Eron va Afg‘oniston xalqlari, askarlar bilan birga podshohlarni, beklarni va o‘zlarining

boshqa hokimlarni taxtdan olib tashladilar hamda uning o‘rniga, davlatning hamma ishlarini nazorat qilish, mamlakatni birgalikda idora qilish xalq vakolatlari ta’sis etdilar, ayrim mamlakatlarda esa respublika e’lon qildilar [Xo‘jayev Fayzullo, 1922: 156].

Bu mamlakatlar orasida Buxoro davlati avvalgidek ayrim mulkdorlar, mufti va beklar hukmronligi ostida bo‘lib, fuqaro jabr-zulmdan qolib kelmoqda [Xo‘jayev Fayzullo, 1922: 156], deb yozadi u. Qo‘shin va askarlar to‘g‘risida fikr bildirib, mutafakkir tushuntirib berdiki, qo‘shin degani – bu osmondan tushgan yoki yerdan chiqqin emas. Qo‘shin ham siz va biz kabi odamlar bo‘lib, ular ham o‘sha dehqonlar yoki hunarmandlardan, o‘sha mehnatkash va kambag‘al xalqdan olinadi.

Askarlar xalq bilan birga eziladilar, ular ham zolimlarning eziluvchilaridir [Xo‘jayev Fayzullo, 1922: 157.]. Hukmdorlar va amirlar, avval askarlarni muayyan oylik barobariga jalb qilganlar, deb ta’kidlaydi Fayzulla Xo‘jayev, so‘ngra ularni o‘zlariga ag‘darib, tarafdorlari qildilar. Oxir-oqibat askarlardan o‘zlarining birodarlarini ezish uchun qurol sifatida foydalandilar. Ammo, keyinchalik askarlar ham haqiqatni va hukumatning siyosiy rejalarining mohiyatini tushunib, dehqonlarni, hunarmandlarni, yetim va kambag‘allarni, umuman, fuqaroni jabr-zulmdan ozod qilish uchun xalq bilan birlashib, bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishganliklarini, zolim hukumatlarni yiqitib, ularning o‘rniga o‘zlarining erki va irodasini bildirib, saylovlar orqali demokratik hokimiyat tuzganliklarini u “Xitobnoma”da ko‘rsatib beradi [Xo‘jayev Fayzullo, 1922. 157].

Fayzulla Xo‘jayevning fikricha, fuqaro va oddiy xalq qo‘lida harbiy qurol-aslahalar, jumladan, to‘p, pulemyot, miltiq, to‘pponcha kabilar bo‘lmaganligi tufayli, ular hukmdorlarga qarshi kurasha olmaydilar va bir joyda yig‘ilib, mustahkam bir siyosiy tashkilot tuza olmaydilar. Askarlar esa uyushganlar va fuqaroga qaraganda siyosiy ongi kengroq. Mamlakatda yuz berayotgan siyosiy voqea va hodisalarni chuqurroq anglaydilar. Agarda ularga qo‘shbegi (harbiy vazir) va boshqa mansabdor shaxslar salbiy ta’sirini o‘tkazmagan bo‘lsa, qo‘llarida qurollari bo‘lgan holda mustabid hokimiyatni tugatib, uning o‘rniga xalq manfaatlarini ifodalaydigan demokratik hokimiyatni qura oladilar [Xo‘jayev Fayzullo, 1922: 157]. “Xitobnoma”da Buxoro askarlariga shunday murojaat qiladi: “Qimmatli o‘rtoqlar! Temurning shonli avlodlari! Bu kun o‘zingizning butun qahramonliklaringizni va o‘zlaringizning kuchlaringizni ko‘rsatishingiz lozim bo‘lgan kun keldi. Yolang‘och qilichlar bilan amirga qarshi, ya’ni sizni qulga o‘xshatib 130 so‘m qog‘oz pulga sotib olib, ochlikdan xarob qilgan odamga qarshi urushga chiqingiz....Zolimlarning o‘rinlarini munosib odamlarga beringlar va shu tartib bilan zolimlarning huquqlarini mazlumlar uchun tortib olinglar” [Xo‘jayev Fayzullo, 1922:, 158], deyiladi.

Mutafakkir Buxoro askarlarini – fuqaro va oddiy xalqni, yetim va kambag‘allarni amluk, xiroj, boj va boshqa turli noshar’iy soliqlar bilan asoratda tutgan amlukdorlar va amaldorlarning jabr-zulmini tugatishga, insoniy haq-huquqlarini qo‘lga kiritishga da’vat etadi [Xo‘jayev Fayzullo, 1922: 157.].

U Buxoro askarlarini o‘zlarining siyosiy maqsadlariga erishishlari uchun oralaridan to‘g‘ri niyatli va sodiq harbiy xizmatchilardan “dasta” (qism)lar va maxfiy siyosiy jamiyatlar tuzishlarini, mazkur jamiyatlardan uch yoki besh nafar

harbiylarni boshliq qilib, ularning buyruqlari bilan harakat qilishlari kerakligini ta’kidlaydi [Xo’jayev Fayzullo, 1922: 159].

Shunday qilib, Fayzulla Xo’jayevning “Buxoro Askarlariga Xitobnoma”si o‘z davrida harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda, ularning siyosiy maqsad va rejalarini to‘g‘ri yo‘naltirishda hamda amalga oshirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Turkiston hududlari ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan demokratik jarayonlar sababli Turkistonning mahalliy aholisi orasida o‘z yo‘lini taklif etgan milliy-siyosiy tashkilotlar yuzaga keldi;

ikkinchidan, jadidlar davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish uchun barcha millatning birligi va hamkorligi nihoyatda zarurligi haqidagi chuqur mushohadalari, umuman milliy birlik to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari va amaliy faoliyatlari bilan xalq ongida ularga nisbatan intilishni uyg‘ota oldilar, chor hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining tub negizi va mohiyatidan qanday maqsad va muddao borligini teran anglagan jadidlar harbiy qurilish va milliy armiya tuzish masalalarini birinchi bosqichdagi asosiy vazifa qilib belgiladilar;

uchinchidan, taraqqiyparvarlar milliy armiya davlat xavfsizligining muhim kafolati ekanligini teran anglar edilar. Shu bois ham jadidlar “Erk” partiyasi Dasturida – ularning milliy armiya tuzish to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari va uni amalga oshirish mutlaqo shart qilib qo‘yildi. Jumladan, Dasturning 5-bandida “Davlatni idora qilishni tashkil etish uchun milliy qo‘shinlar tuzilajak”ligi belgilangan [Ahmad Zakiy Validiy, 1997: 111.]. Jadidlar, Turkistonning davlat mustaqilligiga erishish, harbiy qurilish va Milliy Armiya tuzish, shuningdek, davlat mudofaasi, harbiy xizmatchilar va ularning huquq va majburiyatlari borasida qoldirgan boy ilmiy merosi hamda amaliy faoliyatlari hozirgi mustaqillik davrida nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi;

to‘rtinchidan, Jadid taraqqiyparvarlarning asosiy maqsadi - Turkistonning mustaqilligiga erishish, o‘zining armiyasiga ega bo‘lgan milliy hukumat tuzish, mustaqil millat sifatida hayot kechirishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishishda Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun olib borgan kurashida faol ishtirok etgan Ahmad Zaki Validiy tomonidan ishlab chiqilgan Jadid “Taraqqiyparvarlar” partiyasining dasturi hujjatida o‘z ifodasini topdi. Ushbu dasturda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, diniy sohalar bilan bir qatorda milliy qo‘shin tuzishga oid muhim masalalar o‘z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-son Farmoyishi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 2023-yil 11-dekabr.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to‘g‘risida” 2020-yil 30-sentabrdgi Farmoni. Xalq

soʻzi.

4. Ziyoyev H.Z. Jadidchilik harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX-asrning ikkinchi yarmi – XX-asrning boshlari) // Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy toʻplam №1, 1999 – 218 b.
5. Fitrat A. Rahbari najot, Kitobda: Tanlangan asarlar. 5-jild / Ilmiy risolalar. T.: Maʼnaviyat. 2010, 304 b.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 64-modda. T.: Oʻzbekiston. 2023.
7. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti, Kitobda: Tanlangan asarlar. 1-jild / Sheʼrlar, nasriy asarlar, dramalar. T.: Maʼnaviyat. 2000, 256 b.
8. Fitrat A. Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgʻon munozarasi, Kitobda: Tanlangan asarlar. 1-jild / Sheʼrlar, nasriy asarlar, dramalar. T.: Maʼnaviyat. 2000, 256 b.
9. Ergasheva M. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari. Monografiya. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. - 504 b.
10. “Buxoroda islohot loyihasi (1918 yil)”//Yosh buxoroliklar qoʻmitasi tayyorlagan, T.: 2005 yil, 58-b.
11. Xoʻjayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, 1926: 110 b.
12. Azamxoʻjayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – T.: Maʼnaviyat. 2000. 168 b.
13. Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi / “Istiqlol nuri” nashriyoti. – T.: 2014. - 612 b.
14. Xoʻjayev F. Oʻzbekiston SSR Revolyusion Komitetining faoliyati toʻgʻrisida / Oʻzbekiston SSR Sovetlarining 1 Quriltoyida 1925-yil 13-fevralda qilingan doklad / Uch tomlik Tanlangan Asarlar toʻplami T-1. – T.: 1989. 418 b.
15. Xoʻjayev F. Hukumat va mamlakatning joni askardir// Buxoro axbori. 1922-yil 22-aprel.
16. Xoʻjayev F. Buxoro askarlariga Xitobnoma. Kitobda: Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, 156 b.
17. Behbudiy M. Bayoni haqiqat // Ulugʻ Turkiston. 1917-yil 12-iyun Kitobda: Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxoʻja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – T.: “Akademiya”, 1999. 24 b.
18. Behbudiy M. Gʻalla, askarlik, yer va taʼliminoti harbiya / Mehnatkashlar tovushi. 1918-yil 2-avgust. 515 b.
19. Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon. Boʻlinganni boʻri yer / Turkiston xalqlarini milliy mustaqillik uchun kurashi tarixidan Xotiralar. – T.: Adolat. 1997, 111 b.

MAHMUDXOʻJA BEHBUDIYNING YOSHLAR TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

**Jabbarov Zarifboy Rustamovich
OʻzMU Harbiy tayyorgarlik oʻquv markazi dotsenti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maʼrifatparvar Mahmudxoʻja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Muallifning yoshlar

tarbiyasiga oid g'oyalari ilm-ma'rifatga chorlash, axloqiy kamolot, vatanparvarlik va milliy uyg'onish masalalari asosiy o'rinda ekani yoritilgan. Behbudiy asarlari va ma'rifiy faoliyati orqali yosh avlodni bilimli, axloqli hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldor shaxs sifatida shakllantirish g'oyalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, yoshlar tarbiyasi, ma'rifat, axloq, milliy uyg'onish, ma'naviy meros.

Аннотация. В статье проанализированы общественно-политические и педагогические взгляды просветителя Махмудходжи Бехбуди. Отмечается, что идеи автора в области воспитания молодёжи, в основном, сосредоточены на вопросах призыва к знаниям и просвещению, нравственного развития, патриотизма и национального пробуждения. В трудах и просветительской деятельности Бехбуди исследованы идеи формирования молодого поколения как образованных, нравственных и социально активных личностей.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, воспитание молодёжи, просвещение, нравственность, национальное пробуждение, духовное наследие.

Abstract. This article analyzes the socio-political and pedagogical views of the enlightener Mahmudkhodja Behbudi. It is highlighted that the author's ideas on youth education are mainly focused on the issues of calling for knowledge and enlightenment, moral development, patriotism and national awakening. Through Behbudi's works and educational activities, the ideas of forming the younger generation as educated, moral and socially engaged individuals are studied.

Key words: Mahmudkhodja Behbudi, youth education, enlightenment, morality, national awakening, spiritual heritage.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand viloyatida dunyoga kelgan. U dastlab oilasida va mahalla masjidlarida diniy ta'lim olgan. Keyinchalik madrasada o'qib, islomiy ilmlar bilan birga arab va fors tillarini ham chuqur o'zlashtirgan. Uning bilimga chanqoqligi va zamonaviy dunyodagi yangiliklarga qiziqishi keyinchalik uni jadidchilik harakatiga qo'shilishiga zamin yaratdi.

Behbudiy faqat diniy ulamolik bilan cheklanib qolmadi, balki o'z davrining ilg'or g'oyalarini o'rganishga harakat qildi. U Turkiya, Misr va Qozon ziyolilari asarlarini mutolaa qilib, jamiyat taraqqiyotida ilm-ma'rifatning o'rnini chuqur angladi [2].

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati avj oldi. Bu harakatning asosiy maqsadi jamiyatni ma'rifat va zamonaviy ilm orqali taraqqiy ettirishdan iborat edi. Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu harakatning yirik vakillaridan biri sifatida yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar tayyorlash va matbuot orqali xalqni ma'rifatga da'vat qilish bilan shug'ullandi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda yangi uslubda dars beradigan maktablar ochildi. Shuningdek, u turli fanlar bo'yicha dasturlar ishlab chiqib, bolalarni faqat diniy bilim emas, balki dunyoviy fanlar bilan ham ta'minlashga harakat qildi.

Millatning ma'naviy yuksalishi va taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning qanday tarbiya olishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan jadidchilik harakatining yirik

vakillaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) ma’naviy merosi o‘ta muhim ahamiyatga ega. U o‘z asarlari, maqolalari va amaliy faoliyatida yoshlarni ma’rifatli qilish, zamonaviy bilimlarni egallashga chorlash, axloqiy tarbiyani mustahkamlash masalalariga katta e’tibor qaratdi.

Behbudiyning fikricha, millatning kelajagi avlodning tarbiyasiga bevosita bog‘liq. U “millatni asrab qolish uchun uning farzandlarini ma’rifatli qilish kerak” – degan g‘oyani ilgari surgan. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ta’lim tizimini isloh qilish, yangi maktablar ochish va o‘quv dasturlarini yangilash orqali yoshlarni zamon talabiga mos yetishtirish masalasi markaziy o‘rin egallaydi.

Behbudiyning matbuotdagi faoliyati orqali ham yoshlar tarbiyasi masalasiga katta e’tibor qaratgan. Uning “Samarqand”, “Oyina” kabi gazeta va jurnallardagi maqolalarida yoshlarning bilim olishi, kitob mutolaasi, zamonaviy fanlarga qiziqishi, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi haqida muhim fikrlar ilgari surilgan [1].

Behbudiyning yoshlar tarbiyasi haqidagi qarashlari bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatida Behbudiyning g‘oyalari bilan hamohang jihatlar ko‘p. Jumladan, yoshlarni ilm-fanga qiziqitirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Behbudiyning “Taraqqiy” (1906), “Oyina” (1913-1915) gazetalari va jurnallarida maqolalar e’lon qilib, xalqni ma’rifatga, yoshlarni esa ilmga chorladi. Uning maqolalarida jamiyatning og‘riqli nuqtalari – savodsizlik, jaholat, milliy birlik yetishmasligi kabi masalalar yoritilgan. Shu orqali u zamondoshlarini uyg‘otishga, xalq ongini yangi g‘oyalar bilan boyitishga harakat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning faqat ma’rifatchi emas, balki siyosiy hayotda ham ishtirok etgan. U Turkistonning ijtimoiy-siyosiy mustaqilligini orzu qilgan, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surgan. 1917-yildagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etib, milliy manfaatlarini himoya qildi. Uning qarashlarida millat ozodligi, yoshlar kelajagi, zamonaviy ta’lim va axloqiy tarbiya masalalari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Behbudiyning hayoti va faoliyati Turkiston ma’naviy uyg‘onish tarixi uchun katta ahamiyatga egadir [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikricha, yoshlar tarbiyasi ma’rifat bilan chambarchas bog‘liq. Uning asarlarida ta’kidlanishicha: *“Ilmsiz millatning kelajagi yo‘q, jaholat esa xalqni zulmatga tortadi”* (Behbudiyning, “Taraqqiy” gazetasi, 1906). Uning nazaricha, har bir yosh bolalikdanoq savod chiqarishi, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanishi va jahon ilm-fanidagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur. Behbudiyning yangi usul maktablarini ochish orqali yoshlar o‘rtasida ma’rifatni targ‘ib qildi va ularning ilmi, bilimdon, vatanparvar avlod bo‘lib yetishishiga katta e’tibor qaratdi.

Behbudiyning yoshlar tarbiyasida milliy an’analar va ma’naviy qadriyatlarni alohida ahamiyatli deb bildi. Uning fikriga ko‘ra, ilm-ma’rifatdan tashqari, yoshlar islom axloqi asosida halollik, adolat, mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish kabi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Behbudiyning asarlarida tarbiya masalasi chuqur aks etgan. Masalan, “Padarkush”

dramasida u jaholat va tarbiyasizlik oqibatlarini ko'rsatib, yoshlarni ma'naviyatli, axloqli va bilimli bo'lishga undaydi. Dramada ota-onani qadrlamaslik va savodsizlik insonni halokatga yetaklashi ochiq bayon etilgan [4]. Behbudiy "Padarkush" dramasi orqali bilimsizlik va tarbiyasizlikning oqibatlari keskin tanqid qilingan. Asarda jaholatga berilgan yoshning oila va jamiyat uchun xavfli holatga aylanishi ko'rsatiladi. Shu yo'sinda muallif yoshlarni axloq-odob, bilim va ma'rifat asosida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi.

Behbudiyning muhim g'oyalaridan biri yoshlarni faqat diniy ilmlar bilan cheklab qo'ymasdan, zamonaviy fanlardan ham xabardor qilish. U matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar va texnikani o'rganish zarurligini doimo ta'kidlab keldi. Uning fikricha: "Yoshlarimiz ilm va hunarni o'rgansalar, millatimiz taraqqiy etadi, yurtimiz obod bo'ladi" (*Behbudiy, "Samarqand" gazetasi, 1914*). Shu bilan birga, u yoshlar turli kasb-hunarlariga ega bo'lishi, amaliy ko'nikmalarni egallashi lozimligini ta'kidlaydi. Uning nazarida ilm bilan kasb-hunar uyg'un bo'lsa, millat mustaqil va taraqqiyparvar bo'ladi.

Behbudiyning qarashlarida vatanparvarlik g'oyasi alohida o'rin tutadi. Uning maqolalarida Turkistonning kelajagi yoshlar qo'lida ekani ta'kidlanadi. U yoshlarni millat taqdiriga befarq bo'lmaslikka, oliy maqsad yurt obodligi va mustaqilligi yo'lida mehnat qilishga chorladi. Behbudiy fikricha, yoshlar ma'rifatli va axloqli bo'lish bilan birga, vatanparvar va fidoyi shaxslar sifatida tarbiyalanishi zarur [5].

"Padarkush"dan tashqari Behbudiyning turli publitsistik asarlari, risolalari va maqolalarida ham yoshlar masalasi ko'tarilgan. Masalan, u ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablari ochish, fan va zamonaviy ilmlarni joriy etish orqali yoshlarni ma'rifatli qilish g'oyasini ilgari surgan. Behbudiyning ijodida asosiy g'oya "millat taqdiri yoshlar qo'lida" degan qarashdir. Shu bois, u har bir asarida yoshlarning ma'naviy va ilmiy kamolotiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ham Behbudiy asarlari va g'oyalari yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari:

- ma'rifat va ilm orqali taraqqiyotga erishish;
- milliy va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash;
- yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga yo'naltirish;
- vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash – bugungi ta'lim siyosatida ham asosiy tamoyillar sifatida qo'llanilmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar tarbiyasi haqidagi qarashlari milliy ma'naviy merosning muhim qismi hisoblanadi. Uning asarlari va ijtimoiy faoliyatida yoshlarni ma'rifatli qilish, ilm va odobga chorlash, tarbiyasizlikka qarshi kurashish masalalari asosiy o'rin tutgan. Bugungi kunda ham Behbudiy g'oyalari yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotini ta'minlashda ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. "Padarkush". – Samarqand, 1913.
2. Behbudiy M. Maqolalar to'plami. – Toshkent, 1994.
3. Rahimjonov X. Jadid ma'rifatparvarlari va ularning merosi. – Toshkent, 2012.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2001.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatiga oid qonunchilik hujjatlari. – Toshkent, 2020.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА И ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Кутлымуратов Бахытбай Хожабаевич

старший преподаватель, Нукусского
государственного технического университета

Абдиев Женисбай Генжебаевич

ассистент Нукусского государственного
технического университета

Аннотация: В работе рассматривается развитие джадидизма в Каракалпакстане в рамках общетюркского просветительского движения конца XIX – начала XX вв. Цель исследования – выявить особенности проявления и адаптации идей джадидизма в социокультурной среде каракалпаков. Анализируются формирование джадидизма, деятельность местных просветителей, влияние новых методов обучения (усули джадид) на формирование национального самосознания, общественные преобразования и драматургию в регионе. Работа основана на анализе печатных интернет-источников и мемуаров современников, что позволяет глубже понять значение джадидизма в историческом контексте Каракалпакстана.

Ключевые слова: джадид, грамотность, театр, труппа, просвещение, сознание.

Abstract: This work examines the development of Jadidism in Karakalpakstan as a part of the general Turkic enlightenment movement of the late 19th - early 20th centuries. The research aims to identify the peculiarities of the manifestation and adaptation of Jadid ideas in the socio-cultural environment of the Karakalpaks. The formation of Jadidism, the activities of local educators, the influence of new educational methods (usuli jadid) on the formation of national consciousness and social transformations and dramaturgy in the region are analyzed. The work is based on the analysis of printed internet sources and contemporaries' memoirs, which allows for a deeper understanding of the significance of Jadidism in the historical context of Karakalpakstan.

Keywords: Jadid, literacy, theatre, troupe, enlightenment, consciousness.

Каракалпакский народ в начале XX века находился в условиях социально-экономической отсталости, высокий уровень неграмотности сдерживал развитие литературы. Через газеты, журналы и книги, издаваемые в Казани, Оренбурге, Ташкенте, Самарканде, идеи джадидизма стали проникать к каракалпакам. Учителя-джадиды открывали новые школы в

Ходжейли, Чимбае и Нукусе, где наряду с Кораном изучались арифметика, история, география, родной язык. Таким образом, джадидизм создал почву для появления новой письменной каракалпакской литературы.

Поэты конца XIX века Ажинияз, Бердах и Утеш стали мостом между классической литературой и просветительской литературой. Они передали лучшие примеры социально-философской мысли прошлого просвещенным поэтам и мыслителям начала XX века, таким как Аннакул, Кулмурат, Сидик, Абдикадир, Омар, Кази Маулик, Джанабай, Сапиура, Аяпберген, Сейфулгабит, Аббаз и другие. [1:159]

В произведениях появились мотивы просвещения, критика невежества и фанатизма. Писатели стали поднимать вопросы бедности, неравенства, судьбы простого народа. Начали формироваться публицистика, драматургия, современная поэзия. Под влиянием джадидов каракалпакские писатели стремились к ясному, простому языку, доступному для народа. Джадидизм стал как бы действующим мотиватором каракалпакской литературы. Джадидизм подготовил переход от устной традиции (жырау, дастаны) к письменной литературе нового типа. Благодаря джадидизму каракалпакская литература конца XIX - начала XX века смогла развиваться в русле общетуркестанского культурного возрождения. Представители каракалпакского джадидизма Сейфулгабит Мажитов, Казы Маулик, Касым Аvezов и другие занимались просветительством и образованием народа.

Сейфулгабит Мажитов - один из первых каракалпакских поэтов-просветителей. Вдохновился идеями «усули джадид» (нового метода обучения), пришедшими из татарской, узбекской и казахской среды. Считал, что будущее каракалпаков зависит от образования, грамотности и просвещения. Его можно считать связующим звеном между общетюркским (Бехбуди, Авлони) джадидизмом и каракалпакской культурой. Он написал стихотворение-послание «Волостному Инияту» (1907), с требованием открыть волостную школу в Чимбае. Ярый сторонник джадидских школ, работал заведующим Кунградского округа по просвещению (1921-24), участвовал в подготовке учителей. Создал первые учебники: «Алипбе» («Букварь»), «Оқы китабы» («Книга для чтения»), «Егеделер саўаты» («Грамота для взрослых») около 1925 года. Его стихи и статьи были пропитаны духом джадидских идей: осуждал невежество, фанатизм, предрассудки, призывал родителей учить детей грамоте, поддерживал равноправие женщин и их доступ к образованию. В поэзии отразил идеи социальной справедливости и культурного возрождения. [2]

Во многих своих произведениях С.Мажитов горячо призывал каракалпакскую молодежь овладеть знаниями, бороться за новую жизнь, ратовал за освобождение женщин от вековых обычаев и предрассудков. 20-30ые годы прошлого века С.Мажитовым были написаны пьесы «Ерназар Алакоз», «Жигит болдык» («Пора подростков»), «Сонгы селтен» («Последняя попытка»), «Сабак» («Урок»), «Багдагуль», «Гулим- Тайман». [5]

Сейфулгабит Мажитов стал главной фигурой джадидизма у каракалпаков. Его деятельность: заложила основы национальной школы,

подготовила первые учебники, воспитала поколение каракалпакских интеллигентов, сделала идеи джадидов частью национального культурного наследия. Педагог-новатор, используя свой богатый научно-педагогический опыт, участвовал и руководил подготовкой учебников и учебных программ на основе латинской графики. Он также опубликовал романы и пьесы «Суюн и Сара», «Кулмурат», «Девятнадцать» и «Багдагуль». [4]

Казы Маулик, занимался просветительской деятельностью в первой трети XX века. Один из соратников джадидов, вместе с Сейфулгабитом Мажитовым и Касымом Авезовым работал над созданием школ и учебников. Позже подвергался репрессиям за националистические и пан-тюркистские идеи. Ещё один каракалпакский просветитель Касым Авезов в периоды становления джадидизма в Каракалпакстане активно участвовал в продвижении новых методов преподавания (джадид), в открытии школ.

Вся сознательная творческая деятельность К.Авезова неразрывно связана с театром. В 1925-начале 1926 гг. К.Авезов создал для каракалпакской национальной труппы первоначальный вариант исторической народной драмы «Тилек жолында», «Саете батыр» – («На пути к счастью»). После первой же успешной постановки в январе 1926г. Этому кружку присваивается официальное наименование каракалпакская труппа «Утренняя заря» – «Танг нуры», ставшей позднее основой ныне существующего Каракалпакского государственного музыкального театра им. Бердаха. Пьеса, талантливо написанная в оптимистическом ключе и ярко отражающая глазами истинного художника самобытный героический дух народа, шла на сцене театра более 10 лет и стала событием огромной важности в культурной жизни страны.

В 1925-1926 годах были написаны драматические произведения К. Ауэзова «Тилек жолында» о восстании 1916 года в Чимбае и С. Маджитова «Ерназар Алакоз» о народной борьбе против хивинского хана. В 1927 году в репертуаре труппы «Танг нуры» были три пьесы: «Тилек жолында» К.Авезова и «Ерназар алакоз» и «Аксакал» С. Маджитова. [1:398]

Несмотря на то, что его пьеса «Тилек жолында» и поэма «Қазыў» были хорошо приняты общественностью, его обвинили в том, что, ведущая роль партии в его произведениях не выглядела должным образом. [1:390]. К. Авезов перевел на каракалпакский язык «Проделки Скапена» Мольера, «Евгений Онегин» А.С.Пушкина. Имеет научные труды «Культура Каракалпакии и пути развития» и др.

Литература:

- 1.Қарақалпақстан жаңа тарийхы, Нөкис, 2003.
- 2.<https://centrasia.org/person.php>.
- 3.Вестник КК отделения академии наук РУз. Нукус, 2009 №4.
4. Жумашев А. газета «Жадид», 2024 г. 29 ноябрь, №29:6
- 5.Сейфулгабит Мажитов агартыушы шайыр, прозаик хам драматург – Вестник КК отделения академии наук РУз. Нукус, 2009:107

TURKISTON JADIDLARI MATBUOTIDA HARBIY-VATANPARVARLIK G'UYALARI

Anorboyev Abdulla Abduhakimovich
O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadidlari matbuotida aks etgan vatanparvarlik va harbiy mavzular, milliy armiya tuzish g'oyalari hamda jadid teatrlarida vatanparvarlik to'g'risidagi asarlar namoyishi, jadidlarning harbiy zulmga qarshi ma'naviy-ideologik kurashi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Turkiston matbuoti, ma'rifat, vatanparvarlik, milliy armiya, mustamlakachilik, jadid teatri, milliy ong, mavkuraviy kurash, ma'naviy tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассказывается об отражении в прессе туркестанских джадидов патриотических и военных тем, идеях создания национальной армии, о постановке произведений патриотической тематики в джадидских театрах, а также о духовно-идеологической борьбе джадидов против военного гнёта.

Ключевые слова: джадидизм, туркестанская пресса, просвещение, патриотизм, национальная армия, колониализм, джадидский театр, национальное сознание, идеологическая борьба, духовное воспитание.

Annotation. In this article, the military-patriotic ideas reflected in the Turkestan press, the military themes in the Djadid press, the idea of creating a national army, and the patriotic ideas manifested on the stage of the Djadid theater, as well as the spiritual and ideological struggle of the Djadids against military oppression, are discussed.

Key words: jadidism, Turkestan press, enlightenment, patriotism, national army, colonialism, Jadid theater, national consciousness, ideological struggle, spiritual education.

Jadidlar mustamlakachilik zulmiga qarshi ma'rifat, matbuot va teatr vositasida g'oyaviy kurash olib bordilar. Ular xalqni milliy ong va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga intilganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga to'liq qo'shilib bo'lgan edi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi turmush tarziga, din, ta'lim, siyosat va madaniyatiga qattiq bosim o'tkazdi. Shu sharoitda Turkiston ziyolilari orasida milliy ozodlik g'oyalari uyg'ondi va jadidchilik harakati shakllandi. Jadidlar islohotlar, yangi ta'lim tizimi, matbuot va teatr vositasida xalqni uyg'otishga, uni mustamlakachilik zulmidan ozod etishga intildilar. Ularning kurashi harbiy vosita bilan emas, ma'rifat va ijtimoiy faollik orqali yuritildi.

Turkistonda jadidchilik harakati paydo bo'lishi bilan xalqni uyg'otish, milliy o'zligini anglatish va mustamlakachilikka qarshi ma'naviy kurash olib borishda matbuot muhim vositaga aylandi. Islom diniga va turkiy madaniyatga tayangan jadidlar, Yevropadagi rivojlanishni o'rganish zarurligini angladilar. Ular o'z

maqsadlarini faqat masjid va madrasalarda emas, balki ommaviy axborot vositalari – gazeta va jurnallarda ham yoritish zarur deb bildilar. Birinchilardan bo‘lib 1906-yilda “Taraqqiy”, keyinchalik “Xurriyat”, “Shuro”, “Sadoi Turkiston”, “Aynulhaq” kabi nashrlar paydo bo‘ldi. Ularda turli mavzular: ta’lim, axloq, iqtisod, siyosat, din va, albatta, milliy ong hamda vatanparvarlik masalalari keng yoritildi. Rus mustamlakachiligi Turkistonni faqat iqtisodiy manfaat manbai sifatida ko‘rdi. Mahalliy aholi harbiy tuzilmalarda ishtirok ettirilmadi, balki ularga ishonmaslik siyosati yuritildi. Bu vaziyat jadidlarning diqqatini tortib, ular xalqni ichki yuksalish va o‘zini himoya qilish ruhida tarbiyalashga urindi.

Jadidlar uchun vatanparvarlik shunchaki hissiyot emas, balki milliy ongning bir bo‘lagi edi. Millatni o‘z-o‘zini boshqara oladigan holatga olib kelish, yoshlarni faol va jismoniy tayyor holga keltirish, Vatan uchun jonini fido etishni muqaddas burch sifatida talqin qilish, rus harbiy zulmiga qarshi fikriy kurash olib borishni maqsad qilgan edilar. Jadid nashrlarida ko‘plab maqolalar milliy armiya, mustaqil mudofaa va yoshlarni harbiy tayyorgarlikka jalb qilish zaruriyati haqida yozilgan. Turkiston jadidlari g‘oyalaridan biri – iqtidorli yoshlarni chet ellarga ilmiy, texnik yoki madaniy sohalarida o‘qishga yuborishdir. Bu yoshlar qaytib kelganda mamlakatga xizmat qilishi, mustaqillik hamda taraqqiyot uchun zarur bilim va tajribani olib kelishi kutilar edi. Jadid gazeta va jurnallarda milliy ongni oshirish, madaniyat va mustaqillik g‘oyalari targ‘ib qilingan.

Yoshlar uchun Vatanni himoya qilish, milliy qadriyatlarni asrash lozimligi haqida maqolalar chop etilib, bu g‘oyalarning bir bo‘lagi sifatida yoshlarning harbiy tayyorgarlikka qiziqishi va ularning vatanparvar bo‘lishi yoritib borilgan. Jadidlarning “Oyina”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi nashrlarda yoshlarga ta’lim va ma’rifat berish orqali ularni milliy va demokratlik masalalarga jalb qilish ko‘p muhokama qilingan. Jadidlar maktablar tarmog‘ini kengaytirishni maqsad qilganlar va yoshlarning bilim va odob-axloq jihatdan tarbiyalanishi – vatanparvarlik ruhida tayyorlanishi uchun yangi usul maktablarini ochish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu yoshlarning vatandoshlik burchini anglashi va zarurat bo‘lgan hollarda himoya qilishga tayyor bo‘lishini ta’minlash uchun muhim uslub bo‘lgan. Harbiy kiyim, ohang, mazmun bo‘yicha dramatik sahnalar yoki maqolalarda zo‘ravonlik, mustamlakachi bosib kiradigan armiyalar haqidagi faktlar keltirilgan.

“Shuro” gazetasidagi maqolalarda Rossiya armiyasida musulmon yoshlar bilan adolatsiz muomala haqida, hamda ularning huquqlari poymol qilinishi tanqid qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalarida milliy armiya tuzish haqida fikrlar bildirilgan, yoshlarni birlashishga chaqiruv yuborilgan. Fitrat esa “Tarbiya, harbiy tayyorgarlikning asosidir” deb ta’kidlab, millatning muvaffaqiyati bilimli, sog‘lom va faol yoshlar qo‘lida ekanini uqtirgan. Matbuotdagi harbiy mavzular faqat tanqid bilan cheklanmasdan, istiqbolda qanday jamiyat qurish mumkinligi borasida ham ijobiy g‘oyalar taklif etilgan.

Matbuotdan tashqari, jadidlar teatr vositasidan ham keng foydalandilar. Teatr nafaqat xalqni ko‘ngilochar tomosha bilan jalb qilish, balki unga ezgu g‘oyalar, milliy g‘urur va vatanga sadoqatni singdirish vositasi bo‘ldi. Jadid teatrlari sahnada harbiy zulmni, millatga xiyonatni fosh etar, fidoyi insonlarni namuna qilib ko‘rsatar edi.

Turkiston jadidlari o'z davrining islohotchilaridir. Ular mustamlakachilik zulmiga qarshi qurol bilan emas, balki qalam va so'z bilan, ma'rifat va teatr bilan kurashdilar. Jadid matbuotida harbiy-vatanparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutib, milliy uyg'onish, mustaqillik va vatan himoyasi haqidagi qarashlarni shakllantirdi. Teatr esa bu g'oyalarni xalq ongiga singdirishda amaliy vosita bo'ldi. Bugungi kunda jadidlar qoldirgan meros – bu milliy ozodlik va vatanga muhabbatning namunali ko'rinishi. Ular taqdim etgan g'oyalar bugungi mustahkam davlat va faol fuqarolik jamiyatini barpo etishda asosiy mafkuraviy poydevor sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Туркистонда Ислом тарихи. — Тошкент: Фан, 1993.
2. Қаюмов А. Жадидлар: миллий уйғониш тарихи. — Тошкент: Мухаррир, 2000.
3. Ҳайитов А. Жадидлар ва уларнинг маънавий мероси. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003.
4. Камолиддин Ш. Туркистон жадидлари: сиёсий ва ижтимоий фаолият таҳлили. — Тошкент: Фан, 2005.
5. Эрматов А. Туркистон матбуоти тарихидан. — Тошкент: Наврўз, 2014.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2019.
7. Беҳбудий М. Асарлар ва мақолалар. — Тошкент: Sharq, 2011.
8. Раҳмонов Қ. Ўзбек театри тарихи. — Тошкент: San'at, 2008.
9. Авазов Р. Жадид драматургияси ва миллий театр. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING JADID TEATRI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Xonqulov Shavkatjon Xursanalievich
Farg'ona davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: maqolada o'zbek teatr san'atining tashkil topishi hamda ushbu soha rivojlanishiga hissa qo'shgan yetuk ijodkor Hamza Hakimzoda Niyoziyning dramatik mahorati hamda adabiy qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: teatr, aktyor, spektakl, p'yesa, obraz, xarakter, rejissyor, drama.

Annotation: Hamza Hakimzoda, a leading artist who contributed to the formation and development of theatrical art, spoke about Niyazi's contribution to theatrical creativity and his theatrical performances.

Key words: theater, actor, play, image, character, director, drama.

Hamza ijodi olimlarimiz tomonidan qanchalik tadqiq qilingan bo'lmasin hali u tugal o'zlashtirilmagan qo'riqqa o'xshab turibdi. Uning ko'pqirrali ijodida taxi buzilmagan sahifalar topilishi ehtimoldan uzoq emas ko'rinadi. Hamzani teatrdan, teatrni Hamza timsolidan ajratib bo'lmaydi. Hamza sovet hokimiyati zo'rlik bilan

o'rnatilganidan so'ng bunyodga kelgan davlat teatr truppasiga boshchilik qilgan karvonboshidir. Bu karvonboshining vazifasi nihoyatda ulkan edi. Artistlar to'plash, rejissyorlik qilish, qo'shiq yozib, kuy bastalash, eng muhimi yangi inqilob uchun xizmat qila oladigan p'yesalar yaratishi kerak edi. Bularsiz endigina atak-chechak qilayotgan teatr mavqeini ko'tarib bo'lmas edi. U o'zining birgina "Boy ila xizmatchi" asari bilan Turkiston o'lkasida san'atimizning istiqbolini aniqlab bera oldi. Bu asar zo'r ijtimoiy masala ko'tarishi, badiiyatning boyligi, obrazlarning puxta ishlanganligi, personajlar aytadigan so'zlarning o'ziga xosligi bilan dramaturgiyamiz durdonasidir.

Hamzaning teatr tashkil topishida xizmati shu qadar kattaki, bu zotni Globus teatrini yaratgan ingliz dramaturgi Shekspirga, o'zi komediyalar yozib, rol ijro etgan fransuz adibi Mol'yerga, Moskva akademik Maliy teatrini "o'z uyim" deb bilgan dramaturg Ostrovskiyga o'xshatgini keladi. "Rus-tuzem maktabini bitirgan Badriddin A'lamov 1914-16-yillarda o'zining "Juvonmarg", "Ahmoq", "O'gay ota", "Boyvachcha" p'yesalari bilan tanilgan Abdulla Badriy (1893-1936) edi. Mashxur Mannon Uyg'ur, "Halima"ning muallifi G'ulom Zafariylar ham Avloniy truppasidan chiqqan edilar. Qo'qonda ham bir qator iste'dodli yoshlar uyushgan edi. Teatrshunos M.Rahmonov 1915-yilning boshlarida maydonga kelgan Qo'qon teatri havaskorlari trupпасi Abdurauf Samadov, Mahmud Tarasha Baratov, Abdulaziz, Xolmuhammad Oxundiy, A'zamxo'ja, Mirhomid Miroqilov, Azimxo'ja Toshxo'jaev, Xasan Ermatov, Isoq Sodiqiy, Abdullajon kabilardan tarkib topganini aniqladi" [Rahmonov M., 1968: 313-314].

1915-yilning sentyabrida Avloniy trupпасi "Zaharli hayot"ni sahnalashtirdi. Drama 1915-yilda yozilgan. 1916-yilda bosilib chiqqan. Qo'qonda birinchi marotaba 1915-yilning 22-oktyabrida o'ynalgan. Binobarin, uni birinchi sahnaga qo'ygan Avloniy trupпасi bo'ldi. Avloniy dramani 1915-yilgi Farg'ona sayohatidan olib qaytgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Teatrshunos M.Rahmonov, yuqorida tilga olingan kitobida Hamza va Avloniy munosabatlarining o'rganilishi zarur bo'lgan masala sifatida alohida ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, XX asr o'zbek madaniyatining dongdor vakili Hamza bilan o'z ijodi hamda faoliyatini yoshi va muhiti taqozosiga ko'ra ertaroq boshlagan. U bilan iste'dodli, zahmatkash zamondoshi Avloniyni bir-biriga yaqinlashtiradigan jihatlar ko'p. Ularning har ikkisi ham Muqimiy va Furqat boshlab bergan demokratik adabiyotning munosib davomchilari sifatida maydonga chiqdilar. Har ikki shoir dunyoqarashining shakllanishida 1905-yil voqealari, ilg'or zamondoshlar katta rol o'ynadi. Birinchi rus inqilobi har ikki adibning milliy ijtimoiy, aytish mumkin-ki, inqilobiy faoliyatida burilish nuqtalaridan bo'ldi. Hamzashunos olimlar uning 1909-1910-yillarda Toshkentda yashaganini ma'lum qiladilar.

Bu vaqtlarda Avloniy taraqqiyparvar, ma'rifatchi sifatida tanilib qolgan edi. Chunonchi, 1904-yilda Mirobodda yangi tipdagi maktab ochgani, u haqida gazetalarda maqolalar bosilgani, 1909-yilda "milliy hasrat va nadomatlardan iborat" she'rlarimi maktab o'quvchilariga mo'ljallab, majmua holida nashr ettirgani, nihoyat "Shuhrat" gazetasidagi redaktorligi Hamzaning diqqatini tortmagan bo'lishi ehtimoldan uzoq. Ular birinchi marotaba mana shu 1909-1910-yillarda tanishganlar degan taxminga asos bor. Hamza va Avloniyga yana qaytadigan bo'lsak, 1914-yil

4-aprelda Toshkentda “Sadoi Turkiston” gazetasining 1-soni bosilib chiqdi. Boryo‘g‘i 66-soni chiqib, bir yilcha davom etgan bu gazeta Hamza va Avloniy munosabatlarida alohida sahifa bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Negaki, har ikki adib ham unda faol ishtirok etgan edilar. Atoqli Hamzashunos Laziz Qayumovning aniqlashicha, Hamzaning shu gazetada 1914- yil, 11-may, 2-sonida chiqqan “Ahvolimiz” she‘ri uning matbuotda bosilgan birinchi asaridir [Qayumov L, 1970: 13].

Hamzaning “Sadoi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 21-may sonida bosilgan “Muhammas bar gazeli Avloniy Toshkandiy”si ham ikki adib ijodiy hamkorligiga guvoh bo‘lib turibdi. Bu hamkorlik samaralarini ularning boshqa janrlardagi asarlarida ham topish mumkin. U birinchi navbatda, xalqning keng qatlamlariga teran razm tashlashda, jamiyatning adolatsiz qurilganini, haqsizlik avjga minganini, mehnatkashning tirikchiligi toqat qilib bo‘lmaydigan darajaga kelganini qat’iyat va izchillik bilan o‘quvchiga etkazishda ko‘rinadi. Hamzaning 1905-yildan keyin Turkistonga Qozon, Samara, Orenburg kabi shaharlardan kelib qolgan progressiv ruhdagi rus va tatar ziyolilari, o‘qituvchilari bilan aloqa bog‘lashi, ilg‘or rus adabiyoti va madaniyatini o‘rganishi, ayniqsa maorif sohasida Abdulla Tukmullin kabi ayrim ilg‘or fikrli tatar maorif xodimlari bilan tanishuvi bu sohada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi [Sultonov Y, 1963: № 1].

O‘sha vaqtlarda Turkistonga kelgan rus va tatar teatr konsert truppalarining Qo‘qondagi tomoshalari Hamzada katta taassurot qoldirgan. U do‘sti Bo‘ronboy orqali Abdulla To‘qay she‘rlarining mohir ijrochisi Komil Mutiy bilan tanishib, undan saboq va maslahatlar olgan [Shokir Sulaymon, 1939: № 2]. Buning natijasida u endi ijtimoiy siyosiy mavzularda “Ahvolimiz”, “Eshonlarning holidan”, “Zaharli hayot”, “Yangi saodat yoki milliy roman” kabi asarlar yoza boshlaydi. Bu davrda uning ijodi faqat g‘oyaviy-tematik jihatdangina emas, janr jihatdan ham boyib boradi. Hamza ijodida ijtimoiy-siyosiy lirika, ijtimoiy-satira, realistik ruhdagi proza va sahna asarlari keng o‘rin ola boshladi. Asarlarining tili va uslubi ham xalq hayotiga yanada yaqinlashdi. Bunda shubhasiz birinchi navbatda o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy xayotidagi yangi o‘zgarishlar, yozma va og‘zaki adabiyotimizning ilg‘or an‘analari bilan birga tatar demokrat shoiri Abdulla To‘qayning ta‘siri kuchli bo‘lgan.

Buni Hamzaning “Qizlar va yigitlar dialogi”, “Maktublar”, “Ramazon”, “Sog‘inish”, “Eshon o‘pkasi”, “Ishchilar, uyg‘on!” she‘rlari bilan Abdulla To‘qayning “Tovush haqqinda”, “Bugun bayram”, “Nasihat”, “Eshonning zori” she‘rlaridagi yaqinlikdan sezish mumkin. Professor Abdurahmon Sa‘diy, tarjimon va yozuvchi Zarif Bashir o‘zbek, tatar matbuoti sahifalarida har ikki xalqning Hamza, Mirmuxsin Shermuhamedov, Abdulla To‘qay, Majid G‘ofuriy, Olimjon Ibrohimov kabi vakillari ijodini keng targ‘ib qilib, tatar-o‘zbek adabiy aloqalarining rivojlanishi, shuningdek Hamza, Abdulla Qodiriy ijodlarining Tataristonda tarqalishida katta xizmat qiladilar [Ismoilov B, 1975: 202].

So‘nggi davrlarga kelib hamzashunoslik ilmi san‘atkor ijodini chuqur va ob‘ektiv tadqiqot asosida keng ko‘lamli yorituvchi qator salmoqli asarlar - tanqidiy-biografik ocherk va monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari va adabiy maqolalar to‘plami, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyidi. A.Davronov,

A.Nasriddinov, Sh.Amonovlarning nomzodlik, S.A'zamxo'jaev, D.Alimova, Q.Rajabov kabi olimlarning doktorlik dissertatsiyalarida ana shu yutuqlar jumlasidan bo'lib, ularda Hamzaning hayoti, dunyoqarashi va ijodining turli qirralari ijtimoiy jamiyatimiz tarixi va yangi adabiyotimiz taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. - Тошкент: Фан, 1968.
2. Қайумов Л. Инқилобий драма. - Тошкент: Ё.Ғулом, 1970.
3. Султонов Й. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ҳақида муҳим ҳужжат. Ўзбек тили ва адабиёти, - Тошкент: 1963. № 1.
4. Исмоилов Б. // Октябр тонгида туғилган театр. // Шарқ юлдузи, 1975, № 2.
5. “Ҳамза ҳақида мақолалар” тўплами, - Тошкент: 1960. 45 бет
6. Ханкулов Ш. Х., Нириддинов М. А. Место Хамзы Хакимзаде Ниязи в джадидской прессе //Актуальная наука. – 2019. – №. 11.
7. Xonkulov S. X., Nurmatova S. S. The role of the uzbek language in the history of development in the work of Hamza Hakimzoda Niyazi //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 4.

TURKISTONDA MA'RIFATPARVARLIK VA XALQ TA'LIMI MASALASI (XX asr boshlari)

Ergashev Suxrob Muxiddinovich
Samarqand davlat universiteti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asr boshlari maorif va xalq ta'lim tizimida mavjud holat Turkiston misolida tahlil qilingan. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim tizimiga nigohi va maorifdagi vaziyat tarixiy hujjat va adabiyotlarga tayanib yoritilgan.

Tayanch so'zlar: xalq ta'limi, millilashtirish, ilm-ma'rifat, sovetlashtirish, qorixona, maktab, madrasa, Maorif Xalq Kommisariati, Bosh Vaqf boshqarmasi, savod, kadrlar masalasi.

Abstract: This article analyzes the current state of education and public enlightenment at the beginning of the 20th century, using Turkestan as an example. Drawing on historical documents and literature, it highlights the views of new educators on the education system and the state of affairs in the field.

Keywords: public education, nationalization, science and enlightenment, Sovietization, karihona, school, madrasah, People's Commissariat of Education, Main Waqf Administration, literacy, personnel issues.

Tarix silsilasining har bir davrida xalqning intellektual salohiyatining rivojlanishi uchun ta'lim masalasi dolzarb bo'lib kelgan. XX asr boshlarida Turkiston siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida jadid mutaffakirlari muhim o'rin tutgan. Ma'rifatparvarlarning asosiy maqsadlari milliy maorifni

rivojlantirish va zamonaviy ta'limni yaratish edi. Bu yo'lda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Fayzulla Xo'jayev kabi ziyolilar ta'lim islohoti o'tkazib, yoshlarni ilm va hunar olishga chaqirishgan.

Chor Rossiyasi hukumatining Turkiston o'lkasini yildan-yilga xom ashyo yetkazib beruvchi makonga aylantirib qo'yishi (masalan, birgina paxta yetishtirish 1886-yilda - 3 mln, 1910-yilda - 10,8 mln va 1915-yilda - 18,5 mln. pudga yetgan), mulkiy tabaqalanishning kuchayib, dehqonlarning qashshoqlanishi xalq turmushiga salbiy ta'sir qilgan [Амриддинова Д.Т., В.15]. Shuningdek, Yevropa davlatlarining rivojlanishi o'laroq Turkiston o'lkasining tanazzuli milliy ziyoliylarni kelajak yoshlar talimi yo'lida yanada sergaklantirgan.

1903-yil Turkistonda jadid maktablarining soni 104 taga yetgan [Шамсутдинов Р., Расулов Б., Б.92]. Ammo yangi usul maktablarining ochilishi xavfiligi masalasida imperiya ma'muriyati 1905-1907-yillar orasida turli fikrda bo'lgan. 1908-yil Turkiston o'lkasini o'rgangan Palen boshchiligidagi taftish komissiyasi xulosasi imperiya hukumatining maorif tizimiga nisbatan Turkiston general-gubernatorligining siyosatida muhim ahamiyat kasb etgan. Komissiya Toshkentda 12, Qo'qonda 14, Andijonda 5 va Samarqandda 4 ta jadid maktabini taftish qilgach, bu kabi jadid maktablarining kelajakda xavfli ekani to'g'risida xulosa bergan [Бендриков К.Е., С.274].

Ma'lumki, imperiya ma'muriyati tub-joy xalq maorifini taraqqiy topishiga qarshi bo'lgan va mahalliy ta'lim uchun kerakli mablag' ajratmagan. Hatto Fayzulla Xo'jayev ham Rossiya imperiyasi davrida 25 million rubl davlat budjetining 2-3 foizigina xalq ta'limiga ajratilganini alohida keltirib o'tadi [Файзулла Ходжаев., С.149]. D.T. Amriddinova esa o'z tadqiqotida H.Ziyoyevning Turkiston general-gubernatorligi byudjetining faqat bir foizigina maorifga (uning 74% rus maktablarini, 26% rus-tuzem maktablarini taminlashga) ajratganini alohida keltirib o'tadi [Амриддинова Д.Т., В.16]. Ta'lim tizimiga bu tarzda munosabat yildan yilga yoshlar savodining pasayishiga olib kelgan.

"Xurshid" gazetasining 1906-yil 21-sentabr sonida Rossiya imperiyasi Turkiston yoshlari ong-tafakkuri o'sishiga qarshiligini: "masjid va madrasalarning vaqfi xazinaga olingani, duma mablag'idan ruslar uchun zo'r-zo'r diniy maktab va madrasalar ochilgan bo'lsa-da, musulmonlar bu imkoniyatdan istisno etilgani" qaydidan ham anglash mumkin.

XIX asr oxiri Turkiston o'lkasida 3.792.774 nafar aholi turmush kechirgan [Shamsuddinov R., Karimov Sh., B.232]. Bu zamonda Turkiston maktablari soni 6.027 tani tashkil etgan. Maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar 64015 nafarni, ya'ni aholi soniga nisbatan o'quvchilar 1,7 foizni tashkil etgani holda, savodxonlik 19,5 foiz bo'lgan.

1906-yil 14-iyunda "Taraqqiy" gazetasida ma'rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonov Turkistonda xalq ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatayotganini e'tirof etib, boshqa millatning maktab va madrasasi kabi, benizom va beusul bo'lsa-da, maktab va madrasalarimiz yo'q degan darajada oz bo'lmaganini ta'kidlagan. U: "Bizning barcha amallarimiz, yo'llarimiz, so'zlarimiz, maktab va madrasalarimiz, dars uslublarimiz, axloqimiz buzuq. Yana besh-o'n yil shu tarzda davom etsak,

rivojlangan davlatlar zulmi ostida tarqalib ketish va yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor”, deb holatni tasvirlaydi [Adeeb Khalid., p.114]. Muammoning yechimi sifatida xalq o‘z intilishi bilan yuqoriga ko‘tarilishi uchun islohotlarni amalga oshirish kerakligiga urg‘u bergan. Shuningdek, “Islohot bizning zamonamizga mos fanlarni tanlashdan boshlanadi. Hozirgi zamon fanlari bilan tanishish maktablarimizni isloh qilish va o‘qitish uslubimizga bog‘liqdir” – deb munosabat bildirgan [Adeeb Khalid. p.114]. Turkistonliklarga yangi davr ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan ilmlarni o‘rganish qorong‘ulikdan xalos bo‘lishga imkon sifatida qaragan. Shu bilan birga, maktab faoliyatidagi kamchiliklarni yashirmay, bolalarga yoshiga mos bo‘lmagan og‘ir fan dasturlarining o‘tilishi o‘zlashtirishda qiyinchiliklar tug‘dirib, to‘liq savod chiqara olmayotganini yozadi. Agar bu tartib to‘g‘ri bo‘lganida, Turkistonda savod o‘lmasligini, xat bilmaydiganlar yuzdan to‘qson bo‘lmasligini va bu holatning asosiy sababi kitoblarni o‘quvchi yoshiga to‘g‘ri kelmasligida ekanini ochiq ifodalagan.

XX asr boshlarida Turkiston yerli xalqlari uchun maktab, qorixona, madrasa, xotin-qizlar maktabi, jadid maktabi, rus-tuzem maktabi, shuningdek, yevropaliklarning farzandlari uchun o‘lkada rus maktablari–qavm va shahar maktablari bo‘lishiga qaramay, siyosiy hamda iqtisodiy holatni o‘z manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi uchun maktab tizimini o‘zgartirgan holda aholiga qayta ta’lim berishni rejalashtirgan [13: B.132]. 1918-yil Turkiston xalq ta’limi xodimlarining syezdida sho‘ro hukumati tashabbusi bilan o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini yaratib, mutaxassislarini tayyorlash masalasi ilgari surilgan. Bu tashabbus asosida sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiy, pedagogik, musiqa texnikumlarining ochilishiga turtki bo‘lgan. 1924-yilga kelib bunday sohada o‘rta maxsus o‘quv yurtlari soni 24 taga yetgan [Пулатов С. П. Б.55].

1924-yili shaharlardagi eski maktablarni qayta ro‘yxatga olish boshlanadi. Ma’lumotga ko‘ra, Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan 212 ta madrasa va 191 ta maktabdan 10 ta madrasa (738 ta o‘quvchisi) va 41 ta maktab (3080 ta o‘quvchisi) sovet maktabi sifatida qayta tashkil etilgan [Бендриков К.Е. С.450]. Sovetlashtirilmagan ta’lim muassasalarini Bosh Vaqf Boshqarmasi o‘qituvchi va jihozlarning yetishmasligi sabab bosqichma-bosqich tugatish ishlarini amalga oshirgan. Masalan, Toshkent shahrida (1924-yil 21-noyabr) O‘zSSR Bosh Vaqf boshqarmasi raisi Oxunov va tashkiliy bo‘lim boshlig‘i Xusainovlar boshchiligida 1924-yil 1-dekabrda Ma’naviy vaqf haqida O‘zbekiston SSR Bosh Vaqf Boshqarmasining muvofiqlashtirish rejasi tuziladi [O‘z.MA. Fond R-34, ro‘yxat-1, ish-2722. 74 varaq. 71-74-varaq.]. Rejaga ko‘ra vaqf-masjid mablag‘idan diniy xizmatchilar (musulmon ruhoniylari)ga maosh to‘lashni bekor qilib, mablag‘ni faqat madaniy-ma’rifiy jamg‘armaga yo‘naltirish zarurligini shart qilgan. Shuningdek, diniy vaqflarni (masjid, qorixona va boshqalar) bekor qilish reja va loyihasini tuzish belgilangan. Ushbu loyihani Maorif Xalq Komissariati jamoasi orqali O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetida ko‘rib chiqib, tasdiqlash uchun kiritish masalasi belgilanadi. Madaniy vaqf bilan parallel ravishda madaniy oqartuv vaqfiga tegishli mulkni ro‘yxatga olishni tugatish to‘g‘risida ko‘rsatma berishadi.

1924-yilga kelib Bosh vaqf boshqarmasining mintaqalar miqyosda olib borgan faoliyati asosida maktablarni sovetlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Maorif sohasida olib borilgan bu kabi tartibga 1924-yil boshlanishi bilan Bosh vaqf boshqarmasi oldida qo'yilgan quyidagi vazifalar asos bo'lgan:

- vaqfga umumdavlat ma'no berish uchun ommaning diniy xurofotlarini yo'q qilish va vaqfni diniy muhitdan ajratish;
- barcha yangi usul vaqf maktablarini sovetlashtirish;
- ko'proq mablag'larni madaniy-ma'rifiy maqsadlarga yo'naltirib, idora tarkibini saqlash xarajatlarini minimal darajada kamaytirish;
- din xizmatidagilar (ruhoniylarga) diniy vaqf mablag'laridan subsidiyalar berish tartibini bekor qilish choralari ko'rish;
- bosh vaqf boshqarmasi kabi uning mahalliy bo'limlarini ham moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tartibga solish;
- vaqf qonunini tartibga soluvchi yo'riqnomalar tuzish va amalga oshirish;
- yangi binolar qurish va eskilarini qayta qurish orqali maktablar uchun mos binolar yaratish.

Natijada 1924-yil 1-fevralda yangi usul sovet vaqf maktablariga kirishilib, 1-aprelga qadar yangi usul xarakteridagi birorta ham maktab qolmagan. Butun maktab tarmog'i yagona sovet mehnat maktabiga aylantirilgan. 1924-yil 1-yanvarda e'tiqodiy jihatidan o'tkazish tartibi bekor qilinib, 212 ta madrasa va 181 ta maktabdan iborat barcha vaqf maktablari hisobga olingan. Bu kabi ta'lim muassasalari yopilib, binolarini yangi Sovet maktablari uchun qayta qurilgan. Arxiv manbasida ushbu davrda vaqf mablag'lari hisobidan sovet maktablari va hisobotga ilova qilingan boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar ham faoliyat ko'rsatayotgani e'tirof etiladi [O'z.MA. Fond R-34. ro'yxat-1 ish-2762. C-52].

Xullas, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida eski maktab, masjid, qorixona, otinoyi maktablari, madrasalar bilan bir paytda, rus-tuzem va yangi usul maktablari faoliyat yuritgan. Turkiston yoshlari ta'lim dargohida o'z bilim va qobiliyatidan kelib chiqib 4-8 yilgacha dastlabki ta'limni olishgan. Ta'lim olish davomiyligi o'quvchi va ota-onalar imkoniyati hamda iqtisodiy sharoiti bilan ham bog'liq bo'lgan. Asosan boshlang'ich ta'limni beruvchi maktablar ota-onalar hisobidan ochilib, ularning moliyaviy ta'minoti hisobidan kun kechirgan. Dars beruvchi o'qituvchi daromadi ota-onalar tomonidan berilgan hadya, sovg'a-salomlardan iborat bo'lgan.

Turkiston mintaqasida olib borilgan mustamlaka siyosati maorif tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ma'rifatparvar ziyolilar dastlab imperiya, keyin sovet hukumati bilan murosas qilib yoshlar ta'lim-tarbiyasi yo'lida o'z hissalarini qo'shganlar. Ammo hukumron Markaz turli tartib va kuch yo'li bilan Turkiston mahalliy aholi yoshlarini sovet mehnat maktablariga yo'naltirgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'z MA. Fond R-34, ro'yxat-1, ish-2722, 74 varaq.
2. O'z MA. Fond R-34. ro'yxat-1 ish-2762.
3. Чўлпон Абдулхамид. Асарлар. Jild 1. T.: Akademyashr, 2016. – 368 b;
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1998. – 47 b;
5. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Jild 1. T.: Akademyashr, 2018. – 367 b.

6. Амриддинова Д.Т. Самарқанд жади́дчи́лик мактаби. Т.: “Наврўз” нашриёти, 2017.
7. Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири-XX аср бoshлари). Андижон, 1995.
8. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 г). М.: Академии педагогических наук РСФСР, 1960.
9. Файзулла Ходжаев. Избранные труды. Том 3. Т.: Фан, 1973.
10. Амриддинова Д.Т. Самарқанд жади́дчи́лик мактаби. Т.: “Наврўз” нашриёти, 2017.
11. Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). – Т.: Sharq, 2010.
12. Central Asia A New History from the Imperial Conquests to the Present. Adeeb Khalid. – Pinceton, Oxsford. Pinceton university press, 2021.
13. Ўзбекистон совет мустамлакачи даврида. Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа консерни, 2000.
14. Пулатов С П. Триумф ленинских идей // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1984, 10-сон.
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/munavvar-qori-ikki-maqola-va-sherlar.html>.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSI VA JADIDCHILIK HARAKATI

Nyutonova Xilola Lochinbekovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi va jadidchilik harakati merosini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari hamda zamonaviy dolzarbligi yoritiladi. Jadidchilikning ijtimoiy-falsafiy mazmuni, Behbudiy asarlarining milliy uyg‘onishdagi o‘rni va ularning bugungi ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifat, ta’lim islohoti, vatanparvarlik.

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations and modern relevance of studying the work of Mahmudkhoj Behbudi and the heritage of the Jadid movement. The socio-philosophical content of Jadidism, the role of Behbudi's works in the national revival, and their significance in today's education are analyzed.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudiy, jadidism, national awakening, enlightenment, educational reform, patriotism.

O‘zbekiston tarixida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati millatni uyg‘otgan ulkan ma’naviy-siyosiy hodisa sifatida qaraladi. Jadidlar milliy ozodlik, ilm-ma’rifat, zamonaviy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning yetakchi vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat pedagog va

ma'rifatchi, balki adabiyotshunos, dramaturg va jamoat arbobi sifatida ham xalq qalbidan chuqur o'rin egalladi.

Behbudiy merosi – milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va vatanparvarlikning ifodasi. Uning "Padarkush" dramasi, darsliklari va publitsistik maqolalari millatni yangilanish sari yetaklagan. Bugungi kunda ushbu merosni o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki zamonaviy ta'lim va tarbiyaning nazariy asoslarini boyitish uchun ham muhimdir.

Behbudiy san'ati – publitsistikasi haqida oradan qariyb yuz yil o'tib, Hoji Muin orzu qilganidek, yozuvchining publitsistik asarlari S.Ahmad tomonidan to'planib, nashr etilib, "Tanlangan asarlar"ning ikki jildligiga kiritilib, sharh va lug'atlar bilan ta'minlanib, bir butun holda nashr etildi. Bu ikki jildda jamlangan publitsistika namunalarini janr nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, Mahbudxo'ja Behbudiyning maqola, sayohatnoma, maktub, nutq janrida ijod qilganliklarini kuzatish mumkin. Uning adabiy maqolalarini mavzu nuqtai nazaridan ijtimoiy- siyosiy, ma'rifiy, adabiy-tanqidiy, diniy maqolalarga bulish mumkin. Jumladan, zamonaviy ma'rifatparvar Behbudiyning "Maktablar haqida", "Buxoroning usuli jadid", "Huquq topiladi, berilmaydi", "Turkiston xalqi", "Yoshlarga murojaat", "Ikki emas, to'rt til kerak" eng mashhurlaridir. Jami Behbudiy publitsistikasining 180 ga yaqin namunalari ma'lum. Ilg'or va ma'rifatparvar adibning "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida yoshlar turk, arab, fors tillarini bilsalar, rus va fransuz tillarini o'rganishlari kerakligi haqida yozilgan. Maqolada shunday deyiladi: "Arab tilini bilmasak din o'jiz bo'ladi, ruschani bilmasak, dunyo yo'qoladi. Turk va fors tillarining zarurligi shubhasizdir. Butun dunyo bir-biri bilan gaplashadigan yana bir til va yozuv bor. Bu fransuz tili. Boshqa tilni bilish va yozishni o'rganish shariatga ko'ra to'g'ridir".

Behbudiy har bir fikrni ilmiy isbot, hayotiy fakt, hissiy tajriba bilan yozgan. Jumladan, yozuvchi "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida yoshlarni chet tillarini o'rganishga chorlaydi. Chet tillarini, hattoki yahudiy tillini ham o'rganish hadislarida buyurilganligini eslab, mashhur muhaddis olim Imom Buxoriyning "Sahih hadis"lariga murojaat qiladi va o'z fikrini hadisi sharifning til o'rganish haqidagi fikrlari va voqealari bilan isbotlaydi.

Behbudiyning ushbu maqolasi 1913-yilda "Oyna"ning 20 avgust sonida e'lon qilingan. G'ayratli publitsist "Yoshlarga murojaat" maqolasida yoshlarni zamonaviy fanlarni puxta egallashga chaqiradi. Zamonaviy ilmlarni o'rganish islom dinini ham mustahkamlaydi, deb yozdi. Mavzuiy maqolada u to'ylarga pul tashlanadi, lekin farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasiga pul sarflanmasligini tushuntirib beradi. Shuning uchun u zamonaviy ta'limni o'rganish va fazrandalarimizning ta'lim tarbiyasiga pul sarflashimiz kerak, - deb aytadi. "Oyina" ning asta-sekin darz ketayotganini so'ngi sonyalaridan ham payqash mumkin. Avval boshida Tavvallodan boshlangan yuz o'girishlar samarqandlik ziyolilarga ham o'tdi. Hoji Muin, Saidahmad Vasli Samarqandiy, Siddiqiy Ajziylar "Oyna"dan "Qalam"larini to'xtatdi. Jurnal Behbudiyning ilmiy maqola va she'rlari jamlangan to'plamga aylanib qolayotgan edi. Shu o'rinda Mirmuhsin Shermuhammedovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "...bizda yangi bir asar ko'rinsa boshlasa, 5-6 kun baqirib-chaqirib she'r va maqola yozarmiz, so'ngra charchagan kishi bo'lib o'z

manfaatimizga bechora millatni qurbon qilib o'tiraveramiz. Shuning uchun bezim o'rtamizda matbuot e'tiborsizlanib boradur".

Ma'rifatdan siyosatga. Behbudiy XX asr boshidagi Turkistoning yirik siyosiy arbobiga aylangani uning sotsializmga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'rinadi. Behbudiy o'sha yillari sotsialistik ta'limotni keskin rad etgan butun Rossiya musulmonlarining partiyasi "Ittifoqul muslimin" va ushbu partiya birgalikda faoliyat olib borishga kelishgan kadedlar partiyasi qarashlarni ma'qul ko'rgan.

Behbudiyga ko'ra, sotsialistik mafkura nafaqat foydasiz, balki juda zararli. Sotsialistlarning oila, shaxs va ijtimoiy tenglik borasidagi fikrlari musulmonlar uchun shariat yuzasidan umuman to'g'ri kelmaydi. Bu jihatdan uning 1906- yil 10-oktabrda "Xurshid" gazetasida bosilgan "Xayrul umuriy avsatuho" (ishlarning yaxshisi o'rtachasidir) maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarixi fani nuqtai nazaridan baholanib Behbudiyning qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Behbudiy inqilobgacha O'rta Osiyodagi eng hurmatli jadid bo'lib qoldi. Samarqandda bir qancha faol hamkasblari va shogirdlaridan yordam topdi. Uning davralarida Abdulqodir Shukuriy, Ajiziy, Xoji Muinlar bor edi. Toshkent jadidchilik faoliyatining eng yirik markazi edi. Uning nashriyot hunari, yangi usul maktablari esa Turkistonda eng ko'p edi. Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li ko'p jihatdan u yerda Behbudiyning hamkasbi edi. Ular birgalikda 1901-yild yangi usul maktabini ochdi. Behbudiy ham Munavvarqori ham madrassa ilmidan kelib chiqqan madaniy poytaxtga ega bo'lgan va taniqli ulamolar bilan shaxsiy aloqada bo'lgan. Shuni ham yodda tutish keraki jadidchilar ko'pincha tasvirlanganidek bir guruh emas edilar. Masalan E. Odvortning jadidchilarning – "ichki o'zgarmas odat va qattiq an'analariga bog'lanib qolishgan".

Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqloлга erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo'ldan bordilar:

1. Rossiyadan tobelikdan zo'rlik yo'li bilan qutilish kuchi bilan istiqloл olish-Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil voqealari, bosmachilik.

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalalarida haq-huquq olish milliy xususiyatlarni tiklash - M.Behbudiy.

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari so'ng sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarda qatnashish va imkon bo'lishi bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib boorish - Munavvarqori, Avloniy.

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo'ldi. Hamda u xalq orasida turli xil sotsialistik so'rovnomalar olib bordi va qay matbuot tili turkistonlik oddiy odam uchun tushunarli ekanligini aniqlash bo'yicha qilgan izlanishlari natijasida "Til masalasi" maqolasini ikkinchi qismida o'z aksini topgan.

Umuman olganda, Turkistonda bo'lib o'tgan so'rovnomalar o'zbek xalqining matbuotga bo'lgan qiziqishiga sababchi bo'ldi. Behbudiy XIX asrdagi millatning ayanchki ahvolini, jaxolatga yuz tutganligini va musulmon olamining qulab boryotganini ko'rsatib beradi. O'lkamizni bosib olgan Rossiya imperyasi ta'ziqidan qutulish, ozodlikka erishish, zamonaviy fanlarni o'qitish, malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish va ularni xalq uchun foydasi tegadigan darajada malakali qilish

kabi masalalarning hammasi Behbudiy va uning izdoshlari zimmasida edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Mahmudxo‘ja Behbudiy”. Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent: 2022. 29-139-betlar.
2. “Tanlangan asarlar”. Begali Qosimov. – Toshkent; “Ma’naviyati”, 1999. 13-21-betlar.
3. American Journal Of Philological Sciences (ISSN-2771-2273)
4. Olvord E. Birinchi o‘zbek drammasi. Jahon adabiyoti. 2009.107-113-betlar.
5. Ярашова, М. (2024). Жаҳон этнологияси фани ва уни ўқитишнинг замонавий методологияси. Modern Science and Research, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
6. Ярашова, М. (2024). Бухоро воҳасида мато ва мато тайёрлаш усуллари. Modern Science and Research, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
7. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta’limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta’lim Bergan Ayol Shogirdlari. Miasto Przyszłości, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>

**XORAZM JADID MA’RIFATPARVARI
MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ
HOMIYLIGIDA TEATR VA MATBUOT TARAQQIYOTI**

**Umorova Dilnoza Odilbekovna
Urganch davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX–XX asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy-ma’rifiy hayotning rivojida Muhammad Rahimxon Feruzning o‘rni va faoliyatiga bag‘ishlangan. Xiva xonligida matbuot va teatr xalqning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, ijtimoiy ongini uyg‘otish hamda milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim o‘rin tutgan. Maqolada Muhammad Rahimxon Feruz homiyligining teatr va matbuot taraqqiyotidagi tarixiy hamda pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, XIX–XX asr, Muhammad Rahimxon Feruz, jadidchilik, teatr, matbuot, ma’rifatparvarlik.

Abstract. This article is devoted to the role and activities of Muhammad Rahimkhan Feruz in the development of cultural and educational life in the Khiva Khanate during the late 19th and early 20th centuries. In the Khiva Khanate, the press and theater played an important role in raising public educational and cultural awareness, awakening social consciousness, and promoting national revival ideas. The article highlights the historical and pedagogical significance of Muhammad Rahimkhan Feruz’s patronage in the progress of the press and theater.

Keywords: Khiva Khanate, 19th–20th centuries, Muhammad Rahimkhan Feruz, Jadidism, theater, press, enlightenment.

Аннотация. Данная статья посвящена роли и деятельности Мухаммад

Рахимхана Феруза в развитии культурной и просветительской жизни Хивинского ханства в конце XIX – начале XX веков. В Хивинском ханстве печать и театр играли важную роль в повышении образовательного и культурного уровня народа, пробуждении общественного сознания и продвижении идей национального возрождения. В статье освещаются историческое и педагогическое значение покровительства Мухаммад Рахимхана Феруза в развитии печати и театра.

Ключевые слова: Хивинское ханство, XIX–XX века, Мухаммад Рахимхан Феруз, джадидизм, театр, печать, просветительство.

XIX–XX asrlar boshida Xiva xonligida madaniy-ma'rifiy hayotda yangi bosqich boshlandi. Bu davrda jadidchilik harakati shakllanib, ta'lim-tarbiya, matbuot va teatr sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu jarayonlarda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz alohida o'rin tutadi. U ma'rifatparvar hukmdor sifatida nafaqat davlat boshqaruvida, balki madaniyat va ilm-ma'rifat sohalarida ham yangilanish g'oyalarini qo'llab-quvvatladi. Feruz homiyligida Xivada matbaa ishlarining yo'lga qo'yilishi, gazeta va risolalar nashr etilishi, shuningdek, teatr san'atining shakllanishi jadid ziyolilari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi O'zbekistonda ham madaniyat va san'at rivojiga davlat darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida teatr, muzey va boshqa madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan[1]. Shunday qilib, XIX–XX asrda Muhammad Rahimxon Feruz homiyligida yo'lga qo'yilgan matbuot va teatr faoliyati xalq ongini yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etishda qanday o'rin tutgan bo'lsa, bugungi kunda ham madaniyat va san'at taraqqiyoti davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xorazmning buyuk farzandi, suyukli davlat arbobi, mutafakkir olimi, iste'dodli shoiri, nozikta'b va ulug' bastakori Muhammad Rahimxon Feruzning (1844-1910) ma'rifatparvarlik faoliyati boy va adabiy merosi hozirgi avlod uchun ilhombaxsh manba, tengsiz ibrat maktabidir. Muhammad Rahimxon Xorazm xonlari ichida eng ko'p, ya'ni 47 yil hukmronlik qilgan xalqparvar va ma'rifatparvar xonlardan biridir.

Ma'rifatli xon Feruz ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga juda katta e'tibor qaratgan xonlardan biri hisoblanadi. U tez-tez Xivadagi madrasalarda bo'lib, u yerdagi ta'lim-tarbiya ishlarini shaxsan nazorat qilib borgan. U madrasa mudarrisi har tomonlama bilimdon bo'lishini, darslarni ta'sirchan va qiziqarli o'tishini istardi. Shu maqsadda Feruz madrasalarga Oxun va mudarrislikka tayinlanishidan oldin nomzodni chaqirib tanishardi va imtihon qilib bo'lgach, "ochiq dars" o'tkazishni so'rardi. Feruzning olim va fozillar ichida bunday oshkora ish tutishining ahamiyati benihoya katta edi. Chunki bunda mudarrislik vazifasiga tayinlanayotgan kishining shaxsiyati, zukkoligi, ma'naviy dunyosi, fozil-u donishmandligi namoyon bo'lardi [2].

Xonlikda adabiyot va san'at ham o'z taraqqiyotida davom etdi. Muhammad Rahimxon II (Feruz) ham xuddi otasi Sayid Muhammadrahim singari har haftaning

ikki kunida shoirlar mushoirasi, kitobxonlik kechalari o'tkazib borishni o'ziga odat qilgan. Ogahiy, Bayoniy, K.Xorazmiyga ergashib g'azallar yoza boshlaydi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Xivada musiqashunoslikning rivojlanishiga M.Rahimxon II homiylik qildi. Feruzning Xorazm maqomlarini yig'ib, nota yozuviga o'tkazish borasida ko'rsatgan tashabbusi tufayli Xorazm maqomlari o'lmas va betakror maqomlarga aylandi. 1822-yilda Xorazm maqomlari to'g'risida "Bizkim, Xorazm mamlakatining oliy xoqoni, Muhammad Rahimxoniy Soniy, quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik. Xorazm maqomlari xalqning daxlsizlik mullki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin" deb farmon chiqargan [3]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan Feruzning madaniyat sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasini ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligi madaniy hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon II Feruz (1864–1910) hukmronligi davrida madaniyat, adabiyot, teatr va matbuot sohalari yuksalish davrini boshdan kechirdi. U xon bo'lish bilan birga, bilimdon shoir va san'at homiysi sifatida ham tanildi. Feruz o'z davrida Xiva saroyida ilmiy va badiiy muhit yaratishga alohida e'tibor qaratdi [4].

Feruz homiyligida Xiva saroyida yangi badiiy shakllardan biri – teatr tomoshalari shakllana boshladi. Avvaliga xalq og'zaki ijodiga asoslangan qo'g'irchoqbozlik, masxarabozlik va dorbozlik an'analari mavjud bo'lsa, XIX asr oxirlariga kelib, ular sahnalashtirilgan dramatik asarlarga yo'l ochib berdi. Xususan, Feruz tashabbusi bilan saroyda xalq qiziqchilari, qo'g'irchoqbozlar va hofizlar uchun maxsus majlislar tashkil qilindi. Bu tomoshalar o'ziga xos teatr maktabining shakllanishiga asos soldi.

Muhammad Rahimxon Feruz shoir va yozuvchilarga homiylik qilib, ulardan ayrimlarini dramatik yo'nalishda ijod qilishga rag'batlantirgan. Natijada, Xivada dramatik asarlarni sahnalashtirish urf bo'lib, teatr xalq ma'naviyatining muhim qismiga aylandi. Feruz davrida Xiva xonligi ma'naviy hayotida eng muhim voqealardan biri – matbuotning shakllanishidir. 1874-yilda Xivada litografiya (toshmatbuot) tashkil etildi. Bu bosmaxonada diniy, adabiy va ilmiy asarlar ko'paytirilib, keng kitobxonlar ommasiga tarqatila boshlandi. Jumladan, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Ogahiy kabi mumtoz adiblar asarlari litografiya orqali chop etildi.

Feruzning bevosita homiyligi ostida o'z davri adiblari – Komil Xorazmiy, Bayoniy, Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi ijodkorlarning asarlari bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Feruz o'zining "Devon"ini ham litografiyada nashr qildirdi. XX asr boshlariga kelib, Xiva xonligi matbuoti o'ziga xos rivojlanish bosqichiga chiqdi. Bosmaxona orqali milliy o'zlikni anglashga, ilm-ma'rifat tarqatishga xizmat qiluvchi adabiy hamda tarixiy asarlar keng yoyildi. Shu tariqa, Feruz davridagi matbuot nafaqat madaniy taraqqiyotga, balki milliy uyg'onish jarayonlariga ham turtki bo'ldi [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Muhammad Rahimxon Feruzning teatr va matbuotga bergan homiyligi nafaqat Xiva xonligi, balki butun o'zbek xalqi madaniyati tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Teatr orqali xalq ijodiy tafakkuri

yangi ifoda topgan bo'lsa, matbuot orqali ilmiy va adabiy meros keng targ'ib qilindi. Shu jihatdan Feruzning faoliyati keyingi jadidchilik harakatlari, madaniy islohotlar va milliy matbuot taraqqiyotiga tayanch bo'lib xizmat qildi

Foydalanilgan ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun — O'RQ-668, 20.01.2021.
2. Yusupov H.S. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. - Urganch, 2024. - B.86.
3. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. XI jild. – T.: 2023. - B.410.
4. Muhammadjonov, A. *Xiva xonligi madaniy hayoti*. – T.: Fan, 1991. - B.68.
5. Hasanov S. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. – T.: O'qituvchi, 1996. - B.72.

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ ПРОФЕССИОНАЛОВ

**Костин Александр Вячеславович,
старший преподаватель УВБ и ОРУз**

Аннотация. В данной статье рассмотрены отдельные подходы М.Бехбуди к обучению и воспитанию молодежи, а также проведена краткая аналогия с мнением по данным вопросам у современных ученых-педагогов Узбекистана. Отмечена важность темы статьи в подготовке военных профессионалов.

Ключевые слова: Махмудхожда Бехбуди, джадиды, новометодные школы, зарубежный опыт, критическое мышление, подготовка военных профессионалов.

Abstract. This article examines M. Behbudiy's approaches to the education and upbringing of young people, and briefly compares them to the views of contemporary Uzbek academics and educators on these issues. The importance of the article's topic in the training of military professionals is noted.

Key words: Mahmudkhodzha Behbudiy, Jadids, new-method schools, foreign experience, critical thinking, training of military professionals.

Система образования Узбекистана в последние несколько лет значительно реформировалась. Инициированные Президентом Республики Узбекистан, Ш.М.Мирзиёевым масштабные мероприятия, за короткий период позволили внести кардинальные изменения практически во все виды образования страны.

В результате этого повысился рейтинг учебных заведений страны на международной арене, возросло количество наших соотечественников, ставших призерами в различных международных олимпиадах среди студентов и школьников, впервые появились студенты нашей страны, которые стали обладателями льготных грантов на обучение в топ 10 самых престижных высших образовательных учреждений мира. Кроме этого возросло количество молодежи, обучающейся в бакалавриате и магистратуре

Особое внимание главы нашего государства данным вопросам нашло отражение в следующих его словах: «Мы начали закладывать основы Третьего Ренессанса в Узбекистане. Важнейшей основой будущего Возрождения мы считаем вопросы поддержки семьи, дошкольного, школьного и высшего образования, учреждений науки и культуры». В рамках настоящей статьи предложена рассмотреть отдельные подходы к обучению и воспитанию молодежи, описанные великим философом прошлого, одним из известных всему миру джаидов Туркестана Махмудходжа Бехбуди. В этом контексте, нами обращено внимание на созвучие в формулировках определенных взглядов педагогического наследия нашего великого предка с мнением выдающихся политиков и ученых Нового Узбекистана. В том числе, кратко изучено значение развития критического мышления применительно к обучению военных профессионалов и роль внедрения зарубежного опыта в систему их обучения и подготовки.

Махмудходжа Бехбуди в научно-педагогической литературе рассматривается как один из первых инициаторов и идеологов внедрения новометодных форм обучения на территории Туркестана, а также как автор учебно-методических материалов того времени, предназначенных для педагогов и учащихся. Как нам известно, Махмудходжа Бехбуди (1875-1919) родился в семье священника, окончил самаркандское, затем бухарское медресе; достиг высоких должностей имам-хатиба, казия, затем муфтия. Ученый много путешествовал и учился, в том числе в 1899-1900 годы совершил паломничество в Мекку. Будучи сторонником справедливости и свободы, присоединился к мусульманскому джаидскому движению. Бехбуди после зарубежных путешествий стал открывать новометодные школы, пишет учебники и пособия для джаидских школ («Кискача умумий жуграфия» (Краткая общая география), «Болалар мактублари» (Детские письма), «Мухтасари тарихи ислом» (Краткая история ислама и др.)). [4]

Новаторство в педагогическом наследии этого выдающегося ученого философа продолжает оставаться актуальным и в наши дни. Можно сказать, что Бехбуди определил такие системные основы в обучении и воспитании молодежи, которые по прошествии веков остаются фундаментальными и в современной педагогике. Так, наш земляк и великий мыслитель прошлого полагал, что и педагог и обучаемые не должны строго придерживаться догматических подходов и критиковал слепое следование устаревшим традициям в образовании и религии. В частности, Бехбуди призывал к осмысленному подходу, где знания проверяются, а не просто принимаются на веру, что является ключевым элементом критического мышления.

Обратимся к высказываниям Президента Узбекистана «... мы должны усилить внимание к человеческому капиталу, задействовать все возможности для реализации потенциала нашей молодежи» [1]. Эта цитата ясно демонстрирует стремление президента к созданию условий, при которых молодежь нашей страны не просто будет получать знания, но и будет учиться мыслить глубоко, самостоятельно, критически и стратегически.

По мнению заслуженного деятеля науки Узбекистана, доктора

филологических наук, профессора Н.Ф. Каримова «стоящий во главе джадидского движения в Самарканде Махмудходжа Бехбуди, наряду с другими джадидами, не ограничивался открытием новометодных школ, но и инициировал отправление молодежи учиться и получать высшее образование в России, Турции, Египте и Западной Европе. Ведь, по мнению джадидов, обученные в лучших восточных и европейских университетах или медресе молодые люди, овладев как светскими, так и религиозными науками, могли верно служить своему народу и Родине в качестве врачей, инженеров, юристов, агрономов, религиозных и государственных деятелей».

По мнению ряда современных ученых-педагогов нашего государства, одним из ключевых факторов повышения качества и результативности образовательной деятельности является её интенсификация, основанная на гармоничном сочетании традиционных методов обучения с инновационными технологиями, а также на внедрении современных технических средств. Так, доктор педагогических наук, профессор Ф.Р. Юзликаев полагает, что такая активизация учебно-воспитательной работы в образовательных учреждениях способствует формированию эффективной дидактической системы, способной значительно улучшить количественные и качественные показатели подготовки студентов [4].

Согласно Р.М.Медетовой, заведующей отделом Национального института педагогики воспитания имени Кары-Ниязи, доктора педагогических наук, старшего научного сотрудника: «Основной целью современной педагогики является формирование всесторонне и гармонично развитой личности, которая, в конечном итоге, смогла бы самостоятельно строить свою жизнь, руководствоваться в своих поступках духовными и социальными ценностями на уровне национальной и мировой культуры» [5].

Также, по мнению М.А. Умаралиевой, начальника отдела Национального института педагогики воспитания имени Кары Ниязи, кандидата педагогических наук (PhD), доцента, в настоящее время в Узбекистане объективно имеется острая необходимость обновления учебных программ через изучение опыта ряда зарубежных стран с учетом изменений в обществе и на рынке труда [6].

Таким образом, если провести сравнительный анализ между подходами в обучении и воспитании молодежи, высказанными великим Махмудходжа Бехбуди и соответствующими цитатами видных государственных деятелей Нового Узбекистана, определенно возникает понимание, что значимость учения данного выдающегося философа-джадида остается актуальной и сегодня.

В подготовке и обучении военных кадров, как и в современной педагогической науке, действуют те же законы. Ни у кого не вызывает сомнения тот факт, что способность национальной армии противостоять различным вызовам и угрозам современности основывается на ее боеготовности и боеспособности, а также на наличии в ее рядах высококвалифицированных военных кадров, воспитанных в духе беззаветного служения Президенту, Народу и защите родного Узбекистана.

На наш взгляд, развитие критического мышления у обучаемых в ходе подготовки и воспитания военных профессионалов является важной составляющей всего педагогического процесса в силу следующих факторов:

Самокритическое мышление выступает как действенный инструмент навигации для военного специалиста в условиях неопределённости и способствует рациональному принятию максимально взвешенных решений в условиях высокого риска. В стремительно меняющейся обстановке современных военных операций наличие способности у военных к аналитическому мышлению обеспечивает их скорейшую адаптацию к нестандартным ситуациям и повышает точность принимаемых ими решений. Наряду с этим, развитие критического мышления способствует устойчивости к дезинформации, манипуляциям и психологическому давлению, укрепляя когнитивную защиту военнослужащего. Кроме того, критически мыслящий военный профессионал способен оценивать последствия своих действий, учитывать альтернативные сценарии и принимать решения, минимизирующие потери.

Формирование рефлексивной культуры и развитие способностей в междисциплинарных дисциплинах. Способность к самокритике и объективной оценке военнослужащего собственных действий является основой профессионального роста и снижает вероятность совершения ошибок в будущем. Также развитие критического мышления способствует более легкой интеграции «узкого специалиста» в различные сферы военной деятельности, например, в оперативное планирование или улучшает навыки управления ресурсами и персоналом. Таким образом, можно заключить, что развитие критического мышления у обучаемых и внедрение положительного зарубежного опыта в подготовку и обучение военных профессионалов являются важными составляющими современного военно-педагогического процесса.

Президентом Республики Узбекистан было указано, что на основе изучения опыта более 20 зарубежных стран была разработана новая национальная модель, предусматривающая комплексную модернизацию военного образования в Узбекистане.

Подводя краткий итог в данной статье, можно сформулировать следующее: современная военная педагогика и психология обязаны опираться на самые передовые технологии подготовки и воспитания военных кадров с учетом открытий и технологий современной военной науки, национального и зарубежного опыта в применении военных подразделений. В противном случае, будет происходить то, о чем писал выдающийся государственный деятель и премьер-министр Великобритании Уинстон Леонард Спенсер Черчилль: «В Британии в шутку говорят, что военное ведомство всегда готовится к последней войне» [8].

Список использованной литературы:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 28 декабря 2018 года.
nrm.uz/contentf?doc=573873_poslanie_prezidenta_respubliki_ Uzbekistan

- shavkata_mirzиеeva_oliy_majlisu_ot_28_12_2018_g, дата обращения 25.09.2025.
2. Юзликаева Э.Р. и др. Теория и практика общей педагогики: Учебник. – Т., 2012. – С. 257.
3. Каримов Н.Ф. Возникновение джадидизма как первоосновы национальной идеи. Ч. 1: <https://mytashkent.uz/2010/08/28/vozniknovenie-dzhadidizma-kak-pervoosnovyi-natsionalnoy-idei-chast-1/?ysclid=mfzqzfnuyz> 18682509, дата обращения 25.09.2025 г.
4. Юзликаев Ф.Б. Интенсификация процесса обучения. – Т., 1996.
5. Медетова Р.М. Трансформация передового зарубежного опыта в области воспитания – важнейшая задача современности // Multidisciplinary Journal of Science and technology, Vol. 5 No. 7 (2025). – P. 200-205.
6. Умаралиева М.А. Внесение изменений в начальное образование в Узбекистане с использованием опыта передовых стран в сфере образования (возможно ли?) // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Т., 2021. – Махсус сон. – Б. 164-169. ISSN 2181-1709 (P): <http://interscience.uz>.
7. Доложено о развитии системы военного образования: <https://president.uz/ru/lists/view/8347>, дата обращения 25.09.2025 г.
8. Sir Winston Leonard Spencer-Churchill. The Gathering storm, 1948.

JADIDCHILIK HARAКATI NAMOYANDALARINING PEDAGOGIK FAOLIYATI

Sadriddinova F. M

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,

Mansurova M.A

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlarida Turkistonda ma'naviy – ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyat rivojlanishiga katta hissa qo'shgan jadid ziyolilarining ilm-ma'rifat sohasidagi jonbozliklari va pedagogik faoliyatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona, xayriya jamg'armalari, maktab, maorif, taraqqiyparvarlar, ziyoli, ta'lim.

Аннотация: В статье подробно рассматривается деятельность в области образования и педагогической деятельности новой интеллигенции, внесшей большой вклад в развитие духовно-просветительской сферы и становление национальной культуры Туркестана в начале XX века.

Ключевые слова: библиотека, благотворительные фонды, школа, просвещение, прогрессивные деятели, интеллигенция, образование.

Annotation: The article examines in detail the activities in the field of education and pedagogical activity of the new intelligentsia, which made a great contribution to the development of the spiritual and educational sphere and the formation of the national culture of Turkestan at the beginning of the 20th century.

Keywords: library, charitable foundations, school, education, progressive figures, intelligentsia, education.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida xalqni ilm-ma'rifatga, zamonaviy bilimlarga chorlagan, millatni uyg'onishga undagan jadid ma'rifatparvarlari sahnaga chiqdi. Ular o'z davri uchun xalqni zulmat va jaholatdan chiqarib, milliy uyg'onish yo'liga boshlagan fidoyilar sifatida tarixda chuqur iz qoldirdilar. Jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra, ilm-ma'rifat va taraqqiyot orqali millatni uyg'otish, xalqni jaholatdan qutqarish, milliy o'zlikni saqlash va taraqqiyot sari yo'naltirishni maqsad qilgan edi. Jadidlar eski usuldagi ta'lim tizimini yangilash, yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yozish, gazeta va jurnallar chiqarish, teatr san'atini rivojlantirish orqali xalqni uyg'otishga intildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy – jadidlarning rahnamosi. Turkiston jadidlarini birlashtirishda Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U “O'rta Osiyo jadidlarining otasi” deb yuritiladi. Behbudiy o'zining asarlari, publitsistik chiqishlari, siyosiy faoliyati orqali millatni uyg'onishga, xalqni ilmi va taraqqiyparvar bo'lishga undagan. Uning “Padarkush” dramasi, publitsistik maqolalari jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida katta ahamiyat kasb etgan. Jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg'onish davrini boshlab bergan ulkan harakat bo'lib, uning namoyandalari o'z fidoyiligi bilan xalqni ilm-ma'rifat, taraqqiyot va mustaqillik sari yetakladilar. Taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin – qizlar ta'lim masalasi alohida o'rin tutgan. Islom ilm o'rganishni erkaklargayam, ayollargayam ham farz deb hisoblashidan kelib chiqan holda jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishga tashabbuskori bo'lganlar. Jadidchilik harakati asosiy namoyandalarning asosiy faoliyatlari ma'rifatparvarlikdan boshlangan bo'lsada, ularning ta'siri Turkistondagi milliy ozodlik harakatlarida g'oyaviy rahnamolari sifatida muhim o'rin tutdi.

Avloniy o'z faoliyatini faqat darslik yozish yoki badiiy ijod bilan cheklab qo'ymadi. U matbuotni “xalqning ko'zi va qulog'i” deb bilgan va bu sohada fidoyilik ko'rsatgan. “Shuhrat” gazetasi (1907) – Avloniy bu gazetani tashkil etishda faol ishtirok etgan. Unda xalqni ilm olishga, millat manfaatlarini anglashga chaqiruvchi maqolalar chop etilgan. “Osiyo” gazetasi (1908) – qisqa muddat nashr etilgan bo'lsa-da, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan. “Turon” gazetasi (1917) – jadidchilik ruhida chiqib turgan bu gazeta orqali Avloniy milliy istiqloq, ozodlik va taraqqiyot g'oyalarini ommaga yoygan. “Ishtirokiyun” gazetasi – Avloniy bu gazetaning ham faol xodimlaridan bo'lib, ijtimoiy-siyosiy maqolalar yozgan. Abdulla Avloniy o'z davrida matbuotni nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki milliy ongini uyg'otuvchi maktab sifatida ko'rgan. Uning gazetalardagi maqolalar o'zbek xalqi ongida milliy mustaqillik va ma'rifat g'oyalarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

“Padarkush” (1911) – Behbudiy yaratgan birinchi o'zbek dramasi. Bu asar o'zbek teatrining ilk pyesalaridan bo'lib, unda jaholat, nodonlik va oila tarbiyasining zaifligi tanqid qilinadi. Asarda o'qimagan, tarbiyasiz farzandning jamiyatga keltirgan zararli oqibatlari ko'rsatilib, muallif ota-onalarni farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lishga undagan. Behbudiy teatr orqali xalq ongiga ta'sir ko'rsatishni, tomoshabinlarni fikrlashga va to'g'ri yo'l tanlashga chorlashni maqsad qilgan. U teatr sahnasini ma'rifat tarqatish, xalqni tarbiyalash maktabi sifatida ko'rdi. Shu

boisdan uning asarlari ma'rifiy, o'qituvchi xarakterga ega edi. Behbudiy tashkil qilgan spektakllar nafaqat Toshkent va Samarqandda, balki Buxoro, Farg'ona va boshqa hududlarda ham sahnalashtirilgan, xalqni katta qiziqish bilan o'ziga tortgan.

Ayniy va Abduvohid Munzim hamda boshqa yoshlar bilan birga "Tarbiyai atfol" jamiyatini tashkil qiladi. Bu jamiyat matbuotga oid faoliyat — yangi nashrlar, gazeta-jurnallar olib kirish, ommabop ma'rifiy-xalqchil g'oyalarni tarqatish, yoshlarga ma'naviy, ma'rifiy yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yadi. Tarbiyai atfol jamiyati tashabbusi bilan 1912-yilda "Buxoroi sharif" gazetasi fors-tojik tilida chop etila boshlaydi. Bu gazetaning faoliyati qisqa davom etsa-da, Ayniy va jamiyatga ma'rifiy maqsadlarda ishlash uchun yo'riqnoma bo'lgan. Ayniy maktab o'quvchilari uchun 1909 yilda "Yoshlar tarbiyasi" darslik-nashrini tuzgan, bu darslikda yoshlar tarbiyasi, axloqiy odatlar, ma'naviyat masalalari yangi shaklda yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik harakati XX asr boshlarida Turkistonda ilm-ma'rifat, zamonaviy ta'lim va milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surgan ulkan ma'rifiy-siyosiy harakat bo'lib, uning namoyandalari xalqni zulmat va jaholatdan chiqarish, taraqqiyot sari yetaklash yo'lida fidoyilik bilan faoliyat olib borganlar. Ayniqsa, ularning pedagogik faoliyati nafaqat ta'lim tizimining shakllanishiga, balki jamiyatda mustaqil fikrlovchi, ongli avlodni tarbiyalashga xizmat qildi. Xotin-qizlar ta'limi, bolalar tarbiyasi, axloqiy-ruhiy yetuklik kabi masalalarga bo'lgan e'tibor ularning taraqqiyparvar qarashlarini yaqqol namoyon etadi. Shu jihatdan, jadidlarning pedagogik merosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida ulardan o'rnatilgan olish, ularning ilg'or g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Rajabov, A. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. "Jadid.uz" – Jadidlar haqida ma'lumotlar portali. <https://jadid.uz>
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
5. Abdug'afurov, A. O'zbek jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
6. Qosimov, B. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik. – Toshkent: Universitet, 2003.
- 7.

BEHBUDIYNING "IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM" MAQOLASIDAGI TUSHUNCHALAR HAQIDA

Qurbonov Zayniddin
Toshkent Oriental universiteti,
Samarqand filiali dotsenti

Bugungi globallashuv davriuda jahon tillarini mukammal o'rganish olamni anglashga kengroq imkon berishi, tabiiy holdir. O'tgan asr boshlaridayoq buyuk millatparvar ijodkor Mahmudxo'ja Behbudiy tilning mohiyati, uning ahamiyatini juda teran tahlil qilgan va o'z qarashlarini bayon etishida ham, hayot haqiqati

mujassamlashgan edi. Chunki har bir davrning o'ziga xos tamoyillari bo'lib, yoshlarni ilmi, ma'rifatli bo'lishga undab kelishida ham asoslar mavjud edi. O'sha davr ham til bilishni, uning imkoniyatlaridan foydalanishni talab qilardi.

O'sha murakkab bir davrda ham, olamni anglashda tilning muhimligi alohida qayd etilgan. Bu haqida Mahmudxo'ja Behbudiy shunday yozadi: "Biz Turkistonliylarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, y'ani o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining askari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur" [1, 150-bet].

Mahmudxo'ja Behbudiyning til va adabiyot o'rtasidagi aloqasi uning tilga bo'lgan qarashlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Behbudiyning adabiyotga bo'lgan munosabati va tilni adabiy vosita sifatida ishlatishdagi qarashlari ma'rifatparvarlik va milliy o'zlikni saqlash yo'nalishlarini aks ettiradi. Adabiyot va til bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, Behbudiyning qarashlarida til, bir tomondan, xalqning madaniy boyligini saqlash, boshqa tomondan, jamiyatdagi mavjud insonlarni o'qitish va yuksaltirish vositasi sifatida ishlatilgan.

Behbudiyning til va adabiyotga bo'lgan qarashlari milliy ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Adib adabiyotning xalqni o'qitish, ongini rivojlantirish, va milliy madaniyatni saqlashdagi rolini juda katta deb hisoblagan. Adabiyot, Behbudiyning fikriga ko'ra, nafaqat madaniyatning aks-sadosi, balki tilni rivojlantirish va unga yangi ilmlar kiritishning asosiy vositasi hisoblangan. U adabiyot orqali xalqning ma'rifatini yuksaltirish, tillarning ilmiy salohiyatini boyitish, va umuman, jamiyatni ijtimoiy, madaniy va ilmiy jihatdan rivojlantirishga intilgan. Behbudiyning tilni adabiy vosita sifatida ishlatishdagi qarashlari, asosan, xalq tilining rivojlanishiga qaratilgan edi. Adabiyot va til o'rtasidagi aloqani, ayniqsa, uning milliy tilni rivojlantirishdagi roli asosida tahlil qilish mumkin. U, o'zbek tilining adabiyotdagi rivoji orqali xalqning fikrlash tizimini yangilash, ilmiy va madaniy terminologiyani yaratishni maqsad qilgan.

Behbudiyning adabiyotga bo'lgan qarashlari xalqni tarbiyalash va ma'rifatga qaratilgan edi. U adabiyot orqali o'zbek tilining ilohiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishini ko'zlagan. Shu bilan birga, u adabiyotda xalqning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini aks ettirish zarurligini ta'kidlagan. Behbudiyning adabiyot va tilni birlashtiruvchi g'oyasi, uning adabiy asarlarida, masalan, she'rlarida yoki publitsistik ishlarida, tilning milliy ruhini saqlashga qaratilgan edi. Behbudiyning adabiyotdagi asosiy vositasi – bu, albatta, she'riyat edi. U she'rlarda o'zbek tilining badiiyatdagi o'rnini va so'z boyligini ko'rsatishga intilgan. Bu orqali adabiy nutqni jozibali va ta'sirchan qilishga harakat qilgan.

Behbudiyning adabiyotga va tilga bo'lgan qarashlari faqat she'riyat bilan cheklanmaydi. U publitsistik va badiiy asarlarda ham tilni jamiyatni o'qitish, ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish, hamda xalqni ma'rifatli qilish vositasi sifatida ishlatgan. Behbudiyning adabiy va tilga oid maqolalarida tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki milliy o'zlikni saqlash, madaniyatni rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish vositasi sifatida ko'rgan. Behbudiyning tilni ilmiy, badiiy va ma'rifiy vosita sifatida ishlatish g'oyasi, adabiyotdagi yangiliklarni kiritishga olib

keldi. U ilmiy va madaniy sohalarda yangi atamalar yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu, turkiy tillarning ilmiy rivojlanishiga hamda milliy tildagi adabiyotning boyishiga xizmat qilgan. Behbudiyning o'zi ilmiy atamalarni yaratish va yangi so'zlar ishlab chiqish masalasida faol ish olib borgan.

Behbudiyning tilni adabiyotda ishlatish uslubi uning xalq tiliga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Adib adabiyot orqali xalq tilining boyligini va ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan birga, xalqning o'zligini va madaniyatini saqlashga xizmat qilgan. Behbudiyning fikricha, adabiyot nafaqat o'qitish vositasi, balki xalqning haq-huquqlarini himoya qilish, milliy o'zlikni shakllantirish va mustahkamlash vositasi bo'lishi kerak. Behbudiyning adabiyotdagi tilga bo'lgan qarashlari, ayniqsa, ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborida aks etadi. U, o'zbek tilining ma'rifatparvar adabiyotini yozish orqali yoshlarni o'qitish va ularni xalqining madaniyatiga, tarixiga va tiliga mehr qo'yishga undagan. Behbudiyning fikricha, adabiyot faqatgina badiiy asarlar emas, balki ta'lim va tarbiya vositasi sifatida ishlatilishi kerak edi. Behbudiyning adabiyotga bo'lgan qarashlarida tilning ijtimoiy roli ham muhim o'rin tutadi. U adabiyotning jamiyatni o'qitish, ijtimoiy ongni rivojlantirish va xalqni yuksaltirishdagi rolini juda katta deb hisoblagan. Behbudiyning adabiyot orqali xalqni o'qitish g'oyasi, ayniqsa milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik jihatidan katta ahamiyatga ega edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiyot va til o'rtasidagi aloqasi uning jamiyatni o'qitish, madaniyatni saqlash va tilni rivojlantirishga bo'lgan yondashuvini aks ettiradi. U adabiyot orqali xalqni tarbiyalash, tilni ilmiy va badiiy sohalarda rivojlantirish hamda milliy o'zlikni mustahkamlashga intilgan. Behbudiyning til va adabiyotga bo'lgan yondashuvi, nafaqat tilning estetik jihatlariga, balki uning jamiyatni yuksaltirishdagi ijtimoiy roliga ham katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi, to'plovchi, so'zboshi va izohlar muallifi Begali Qosimov. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 280 b.
2. Qosimov B. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik. – T.: Universitet, 2003.

SAMARQAND JADIDLARINING FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Ernazarova Iroda Shavkat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Samarqand jadidlarining Turkiston ma'rifiy-madaniy taraqqiyotidagi o'rni kompleks yondashuv asosida ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqot diqqat markazida Mahmudxo'ja Behbudi va uning hamfikrlarining ma'rifiy, adabiy va ijtimoiy faoliyati turadi. Behbudiyning maktab-maorif tizimini isloh etish, matbuot va sahna san'ati vositasida milliy ong va tafakkurni uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida

chuqur o'rganiladi. Shuningdek, Samarqand jadidlarining umumturkiston jadidchilik harakati bilan ideologik va amaliy jihatdan o'zaro aloqalari hamda ularning farqlanuvchi xususiyatlari ochib berilib, bu toifa ziyolilarning milliy uyg'onish jarayonidagi tutgan o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Samarqand jadidlari, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Turkiston, matbuot, teatr, milliy uyg'onish.

Annotation. This article provides a comprehensive scholarly analysis of the role of the Samarkand Jadids in the intellectual and cultural development of Turkestan. The study focuses on the educational, literary, and socio-political activities of Mahmudkhoja Behbudi and his like-minded contemporaries. Behbudi's initiatives in reforming the educational system, as well as his efforts to awaken national consciousness through the press and theatrical arts, are examined on the basis of historical sources and contemporary academic research. Furthermore, the ideological and practical connections between the Samarkand Jadids and the broader Turkestani Jadid movement are explored, along with their distinctive features. The article also identifies the significant contribution of these intellectuals to the national awakening process.

Keywords: Mahmudkhodja Behbudi, Samarkand Jadids, Jadidism, enlightenment, Turkestan, press, theater, national awakening.

Turkiston jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu harakatning Samarqanddagi asosiy ishtirokchilaridan biri -Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u va uning hamkasblari maktab-maorif, matbuot va teatr orqali jamiyatning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Samarqand jadidchiligi o'ziga xos jihati bilan ajralib turadi: diniy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni joriy etish, yoshlarni ma'rifat va ilmga yo'naltirish, shuningdek, matbuot va teatr orqali jamiyatni ma'naviy rivojlantirish. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning shogirdlari yaratgan maktablar, gazetalar va dramalar butun Turkiston hududida jadidchilik harakatining taraqqiy etishiga xizmat qildi. Maqola Samarqand jadidchiligining Turkiston ma'rifatparvarlik harakatidagi o'rnini va ahamiyatini tarixiy, pedagogik va madaniy kontekstda tizimli tarzda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda Behbudiy va uning shogirdlarining risolalari, gazetalar, dramalar, shuningdek zamonaviy ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilinadi. Shu yondashuv Samarqand jadidchiligining faoliyatini keng va chuqur o'rganish imkonini beradi.

Samarqand jadidlarining ma'rifiy faoliyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyati asosan diniy ta'lim tizimi asosida rivojlanayotgan edi. Samarqand jadidlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Mirmuhsin Shermuhamedov kabi ziyolilar eski maktab va madrasalardagi o'quv dasturlarini yangilash zaruratini ilgari surdilar. Behbudiy 1903-yildayoq yangi usul maktablarini ochishga urindi, bu orqali matematika, geografiya, tarix, tibbiyot kabi dunyoviy fanlarni o'qitish g'oyasini ilgari surdi [Mahmudxo'ja Behbudiy, 1913]. Shuningdek, Samarqand jadidlarining faoliyati faqat ta'lim bilan cheklanib qolmay, milliy ongni yuksaltirish, yoshlarni taraqqiyotga da'vat etish bilan ham chambarchas bog'liq edi.

Behbudiy o'z risolalarida "Millatning kelajagi yoshlarning ilm olishida" ekanini ta'kidlagan [Mahmudxo'ja Behbudiy, 1914].

Matbuot orqali millatni uyg'otish. Samarqand jadidlarining eng muhim yutug'i - matbuot sohasidagi tashabbuslaridir. 1913-yilda Behbudiy "Oyina" gazetasini tashkil etib, unda ma'rifiy, siyosiy va madaniy mavzularda maqolalar chop etdi. Gazeta qisqa vaqt ichida butun Turkistonda tarqaldi va milliy uyg'onish uchun axborot maydoniga aylandi [Mahmudxo'ja Behbudiy, 1913-1915]. Behbudiyning "Oyina"dagi maqolalarida ilm, fan, madaniyat, milliy birlik, musulmon jamiyatining taraqqiyoti haqida g'oyalar ilgari surildi. Bu gazeta orqali Samarqand jadidchiligi Turkiston jadidchiligi uchun nazariy va ma'naviy asos vazifasini bajardi. Shuningdek, Samarqandda "Samarqand", "Taraqqiy" kabi mahalliy gazeta va jurnallarda ham jadidlar faol ishtirok etib, o'z g'oyalarini keng xalq ommasiga yoyishga muvaffaq bo'ldilar ["Oyina" gazetasi arxiv sonlari].

Teatr va san'at vositasida milliy uyg'onish. Samarqand jadidlarining Turkiston ma'rifatparvarligidagi o'rni teatr san'ati orqali ham yaqqol ko'zga tashlandi. Behbudiy 1911-yilda yozgan "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" dramasi jadid teatrining ilk namunasi hisoblanadi. Asarda o'qimagan, jaholatda qolgan yoshning fojiali taqdiri tasvirlangan bo'lib, u xalqni ilmga, ma'rifatga undash g'oyasini tashiydi. Samarqand jadidlarining teatr orqali ko'tarilgan masalalari xalq hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni keng jamoatchilik qabul qildi. Teatr tomoshalari nafaqat Samarqandda, balki boshqa shaharlarda ham sahnalashtirilib, butun Turkiston bo'ylab ma'rifatparvarlik ruhini yoydi [Rahimov, 1982].

Turkiston jadidchiligi faoliyatida Samarqand jadidlarining o'rni. O'rganishlardan ko'rinadiki, Samarqand jadidchiligi Turkiston jadidchilik harakatining markaziy qismlaridan biri bo'lgan. Behbudiy va uning zamondoshlari nafaqat o'z shahrida, balki butun mintaqada ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalarining yoyilishida muhim rol o'ynaganlar. Samarqand jadidchiligining o'ziga xos jihati shundaki, u diniy-islomiy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy ta'lim, matbuot va teatr orqali jamiyatni yangi yo'lga boshlashga intilgan. Bu holat jadidchilik harakatini mahalliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirishning yorqin namunasidir.

Maktab-maorifdagi innovatsiyalar va metodologiya. Samarqand jadidchiligi eski madrasalardagi ta'lim usullarini tanqid qilib, yangi metodikalarni joriy qilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, xususan, fanlarni tizimli tarzda o'qitish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va amaliy mashg'ulotlarni kiritish tarafdori bo'lgan. Shu bilan birga, u pedagogik yondashuvni zamonaviy va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, maktablarda o'quvchilarni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan.

Samarqand jadidlari tomonidan sahnalashtirilgan dramalarda jamiyatdagi ijtimoiy muammolar: qizlarni o'qitish, o'qimagan yoshlarning fojiali taqdiri, xotin-qizlar huquqlari kabi masalalar ko'tarilgan. Bu dramatik asarlar nafaqat madaniy tarbiya vazifasini bajardi, balki tomoshabinlarda axloqiy va ma'rifiy xabardorlikni shakllantirdi. Samarqand jadidlari Turkiston jadidlari bilan muntazam aloqada bo'lib, tajriba almashish va umumiy ma'rifiy kampaniyalarni tashkil qilish orqali butun mintaqada ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Behbudiy va M.Shokir tomonidan

matbuot, teatr va maktablar tarmog'i orqali Turkistonning boshqa shaharlaridagi jadidlar bilan bog'lanish faoliyatlari tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Samarqand jadidchiligi faqat ma'rifiy sohada emas, balki siyosiy va ijtimoiy hayotda ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning shogirdlari aholining milliy ongini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va o'z huquqlarini anglashga chaqirish bilan shug'ullangan. Ularning maqsadi - jamiyatni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy ong bilan ham boyitish edi. Samarqand jadidchiligi boshqa Turkiston shaharlaridagi jadidlar bilan muntazam aloqada bo'lib, tajriba almashish, matbuot va teatr orqali birgalikdagi ma'rifiy tadbirlar o'tkazgan. Bu esa Samarqand jadidchiligining nafaqat hududiy, balki mintaqaviy ta'sirini oshirdi.

Samarqand jadidchiligi milliy uyg'onish, yoshlar tarbiyasi va ilm-fan rivojida uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan. Behbudiy va uning shogirdlari yaratgan maktablar, gazetalar va teatr tizimi keyinchalik boshqa shaharlar va hududlarda ham tatbiq etilgan, bu esa Turkiston ma'rifatparvarlik harakatining mustahkam poydevorini yaratdi. Samarqand jadidchiligi sahnalashtirgan dramalarda ijtimoiy masalalar, jumladan, oiladagi ta'lim, qizlar huquqlari, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy adolatsizliklar yoritilgan. Bu asarlar nafaqat tomoshabinlarni ma'rifatga chorlagan, balki ularni ijtimoiy mas'uliyat va jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga undagan. Samarqand jadidchiligi natijasida shahar va hudud aholisida ma'naviy uyg'onish kuzatilgan.

Maktablarning yangi usullari, matbuotdagi targ'ibot va teatr orqali ijtimoiy ong shakllanishi, yoshlar va kattalar orasida ilm-fanga qiziqishning ortishiga olib kelgan. Shu tariqa, jadidlar nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini ham tubdan o'zgartirishga xizmat qilgan. Samarqand jadidchiligi Turkistonning boshqa shahar jadidchiligi bilan uzviy aloqada bo'lgan. Ularning tajribasi, matbuot va teatr faoliyati boshqa hududlarda ham qo'llanilgan. Bu esa Samarqand jadidchiligining nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy ta'sirini ko'rsatadi.

Jadidlar o'rtasida muntazam tajriba almashish va birgalikdagi tadbirlar orqali butun Turkiston miqyosida ma'rifiy uyg'onishga hissa qo'shilgan.

Samarqand jadidchiligining muvaffaqiyati ularning faoliyatini yagona tizimga birlashtira olganida. Maktabda o'quvchilar bilim oladi, matbuot orqali ma'rifiy g'oyalar ommaga yetkaziladi, teatr esa ijtimoiy va axloqiy muammolarni hayotiy misollar orqali namoyon qiladi. Bu yondashuv jadidchilik harakatining samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, teatr va matbuot orqali taqdim etilgan g'oyalar jamiyatning turli qatlamlariga, xususan, yoshlar va o'rta sinf vakillariga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, Samarqand jadidchiligi nafaqat o'qituvchilar va ziyolilar, balki keng omma orasida ham tanildi. Samarqand jadidchiligining o'ziga xosligi shundaki, u diniy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni joriy etdi. Bu yondashuv boshqalaridan farq qilgan va mintaqada "milliy uyg'onish va zamonaviy ta'limni uyg'unlashtirish" konsepsiyasini ilgari surgan. Bundan tashqari, Samarqand jadidchiligi o'z faoliyatini nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy va xalqaro kontekstda ham olib bordi. Turkiston jadidchiligi bilan o'zaro aloqalar, tajriba almashish va umumiy ma'rifiy tadbirlar ularning ijtimoiy ta'sirini kuchaytirdi.

"Oyina" gazetasi orqali jadidlar nafaqat ma'rifiy, balki pedagogik kontentni ham targ'ib qildilar. Ular o'quvchilar va yoshlar uchun maxsus maqolalar, o'yinlar va savol-javob rubrikalarini yaratib, o'quv jarayonini qiziqarli qilishga harakat

qilganlar. Shu tarzda matbuot ularning “maktabdan tashqaridagi ta’lim” konsepsiyasini rivojlantirish vositasi bo’ldi. “Oyina” gazetasi va boshqa nashrlar nafaqat axborot vositasi, balki pedagogik va propagandaviy platforma sifatida ham ishlatilgan. Gazetada chop etilgan maqolalar, hikoyalar va ijtimoiy tahlillar yoshlar va keng jamoatchilikni bilim olishga, adolat va milliy birlikka undagan.

Shu tariqa, matbuot orqali Samarqand jadidchiligi jamiyatda ma’naviy uyg’onishni tezlashtirdi. Jadidlar tomonidan sahnalashtirilgan dramalarda jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, yoshlar tarbiyasi, xotin-qizlar huquqlari kabi mavzular yoritilgan. Mahmudxo’ja Behbudiy dramaturgiyasi shaxs va jamiyat, ta’lim va jaholat, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg’unlashtirishga xizmat qilgan. Shu tarzda, teatr ham ma’rifiy va pedagogik vosita sifatida faol ishlatilgan. “Oyina” gazetasi va boshqa nashrlar orqali Behbudiy va Samarqand jadidchiligi ijtimoiy masalalarni keng jamoatchilikka yetkazish imkoniga ega bo’ldi. Gazetada chop etilgan maqolalar, hikoyalar va intervyular nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham ilm-fan va ma’rifatga qiziqishni oshirdi. Ayniqsa, qadriyatlar, milliy birlik, adolat va islohotlar mavzulari muntazam ravishda yoritildi.

Behbudiyning pedagogik yondashuvi o’sha davr uchun inqilobiy bo’lib, u o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, amaliy mashg’ulotlar va fanlarni hayot bilan bog’lashni targ’ib qilgan. Masalan, geografiya darslarida faqat xaritalar bilan ishlash bilan cheklanmay, o’quvchilarga hududning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tushuntirish yo’lini qo’llagan. Shuningdek, u o’quvchilarda tanqidiy fikrlash va savol berish madaniyatini shakllantirishga katta e’tibor bergan.

Natijalardan ko’rinib turibdiki, Samarqand jadidchiligi milliy uyg’onish, yoshlar tarbiyasi va ilm-fan rivojida sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Bu faoliyat nafaqat hududiy, balki mintaqaviy miqyosda ham jadidchilik harakatining rivojlanishiga xizmat qilgan. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning shogirdlari yaratgan pedagogik, matbuot va teatr tizimi keyinchalik boshqa Turkiston shaharlarida ham nusxa ko’rinishida tatbiq etilgan. Samarqand jadidchiligi milliy uyg’onish jarayonida markaziy rol o’ynadi. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning shogirdlari maktab- maorif, matbuot va teatr orqali jamiyatda yangi fikr va qarashlarni targ’ib qildilar. Ushbu faoliyat yoshlar tarbiyasi va milliy ongni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo’ldi. Samarqand jadidchiligi boshqa Turkiston shahar jadidchiligi bilan integratsiyalashgan holda, mintaqaviy ma’rifiy kompaniyalarda ham faol qatnashdi. Bu esa ularning hududiy emas, balki mintaqaviy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi.

Mahmudxo’ja Behbudiy va Samarqand jadidchiligi Turkiston ma’rifatparvarlik harakatining asosiy yo’nalishlarida faol qatnashgan. Ularning pedagogik, matbuot va teatr orqali amalga oshirilgan faoliyati milliy uyg’onish jarayonini tezlashtirdi. Samarqand jadidchiligi o’ziga xos yondashuvi va hududiy integratsiyasi bilan Turkiston jadidchiligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shdi.

Samarqand jadidchiligi, xususan, Mahmudxo’ja Behbudiy va uning hamkasblari, Turkiston ma’rifatparvarlik harakatida markaziy rol o’ynadi. Ularning faoliyati uch asosiy yo’nalishda namoyon bo’ldi:

- maktab va ta’lim: eski madrasalarni yangilash, dunyoviy fanlarni o’qitish va o’quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali milliy ong va yoshlar tarbiyasini shakllantirish;

- matbuot: “Oyina” va boshqa gazetalar orqali ma’rifiy g’oyalarni ommaga yetkazish, jamiyatni ma’naviy va ijtimoiy masalalar bo’yicha xabardor qilish;
- teatr: dramatik asarlar orqali axloqiy, ijtimoiy va pedagogik mavzularni keng jamoatchilikka yetkazish.

Samarqand jadidchiligining o’ziga xosligi shundaki, u diniy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni va pedagogik yondashuvlarni tatbiq etgan. Bu yondashuv boshqa Turkiston shahar jadidchiligi bilan integratsiyalashib, mintaqaviy ta’sir ko’rsatdi. Natijada, Samarqand jadidchiligi milliy uyg’onish, ilm- fan va madaniyat rivojida muhim rol o’ynagan, va bu faoliyat nafaqat hududiy, balki Turkiston miqyosida ma’rifiy harakatning mustahkam poydevorini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mahmudxo’ja Behbudiy. “Maktab haqida” maqolasi. — Oyina, 1913.
2. Behbudiy M. Risolalar to’plami. — Samarqand, 1914.
3. “Oyina” gazetasi arxiv sonlari. — Samarqand, 1913–1915.
4. Karimov B. Jadidchilik va matbuot tarixi. - Toshkent, 1999.
5. Rahimov A. O’zbek teatr tarixi. - Toshkent, 1982.
6. Behbudiy M. Pedagogik risolalar to’plami. - Samarqand, 1912.
7. “Oyina” gazetasidagi pedagogik rubrikalar. - 1913–1915.
8. Behbudiy M. Padarkush dramasi, sahnaga qo’yilish tarixi. - Samarqand, 1911.
9. Rajabov S. Jadidchilik va Turkiston integratsiyasi. - Toshkent, 2005.

OKKAZIONAL BIRLIKLAR-MAHMUDXO’JA BEHBUDIY INDIVIDUAL USLUBINING O’ZIGA XOSLIGI SIFATIDA

*Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi
Farg’ona davlat universiteti o’qituvchisi,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqolada okkazional birliklar milliy uyg’onish davri – XIX asrning ikkinchi ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Mahmudxo’ja Behbudiy uslubining shakllantiruvchi vositasi sifatida tahlilga tortilgan.

Abstract: The article analyzes occasional units as a formative tool of the style of Mahmudkhodja Behbudi, who lived and worked in the period of national revival - the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century.

Kalit so’zlar: muallif ixtirosi, okkazional birliklar, milliy uyg’onish davri, okkazionalizm, tarbiyaxona, otash aroba, mufattish ilmiyasi.

Jahon tilshunosligida muallif ixtirosi – okkazional birliklarning xususiyatlarini tadqiq etish, ularning asar badiiyatini ta’minlashdagi rolini tahlil etish, milliy uyg’onish davri – XIX asrning ikkinchi ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid asarlarda qo’llangan okkazional birliklarni tizimli asoslash, tarixiy manbalarining mazmuni va ahamiyatini kelajak avlodga yetkazish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til va nutq hodisalarining tarixiy tadrijini sinxron va diaxron aspektda uyg’un tahlil qilish, tillarning tarixiy manbalarini zamonaviy tillar

bilan qiyoslash asnosida til tarixiga oid sinergetik qonuniyatlarni aniqlash dunyo tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni amaliy hal etish tarixiy manbalarning, jumladan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uygʻonish davri yozma manbalari tilining tahlilida yangi ilmiy yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Oʻzbek tilshunosligida milliy uygʻonish davri deya atalmish muhim bir tarixiy davr yozma manbalari tili bilan bogʻliq tadqiqotlar yaratilgan, bu davr tilining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Milliy uygʻonish davri oʻzbek xalqi tarixida muhim oʻrin egallaydi. Zero, bu davrda, avvalo, milliy ozodlik, maʼnaviyat, maʼrifat uchun buyuk otabobolarimiz tomonidan sabr, matonat, kuchli iroda, birdamlik ila kurash olib borildi. Oʻchmas zarvaraqlarga nomlari yozilgan Muqimiy, Furqat, Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon kabi fidoyilarimiz amalga oshirgan ezgu ishlarni oʻrganish, asarlarini tadqiq etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, gʻoyat ogʻir sharoitda ilm-maʼrifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat gʻoyalarini dadil koʻtarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur oʻrganishimiz lozim. Ularning ulugʻ maqsadlar yoʻlidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi Oʻzbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi boʻlib xizmat qilishi zarur” ligi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti ijodkorlarining bebaho maʼnaviy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganishga asos boʻlmoqda. Oʻzbek tilshunosligida milliy uygʻonish davri asarlari yuzasidan salmoqli ilmiy manbalar yaratilganiga qaramay, bu davr yozma manbalari tilida qoʻllangan okkazonal birliklar monografik yoʻnalishda maxsus oʻrganilmagan. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ijod qilgan yozuvchi-shoiralarimiz asarlarini oʻrganish oʻzbek xalqining milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, milliy uygʻonish davridagi olamning lisoniy manzarasi haqida toʻlaqonli tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Tilshunoslikda shunday birliklar borki, ular hamisha yangiligi, oʻziga xosligi, gʻayritabiiyligi bilan ajralib turadi, belgilangan qonuniyatlarga boʻysunmaydi. Bunday birliklar tilshunoslikda **okkazonal birliklar** nomi bilan yuritiladi. “Okkazonalizm [lot. Occasionalis – *tasodifiy*] tlsh. Umumisteʼmolga muvofiq, toʻgʻri kelmaydigan, individual tarzda maʼnoga ega boʻlgan til birligi”[2]. A.Hojiyev “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da okkazonalizm hodisasini **individual-uslubiy neologizm** atamasi bilan nomlaydi: “Mahsuldor boʻlmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning oʻzida qoʻllangan soʻz, *individual-uslubiy neologizm*”[3].

Milliy uygʻonish davri adabiyoti vakillari rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlarni ishlatar ekanlar, baʼzan bu soʻzlarga muqobil soʻzni ishlatmalar, baʼzan ularni fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllaydilar. Shuningdek, qavs ichida yoki tire bilan, baʼzan *yaʼni* soʻzi bilan uning qaysi soʻz maʼnosida qoʻllanganini koʻrsatib oʻtadilar.

Behbudiy *pansionat* soʻzini **tarbiyatxona** soʻzi orqali ifodalaydi: *Bolalar*

uchun **tarbiyatxona** (pansiyon) ochmoq kerak (Behbudiy, “A’molimiz yoinki murodimiz”).

Kech otash arobag’a o’lturdim (Behbudiy, “Qasdi safar”).

Ko’z oldidagi madaniyat asari bo’lgan shahar va otash arobadan ibrat olmaydurlar (Behbudiy, “Qasdi safar”).

Otasharoba so’zi qo’shma so’z, ya’ni otash+aroba so’zlarining qo’shilishidan hosil bo’lgan. Yuqoridagi misolda u “poezd” ma’nosida qo’llangan. Keyinchalik o’zbek tilining izohli lug’atiga ham kiritilgan. Otasharava [otash+arava] s.t. esk. Parovoz, poyezd. (O’TIL, III, 153)

Yaxudylarni hozirgi dorulfunun maktablari va idorai baladiyalari turklar nazoratidan ozod, na unga turk inspektor – mufattish ilmiyasi va na po’lisi qaraydur (Behbudiy “Qasdi safar”).

Dastlab ajratib ko’rsatilgan so’zning lug’atdagi ma’nosini ko’rib chiqamiz.

Mufattish [nozir, nazoratchi] Taftish qiluvchi. O’zi bo’ri bo’lsa ham, qo’y terisini yopinib olgan Marg’ilon moliya mufattishi. “Mushtum” (O’TIL, II, 655).

Ijodkor “mufattish ilmiyasi” atamasini **inspektor boshqarmasi** ma’nosida qo’llagan.

Behbudiy asarlarida “kachalka” so’zini **dengiz kursisi** deya nomlaydi: *Loiloj, xuftong’a turolmay, uch-darajaning anborig’a tushub, janobi hoji Baqo bergon amonat dengiz kursisi (kachalka) ustig’a uzandim* (Behbudiy).

Okkazional so’zlar nutq ichida, ma’lum matn doirasida reallashadi. Ijodkorning maqsadini ana shu doira ichidan aniqlab olish mumkin. Ularni yaratish, avvalo, muallif mahoratiga bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilga mo‘ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Manba: <https://review.uz> (murojaat sanasi: 28.02.2023).
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: 2005. – Б.103.
3. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: 1985. – Б.74.

TOSHKENTDA JADID MATBUOTI FAOLIYATI VA MUAMMOLAR

Tangirov Obid Eshmaxmatovich,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA
kafedrasi t.f. PhD., dotsent

Jabborova Oydin Olimjon qizi,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkentda jadid matbuotining shakllanishi va uning o’lka ijtimoiy hayotidagi ahamiyati, davriy matbuot shakllanishida Toshkentlik jadidlar faoliyati haqida ilmiy va tahliliy mulohazalar

yuritiladi.

Kalit soʻzlar: gazeta, jadid, jurnal, maqola, milliy, tahririyat, Toshkent.

Abstract: This article examines the emergence of the Jadid press in Tashkent and its significance in social life. It highlights the role of the Jadids in the formation of periodical publications and provides a scholarly and analytical discussion of their contributions to the development of printed media.

Keywords: newspaper, jadid, journal, article, national, editorial board, Tashkent.

Turkistonda matbuot va ommaviy axborot vositalarining shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Bu jarayon Rossiya imperiyasining Turkistonni mustamlakalashtirish siyosati, mahalliy ziyolilar harakatining faollashuvi natijasida vujudga kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda gazeta va bosma nashrlar paydo boʻla boshladi. Ular dastlab Rossiya imperiyasining siyosiy manfaatlarini himoya qilish va Turkiston aholisini nazorat ostida ushlab turish vositasi sifatida xizmat qilgan boʻlsa-da, keyinchalik mahalliy ziyolilar tomonidan milliy maʼrifatni targʻib qilish, xalqni zamonaviy dunyoqarash bilan tanishtirish va milliy uygʻonishni ragʻbatlantirish uchun faol qoʻllanildi. Matbuot mintaqaning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Dastlabki bosma nashrlar orqali mahalliy aholi Rossiya siyosati, xalqaro voqealar va jamiyatdagi muhim masalalar, mahalliy eʼlonlar haqida maʼlumot olish imkoniyatiga ega boʻldi. Shu bilan birga, matbuot orqali maʼrifiy va milliy gʻoyalar keng yoyildi.

XX asr Turkistonda ziyoli qatlam orasida Turkiya, Eron, Misr va Yevropa davlatlarida nashr etilgan gazeta va jurnallar keng tarqalgan boʻlib, bunga bir tarafdin Rossiya hukumati tarafidan joriy qilingan pochta tizimi imkoniyat bergan boʻlsa, boshqa tarafdin savdogarlar va hajdan qaytayotganlarning oʻzlari borgan mamlakatlardan olib kelgan nashrlari sabab boʻlganini kuzatish mumkin. Shu bilan birgalikda gazeta Turkistonda yashab turgan rus aholiga oʻlka haqida maʼlumotlar hamda kunlik ijtimoiy, madaniy yangiliklar berib borilgan. Mazkur gazeta birinchi davrda 100 nusxa, 1909-yilda 853 nusxadan iborat boʻlgan [N.Abduazizova, 2000: 6-b]. Turkistonda birinchi oʻzbek tilida nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi” “Turkestanskiy vedomosti”ga ilova tarzida 1870-1883-yillarda chiqarilgan. Gazeta 1883-yildan alohida gazeta sifatida 500 nusxada chop etilib boshlanadi. “Turkiston viloyatining gazetasi” muharriri N.Ostroumov gazetasining oʻquvchilari kamligini, milliy tildagi ilk gazeta boʻlganligini va mahalliy aholi uchun gazetani pulga sotib olib oʻqish yangilik boʻlganligini izohlaydi [OʻzRMDA, 39-45-betlar]. Gazetaga Choʻlpon quyidagicha taʼrif beradi: “Gazetasining shiori, plani yoʻq edi, faqat bosh sarlavhaning ostiga: “Haftaga ikki marta sartiya (sart) zabonida bosiladi” deya yozilar edi [N.Abduazizova, 2000:39-b]. Gazetada Furqat va Sattorxon kabi oʻzbek ziyolilarining maqolalari, sheʼrlari hamda Yevropa va Rossiyaga sayohat qilib kelgan oʻzbek savdogarlarining sayohatnoma va xotiralari nashr qilib borilgan. Sattorxon “Turkiston viloyati gazetasi”da chop etilgan bir maqolasida shunday deb yozadi: “Biz rus xalqi yordamida Oʻvrupa xalqlari bilan aloqa oʻrnatishimiz

mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz [“Turkiston viloyati gazetasi”. 1890:may, 10-son]. Gazetaning 47 yillik faoliyatidan kelib chiqib aytolamizki, mazkur gazetada chop etilgan Bu gazeta jadidlar va mahalliy ziyolilarning bosma matbuotga qiziqishini kuchaytirgan va keyinchalik milliy matbuotning shakllanishiga olib kelgan. Mustamlaka sharoitida Rossiya hukumatining matbuotni nazorat qilishga bo‘lgan urinishi matbuot rivojlanishidagi ilk to‘siqlardan biri bo‘lgan.

Jadidlar Turkistonga Rossiya istilosi tufayli kirib kelgan matbuotdan ham samarali foydalanishga harakat qildi. Ular milliy matbuotni mahalliy aholini ma‘rifatli qilish va milliy ongini shakllantirish vositasi deb bilgan. Jadid harakati faollaridan bo‘lgan Toshkentlik ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy 1905-yilda Rusyada boshlangan inqilob jadidlar harakatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani va “millat oydinlari”ning siyosiy maqsadlarini inobatga olgan holda, dastlab, xalqni ma‘rifatli qilish hamda jadidlarning maqsadlarini anglatish uchun o‘zbek tilida gazetalar chiqarilganini tilga oladi.

“Taraqqiy”ning davomchisi o‘laroq “Xurshid” gazetasi maydonga keladi. 1906-yil 6-sentyabrda Munavvarqori boshchiligida bir guruh jadidlar “Xurshid” gazetasini nashr qila boshlashdi va gazetaning 10-soni chiqqanidan keyin hukumat tarafidan taqiqlandi. “Xurshid” gazetasining “Taraqqiy”dan farqli jihati sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Munavvarqori o‘z maqolalarida, asosan, Rossiya va boshqa davlatlarda bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan. Ismoil Gaspirinskiy “Xurshid”ni “sof milliy gazeta” deb tilga oladi. “Xurshid” gazetasi o‘z “tili” bilan boshqa gazetalaridan ajralib turgan. Gazeta maqolalarida mahalliy sart va qozoq tillaridan xoli sof turkiy tilda yozishga harakat qilingan. Gazeta “aksilinqilobiy yo‘nalishdagi gazeta” deb topiladi va foliyati to‘xtatiladi. O‘nta soni dunyo yuzini ko‘rishga muvaffaq bo‘lgan “Xurshid” gazetasi tahririyatida tatarlar ham ishtirok etgan bo‘lib, Chor Rossiyasi hukumati tatarlar aholiga inqilobiy ta‘sir o‘tkazishlaridan qo‘rqishgan. “Xurshid”dan keyin tashkil etilgan “Shuhrat” gazetasi intihosi sababini Abdulla Avloniy quyidagicha izohlaydi: “Gazetaning to‘xtalishiga sabab: gazeta xodimlarining orqasig‘a juda ko‘p ayg‘oqchilar qo‘yilishi sezilgandan keyin Rafiq Sobir turli yo‘llar bilan bu yerdan qochirildi. Bu kishi Orenburgda hukumat qo‘liga tushib, harbiy sud tomonidan o‘limga hukm etildi. Bu kishiga Toshkentdagi qo‘mitaning sirini ochib bersa, o‘lim jazosidan qutilishini bildirilg‘ondan keyin, vijdonig‘a xiyonat qilib, Toshkent temir yo‘l qo‘mitasining sirini ochib berib, qancha kishining yostig‘ini quritishiga va bir qancha kishilarning Sibirga haydalinishiga sabab bo‘ldi. Shuhrat gazetasi 15-sonini to‘ldirilg‘onda, bor narsasi hukumat tomonidan musodara qilinib, o‘zi to‘xtatildi [Abdulla Avloniy, 1924].

“Shuhrat” va “Osiyo” gazetolari nashri to‘xtatilgandan keyin 1908-yil toshkentlik savdogar Saidkarimboy Saidazimov muharrirligida “Tujjor” gazetasi o‘z faoliyatini boshlaydi. G‘oyaviy jihatdan “Xurshid” va “Taraqqiy” gazetolari yo‘lidan borib milliy, siyosiy mazmundagi maqolalarni chop etadi. Muharrir gazeta ilk sonida quyidagilarni bayon qiladi: “O‘tgan yil Ismoil Obidiy, Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li “Taraqqiy” va “Xurshid” gazetalarini nashr etsalar ham hukumat hazorag‘a muxolif o‘g‘lonlari sababli gazetolari to‘xtatildi. Turkiston

musulmonlari binadin matbuotsiz go‘yo tilsiz, quloqsiz qoldilar, man emas ko‘p zamonlardan beri suyaklik millatimga xolis bir xizmat etmak orzusida edim. Lekin na yo‘l ila yaxshiroq xizmat etmak bo‘lurmukin deb fikr va andisha qilmoqda edim. Emdi bildimki, Turkiston musulmonlari hech bir narsag‘a o‘z tillarida yozilmish bir gazeta kabi muhtoj emas ekanlar” [“Tujjor” gazetasi, 1907]. Gazeta to‘rt oy faoliyat yuritib, 36 ta sonini nashr qilgan xolos. 1908-yil may oyida “Tujjor”ning yopilishi bilan Turkistonda jadid matbuoti vaqtincha to‘xtatildi. “Taraqqiy”dan keyin o‘zbek, rus va fors tillarida nashr qilingan “Samarqand” gazetasi chiqa boshlaydi. So‘ngra “Oyina” jurnali, “Sadoyi Turkiston” gazetalari chop etiladi. Fevral inqilobidan so‘ng “Najot”, “Sho‘roi Islom”, “Turon” va “Hurriyat” kabi gazeta nashrlari yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa qilib, tarixga nazarga tashlaydigan bo‘lsak jadidlar tarafidan chop etlgan gazeta va jurnallar millatning uyg‘onishiga olib keldi. Jadidlarning matbuotda nashr qilingan barcha maqola va badiiy asarlar (she‘r, sahna asarlari, hikoyalar) xalqchil tilda yozildi. Matbuotning ahamiyati xususida Cho‘lpon quyidagi fikrlarini “Turkistonda matbuot” maqolasida keltirib o‘tadi: “Eski vaqtlarda: “Matbuot yettinchi davlatdir”, der edilar. Bu so‘z, bu davo endi-da ahamiyatini yitirmabdir. Bu kunda-da matbuotning ahamiyati kattadir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir” [T. Tog‘ayev, 1998].

Bundan kelib chiqadiki, matbuotda millatni jaholatdan qutqarish va Turkistonni taraqqiy ettirish masalalari diqqat markazida bo‘lgan. Jadid matbuoti qanchalar qattiq siquvga olingani hamda murakkab vaziyatga qaramasdan o‘z faoliyatlarini davom ettirgani o‘zbek matbuotining shiddat bilan shakllanishi va jadidchilikning siyosiy faoliyatga aylanishiga olib keldi. Qattiq siquvga olingan jadid matbuoti “Taraqqiy”dan so‘ng birmuncha vaqt gazeta va maqolalar chop etish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Matbuot jadidlar uchun nafaqat, axborot yetkazish vositasi, balki, xalqni siyosiy, madaniy jihatdan uyg‘otish, zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirish va mustamlaka sharoitida milliy o‘zlikni saqlash vositasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). –T.: “Akademiya”. 2000. 6-bet.
2. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 28-ro‘yxat, 35-ish, 39-45-betlar.
3. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917).–T.: “Akademiya”. 2000. 39-bet.
4. “Turkiston viloyati gazetasi”. 1890-yil may, 10-son.
5. Tangirov O. Toshkentdagi ilk milliy gazetalar tarixiga doir / Islom tafakkuri. – Toshkent, 2024-yil, 3-son.
6. Abdulla A. Burung‘i o‘zbek matbuoti tarixi // Turkiston, 1924, 295-son.
7. “Tujjor” gazetasi. 1907-yil avgust, 1-son.
8. Cho‘lpon A. Turkistonda matbuot (nashrga tayyorlovchi T.Tog‘ayev). // Jamiyat va boshqaruv. – 1998.

JADIDCHILIK HARAKATIDA ILM-MA'RIFAT G'OYASI VA BEHBUDIYNING O'RNI

Dilfuza Raxmatova

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti assistenti, PhD**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakllangan jadidchilik harakati va uning asosiy g'oyasi – ilm-ma'rifat orqali millatni uyg'otish masalasi yoritilgan. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o'rni, uning ta'lim, matbuot va adabiyot sohalaridagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Behbudi qarashlarida ilm va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning xalqni ma'rifat sari yetaklagan fidoyi ziyoli sifatidagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Mahmudxo'ja Behbudi, ilm, ma'rifat, taraqqiyot, usuli jadid, ta'lim, uyg'onish, milliy ong.

Аннотация: В данной статье рассматривается джадидское движение, сформировавшееся в начале XX века на территории Туркестана, и его основная идея – пробуждение нации через науку и просвещение. В статье анализируется роль Махмудходжи Бехбуди в джадидском движении, а также его деятельность в области образования, прессы и литературы. Кроме того, раскрывается значение науки и просвещения в общественном развитии в воззрениях Бехбуди и его роль как преданного просветителя, ведущего народ к знаниям.

Ключевые слова: джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, наука, просвещение, прогресс, усули джадид, образование, пробуждение, национальное сознание.

Annotation: This article examines the Jadid movement that emerged in the early 20th century in Turkestan and its main idea – awakening the nation through science and enlightenment. The article analyzes Mahmudkhoja Behbudi's role in the Jadid movement and his activities in the fields of education, press, and literature. It also reveals the importance of science and enlightenment in social development according to Behbudi's views and highlights his role as a devoted intellectual who led the people toward knowledge.

Keywords: Jadidism, Mahmudkhoja Behbudi, science, enlightenment, progress, usul-i jadid, education, awakening, national consciousness.

Kishilarning hayot, kun kechirish ehtiyoji qadimgi davrlardanoq bilimni yaratgan edi. Davrlar mobaynida ishlab chiqarish ehtiyoji ilm-ma'rifatning ahamiyatini oshirdi. Hazrat Alisher Navoiy ham shoh asarlar yaratdi va ularda yangi davr g'oyalarini ilgari surdi. Jumladan, ilm-fan, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalasi doim diqqat markazida turdi. Tarixiy va siyosiy voqealar avj olgan davrda yashagan insonparvar shoir kishilarni aql-idrokka, xulq-odobga, ilm-ma'rifatga undaydi. O'z

asar qahramonlarini ilm va fanga intiluvchi, ta'lim-tarbiya olishga ishtiyoqi zo'r, san'at va hunarda mohirlikka erishish uchun qunt qiluvchi, bilimdon, dono, san'atkor va hunar egasi bo'lgan oliyjanob kishilar qilib tasvirlashi bejiz emas edi. Navoiy xalqning bilimli bo'lishini orzu qiladi. Ilm-fanni xalq orasida yoyishga katta ahamiyat beradi. Xalqning hamma vaqt ilm olishga intilishi, ilm-u ma'rifatdan bahramand bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. "Bilim va donolik kishini bezatadi", – deydi. Bilmaganni so'rash ayb emasligi so'ramaslik uyalish, orlanish zarar ekanligini uqtiradi:

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim .

Xalqparvar shoir ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiya xalq uchun, uning manfaati uchun xizmat qilishi darkor, – degan ulug' g'oyani ilgari suradi.

Yuqorida keltirilgan hazrat Navoiy hikmatlarini davom ettirib, jadid adabiyoti vakillaridan biri Munavvarqori ham "Adib-us soniy" darsligida ilm olishga da'vat qiladi. "Ilm-bilmagan narsalarini bilganlardan o'rganmoqdir", – deb insonni ilm olishga, uni ilmlilardan so'rab o'rganishga chaqiradi. Inson tug'ilganida hech narsani bilmasligini, har bir yangi ma'lumotni atrofdagilaridan o'rganishini, bilgan har bir ma'lumot ilmning bir zarrasi ekanligini ta'kidlaydi.

XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuz bergan jadidchilik harakati xalqni uyg'otish, ilm va ma'rifat orqali millatni taraqqiyot sari yetaklash g'oyasini ilgari surgan. Jadid ijodkorlari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy bu g'oyaning eng yirik targ'ibotchilaridan biri sifatida ajralib turadi. U o'z faoliyati, asarlari va ijtimoiy qarashlarida ilm-ma'rifatni inson va jamiyat hayotining bosh mezonini sifatida talqin qilgan.

Behbudiy fikricha, xalqning ozodligi va taraqqiyoti faqat ilm orqali mumkin. Uning "Padarkush" dramasi, "Maktab", "Risolyai asbobi saodat" kabi asarlarida xalqni jaholatdan, nodonlikdan qutqarish yo'li sifatida yangi usuldagi ta'lim tizimi ilgari suriladi. U o'z asarlarida eski usuldagi madrasalarda o'qitilayotgan tor doiradagi diniy bilimlar bilan cheklanmaslik, buning o'rniga dunyoviy fanlarni, matematika, geografiya, tarix, til va adabiyot kabi sohalarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Behbudiy ilmni faqat shaxsiy kamolot emas, balki milliy ong va mustaqillikka eltuvchi kuch deb bilgan. U shunday yozadi: "Millatning najoti – ilmda, taraqqiyotning kaliti – ma'rifatda."

Bu g'oya nafaqat Behbudiy, balki boshqa jadidlar – Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lponlar ijodining ham markazida turadi. Ularning barchasi xalqni uyg'otish, o'zligini anglash va zamonaviy dunyoda munosib o'rin egallash uchun ilm-ma'rifatni asosiy vosita sifatida ko'radi.

Behbudiyning faoliyati o'z davrida katta ma'naviy siljish yasadi. U o'qituvchi, jurnalist, sahnashunos, teatr arbobi sifatida ham xalqni yangi hayot sari yetakladi. Uning "Samarqand", "Oyna" kabi gazetalaridagi maqolalarida ham ilmni qadrlash, o'qishga rag'bat, millatni uyg'otish chaqiriqlari yangraydi. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi – xalqni zamonaviy ta'lim, yangi usuldagi maktablar, dunyoviy bilimlar orqali uyg'otish edi. Jadidlar fikricha, musulmon xalqlari dunyoda orqada qolishining sababi – jaholat, eski ta'lim tizimining sustligi va ma'naviy tanazzul edi. Shuning uchun ular "usuli jadid" – ya'ni yangi usuldagi

o'qitish tizimini yaratdilar, gazeta va jurnallar chiqardilar, sahna asarlari yozdilar.

Bu g'oyaning markazida ilm va ma'rifatga e'tiqod turardi. Mahmudxo'ja Behbudiy ana shu g'oyaning eng faol targ'ibotchilaridan biri bo'ldi. U o'z faoliyatini uch yo'nalishda olib bordi: o'qituvchi, yozuvchi va jamoatchi arbob sifatida. Behbudiy o'z asarlarida xalqni o'qishga, tafakkurga, zamon bilan hamnafas yashashga chorlaydi. Uning "Padarkush" dramasi jaholatning oqibatlarini ochib beradi. . Bunda oila tarbiyasida ota-onalarning o'rni haqida gap boradi. Behbudiyning pedagogik qarashlarida, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birgalikda olib borilishi lozim, aks holda fojialar ro'y beradi, degan g'oyani oldinga suradi. Maktab har qancha to'g'ri yo'l qo'rsatsa-yu, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi, degan fikr-mulohazalar asardagi obrazlar faoliyatida ifoda etiladi. Umuman, Behbudiyning "Padarkush" dramatik asarining asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil etadi. Chunki Behbudiy xalq ta'limi, yoshlar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga xos yo'l bilan badiiy ifoda etgan. Mazkur asarda ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi g'oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar taiim-tarbiyadagi bosh masala tarzida talqin etiladi.

Behbudiy nafaqat o'z asarlari bilan, balki amaliy faoliyati bilan ham ilm-ma'rifat targ'ibotchisi bo'lgan. U "Samarqand", "Oyna" kabi gazeta va jurnallarni nashr etib, ularning sahifalarida xalqni o'qishga, uyg'onishga, zamonaviy dunyoqarashga da'vat etgan. Shuningdek, u teatr san'atini ham xalqni tarbiyalash vositasi sifatida ko'rgan. "Padarkush"ning sahnalashtirilishi Turkiston madaniyat hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ana shu harakatning yuragi, ma'naviy rahnamosi bo'ldi. U o'z hayotini ilm va ma'rifat targ'ibiga bag'ishladi, bu yo'lda kurashdi va hatto o'z jonini ham fido qildi. Behbudiy merosi bizga shuni o'rgatadiki: ilm – insonning quroli, ma'rifat – millatning najoti, tafakkur esa taraqqiyot yo'lining mezonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Behbudiy Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi. – Samarqand: Jadid matbaasi, 1913, B.32
2. M.Behbudiy Risolai asbobi saodat. – Samarqand: Jadid matbaasi, 1914, B. 40.
3. M.Qodirov Jadidchilik harakati va uning ma'rifatparvarlik g'oyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015, B. 210.
3. B. To'xliyev O'zbek adabiyoti tarixi (XX asr boshlaridagi adabiyot). – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012, 320 bet.
4. A.Rajabov Mahmudxo'ja Behbudiy va jadidchilik harakati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2008, B. 145.
5. A.Salohiddinov Jadidlar merosi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2019, B. 198.
6. Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1997, 5-6-betlar.
7. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. Sharq yulduzi, 1989, 7-son, 112-bet.
8. Sh.Turdiyev. Mahmudxo'ja Behbudiy. Fan va turmush, 1989, 1-son.

**ISMOIL GASPIRALI, BEHBUDIY VA
AMIR ABDULAHAD**

Qorayev Sherxon Po'latxonovich
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion
universiteti dotsenti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD),
sherxonqorayev@gmail.com

Abstract: This scientific article is devoted to the history of Ismailbek Gaspirinsky's journey to Turkestan, particularly to the Bukhara Emirate, the meeting with the khan, and the history of the court literature and literary evenings of the poet of rulers Amir Abdulahad Khan. Jadidism leaders Ismail Gaspirinsky and Mahmudkhodja Behbudi tried to open Jadidism schools in the Bukhara emirate and educate the Bukhara people. The conversations between the two great Jadids were also devoted to the development of science, enlightenment and education in Bukhara. Through the efforts of the great Jadids, a number of Jadidism schools were opened in the emirate and in the Turkestan region.

Key words: Court poets, literary environment, tazkiras, sahibdevan poet, mushaira.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelib, jadidchilik nomini olgan ma'rifatparvarlik harakati bevosita Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bog'liq. Matbuot, adabiyot va teatr, yangi usuldagi jadid maktablarining Turkistonda ochilishi va rivojlanishida Ismoilbek Gaspiralinining xizmatlari katta. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudi yozganidek, "Musulmonlarni dunyodan xabardor qilmoq uchun butun Rusiyada, Turkiya, Misr, Tunis, Jazoir, Hind va Afriqoda, Turkiston va Buxoroda daf'alar ila sayohat etib, har yerda musulmonlarni madaniyati zamoniyag'a, ulum va fununi asriyag'a, sanoat va tijorati qarinag'a va rus madaniyatig'a da'vat va tashviq etgandurlar. Usuli savtiya maktablarini Rusiyada boniysi muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridur [Mahmudxo'ja Behbudi, 1999:81]". Mahmudxo'ja Behbudi Ismoilbek Gaspiralinini g'oyatda hurmat qilgan va u bilan uchrashgan va uning ma'rifatchilik ta'limotini o'z o'lkasida targ'ib etgan. Qrim – tatar allomasi Ismoil Gaspirali va u bosh muharrir bo'lgan "Tarjumon" gazetasi Behbudiyni buyuk ma'rifatparvar va Turkiston milliy jadidchilik harakatining otasi darajasiga ko'tardi. Behbudi Istanbulning Gulxona bog'ida ustoz bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan va bu haqda uning o'zi "Oyina" jurnali (1914 yilning 49-sonidagi nashri)da shunday yozgan: "Istanbulning "Gulxona parki"ning soyador yo'lakinda yurar eduk. Oldimizda, tatarcha barra qorako'li telpaklik bir tatar ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi... Ko'nglumg'a keldiki, bu tatar Ismoilbekg'a o'xshaydur... Hanuz o'n qadam ketmab, eduk, "Oy, Xoja", deb orqamdan oshno bir sado eshittim. Qalbim urub mazkur zotni Ismoilbek hazratlari ekanligig'a shubham qolmadi. Qaytib musofaha etduk... Muloqot asnosinda derdilar: "Na uchun bu qadar tez qo'chalanmoq?", ya'ni na uchun buncha tez mo'ysafid bo'lmoq. Man ham bilaixtiyor: "Afandim na uchun bu qadar oriqlamoq?" Ustoz hazratlari buyurdilar: "Nachora, hep(grip)imiz bo'yla".

Ertag'a Shom va Misrg'a azimat etishimni arz etdim. Unday bo'lsa, suhbat etayluk, dedilar. Tashakkur aytdim[Mahmudxo'ja Behbudi, 1999:81]". Ma'lumotlarga qaraganda, Ismoilbek Gaspirali muloqot davomida Turkiston va Buxorodagi jadid maktablari, maorif, ma'rifat, noshirlik ishlari bilan qiziqqan. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnalida yozilishicha, "Hujrada manga Rusiyadan, Turkistondan, umum olami islomdan, dunyodan so'ylaydurlar. Musulmonlarni kundan kun taraqqiy etishini so'ylab xursand bo'lurlar. Yana derlarki:"Mahmudxo'ja, endi siz so'ylang, boqalim".

Samarqand, Buxoro, Toshkand, Xiva, Farg'ona xulosa har biridan so'ylayman. "Allohg'a shukr, hukumat maktablarina-da turkistonli qardoshlar bola bermoqg'a boshlamishlar. Bukun 2 jarida va bir majallangiz vor. Maktablaringiz- da bir oz taraqqiyda, albatta mustaid taraqqiyciz hukumat maktablarina-da ziyodaroq bola beringiz, rus madaniyatidan qochmangiz... Oh bilmam shu Buxoro na o'lur?" derlar.

Man derman: "Afandim, Buxoroni hukumatimiz, ya'ni Rusiya tarbiyat etmaguncha, Buxorodan bir shay umid bo'lmas..."

Ustod hazratlarini Istanbulda ko'rmoq va suhbat etmoq hech xayolimg'a o'tmagan edi. Allohning lutfi ila ustod hazratlarining tanhoyi 7 soat suhbatlaridan u qadar fayz topib mamnun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman[Mahmudxo'ja Behbudi, 1999:82]". Binobarin, Behbudi dunyoqarashining shakllanishida Ismoil Gaspirali suhbatlari hamda "Tarjumon" gazetasining ta'siri ham katta bo'lgan.

Buxoroda jadid maktablari ochishni rejalashtirgan Ismoilbek Gaspirali amir Abdulahadxon huzurida ham bir necha marta bo'lib, 1893 yilda hukmdor bilan davlat taraqqiyotida "usuli jadid" maktablarining ahamiyati haqida suhbatlashgan. Gaspiralinig "Turkiston sayohatlari" asarida yozilishicha, "Bu safargi suhbatimizda hazrat davlatli Abdulahadxon Rusiyaga qilgan sayohatlarim borasida so'z ochdilar, ko'rgan va eshitganlarimdan so'ylarkanman, ko'p xursand va mamnun bo'lganlarini lutfan bayon ayladilar. Xususan, o'zlarining Peterburgda o'tkazgan kunlari hech yoddan chiqmasligini, hayojonli tuyg'ularga to'la ekanligini ifoda etdilar [Ismoilbek Gaspirinskiy, 2006:320]". Uchrashuv davomida Buxoro amiri jadidlar rahnamosini III darajali "Oltin yulduz ordeni" bilan taqdirlagan. O'z navbatida, Buxoro hukmdori ham Qrimga borib, Ismoilbek Gaspirali bilan ko'rishgan. Bu haqda "Turkiston sayohatlari"da shunday yoziladi: "Shu yilning fevral oyida nuroniy amir Abdulahad hazratlarining Bog'chasaroyga tashrif buyurib, men ojizlarga lutf ko'rsatganlari iltifoti shohonalari necha yillardan beri ko'ngulda kuyub-kullanib turgan otashni ochiq olovlantirib yubordi va bir oz tadorikdan so'ngra, 10 mayda Bog'chasaroydan chiqib, Turkistonga yo'l tutdim [Ismoilbek Gaspirinskiy, 2006:320]". Ismoilbek 1908 yilda Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligiga ikkinchi marta keladi. Safar tafsiloti "Buxoroda na ko'rdim?" sarlavha ostida "Tarjimon" gazetasida bosilgan. Adabiyotshunos Begali Qosimovga ko'ra, "Buxorodagi no'g'oylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, "Jamiyati xayriyalari"ga faxriy a'zo qiladilar. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga "Ismoiliya" deb atamoqchi ekanliklarini aytadilar. Ismoilbek unamaydi. Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga "Muzaffariya" deb nomlashni maslahat beradi [Begali Qosimov, 2004:50]". Binobarin, Zaynobiddin Abdirashidov iborasi bilan aytganda,

“bu bilan u Buxoro amiri Abdulahadxonning yana bir bor maktablar islohoti muammosiga nazarini qaratmoqchi bo‘lgan. Lekin bu ham amirga ta’sir ko‘rsata olmagan.

Lekin, mutaassib ulamolari jadid maktablariga qarshilik bildirganlar. Natijada maktab yopilgan. No‘g‘oy maktabidan 40 ta buxorolik bola chiqarib olingan. Gaspiralinig “Tarjimon” gazetasi esa bu voqealarni batafsil yoritgan. Maktab yopilishi bilan Buxoro jadidchilari mag‘lub bo‘lgan. Hukumat odamlardan yangi usul maktablarida bola o‘qitmaslik haqida tilxat olgan. Buxoroda “jadid” nomi dinsizlik bilan bog‘langan. Shunga qaramay, Buxoro jadidlari ishlarida davom etganlar. Bir necha yildan so‘ng Abdubaxil Burhonov, Usmon Xo‘jaev, Mukomil Burhonovlar tomonidan yana yangi usul jadid maktablari ochilgan [Zaynobiddin Abdirashidov, 2011:105]”.

Jadidlar rahnamosi Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri Abdulahadxon ijodi bilan ham yaxshi tanish bo‘lgan. Buxoro amiri bilan soatlab suhbatlashgan va uni jadid maktablarini qo‘llab – quvvatlashga da’vat etgan. Ismoilbek amirning Karmana va Shahrisabz saroylaridagi adabiy bazmlarida ishtirok etib, hukmdorlar shoiri she’rlarini mutolaa qilgan.

Amir Sayyid Abdulahad fiqh, mantiq, falsafa ilmlarini o‘z zamonining yetuk ustozlaridan o‘rganib, adabiyot sohasida ham chuqur bilimga ega bo‘lgan. Uning saroyi fozillar, shoirlar, yozuvchilar bilan doim to‘la edi [Mansur Olimiy, 2004:68]”. Muhammad Ali Baljuvoni “Tarixi nofeiy” asarida hukmdor shoirni “Cultoni zamon, shoiri ofoq va davron, bulbuli bo‘ston [Muhammad Ali Baljuvoni: 2001: 44]” deb atagan. Amir Abdulahadxon juda o‘qimishli va ziyoli kishi bo‘lgan. O‘zbek tilidan tashqari, fors va rus tilini tilini mukammal bilgan. Farang tilida ham gapira olgan. Arab tilida Qur’onni yaxshi o‘qigan. Amir Abdulahadxonning madaniyatli, ma’rifatli va odil amir bo‘lganligi Sadriddin Ayniynig “Esdaliklar” kitobida va Afzal Pirmastiynig “Tazkirat ush-shuaro” asarlarida ham yoritilgan [Muhammad Ali Baljuvoni, 2001:110]. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”da yozilishicha, “Buxoro adabiy muhitida an’anaviy ikki tillilik bu davrda ham davom etdi. Amir Abdulahadxon (1859-1910) siyosiy hayotninggina emas, adabiy hayotning ham eng e’tiborli vakili edi. Ayniqsa bu uning amirlik davri (1885-1910)da yaqqol namoyon bo‘ldi... Sohibdevon hukmdor shoirning adabiyotga yaqinligi shu darajada ediki, ayrim tuman hokimlari, masalan, Hisor hokimi Avliyoqulibek “Husayniy” taxallusi bilan devon tartib qilgan edi. Boshqa hokimlar ham amirga yaxshi ko‘rinish uchun ham she’rlar yozishgan[BegaliQosimov, 2004:14]”.

Abdulahadxon ham “Ojiz” taxallusi bilan forsha-tojikcha hamda o‘zbekcha she’rlar bitgan bo‘lib, o‘z she’rlaridan devon tuzgan. Abdulahadxon Qo‘qon xoni Umarxon Amiriynig qator g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan [Po‘latjon Qayyumiy, 1999:460]. Amir Abdulahadxon hayoti davomida doim ziyoli, ilm – fan namoyandalarini atrofiga to‘plagan. Shuhrat Xalilovning yozishicha, Afzal Pirmasti, Mullo Sharif Anbar, Mirza Shamsiddin Doyi, Muhammad Aminxo‘ja Eshon kabi ko‘plab shoirlar amir homiyligida irod qilgan.

Amir ham Ismoilbek Gaspirali kabi sayohat qilishni xush ko‘rgan. Buxoro hukmdori “Abdulahadxonning Rossiyaga navbatdagi safari 1892 yil dekabrda

boshlangan bo‘lib, bunda u o‘g‘li Mir Sayyid Olimxonni Peterburgdagi harbiy oliy maktabga o‘qishga joylashtirish maqsadida borgan va o‘zining 1892 yil dekabr – 1893 yil fevral oylari davomidagi safari tafsilotlarini kundalik tarzida yozib borgan. Ushbu kundalik Ismoilbek Gaspirali tomonidan 1894 yilda Qozonda “Buxoro amiri hazratlarining kundaligi” sarlavhasi ostida nashr qilingan.

Muxtasar aytganda, ham Buxoro jadidlari hayotida, ham amir Abdulahadxon ijodida buyuk ma‘rifatparvarlar Ismoil Gaspirali va Mahmudxo‘ja Behbudiyning yaqqol ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida Buxoro amirligida milliy uyg‘onish ma‘rifatparvarlik harakati – jadidchilikni kurtak yozishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. T.: Qo‘lyozmalar instituti, 1999.-B.460-463.
2. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy. T.: Akademiya, 2001.-B.44.
4. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. Buxoro, 2004.-B.68.
5. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: Ma‘naviyat, 2004.-B.14-15.
6. <https://www.bukhara.uz/?p=12632>
7. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ismoilbek-gasprinskiy/ismoilbek-asprali-turkiston-sajo-atlari/>
8. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. Т.: «Академнашр», 2011.-Б.384.
9. Abdirashidov Z. IsmoilGasprinskiyvaTurkistondajadidchilik. T.: MarkaziyOsiyoni tadqiqetishfransuzinstitut, 2008.-B.107.
10. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi.Tanlangan asarlar. T.:Ma‘naviyat, 2006.-B.320.
11. Полное собрание сочинений Исмаила Гаспринского. Том первый. Литературно – художественный произведения. Симферополь, Институт истории им Ш. Марджани Академии наук Республики Татарстан, 2016.- С.384.
12. Гаспринский И. Полное собрание сочинений. Том II. Ранная публицистика 1879 – 1886 гг. Казань Симферополь,Институт истории им Ш. Марджани Академии наук Республики Татарстан, 2017.-С.397.
13. Гаспринский И. Полное собрание сочинений. Том третий. Публицистика 1887-1890 гг. Казань-Симферополь, 2019.-С.576.

“HAQ OLINUR, BERILMAS”

Urinbayevna Shadiyeva Difuza
Angren universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada har qaysi davrda bo‘lmasin jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi sifatida mashhur Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy hayot faoliyati haqida to‘htalamiz.

Kalit so‘zlar: Jadidjar harakati, Ismoilbey Gaspirali, Turkiston o‘lkasida, o‘zbek matbuoti tarixida, Risolayi asbobi savod, usuli savtiya.

Аннотация: В статье рассматривается общественно-политическая деятельность Махмудходжи Бехбуди, известного как лидер джадидского

движения.

Ключевые слова: Движение джадидов, Исмаилбей Гаспринский, в истории Туркестанской и узбекской печати «Рисолаи асбоби савод» методическое обучение грамоте.

Abstract: The article, regardless of the time period, examines the socio-political activities of Mahmudkhodja Behbudi, known as a leader of the Jadid movement.

Keywords: Jadid movement, Ismail Bey Gasprinski, history of Turkestan and Uzbek press, "Risola-i asbobi savod", methodological literacy training.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining dohiysidir. Samarqand yaqinidagi Siyob viloyatining Baxshitepa qishlog'i imom-xatibi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li xonadonida tug'ilgan Behbudiy dastlab otasidan Qur'on ilmini o'rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida o'qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog'asi Mulla Odil o'zi mudarrislik qilgan madrasada o'qitib ta'lim bergan. Behbudiylar oilasi ma'rifatparvar va ziyoli bo'lgan. Uning ikki singlisi ham o'qib, tahsil olishgan, qur'onni yaxshi bilganlar. Ammo 1893-yilda onasi, 1894-yilda otasi vafot etgan.

Behbudiy o'zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy "Turkiston viloyatining gazetasi"dan boshlagan. Behbudiy o'zbek matbuoti tarixida maqolalanavis sifatida o'z o'rniga ega. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular turli xil mavzuda: "Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir", "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "qulq "marquq" derlar", "Sart so'zi majhuldur" kabi maqolalar fikrimiz isbotidir. 1913-yilning aprel oyidan Behbudiy "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Tassufki, Behbudiyning shu kunga qadar noma'lum qolgan maqolalaridan biri bu – "Siroti mustaqim" jurnaliga yuborilgan maktubidir. Unda Behbudiy boshliq Samarqand jadidlarining o'sha vaqtdagi Turkiya ziyolilari bilan aloqalari, u yerdan olingan matbuot hamda davralarda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga munosabat bildirilgan, shu nuqtayi nazaridan ushbu maktubning ahamiyati katta xisoblanadi.

Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirdi. 1904-1909-yillarda u o'zbek va tojik tillarida "Risolayi asbobi savod", "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy", "Kitobat ul-atfol", „Amaliyoti islom“, "Muxtasar tarixi islom" kitoblarini yaratgan, darsliklarni nashr ettirgan. Jadid pedagoglari "usuli savtiya"asosida faoliyat ko'rsata boshlagan maktablarda savod alifbodan boshlanadi deya alifbo darsliklari yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradilar.

Behbudiyning millat taraqqiysi uchun boshlab bergan xayrli ishlar qatorida uning "Behbudiya" nomi bilan faoliyat yuritgan kutubxonasining tashkil etilishi ham turadi. Behbudiy birinchilardan bo'lib kutubxona faoliyatini yo'lga qo'yan jadidchilardan xisoblanadi. Shahardagi dastlabki mahalliy gazeta va milliy jurnalning noshiri, birinchi drama muallifi sifatida tanilgan Behbudiya kutubxonasi Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning "Yangi rasta" qismida ochiladi. Dastlab 200, keyinchalik 225 jild kitobga

ega kutubxona kun davomida 14 soat ishlab turgan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so'na boshladi. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914- yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. Kutubxona faoliyati tugaydi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshladi. Mazkur yilning 3- yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori biz ziyolilarni yana bir karra Behbudiy merosi bilan yaqinlashtirmoqda. Biz, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan ustozlar ilk savod kitoblarining muallifi, yangi tuzimdagi maktablar asoschisi, ilk kutubxona ochib millatning uyg'onishini chin dildan istagan Mahmudxo'ja Behbudiy haqida boshlang'ich sinflardan oq ko'proq materiallar berishimiz lozim deb hisoblaymiz, zero alloma qayd etganidek, "Haq olinur, berilmas".

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdirashidov, Z. Mahmudxo'ja Behbudiy. T: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Авазов Н. Махмудхўжа Бехбудий — маърифатпарвар. Т: 1993. 1- bet.
3. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2005.19-bet.
4. Qahramon Rajabov. O'zbekiston XX asrda. Toshkent: Fan, 2024.120-bet.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TARIXIY ASARLARINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

Tashqo'lova Dilnoza Turaboy qizi
Olmalik davlat texnika instituti assistant
tashkulovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX—XX asrda faoliyat yuritgan ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi va tarixiy asarlarini o'rganishning zamonaviy dolzarbligi tahlil qilinadi. Maqolada Behbudiyning asarlarining o'rganilishi, ularning tarixiy, ma'rifiy va madaniy qiymati hamda bugungi kunda qo'llanilishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, tarixiy asarlar, ma'rifat, milliy o'zlik.

Annotation:

This article analyzes the modern relevance of the study of the works and historical works of the enlightened scientist Mahmudhaja Behbudi, who was active in the XIX—XX centuries. The article examines the study of Behbudi's works, their historical, educational and cultural value, and their use today.

Key words: Mahmudkhodja Behbudiy, jadidism, historical works, enlightenment, national identity.

Mahmudxo‘ja Behbudiy U diniy ilmlarni chuqur o‘rgangan, biroq shunchaki diniy fanlar bilan chegaralanib qolmasdan, zamonaviy fanlar, tarix, geografiya, adabiyot va siyosatga ham katta e‘tibor bergan. U dastlab diniy maktab va madrasalarda tahsil olgan, keyinchalik esa o‘z-o‘zini zamonaviy fanlar bilan boyitgan. Arab, fors, rus va turkiy tillarni mukammal bilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari - bu o‘zlikni anglash yo‘lida charaqlab turgan ma‘naviy mayoqdir. U o‘z ijodi orqali xalqni o‘z tarixiga, madaniyatiga, diniga va tiliga bo‘lgan hurmatni uyg‘otishga harakat qilgan. Bugungi kunda yosh avlodga tarixiy xotirani tiklash, milliy iftixorni shakllantirish va ijtimoiy ongni mustahkamlashda Behbudiy merosi beqiyos ahamiyatga ega.

XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining boy ma‘naviy merosi, publitsistikasi, dramalari, tarjimalari va islohotparvarlik g‘oyalari bilan o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining asoschilaridan biri sifatida tarix sahnasida munosib o‘rin egallagan. Bugungi kunda ushbu ulug‘ ma‘rifatparvar shaxsning tarixiy asarlarini chuqur o‘rganish - nafaqat ilmiy, balki ma‘naviy, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan ham nihoyatda dolzarbdir. Milliy o‘zlikni tiklashda Behbudiyning roli. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida millatni uyg‘otish, uning tarixiy xotirasini tiklash, xalqni savodsizlikdan xalos etish g‘oyalarini ilgari surgan. U “Millatimga qanday xizmat qilsam bo‘ladi?” degan savolni o‘ziga hayotiy shior qilib olgan va shu yo‘lda jonbozlik bilan harakat qilgan. Uning bu g‘oyalari bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash va ma‘naviy tiklanishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — nafaqat jadidchilik harakatining peshqadamlaridan biri, balki milliy o‘zlikni shakllantirish, ma‘rifiy uyg‘onish va zamonaviy tafakkurni qaror toptirish yo‘lida mislsiz xizmat qilgan ziyolidir. Uning asarlari bugun ham xalqimiz tarixini anglashda, o‘zlikni tushunishda mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Behbudiy ta‘lim tizimini isloh qilish, dunyoviy fanlarni o‘rganish, diniy bilimlar bilan bir qatorda zamonaviy bilimlarni egallashga katta e‘tibor bergan. Uning “Maktablarimizni isloh qilaylik”, “Yangi usul ta‘lim nima?” kabi maqolalari va asarlarida ilgari surilgan fikrlar hozirgi ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohangdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” nomli sahna asari o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi dramalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda u jamiyatdagi axloqiy inqiroz, johillik, savodsizlik va islohotlarga qarshilik ko‘rsatgan kuchlarni keskin tanqid qiladi. Bu asar orqali Behbudiy jamiyatni ogohlikka, fikrlashga, o‘zgarishga undaydi. Bugungi kunda ham bunday tanqidiy ruhdagi asarlarni o‘rganish yosh avlodga hayotiy saboq bo‘la oladi. Behbudiyning maqolalari, risolalari, sahifa orqali chop etilgan chiqishlari Turkiston xalqlarining

XX asr boshlaridagi siyosiy-ijtimoiy holatini, xalqning ruhiy kayfiyati va muammolarini aks ettiradi. Bu jihatdan uning asarlari tarixchilar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar uchun noyob manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi O‘zbekiston taraqqiyotida ilgari surilayotgan milliy tiklanish, ma‘naviyatni yuksaltirish, ma‘rifatparvarlik g‘oyalari Behbudiy orzu qilgan yuksak maqsadlar bilan

uyg'unlashadi. Demak, uning tarixiy merosini chuqur o'rganish nafaqat tarixga hurmat, balki kelajakka ishonchli qadamdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z faoliyatida xalqni jaholatdan chiqarish, uni zamonaviy tafakkurga yetaklash orqali milliy o'zlikni uyg'otishga intilgan. U "Tarixsiz millat – kelajaksiz millat" tamoyiliga amal qilib, xalqning o'z tarixini bilishga, uni sevishga va undan faxrlanishga da'vat etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 1997. wosjournals.com+1
2. Qosimov B. Karvonboshi. Toshkent: —. wosjournals.com
3. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya, 1999.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARIDA ORNITONIMLARNING QO'LLANILISHI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ornitonimlarning - ya'ni qush nomlariga oid leksik birliklarning - stilistik va semantik qo'llanilishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Behbudiy ijodida uchraydigan qaldirg'och, burgut, chumchuq, qarg'a kabi ornitonimlarning ramziy, metaforik va etnolingvistik ma'nolarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada ushbu birliklar muallifning ma'rifatparvarlik g'oyalari, milliy uyg'onish, ijtimoiy tanqid va obrazlilik uslubini ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalitso'zlar: ornitonim, metafora, jadidadabiyoti, ma'rifatchilik, qaldirg'och, burgut, chumchuq, qarg'a, tilshunoslik.

Аннотация: В данной статье анализируется стилистическое и семантическое использование орнитонимов - то есть лексических единиц, связанных с названиями птиц - в произведениях МахмудходжиБехбуди. Основное внимание уделяется выявлению символических, метафорических и этнолингвистических значений орнитонимов, таких как ласточка (qaldirg'och), орёл (burgut), воробей (chumchuq) и ворона (qarg'a), встречающихся в творчестве автора. В статье освещается роль данных единиц в выражении просветительских идей, национального пробуждения, социальной критики и художественной образности, характерных для стиля Бехбуди.

Ключевые слова: орнитоним, метафора, джадидская литература, просветительство, ласточка, орёл, воробей, ворона, лингвистика.

Abstract: This article analyzes the stylistic and semantic use of ornitonyms - that is, lexical units related to bird names - in the works of MahmudkhojaBehbudi. The main focus is on identifying the symbolic, metaphorical, and ethnolinguistic meanings of ornitonyms such as swallow (qaldirg'och), eagle (burgut), sparrow (chumchuq), and crow (qarg'a), which appear in the author's texts. The article

highlights the role of these lexical items in expressing Behbudi's enlightenment ideas, national awakening, social critique, and artistic imagery - all of which are characteristic features of his style.

Keywords: ornitonym, metaphor, Jadid literature, enlightenment, swallow, eagle, sparrow, crow, linguistics.

Mahmudxo'ja Behbudi (1875–1919) o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti va ijtimoiy tafakkurida muhim o'rin tutgan jadid ma'rifatparvarlaridan biridir. Uning boy merosi asosan publitsistika, dramatikasalar, darsliklar, tarjimalar va jurnalistlik faoliyati orqali namoyon bo'lgan bo'lsa-da, Behbudi til boyligiga bo'lgan alohida e'tibori bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, uning asarlarida xalq tiliga yaqin bo'lgan obrazli, semantic jihatdan yuksak birliklar, shu jumladan hayvonot olami, qush nomlari bilan bog'liq so'z va iboralarning o'rni beqiyosdir.

Bunday birliklar orasida ornitonimlar - ya'ni qush nomlari – tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan alohida e'tiborga loyiq. Ornitonimlar ko'p hollarda badiiy matnda ramziy (simvolik), metaforik, emotsional-ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Ular inson xarakterining turli jihatlarini ifodalash, tabiat bilan bog'liq milliy tasavvurlarni aks ettirish, ijtimoiy hodisalarga baho berish kabi ko'p qirrali funksiyalarni bajaradi.

Mahmudxo'ja Behbudi ijodida ornitonimlarning qo'llanilishi, bir tomondan, uning badiiy va publitsistik matnlaridagi estetik-funksional yondashuvni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa xalqona tafakkur, o'zbek tilining obrazlilik qudrati va xalq og'zaki ijodiyoti bilan bog'liq bo'lgan madaniy qatlamni yoritadi. Behbudi, ayniqsa, o'zining ijtimoiy-tanqidiy ruhda asarlarida qush nomlari orqali obraz yaratish, ijtimoiy guruhlarini bevosita emas, balki ramziy shaklda ifodalashga intilgan. Masalan, qaldirg'och, burgut, qarg'a, chumchuq kabi qush nomlari nafaqat real voqelikni tasvirlashda, balki ijtimoiy-estetik ifoda vositasi sifatida ham ishlatilgan.

Qaldirg'och qushi o'zbek xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda va madaniy tafakkurda bahor, yangilanish, umid, vatan sog'inchi ramzi sifatida qaraladi. Xalq orasida "Qaldirg'och kelsa – bahor keldi" degan naql mavjud. Bu ornitonim Behbudi asarlarida, ayniqsa ma'rifatparvarlik ruhida publitsistik maqolalarida xalqni uyg'otish, milliy o'zlikni anglash kabi g'oyalar bilan bog'lanadi. Etnolingvist olim S.Ziyodova o'z tadqiqotida "qaldirg'och" so'zining bahor ramzi sifatida turk xalqlarida keng ishlatilishini, u orqali tabiat uyg'onishi bilan bir qatorda milliy uyg'onish g'oyasi ham ifodalanishini ta'kidlaydi.

Behbudi "Oyina" jurnalining 1913-1915-yillardagi sonlarida yangilanish, milliy o'zlik, ma'rifat g'oyalarini ilgari suradi. Agar u qaldirg'och so'zini ishlatgan bo'lsa, bu - shubhasiz - ma'rifatparvarlikning poetic ramzidir. "Qaldirg'och" bu yerda qishdan charchagan, jaholatga botgan jamiyatga bahor keltiruvchi obrazga aylanadi.

Burgut – Markaziy Osiyo xalqlari tafakkurida kuch, jasorat, erkinlik, botirlik, osmon bag'rida parvoz timsolidir. Adabiyotshunoslikda bu qush obrazlari ko'pincha jasur va fidokor insonlarga o'xshatib beriladi. Jadid adabiyoti, xususan Behbudi ijodida, bu timsol ziyolilar, jadidlar, yurt taqdiri uchun kurashayotgan insonlar

obraziga ulanadi.

Behbudiy “Padarkush” dramasida ham, publitsistik chiqishlarida ham jamiyatning o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, mustaqil fikr yurita olishi kerakligini alohida urg‘ulaydi. Bu o‘rinda “burgut” – mustamlakachilikka qarshi kurashayotgan ongli avlod ramzi sifatida ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Burgutdek balandparvoz qilish, ya’ni xalqni jaholatdan olib chiqish – Behbudiy ideallari bilan uyg‘unlashadi.

Chumchuq ko‘pincha xalq tilida mayda, beozor, ammo tinimsiz, hayajonli, har narsaga aralashuvchi obraz sifatida tasvirlanadi. Bu ornitonim ba’zan kuchsiz, lekin chaqqon, bekordan-bekor so‘zlovchi, yoki tartibsizlikni keltiruvchi ommaviy obrazlarga nisbat qilinadi. Jadid adabiyotida bu kabi timsollar jaholat, eski tushunchalarga ergashgan mayda doiralardagi kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy asarlaridagi ornitonimlarning qo‘llanilishi bu shunchaki badiiy til bezagi emas, balki o‘z zamonasining ijtimoiy-madaniy voqeligi, milliy ong va estetik tafakkurining ifodasidir. Bunday til vositalari orqali muallif ma’rifiy g‘oyalarini xalq qalbiga yanada chuqurroq singdirish imkoniyatiga erishgan. Shu bois, Behbudiy ijodini stilistik va semantic jihatdan tahlil qilishda ornitonimlarning funksional ahamiyatini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlanganasarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011. – 256 b.
2. Саидова Х.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши. НДА. – Самарқанд, 1995. – Б. 4-20.
3. Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий ёзма обидалар тилида зоонимлар. НДА. – Тошкент, 1998. – Б. 4-18.
4. Зоҳидов Т. Зоология энциклопедияси (кушлар). – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 48.
5. ЎТИЛ-5 – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент, 2006-2008.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA “OYNA” JURNALINING JADID ADABIYOTI RIVOJIDAGI O‘RNI

Gulimmatova Rashida Samandarqizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tahriri ostida chiqqan “Oyna” jurnalining jadid adabiyoti rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Asarda jurnalning milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini yoyish hamda yangi adabiy shakllar va janrlarni shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganiladi.

Shuningdek, maqolada Behbudiy va “Oyna” atrofida shakllangan intellektual muhitning o‘zbek jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissasi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Oyna” jurnali, jadid adabiyoti, ma’rifatparvarlik, milliy o‘zlik.

Abstract: This article analyzes the role of Mahmudkhoja Behbudi and his edited journal *Oyna* in the development of Jadid literature. It examines the journal's significance in fostering national identity, disseminating enlightenment ideas, and shaping new literary forms and genres. The study also highlights the intellectual environment formed around Behbudi and *Oyna* and its contribution to the Jadid movement in Uzbekistan.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, *Oyna* journal, Jadid literature, enlightenment, national identity.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati va ma'rifatparvar bobolarimiz merosini xalqimiz ma'naviy hayotining bebaho xazinasini sifatida qadrlab, uni chuqur o'rganish zarurligini alohida urg'uladi. Davlatimiz rahbari shunday degan edi: "...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlandi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi."

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan uyg'onish davri — jadidchilik harakati millat taqdirida burilish yasagan tarixiy jarayon bo'ldi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarib, zamonaviy taraqqiyot sari yo'naltirish, ilm va ma'rifatni eng yuksak qadriyat sifatida e'lon qilishdan iborat edi. Jadidchilikning markazida esa buyuk ma'rifatparvar, pedagog, noshir va dramaturg Mahmudxo'ja Behbudi turardi. Uning eng yirik tashabbuslaridan biri bo'lgan "Oyna" jurnali xalqning o'zini ko'ra oladigan "ma'naviy ko'zgu" sifatida millat hayotiga kirib keldi.

Behbudi o'z faoliyatida "millatni qutqaradigan yagona kuch — ilm va ma'rifat" ekanini takror va takror uqtiradi. Shu bois u yangi usul maktablari ochish, darsliklar yaratish, gazeta va jurnallar nashr etish, teatr sahnasida milliy dramalarni ko'rsatish bilan shug'ullandi. U uchun matbuot millatni uyg'otuvchi eng kuchli vosita edi. Mahmudxo'ja Behbudi 1913-yilda "Oyna" jurnalini nashr ettirib, milliy matbuotimiz tarixida yangi, betakror bir sahifa ochdi. Bu jurnal xalqning qalbiga ma'rifat sham'ini olib kirishga xizmat qilgan, haqiqatni xalq oldiga oynadek ravshan qilib qo'ygan bir maydon edi. Behbudiyo'zmaqolalaridan biridashunday yozadi: "*Xalqni qoloqlikdan chiqarish uchun unga haqiqatni ko'rsatmoq lozim, buning uchun esa oynadan ko'ra qulayroq vosita yo'q*" [Behbudi, 1915]. Bu so'zlar shunchaki matbuot haqidagi gap emas, balki ma'rifatparvar bobomizning butun hayotiy e'tiqodi va maqsadini ifodalaydi. Behbudi nazarida "Oyna" — xalqning ko'zi, millatning ko'zgusi, jaholat zulmatidan najot beruvchi nur edi. U xalqni qoloqlikdan chiqarish yo'lini nafaqat kitoblarda, balki kundalik hayotda ham matbuot orqali amalga oshirish mumkin deb bildi. Shuning uchun ham "Oyna" oddiy jurnal emas, balki milliy o'zlikni uyg'otuvchi, ma'naviyatni iyangilovchi, jadidchilik adabiyotining ruhi bo'lib qoldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati va merosi ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlariga sabab bo‘lgan. Germaniyalik turkolog olima **Ingeborg Baldauf** o‘zining “XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar” nomli asarida Behbudiy faoliyatini tahlil qilar ekan, uni jadidchilikning eng yirik timsoli, pedagog va noshir sifatida xalqni zamonaviy dunyo madaniyatiga olib kirgan arbob deb baholaydi. U “Oyna” jurnalini esa “xalq uchun oynaga o‘xshash, millatning o‘zini ko‘ra oladigan ma’naviy maydon” deb talqin qiladi. “Oyna shunday bir narsaki, odamunda o‘zini ko‘rish, yuzining qandayligini bilish uchun qaraydi. Yuzi esa, turli fizik va psixik omillar ta’sirida qizil, sariq yoki oq bo‘lishi mumkin. Kishi oynaga nogohoniy payqab qolishi mumkin bo‘lgan dardlarni davolash uchun qaraydi. “Oyna” Chor Rusiyadagi musulmon turk ma’rifatparvarlarining an’anaviy dastur ulamali edi” [Baldauf, 2001; 26].

Karimov ma’lumotlariga ko‘ra, gazetaning to‘xtatilishi yoshlar orasida katta aks-sado uyg‘otgan. Ular tahririyatga murojaatlar yo‘llab, nashrni davom ettirishni talab qilganlar. Qo‘qonlik yoshlar — Akobir Shohmansur o‘g‘li va Mirzohid Oqiliy hatto 500 so‘m mablag‘ yuborib, 200 nusxaga obuna bo‘lishlarini bildirgan. Shu qo‘llab-quvvatlash asosida Behbudiy gazetaning 45-sonini qisqa hajmda chiqargan va qolgan mablag‘ evaziga 1914 yil avgustidan “Oyna” haftalik jurnalini nashr etishni boshlagan. Jurnal 20 oy davomida jami 68 son chiqargan bo‘lib, nafaqat Turkistonda, balki Tatariston, Kavkaz, Afg‘oniston, Eron, Turkiyava Misrgacha tarqalib, o‘zbek matbuoti tarixida muhimiz qoldirgan. “Oyna” sahifalarida chop etilgan Behbudiy va boshqa jadidlarning maqola va she‘rlari Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onish jarayonida katta ahamiyat kasb etgan [O‘sha asar]. Shuningdek, “Oyna”ning 1914–1915 yillardagi sonlarini kuzatgan kishi Behbudiyning keng mavzular qamroviga ega maqolalar bilan chiqish qilganini ko‘rishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda Mahmudxo‘ja Behbudiyva “Oyna” jurnali jadidchilik harakatining, milliy matbuot va adabiyotning, umuman, Turkiston uyg‘onish davrining timsolidir. “Oyna” xalqnio‘zinitanishga, milliy o‘zligini anglashga, zamonaviy taraqqiyot sari intilishga chorlagan ma’naviy maydon bo‘ldi. Behbudiy esa shu jarayonning buyuk rahnamosi, milliy uyg‘onish ramzi sifatida tarixda qolmoqda. Bugun ham uning merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yanada dolzarblashgan. Chunki Behbudiy aytganidek, “Millatning kelajagi – ilm va ma’rifatda”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident qarori (PQ–462, 2024-yil 27-dekabr). Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida.
2. Baldauf I. (2001). XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.
3. Behbudiy M. (1915). Oyna jurnali. Samarqand.
4. Karimov N. (2010). Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Karimov N. (2020). Katta qirg‘in. Toshkent: Akademnashr.
6. Qosimov B. (1999). Jadidchilik – milliy o‘zlik va taraqqiyot saboqlari. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Qosimov B. (2009). Jadidchilik: islohot va taraqqiyot yo‘li. Toshkent: Fan.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSIDA TA‘LIM, FAN VA SANOAT UYG‘UNLIGI

Mamatqulov Bekzod Sherozovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy intellektual merosida yoshlar va millat ravnaqi konsepsiyasi tahlil qilinadi. Unda ta‘lim, fan va sanoatning millat taraqqiyoti hamda yosh avlod ma‘rifatini ta‘minlashdagi o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda Behbudiyning intellektual, madaniy va sanoat taraqqiyotining uyg‘unligi jamiyat farovonligining poydevori sifatida ilgari surgan ilg‘or g‘oyalari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, millatravnaqi, ta‘lim, fan, sanoat, taraqqiyot.

Abstract. This article explores the concept of youth and national progress in the intellectual heritage of Mahmudxo‘ja Behbudiy. It analyzes the role of education, science, and industry in ensuring the development of the nation and the enlightenment of the younger generation. The study also highlights Behbudiy’s progressive ideas on the unity of intellectual, cultural, and industrial development as a foundation for the prosperity of society.

Key words: youth, national progress, education, science, industry.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakch inamoyandalaridan biri bo‘lib, u yoshlar tarbiyasi, ta‘lim va fan rivoji, shuningdek, sanoat taraqqiyotini millat ravnaqi uchun zaruriy omil sifatida ko‘rgan. Behbudiy nazarida ma‘rifatli yoshlar millatning ertangi kuni, ilm-fan va ishlab chiqarish esa uning taraqqiyot poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatini yuqori baholab, quyidagicha ta‘kidlaydi: “Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida xalqimizni jaholatdan xalos etish, ularni ilm va ma‘rifatga chorlab, millat ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan buyuk jaded ma‘rifatchis iedi” [Mirziyoyev, 2018: 115].

Bu fikrlar Behbudiy merosining bugungi kunda ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, Behbudiy yoshlarni ma‘rifatli, zamonaviy bilimlarga ega va sanoat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi shaxslar sifatida tarbiyalashni millat kelajagining garovi deb bilgan. Unga ko‘ra, ta‘lim, fan va sanoat uyg‘unligi milliy taraqqiyotning asosiy omilidir.

Sh.Mirziyoyevning ushbu iqtibosi jadidchilik harakatining ma‘rifiy mohiyatini ochib berish bilan birga, hozirgi kunda yoshlar siyosati, ta‘lim tizimi va sanoatni modernizatsiya qilish borasida ham g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bugungi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida ham aynan Behbudiy ilgari surgan ma‘rifat, fan va sanoat uyg‘unligi g‘oyalari o‘z aksini topmoqda.

O‘zbekiston tarixida jadidchilik harakati va uning yirik vakillari milliy uyg‘onish jarayonida muhim o‘rin tutgan. XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy hayotda yangi tafakkur, yangicha yondashuv va millatni taraqqiyot sari yetaklovchi g‘oyalar maydonga chiqqan bir davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining siyosiy-ma‘rifiy faoliyati bilan ajralib turgan siymolardan biridir. U millat kelajagi yoshlar

ta'lim-tarbiyasiga, ularning ilmiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga beqiyos e'tibor qaratgan. Behbudiy fikricha, millatning ravnaqi yoshlarning ma'naviy barkamolligi, zamonaviy bilimlarni egallashi va kasb- hunarorqalijamiatgafoydakeltirishiga chambarchas bog'liqdir.

Behbudiy o'z davrida millatni jaholatdan chiqarish va uni dunyoviy bilimlar, yangi tafakkur va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ygan. U ta'limni faqatgina savod chiqarish vositasi sifatida emas, balki millatning taraqqiy etishi, o'zligini anglash va Vatan ravnaqiga hissa qo'shishning muhim omili sifatida talqin etadi. Uning "Padarkush" dramasidantortib, publitsistik maqolalari va darsliklariga chabarchasi yoshlarni ma'rifat, ilm-fan va millatparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarida yoshlarning faolligi faqat ta'lim va tarbiya bilan cheklanib qolmaydi. U zamonaviy jamiyatda fan va sanoat uyg'unligi siz taraqqiyot bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi. Behbudiyning fikricha, yosh avlod zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallab, ularni ishlab chiqarish va sanoat rivojiga tadbiq etgan taqdirdagina millat mustaqilligi va ravnaqi ta'minlanadi. Shu jihatdan, uning g'oyalari bugungi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan: yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni sanoat bilan uyg'unlashtirish jarayoni milliy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, Mahmudxo'ja Behbudiy merosini o'rganish nafaqat tarixiy yoki adabiy qiziqish uyg'otadi, balki zamonaviy ta'lim, fan va sanoat taraqqiyoti uchun ham nazariy asos va amaliy dastur sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolada Behbudiyning yoshlar va millat ravnaqi haqidagi qarashlari, ularning zamonaviy kontekstdagi ahamiyati hamda hozirgi O'zbekiston taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

XX asr boshida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati taraqqiyotning yangi bosqichiga yo'l ochdi. Ushbu jarayonda Mahmudxo'ja Behbudiy millat ma'naviy uyg'onishi va taraqqiyotining bosh targ'ibotchilaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, millat ravnaqi yoshlar ma'rifati, zamonaviy fanlarni egallash va sanoat taraqqiyotini yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liqdir. Behbudiy qarashlari o'z davrida yangilik bo'lishi bilan birga, bugungi globallashtirish sharoitida ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Behbudiy o'z faoliyatida yoshlarni zamonaviy ta'lim va ma'rifatga jalb qilishni milliy uyg'onishning bosh sharti sifatida ko'rdi. Uning asarlarida sanoat taraqqiyoti, hunarmandchilik va iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun yosh avlodning texnika va fanlardan xabardor bo'lishi muhimligi qayd etilgan [Mahmudxo'ja Behbudiy, 2006:96]. Bugungi globallashtirish davrida ham bu qarashlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Millatning kuchi yoshlar bilimida, ularning fan va sanoatdagi faol ishtirokida namoyon bo'ladi. Behbudiy ta'lim tizimini isloh qilish, maktablarni zamonaviy darsliklar bilan ta'minlash va yangi pedagogi kusullarni joriy etishni jadidchilikning ustuvor vazifasi deb bilgan. Unga ko'ra, fan va ta'limning uyg'unligi yoshlarni nafaqat ma'rifatli, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi yetuk kadrlar sifatida shakllantiradi [Fitrat, 1991: 54].

Sanoat taraqqiyoti va milliy ravnaqi. Behbudiy zamonaviy sanoat taraqqiyoti, texnika va iqtisodiy mustaqillik masalalarini millat ravnaqi uchun zaruriy omil deb

hisoblagan. U yoshlarning hunar va kasblarni egallashi, yangi ishlab chiqarish sohalarini o'zlashtirishi milliy taraqqiyotning asosiy yo'nalishi ekanini ta'kidlagan. Sanoat rivoji orqali iqtisodiy mustaqillikka erishish Behbudiy tafakkurining markaziy nuqtalaridan biridir [Qodirov, 2018: 122].

Ilm, madaniyat va sanoat uyg'unligi. Behbudiyning fikricha, millatning ravnaqi faqat ilmiy bilimlar va sanoat bilan cheklanib qolmasligi, balki madaniyat va ma'naviyat bilan uyg'un holda rivojlanishi lozim. Bu g'oya o'z davrida yangicha qarash sifatida maydonga chiqib, keyinchalik mustaqillik davrida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda [Mirziyoyev, 2018: 214].

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni ma'rifat, ta'lim, fan va sanoat bilan uyg'un rivojlantirish orqali millat ravnaqini ta'minlash g'oyasini ilgari surgan. Uning qarashlari bugungi kunda ham yoshlar siyosati, sanoatni rivojlantirish strategiyasi va milliy taraqqiyot dasturlarida o'z ifodasini topmoqda. Behbudiy merosi biz uchun ilmiy va ma'naviy asos bo'lib qolmoqda. Tadqiqot mavzusi yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi: Birinchidan, Behbudiy merosida ilgari surilgan zamonaviy ta'lim va ma'rifat konsepsiyasiga tayangan holda, maktab va oliy ta'lim muassasalarida jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlar merosi bo'yicha maxsus fan yoki modular joriy etilishi. Ikkinchidan, yoshlarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy kasb- hunar ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim va sanoat korxonalari o'rtasida dual ta'lim tizimini kengaytirish. Uchinchidan, Behbudiy merosida qayd etilgan ilm va taraqqiyot g'oyalari asoslanib, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish. O'zbekiston yoshlarini fan, texnika va yangi sanoat yo'nalishlariga jalb qilish maqsadida grantlar, ilmiy loyihalar va xalqaro tanlovlarda faol ishtirokini ta'minlash. To'rtinchidan, yoshlarning sanoatdagi ishtirokini kuchaytirish uchun startaplar, innovatsion loyihalar va texnoparklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda ham ushbu tamoyillar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va sanoatning modernizatsiyasi orqali millat ravnaqiga erishish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Behbudiy merosi shuni ko'rsatadiki, Vatan ravnaqi uchun faqat ta'lim yoki fan emas, balki ularning sanoat bilan uyg'unligi zarur. Bu uyg'unlik yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirib, milliy taraqqiyot va jamiyat farovonligini ta'minlaydi. Shunday qilib, Behbudiy ilgari surgan konsepsiya nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki bugungi kunda ham strategic rivojlanish g'oyasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy merosida yoshlar, ta'lim, fan va sanoat uyg'unligi millat ravnaqining poydevori sifatida talqin etiladi. U yoshlarga nafaqat ma'naviy, balki ilmiy va kasbiy bilimlarni egallash orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishni buyuk vazifa sifatida yuklagan. Behbudiy qarashlari bugungi kunda ham O'zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim islohotlari va sanoatni modernizatsiya qilish strategiyalarida o'z aksini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy, M. (2006). Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 368 b.
2. Mirziyoyev, Sh.M. (2018). Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 508 b.
3. Karimov, I.A. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 176 b.
4. Qosimov, B. (2009). Jadidchilik: islohot va taraqqiyot yo'li. – T.: Fan, 254 b.
5. G'afurov, A. (2015). Jadidlar merosi va bugungi taraqqiyot. – T.: Akademnashr, 210 b.
6. Sodiqov, H. (2020). O'zbekistonda ta'lim va sanoat integratsiyasi muammolari. – T.: Innovatsiya, 198 b.
7. Abduqodirov, A. (2012). Milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik. – T.: Fan va texnologiya, 225 b.

JADIDLAR MEROSIDA HUQUQSHUNOSLIK SOHADAGI ISLOHOTLARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

**Raxmonov Jamshid Kamolovich
Huquqshunos tadqiqotchi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar merosining huquqshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi tahlil qilinadi. Jadidlar inson huquqlari, qonun ustuvorligi va adolat masalalaridagi qarashlari orqali Turkiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, ularning ta'lim, sud adolati va qonunchilikka oid g'oyalari zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, huquqshunoslik, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, adolat, ma'rifat, Turkiston.

Аннотация: В этой статье анализируется изучение наследия джадидов с юридической точки зрения. Джадиды оказали большое влияние на формирование правосознания и правовой культуры в Туркестанском обществе благодаря своим взглядам на вопросы прав человека, верховенства закона и справедливости. Также будет показано, что их идеи в области образования, правосудия и законодательства имеют важное значение для процессов построения современного правового государства и гражданского общества.

Ключевые слова: джадидизм, Юриспруденция, верховенство закона, права человека, справедливость, просвещение, Туркестан.

Abstract: This article analyzes the study of the Jadid heritage from a legal point of view. The Jadids had a great influence on the formation of legal awareness and legal culture in Turkestan society due to their views on human rights, the rule of law and justice. It will also be shown that their ideas in the field of education, justice and legislation are important for the processes of building a modern rule-of-law state and civil society.

Keywords: Jadidism, Jurisprudence, rule of law, human rights, justice, education, Turkestan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda paydo bo'lgan jadidchilik harakati millat ma'naviyati, ma'rifatparvarligi va huquqiy ongining shakllanishida ulkan ahamiyat kasb etdi. Jadidlar o'z faoliyatlarida jamiyatni taraqqiyot yo'liga boshlash, inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligi g'oyalari ilgari surdilar. Shu ma'noda, jadidlar merosini huquqshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish – bugungi kun huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari uchun ham dolzarbdir.

Jadidlar islohotparvar sifatida nafaqat ta'lim va ma'rifat sohasida, balki huquqiy tafakkurda ham zamonaviy qarashlarni targ'ib qildilar. Ular jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, sud adolatini mustahkamlash, shaxs huquq va erkinliklarini hurmat qilish zarurligini ta'kidladilar. Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi jadidlar asarlarida inson huquqlari, adolatli hukm, ma'naviy mas'uliyat va davlat boshqaruvida qonunlarga suyanish g'oyalari ko'p uchraydi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida qonun buzilishining ijtimoiy fojialarga olib kelishini ko'rsatdi[1,5].

Abdurauf Fitrat "Huquqi islomiy" asarida huquq va burch uyg'unligini falsafiy asoslab berdi². Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviyat va huquqiy mas'uliyat uyg'unligiga e'tibor qaratdi³. Jadidlar turli gazeta va jurnallarda chop etgan maqolalarida xalq sudlarini isloh qilish, turmushda adolat mezonlarini kuchaytirish, zo'ravonlik va bosqinchilikka qarshi turish kabi masalalarni yoritdilar[2,34]. Ular qonunchilikka islohot kiritish orqali davlat va jamiyat o'rtasida huquqiy tenglikni ta'minlashni ko'zladilar. Jadidlar inson huquqlari, xususan ta'lim olish, erkin fikrlash, shaxsiy daxlsizlik kabi masalalarni ilgari surdilar[5,57].

Ular adolatli qonunchilik islohotlari orqali tenglik va huquqiy kafolatlarni ta'minlashni orzu qildilar. O'zbekistonning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida jadidlar g'oyalari yanada dolzarbdir. Qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlashda ularning qarashlari ma'naviy-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi³.

Jadidlar asarlarida inson huquqlari, xususan ta'lim olish huquqi, erkin fikrlash, shaxsiy daxlsizlik masalalari ko'tarilgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida qonun ustuvorligining buzilishi qanday ijtimoiy fojialarga olib kelishini ko'rsatadi⁴. Abdurauf Fitrat esa "Huquqi islomiy" asarida huquq va burchlarning uyg'unligini falsafiy jihatdan asoslab beradi[4,7].

Bugungi O'zbekistonda sud-huquq islohotlari jarayonida jadidlarning qarashlari ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jadidlar g'oyalari bilan uyg'unlik kasb etadi[1,30-32].

Jadidlarning sud mustaqilligi, qonun ustuvorligi va adolat haqidagi qarashlari bugungi demokratik davlat qurish jarayonida muhim ma'naviy meros sifatida dolzarbdir. Shu sababli jadidlar merosini huquqshunoslik nuqtai nazaridan yanada chuqur o'rganish zamonaviy ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jadidlar merosi nafaqat ma'rifat va madaniy taraqqiyot, balki huquqshunoslik sohasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularning qonun ustuvorligi, inson huquqlari, adolat va ma'naviy mas'uliyat to'g'risidagi qarashlari zamonaviy

huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ma'naviy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurashidxonov M. Zamonaviy maktab haqida. – Toshkent, 1914.
2. Qosimova N. Jadidchilikning siyosiy-huquqiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Ziyo A. Jadidchilik: islohot va ma'rifat tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
4. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
5. Fitrat A. Huquqi islomiyya. – Toshkent, 1918.
6. Abdullaev X. Jadidlar va huquqiy islohotlar // O'zbekiston tarixi. – 2019. №3.

“THE COMMONALITY OF BEHDUDI AND IBRAT ACTIVITIES IN TURKESTAN JADIDISM: SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS”

Adkhamkhoja Abdullakhojayev

Teacher, Kokand University

e-mail: adhamxojaabdullahojayev@gmail.com

Annotation . Mahmudhoja Behbudi and Ibrat, prominent figures in the early 20th century Central Asian intellectual and educational movements, played a crucial role in shaping the cultural and educational landscape of Turkestan. Both emphasized the importance of modern education, advocating for the integration of foreign knowledge while preserving Islamic traditions. They believed that mastering languages like Russian, Turkish, and Arabic was vital for the socio- economic and intellectual development of the Muslim population in Turkestan. Their efforts to promote a progressive understanding of Islam, education reforms, and the cultivation of practical skills aimed at overcoming the social and economic challenges faced by their society. They also highlighted the detrimental effects of excessive luxury and social customs, urging for a more pragmatic and responsible approach to wealth and education. Behbudi and Ibrat's contributions to education, literature, and social reform laid the foundation for the modernist movements that followed in Central Asia.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, Ibrat, Turkestan , Jadidism, education reform, Islamic modernism , language learning, social customs , national awakening, cultural revival .

Аннотация. Махмудходжа Бехбуди и Ибрат - важные фигуры в начале 20 века в Центральной Азии, играли решающую роль в формировании культурного и образовательного ландшафта Туркестана. Оба подчеркивали важность современного образования, пропагандируя интеграцию иностранных знаний при сохранении исламских традиций. Они считали, что освоение таких языков, как русский, турецкий и арабский, было жизненно важным для социально-экономического и интеллектуального развития мусульманского населения Туркестана. Их усилия по продвижению прогрессивного понимания ислама, реформ образования и развитию

практических навыков были направлены на преодоление социальных и экономических проблем, с которыми сталкивалось их общество. Они также подчеркивали вредные последствия чрезмерной роскоши и социальных обычаев, призывая к более прагматичному и ответственному подходу к богатству и образованию. Вклад Бехбуди и Ибрат в образование, литературу и социальные реформы заложил основу для последующих модернистских движений в Центральной Азии.

Ключевые слова: Махмудхооджа Бехбуди, Ибрат, Туркестан, джадидизм, реформа образования, исламский модернизм, изучение языков, социальные обычаи, национальное пробуждение, культурное возрождение.

Mahmudxo‘jaBehbudi and Ibrat, in their works, addressed social and educational reform issues, and Mahmudxo‘jaBehbudi’s contributions are unparalleled in the unification and expansion of the Jadid movement in Turkestan. Behbudi’s creative work and practical activities were broad and diverse, ranging from school reforms to the transformation of Turkestan into a free and prosperous homeland. However, it is more appropriate to discuss certain issues within the scope of research rather than the entirety of Behbudi's activities.

In this way, Behbudi not only sought to spread enlightenment, free the people from the swamp of ignorance, show them the path to justice, freedom, and truth, but also put forward the issue of training and educating national cadres, raising them to a level that meets world requirements. MahmudkhodjaBehbudi's ideas of enlightenment, his views on the need to train cadres for the development of society, are expressed through the image of an intellectual in his work "Padarkush". The intellectual tries to explain and prove his views on society, state, culture, science, and technology through clear, concise, and convincing arguments. In particular, these features of the intellectual are clearly visible in his discussion with the rich.

The intellectual expresses the following thoughts: “In order to become a modern scholar, it is necessary to first teach children the Islamic script and literacy, and then, after teaching them the necessary religion and the language of our nation, send them to the chartered schools of our government, that is, after they have completed the gymnasium and city schools, they can go to St. Petersburg, Moscow, etc. It is necessary to send them to medical schools and teach them doctorate, law, engineering, jurisprudence, science and art, science of economics, science of wisdom, teaching and other sciences. It is necessary to become a full-fledged partner in the Russian homeland and state and to enter state positions... It is even necessary to send Muslim children who have studied in this way to medical schools in France, America and Istanbul for education.”[1]

Ibrat was one of the examples of the enlightener MahmudkhodjaBehbudi, who tried to uncover the roots of the Turkestan people living in poverty despite their hard work. He analyzed the socio-political situation at the beginning of the 20th century and believed that the main reason for the people living in poverty was the colonial policy of Tsarist Russia. It has now become known that Ibrat clearly stated the need to follow the example of Europe in the development of trade, commerce, agriculture, science, and technology, to send young people to study abroad in order to master the

achievements of world civilization and join it. Such views were covered in detail in his works such as "Islohimillat" and "Mezonuz- zamon". One of the main priorities of the social development of society, from the point of view of the Jadids, was to renew the concept of Islam, cleanse it of fanaticism, and promote religious tolerance. Deeply realizing that Islam can only be preserved through the acquisition of scientific achievements, Behbudi in his work "Mukhtasari Tarikhi Islam" ("A Brief History of Islam") criticizes the distortion of the essence of Islam by some clerics for their own interests, and shows how serious the consequences of using religion for selfish, political purposes are. By showing the progressive role of Islam, Behbudi advocated the need to reform all social spheres of society in general. Behbudi, who knew the description of the Quran very well, gave great importance to public education, as well as the history of Islam, by giving examples from the verses of the Quran and hadiths. He criticizes religious leaders who, due to ignorance of Islamic history, often find themselves in awkward situations. According to German scholar Ingeborg Baldauf, Mahmudkhoj Behbudi "compares the lives of Muslim Arabs living in Palestine with the lives of their Muslim compatriots living in Central Asia. It is clear that both peoples live under the tyranny of foreigners..." [2]

This is explained by the prevalence of the Turkic, that is, Uzbek, language, the fact that the majority of the peoples of Turkestan speak this language, the fact that the Sharia and religious books in all madrasas are in Arabic, and the mudarris translate and explain them into Persian. So, the fact that the textbooks are in Persian, the teacher is Turkish (that is, Uzbek), and the explanation is in Persian, shows the cunning and strangeness. With this, Behbudiy emphasizes that each language has its own function to perform at the level of society. "However," Behbudiy notes, "gradually or gradually, difficulties have arisen in the methods of education and literature, and now it has reached a point where ninety-nine out of a hundred literates or scholars do not have perfect literary editing in these three languages. That is, methods of education and teaching must be reformed." [3] The Jadids were in favor of the effective use of the Turkic, that is, Uzbek, language. They put on the agenda the issue of reforming foreign words that had entered the Uzbek language and were difficult for the people to understand. According to Behbudiy, reforming Persian and Arabic words in the Uzbek language is not easy, it is an artificial process that cannot be carried out and will take a long time. In particular, regarding the reform of Arabic words, Behbudi writes: "It should be said directly that as little Arabic should be written as possible. When Arabic nouns are combined, they should be combined in Turkish. For example, instead of saying 'ulum, funun, ulama, quzzat and ..., write 'fans, ilms, alims, qazilar and ...'." [4] The Jadids did not deny the need to master foreign languages along with learning their native language. Behbudi, who understood the essence of this issue well, also recognizes the need to learn at least one of these languages in order to develop economic and cultural relations with foreign countries. According to him, "In order to be aware of our world in terms of science, one must know one of the following languages: Russian, German, French, English, Italian, Arabic, Japanese..." [5] M. Behbudi's ideas about the importance of learning other languages have been realized during the years of independence. Currently, interest in learning Eastern and Western languages has increased

significantly in our country. This is the result of Uzbekistan's efforts to take a worthy place in the world community. Learning foreign languages has a positive impact not only on the development of economic relations, but also on the development of the education system, which is an important branch of the cultural sphere. In particular, the youth of our country have had great opportunities to study in Eastern and Western countries, and to communicate with students of higher educational institutions abroad. Favorable conditions for using the Internet have arisen. Behbudi's dreams about the importance of knowing foreign languages and creating conditions for young people to study abroad are being realized in the years of independence. Revealing the essence of literary and scientific language, which differs from the simple language used in everyday life, Behbudi showed its necessity for the development of science and knowledge of history. "Now we need to literaryize, enlighten, that is, illuminate the environment, that is, our surroundings. If science is a science, then language will not subjugate us, but rather it will subjugate us to itself" [6], - Behbudi admits. In the works of the Jadids, not only religion and language, but also moral issues were expressed.

Regarding this, Behbudisays: "As for us, we miss work for weeks, even months, for the sake of the dead and the wedding. However, the great prophet, peace and blessings of Allah be upon him, ordered the deceased to be buried quickly, and after the burial, they should disperse quickly and go to work, and the people of the morgue should not mourn for more than three days, wear black, or be dirty or cause trouble.

Behbudi laments the fact that large sums of money are spent on weddings and funerals in the face of a shortage of local personnel, and writes the following: "Weddings, weddings, condolences, feasts, parties. In one neighborhood, there is not one literate person in twenty. We have put those who know the Islamic faith through evidence. If the early judges were Bahram, there is not a single person in all ten million Turkestan who can become a modern judge... No, not anymore." [7] Due to the expenses incurred for holding large weddings, their owners would also go into debt. In addition, another disadvantage of this tradition was that since the weddings were held in the fall, when school began, the children studied for one day and rested for three days, as a result of which valuable time was wasted. Behbudi concludes that spending the money spent on weddings and condolences on the development of science and technology would allow us to catch up with European development in a short time, and if the current situation does not change, people's lives may be plunged into poverty and misery.

This led to a new method of increasing the efficiency of teaching and learning. Labor requires daily production and thereby ensuring the well-being of members of society. Strictly speaking, labor is a condition for the existence of every family. Therefore, Ibrat emphasized that idleness is extremely harmful to society and the material and spiritual development of the individual. A person must master a profession in order to maintain his image, benefit his family, society in general, and gain respect among people.

Is'haq Khan's works, such as the collection of poems "San'ati Ibrat, kalami Mirrajab Bandiy" devoted to beautiful calligraphy and the development of

literacy, "IlmiIbrat", and "Jome' ul-khutut" devoted to the history of writing, were published in the printing house he founded. AbduraufSamadov (AbduraufShahidiy), one of the first examples of Uzbek written drama, "Mahramlar" (The Intimate), was also published in "MatbaaiIshoqiya". Although Behbudiy's "Padar Kush" is accepted as the first Uzbek drama in scientific literature, AbduraufSamadovShahidiy wrote the drama "Mahramlar" a year before Behbudiy's drama. The daily increase in the output of the Namangan printing house led to a slight increase in the number of bookstores and markets in cities and villages. Starting from 1910, 13 bookstores were opened in Namangan, 1 in Yangikurgan, and 1 in Turakurgan. In these stores, mainly books published in "MatbaaiIshoqiya" were sold at very low prices.

This in print, mainly, to enlightenment related brochures. The main initiative in this work was taken by IshaqkhonIbrat. Understanding the great importance of the newspaper in the promotion of education and culture and the formation of public consciousness, IshaqkhonIbrat founded the "Matbaai" in 1913. Is ' haqiy »He attempted to publish a newspaper under the name "At-tijar al-Namangan" and even applied to the government. This was reported by a newspaper published in Orenburg, which was widely known in Central Asia and the Turkic world. The famous newspaper "Vaqt" writes with great pleasure: "Namangan. The respected and ind Is'haq qazi has applied for a newspaper under the name "At-tijar al- Namangan".

He opened a printing house in Namangan in 1908. This year he opened a library under the name "KutubxonaiIshaqiya" and purchased books of literature in Turkish, Tatar, and Uzbek languages. Now he is about to publish a newspaper. We sincerely wish him success." [8] Thus, despite the difficult conditions, difficulties, and obstacles of that time, the selfless, enlightened teacher Ibrat devoted all his energy to developing a new school and strengthening its material and technical base. He applied the most effective methods of teaching literacy to the school system based on his new, many years of experience in teaching and learning, even developed programs for the school he founded, created textbooks and teaching aids, and had them published. The organization of a new school, providing it with blackboards and desks, and the inclusion of stories written in the native language, of spiritual and moral significance, and texts from translated books in the curriculum required dedication from Ibrat. The opening of the first new school in Namangan by Ibrat, the development of schools based on new methods, and the widespread dissemination of national enlightenment views were the basis. Representatives of the Samarkand and Fergana new schools, Behbudiy and Ibrat, tried to unite the people together towards a single goal and common goal.

References:

1. Mahmudkhodja Behbudiy. Padarkush. // Selected Works. -T.: Ma'naviyat, 1997. 44- p. 50.
2. Ingeborg Baldauf. Mahmudkhoy Behbudiy in Palestine.//Illustrators of 20th century Uzbek literature. T: "Ma'naviyat". 2001. p. 30.
3. Mahmudkhoy Behbudiy. Not two, but four languages are needed. Selected works. T.: Ma'naviyat". 161-page. 3 The same work. 161-page.
4. Mahmudkhoy Behbudiy. The issue of language. Selected works. T.:

Spirituality". Pages 168-169.

5. Mahmudkhoj Behbudi. The issue of language. Selected works. T.: Spirituality". Pages 169-170.

6. Mahmudkhoj Behbudi. The issue of language. Selected works. T.: Spirituality". Page 168.

7. Mahmudkhoj Behbudi. The vices that gnaw at us. Selected works. T.: "Ma'naviyat". Pages 145-146 .

8. "Vaqt" newspaper, 1913, issue 1324.

9. Abdullaxo'jayev A. Tasavvuf va uning tadrijiy taraqqiyoti. "Фалсафанинг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2022. – В.329.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAFAKKURIDA YOSHLAR VA MILLAT RAVNAQI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich

Buxoro viloyati pedagogik mahurat markazi o'qituvchisi
xakimovshuxrat727@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis o'zbek ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik faoliyatini XXI asr nuqtayi nazaridant ahlil qiladi. Behbudiyning milliy o'zlik, ma'rifatparvarlik ilm-fan va xorijiy tillarni o'rganishdagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va yoshlar uchun muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Maqola ushbu g'oyalarni hozirgi zamon kontekstida tahlil qilib, ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada Behbudiyning merosi yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish, jaholatga qarshi kurashish va taraqqiyotga intilish kabi vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, xorijiytillar, jaholat, maorif, milliygo'ya.

Abstract: This article analyzes the Jadid activities of the Uzbek enlightener MahmudkhojaBehbudi from a 21st-century perspective. Behbudi's views on national identity, enlightenment, science, and the study of foreign languages remain relevant today and define important directions for young people. The article examines these ideas in the context of modernity and highlights their role in youth education. Additionally, it demonstrates that Behbudi's legacy is crucial in accomplishing tasks such as shaping national identity in the minds of young people, combating ignorance, and striving for progress.

Key words: jaded, foreign languages, ignorance, education, national idea.

O'zbek jadidchiligining yorqin namoyondasi, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudi o'zining qisqa, ammo sermahsul hayoti davomida o'zbek xalqining kelajagi uchun kurashdi. Uning ta'lim, madaniyat va milliy o'zlikni anglash masalalariga qilgan xizmatlari beqiyosdir. Bugungi kunda, globalizatsiya va axborot texnologiyalari asrida, Behbudiyning g'oyalari yoshlar uchun yangicha ahamiyat

kasb etmoqda. XIX asrda ildiz otib ulgurgan jadidchilik g'oyalari XX asr boshlarida Turkistonda muntazam amaliy harakatga aylanganiga tarix guvoh. Mahmudxo'ja Behbudiy ham jaded namoyondasi sifatida XX asr boshida tarix sahnasiga chiqqanligi haqiqatdir. Adabiyotshunos A.Aliyev yozganidek, "Behbudiy haqida gap ketganda jadidlarni, Behbudiyni chetlab o'tib bo'lmaydi".

Har bir mamlakatda islohot va madaniyat yuksalishi, uning taraqqiy etishi shu mamlakat yoshlarining ilmi, shijoati, ma'naviy salohiyatiga bog'liqdir. Behbudiy ijodida yoshlarga murojaat shaklida bir nechta fikrlar o'rin olgan. Uning har bir millat, birinchi o'rinda ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi bo'lgan maktabni zamonga moslab isloh etib, ko'paytirmaguncha taraqqiyot yo'liga kirib rivojlana olmasligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zero, ta'lim – har qanday mamlakatning eng muhim asosidir. U holda taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy barqarorlik va innovatsiyalar haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Mamlakatlarning rivojlanganligining asosi ta'limga alohida e'tibor berishi, uni zamonaviylashtirishi va jamiyatning barcha qatlamlari uchun ochiq qilishidir. Behbudiy madaniyatdan mahrum bo'lishning, ta'lim bilan qurollanmagan millatning ahvolini qanday bo'lishi haqida ham so'z yuritgan. Bunday millat dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmay, "muborazai hayot" maydonida mag'lub bo'lib, oyoqlar ostida ezilishini, o'zgalar asiriga aylanishini, milliylik va o'zlikni unutish va qo'ldan boy berish kabi oqibatlarni ko'rsatib o'tgan.

Har qanday millatning yuksalishi va davlatning rivojlanishi bevosita uning zamon bilan hamnafas bo'lishiga, ya'ni dunyodagi o'zgarishlar, yangiliklar va taraqqiyot jarayonlaridan xabardor bo'lishiga bog'liq. Tarixga nazar tashlasak, rivojlangan davlatlar doimo zamonaviy bilimlarni egallash, texnologik yangiliklarga moslashish va dunyo hamjamiyati bilan hamqadam bo'lish orqali muvaffaqiyatga erishganini ko'ramiz. XXI asrda bu fikrlar yanada dolzarb bo'lib, bajarilishi muhim amallardan biridir.

O'tgan asrda paydo bo'lgan jadidchilik g'oyalari va harakatining asosiy mahsullaridan biri – yangi usuldagi maktab-maorif tizimining vujudga kelishidir. Ushbu usuldagi maktablarning maqsadi diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni targ'ib qilish, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish, shuningdek, faqat ilm berish bilan cheklanmay, balki yosh avlod qalbida milliy o'zlik, vatanparvarlik va taraqqiyotga intilish ruhini uyg'otish edi. O'sha paytda ko'plab sohalarda milliy kadrlarning yo'qligi jamiyatning og'ir ahvolini ko'rsatib bergan.

Xalqning huquqlarini himoya qiladigan, uning ehtiyojlarini davlatga olib chiqadigan, demokratik tomondan aslida xalq vakili bo'lishi kerak bo'lgan Davlat Dumasida Turkiston aholisining nafiga harakat qiladigan vakil yo'qligi; insonlarni davolaydigan xalq ichidan chiqqan shifokor, imorat qilish uchun loyiha tuzadigan injener, buxgalteriya hisobini yuritadigani hisobchi o'zimizdan topilmaganligi ilmga befarq bo'lmagan jadidlarni chuqur o'ylantirib, ularni xalq orasida keng targ'ib qilishga undadi.

Behbudiy o'zining "Yoshlarga murojaat" maqolasida yoshlarni ilm olishga, kasb-hunar o'rganishga va jamiyatga foydali inson bo'lishga chaqirgan. Globallashuv zamonida yashar ekanmiz, milliyligimizga putur yetkazuvchi

“ommaviy madaniyat”, milliy madaniyatga to‘g‘ri kelmaydigan har xil yot g‘oyalari soniyalar ichida kirib kelmoqda. Bunday g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, jaholatga qarshi kurashish har bir insonning asosiy vazifasi va burchidir.

Shuningdek, Behbudiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta’kidlaganidek, *“jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqara oladigan yagona kuch – ma’rifatdir.”* Ma’rifatli, ilmiy yoshlariga ega bo‘lgan davlat qurol-yarog‘ga ega bo‘lgan har qanday kuchli davlatdan ham kuchlidir. Behbudiy bu kabi masalalarda qayta-qayta xalqqa murojaat qiladi, ulardan ma’rifat yo‘lida harakat qilishni, birlashishni talab qiladi.

Zero, bir millatning ravnaqi va mustahkamligi uning moddiy qudratida emas, balki xalqining ma’naviy yetukligi va ilm-fan bilan qurollanganligidan namoyon bo‘ladi. Behbudiyning fikricha, yoshlar qalbida ilmga, ma’rifatga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish – bu kelajakni yorqin qilish yo‘lidagi eng muhim qadamdir. Shu sababli, har bir yosh avlodni ilm olishga, zamonaviy fan va texnologiyalarni egallashga, o‘z millatining madaniyati va tarixini chuqur o‘rganishga undash lozim. Faqat ana shundagina biz Behbudiy orzu qilgan taraqqiy topgan, ma’rifatli jamiyatni barpo eta olamiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida xalqning ilm olish, taraqqiyot o‘rniga turli marosimlarga berilib ketib, asosiy burchni unutib qo‘yayotganligi qoralanadi. Odamlar ortda qolmaslik uchun to‘y va aza kabi marosimlarga haddan tashqari pul sarflab, qarzga botishi yoki ota- bobosidan qolgan mulk va yerini sotib faqirlikka duchor bo‘lishi eng ayanchli holatdir. “Bir do‘konchi, bir gilkor, bir faqir hol, bir kosib uchun bu to‘y va ta’ziyalar o‘limdan qattiqdirki, buning uchun bechora har kun o‘lur. Har kun o‘lgan bilan da qutulmas.”

Mahmudxo‘ja Behbudiyning merosi o‘zbek xalqining ma’naviy boyligi bo‘lib, uning g‘oyalari XXI asr yoshlari uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Behbudiyning ta’lim, milliy taraqqiyot va tilga oid qarashlari jamiyatimiz oldida turgan muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq donishmandlari aytganidek, *“Eng katta boylik – bilim, eng katta meros – yaxshi tarbiya”* degan hikmatli so‘zlar har bir yosh uchun hayotiy dastur bo‘lishi lozim. Behbudiy har bir mavzuni, har bir masalani Turkiston xalqining taqdiri hamda kelajagi bilan bog‘laydi. Mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida zamonaviy, dunyoviy ilm-fan masalasi markaziy o‘rinda turadi va uning bu boradagi qarashlarini o‘rganish yoshlar uchun katta imkoniyat eshiklarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatova D. Jadidlar yoqqan chiroq. Toshkent: Yangiasravlod, 2023. – 110 b.
2. J.Yaxshilikov, N. Ubaydullayeva. Jadidchilik va Behbudiy, 2004
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlanganasarlar. I jild. Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlanganasarlar. II jild. Toshkent: Akademnashr, 2018.

TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-QIZLAR VA OILA HAQIDAGI QARASHLARI

Maxmudova Sohiba O'ktamjon qizi
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvar jadid ziyolilarining xotin-qizlarning ta'lim olishi, ularning ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy hayotdagi faoliyati, shuningdek, oila va farzand tarbiyasidagi o'rni haqidagi qarashlari yoritilgan. Jadidlarning fikricha, oila jamiyatning ajralmas bo'lagi bo'lib, millat kelajagi bevosita undagi tarbiyaviy muhit bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, millat oydinlari, ta'lim, xotin-qizlar, ma'rifat, jamiyat, oila, farzand tarbiyasi, ota-ona, salomatlik.

Annotation. This article highlights the views of enlightened Jadid intellectuals regarding women's education, their role in social, political, and cultural life, as well as their significance in family and child upbringing. According to the Jadids, the family is an integral part of society, and the future of the nation is directly determined by the educational and moral environment within it.

Keywords: Jadidism, national intellectuals, education, women, enlightenment, society, family, child upbringing, parents, health.

Jadidchilik 19-yuzyillik oxiri – 20-yuzyillik boshlarida Turkiston, Qirim, Kavkaz, Tatariston xalqlari hayotida alohida o'rin egallagan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lib, unga qirim-tatar ziyolisi Ismoil G'aspirali tomonidan asos solingan. Tez orada bu harakat Turkiston mintaqasida tarqalib, hayotning barcha jabhalariga kirib boradi, Ma'rifatparvarlar xalqning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini, barcha sohalarni isloh qilish zarurligini anglab etganlar. Harakatning asosiy g'oya va maqsadlari xalqni ma'rifatli qilish, eski ta'lim tizimini, shariatni isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy qilish kabilardan iborat bo'lgan. Shuningdek, jadidlar xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rnini ko'tarish, ularning ta'lim olishi, ayollarga nisbatan bo'layotgan munosabatlarni o'zgartirish masalasida o'zlarining fikrlarini aytib, bu g'oyalarni amalga oshirishga harakat qilganlar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Hamza kabilar vaqtli matbuot sahifalarida Turkiston xotin-qizlari ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotini aks ettiruvchi maqolalar nashr qilganlar. Shuningdek, ularning oilada turgan o'rni va ta'lim olishlari bilan bog'liq masalalariga ham alohida urg'u berganlar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Hifzu sihhati oila" [5. 190-bet] nomli maqolasida inson uchun eng ziyoda aziz va muhtaram narsa badan salomatligi ekanligi, din va dunyo ishi faqat badan salomatligi bilan amalga oshirishini, shuningdek, qiz bolalarning salomatligiga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganlar. Qizlarning 11-12 yoshlaridagi salomatligiga ahamiyat berish kerakligi, bu vaqtda ularning vujudini quvvatsiz etadigan ish va taomlardan saqlash lozimligiga alohida urg'u bergan bo'lsalar,

Abdurauf Fitrat millat farzandlarini yaxshi xulq egalari, imonli va g'ayratli etib tarbiyalash vazifasi ayollar zimmasidadir deb ta'kidlab, bunga erishish uchun xotin-qizlar – millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga etkazishlari lozim, deb hisoblaganlar [3. 142-bet]. Shuningdek, Abdurauf Fitrat “Qizlar ham ilm olishlari kerakmi?” nomli maqolasida ilm diniy va dunyoviy amallarni bajarish uchun zarurligi, bu borada ayollar ham erkaklar bilan teng huquqli ekanligini Qur’oni Karim oyatlarida ham keltirilganligini ta'kidlab, ayollarning ilm olishlari haqida dalillar keltirib isbotlab berganlar. [3. 139-bet].

Abdulla Avloniy esa “*Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir*” deb ta'kidlab, xotin-qizlar ham jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini, ularning ta'lim olishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun imkoniyat yaratib berish lozimligiga alohida urg'u berganlar [2. 28-31-betlar].

Shu o'rinda ayollarning maorifi to'g'risida G'ozii Yunusning fikrlarini keltirish ham o'rinlidir. “*Erkaklar xotun-qizlar bilan bir butun tashkil qiladir, erkak ilmlik, xotun ilmsiz bo'lsa biz yana ilgari bosa olmaymiz. Otamiz ilmlik bo'lg'onda onamiz ham ilmlik bo'lsun. Mana shundagina ikki bag'ri bir butun bo'lamiz, o'shanda ilgari o'rimalaymiz*” [6. 155-bet]. Shuningdek, u agar bir yigitlar maktabi ochilsa, qizlar maktabini ham ochish, chet elga o'qish uchun yuborilgan 10 ta o'quvchining albatta 5 tasi xotin-qizlardan iborat bo'lishi lozimligini ham alohida ta'kidlagan.

Is'hoqxon Ibrat “Письмо из Тюря-Кургана” nomli maqolasida “*Ilmsiz kishi asossiz devor kabidir. Asossiz devor g'oyatda bee'tibor bo'lur. Ilm o'qung, o'qutung, axloqi funun zamonaga darkorlik ilmlar zarur*” [4. 102-bet] deya barcha erkak va ayollarni ilm olishi lozimligini ayniqsa, ayollar ma'rifati, ularning farzand tarbiyasidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor bergan.

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, millat ziyolilari Turkistonning kelajagini, avvalo, onalarning savodli bo'lishi bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida baholaganlar.

Marifatparvarlar xotin-qizlar ta'limi bilan bir qatorda oila va uning jamiyatda tutgan o'rni, farzand tarbiyasi va ta'limiga ham to'xtalib o'tganlar. Jadidlarning qarashlariga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti avvalo oilaning to'g'ri qurilishi va yosh avlodning ma'rifatli tarbiyasiga bog'liq bo'lib, millat kelajagi ham shu omillar bilan belgilanadi. Bu g'oya Abdurauf Fitratning o'z asarida ifodasini topgan: “*Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi*” deb yozadi u [3. 5-6bet].

Xususan, Abdurauf Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asari oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga solish hamda go'zal insoniy fazilatlarni oiladan boshlab shakllantirish xususidagi g'oyalarni o'zida mujassam qilganligi boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oiladagi tartib-qoidalar, farzand va axloqiy tarbiya, ota-onaning haq-huquqlari, oilada ayollarga bo'lgan munosabatlar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlarni aytib o'tadi. Abdurauf Fitrat farzand tarbiyasiga to'xtalar ekan, tarbiya oiladagi eng qiyin vazifalardan biri ekanligini ta'kidlab, “*Tarbiyaning har*

bir qismi tug‘ilishdan yetti yoshgacha avval ota-onaning vazifasi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasida, keyin umrining oxirigacha odamning o‘z boshiga tushishi” haqida fikr-mulohazalarini bildiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston jadidlarining xotin-qizlar va oila haqidagi qarashlari ularning milliy uyg‘onish g‘oyalarida muhim o‘rin tutadi. Ular uchun jamiyat taraqqiyotining poydevori – avvalo oilaning mustahkamligi va unda shakllanadigan ma’naviy-ma’rifiy muhitdir. Jadid ziyolilari xotin-qizlarning savodxonligini oshirish, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va farzand tarbiyasida onaning o‘rni beqiyos ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Shu bois, ular oila va ayol masalasini millat kelajagini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida baholadilar. Jadidlarning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2006. 2-jild.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. 2024.
3. Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. T.oshkent. 2024.
4. Is’hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. Toshkent.: Ma’naviyat, 2005.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2018. 2-jild.
6. G‘ozi Yunus. Ko‘z oching Turon Eli. Toshkent. 2022.

TURKISTON JADIDLARI MATBUOTIDA TA’LIM-TARBIYA MASALASI

Rakhimov Bektosh Elmurodovich

Associate Professor of Sharof Rashidov Samarkand State University

Pirmamatov Ramziddin Husniddinovich

Master's student of Sharof Rashidov Samarkand State University

Abstract. This article discusses the views of the representatives of the Jadid movement, who were active in Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries, regarding issues of education and upbringing, as well as the publication of these views in the press. The historical impact of the Jadid movement on the processes of teaching and education is analyzed.

Key words: Reform, Progress, the “Society for Helping Students,” the February Revolution, the old method, and the national press.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды представителей движения джадидов, действовавших в Туркестане в конце XIX — начале XX века, на вопросы образования и воспитания, а также освещается их публикация в периодической печати. Исторически анализируется влияние джадидского движения на процессы обучения и воспитания.

Ключевые термины: реформа, Прогресс, «Общество помощи учащимся», Февральская революция, старый метод и национальная пресса.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston

o'lkasida faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyandalarning ta'lim tarbiya masalalariga oid qarashlari va ularning matbuot nashrlarida e'lon qilinishi masalalari muhokama qilinadi. Jadidchilik harakatining ta'lim tarbiya jaronlariga ta'siri tarixiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *islohot, Taraqqiy, "O'quvchilarga yordam jamiyati", fevral inqilobi, eski usul, milliy matbuot*

XIX asr oxiri - XX asr boshlari Turkiston o'lkasida g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yuzaga kelgani holda, Jadidchilik harakati ko'rinishida musulmon jamiyatlari hayotida tub o'zgarishlar, o'rta asrlarga xos eskichilik va xurofotdan holi bo'lish, ilm-fan va ta'limni isloh qilish, mustaqil davlatchilikka ega bo'lish kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suruvchi ma'rifatparvarlar harakati yuzaga keldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov singari harakat namoyondalari yuqorida ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish yo'lida o'z jonlarini ham ayamadilar.

2023-yil 6-mart kuni bo'lib o'tgan Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyovning: "Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi,"- deya alohida ta'kidlab o'tgani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan , ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar negizida Jadidchilik harakati namoyondalari qarashlariga tayanishini anglatadi. ["Jadid" gazetasi 01.01.2024. 1-son, 6-bet].

Jadidchilik harakati namoyondalari o'z maqsad va g'oyalarini keng xalq ommasiga taqdim etishda matbuotni qudratli vosita sifatida bilganlar. Shu boisdan Jadidlar barcha muhim masalalar qatori o'sha davrda zamon talablariga mutlaqo javob bermaydigan, zamirida ezgu maqsadni ko'zlamagan ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasidagi qarashlarini matbuot orqali keng yoritishga harakat qilganlar va shu asnoda milliy matbuotga asos solganlar. Harakat ishtirokchilari tomonidan turli yillar davomida "Taraqqiy" (1906), "Shuhrat" (1907-1908), "Sadoyi Turkiston" (1913-1915), "Oyna" (1913-1915), "Sadoyi Farg'ona" (1914-1917) kabi gazetalar va jurnallarda ta'lim-tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo'ldi. [Umid Bekmuhammad. Matbuot tarixidan sahifalar, 13-19-b]

Taraqqiyparvar Niyoziy Rajabzoda "Oyna" jurnalida chop etilgan "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyni yo'li" nomli maqolasida davr ta'lim tizimiga oid kamchiliklarni tanqid ostiga oladi hamda ta'lim tizimini rivojlantirishga doir o'z qarashlarini ilgari suradi. [Oyna jurnali. "Akademnashr" 2001, 6-8-b] Jurnalning 1914-yil nashr etilgan 31-sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning "O'quvchilarga yordam kerak" nomli dolzarb ma'qolasi el-yurt uchun mahalliy xalqdan yetishib chiqqan shifokor, muhandis, biznesmen, huquqshunos, bank xodimlari lozimligi ularni ta'limi rivojlangan davlatlarda o'qitish uchun "O'quvchilarga yordam jamiyati" tuzib, uning mablag'lari xisobiga

ularni xorijiy mamlakatlarga tahsil olishga yubormoq zarurligini ta'kidlaydi. [Oyna jurnali. "Akademnashr" 2001, 17-19-b]

Mahmudxo'ja Behbudiyning turli nashriyotlarda chiqqan "Millat vazifasi", "Maktablarga ruxsat olmoq tariqasi", "Samarqand maktabi haqida", "Turkiston maktab lisoni", "Maktablar haqida", "Buxoroda usuli Jadida" kabi o'nlab maqolalari Turkistonda ta'limning ahvoli, uni rivojlantirishning usullari kabi zaruriy masalalarni o'z ichiga olgan edi. [Mahmudxo'ja Bexbudiy. Tanlangan asarlar. "Akademnashr", 2018, 230-410-b]

Buxoro jadidchilik harakati namoyondasi Abdurauf Fitrat ham 1917-yil fevral voqealaridan so'ng nashr etila boshlagan "Hurriyat" ro'znomasi orqali millatni istiqlol yo'lida birdamlikka chorladi. Uning ma'qolalari, xususan, "Yurt qayg'usi" mamlakatni ilm orqali qutqarish mumkinligini uqtirishga harakat qilgan. [Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik]

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifatli qilishga intilgan. U o'z davridagi eski usuldagi ta'lim tizimining zamon talablariga javob bermasligini anglab yetib, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yaratish va pedagogik g'oyalarni ilgari surish bilan shug'ullangan. Avloniyning ma'rifatchilik sohasidagi asosiy asarlaridan biri "Turkiy guliston yoxud axloq" bo'lib, unda u ta'lim-tarbiya masalalarini keng yoritgan. Uning fikricha, ta'lim va tarbiya inson hayotining eng muhim poydevori bo'lib, millat kelajagi yoshlarning qanday tarbiya olishiga bog'liq ekanligi bayon etilgan. [B.Qosimov. 2002, 252-b].

Xulosa qilib aytgancha, Jadidchilik harakati Turkiston o'lkasining har tomonlama taraqqiy etishini maqsad qilgan harakat bo'lib, uning ishtirokchilari ko'plab sohalar qatori ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va rivojlantirish orqali mustamlaka sharoiti hamda qoloqlikdan chiqish mumkin deb xisoblashgan. Bu yo'lda aholi dunyoqarashiga ta'sir etish vositalaridan biri bo'lgan matbuot tizimidan foydalanish, doimiy tarzda gazeta va jurnallar chop etish hamda ularda boshqa sohalar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning ahamiyatiga qaratilgan ma'qolalar orqali o'z qarashlari va loyihalarini ilgari surishgan. Ushbu fikrlar va dasturlar bugungi kundagi ta'lim islohotlari jarayonida muhim asos bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Jadid" gazetasi 01.01.2024. 1-son, 6-bet
2. Umid Bekmuhammad. Matbuot tarixidan sahifalar, 13-19-betlar
3. Oyna jurnali. "Akademnashr" 2001, 6-8-betlar
4. Oyna jurnali. "Akademnashr" 2001, 17-19-betlar
5. Mahmudxo'ja Bexbudiy. Tanlangan asarlar. "Akademnashr", 2018, 230-410-b
6. Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik.
7. B.Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, marifat, fidoyilik. Toshkent "Manaviyat", 2002, 252-bet

ПРОСВЕЩЕНИЕ ЧЕРЕЗ ТЕАТР: РЕФОРМАТОРСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СЦЕНИЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ЭПОХУ ДЖАДИДОВ

Таирова Юлия Рафаэлевна

Базовый докторант Государственной
академии хореографии Узбекистана
julie3395sa@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается роль театрального искусства как важного инструмента просвещения и культурной реформы в эпоху джадидского движения в Узбекистане. Особое внимание уделяется становлению узбекского театра как площадки для обсуждения общественных проблем и борьбы с консервативными устоями. Рассматривается влияние джадидизма на дальнейшее развитие театрального искусства и его значимость в контексте национального культурного возрождения.

Ключевые слова. Джадидизм, театр, просвещение, узбекская культура, драматургия, национальное самосознание, культурные реформы, социальные изменения, сценическое искусство, узбекский театр.

Abstract. The article examines the role of theatrical art as an important instrument of education and cultural reform in the era of the Jadid movement in Uzbekistan. Particular attention is paid to the formation of the Uzbek theater as a platform for discussing social problems and fighting conservative foundations. The influence of Jadidism on the further development of theatrical art and its significance in the context of national cultural revival are considered.

Keywords. Jadidism, theater, education, Uzbek culture, drama, national identity, cultural reforms, social changes, performing arts, Uzbek theater.

На рубеже XIX–XX веков в Туркестане зарождается одно из самых значимых культурно-просветительских движений – джадидизм, сыгравший ключевую роль в формировании национального самосознания узбекского народа. В центре этого движения стояли не только учёные и педагоги, но и выдающиеся деятели культуры, литературы и театра, стремившиеся модернизировать общество через искусство и просвещение [Рахмонов М., 1968: 26].

Джади́ды, как называли представителей этого движения, рассматривали культуру как мощный инструмент трансформации традиционного общества. Они активно развивали узбекскую литературу, публицистику и особенно театр, видя в нём действенное средство пробуждения общественного сознания. Через сцену они стремились говорить с народом о самых насущных проблемах — морали, справедливости, семейных ценностях, правах женщин, необходимости образования и обновления религиозного мышления.

В летописи узбекского сценического искусства видное положение занимает МахмудходжаБехбудий, выдающийся деятель движения джадидизма. Его драматическое произведение «Падаркуш», датированное 1911 годом и являющееся первопроходцем в узбекской драматургии, обрело

значение не только как новаторский художественный эксперимент, но и как декларация общественных идеалов [Акбарова М., Иминов Ж., 2019: 60]. В рамках пьесы автор поднимает темы моральных принципов, ответственности перед семьей и социумом, представляя критическую оценку отжившим традициям. Бехбудий рассматривал театр в качестве инструмента для воспитания этических норм и гражданской позиции, обладающего потенциалом воздействия на сознание и чувства аудитории.

Инициатива джадидов по восстановлению театрального искусства являлась составной частью их масштабной культурной программы. Театральные представления, наряду с печатной продукцией, преследовали цель образования населения и формирования нового мировоззрения, основанного на рациональности, чувстве ответственности и национальном самосознании. Джадиды понимали, что театр обладает потенциалом для распространения идей преобразований среди тех слоев населения, которые не имели возможности читать книги или газеты, что сделало искусство сценического повествования доступным и важным инструментом влияния на общество [Ризаев Ш., 1997: 87].

Центрами театральной деятельности стали города Ташкент, Самарканд и Бухара, где стали появляться первые любительские театральные коллективы джадидов. В их репертуаре были пьесы на узбекском языке, затрагивающие темы быта и морали, что способствовало не только популяризации языка, но и вовлечению широкой аудитории в обсуждение актуальных социальных вопросов. Зрители, впервые столкнувшись с сюжетами, отражающими их повседневную жизнь, начинали переосмысливать окружающую действительность, осознавая необходимость перемен.

Абдулла Авлоний, наряду с педагогической деятельностью, проявил себя как талантливый поэт и драматург, в творчестве которого прослеживается акцент на важности просвещения и образования как условий духовного и культурного прогресса нации. Его литературные произведения и театральные постановки сыграли значимую роль в формировании и развитии современной узбекской художественной мысли. Помимо активной литературной и публицистической деятельности, охватывающей поэзию, драматургию и просветительские статьи, Абдулла Авлоний внёс значительный вклад в развитие театрального искусства как одного из ключевых инструментов культурного пробуждения. Понимая театр как мощное средство формирования общественного сознания, он создавал пьесы, в которых поднимал актуальные социальные, нравственные и образовательные проблемы. Через сцену Авлоний стремился донести до народа идеи свободы, равенства, просвещения и социальной справедливости. Его постановки не только вдохновляли молодёжь стремиться к знаниям и переменам, но и формировали у зрителей чувство гражданской ответственности и национального достоинства. В его представлении театр был не просто формой искусства, а важнейшим просветительским и воспитательным механизмом, способным содействовать духовному возрождению нации.

Театральная деятельность джадидов стала важнейшим этапом в

формировании национального сценического искусства. Их пьесы становились зеркалом времени, инструментом социальной критики и способом культурной модернизации. Они рассматривали сцену как арену, где происходит не только эстетическое, но и нравственное воспитание общества, где закладываются основы новой гражданской культуры [Тожибоев У., 2025: 49]. Их усилия стали основополагающими для развития национального театра в Узбекистане и оказали долговременное воздействие на культурное самосознание народа. Даже несмотря на репрессии и политические преследования, идеи, транслировавшиеся через театральное искусство джадидов, не были утрачены. Напротив, они продолжили жить в народной памяти, в произведениях последующих поколений драматургов и режиссёров, вдохновлённых наследием джадидизма. Сегодня театральные практики, зародившиеся в джадидский период, рассматриваются как основа современного узбекского театра, а джадиды — как его основатели и идеологические вдохновители.

Театральное искусство эпохи джадидизма отличалось разнообразием жанров, включая драматические произведения, сатирические зарисовки и назидательные комедии. Эти постановки критиковали фанатизм, необразованность и социальную несправедливость, отражая дух джадидизма, который видел свою миссию в служении обществу посредством распространения знаний, развития культуры и критического мышления. Спектакли носили ярко выраженный дидактический характер.

Театр, под руководством джадидов, эволюционировал от простого культурного феномена к действенному инструменту гражданского просвещения, направленному на активизацию общественного сознания. Преобразовавшись в некое подобие "общественной платформы", джадиды транслировали свои реформаторские идеи, стимулировали размышления о социальных проблемах и предлагали пути обновления общества. Театр реализовывал комплекс ключевых задач: образовательную, расширяя горизонты зрителей и содействуя распространению знаний; эстетическую, формируя вкус и уважение к национальной культуре; и социально-политическую, поднимая насущные вопросы неравенства, неграмотности, консерватизма и общественной несправедливости [Маматкасимова В., 2025: 32].

Особое значение придавалось популяризации национального языка и литературного наследия через театральное искусство. Пьесы на узбекском языке, зачастую написанные простым и понятным языком, создавали площадку для обсуждения актуальных тем — от семейных ценностей до гражданских прав. Тем самым джадидский театр содействовал утверждению узбекского языка как языка культуры, образования и общественного диалога. На сцене обсуждались вопросы, касающиеся положения женщин, роли молодёжи, значения науки и образования, тем самым подготавливая зрителей к восприятию реформ в повседневной жизни. Эти идеи находили отклик у широкой аудитории, поскольку рассматривались в контексте конкретных жизненных ситуаций, знакомых сюжетов и понятных образов [Маматкасимова В., 2025: 32].

Этические и моральные аспекты джадидского театра делали его средством внутренней трансформации общества: через художественные образы зритель не только узнавал новое, но и пересматривал устоявшееся, учился критически оценивать привычные вещи. Таким образом, сцена превращалась в своего рода школу гражданственности, где формировалась новая идентичность - человека образованного, ответственного и активного. В условиях ограниченных политических свобод и отсутствия других платформ для выражения мнения, театр стал одним из немногих каналов общественной коммуникации, позволявшим говорить о переменах, сопротивлении застою и надежде на будущее. Благодаря усилиям джадидов, он стал неотъемлемой частью общественного движения за национальное и культурное возрождение, сыграв значимую роль в становлении модернизированного узбекского общества.

В заключение, необходимо подчеркнуть, что культурная деятельность джадидов, особенно их работа в театральной сфере, стала критически важным этапом в истории духовного и общественного обновления Узбекистана начала XX века. В понимании джадидов, театр переосмысливается и выходит за рамки простой развлекательной функции; он превращается в действенный инструмент интеллектуального, этического и гражданского становления личности, а также в средство, позволяющее обществу анализировать себя, свои проблемы и искать пути их решения. Джадиды посредством театральных постановок стремились укрепить в народе чувство национального достоинства, самосознания, стремление к образованию, социальной справедливости и гражданской ответственности.

Вклад джадидов в культурное развитие невозможно рассматривать изолированно от общего контекста масштабных преобразований начала XX века. Джадидский театр стал уникальной платформой, объединяющей просветительские идеалы и искусство, где художественные формы служили целям воспитания нового типа гражданина - образованного, социально-активного и морально зрелого. Это была глубокая культурная трансформация, основанная не только на литературном таланте, но и на глубоком политическом и философском осмыслении актуальных задач эпохи.

Наследие туркестанских джадидов — это не просто исторический эпизод, заслуживающий памяти, но и актуальный ориентир для современной культурной и образовательной политики, направленной на достижение гармонии между традициями и прогрессивными идеями. Их опыт особенно ценен в эпоху глобализации, когда вопросы сохранения национальной идентичности и открытости к мировым знаниям становятся ключевыми.

Обращаясь сегодня к творчеству и идеям джадидов, мы не только отдаем дань уважения выдающимся просветителям, но и находим источник вдохновения для формирования культуры диалога, свободы мысли и общественной ответственности. Их история служит напоминанием о том, что подлинные перемены начинаются с просвещения, а культура является не только отражением общества, но и его ведущей силой.

Список литературы:

1. Рахмонов М. Ўзбектеатритарихи(18–20 асрлар). – Тошкент, Ўздавнашр, 1968.
2. Акбарова М., Иминов Ж. Падаркушпъесасида рол ўйнаган Акбар Ўрозалиевнинг такдири // Водийнома. № 2(13). - 2019.
3. Ризаев Ш. Жадиддрамаси. // Тошкент: Шарқ, - 1997.
4. Тожибоев У.У. Театральное движение в Туркестане в конце XIX – начале XX вв. // HistoricalEthnology, т.10, №1. – 2025.
5. Маматкасимова, В. Особенности узбекской просветительской литературы 1920-1930-годов. Общество и инновации, 6(2). – 2025.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLARDA TUTGAN O‘RNI

Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich.
Zarmed universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘naviy-ma‘rifiy va pedagogik faoliyati o‘rganilib kerakli xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyati va uni o‘rganishning hozirgi zamon ta‘lim tizimidagi roli va ahamiyati haqida ilmiy xulosalar chiqarilib taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, Turkiston, jadidchilik, ma‘naviyat, ma‘rifat, ilmiy meros, mustamlakachilik, taraqqiyot, mustaqillik, jasorat, vatanparvarlik, jadid maktabi, muallim.

Annotation. This article studies the spiritual, educational and pedagogical activities of Mahmudkhodja Behbudi and draws the necessary conclusions. It also draws scientific conclusions about the spiritual, educational and pedagogical activities of Mahmudkhodja Behbudi and the role and importance of studying them in the modern education system, and provides suggestions and recommendations.

Key words: Mahmudkhoj Behbudi, Turkestan, Jadidism, spirituality, enlightenment, scientific heritage, colonialism, development, independence, courage, patriotism, Jadid school, teacher.

Mahmudxo‘ja Behbudi XX asr boshlarida o‘zining ilg‘or g‘oyaviy, nazariy, amaliy va falsafiy ijtimoiy bilimlari bilan Turkiston jadidlari orasida ajralib turgan shaxs edi. Shu bilan birga, u jadidchilik harakati rivojiga munosib hissa qo‘sha olgan insonlardan biri sanaladi.

Behbudi qisqa umri davomida ilm-ma‘rifatning turli sohalariga bag‘ishlangan bir qator ommabop va noyob risola hamda maqolalari orqali xalqni hurriyat va ozodlikka, ilm-ma‘rifatni rivojlantirishga chorlagan ma‘rifatparvarlardan biri hisoblanadi. 1926-yilda sharqshunos olim Laziz Azizzoda shunday degan edi: “Agar O‘zbekistonda Navoiy va Ulug‘bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat

arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykali bo'lg'usidir."

Behbudiyning 1899–1900-yillardagi haj safari davomida bir qancha arab mamlakatlarida bo'lib, u yerda ta'lim-tarbiya, maorif va boshqa sohalarni sinchkovlik bilan kuzatgani ma'lum. U bu sohalarni Turkistondagi holat bilan solishtirib, yutuq va kamchiliklarni tahlil etgan. Ijtimoiy-siyosiy harakat bo'lmish jadidchilikni rivojlantirishda Mahmudxo'ja Behbudiyl alohida hissa qo'shgan. Zero, u "Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir" [Begali Qosimov, 2002: 217].

Jadidchilik harakati rahnamolari millatning milliy davlat sifatida shakllanishi, o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lishida ona tilining rivojiga alohida e'tibor qaratish kerak, deb hisoblaganlar. Shu jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyl ham til masalasiga katta ahamiyat bergan. U fuqarolar mamlakatda o'rnatilgan tartib-qoidalarga bo'ysunishi zarurligini aytib, nega endi asrlar davomida Qoshg'ariy, Navoiy kabi allomalar sayqallagan turkiy tilning buzilishiga befarq qaraymiz, deb tanqid qilgan. Behbudiyl turkiy tilning boy va qadimiy til ekanligini, uning rivoji chorizm mustamlakachiligigacha bo'lgan davrda yuqori bosqichga chiqqanini ko'plab dalillar bilan isbotlagan.

Umuman, jadidchilik harakati rahnamolari ilm-ma'rifatni rivojlantirishda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Ular matbuot va noshirlik ishlarini yo'lga qo'yib, xalqning huquq va imkoniyatlari haqidagi tushunchasini kengaytirdilar, darsliklar yaratib, xalq orzu-intilishlarini himoya qildilar. Zero, yozuv va imlo savodxonlikning, savodxonlik esa ma'naviy madaniyatning asosiy belgilaridan biridir.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ana shu masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Jadidchilik harakati ham o'zining falsafiy va tarixiy yo'nalishlari asosida xolisona o'rganila boshlandi. Behbudiyning vasiyatnomasida yozilgan: "Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik sifatida kutib olamiz", – degan so'zlari uning xalqni ziyo maskaniga chorlaganini va bu yo'lda shahid ketganini ko'rsatadi.

Behbudiyl qalam tebratmagan soha deyarli yo'q. U yozgan risola va maqolalarida ilmiy bo'lish, yaxshi fazilatlarini egallash zarurligini, ilmsizlik va nodonlik xalqni maqsadsiz yo'nalishga yetaklovchi kuch ekanini ta'kidlaydi. Til masalasida u har bir xalq milliy davlat sifatida shakllanishi uchun o'z ona tiliga ega bo'lishi va uning lisoniy boyligini ichki imkoniyatlar orqali oshirishi zarurligini aytadi. Boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish hisobiga emas, balki tildagi ichki so'z boyligini rivojlantirishga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Aks holda, millat o'z tiliga e'tibor bermasa, u boshqa tillar ta'sirida yo'qolib ketishi mumkin, deya ogohlantiradi.

Ibrohim G'ofurov shunday yozadi: "Mahmudxo'ja har narsaga qiziqadi va har narsaning tub mohiyatini topishni istaydi. Unda o'rganishga bo'lgan mayl va layoqat juda kuchli. Bu fazilatlar ko'p jadidlarga xos bo'lgan teran insoniy xususiyatlardandir. Agar jadidlarni yaxlit bir hodisa sifatida qarasak, Mahmudxo'ja Behbudiyning butun insoniy fazilatlarini va intilishlarida jadidchilikning umumiy belgi va xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin" [Ibrohim G'ofurov, 2008: 46].

O'sha davrda yozilgan ayrim g'ayriilmiy asarlarda Turkiston aholisi haqida noto'g'ri tasavvurlar berilgan. Masalan, Rossiyada chop etilgan "Vestnik vospitaniya" jurnalida "Turkiston o'lkasida yoppasiga savodxonlikka erishish uchun 4600 yil kerak" degan mantiqsiz fikr bildirilgan.

Behbudiy yosh avlodni yetuk inson qilib tarbiyalashni, ularni diniy va dunyoviy fanlar bilan tanishtirishni muhim deb hisoblagan. U bid'atlarga qarshi kurashib, dinni to'g'ri va haqqoniy tushunishga da'vat etgan.

U shunday yozadi: "Haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm tahdid qilmasin, va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q" [Mahmudxo'ja Behbudiy, 2006: 200].

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy – Turkiston jadidlarining g'oyaviy rahnamosi, bu harakatning boniysi edi. U har doim xalq bilan birga bo'lib, millatni ichki ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga chaqirgan. Millatning ulug'ligi, tengligi va ozodligini ko'rish uning eng buyuk orzusi edi. Behbudiy bu maqsad yo'lida bor bilim va tafakkurini safarbar etib, avlodlarga beqiyos ilmiy va madaniy meros qoldirdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirib, ularni yanada faollikka undaydi. Jadidlar faoliyatini ta'lim tizimida chuqur o'rganish esa ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish. – T.: Ma'naviyat, 2002. – 217-bet.
2. Ibrohim G'ofurov. Mangu latofat. 2-kitob. – T.: Sharq, 2008. – 46-bet.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2006. – 200-bet.

JADID PEDAGOGY AND ITS IMPACT ON THE MODERN EDUCATION SYSTEM

**Suyarova Zamira Sheraliyevna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura va qurilish universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi**

Abstract: This article examines Jadid pedagogy, highlighting its principles, methods, and historical legacy, and analyzes how these approaches-integrating Islamic ethics, cultural heritage, and modern scientific knowledge-shaped classroom practices, literacy campaigns, student debates, and project-based learning. It argues that incorporating these methods can promote culturally responsive, ethically grounded, and holistic education in contemporary educational systems.

Keywords: Jadid pedagogy, modern education, cultural heritage, ethical education, teaching methods, Central Asia, Usuli Jadid

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jadidchilik pedagogikasi, uning prinsiplari, metodlari va tarixiy merosi yoritiladi, shuningdek, bu yondashuvlar - islom axloqi, madaniy meros va zamonaviy ilmiy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali - dars jarayonlari, savodxonlik kampaniyalari, o'quvchi bahslari va loyiha asosidagi o'qitish faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi. Maqolada ta'kidlanadiki, ushbu usullarni tatbiq etish zamonaviy ta'lim tizimlarida madaniy ongli, axloqiy va butunlay rivojlangan ta'limni rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: jadid pedagogikasi, zamonaviy ta'lim, madaniy meros, axloqiy tarbiya, ta'lim metodlari, Markaziy Osiyo, Usuli Jadid

Jadid pedagogy was characterized by its integration of Islamic scholarship, indigenous cultural traditions, and the rational sciences of Europe. Students studied mathematics, geography, history, and languages while simultaneously engaging in discussions on ethical and civic responsibility. Behbudi (1914) emphasized that education should be holistic, nurturing both intellectual development and moral integrity. Historical examples, such as geography projects led by students in Fergana schools, demonstrate how Jadid pedagogy encouraged the connection between local experience and global knowledge systems. Religious and cultural instruction served as the moral foundation of the Jadid curriculum: lessons integrated Qur'anic studies, ethical reflection, and civic education to cultivate honesty, empathy, and social responsibility. Folklore, literature, and national history were used to illustrate moral principles and strengthen a sense of collective identity (Abdurashidxonov, 2001). Archival accounts describe student debates and theatrical performances devoted to themes of justice and duty, offering practical training in ethical reasoning.

In the classroom, teachers employed storytelling, dramatization, and project-based assignments to enhance student engagement. Learners presented historical plays, conducted scientific experiments, and participated in local exhibitions. Archival records suggest that these experiential methods increased motivation and knowledge retention, demonstrating their capacity to create active and reflective learners. The teacher-student relationship in Jadid schools was conceived as a partnership grounded in ethical mentorship. Teachers acted as guides and role models who cultivated both intellectual curiosity and moral awareness through dialogue and individual feedback. Studies from Bukhara in the 1920s show that this approach enhanced students' engagement, moral reasoning, and collaborative skills, creating a classroom atmosphere of mutual respect and support.

The influence of Jadid educational philosophy continues to resonate in contemporary Central Asian education. The movement's emphasis on moral and cultural values underpins today's curricula in subjects such as "Ethics" and "The National Idea," which aim to nurture socially responsible, ethically grounded, and culturally aware citizens. The integration of sciences, humanities, and moral education within Jadid pedagogy also anticipated modern interdisciplinary approaches such as STEAM and project-based learning. Current research confirms that such integrative educational models enhance critical thinking, creativity, and problem-solving skills, reaffirming the enduring relevance of Jadid principles.

Equally significant is the Jadid vision of the teacher as mentor and moral exemplar—a conception that remains central to modern educational philosophy. Contemporary professional development programs continue to draw inspiration from this model, promoting ethical leadership, reflective practice, and student-centered pedagogy.

In conclusion, Jadid pedagogy, rooted in the integration of ethical, cultural, and intellectual development, remains profoundly relevant to modern education. Its holistic philosophy cultivates learners who are critical, compassionate, and culturally grounded. By reviving and adapting the Jadid legacy, contemporary educators can design learning environments that unite knowledge with moral purpose and prepare students to navigate the complex social and intellectual challenges of the twenty-first century.

References:

1. Behbudi, M. (1914). Muhtaram yoshlarga murojaat [Address to the Respected Youth]. Oyna.
2. Abdurashidxonov, M. (2001). Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) [From My Memoirs]. Sharq.
3. Alimova, D. A. (2019). Jadidism in Central Asia: Paths of Renewal, Reforms, and the Struggle for Independence. Tashkent.
4. Azimov, M. Jadid Education: The Education System of the Uzbek People and the Modernization of Education.
5. Khalid, A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press.
6. Komatsu, H. (2009). Jadidism in Central Asia: The Educational Reform and Its Social Background.
7. Yusupov, Sh. Pedagogical Foundations of Jadidism.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TAFAKKURIDA YOSHLAR VA MILLAT RAVNAQI

Xazirov Bobirjon Burxaniddinovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiylar tafakkurida yoshlar tarbiyasi va millat ravnaqi masalalari yoritilgan. Unda Behbudiylarning ta‘lim, matbuot, dramaturgiya va siyosatdagi faoliyati orqali yosh avlodni ilm- ma‘rifatli qilish, milliy ongini uyg‘otish va millatni taraqqiyot sari yetaklashga qaratilgan g‘oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning publitsistik va badiiy merosida yoshlar masalasi millat istiqboli bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiylar, yoshlar, millat ravnaqi, jadidchilik, ta‘lim, matbuot, dramaturgiya, ma‘rifat.

Abstract: This article examines the ideas of Mahmudkhoja Behbudi regarding youth education and national progress. It analyzes his activities in

education, journalism, drama, and politics, all aimed at enlightening the younger generation, awakening national consciousness, and guiding the nation toward development. The article also highlights the close interconnection between youth and the nation's future as reflected in his journalistic and literary works.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, youth, national progress, Jadidism, education, press, dramaturgy, enlightenment.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida milliy uygʻonish, ozodlik va taraqqiyot gʻoyalari tobora kuchaya boshladi. Bu davrda xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, millatni yangi maʼrifat, zamonaviy taʼlim va milliy oʻzlikni anglash sari yetaklay oladigan ziyolilar avlodi shakllandi. Ana shunday fidoyi siymolardan biri – Mahmudxoʻja Behbudiy edi. Uning hayoti va faoliyati millatning ravnaqini, yoshlarning maʼrifatli va bilimli boʻlishini orzu qilish, shu yoʻlda fidoyilik koʻrsatish bilan chambarchas bogʻliqdir.

Behbudiy zamonasining eng faol maʼrifatparvarlaridan boʻlib, u nafaqat oʻqituvchi va darslik muallifi, balki publitsist, dramaturg, siyosatchi, noshir va teatr arbobi sifatida ham faoliyat yuritdi. Uning fikricha, yoshlar millatning kelajagi boʻlib, ular zamonaviy fan, ilm va dunyoqarash bilan qurollanmasa, Turkiston xalqlari mustaqil va taraqqiy etgan jamiyat qurishi qiyin boʻladi [Muminov X. Oʻzbek maʼrifatparvarlari merosi va milliy uygʻonish gʻoyalari. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 44 b.].

Shu boisdan Behbudiy butun hayotini yosh avlodni maʼrifatli qilishga, millatni uygʻotishga va milliy ongini shakllantirishga bagʻishladi. U oʻz asarlarida, publitsistik chiqishlarida, dramaturgik faoliyatida hamisha shu gʻoyani ilgari surdi. Demak, Mahmudxoʻja Behbudiy tafakkurida “yoshlar” va “millat ravnaqi” tushunchalari oʻzaro uzviy bogʻlangan boʻlib, uning butun faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab bergan.

Behbudiy oʻz faoliyatida eng avvalo taʼlim sohasiga eʼtibor qaratdi. Chunki u xalqning jaholatdan qutulishi va ravnaq topishini maktab va ilm bilan bogʻliq deb bildi. Samarqand shahrida yangi usul maktablarini tashkil etib, bolalarga savod berish, matematika, geografiya, tarix va boshqa dunyoviy fanlarni oʻrgatishni yoʻlga qoʻydi.

U oʻzi yozgan “Risolayi asbobi savod”, “Risolayi jugʻrofiyayi umroniy”, “Tarixi islom” kabi darsliklarda ilmni milliy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirishga harakat qildi. Behbudiyning nazarida yoshlar nafaqat diniy bilim, balki zamonaviy dunyoqarashga ega boʻlishi lozim edi. U “Ilmsiz millatning kelajagi yoʻq” degan gʻoyani hayotiy shior sifatida ilgari surdi [Karimov B. XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy hayot va maʼrifatparvar ziyolilar faoliyati. T.: Fan, 2019. – 102-b, 115-b.].

Behbudiy matbuotni jamiyat hayotini oʻzgartiruvchi kuch sifatida koʻrdi. U “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil etdi. Bu nashrlarda u yoshlarni ilm olishga, jaholat va xurofotdan yiroq boʻlishga, millat ravnaqi uchun xizmat qilishga chorlovchi maqolalar chop qildi.

“Aql va ilm yoʻlini tanlagan xalq hech qachon qullikka rozi boʻlmaydi” degan fikrlari bilan u mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq ongini uygʻotishga intildi [Xudoyberdiyeva H. Jadidchilik harakati va matbuot tarixi. T.: Maʼnaviyat, 2020 –

76-b.]. Uning maqolalari yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik, zamonaviy bilim va ijtimoiy faollikka da'vat etdi.

Behbudiy o'zbek dramaturgiyasining asoschisi sifatida ham katta iz qoldirdi. Uning "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" dramasi o'zbek teatrining ilk asarlaridan biri bo'lib, xalqni ilm olishga, yoshlarni ongli va mas'uliyatli bo'lishga da'vat etdi. Behbudiy faqat ma'rifatchi emas, balki siyosiy arbob sifatida ham faol edi. U Turkiston musulmonlari qurultoylarida ishtirok etib, millat huquqlarini himoya qildi. "Turkiston muxtoriyati" g'oyasini qo'llab-quvvatlab, milliy ozodlik va mustaqillikni xalq taraqqiyoti uchun zarur deb bildi [Rahmonov, A. (). Turkiston jadidlari va milliy ozodlik harakati. T.: Yangi asr avlodi, 2017. – 134- b.].

Uning siyosiy qarashlari yoshlarning ma'naviy va intellektual jihatdan yetuk bo'lishi, milliy ongini mustahkamlash va o'z taqdirini o'zi belgilashga qodir bo'lishiga asoslangan edi. Shunday qilib, Behbudiy tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar sifatida namoyon bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy tafakkurini chuqur tahlil qilganda, uning barcha faoliyatida bir nechta asosiy g'oya markaziy o'rin tutganini ko'ramiz: yoshlarni ma'rifatli qilish, millatni jaholatdan chiqarish va taraqqiyot sari yetaklash. U yangi maktablar ochib, zamonaviy ta'lim usullarini joriy qildi, darsliklar yaratdi, o'z asarlari va publitsistik maqolalari orqali jamiyatni uyg'otishga intildi. Shu jihatdan, u faqat bir davr ziyolisi emas, balki butun millat kelajagini o'ylagan ma'rifatparvar sifatida tarixda abadiy qoldi.

Behbudiyning yoshlar haqidagi qarashlari shuni ko'rsatadiki, kelajakning poydevori aynan yosh avlodning bilimdonligi, vatanparvarligi va ma'naviy yuksakligiga bog'liqdir. Millatning ravnaqi esa faqat ilm-fan, ma'rifat va milliy o'zlikni anglash orqali amalga oshadi. Shu boisdan ham u "Padarkush" kabi dramalari, publitsistik maqolalari va ta'limga oid asarlarida doim shu masalaga e'tibor qaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy o'z tafakkuri bilan nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan haqiqatni ilgari surdi: "Millatning yuksalishi yoshlarning ilm va ma'rifatli bo'lishiga bog'liqdir." Uning g'oyalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida, millat taraqqiyoti konsepsiyalarida, ma'naviy-ma'rifiy sohada o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda [Karimov B. (). XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy hayot va ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati. T.: Fan, 2019— 102-b, 115-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Muminov, X. (2020). O'zbek ma'rifatparvarlari merosi va milliy uyg'onish g'oyalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 44-b.
- 2.Karimov, B. (2019). XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy hayot va ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati. Toshkent: Fan. – 102-b, 115-b.
- 3.Xudoyberdiyeva, H. (2020). Jadidchilik harakati va matbuot tarixi. Toshkent: Ma'naviyat. – 76-b.
- 4.Shodmonov, U. (2018). O'zbek dramaturgiyasi tarixi: ilk bosqichlar. Samarqand: Zarafshon. – 59-b.
- 5.Rahmonov, A. (2017). Turkiston jadidlari va milliy ozodlik harakati. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 134-b.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATI

Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
e-mail: isomiddinov.1986@mail.ru

Annotatsiya Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, ma'rifatparvar publitsist, dramaturg Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining ko'plab jabhalari tahlil qilinadi. Unda Behbudiyning yangi usul maktablari va ular uchun tuzgan darsliklari, gazeta va jurnallari, shuningdek, dramaturgik merosi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, yangi usul, maorif, maktab, gazeta, jurnal, Haftiyak, Abdulqodir Shakuriy, kutubxona, mustaqillik.

Annotation This article analyzes various aspects of the activities of Mahmudkhoja Behbudiy, a prominent representative of the Jadid movement in Turkestan, as well as an enlightened publicist and playwright. It discusses Behbudiy's new-method schools and textbooks, his newspapers and journals, as well as his contribution to dramaturgy.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudiy, Jadidism, "new method," education, school, newspaper, journal, Haftiyak, Abdulqodir Shakuriy, library, independence.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, mustamlakachilik siyosatining og'ir oqibatlari va millatning ma'naviy-ma'rifiy qoloqligi jadidchilik harakatini yuzaga keltirdi. Ushbu harakatning eng yirik namoyandalaridan biri, xalq ma'naviyatining fidoyisi va yangi davr ma'rifatparvarlaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) o'zining publitsistik, pedagogik, ijtimoiy-siyosiy va dramaturgik faoliyati orqali o'zbek xalqining uyg'onishiga beqiyos hissa qo'shdi.

Behbudiy jadid maktablarini tashkil etish, yangi usul darsliklarini yaratish, gazeta va jurnallar chop etish, teatr asarlari yozish orqali xalqni ma'rifat va taraqqiyot sari yetaklashni bosh maqsad qilib oldi. Uning "Padarkush" pyesasi, "Samarkand" gazetasidagi publitsistik maqolalari, "Haftiyak" jurnali, shuningdek, turli darsliklari millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Behbudiy nafaqat ma'rifatchi, balki Turkiston jadidchilik harakatining nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ham tarixda yorqin iz qoldirdi [Ahmedov S., Radjabov Q. Jadidchilik // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.3. – Toshkent: "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. B– 320].

Bugungi mustaqillik davrida Behbudiy merosi qayta kashf etilib, uning milliy uyg'onish g'oyalari, ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, jamiyatni isloh etish borasidagi tashabbuslari ilmiy tahlil qilinmoqda. Bu jarayon yosh avlodda vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik harakatini chuqur o'rganish, o'sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ'ib qilish

davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 30-sentyabrda imzolangan "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e'tirof etilgan edi. [<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>]. XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hisssasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanishgan.

Jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko'rdi va bildi, "yangi usul"ni turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo'lladi. 1905 yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi qishloqlarida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o'qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko'p edi [Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Самарқанд – Тошкент: Марказий нашриёт, 1926. Б– 150].

Bu usulning muvaffaqiyatiga boshda mahalliy aholi ishonishmaydi. Lekin hamma ish juda silliq ko'chadi. Ota-onalar bu maktabda bolalarining juda tez savod chiqarayotganligini ko'rib, hayron bo'ladi va shubhalana boshlaydilar. Avvallari 3-4 yillarda o'rganadigan narsalarni bolalar bir yilda o'rganib olishgan edi. Ko'pchilik "tez o'rgangan, tez esidan chiqaradi" deb xulosa qiladi. Lekin shogirdlar olgan bilimlarini unutish o'rniga, kundan-kunga olg'a qarab borayotgan edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o'quv-yozuvni o'rgatgan bo'lsa, keyin "Haftiyak"ni o'rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak"ni o'qitish jarayonida Behbudiyda yangi fikr paydo bo'ladi. Endi u o'z o'quv dasturiga tizimli suratda arab tilini o'qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilar edi [Абдуллаев Й. Эски мактабда хат- савод ўргатиш. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1960. Б– 550].

Shogirdlar soni 40 talar atrofida bo'lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar edi. Behbudiy maktabni ko'rish uchun yashiriqcha kelgan mahalliy aholi va mullalarni hamkorlikka chaqiradi. Lekin mullalarning bu taklifdan esxonalari chiqib, vahima ko'tarishadi. Ota-onalarning ko'pchiligi globusni ko'rib, o'qituvchi Behbudiyning geografiya darsida "yer aylanadi", "quyosh erdan katta" degan so'zlarini eshitib, uni "sha'riatga zid" narsalar haqida tashviqot qilishda ayblay boshlaydilar. Shunda Behbudiy erishgan shuncha muvaffaqiyatlariga qaramay, baribir, o'ziga bir hamkor, hammaslak, hamfikir kerak ekanligini anglaydi. Uning Samarqand shahri, Jomboy tumani, Rajabamin qishlog'ida o'z hisobidan maktab ochib, bolalarga saboq berayotgan Abdulqodir Shakuriy bilan tanishuvi bu hamkorlikni boshlab berdi. Dastlab, Behbudiy Shakuriy maktabiga borib, uning darslariga, o'quv dasturlariga yordam berib yuradi. Jug'rofiya fanidan

shogirdlarga dars beradi. Behbudiy bu haqda “Turkiston viloyatining gazetisi” da “...kamina raqami haruf ham haftaga bir-ikki marotaba borib tartib va prug‘rammalarini muallim ila bomashvarat tuzaturman. Jug‘rofiya va masohat to‘g‘risida ta’lim va imtihon qilarmiz. Xulosa, alhamdullilo, maktabni rivoji yaxshi va bir oz aqcha pul to‘g‘risidan tazyiqi bordur” , deydi. Bundan tashqari ushbu maktabda Behbudiyning jug‘rofiyadan dars berganligini Rahmatulla Rahimiy “Turkiston viloyatining gazetisi”da o‘zining “Buzug‘ maktab usuli jadida bolasi”, degan maqolasida ham eslab o‘tgan [Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1994. Б– 32].

Behbudiyning ma’rifat yo‘lidagi xizmatlaridan yana biri buning omi xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiy birinchi bo‘lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ahli ilm, aqraboyu ulamolar oldiga qo‘yadi va bu yo‘lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O‘sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko‘rsatib, ancha mashhur bo‘lgan ushbu kutubxona haqida davrning etakchi nashri sanalgan “Turkiston viloyatining gazetisi” da xabarlar berib borilgan. Samarqandda kutubxona tashkil etish kabi xayrli niyat tug‘ilganligi haqida “Turkiston viloyatining gazetisi” da Behbudiy imzosi bilan “Об открытии мусульманской библиотеки читальни в Самарканд - Мутолаахона” degan maqola bosiladi. Unda “Samarqandda umumiy mutolaaxona - biblioteka, chitalniy ochmoq uchun o‘n ikki nafar muhtaram kishilar ila birga 27 bobdan iborat bir dastur, ustaf tuzib, janob baland darajalik Samarqand gubernatoriga topshurub edukki, inshoollo, qonunnoma jamiyati mustahkam bo‘ldi“, deydi muallif.

Shundan so‘ng kutubxonaning moddiy jihatlarini mustahkamlash ishlari boshlanib ketadi. Avvalo, kutubxona tashkil etish uchun bir jamiyat tuziladi. Bu jamiyatga a‘zo bo‘lganlar birlashib majlis o‘tkazishadi. Jamiyatning birinchi majlisida kutubxonaning xizmatchilari tayinlanadi. “Hozir bo‘lgan a‘zolar bir munosib qonunnoma jamiyati, ushbu sakkiz nafar kishini asosiy majlis a‘zosini chilen komitet sayladilar. Mufti Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja rais etib saylandi. Hojiqul Muhammadov rais noibi, tarjimon Ho‘qandboy Abdulholiq o‘g‘li sarkotib, muallim Mirzo Xidirbek Abusaid o‘g‘li maishiy noibi, savdogar mulla Abdusalom Abdulmo‘min o‘g‘li xazinachi, muallim mulla Abdulqodir Abdulshukur o‘g‘li va hoji Said Ahmad, Xo‘ja Hasan o‘g‘li idoraning doimiy a‘zosi“ qilib saylanadilar. Ushbu joyda aytilishicha, majlis a‘zolari “Ramazoni sharifg‘acha kitobxona va mutolaaxonani ochmoqg‘a so‘z berdilar“. So‘ngra esa, bu majlisda kiritilgan fikrlar va qonunnoma Samarqand voyennoy gubernatori, generalnoy shtabining generali, general-moyyor Galkin“ga taqdim qilinadi. General qonunnomaning asl nusxasiga “Mustahkam qildum“, deb imzo chekadi. Nihoyat, general-gubernator bu ishga ruxsat bergach, ziyoxona ochiladi. Bu kungi ochilish marosimi haqida ham Behbudiy “Turkiston viloyatining gazetisi“ da xabar beradi” “Kitobxona va mutolaaxonamiz 11 sentyabr, ya’ni 28 sha‘bondan beri rasman ochildi...”. Usuli jadid maktabi talabalaridan bir guruhi hozir bo‘lib, salovat o‘qiydilar. Hidoyatpanoh eshon Miyon xatib va qori Muqimxon xatib va ba’zi mudarrislar, yosh ulamolar, savdogarlar, taraqqiyparvar kishilardan yuzdan ziyoda oliy ehtirom kishilar xatmi qur’onga kelishadi.

Xulosa qilib aytganda Turkistondagi jadidchilik harakati mustamlakachilik tuzumiga qarshi milliy ozodlik g'oyalarini xalq orasida tarqatish, taraqqiyotga erishish, Vatanni bosqinchilardan ozod qilish maqsadida vujudga kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z vaqtida xalqimizning ma'naviyati boyishiga munosib hissa qo'shgan "Behbudiya" kutubxonasi to'g'risida, uning sirli taqdiri haqida aniq ma'lumotlar to'plab, xalqqa etkazish ishlari, kelgusi ilmiy ishlarda o'z aksini topishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Ahmedov S., Radjabov Q. Jadidchilik // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T. 3. – Toshkent: "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 320 b.
3. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Самарқанд – Тошкент: СССР халқларининг Марказий нашриёти, 1926. – 150 б.
4. Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1960. – 550 б.
6. Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: "Ёзувчи", 1994. – 32 б.
7. Алиев А. Ижод ва изланишлар. – Тошкент: "Адабиёт ва санъат" нашриёти, 1976. – 187 б.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Axmedov Gulmamat Nurmamatovich
Mahmudxo'ja Behbudi uy-muzeyi mudiri**

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakati, Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining yuzaga kelishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mintaqadagi ma'rifatparvarlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, muallif tomonidan Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudi va Samarqandlik jadid namoyondalarining ta'lim-tarbiyaviy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, yangi usul maktablari, milliy tafakkur, ziyolilar, Turkiston, Turkiston muxtoriyati, Milliy majlis.

Аннотация. В статье рассматриваются движение джадидов, общественно-политические процессы, предшествовавшие возникновению прогрессивного движения в Туркестане, просветители региона. В частности, анализируется просветительская, политическая и общественная деятельность основателя движения джадидов в Туркестане Махмудходжи Бехбуди, а также самаркандских деятелей джадидизма.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, прогрессизм, новометодные школы, национальная мысль, интеллигенция, Туркестан, Туркестанская автономия, Национальное собрание.

Annotation. This article discusses the Jadid movement, the socio-political processes leading up to the emergence of the progressive movement in Turkestan, and the enlighteners in the region. In particular, the author analyzes the educational, political, and social activities of the founder of the Jadid movement in Turkestan, Mahmudkhoj Behbudi, and the Samarkand Jadid figures.

Keywords: Jadidism, enlightenment, progressivism, new method schools, national thought, intellectuals, Turkestan, Turkestan autonomy, National assembly.

Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o'rganish, o'sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ'ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 30-sentyabrda imzolangan "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e'tirof etilgan edi. XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanishgan. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13- apreldagi 206-sonli Qarori bilan Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi filiali sifatida Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko'chasi 47-uyda Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi 2021-yil 18-oktabrdan rasman o'z faoliyatini boshladi.[1.]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvarda e'lon qilingan "Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi qarori ham jadid namoyondalariga bo'lgan e'tiborining davomidir.

Ko'rinib turibdiki, jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Turkiston XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilib, mustamlaka zulmini boshidan o'tkazayotgan mintaqada edi. Shunday sharoitda jadidchilik milliy harakatining vujudga kelishi muhim tarixiy hodisa bo'ldi. Bu harakat, birinchi navbatda, ijtimoiy va siyosiy: Vatan ozodligi, demokratik tartiblarni o'rnatish, mamlakatga barcha sohalarda zamonaviylikni olib kirishni asosiy vazifasi deb bilgan.

Jadidchilik harakati va Mahmudxo‘ja Behbudiya oid dastlabki tadqiqotlar uning vafoti munosabati bilan Hoji Muin, Fitrat, Cho‘lpon, Sadriddin Ayniy, Vadud Mahmud, Rojiylar tomonidan e‘lon qilingan maqolalar, she‘rlar va marsiyalardir. Sovet davrida xalqda iftixor tuyg‘usini uyg‘otuvchi milliy qahramonlar, adiblar, olimlar, xususan, Behbudiyning nomi majburiy unuttirildi. Ayrim tadqiqotlarda Behbudiyning ishlari qoralab ko‘rsatildi, xolos. Shuningdek, “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” nashr etilishi munosabati bilan Behbudi haqida maqola berish masalasi ko‘tarilgan. Ensiklopediya uchun S.Qosimov, H. Vohidov, A.Valiev va boshqalar tomonidan maqolalar tayyorlangan bo‘lsa-da, faqat S.Qosimov tomonidan yozilgan “Mahmudxo‘ja Behbudi” maqolasi qisqartirishlar bilan chop etilgan.

Keyingi yillarda tarixchi, adabiyotshunos va faylasuf olimlar N. Karimov, Q. Rajabov, S. Ahmedov, H. Saidov, D. Alimova, D. Rashidova, D. Jamolova, J. Yaxshilikov, Z. Abdirashidov, N. Egamqulova, X. Ashurova, va boshqalar Turkiston jadidlari otasining faoliyatiga tarixiy nuqtai nazardan baho beradi. Bundan tashqari Samarqand jadidchiligi va Mahmudxo‘ja Behbudi faoliyatiga bag‘ishlangan qo‘shni Tojikistonda amalga oshirilgan ishlarni qayd etib o‘tish joiz. Tojikistonlik tarixchilar N. Xotamov, I. Usmonov, M. Boqiyev, K. Rasulov, N. G‘afforovlarning tadqiqotlarida Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining vujudga kelishi, yo‘nalishlari va uning tarixiy jihatlari tahlil qilingan bo‘lsa, adabiyotshunos olimlar M.Shukurov (Shakuriy), R. Hodizoda, S.Tabarov, M. Rajabiy, M. Imomov, A. Maxmadaminov, M. Abdullaev, A.Azimov, A. Nabaviy, P. Gulmurodzoda, O. Salimzoda, A.A. Shexov asarlarida buxorolik mashhur jadidlarning hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy faoliyati tadqiq qilingan. Tojikistonlik faylasuflar G. Ashurov, B. Samiev, Z.Ibrohimov tadqiqotlarida ham Turkiston jadidchiligining, xususan, Samarqand va Buxoro jadidchiligining falsafiy jihatlari o‘rganilgan.

Amerika, Yevropa va Osiyo davlatlarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadid namoyandalari, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudi faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilib, unga Boymirza Hayit, A. Zenkovskiy, Dj. Uiller, E. Bekon, H. Kare d’Enkauz, E. Ollvort, H. d’Ekkos, S. Beker, L. Jeyms, Adib Xolid, I. Baldauf, Shimado Shizuo, Xisao Komatsularning monografiya va risolalarini kiritish mumkin.

Bosqinchi hukumat o‘lkani boshqarish uchun o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘ydi:

- Turkistonda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish;
- Turkistonni xom ashyo manbaiga aylantirish;
- Maorifini Rossiya manfaatlariga bo‘ysundirish.

General gubernatorlik ma'murlari mustamlakachilikning dastlabki yillaridayoq Turkistondagi maktab va madrasalar faoliyati bilan tanishib, ularning o'zlari uchun g'oyatda xavfli ekanligini anglab etdilar. Rossiya imperiyasi ruslashtirish siyosatini aynan maorif sohasidan boshlab, o'z dasturini ishlab chiqishga kirishdi. Ayniqsa, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman bu sohada jonbozlik ko'rsatdi. 1880 yildagi Imperiya davlat kengashida fon Kaufman ruslar va mahalliy aholi bolalarini birgalikda tarbiyalash masalasini ko'tardi. Shuningdek, musulmon va rus maktablarining ajralib turishini iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi.[2.V32]

Imperiya iqtisodiy siyosatida Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni Rossiya mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarni markazga tashib ketishni maqsad qilgan edi va buni to'liq amalga oshirdi. 1869 – 1896 yillari imperiya xazinasini Turkistondan 158 million rubl daromad olgan.[3, V.32]

1880-1890-yillari aholidan olinadigan soliq ikki marta ko'paygan. Soliqchilikka oid qonunga ko'ra, umumiy olinadigan daromaddan qat'i nazar, savdogar savdo qilish huquqi uchun, hunarmand mahsulot ishlab chiqarish huquqi uchun soliq to'lashga majbur bo'lgan. Narx navoning ko'tarilib tushishi, milily savdogarlar va hunarmandlarning daromadlari kamayib borishi soliq yig'ishning yangi tartiblarida e'tiborga olinmadi. Bu esa 1890 yillarning boshi va o'rtalarida ko'plab norozilik chiqishlariga sabab bo'lgan [4, B171].

Tub aholidan olingan soliqning 27 foizi shaharni yangi qismini obodonlashtirish uchun sarflangan. Shaharning eski qismi atayin xarob ahvolda qoldirilgan. Shahar egalari, yurt egalariga oxirgi darajadagi kishilar sifatida qaralgan. 1907-yilning oxirida Turkistonda bo'lgan Abdurashid Ibrohim mustamlakachilikning achchiq asoratlarini, Rossiya hukumati qo'li ostidagi musulmonlarning og'ir ahvolini ko'rib, afsuslangan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarining eski va yangi qismlarini taqqoslab, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini ochiq ko'rsatib bergan. U ikki qismga ajratilgan shaharning Rossiya fuqarolari yashaydigan qismini *rus Toshkenti* deb ataydi va: "Juda tartibli binolar va do'konlar, tartibli ko'chalar, ozoda yo'laklar, elektr chiroqlar va hokazolar bor. Shaharning bu qismi Yevropa namunasi", deb ta'kidlaydi. Musulmon Toshkenti deb nomlagan Toshkentning Eski shahar qismi haqida esa: "500 yil oldin qanday bo'lsa hozir ham shundaydir. Bahor oyining boshida va kuzda shaharda bir uydin ikkinchi uyga yurishning iloji yo'q, shu qadar loy bo'lib ketadiki, hatto ba'zi ko'chalarda hayvonlar ham o'ta olmaydi. Vaholanki, shahar o'sha shahar, Toshkentdir. Ma'muriyati bitta, daromadi bitta, aholisining ko'pchiligi musulmonlardir. Soliqlar musulmon uylaridan yig'iladi, lekin xarajatlar xristian ko'chalariga sarflanadi", deb tanqid qilgan. Abdurashid Ibrohim bu holat

faqatgina Toshkent uchun xos bo'lmay, Rossiya imperiyasi Turkistonning boshqa markaziy shaharlarida, jumladan, Samarqand, Marg'ilonda ham xuddi shu tartibda yo'l tutganligini qayd etib o'tgan. Abdurashid Ibrohim: "Bunda haqiqiy masala ko'chalar yoki yo'laklarda emasligi, balki Rossiya imperiyasi atayin shunday yo'l tutib, xorijlik sayyohlar, mehmonlar, tadqiqotchilarga musulmonlarni yomonlab, ularni ojiz va kuchsiz qilib ko'rsatish, g'aflat uyqusida yotganligini bildirish, bundan tashqari musulmonlarning shu holatda bo'lishlariga islom dinini aybdor qilib ko'rsatish edi" [5, B.42], deb ta'kidlagan.

Turkiston general-gubernatorlarining o'lkada yuritayotgan bunday siyosati esa mahalliy ziyolilar - jadidlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular mustamlaka iskanjasida xarobaga aylanib borayotgan mamlakatlarning ozodligi uchun kurash maydoniga chiqdilar.

Amerikalik tarixchi Adib Xolid Turkistondagi jadidchilikning paydo bo'lishini Markaziy Osiyo jamiyatining evrilishi, rus bosqini hamda uning Islom olami doxil butun dunyoni qayta taqsimlashga bo'lgan harakati natijasida zamonaviylikka zamonaviy "javob" sifatida shakllangan, deb hisoblaydi. Yangilik yoyish orqali "zamonaviy va shu bilan bir qatorda musulmonchilikni mahkam ushlagan va Turkistonga sodiq bo'lgan yangi elita" yaratishga va buning natijasida zamonaviy dunyoda mintaqaning manfaatlarini himoya qilishga shay bo'lgan ishga harakat qilgan turkistonlik jadidlar va ularning izdoshlarini ajratib ko'rsatishga uringan.

Jadidchilikning tug'ilish, shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xorazm hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o'z ichiga oladi. [6, B.519]

O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi Eshon) xalqqa qarata o'z «Xitobnoma»si (1898)da yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, mulkdorlar, ulamolar - xalqning deyarli barcha tabaqalari orasida mavjud edi. Taraqqiyparvarlar dastlab Rossiya imperiyasiga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror kildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar Turkistonning taraqqiy etishi uchun turli yo'llarni echim sifatida ko'rdilar. Ular rivojlangan mamlakatlardagi taraqqiyotga nazar solgan holda Turkistondagi o'zgarishlar bilan solishtirdilar. Bu qiyoslash millatning ahvolini kengroq va chuqurroq ko'rish, mulohaza etish, xulosalar chiqarish imkonini berdi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Ehtiyoji millat" maqolasida taraqqiyotga erishishning

eng birinchi echimi sifatida maktablarni ko'rgan: "Boshqa millatga qaralsa, ko'rilur-ki", muntazam maktablari bor. Va u maktabda diniy ilm ustinda dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur..." [7, B.384].

Jadidlar Turkistonning juda boy mamlakat ekanligini yaxshi bilganlar. Bu boyliklarning harakatsiz yotishi, birovlar manfaati uchun ishlatilishini millatning uquvsizligida deb ko'rsatadilar. Ular o'z millatining buyukligini isbotlash uchun tarixga murojaat qilganlar. O'tmishdan millatning faxrli, sog'lom ildizlari mavjud ekanligini ko'rsatib berganlar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jumallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

- Jadidchilikning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo'lgan: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

- shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish;

- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash; Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

- barqaror milliy valyutani joriy qilish;

- milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xorazmda hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

1906 yil 17 sentyabrda Toshkent shahrining sarmoyadorlari va jadidlari Ko'kaldosh madrasasida to'planib, xayriya jamiyati tuzishga qaror qilganlar. Oradan uch yil o'tib, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy tashabbusi bilan Toshkentda 1909 yili "Jamiyati imdodiya"ga asos solingan. Mo'minjon Muhammadjon o'g'li jamiyat va uning ta'sischi-lari haqida quyidagilarni yozgan: "Jamiyati imdodiya otliq bir ko'mak jamiyati bor edi. Buni boshlab ochuvchilar: 1) Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li; 2) Bashirullaxon Asadulloxo'ja o'g'li; 3) Mulla Abdulloh Avloniy; 4) Nizomqori mulla Husayn o'g'li; 5) Toshxo'jahoji Tuyoqboy o'g'illari ekanlar". [8, B.211].

"Jamiyati imdodiya"ning maqsadi:

- beva, kambag'al, nogironlarni tarbiyalash;

- ko'cha hamda bozorlarda gadoylik va boshqa behuda ishlar qilib yuruvchilar uchun kambag'alxona, etimxona, oshxona, choyxona, yotoqxonalar ochish;
- muhtojlarga lozim bo'lganda pul, ovqat, kiyim berib turish;
- vaqfsizlikdan, tarbiyachisizlikdan huvillab qolgan maktab va madrasalarni isloh qilish, mudarris va shogirdlarga pul tayin qilib obodonlashtirish;
- kambag'al, muhtoj mudarris va o'quvchilarga yordam berish, o'zi o'qishga qodir bo'lib turib pulsizlikdan o'qiy olmay qolgan talabalarga ko'maklashib ilm olishiga yordam berishdan iborat bo'lgan.

Xayriya jamiyati tashkil topgan davrida asosiy mablag'ini iste'dodli yoshlarni xorijda o'qitishga sarflagan bo'lsa, 1911 yili kambag'alxona tashkil etishga 1100 so'm mablag' ajratgan. Kambag'alxona 10 kishiga mo'ljallangan bo'lib, unda yashovchi kishilarning bir yillik harajatlari, jumladan, har bir kishining ovqati, kiyim-kechagi, o'tin, idish-tovoq, xona jihozlari kabilar narxi hisoblab chiqilgan. Shuningdek, jamiyat etim va faqir bolalarning ta'limi uchun 1344 so'm mablag' ajratgan. Toshkent shahrining to'rt dahasidan 40 nafardan 160 nafar bolaning boshlang'ich ta'limi va o'quv qurollari uchun ishlatilgan. 1911 yil boshida jamiyatga moddiy yordam so'rab ariza yozgan kambag'allarga ham yillik 140 so'm berilgan. Bu mablag' 1914 yili 194 so'mni, 1915 yili esa 500 so'mni tashkil qilgan [9, V.56].

Xayriya jamiyati maktablarning moddiy ta'minotini yaxshilash uchun ham mablag' ajratgan. Jumladan, 1914 yili "Ko'k masjid" mahallasidagi Abdullaxon Ibrohimxon o'g'li boshchilik qilayotgan maktabga 120 so'm hamda "Kallaxona" mahallasidagi Muhammadsayid Muhammadmuso o'g'li maktabiga 80 so'm, "Devonbegi" mahallasidagi Eshonxo'ja Honiy maktabiga 150 so'm, "Taxtapul" mahallasidagi Sobirjon va Shokirjon Rahimiylarning maktabiga 100 so'm hamda "Tarnovboshi" mahallasidagi Munavvarqori maktabiga 350 so'm berilgan.

"Jamiyati imdodiya" boylar tomonidan beriladigan pulni xayriya ishlariga sarflash bilan cheklanmay, o'zlari ham turli tadbirlar, jumladan, teatr tomoshalari qo'yish orqali ham pul jamg'arganlar.

1913 yil oxirlarida "Jamiyati imdodiya" negizida "Turon" jamiyati tuzilgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Komilbek Norbekov, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Kattaxo'ja Boboxo'jaev, Bashrillaxon Asatillaxo'jaev, Nizomiddin Asomiddinxo'jaev, Karimbek Norbekovlar uning ta'sischilari bo'lgan [10, B.104].

Jamiyat aholi o'rtasida sahna ishlari va xayriyaga jiddiy munosabat hamda muhabbatni rivojlantirish; xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish, kechalar, konsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy tomoshalarni o'tkazish; Turkiston o'lkasi hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma'naviy va moddiy jihatini yaxshilashni maqsad qilgan. "Turon" jamiyati

o'z binosiga va "Toshkent shahridagi Turon nomli musulmonlar drama san'ati havaskorlar jamiyati" deb yozilgan xususiy muhriga ega bo'lgan [11, B.54]. Farg'ona vodiysida ham jadidlarning ko'plab tashkilotlari mavjud bo'lgan.

Masalan, Andijonda "Taraqqiyparvar" va "Padarkush" yashirin tashkilotlari (Rossiya imperiyasi oxrankasi hujjatlarida yashirin siyosiy partiyalar deb nomlangan) ham faoliyat ko'rsatgan. Bu jihatdan olganda, taraqqiyparvar Mirza Abdulqodirbek Mirza Ahmad Qushbegievning "Taraqqiyparvar" jamiyati g'oyalari ocherki" (1916 yil 22 noyabrda yozilgan) deb nomlangan ma'lumotnomasi diqqatga sazovordir. Unda ko'rsatilishicha, "Taraqqiyparvar" jamiyatining bosh g'oyasi yosh turklarning taraqqiyotiga taqlid etishdir. Ularning maqsadi xalqqa siyosiy va ichki erkinliklar berishdan iborat. Aholi o'rtasida ular o'z e'tiborini siyosat va din sohasida harakat qilish bilan amalga oshirishni rejalashtirganlar.

1909 yilda Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo'ja Mehriy, Hoji Rofe', Mukammal Burhonovlar Buxoroda "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomli yashirin jamiyatini tuzganlar.[12,B.271]

"Tarbiya atfol" jamiyati o'z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bog'chasaroy shaharlariga o'quvchilar yuborish masalasiga alohida e'tibor berdi. Istanbul shahrida ta'lim olayotgan buxorolik talabalar soni 1911 yilda 15 ta, 1912 yilda esa 30 dan oshad.

Ikkinchidan, jamiyat Buxoro amirligida Turkiya va Eronda hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilinadigan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga katta e'tibor berdi. Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining har qanday ta'qib va to'siqlariga qaramay, jamiyatning sa'y-harakati bilan bunday nashrlar amirlikda ham keng tarqala boshladi.

Uchinchidan, hamma jadid mutafakkirlari kabi "Tarbiyai atfol" jamiyati a'zolari o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etdilar. Ushbu jamiyat 1914 yil martda "Ma'rifat" shirkati tuzadilar va 1915 yil 22 dekabrda amir Olimxon bu jamiyatning ustavini tasdiqlab beradi. Bu shirkat kitob savdosi bilan shug'ullanar, usuli jadid maktablarini darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashga jamiyatning birlamchi vazifasi sifatida qarar edi. [13,B.29]

"Tarbiyai atfol" jamiyatni o'z faoliyatining dastlabki yilidayoq bir guruh yoshlarni Istanbulga o'qishga yubordi. Turkiyada ta'lim olishdan maqsad o'lkadagi "usuli jadid" maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, "usuli tadris"ning

ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish edi. Turklarning "usuli savtiya" metodida ilk bor yaratilgan Ahmad Midhatning "Xojai avval" (1868 yil) alifbosi hamda Ismoilbek Gaspirinskiyning "Xo'jai sibyon" darslik-alifbosidan Buxoro jadid maktablarida dastlab darslik sifatida foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik shular asosida mahalliy muallimlar o'zlari darslik yaratganlar.

Buxoro amirligidagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan Usmonxo'ja Po'latxo'jaev va Hamidxo'ja Mehriylar 1908 yilda o'qish uchun Eron hududi orqali Turkiya poytaxti Istanbulga borganlar. Bu erda ularni Buxorodan kelgan bir rasmiy hay'at kabi e'zoz bilan kutib oladilar. O'sha paytda Turkiyada Harbiy ishlar Noziri bo'lgan Anvar posho ularni oliy darajada qabul qiladi. Bu hodisa Rossiyaning Turkiyadagi elchisini xavotirga solib, bu haqda rus imperatori Nikolay II ga xabar bergan. U Buxoro amiri Abdulahadxondan Usmonxo'ja va Hamidxo'ja haqida ma'lumot so'raydi. Abdulahadxon rus hukmdoriga: "Ular yosh bolalardir, Turkiyaga tahsil olish uchun borganlar", deb javob qaytargan.

1913 yilning bahorida Istanbulda o'qiyotgan bir guruh yoshlar — Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja, Fitrat, Homidxo'ja vatanlariga qaytib keldilar va Buxoroda "usuli jadid" maktabi ochishga kirishdilar. Bu maktablarni kitoblar, darsliklar bilan ta'minlash maqsadida "Ma'rifat kutubxonasi" va "Barakat shirkati"ni ochadilar. Turkiya, Tatariston, Qrim, Ozarbayjonda chiqadigan har bir yangi chiqqan kitoblar, darsliklar va nashrlar kutubxonaga kelib turadi. Rossiya imperiyasining Yangi Buxoro (Kogon)dagi xufiyasi Belman tomonidan yo'llangan maxfiy maktub (1912 yil 24 fevralda yozilgan)da ko'rsatilishicha, "Usmon Xo'ja Istanbuldan ko'plab siyosiy risolalar olib kelgan. U turkchilik va islomchilik g'oyalarini targ'ib qilish bilan shug'ullangan, yashirin siyosiy tashkilot hayotida faol qatnashgan". [14, B.42].

XX asr boshlarida Xorazmda shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904 yil "Jamiyati xayriya" tuzilib,

uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904 yil 10 noyabr). Xiva jadidlari ma‘rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. *Birinchi jahon urushigacha* Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914 yil avgustda u *Yosh xivaliklar* firqasi shaklini olgan.[15, B.198].

1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907-yillarda bo‘lgan birinchi rus inqilobi, 1905-1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yili Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati davomida ularning o‘z matbuoti shakllandi. Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906-1916-yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O‘lka moddiy va ma‘naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi.

1917-yil martda Turkistonda mustaqillik va milliy davlatchilikni tiklash harakatlari boshlanib, uning boshida Turkiston jadidchiligining yirik namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev va boshqalar turganlar. 1917 yil 16 aprelda Umumturkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi o‘z faoliyatini boshlagan. “Munavvarqori, Ahmad Zaki, Bekbulat, Lapin, Behbudiy, Kabir Bakir afandilar olamda mavjud idoralar va ularning tutgan yo‘llarini va bu idoradan qaysi biri bizim Turkiston uchun manfaatli ekanligini quvvatli dalil va misollar ila qayta-qayta so‘ylab, ahli majlisga tushuntirganlar hamda atrof viloyatlarga keng muxtoriyat bermoqqa qaror qilganlar”. Qurultoyda Mahmudxo‘ja Behbudiy nutq so‘zlab, millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechish, buyuk maqsad yo‘lida birlashish, ittifoq bo‘lishga chaqiradi. “Ixtilofimiz sababli mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar”, deb ochiq aytadi.

1917-yil yozida Rossiya o‘z muammolari bilan ovora bo‘lib turgan davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston xalqlari kelajagini o‘ylab, “Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat usuli yuzasidan tirikchilik qilsunlar... Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo‘shilgan holda... Turkiston hukumati ta‘sis etsak, o‘zimizni majlisi mushovaratimiz (parlamentarizm) bo‘lsun”, deb yangi takliflar bergan. Bu taklifga birinchi bo‘lib chorizmdan qolgan “burjuachilar” emas, “morozovchilar”, ya‘ni bo‘lg‘usi bolsheviklarga qarshi chiqqan. Ular Mahmudxo‘ja Behbudiyning adolatli yondashuvlaridan xato topa olmaganlar. Biroq uning takliflarini “shoshqaloqlarcha” berilgan, deya e‘tiroz bildiradilar. Shuningdek, o‘zlarining har jihatdan ustunliklarini ko‘rsatib, “Musulmonlar o‘zlarini boshqarishda hali ruslardan ko‘p o‘rganishlari kerak. Dumada ishbilarmon, uddaburon, mehnatsevar kishilar o‘tirsas, unda turli jamiyat va siyosiy guruh talablarini yoqlaydigan kishilar bo‘lsa, shaharda ishlar yaxshi

ketadi. Bunday guruhlar ruslarda ko'p bo'ladi, musulmonlarda esa bo'lmaydi... Fikrimizcha, agar musulmonlar va mahalliy yahudiylar saylovchilarning yarmini yuborib, ikkinchi qismini mahalliy bo'lmaganlarga qo'yib bersalar, ish ravnaqi uchun foyda va haqqoniylik buzilmagan bo'ladi", deb xulosa yasaydilar.

Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyat loyihasi"da qozilik ishlarini tartibga solish, maorif masalalarini hal qilishda muxtoriyat talab qilingan bo'lsa, 1917-yil tayyorlangan "Sho'royi Islomiya"ning Muvaqqat qonuni, Shoislom Shoahmedovning "Turkiston federatsiyasi loyihasi", "Turk adami markaziyat firqasining maromnomasi"da milliy demokratik muxtor davlat boshqaruvining qonun-qoidalari to'la mujassamlashtirilgan.

1917-yil 26-28-noyabrda Qo'qonda bo'lib o'tgan Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil qilingan. Qurultoy jarayonida Milliy Majlis tarkibiga Turkiston jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakillari Ubaydulla Xo'jaev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'ra o'g'li, Obidjon Mahmudov, Mahmudxo'ja Behbudi va boshqalar kiritilgan. Xullas, milliy davlatchilikning qaror topishi birinchi navbatda Mahmudxo'ja Behbudi boshchiligidagi jadidlarni quvontirgan va ular Vatanlari hamda xalqlarini Muxtoriyat bilan tabriklab, uni asrab-avaylashga chaqirganlar.

Ushbu ma'qolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, muammoviy-xronologik va statistik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy izchillik, tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Turkistonda Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati yuritgan mustamlakachilik siyosatining mohiyati, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, jadidchilik harakati tarixi, Mahmudxo'ja Behbudiyning harakatda tutgan o'rni to'g'risida ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistondagi jadidchilik harakati mustamlakachilik tuzumiga qarshi milliy ozodlik g'oyalarini xalq orasida tarqatish, taraqqiyotga erishish, Vatanni bosqinchilardan ozod qilish maqsadida vujudga kelgan. Buning uchun jadid maktablari ochdilar, zamonaviy kutubxona va qiroatxonalar faoliyatini yo'lga qo'ydilar. Milliy matbuot va milliy teatr asos soldilar. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandilar. Sovet hukumati tomonidan qatag'on qilingunlariga qadar maqsad va maslaklaridan qaytmaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat->

mirziyeevning-oliy-25-01-2020.

2. Ahmedov S., Rajabov Q. Jadidchilik // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Tom 3 Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
3. Abdürreşid İbrahim. Alem-i İslam ve Japonya'da İslamiyetin Yayılması.
4. Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград: 1927-г
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Sirojiddin Ahmad. – T.: Akademnashr, 2018.
6. Mo'minjon Muhammadjon o'g'li. Turmush urinishlari. – T., 2015.
7. O'zbekiston Milliy arxivi, 47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1004-yig'majild, 32- varaq.
8. O'zbekiston Milliy arxivi. II-461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 942-yig'majild, 56- varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi. II-461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 942-yig'majild. 5- varaq
10. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent. 2002. B. 104.
11. Rajabov Q. Tarbiyai atfol. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – T.: O'zME nashriyoti, 2004.
12. Rajabov Q. XX asr boshlarida Turkiston yoshlari // “Huquq va burch” jurnali. № 1. 2008.
13. Rajabov Q. Yosh xivaliklar // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-tom.
14. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. – T.: Cho'lpon, 1994.
15. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. – T., 2010.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ НОВОМЕТОДНЫХ ШКОЛ В САМАРКАНДЕ

Хуррамова Саодат Хабибовна
доцент Самаркандского Государственного
Университета имени Шарофа Рашидова

Annotation: An important role in the development of educational and enlightenment activities in Uzbekistan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century was played by the Samarkand Jadids. Their main goal was the modernization of society through education and culture. The main focus of the educational and enlightenment activities of the Samarkand Jadids lies in the reform of education. This paper examines the history of the emergence and various aspects of the activities of new-method schools in Samarkand, as well as provides an analysis and evaluation of the creative work of the Samarkand Jadids.

Key words: Jadids, new-method school, old-method school, national consciousness, coeducation.

Деятельность самаркандских джадидов имеет огромное значение в

реформировании образовательной системы, развитии науки, культуры просвещения в Узбекистане в конце XIX — начале XX века. Их главная цель состояла в модернизации общества через образование и культуру для достижения прогресса и развития национального самосознания.

Основные направления просветительской деятельности самаркандских джадидов заключаются в первую очередь в реформе образования. Джадиды открывали новометодные школы "усули джадид", в которых наряду с религиозными предметами преподавались и светские дисциплины: география, математика, естествознание, история, различные языки. В своих публикациях и речах джадиды активно призывали население, особенно молодёжь, получать образование, чтобы избавиться от невежества и колониального гнёта.

Махмудходжа Бехбуди, лидер самаркандских джадидов, сыграл важнейшую роль в формировании узбекской культуры нового времени как теоретик, практик, драматург и издатель. Основателем первой новометодной школы в городе Самарканде был один из ярких представителей движения джадидизма Абдукадир Шакури. Он родился в 1875 году в кишлаке Раджабамин, недалеко от Самарканда в семье дехканина-садовода. Окончив старометодную школу, Шакури продолжал свое образование в медресе г. Самарканда.

Известный самаркандский педагог, ученый М. Фаттаев в своей книге «Видные педагоги Самарканда» отмечал, что Шакури в своей автобиографии, написанной им в 1909-1910 гг. подробно сообщает: «побывав в русской гимназии молодой любознательный учитель загорелся страстным желанием основать такого же типа школу и для детей своего народа.» [М.Фаттаев, 1961: 4] Стремление к новым знаниям, к качественному изменению и улучшению деятельности мактабов повлияло на него и через чтение газет. В Самарканде среди интеллигенции большим спросом пользовалась тогда единственная газета, выпускавшаяся на тюркском языке, «Тарджумон». И тогда из этой газеты Шакури узнаёт о новом методе преподавания в школах Азербайджана, Татарии и Крыма. Об этом рассказывали ученики Шакури – Исматулла Рахматуллаев, писатель Рахим Хошим и Абдукодир Азизов.

Из газет Абдукодир Шакури узнал, что тот метод обучения, который он наблюдал в Самаркандской гимназии и о внедрении которого он так мечтал в узбекских и таджикских школах, существует и у мусульман, проживающих в различных странах. Узнав, что в Коканде, открылась новометодная школа, Шакури поехал туда и в течении 10 дней изучал деятельность этой школы, «где он почерпнул много полезного для себя» [М.Фаттаев, 1961: 6] Изучив опыт кокандских школ, А. Шакури возвратился в Самарканд и в своем родном селе Раджабамин осенью 1901 г. открыл первую новометодную школу. Вскоре слава о школе А. Шакури разнеслась по всему краю и привлекла внимание других просветителей Средней Азии.

Прежде чем открыть новометодную школу, Шакури изменяет обстановку в школе. Он заказывает мастерам парты и доски. Вначале ему приходилось писать на доске алфавит, тогда учебников ещё не было. Ученики постепенно переписывали буквы в тетради. Частично он использовал книги, написанные на татарском языке. Так, Шакури упоминает об учебниках татарского педагога Абдуходи Максуди

«Муалими аввал» («Первый учитель»), «Муалими сони» («Второй учитель»), которые он использовал в те годы в своей школе. В дореволюционные годы изучение Корана в школе было обязательным. Если бы в новой школе изучение Корана было бы исключено, ни один отец не решился бы отдать на обучение в такую школу. Поэтому важнейшим учебником в школе считался «Хафтьяк».

Не ограничиваясь лишь преподаванием, А. Шакури писал для своей школы учебники, на издание которых использовал свои средства. Примером может быть его учебник «Рахнамои савод» («Методика грамотности»). [Д. Алимова, 2012: ziyouz]

Важное место в новометодной школе отводилось преподаванию основных правил изучения и чтения арабского языка. В местных старых школах сразу же, как только ребёнок поступал учиться, учитель выписывал на гладко выструганной дощечке 28 букв арабского алфавита, входящие в состав отдельных слов, а затем заставлял ученика запомнить, заучить их и выговорить их по отдельным буквам. Итак «проходило 2-3 месяца, а ребенок не имел никакого представления, что такое буква и слог. А потом ученику давали «Хафтьяк». Эта книга состоит из одной седьмой части Корана, в которой собраны короткие «Суры». Ребёнок, с самого начала, приученный к бессмысленному повторению и заучиванию прослушанных им слов, в течении года перелистывал «Хафтьяк», затрачивал огромные силы и заучивал его наизусть, и только некоторые дети начинали различать немного буквы.» [М.Фаттаев, 1961: 8] Обучение письму вообще не входило в программу старометодных школ.

Шакури в своей школе знакомил своих учеников со слогами и из этих слогов составлял понятные для них слова. С первого же урока каждый слог записывался учениками в тетрадь и с первого же дня учитель давал их и читать и писать, так что ребёнок сразу же учился и чтению, и письму. После шести месяцев начального обучения по программе школы переходили к чтению других книг. В школе Шакури узбекские и таджикские дети обучались вместе. Как только, ученик овладевал грамотой ему давали читать различные книги и на узбекском, и на таджикском языках. Кроме этого, читали и некоторые азербайджанские и татарские книги, чтобы ученики познакомились с литературой и этих стран. Следует отметить, что Шакури не только занимался преподавательской деятельностью, он сам составлял учебники для школы и на свои собственные средства издавал их. Первая азбука, написанная Шакури называлась «Рахнамои савод». Он разрабатывал учебники в соответствии с возрастными особенностями детей, в них в доступной форме помимо теоретического материала, излагались правила поведения, зачатки морально-нравственных основ личности. Под влиянием европейских школ Шакури вводит в систему совместное обучение мальчиков и девочек.

Одним из выдающихся джадидов Узбекистана является Саидахмад Ходжа Сиддики, он родился в 1864 году в кишлаке Халвой недалеко от Самарканда. Он учился в местном медресе, затем работал в различных местах на разных должностях, в том числе помощником, писарем у судьи. В 1900-1901 гг. Саидахмад Ходжа Сиддики считает необходимым ознакомиться с состоянием жизни и культуры других народов и с этой целью предпринимает путешествие по странам Европы и

Азии. Он побывал в городах и странах Аравийского полуострова, в Турции, Иране, Ираке, Афганистане, на Кавказе, в крупных культурных центрах Российской империи. Во время своего путешествия он познакомился в Баку с джадидами Закавказья и вернувшись домой Сиддики вместе с выдающимся джадидом Исхокхоном Ибратом основали школу с новым методом обучения в Самарканде. Сиддики в совершенстве владел узбекским, таджикским, персидским, арабским, турецким, азербайджанским, русским языками. В 1908 – 1910 годах он перевёл на узбекский и таджикский языки произведения Л.Н. Толстого, И. Крылова, Н.Гоголя. Также, Сиддики разрабатывал специальные учебники для школ Средней Азии. В 1880 годах начал писать стихи, среди них такие сборники стихов как: «Айн уль-адаб» (Источник этики) и «Ганджинаи хикмат» (Клад притчей). В 1912 году был опубликован его дастан — «Анджумани арвох» (Собрание духов), а в 1914 году дастан — «Миръоти ибрат» (Зеркало подражания). [Аджзи. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>]

В 1903 году в своём родном кишлаке Халвои, Самаркандского уезда он открывает качественно новую школу для детей дехкан и ремесленников. Школа, организованная Саидахмадом Ходжа Сиддики, была по принципу обучения и воспитания детей похожей на существовавшие тогда европейские школы. Для взрослых он организует впервые вечернюю школу, что было совершенно новым явлением в культурной жизни Самарканда. Новометодные школы были открыты Сиддики и в других районах Самаркандской области. В 1914 году Сиддики открыл в Самарканде книжный магазин «Зарафшон» и продавал книги разных исторических эпох которые были написаны на персидском, таджикском, узбекском, турецком, русском и других языках. В 1920-е годы Саидахмад Ходжа Сиддики стал одним из важных, авторитетных деятелей народного образования и культуры в Узбекистане.

Одним из видных деятелей народного образования в Самарканде является талантливый и активный педагог Исматулло Рахматуллаев. Он с детства жадно стремился к знаниям. Закончив школу повышенного типа, с 1905 года работал учителем под руководством Абдукодира Шакури. И. Рахматуллаев, работая учителем в школе Шакури, активно принимает участие в разработке, составлении и издании новых учебников, букварей, дополнительной учебно-методической литературы. Особенно заслуживает внимания созданный им букварь “Рахбари мактаб”, который в течении более 50 лет считался одним из лучших учебных пособий для обучения грамоте на арабском алфавите. Данное учебное пособие-руководство разработано по принципу – как можно скорее и легче обучить детей грамоте. В 1913 году в городе Самарканде на улице Регистанская И. Рахматуллаев открывает самостоятельно новометодную школу, где обучает детей ремесленников и простых тружеников. С 1922 по 1926 он работал директором и преподавателем Самаркандского педагогического училища. Исматулло Рахматуллаев подготовил и воспитал сотни молодых специалистов, многие из которых стали видными деятелями в области культуры, науки и литературы, такие как писатель, поэт Хамид Олимжон, композитор Толиб Содиков, народный артист Узбекистана Раззок Хамраев, академики Вохид Абдуллаев и А. Богоутдинов, профессор Зариф Раджабов, ученый-философ Мухаммад Хакбердиев, заслуженные учителя Узаков М., Саломзаде М.,

Ходизаде, Н. Валиходжаев и многие другие.

Внедрение современных знаний, развитие печати и искусства, а также отстаивание прав женщин, заложили фундамент для дальнейшего развития народного образования и культуры в Узбекистане.

Использованная литература:

1. М. Фаттаев. Видные педагоги Самарканда. Самарканд, 1961
2. Дилором Алимова. Абдукадыр Шакури (1875 – 1943). 2012 ziyouz
3. Аджи. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Алихожиев М.О., Тажимирзаев Э.А. Джадидизм в Туркестане и просветительская деятельность джадидов. <https://cyberleninka.ru/article/n/dzhadidizm-v-turkeстане-i-prosvetitel'skaya-deyatelnost-dzhadidov/viewer>
5. Ботир Косимов. Маслакдошлар: Бехбудий, Сиддики Аджи, Фитрат – Т.: Нашриёт, 1994

JADID NAMOYONDALARINING HARBIY ISLOHATLARGA MUNOSABATI

Tavakalov Alisher Akbaralievich

**Nizomiy nomidagi O'zMPU Harbiy ta'lim fakulteti
maxsus tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, dotsent**

Annotatsiya. Maqolada *jadidchilik ta'limoti tamoyillarining integratsiyasi, talabalarning fikrlashi, mas'uliyat va o'zini safarbar etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta'lim darajasini oshirishi hamda XXI asr boshlarida mamlakatlarda ta'lim tizimlarini yangilashda muhim rol o'ynagan jadidchilik – islohot harakati alohida qiziqish uyg'otayotgani yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: jadidchilik, ma'naviy tushuncha, jasorat, ma'rifat, fidoyilik, ijtimoiy, siyosi, ma'rifiy harakat, uyg'onish mafkurasi, vatanparvarlik.

Abstract. The article highlights the special interest of the jadidism – reform movement, which has played an important role in the integration of the principles of the doctrine of jadidism, increasing the level of education of students by developing thinking, responsibility and self-mobilization skills, and updating educational systems in countries at the beginning of the 21st century.

Key words: jadidism, spiritual understanding, courage, enlightenment, self-sacrifice, social, political, educational movement, Renaissance ideology, patriotism.

Hozirgi kunda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa

bo'lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o'z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan professional kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

XX asr boshlarida mamlakatlarda ta'lim tizimlarini yangilashda muhim rol o'ynagan jadidchilik – islohot harakati alohida qiziqish uyg'otmoqda. Jadidchilik ta'limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va o'zini safarbar etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta'lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

Jadidchilik avval madaniyat va ma'rifat sohalaridagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu harakat vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Sobiq Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “Burjua-liberal, millatchilik harakati”, – deb ta'rif berilgan. Jadidchilik dastlab XIX-asrning 80-90-yillarida Qrimlik Ismoil Gaspirali rahbarligi ostida qrim tatarlar xalqi o'rtasida vujudga kelgan. Ismoil Gaspirali – qrim-tatar millatiga oid ziyolilar vakili, pedagog, yozuvchi, yirik siyosiy va jamoat arbobi. U jadidchilik va panturkizmning asoschi deb ham hisoblanadi.

Ismoil Gaspirali nomi islom Sharq xalqlarining ma'rifatparvarlik harakati – jadidchilikning ta'limning (ta'limotning yangi dunyoviyroq usuli) asos solishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ko'plab musulmon mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim berishda ko'proq dunyoviy qarashlarga urg'u beradi. Odatiy ta'limning mohiyatini va tuzilishini tubdan o'zgartirishga mansub. Ismoil Gaspirali ma'rifatparvar ta'limning kelib chiqishi va maktabda jadidchilik deb nomlangan dunyoviy bilimlarni o'qitish usulining rivojlanishida turdi. U o'zining darslik, qo'llanma va asarlarida musulmon mamlakatlaridagi boshlang'ich maktabning allaqachon tanish bo'lgan qonunlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Aynan Ismoil Gasprinskiy milliy-konfessional tizimni o'zgartirish asoslarini ishlab chiqib ta'lim tizimiga joriy qildi. Ismoil Gasprinskiy o'z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi taraqqiyot va konfessional bag'rikenglikka asoslagan.

Gaspirali Ismoil yangi o'qitish usullarini nafaqat Qrimda, balki Tatariston, Qozog'iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham amalda qo'lladi. Milliy rusumdagi yangi usul maktablari uchun darsliklar, qo'llanmalar yozgan va nashr ettirgan. Ismoil Gaspirali o'sha davrdagi Rossiya matbaa ishchilari kasaba uyushmasining rivojlaniishida mahkam turdi. Ismoil Gaspirali ko'plab “Kambag'al musulmonlarga yordam berish jamiyatlari”, “Kutubxona jamiyatlari”ni tashkil etish taklif va g'oyalarini tarqatgan va ularning ko'pchiligida shaxsan o'zi ishtirok etgan.

Ismoil Gaspiralining mafkuraviy tamoyillari va g'oyalari liberal mafkura, jamiyatning ilg'or rivojlanishi, turkiy va slavyan xalqlarning do'stligi, musulmon va xristianlarning diniy bag'rikengligi, sotsialistlarning radikal talablarini rad etish asosida yaratilgan edi. Ismoil Gaspirali jamiyat taraqqiyotining evolyutsion shakllarini yoqladi. Ismoil Gaspiralining qarashlari ijtimoiy kelib chiqish ahamiyati jihatidan atoqli pedagog va faylasuflar kabilarning g'oyalari qatorida turadi. Jadidchilik harakati harakatchilari o'zlarini vatanparvar, taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa, jadidlar deb atashgan. O'sha vaqtning ilg'or vatanparvar, taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, xalqni isloh qilish majburligini tushunib yetgandilar. Jadidchilik, avvalo, siyosiy harakat edi. Uning shakllanish, ifodalanish va mag'lubiyatga uchrash oraliqlari bo'lib, ular to'rt davirga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar: 1) 1895- 1905; 2) 1906-1916; 3). 1917-1920; 4) 1921-1929- yillarni o'z ichiga oladi.

Ilk davrda yani birinchi Turkistonda Rossiyasining podshosi mustahkam o'rnatilgan o'rinini o'zlashtirish uchun kuzatiladi. O'sha vaqtda mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik xolatlari tobora kuchaydi. Hayotiy, ilmiy va amaliyotga ega bo'lgan saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj ola boshladi. Madrasa va maktablar faoliyatlarini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. Millatning nurli istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga (chorrossiya tizimi) qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin yarata oldi. Ular orasidan yetuk olimlar, zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurti obod va o'z yurtini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar kerak bo'lsa jonini ham qurbon qildilar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida, asosan, yo'nalishlari ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish va barpo etish. [2].

XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan musulmlar tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan

qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiyotni va madaniyatni taraqqiyot etish, yurt xalqig bilim va ziyo tarqatish choralari ko'rish. Bu yo'nalishda jadidchilik xarakati esa, eng katta rol o'ynadi. Jadidchilik g'oyalari esa, XIX asrning 90-yillaridan targala boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillarining oxirlarigacha yurt ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi.

Jadidchilik xarakatida quyidagi 3-bosqichda iborat bo'lgan: 1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha – ma'rifatchilik; 2) 1915-yildan 1918-yil fevraligacha – muxtoriyatchilik; 3) 1918-yil fevral oyidan 1920-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidlar davrining xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan: 1) Yangi usuldagi maktablar tarmog'ini kengaytirish; 2) Umidli, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish; 3) Turli ma'rifiy-ma'naviy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan uchunchi xokimiyat yani gazetalarni chop etish. Ushbu reja-dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish tizimi musulmon farzandlariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish reja-dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi 2-bosqichdan tashkil topgan. 1-bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning bilim olish yani o'qish muddati 4-yilni ichiga olgan. 1-bosqichni tamomlagan shogird eski maktabda 10-yil ta'lim olgandan ko'ra yaxshiroq bilimga ega bo'lgan.

Ikkinchi bosqichni tugatgan o'quvchi arab, fors, turkiy tilda bemalol so'zlashib, rus tilida erkin gaplasha olgan. Jadidlarning millatlararo aloqalari juda keng qamrovli bo'lgani sababli ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti "Taraqqiyparvar" deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning raxbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jayev bo'lgan. I-jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, Rossiyadagi fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining "taraqqiyparvarlar" oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Turkistondagi oktyabr voqealari ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Juda kam faoliyat ko'rsatgan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Abdurashidxonov Munavvarqorining guvohlik berishicha, "Ittixodi taraqqiy", "Milliy ittixod", "Milliy istiqlol" va "Turkiston Milliy Birligi" (raisi Axmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o'lkada xokimiyatni qo'lga olish maqsadida faoliyat yuritgan.

Jadidlarning ayrimlari o'sh davr tuzumning siyosatiga ko'nikma olmay xorijga o'tib ketishdilar, qolgan qismi esa, Turkistonda mavjud bo'lgan istiqloqlar xarakatiga qo'shilib ketdilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik xarakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham, bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik xarakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Rajabov Q. Jadidchilik, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2005.
2. Jadidizm. Ensiklopedik lug'at. 1-t. – T., 1988. – P. 271.
3. Jadidizm. O'zbek sovet ensiklopediyasi. – T., 1973. – B. 278-279.

MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING SO'NGGI MANZILI HAQIDA MUHAQQIQLARNING QARASHLARI

Yuldashov Faridun Farxadovich
Markaziy Osiyo xalqlarining tillari va madaniyati instituti
Tojik filologiyasi va Sharq tillari kafedrasida I bosqich
tayanch doktoranti

Mustaqillik davrida buyuk mutafakkir va olimlar, shoir va yozuvchilar, hayotini Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida fido aylagan fidokor insonlarni xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan jadidchilik harakati namoyandalari hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib qilish va yoshlarni ular tashviq etgan ezgu g'oyalar asosida tarbiyalashga muhim mas'ala sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi".

Bu borada amalga oshirilgan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, ulug' alloma, jamoat arbobi, yozuvchi, tilshinos olim Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) hayoti va uning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotganiga amin bo'lamiz. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarorini qabul qilinishi bu jabhada alohida ahamiyat kasb etib, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda bu ma'rifatparvar olimning jasoratli hayot yo'llariga teran nazar tashlanib, qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganish yo'lida turli xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda, tavallud sanalari keng nishonlanmoqda, alloma hayoti va ijodiga oid hujjatli filmlar, asarlar yaratish, zamonaviy spektakllarni sahnalashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu albatta bejizga emas. Zero Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi ma'rifatparvar zotdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnaliga asos soldi. 1914-yilda "Turon" teatrida sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi.

Aytish joizki, bu ma'rifatparvar olimning ilmiy maqolalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati haqida shu kungacha son-sanoqsiz maqolalar, alohida asarlar, ilmiy izlanishlar amalga oshirilib, ularda allomaning hayot yo'li, faoliyatining turli qirralari haqida nodir ma'lumotlar ko'rib chiqilgan.

Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ijodiy merosini chuqur o'rganish o'zgacha ruhda boshlangan. Bu sohadagi birinchi maxsus risola 1994-yilda adabiyotshunos olim Ahmad Aliyev tomonidan yozilgan. So'ngra adabiyot va jadidchilik harakati tarixi to'g'risida bir qator olimlarning maqolalari, jumladan, "Ismoil Gasprinskiy va

Mahmudxo‘ja Behbudiylar, “Mahmudxo‘ja Behbudiylar – yangilik targ‘ibotchisi”, “Asil farzand”, “Buyuk ma‘rifatparvar” va boshqa mavzularda maqolalar chop etildi. Shuningdek, adabiyotshunos olim Sh.Rizaevning “Jadid dramasi” (1997), olimlar D.Alimova va D.Rashidovanning “Mahmudxo‘ja Behbudiylar va uning ta‘rixii tafakkuri” (1999) kitoblari rus tilida chop etildi.

Halim Saidov “Mahmudxo‘ja Behbudiylarning publitsistik va muharrirlik faoliyati” mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Tadqiqotchi Normurod Avazov shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1997-yilda “Mustaqillik qahramonlari” rukni ostida Mahmudxo‘ja Behbudiylarning “Tanlangan asarlari” nashr etildi. Shuningdek, 1999 va 2006- yillarda Behbudiylar asarlaridan saylanma qayta nashrdan chiqdi. 2019-yilda olim va jurnalist Nusrat Rahmatning “Jadid” romani chop etildi.

Aytish joizki, Behbudiylarning hayoti O‘zbekistonda va hatto chet mamlakatlarda ham o‘rganilmoqda va bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Begali Qosimov, Zaynobidin Abdurashidov, Nilufar Namozova, Ulug‘bek Dolimov, Sirojiddin Ahmedov, Naim Karimov, SHerali Turdiyev, Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova, Solih Qosimov, Ahmad Aliyev va boshqa olimlar Behbudiylar haqida ilmiy ishlar va asalar yozgan. Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; Begali Qosimov bilan hamkorlikda), AQSHda (E. Olvort, Adib Xolid) va boshqa mamlakatlarda ko‘plab olimlar Behbudiylarning hayoti va faoliyatiga oida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Afsuski, Behbudiylarning ilmiy va adabii merosi har tomonlama o‘rganilganiga qaramay, uning hayotiga oid ayrim faktlar haligacha noaniq bo‘lib, behbudiylarshunos olimlar orasida turlicha talqin qilinmoqda. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiylar qachon va qayerda qatl etilgan? Nima uchun qatl etilgan? Buxoro amiri bilan Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘rtasidagi ziddiyatning sababi nima edi? Ana shunday masalalardan yana biri Mahmudxo‘ja Behbudiylar qabri qayerda joylashgani bilan bog‘liqdir. O‘tgan asrning yigirmanchi yillari boshida yuz bergan ur-to‘polonlar davrida dushmanlari tomonidan sirli ravishda o‘ldirilgan Mahmudxo‘ja Behbudiylarning so‘nggi manzili qaerdaligi ko‘p mualliflar tomonidan o‘rtaga qo‘yilgan bo‘lsa-da, hali-hanuz bu borada bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Ya‘ni, bu savol qariyb bir asr davomida javobsiz qolmoqda va bu borada turli fikrlar mavjud. Xo‘sh, Behbudiylar qayerda dafn etilgan?

Behbudiylarning bir qancha safdoshlari, jumladan, Abdurauf Fitrat, Sadridin Aynii, Hoji Muin va boshqalar uning vafotidan keyin bu savolga javob topish ustida ishlagan bo‘lsalar ham, bu boradagi salmoqli ishlar, chuqur izlanishlar mustaqillik yillaridan keyingina amalga oshirildi. Bir guruh modernistlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar Behbudiylar qabri haqida maqolalar yozib, matbuotda

e'lon qildilar.

Bu borada taniqli olimlar – Begali Qosimov, Poyon Ravshanov, Umed Bekmuhammad, Nusrat Rahmat, Naim Karimov, Halim Said (Halim Saidov), Mo'min Azizov, ijodkorlardan Samar Nurov, CHori Hamro, Muxtor Xudoyqulov, SHarofat Ashurova va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Mahmudxo'ja Behbudiy qabri haqida barcha tadqiqotchilar turlicha fikrlarni ilgari surdilar.

Shu o'rinda aytish lozimki, "Behbudiyning g'oyib bo'lganligi va mujmal taqdiri to'g'risidagi dastlabki xabar "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1919-yil 23-aprel sonida e'lon qilingan. Ikkinchi xabar yana shu gazetaning 1919-yil 20-noyabr sonida bosilgan" [Naim Karimov. 2010. 70-bet].

1922-yilning mart oyida Behbudiyning fojiali o'limi haqidagi xabar yetib kelishi bilan endilikda "Zarafshon" nomi bilan chiqa boshlagan Samarqand gazetasining 25-mart sonida A.Azamat, Abdusalom Azimiy, Vadud Mahmud, Sadridin Ayniy va Hoji Muinning Behbudiy haqidagi xotiralari e'lon qilinadi.

Ayni paytda "Turkiston" gazetasida (1922-yil 21-dekabr) "Behbudiy muxlislariga ochiq xat", Vadud Mahmudning "Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozuvchilar" (1923-yil 10-dekabr), "Uchqun" jurnalida Hoji Muinning "Mahmudxo'ja Behbudiy" (1923-yil, 1-son), "Inqilob" jurnalida (1922-yil, 1-son) Hoji Muinning "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qanday shahid bo'lganligi va oning tomonidan yozilgan vasiyatnoma", "Maorif va o'qituvchi" jurnalida Laziz Azizzodaning "Behbudiy" (1926-yil, 2-son) maqolalari bosilib chiqadi.

Hoji Muinning "Inqilob" jurnalida chop etilgan maqolasini o'qiganimizda quyidagi ma'lumotga ega bo'lamiz: "Bu vasiyatnomadan 3-4 kun o'tar-o'tmas, bek Behbudiy afandi va yo'ldoshlarini ham Ahmadni o'ldururg'a buyurg'on va alar zindonning yonidag'i podshohlik bir chorboqqa yuborilg'onlar. Shunda alarning qotillari o'zlariga bildirilgan va o'zlari uchun shu bog'da to'rt qabr qazdirilg'on. So'ngra Behbudiy afandi va yo'ldoshlari tahorat olib, namoz o'qimoqchi bo'lg'onlar. Lekin shu choqda rahmsiz jallod muovnlari ila yetushub kelib, alarni namoz o'qirg'a qo'ymag'on va eng avval Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan. Bu holni ko'rib, Mardonquli Muhammadquli va Ahmad afandilar tavhid va shahodat kalimalarini o'qib, o'limni kutib turg'onlar. Andin keyin jallod alarni bir-bir boshin kesgan.

So'ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning na'sh (jasad)larini chiqarib, o'zlari qazg'on qabrlarga ko'mganlar va qabrlarini (bilinmasun, deb) yer ila tekiz etganlar» [Naim Karimov. 2010. 73-bet].

Bu nuqtai nazar, ya'ni mahkumlarning o'zlari bilan qabr qazish, o'sha yerda

ko'mib, yer bilan tekislash boshqa islohotchilarning tadqiqotlarida ham kuzatilishi mumkin. Masalan, yozuvchi, shoir, olim Muxtor Xudoyqulov "Hurriyat" gazetasida e'lon qilingan "Ma'rifatparvar adibning so'nggi kunlari" nomli maqolasida ham shunday mulohazalar bayon etilgan: "Notinch 1919-yilning yozida Buxoro amirligi hududiga kiruvchi Qarshi shahrining zindoniga tutash kimsasiz maydonda mudhish voqea yuz berdi — to'rt begunoh inson qatl etildi. Maqtullardan biri — mashhur ma'rifatparvar adib, "Oyina" jurnalining muharrir va noshiri Mahmudxo'ja Behbudiy va uning ikki sherigi — Mardonqul SHomahmud o'g'li va Mahmudxo'ja O'rinboy o'g'li bo'lib, bular qatorida Qarshi begining mahrami, zindonbon Ahmad degan kishi ham qatl etilgan edi. Aytishlaricha, jallodlar mahkumlarning o'zlariga o'z qabrlarini qazishni majbur qilishgan, so'ng ularni o'lim oldidan namoz o'qib olishlariga ham yo'l qo'ymay oldin Mahmudxo'ja Behbudiyini, so'ng boshqalarning bo'yinlariga pichoq tortib, boshlarini tanlaridan judo qilishgan, tayyor chuqurlarga ko'mib, o'rni bilinmasin uchun yer bilan bir qilib tekislab yuborishgan"

[<https://uzhurriyat.uz/2020/02/05/marifatparvar-adibning-sunggi-kunl/>].

Keyinroq Ayniy "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy va rafiqlarining o'chlari olindi", "Mahmudxo'ja Behbudiy haqida", "Mufti Mahmudxo'jaga bag'ishlab", "Mahmudxo'ja va rafiqlarining musibati", "Buyuk motam kuni" kabi maqolalarida sirli qotillik tafsilotlariga to'xtaladi. Xususan, "Musofir" taxallusi bilan e'lon qilgan "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy va rafiqlarining o'chlari olindi" nomli maqolasida bunday yozadi: "Turkiston yosh fikrlilarining otasi bo'lg'on samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiy afandi o'zining rafiqlari Muhammadqul va Mardonqul o'rtoqlar bilan birgalikda 1919-yil mart oyida zolim amirning qonxo'r beklari tarafidan Qarshi shahrida o'ldirilib, butun Turkiston jadid va maorifparvarlarini ulug' va qattig' musibatga uchratqon edi. Ushbu musibat ta'siri bilan 1920 yil aprel oyida Samarqand shahrida umumxalq tarafidan amirga qarshi katta namoyish hozirlanib, zolimlarga jazo berilishi talab qiling'on edi... Mahmudxo'ja Behbudiy afandining qabri bu kunda topilib, ustiga haykal ishlanib yotadir.

Behbudiy o'zining o'rtoqlari bilan hibsonada o'ldirilib, hibsonaning vogzalga qarag'on tarafda hammasi bir qabrga ko'mulganlar.

Behbudiy va rafiqlarining qabrini izlab topib, ustiga haykal ishlatishda Qarshi viloyat ijroqo'mi bilan viloyat firqo'mining boshida o'ltirg'on Jo'ra Zokiriy va Nazarif o'rtoqlar ko'b g'ayrat qilg'onlar" ["Buxoro axbori", 1923 yil 3 oktyabr].

Adabiyotshunos olim Naim Karimov esa manbalarni tadqiq etib, ushbu maqola bo'yicha quyidagi xulosaga keladi: "Mazkur sensatsion xabardan keyin ham Behbudiy va o'rtoqlarining qayerga dafn etilgani masalasi hamon yechilmay keladi" [Naim Karimov 2010. 75-bet].

Bu borada tadqiqotchi Sharofat Ashurova ham XX asrning 20-yillarida Qarshidagi hibsxonada ishlagan qo'shnisi Musaxon buva ismli qariyaning ma'lumotlariga tayanib, Behbudiy Xo'ja Abdulazizxon madrasasi yaqinidagi beklik chorbog'ida qatl etilib, shu yerning o'zida ko'mib, qabri tekislab tashlanganini ta'kidlaydi: "1967-yil edi, chamamda, otam bilan qo'shnimiz Husayinov bobo (Musaxon buva, F.Y.) gurunglashib o'tirgan ekan. Mahmudxo'ja Behbudiy haqida gap ketdi. Qo'shnimiz qartayib qolgan, g'assollarning piri edi. U kishi, 1919-yilning mart yoki aprel oylarining oxiri edi, deya esladi. Qarshi begi Tog'aybekning mirshabi ruhiy kasal bo'lib, huzuriga kelgani, u yigit Behbudiyning qatli vaqtida hovliqib qolganidan boltasi qo'lidan chiqib ketgani, amallab boshini olgani, shu kundan buyon ko'zida uyqu yo'qligini gapirib berganini aytdi. Suhbatni eshitib, men ham qiziqib qoldim. Chunki Behbudiy kim ekanini bilishni istardim. Qatlda qatnashgan mirshab yigit Behbudiy va do'stlarining qabrlarini tekislab, ustiga yo'ng'ichqa urug'i sepganlarini aytibdi. Shunda g'assol: bu musulmonning ishi emas, qanday bo'lmasin qabrga belgi qo'yib, Qur'on tilavot qilib kelasan, shundan so'ng u odam seni bezovta qilmaydi, debdi. Mirshab uch chorshanba davolanib, o'zi ko'mgan ikki qabrning ustiga tuproq uyib, belgi qo'yib kelganini aytgan ekan. Men gapga aralashib, o'sha joyning qayerdaligini so'raganimda Xo'ja Abdulazizxon madrasasi devorining ortidagi ikkita tutning tagidaligini aytdi. O'sha paytlari g'ayratli jurnalistman, qo'shnimiz aytgan joyni borib ko'rdim, haqiqatan ham ikkita qabr qarovsiz yotardi." [«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2002-yil 33-soni].

Aynan shu tadqiqotchi urushdan keyingi yillarda madrasa, chorbog'ning atrofidan ko'plab qabrlar chiqqani, odam suyaklarini yig'ishtirib, Eshon shahid qabristoniga topshirganliklarini ham ta'kidlaydi.

Bu haqda 2000-yillar boshida adib Solijon Po'latov "Nasaf" gazetasida shunday yozadi: "Men Mahmudxo'ja Behbudiyning qatliga doir ma'lumotlarni ko'zdan kechirdim, qariyalar bilan suhbatlashdim. Shu narsalarga amin bo'ldimki, Behbudiy va uning sheriklari yashirin holda atrofi qalin devorlar bilan o'ralgan xilvat chorbog'da o'ldirilib, so'ng madrasa devori yaqinidagi tut daraxti yoniga ko'milgan. Bu qabrlar 1950-yillargacha mavjud bo'lgan, keyinchalik boshqa, noma'lum joyga ko'chirilgan. O'sha tutlar ham allaqachon kesilib ketgan".

Mahmudxo'ja Behbudiyning so'nggi qarorgohi haqida olim, yozuvchi, tadqiqotchi, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Poyon Ravshanov ko'plab maqolalar yozgan. Ushbu olim o'zining "Behbudiyning so'nggi manzili" va "Behbudiyning so'nggi kunlari" maqolalarida bu masalaga alohida to'xtalib, ayni mavzu bo'yicha turli hujjat va dalillarni bayon etgan.

Ushbu olimning ta'kidlashicha "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning

sheriklarining boshini kesib tashlash, qabrlarini yer bilan yakson qilish haqidagi fikrlar noto‘g‘ri va hech qanday asosga ega emas” [«Ovozi Samarqand» gazetasi, 22- iyul, 2020-yil, 48-soni].

Ma’lum bo‘lyaptiki, ba’zi taxminlarda aytilganidek, Behbudiy qabri o‘sha paytdayoq tekislab yuborilmagan. Sho‘rolar o‘z hukmronligini mustahkamlash, xalq ozodlik harakatini tor-mor etish uchun qaqshatqich kurash olib borgan 1925- yilda u mavjud bo‘lgan” [“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2010-yil 30-soni].

Poyon Ravshanov Qarshi shahrida yashab ijod qilgan folklorshunos olim Chori Hamro, filologiya fanlari nomzodi Abdumo‘min Qahhorovdan Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri “Eshoni shahid” qabristonida ekanligini, ular ayni shu qabrning oldida komsomolga a‘zo bo‘lganliklarini nechi martalar eshitganini ta’kidlaydi va Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri “Eshoni shahid” qabristonida joylashganini bildiradi.

“Qabristonda o‘n avloddan buyon mehnat qilib kelamiz. Yoshligimda otam bilan qabristonni obodonlashtirish uchun tez-tez kelib turardim. O‘shanda dadam doimo “Eshoni shahid” qabri yonida alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri borligini aytardi. Hozir qabr nihoyatda vayrona, ta’mirlashga muhtoj. Otamning yozishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy dastlab Xoja Abdulaziz madrasasi orqasiga dafn etilgan, keyinroq shu qabristonga olib kelingan”, ta’kidlagan “Eshoni shahid” qabristoni noziri Otabek O‘rinov [«Ovozi Samarqand» gazetasi, 22-iyul 2020-yil, 48-soni].

Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri bilan bog‘liq manbalar va maqolalarni o‘rganib chiqqanimizda shunga amin bo‘ldiki, hozirgacha olimlar bu borada bir xulosaga kelmagan, fikrlar turlicha va bir-birini muayyan darajada inkor qiladi.

Mutafakkirning nevarakelini Ra‘no To‘raxo‘jayevaning ta’kidlashicha “Cho‘lpon 1920-yilda Behbudiy xotirasiga yozgan she‘rida Mahmudxo‘ja Behbudiy qabrini izlash nihoyatda xavfli bo‘lganini alohida ta’kidlaydi” [«Ovozi Samarqand» gazetasi, 22-iyul 2020-yil, 48-soni]. Shuningdek, tadqiqotchi Sharofat Ashurova ham “Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri va uning Qarshiga bog‘liqligi” mavzusida maqola yozgan. Maqolada u o‘z xotiralarini tilga olib, otasining Mahmudxo‘ja Behbudiy qabrini qidirib, bir muddat qamoqda o‘tirganini alohida ta’kidlaydi.

Bu mulohazalar o‘sha yillarda Behbudiy dafn etilgan joy noma’lum ekanligidan dalolat beradi. Olimlarning Behbudiy qabrining “Eshoni shahid” qabristonida joylashgani haqidagi fikrlari ham taxmindir. Shuning uchun, bu masalani o‘rganish va uning echimini topish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining qirralarini puxta o‘rganish, bu buyuk allomaning so‘nggi manzilini topish, bu borada zarur chora-tadbirlarni ko‘rish, shuningdek, Behbudiy qabrini aniqlash, uning atrofini obodonlashtirish, bu ma’rifatparvar mutafakkir va adib xotirasiga hurmat bajo keltirish nafaqat mas’ul

shaxslar, yo behbudiylshunos olimlarning, balki barchamizning asosiy vazifamizdir. Chunki biz bu buyuk allomaning avlodlarimiz va ajdodlarimizning pokiza ruhini e'zozlash insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: “Маънавият”, 2010.
2. П.Равшанов. Бехбудий ҳақиқати. – Тошкент: “Академнашр”, 2022.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: “Маънавият”, 2002.
4. Ш.Ризаев. Жадид драмаси. – Тошкент: “Шарқ”, 1997.
5. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 2010 йил № 30,33 сонлари.
6. “Бухоро ахбори” газетаси, 1923 йил 3 октябр.
7. “Овози Самарқанд” газетаси, 2020 йил. 22 июл, 48-сони.

TURKISTON JADIDLARI FAOLIYATIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Mirzajonov Gayrat Tayirjonovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura boshlig'ining o'rinbosari, dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidlari faoliyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari haqida so'z yuritiladi. Jadidlarning Turkistonda harbiy islohotlar o'tkazishga qarashlari tahlili berilgan. Jadidlarning ozodlik va milliy mustaqillik haqidagi qarashlari, Jadid ma'rifatlarining askarlar sonini ko'paytarish va buni mahalliy yoshlar asosida amalga oshirishga doir takliflari o'rganilgan. Qo'shinni zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan bosqichma-bosqich qurollantirish masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, harbiy harakatlar, askar, qo'shin, qo'shin tuzilishi, Turkiston, milliy qo'shin, milliy armiya.

Annotation: This article discusses the issues of ensuring public security in the activities of the Jadids of Turkestan. An analysis of the views of the Jadids on carrying out military reforms in Turkestan is given. The views of the Jadids on freedom and national independence, the proposals of the Jadid enlightenment on increasing the number of soldiers and implementing this on the basis of local youth are studied. The issue of gradually arming the army with modern weapons and equipment is analyzed.

Keywords: Jadid, Jadidism, public safety, public order, military operations, soldier, army, army structure, Turkestan, national army, national army.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishida jadidlarning o'rni va roli beqiyosdir. Ular har qanday yangilikni o'ziga xos bosiqlik, sabr-toqat va qunt bilan o'zlashtirishga harakat qildilar. Ushbu harakat asta-sekinlik bilan Turkistonda vujudga kelayotgan yangi harakat – jadidchilik harakati sifatida shuhrat qozondi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida "O'tgan asr boshida kurash maydoniga chiqqan jadid bobolarimiz ko'targan asosiy g'oya fidoyilik va vatanparvarlikdan iborat bo'lgan. Shu ma'noda ulug' mutafakkir, jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqining manfaati uch narsaga bog'liq deb aytganlar. Birinchisi g'alla, ya'ni oziq-ovqat xavfsizligi, ikkinchisi askar, uchinchisi harbiy tizimni shakllantirish deb yuz yil oldin aytgan so'zlari chuqur ma'noga ega" – ekanligi ta'kidlandi. [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan. 2024-yil 12-yanvar. <https://president.uz/uz/lists/view/6967>].

Ilm-fan, ma'rifat bobida tom ma'noda renessans ko'targan jadidlarning yaratgan merosi, ta'lim-tarbiya borasidagi sa'i-harakatlari, bugun global ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muammolarni bir asr oldin his eta olganliklarining dalolati hisoblanadi.

XIX asr oxirlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi [Xoshimov K., Nishonova S., 2005: 213]. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

Sovet davrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash masalasida davrga xos bo'lgan muhim jihat shundaki, O'rta Osiyoda Sovet hukmronligi o'rnatilgandan keyin, mavjud tuzumga qarshi mahalliy aholining noroziliklari

natijasida kelib chiqqan ommaviy tartibsizliklar, qo'zg'olonlar va qarshi kurash natijasida jamoat tartibini saqlashga alohida ehtiyoj mavjud bo'lgan. Bu borada O'rta Osiyodagi istiqloлчаilik harakati, sovet manbalarida "bosmachilik" sifatida talqin qilinadi. Aslida istiqloлчаilar Vatan ozodligi, aholi tinchligi va osoyishtaligiga erishish yo'lida kurashgan bo'lib, Madaminbek, Katta va Kichik Ergash, Ibrohimbek va boshqa qo'rboshilarning harakatlari ham barqaror tinchlikni ta'minlashga qaratilgan edi.

Shu kabi harakatlarni oldini olish, bu orqali "jamoat tartibini saqlash" bahonasida olib borilgan chora-tadbirlar, turli tuzilmalar va alohida shaxslarning xatti-harakatlari markazchilik siyosatining natijasi sifatida baholanadi. Shunday ekan tarixga haqqoniy baho bergan holda xolis yondashuv zarur. Zero, Sovet davridan ilgari ham, Turkiston hududida jamoat tartibini saqlovchi tuzilmalar muayyan tizimga asoslangan edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi harbiy vaziyatni tarixiy tadqiq etishda arxiv materiallari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada mahalliy va xorijiy arxiv materiallarini o'rganish maqsadga muvofiq.

XIX asrning 50-70-yillari Rossiya podsholigi Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amrligiga qarshi bosqinchilik yurishlarini olib bordi. Keskin harbiy to'qnashuvlardan so'ng Qo'qon xonligi zabt etilib, uning o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Xiva xonligi va Buxoro amrligi mustaqillikdan maxrum etilib, Rossiya impeiriasining vassaliga aylantirildi.

Turkiston general-gubernatorligiga Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlari kirgan bo'lib, ularning boshqaruviga harbiy gubernatorlar va uyezd boshliqlari tayinlangan [Ismoilova Jannat, 2002: 24].

Mustabid hukumatning faqat ovropaliklar ishlaydigan boshqaruv tizimi millatchilik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, tub aholini milliy-siyosiy huquqlari bilan hisoblashmas, ularga ishchi kuchi sifatida qarashga asoslangan edi.

1911-yil 31-oktabrida Turkiston general-gubernatori viloyat harbiy gubernatorlari ba boshliqlarga bergan quyidagi ko'rsatmasida mazkur siyosat yaqqol o'z aksini topgan edi: "Tub aholiga nisbatan hamisha qattiq munosabatda bo'lib, hamma sohalarda rus nomi va rus manfaati asosiy o'rinni egallashi lozim. Bizning birinchi vazifamiz rus kazaklari va krestyanlarining manfaatlarini ta'minlashdan iboratdir" [Рабочее и аграрные 1957: 36].

Bunday siyosat mustabid hukumat hukumdorlarining ilk kunlaridan boshlab barcha sohalarda izchillik bilan amalga oshirilib borildi. Masalan, V.P.Nalivkin "tub aholini qattiq nazorat va taqib ostida ushlab, qilich bilan o'lka bo'ylab izg'ib, tub aholining yuragiga qo'rquv va vahimani solib turishni" tavsiya etgan, doim qafasda ushlash zarur deb hisoblagan [Наливкин В. 1913: 136]. Bunday siyosatni amalga

oshirishda mustamlakachi hukumat ma'muriyati o'lkada yashayotgan ruslarga tayanardi va shu maqsadda ularni qurollantirishga katta ahamiyat berar edi. Masalan, 1912-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Turkiston o'lkasidagi ruslar qo'lida 3140 ta miltiq, 2912935 dona patron va 6100 dona qilich bor edi [Наливкин В. 1913: 137].

Bu bilan bir qatorda o'lkada 63 ming kishidan iborat shaylangan qo'shin bo'lgan. Shuningdek, minglab politsiya xodimlari shaharlar, qishloqlar va ovullarni kezib yurgan. O'lkada "maxsus muhofaza bo'limlari" (Туркестанское охранное отделение) tuzilgan bo'lib, ular chor ma'muriyatining "ko'z-qulog'i" hisoblangan. Ularning asosiy maqsadi tub aholining yurish-turishi va hukumatga munosabati haqida ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lgan [Ismoilova Jannat, 2002: 29].

Chor hukumati tomonidan amalga oshirilgan bosqinlar natijasida mustamlakachilikning o'rnatilishi natijasida, Turkiston xalqlari uchun mahalliy askarlarlarga zarurat ortib, ozodlikka erishning muhim shartlaridan biri sifatida aynan milliy harbiy tizim yaratish ehtiyoji yuzaga keldi. Behbudiy bu borada fikr bildirib, "... askar mas'alasidirki bu har bir narsadin muhim va muning umumiy bo'lushi lozim. Ammo musulmonlar hanuz shunga o'rganmagan va ham doxili fitnachilar qora xalqning fikridan foydalanib, ehtimolki ba'zi bir fitnalarga sabab bo'lsalar. Va ham noma'lum va siyosatdan fikri bilkulli noto'g'ri kishilar qo'lig'a yarog' o'tub, ehtimolki, kutulmagan yomon hodisalar paydo bo'lsa. Shuning uchun taklif qilamanki, to xalq o'rganib, biroz ahvol o'zgarguncha umumiy askar olinmay, ko'ngilli tariqida targ'ib va tashviq bilan ham xalqning ahvoliga qarab olinsa edi" [Mahmudxo'ja Behbudiy. 1918 yil 2 avgust.].

Demak ma'rifat, madaniyat va ta'lim tarbiya tarqatishni asosiy vazifasi deb bilgan jadidlar ijodida, jadid matbuotida askarlik masalalari, shu jumladan harbiy masalalar ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Turkistonda milliy ozodlik harakatlari, inqiloblar va uning o'lkaga ta'siri, milliy qahramonlar, harbiy harakatlar, xususan Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va tugatilishiga doir

tarixiy harbiy ahamiyatga molik voqealarga oid izlanishlar. Mazkur davr xorijlik tadqiqotchilarning milliy tarix haqida yozganlari, mahalliy xalqqa tushunarli bo'lishi uchun ayrim asarlarning aholining aksariyati tushunadigan yozuvlarda chop etilganligi bilan ham xarakterlanadi. Masalan, 1918 yil iyul oyida "I – Turkiston musulmon batal'oni" tuzilgan bo'lib, uning bunday nomlanishi borasida rus tarixchisi Brilov tomonidan "Yerli xalqdan tuzilgan hamma askariy qismlar "musulmon" nomi bilan ataldi, chunki ularning asosida milliy emas, diniy alomat bor edi", - degan fikr bildirilgan [Brilov N. 1928: 16].

Hoji Muin bu haqda fikr bildirib, hozirgi vazifamizg'a qarag'onda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy sho'rish va inqilob xorijiy

dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu sho'rishdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir [Hoji Muin. 1918-yil 13-avgust.]. Bu borada harbiy tuzilmalar avvalo mahalliy yoshlar hisobiga to'ldirilishi, uni muqaddas mehnatga aylantirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlangan va jadidlar bu borada da'vat qilganliklari matbuot sahifalarida uchraydi. Hoji Muin bu haqda yana fikr bildirib, "... boshlab yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish kerak. Askarlarning maishatlarini (shart sharoitlarini. Muallif) yaxshi ta'min etish va ba'zi urf odatlarga mudoxala qilmasliq va o'zlarini Turkistondan boshqa shaharga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e'lon qilingonda askar olishning muvaffaqiyatli chiqishi aniqdir. ... askarlik muqaddas bir xizmatdir. Askarlik xizmatiga kirishi bilan Turkiston xalqi iftixor qilishga haqlidir. Askar bo'lmoq chin huquqqa ega bo'lish demakdir. Turkiston xalqi askarlik xizmatini zo'r shodliq va butun ixlos bilan qarshi olar deb ishonamiz" [Hoji Muin, Zarafshon, 1923-yil 21-iyun].

Taniqli jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat bu masalada fikr bildirib, "... birinchi navbatda loyiha askarning sonini orttirish masalasiga to'xtaydir. Rusiyaning bugungi hukumati bilan tuzilgan muohadaga binoan Buxoroning askari 12 mingdan iborat bo'lsa kerak edi, lekin amir shu muohadadan foydalana bilmadi. Askarni tuzishda Ovrupa usullarini kirgizish kerak: "Askariy xizmat hamma uchun majburiy bo'lishi lozim". Askariy xizmatga olinadurgan kishilar do'xturlar qaramog'idan o'tushlari kerak. Kasallar, mayiblar bundan ozod bo'ladilar. Askariy xizmat muddati ikki yil. Yigirma ikki yoshga yetilgan har kim askariy xizmatga majburan chaqiriladir. Bundan keyin loyiha askarlarni o'rgatish va ta'min qilish masalasiga to'xtaladir. Loyiha juda katta kazarmalar ishlatishni, Buxoroda qo'mondonlar tayyorlash uchun harbiy maktablar ochishni askar uchun xazinadan ovqat, kiyim berishni, askarlarga oz bo'lsa ham oylik maosh berishni talab etadir" [Xo'jayev Fayzulla, 1926].

A.Qodiriy o'zining "Bizda askarlik masalasi" maqolasida quyidagilarni keltirib o'tgan: Boshqalar tarafidan huquqingning toptalmovi, chetlarga mahkum, mazlum bo'lmaslik, chet millatlarga o'z tovushingni eshitdurib eshitmoqqa majbur etuvg'a shubha yo'qkim, qo'lingdagi qurolingga, askariy kuchingga qarab bo'lur. Ko'ramizkim Ovrupo, Omriqo millatlari bunchaliq sha'n-shavkatni faqat harbiy kuch ila qozomishlardir. Ovrupo, Omriqo imperialistlari Sharq xalqini faqat qurol kuchi ila o'zlariga asir etmishlar va hali ham harbiy kuch ila Sharq mazlumlarini zanjirda tutarlar. Ammo biz sharqli mazlum musulmonlar esa shu qurolsizlik, askar yo'qlik ila shu zolim xunxo'rlar zanjiriga band bo'lmishmiz. Durust, biz sharqlilar g'arblilarga qaraganda madaniyatcha bik tubandamiz, bizim mazlumiya-timiz

madaniyatsizligimiz uchun deyilsa mumkin. Lekin shundog‘ bo‘lsa ham istiqlool olib, askarsiz yashamoq butunlay mumkin emas...

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish joizki, jadidlar Turkistonda ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, milliy ma’naviyat tarqatish bilan bilan birga mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlash, aholi manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, bu borada askarlik, ya’ni harbiy masalalarni tartibga solish masalalarida o‘zlarining aniq yo‘nalish va pozitsiyalariga ega bo‘lib, ushbu mulohazalarni Turkiston matbuotida ochiq-oydin yoritishga erishganlar. Bu borada mahalliy yoshlar hisobiga milliy qo‘shin yaratish orqli harbiy tizimni mustahkamlash pirovard maqsad bo‘lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan. 2024-yil 12-yanvar. <https://president.uz/uz/lists/view/6967>.
2. K. Xoshimov, S. Nishonova “Pedagogika tarixi”. –T.:2005 yil 213-b.
3. Ismoilova J.H. XX asr boshida Turkistonda milliy-ozodlik kurashlari (Farg‘ona vodiysidagi 1916 yil qo‘zg‘aloni misolida).//Tarix fanlari dok. Ilmiy dar. Uchun diss.T.: 2002. 24-b.
4. Рабочее и аграрные движения в Казахстане в 1905-1914 гг. Сборник документов и материалов. Алмата. 1957.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. G‘alla,, askarlik, yer va tazminoti harbiY. Mehnatkashlar tovushi, 1918-yil 2-avgust.
6. Brilov N. Qizil qo‘shin milliy qismlari va ularning tuzilishi, vazifasi. – Samarqand, O‘zdavnashr. 1928. – B.16.
7. Hoji Muin. Bizga nima kerak? Mehnatkashlar tovushi, 1918-yil 13-avgust.
8. Hoji Muin. Askarlik to‘g‘risida. Zarafshon, 1923-yil 21-iyun.
9. Xo‘jayev Fayzulla. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar.1926.
10. Qodiriy A. Bizda askarlik masalasi. Ishtirokiyun, 1919-yil 4-noyabr.
11. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. Ташкент. 1913, С.136. (V.P.Nalivkin sharqshunos bo‘lgan va mahalliy tilni juda yaxshi bilgan).

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ABDURAUFG FITRAT QARASHLARIDA OILA VA TARBIYA MASALALARI

Mushtariybegim Ismoilova

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va madaniyati instituti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilm va jaholat masalasiga bag‘ishlangan asarlari hamda Abdurauf Fitratning “Oila” risolasidagi tarbiya va ma’rifat haqidagi qarashlari tahlil qilindi. Behbudiy asarlarida ilmsizlikning jamiyat uchun xavfli oqibatlari badiiy misollar orqali ochib berilgan bo‘lsa, Fitrat asarida oilaning millat taraqqiyotidagi o‘rni nazariy jihatdan asoslangan. Har ikki adibning qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, Fitrat, ilm, jaholat, oila, tarbiya, ma’rifat.

Annotation: This article analyzes Mahmudkhodja Behbudi’s works on the problem of knowledge and ignorance, as well as Abdurauf Fitrat’s treatise Family, which emphasizes the role of upbringing and enlightenment. While Behbudi vividly depicts the destructive consequences of ignorance for society through literary examples, Fitrat theoretically explains the importance of the family in the nation’s development. The article concludes that the views of both intellectuals remain relevant today.

Keywords: Behbudi, Fitrat, knowledge, ignorance, family, upbringing, enlightenment.

Аннотация: В статье рассматриваются произведения Махмудходжи Бехбуди, посвящённые проблеме знания и невежества, а также трактат Абдурауфа Фитрата «Семья», в котором подчёркивается значение воспитания и просвещения. Если у Бехбуди опасные последствия невежества для общества показаны художественными примерами, то у Фитрата роль семьи в развитии нации обоснована теоретически. Отмечается, что взгляды обоих мыслителей не утратили своей актуальности и сегодня.

Ключевые слова: Бехбуди, Фитрат, знание, невежество, семья, воспитание, просвещение.

XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni uyg‘otish, xalqni ma’rifatli qilish va zamonaviy taraqqiyot sari yetaklashda muhim tarixiy hodisa bo‘ldi. Ushbu harakatning yirik namoyandalari qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida o‘rin tutadi. Behbudiy o‘zining publitsistik maqolalari, sahna asarlari va pedagogik faoliyati orqali xalqni ilm- fanga, ma’rifatga chorlagan, asarlarida jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida oilaviy tarbiya va yosh avlodni ilm bilan qurollantirish g‘oyalarini ilgari surdi. U Turkiston o‘lkasida yangi maktablar ochish, millatni ilm-ma’rifatga chorlash, zamonaviy fan va texnologiyalarni targ‘ib qilishda katta xizmat qilgan. Behbudiy o‘z davrida xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning yagona yo‘li ma’rifat va tarbiya ekanini chuqur anglab, butun faoliyatini shu yo‘lga bag‘ishlagan.

Behbudiy ijodida oila, yoshlar tarbiyasi va ma’rifatsizlikning oqibatlari alohida o‘rin tutadi. Uning “Padarkush” dramasi o‘z davrida xalqni hushyorlikka

chaqirgan, ota-onalar va farzandlar tarbiyasiga oid muammolarni yoritgan asar sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, uning publitsistik maqolalari ham millat kelajagini oila va yosh avlodning tarbiyasi bilan chambarchas bog'lab talqin qiladi. Shu bois Behbudiyni nafaqat jadid adabiyoti va ma'rifatparvarlik tarixida, balki bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotini o'rganishda dolzarb shaxs sifatida baholash mumkin.

Behbudiy o'zining vasiyatnomasida shunday deydi: “Biz o'z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o'z hayotimizda nima qilishimiz mumkin bo'lsa, shuni qilganimizni his etish bilan faxrlanganimizdan o'limni xotirjam kutmoqdamiz... Mumkin qadar yaxshi maktablar ochish, shuningdek, ma'orif va xalq baxt saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi”, - deb aytgan edi. Berilgan iqtibosda, eng avvalo, milliy ong va fidoyilik g'oyasi yotadi. Muallif “biz o'z qismatimizni bilamiz” deb, o'zlarining qanday og'ir sharoitda yashayotganini, oxir-oqibat mustamlaka tuzumiga qarshi faoliyatlari tufayli yo'q qilinishlari mumkinligini anglaganini ko'rsatmoqda. Shunga qaramay, ular “xalqimiz uchun qo'ldan kelganicha xizmat qilish”ni eng yuksak burch sifatida bilishgan. Bu – jadidlarning millat oldidagi mas'uliyatini ifodalovchi asosiy g'oya edi. Ikkinchi jihat shundaki, bu gaplarda ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni alohida ta'kidlangan. Behbudiy uchun eng katta “haykal” – moddiy yodgorlik emas, balki yaxshi maktablar ochish, xalqning ongini uyg'otish, ma'rifat tarqatishdir. Demak, u ilm-ma'rifatni jamiyatni qutqaruvchi yagona kuch deb bilgan. Bu qarash o'z davrida ham, bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu fikrda fidokorlik va iroda ham ko'zga tashlanadi. Behbudiy va uning safdoshlari o'z hayotlarini millat baxt-saodatiga bag'ishlagan, buning evaziga o'limni ham “xotirjam kutishga” tayyor bo'lishgan. Demak, ularning asosiy maqsadi shaxsiy manfaat emas, balki xalq ravnaqi bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning eng mashhur asarlaridan biri bu — “Padarkush” dramasidir. Asar 1911-yilda yozilgan bo'lib, o'zbek dramaturgiyasi tarixida birinchi sahna asari sifatida ham alohida o'rin tutadi. “Padarkush”da ma'rifatsizlik, jaholat va ota-onalarning farzand tarbiyasiga beparvoligi oqibatida yuzaga keladigan fojiali voqea tasvirlanadi. Asarda ilm-ma'rifatdan bebahra bo'lgan yoshning oxir-oqibat o'z otasini o'ldirish darajasiga yetishi — butun millat uchun ogohlantiruvchi ramz bo'lib xizmat qiladi. “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgon tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadanlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir. Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi”. [2. 49]

Behbudiyning ushbu fikrlari uning tarbiya va ilmga berayotgan yuksak bahosini yaqqol ko'rsatadi. U “xonavayron, bachagiryon, bevatan va bandi” kabi og'ir ta'birlarni qo'llab, xalqning ilmsizlik oqibatida boshiga tushgan falokatlarini ifodalaydi. Bu so'zlar orqali Fitrat xalqni faqat moddiy tanazzulga emas, balki ma'naviy qulga aylanish xavfiga ham ogoh etadi. Behbudiyning ta'kidlashicha, bevatanlik va xorlikning ildizi – jaholat va tarbiyasizlikdir. Agar xalq o'z farzandini ilm va tarbiya bilan qurollantirmasa, u o'z mustaqilligini, erkinligini yo'qotadi.

Demak, ilm – millatni asirlikdan ozod qiluvchi qudrat, tarbiya esa jamiyatni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi kuchdir.

Behbudiyning bu fikri o'z davri uchun ham, bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki u ilm va tarbiya yo'q joyda xalqning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayoti ham izdan chiqishini ta'kidlaydi. U millatning qoloqligini tashqi kuchlardan emas, balki ichki zaiflikdan – ya'ni ilmsizlik va tarbiyasizlikdan izlaydi.

Shu boisdan Behbudiyning da'vati xalqni uyg'otishga, yosh avlodni ilm olishga undashga qaratilgan. U "dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi" deya, taraqqiyotning yagona kaliti ilm va tarbiya ekanini qat'iy ko'rsatib beradi.

Asarda "Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas edi. Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdir" – deydi.[3.61]

Ilmsizlik - nafaqat dunyoviy balki diniy tanazzulga olib kelishi, shuningdek, inson ikki ilmni ham teng ushlashi lozimligi ta'kidlanadi.

Ushbu satrlar juda katta ma'noga ega. Asarda padarkushlik singari og'ir jinoyat tasvirlansa-da, muallif e'tiborini pichoq yoki qotillarga emas, balki uning asl sababiga — beilmlikka, jaholatga qaratadi. Bu yerda fikr shaxsiy fojidan chiqib, umumjamiyatga taalluqli bir haqiqatga aylanadi: insonni ham, oilani ham, hatto butun millatni ham inqirozga yetaklaydigan eng katta ofat — bu jaholatdir. Muallifning "boyni o'ldirgan aslida beilm" degan gapi ramziy ma'no kasb etadi. Bu bilan u jaholatni qotilga, beilmni esa eng xavfli qurolga tenglashtiradi. Shunday qilib, u oddiy bir voqeani ma'rifiy-didaktik xulosaga olib keladi: ilm insonning qalqoni, jaholat esa halokatning boshlanishidir. Agar ota farzandini ilm bilan qurollantirsa, unda tarbiya va ma'naviyat mustahkam bo'ladi, insoniylikni oyoq osti qiluvchi bunday jinoyatlar sodir bo'lmaydi.

Fitrat o'zining "Oila" asarida ilm va tarbiya masalasini bevosita oila muhitiga bog'laydi. Unga ko'ra, sog'lom jamiyatning poydevori — sog'lom oila. Agar oilada ota-ona farzandni ilmga, axloq-odobga o'rgatmasa, bu nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy fojialarga olib keladi. Fitrat ta'kidlaganidek, ota-onaning eng birinchi vazifasi farzandini maktabga yuborish, uni ilimli va komil inson qilib voyaga yetkazishdir.

Behbudiyy ko'proq voqea va dramatik tasvir orqali ilmsizlikning oqibatlari ko'rsatsa, Fitrat esa bu muommoni nazariy va ijtimoiy asoslar bilan izohlaydi.

Behbudiyning qahramonlari ilmsizlik tufayli halokatga yuz tutadi, Fitrat esa bunday halokatlarning oldini olish yo'lini ko'rsatadi. Demak, ikkalasining maqsadi ham bir — jaholatni yo'qotish, ma'rifatni yoyish, ammo uslublari turlicha: biri badiiy fojidan, ikkinchisi ijtimoiy risoladan foydalangan.

"Agarda otalarimiz farzandlarini zamona talablariga muvofiq tarbiya qilganlarida edi, bugun shunday qiyin ahvolga tushmas edik. Bu ahvolga tushgan ekanmiz, uning sababi o'sha tarbiyanidadir, ya'ni ota-onamizdan olgan tarbiyamiz yoki tarbiyasizligimizdadir". [4,61]

Ushbu munosabat Behbudiyy "Padarkush" dramasida "Oh, haqiqatda boyni

o'ldirgan ... beilmlikdir" degan fikri bilan uzviy bog'liq. Behbudiy ilmsizlikni jinoyat va halokat manbai sifatida ko'rsatsa, Fitrat bu masalaga nazariy asos beradi: jamiyatning inqirozi yoki taraqqiyoti ota-onalarning farzand tarbiyasiga bog'liq.

Fitratning ta'kidlashicha, agar ota-onalar farzandlarini zamon talabi darajasida ilmi, ma'naviyatli qilib tarbiyalaganlarida, jamiyat og'ir ahvolga tushmagan bo'lardi. Bu yerda ham javob aniq: fojiaga sabab — jaholat va tarbiya yetishmasligi. Behbudiy buni dramatik hodisa orqali ko'rsatsa, Fitrat umumjamiyat darajasida tushuntirib beradi. Behbudiy asarlarida ilgari surilgan g'oya — ilmsizlikning halokatli oqibatlarini ko'rsatishdir. U dramatik voqealar orqali jaholatning qanday qilib insonni ham, jamiyatni ham vayron qilishi mumkinligini ochib beradi. Behbudiy uchun asosiy maqsad – xalqni ogoh qilish, ilmning hayotiy zarurligini uqtirishdir. Shuning uchun ham uning asarlarida ilmsizlik faqatgina shaxsiy muammo sifatida emas, balki butun jamiyatning eng katta dushmani sifatida talqin qilinadi. Bu qarash bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki taraqqiyotning eng muhim sharti hanuz ilm va ma'rifatdir.

Fitrat esa shu g'oyani nazariy asos bilan to'ldiradi. U oilaning jamiyatdagi rolini, ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini chuqur tahlil qiladi. Fitrat jamiyatning bugungi ahvoli kechagi tarbiyadan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Demak, millatni isloh qilish uchun avvalo oilada ilm va tarbiya asoslarini mustahkamlash lozim.

Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy muammolarini chuqur anglagan va ularni hal qilish yo'lida xalqni tarbiya va ilmga da'vat etgan ziyolilardir. Ularning qarashlari bir-birini to'ldiradi. Behbudiy asarlarida tarbiya dramatik voqealar orqali tasvirlanadi. U xalqni qo'rqitish emas, balki o'ylashga undash uchun ilmsizlikning fojeaviy oqibatlari rangli bo'yoqlarda tasvirlanadi. Farzand tarbiyasi nafaqat ota-ona uchun balki jamiyat kelajagini belgilaydigan muhim omildir. Ilm-ma'rifatga yo'naltirilmagan tarbiya nafaqat bir oilaning, balki butun millatning tanazzuliga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Fitrat esa masalaga tizimli yondashadi. "Oila" risolasida u tarbiyani faqat maktab yoki ota-onaning vazifasi sifatida emas, balki jamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida ko'radi. Oila – millatning kichik bir modeli, undagi tartib va tarbiya butun jamiyatning yuzini belgilaydi. Fitrat nazarida sog'lom oilada ulg'aygan farzand ilmi, ongli va vatanparvar bo'lib yetishadi. Demak, tarbiya – millatning kelajagini ta'minlaydigan poydevordir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Behbudiy va Fitrat qarashlarining mushtarakligi shundaki, tarbiya millatni saqlab qoladigan eng asosiy vositadir. Behbudiy va Fitrat asarlarining asosiy maqsadi millat bolalarining ilmi va ma'rifatli qilish orqali forovon va mustaqil jamiyat poydevorini qurish mumkinligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev Sadulla. XX asr o'zbek adabiyoti. - Toshkent, 2005.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Jadidlar to'plami. - Toshket, 2022.

3. Abdurauf Fitrat. Oila. - Toshkent, 2000.

4. www.ziyouz.com kutubxonasi

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY- TARAQQIYPARVAR PUBLISIST

**Dildora Rustamova Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va madaniyati institutining 1-
bosqich talabasi**

Annotatsiya: Maqolada XX asrda Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakatlari faol qatnashchisi, xalq, millat kelajagi uchun molini ham, jonini ham ayamagan xalqparvar inson Mahmudxo‘ja ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, jadid, jadidchilik, publisist, ma’rifatparvar, maqola, jadid maktablari.

Donolar o‘tdilar-safari uzoq,
Quyoshday botdilar-manzili tuproq.
(Oybek)

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asrda Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakatlari faol qatnashchisidir. Istiqlol yillarida barcha jadidchilar singari Behbudiy haqidagi tadqiqotlar tadqiq qilina boshladi.

Darhaqiqat, jadidlar quyosh yanglig‘ osmonda bir porladilar-u, xalqni ma’rifat bulog‘i bilan sug‘orib, o‘zlari qumga singgan suvdek hayotlaridan ayrildilar. Ular muntazam tayziq ostida bo‘lishiga hatto o‘z boshlariga tushadigan qiyin sinovlarga qaramasdan xalqni xalqni g‘avlat uyqusidan uyg‘otish maqsadida xalqni ilm olishga chorlagan.

Behbudiy Samarqanda qolaversa Turkistonda jadidlarni otasi sifatida e’tirof etiladi. Samarqandda dastlab jadid maktablari ochgan, qator kutubxonalar tashkil etgan. Shuningdek, “Samarqand” gazetasi va “Oina” jurnallarini nashr ettirib, jamiki jadidlarni bir g‘oya, ilm egallashga chorlaydi. Samarqandga birinchi bosmaxonani olib keladi. Birinchi o‘zbek dramasiga asos solidi.

Behbudiy serqirra ijodkor. Uning maqolalari turli mavzularda yozilgan bo‘lsa-da, asosiy maqsad zahirida xalqni ma’rifatli qilish, ularni jaholat botqoqligidan qutqarishga chorlagan g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Behbudiyning “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasida shunday fikrlarni keltiradi: “Biz Turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o‘zbekni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbekiy so‘ylashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabo tilidur...Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabiy ta’lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru tarjimalari forschadur”¹. Demak, bu maqolada Behbudiy inson jahon miqyosiga chiqishi uchun bir emas, to‘rt tilni bilishi lozimligini uqtiradi. Ayni paytda nima uchun turkiy tilni va nima uchun boshqa tillarni o‘rganish kerakligini hayotiy misollar bilan dalillaydi.

Xuddi shunday ma’rifatga chorlash haqidagi fikrlarini “Ehtiyoji millat”

¹“Oyina” jurnali, 1993-yil, 1-son, 12-14-betlar.

maqolasida ham davom ettiradi. Maqola shunday boshlanadi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebehra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”².

Bundan ko‘rinadiki, Behbudiy nafaqat adib, balki, kuchli siyosatchi ham bo‘lgan. Mamlakatni qay tarzda dunyo tan olishi, o‘ta puxta, sinovlardan o‘tgan, tajribalarga asoslanganligi ta’kidlanadi. U millat taraqqiyotiga erishish borasida ham o‘z so‘ziga ega inson bo‘lganligi “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” nomli maqolasidan bilishimiz mumkin. Maqolada, millatlarning ravnaqiga sabab bo‘ladigan omillar sifatida quyidagilarni sanaydi: “Millatlar taraqqiyiga bir necha sabablar bo‘lub, tub sababi ulamo ila ag‘niyoning hamiyat va g‘ayratlaridur. Taraqqiy qilg‘on va yo endi taraqqiy qilg‘uvchi millatlar ahvoliga diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o‘z millatlariga so‘z va oqcha ila xizmat etganlari zohir bo‘lur... Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va xavoiiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasiga bildirarlar. “Millatning taraqqiyotga erishtirish haqida yozar ekan Behbudiy “rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o‘z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladur. Qafqoz, Qirim, Qozondagi musulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o‘z birodarlariga mol, oqcha, qalam va ilm ila ko‘p iona qiladurlar” deya ularning taraqqiy etishlarining sabablarini sanab o‘tar ekan, bizning o‘lkamizda bu payt qanday ahvol hukm surayotganligini shunday izohlaydi: “Ammo bizni Turkistondfa bu ishlardan so‘ylamoqqa hanuz navbat kelgani yo‘q. Har kim o‘z nafi va o‘z shaxsiy ishi ila sargardon, umumiy, yoinki, diniy va m,illiy ishlarni oyandasi uchun, millatni zamona o0damlaridek taraqqiy etmog‘i uchun, xaloyiqni isloh axloqi uchun g‘am tortuvchi va harakat etuvchi yo‘qdir”³, deya kuyunadi. Bizning yozganlarimiz dengizdan tomchi xolos. Behbudiy ijodi chinakam ma’noda keng qamrovlidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Behbudiy millatimiz uchun, biz uchun ma’rifatli avlodlarning ko‘payishi uchun jonini xatarga qo‘ygan va oxiri sirli ravishda qora kuchlar tomonidan o‘ldirilgan millat Qahramoni edi. Biz - kelajak avlod vakil-u vakilalari sifatida bugungi tinch va osoyishta hayotimiz uchun bor-u yo‘qlarini qurbon qilgan millat faxriylarini unatmasligimiz va ularga munosib ziyoli bo‘lib ulg‘aymog‘imiz zarur. Zero, Asqad Muxtor yozganidek:

O‘zimmniki emas bu umr,
To‘la menikimas, sezib turibman.
Bir vaqtlar meni deb halok bo‘lgan kimdir,
Men uning uchun ham yashab yuribman!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

²“Samarqand” gazetasi, 1913-yil 12-iyul

³“Samarqand” gazetasi 1913- yil, 30-iyul

1. Qosimov B. Behbudiy karvonboshi. "Yoshlik" jurnali. 1990-y. 19, 26-yanvar
2. Karimov N. "Mahmudxo'ja Behbudiy". T.: 2010
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. T.: 1994
4. "Samarqand" gazetasi. 1913
5. "Oyina" jurnali. 1993. 1-son

BEHBUDIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Hamroyeva Munisa Ulugbekovna

Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy merosi, uning ilmiy-ma'rifiy g'oyalari va qarashlari tahlil qilinadi. Behbudiy millat ruhiyatini, ma'rifat bilan yuksaltirish, yangi usuldagi maktablarga mos darsliklar tashkil etish lozimligini, shuningdek, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish g'oyalarini ilgari suradi. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi kun bilan bog'lab tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Maktab, maorif, darsliklar, pedagogika, milliy qadriyatlar, yangi usul maktabi.

Annotation: This article analyzes Mahmudkhoja Behbudi's scientific and educational heritage, as well as his pedagogical ideas and their significance in the spiritual development of the nation. Behbudi emphasized that the progress of a nation depends on enlightenment and education. He devoted his life to promoting new-method schools, teaching secular sciences, and raising the intellectual level of the youth. The article also examines the relevance of Behbudi's pedagogical ideas to modern education.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, education, school, enlightenment, pedagogy, national values, new-method school.

Jadidchilikning harakatiga o'zining munosib tamal toshini qo'ygan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Turon o'lkasida o'sayotgan har millatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega ziyolilardan edi. U jadid adabiyoti harakatining asoschilaridan biri bo'lib, umrini elning savodli qilish, xalqni jaholatdan uyg'otish hamda taraqqiyot sari yetaklashga bahshida etdi. Behbudiy ta'lim jarayonini isloh etish, o'quv dasturi va darsliklarini zamon talablari darajasiga ko'tarish, yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli qilib ulg'aytirish g'oyasini ilgari surgan. "Sadridin Ayniyning 1923- yilda Turkistonda nashr etilgan "Inqilob uchqunlari" she'riy to'plamida Behbudiy quyidagi satrlar bilan yodga olinadi:

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?

Saning mislingni Turkiston topalurmu, topolmasmu?"

[Qosimov B. Maslakdoshlar. B.4]

Darhaqiqat, bugun shunday millat kelajagi uchun ham ma'naviy, ham diniy, ham ijtimoiy doirada astoydil bel bog'lab xizmat qilayotgan insonlar Behbudiydek bobokalonlariga munosib izdosh bo'la olarmikin, degan savollar qiynaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda 19-yanvar sanasi Samarqandda tug'ildi.

Dastlab eski maktab-madrasada o'qiydi. So'ngra qozixonalarda mirzalik, muftilik qiladi. [Qosimov B.Maslakdoshlar.5-b] O'sha paytda yozilgan ko'plab gazeta-jurnallardagi maqolalariga "mufti Mahmudxo'ja Behbudiy" deb imzo chekilganligi haqida ma'lumot beriladi. Arabiston, Turkiya, Misr kabi Sharq mamlakatlariga, shuningdek, Qozon, Ufaga borganligi haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Adibning pedagogik va ijtimoiy-siyosiy qarashlari faqat ilm emas, balki dunyo ilmlaridan xabardor siymo sifatida namoyon bo'ladi. Behbudiy Gaspirinskiy bilan aloqada bo'lgan. Ular Turkiston musulmonlarini ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni mukammal egallash lozimligi haqida o'zlarining qarashlarini ilgari suradi.

Turkistonda yangi usul hamda umuman jadidchilik harakatlarining vujudga kelishida Samarqand adabiy muhitida albatta, Behbudiyning munosib ulushi bor. U o'zining "Oina" jurnalai va "Samarqand" gazetasida barcha jadidchilik harakati asoschilari bilan hamkorlikda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida samarali mehnat qilishdi. Ularning Turkistonda ta'lim tizimining isloh qilinishi kabi g'oyalari Qrim, Ozarbayjon, shuningdek, Qozon mamlakatlariga qaraganda 15-20 yil kechroq kirib kelgan. Buning tub sababi, albatta, o'sha vaqtdagi hukmron siyosiy tizim tomonidan millatning ta'lim jarayonidan imkon boricha uzoqda tutilishga tirishilganidir. Hatto, tarixiy manbalardan ma'lumki, yangi usul maktablari dastlab ruxsat bilan ochilmagan, ammo keyin bu bo'yicha maxsus komissiya hamda talablar kiritilgan. Ular quyidagicha edi:

1. Mahalliy maktablar Chor ma'muriyatining maxsus ruxsatnomasi bilan ochiladi.
2. Mahalliy maktablar ochish va unda o'qitish siyosiy jihatdan to'la ishonchli bo'lgan Rossiya fuqarolariga ruxsat etiladi,.
3. Ruxsat etilgan o'quv darsliklaridan foydalaniladi.
4. Maxsus ruxsatnomasiz maktab ochgan kishilar esa bir umrga maktab ochish va dars berish huquqidan mahrum etiladi. [Karimov N.Mahmudxo'ja Behbudiy.-22b]

Samarqandda ochilgan "usuli savtiya" maktablaridan biri Jomboy tuman Rajabamin qishlog'ida ochilgan. Ushbu maktab Abduqodir Shakuriy hovlisida ochiladi. Keyinchalik, Behbudiyning uzoqdan qatnaydigan shogirdlarini hisobga olib, maktabni o'z hovlisiga ko'chiradi

Behbudiy darsliklar qolaversa, dunyo ilmlarini ham egallash lozimligi haqida "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" (Qisqacha umumiy geografiya), Madhai jug'rofiyai umroniy" (Ahlo geografiyasiga kirish), "Kitobat ul-atfol" (bolalar kitobi), Muxtasari tarixi islom" (Islomning qisqacha kitobi) nomli turli fanlarga oid darsliklar yaratgan. Hozirgi kunda Behbudiyning darsliklari bilan "Ma'naviyat" nashriyotidagi "Tanlangan asarlar"i orqali tanishish mumkin. Behbudiyning "Samarqand usuli jadid maktabining imtihoni xususida" nomli maqolasida o'zi o'tkazgan imtihonlar va unda ota-onalar, savdogar-u katta amaldor, pristavlar qatnashgani hatto "Hoji Mavlonbek janoblari olti soat qadar muttasil turib, bolalarning qiroat va ilmi dindan bergan javoblariga tahsinlar o'qib, hatto muallimga 15 som hadya berdilar". [Jahon adabiyoti.2023. B.148 bet]

Behbudiy maktab-maorif sohasida faqat tashkil etish yoxud darsliklar bilan cheklanib qolmay, "Behbudiya" kutubxonasiga ham aso soladi. O'quvchilar faqat

ilm yoki tarbiya, din masalasi bilan to‘xtab qolmasliklari kerakligini “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasidan anglab olish mumkin. Yoshlarni til o‘rganishga ham da‘vat etadi. Shuningdek Behbudiy mamlakatimizda behuda sovrilyotgan mablag‘larni farzandlarimizni chet elda o‘qitish, ilmiy qilish singari millat uchun manfaatli sohalarga yo‘naltirishga undaydi. Bu bilan millat kelajagiga yorqin nazar va umidli nigohlarini qadaydi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning har bir asari, maqolasi va shuningdek uning so‘nggi vasiyatnomasida ham, millat muammolari, ilmsizlik va savodsizlikning oldini olishga qaratiladi. Ammo bu yechimini izlayotgan jumboqlar hamon to‘lig‘icha barham topgani yo‘q. Adibning hayot yo‘li, albatta, uning bosh egib yashamagani va millat taqdirini o‘z taqdiridek ko‘ra olgan chinakam pedagogning chin ma‘nodagi fidoyiligi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent.: 2024.
2. Karimov.N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent.: 2010.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar.Toshkent.: 1994.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. Toshkent.: 2002.
5. Qosimov B. Dolimov U. Ma‘rifat darg‘alari .Toshkent.:1990.

“TANQID” KONSEPTI BEHBUDIY NIGOHIDA

Irisova Komila

**Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti
talabasi 2-kurs magistranti**

Annotatsiya: ushbu maqolada Behbudiyning adabiy tanqid haqidagi fikrlari tahlil qilinib, shu mavzuga oid maqolalari o‘rganib chiqildi va natijalari bayon qilindi. Maqolada konsept atamasiga ham alohida to‘xtalib o‘tilib, tanqid konseptiga Behbudiyning va boshqa jadidlarning ham bildirgan fikrlari asos qilib olindi.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, tanqid, saralamoq, konsept, jadidchilik, matbuot, teatr, til bilish, munaqqid, isloh, xotir.

O‘zbekiston jadidchilik harakati XX asr boshlarida millat taqdirini o‘zgartirishga qaratilgan eng muhim ma‘rifiy-siyosiy jarayonlardan biri bo‘lib, uning markazida adabiyot, matbuot va teatr orqali milliy ongini uyg‘otish g‘oyasi yotardi. Bu davr ziyolilari jamiyat taraqqiyotini tahlil qilar ekan, avvalo tanqidni ma‘rifatning eng muhim vositasi sifatida ilgari surdilar. Shunday ulug‘ ma‘naviy rahnamolardan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy tanqidni millat taraqqiyoti, ruhiy uyg‘onish hamda jamiyatni isloh qilish yo‘li sifatida talqin qilgan. Uning nazarida tanqid – bu oddiy nuqson sanash emas, balki millatni yuksalishga undovchi fikriy kuch, ijtimoiy zaruratdir.

Adabiy tanqid tushunchasining ilmiy-nazariy ildizlari qadimdan mavjud bo‘lsa-da, uni konsept darajasida idrok qilish jadidchilik davrida yangicha mazmun kasb etdi. “Tanqid” arabcha “naqd” so‘zidan kelib chiqib, aslida “sof narsani nosof narsadan ajratish, eng yaxshini saralash” degan ma‘noni anglatadi. Behbudiy ana

shu ma'noni asos qilib "Tanqid - saralamoqdir" maqolasini yozadi. Tanqid tushunchasi uning maqola va chiqishlarida faqat adabiyot bilan emas, balki ta'lim, teatr, siyosat, til va jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi.

Konsept atamasi hozirgi zamon tilshunosligi va madaniyatshunosligida tilning mazmuniy markazini, xalq tafakkurida shakllangan bir-biriga yaqin birliklarni ifodalovchi atama sifatida qaraladi. Shunga ko'ra, "tanqid konsepti" deganda Behbudiy nigohida shakllangan "isloh-taraqqiyot-saralash-uyg'onish" tushunchalari majmuasi nazarda tutiladi. Behbudiyning matbuotdagi chiqishlari, gazetalardagi maqolalari, teatr sahnalari uchun yozgan asarlari ana shu saralashning amaliy ko'rinishidir.

Ushbu maqolada Behbudiy tomonidan ilgari surilgan tanqid konsepti ilmiy asosda tahlil qilinadi, uning shakllanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy omillar ochib beriladi va jadidlar fikrlari bilan qiyoslanadi. Maqolaning maqsadi – Behbudiy tanqidni qanday tushuncha sifatida anglaganini, unga qanday ma'naviy yuklamalar berganini va bu tushunchaning millat uyg'onishidagi o'rnini ilmiy nuqtayi nazardan yoritishdan iborat.

XX asr boshlarida Turkiston siyosiy jihatdan Rossiya mustamlakasi bo'lib, milliy ma'naviyat, ta'lim va matbuot erkinligi cheklangan edi. Jamiyatda jaholat, savodsizlik, diniy tushunchalarning "moslashtirilgan" talqini, ijtimoiy adolatsizlik va ma'rifatsizlik kuchli hukm surardi. Ana shunday vaziyatda millatni uyg'otish, xalqni zamonaviy dunyoqarashga olib chiqish uchun tanqidiy tafakkur zarur edi. Behbudiy bu haqida tanqidsiz millat o'z nuqsonini bilmasligi, tanqid qilmagan el taraqqiy etmasligini yozadi.

Behbudiy tanqidni nafaqat adabiyot doirasida, balki butun jamiyatni uyg'otishga qaratilgan ma'rifiy qurol sifatida talqin qildi. U "Tanqid - saralamoqdir" maqolasida tanqid qilish dushmanlik emas, balki ham maqtash, ham tuzatish deb tushuntiradi. Bu fikr tanqid konseptining asosini tashkil etadi: tanqid – millatni isloh qilishga bo'lgan muhabbat va mas'uliyatdan kelib chiqqan fikr ekanini uqtiradi.

Jadid matbuoti va teatriga tanqid ruhi kirib kelishi bilan milliy o'zlikni anglash jarayoni faollashdi. Behbudiy tanqid orqali xalqni fikrlashga chorladi, u millatni "uyqu" holatidan uyg'onish uchun avvalo nuqsonlarni ko'rish lozimligini uqtirdi. Shunday qilib, tanqid konsepti faqat "kamchilik topish" emas, balki "eng yaxshi yo'lni izlash va jamiyatni yangilash yo'lidagi fikriy jarayon" sifatida shakllandi. "Tanqid" tushunchasi tarixan nafaqat adabiy janr, balki falsafiy birlik sifatida ham shakllangan. Arab tilidagi "naqd" so'zi "pulni soxtadan ajratmoq, sofini saralamoq" degan ma'noni anglatadi. Bu ma'no jadidlar talqinida "haqiqatni yolg'ondan ajratish, jamiyatdagi illatlarni ko'rsatish orqali taraqqiyot sari yo'naltirish" ma'nosini berib bordi.

Behbudiy tanqidni tafsir qilib, uni fikrlar elagi sifatida baholaydi, tanqidsiz yozilgan asar, tanqidsiz aytilgan so'z – foydasizligini uqtirmoqchi bo'ladi. Chunki tanqid elagidan o'tmagan fikr xalq uchun foydadan ko'ra zararga olib borishi muqarrardir. Demak, tanqid Behbudiy nazarida millat tafakkurini sof holga keltiruvchi konsept bo'lib, xalqni anglash, fikrni isloh etish va ma'rifat sari yo'naltirish vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tanqid konsepti uch

asosiy tarkibiy qismdan iborat: islohiylik – jamiyatdagi nuqsonlarni bartaraf etish niyatida bildirgan fikr; ma’rifiylik – xalqni fikrlashga, savod chiqarishga chaqiruvchi ruh; milliylik – tanqid orqali milliy o’zlikni anglash, mustaqillik g’oyasini shakllantirish. Behbudiy tanqidni aynan shu tushunchalar orqali yoritgan. Bu esa tanqidni oddiy estetik bahodan yuqoriroq vazifalarni bajaruvchi darajasiga ko’taradi.

Zamonaviy tilshunoslikda “konsept” tushunchasi tildagi ma’lum so’z yoki ibora ortida turgan keng, murakkab, ijtimoiy-madaniy mazmunni ifodalaydi. Bu – inson ongidagi tayanch tushuncha, millat tafakkur modeli, madaniyatda shakllangan ma’naviy qadriyatdir. Konseptlar so’zlarning qaysi guruhga kirishini anglashda asosiy rol o’ynaydi. Shu nuqtai nazardan “tanqid konsepti” – faqat bir atama emas, balki jamiyat ongida uyg’ongan ma’naviy zarurat, isloh, yangilanib borish g’oyasini mujassam etgan konseptual birlik sifatida talqin etiladi.

Behbudiy va yosh bo’la turib adabiyotni tanqid qilib chiqa olgan Cho’lpon tanqidni aynan konseptual birlik darajasida anglaganligi bilan o’z davri ziyolilaridan ajralib turadi. Ular uchun tanqid – mafkuraviy kurash, jaholatga qarshi kurashning asosiy usuli edi. Behbudiy fikricha, tanqid negativ emas, aksincha, ijobiy, ezgulik g’oyasiga xizmat qiluvchi fikriy harakatdir.

Behbudiy “Padarkush” dramasi orqali oila, jamiyat va ta’limdagi illatlarni tanqid qilar ekan, bu tanqid oddiy “ayblash” emas, balki millatni uyg’otishga qaratilgan harakat sifatida namoyon bo’ladi. Shuningdek, uning “Taraqqiy”, “Oyina” nashrlarida chop etilgan maqolalari tanqidni ma’rifatparvarlikning asosiy shakliga aylantiradi.

Behbudiy shunday yozadi: “Tanqidni ko’tarolmag’animizg’a to’grisi, tanqidg’a loyiq bo’lmaganimizni misoli”. Behbudiy uchun tanqid – milliy islohotning boshlang’ich nuqtasidir. U tanqidni “muvaffaqiyat kaliti”, “milliy fikrni uyg’otuvchi mash’al” sifatida talqin qilib, har bir ziyoli o’z fikrini erkin bayon qilishi lozimligini targ’ib qildi. Behbudiy tanqidni shaxsga emas, tizimga qaratdi; uning nigohida tanqid qilish – kimnidir qorish emas, balki jamiyatdagi illatlarni ko’rsatib, taklif berish va sog’lom fikrni shakllantirish demakdir.

U maqolalarida eski usuldagi ta’lim tizimini tanqid qilib, zamonaviy fanlarni joriy etish zarurligini biz tanqid qilmasak, ertaga bizni tarix tanqid qiladi deb biladi. Savodsizlik ichra qolgan millat o’z millatini uyg’otishga harakat qiladi. Bu fikr tanqid konseptining zamon ruhiga mos ravishda shakllanganini ko’rsatadi: tanqid bu yerda jadidlar o’z zimmasiga olgan tarix va millat oldidagi mas’uliyat bilan chambarchas bog’langan.

Behbudiy tanqidni “isloh konsepti” sifatida anglagan. Uning har bir maqolasi millat ruhiyatini yangilashga, xalq tafakkurini o’zgartirishga yoxud ma’naviy barkamollik hosil qilishga qaratilgan. Adibning fikricha, tanqiddan qo’rqmaslik – taraqqiyot belgisi, tanqiddan qochish esa jaholat timsolidir. Shu sabab Behbudiy tanqidni fikriy jasorat deb baholaydi va uni milliy taraqqiyotning poydevori sifatida ko’rsatadi.

Behbudiy nazarida tanqid matbuot erkinligi bilan chambarchas bog’liqdir. Chunki matbuot milliy fikrni shakllantiruvchi asosiy vosita bo’lib, tanqidiy ruh

aynan gazeta va jurnallar orqali xalq ongiga singdiriladi. Behbudiy gazetalar millatning ko'zi, qulog'i, tili ekaniga to'xtalib, agar bu tillar tanqid aytmasa, millatning ham tilsiz, gung bo'lib qolishiga ishora qiladi.

Behbudiy tomonidan boshqarilgan "Oyina" jurnali orqali nafaqat yangilik tarqatdi, balki milliy tanqid maktabini yaratdi. Bu nashrda jamiyatdagi illatlarni ochib beruvchi maqolalar, xalqni o'z xatolarini anglashga chaqiruvchi tanqidiy tahlillar chop etilgan. Behbudiy tanqid orqali matbuotni "millat dardini aytuvchi minbar" sifatida shakllantirdi.

Shuningdek, u teatr san'atiga tanqidiy ko'z bilan qaradi. "Padarkush", "Baxtsiz kuyov" kabi pyesalar xalqning illatlarini sahna ko'zgusiga olib chiqdi. Bu dramatik tanqid konsepti jamiyatga bevosita ta'sir ko'rsatish, millatni hissiy uyg'otish vazifasini bajaradi. Behbudiy uchun teatr – tanqidning estetik ko'rinishi bo'lib, unda tanqid fikrdan tuyg'uga, tuyg'udan esa ongga ta'sir etadi.

Behbudiy tanqid konseptini milliy ruhni uyg'otuvchi kuch sifatida talqin qilgan bo'lsa, boshqa jadid mutafakkirlari ham bu g'oyani o'z asarlarida izchil davom ettirdilar. Munavvar qori Abdurashidxonov tanqiddan qo'rqmasdan xalqni o'z xatosini tan olishga chaqirdi. Fitrat esa tanqidni millat tafakkurining eng yuqori darajasi sifatida qaraydi. Abdulla Avloniy esa tanqidga tarbiya konsepti sifatida yondashib, tanqidni ruh tarbiyasiga bog'laydi. Shunday qilib, uch mutafakkir qarashlarida tanqid konsepti turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Tanqid - uyg'onish, tanqid - isloh, tanqid - ma'rifat, savodsizlikdan qutqaradigan dunyoqarash, tanqid - muhabbat, ya'ni sevgan narsangni maqtashdir. Shunday qilib, tanqid konsepti Behbudiy tafakkurida faqat ilmiy atama emas, balki milliy ruh, ma'naviy ong va jamiyat taraqqiyotining mafkuraviy asosiga aylanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z ijodi, publitsistikasi va pedagogik faoliyati orqali tanqidni milliy tafakkur, ma'rifat va islohotning yadrosi ya'ni markazi darajasiga ko'tardi. U tanqidni shaxsga qaratilgan ayblovlardan emas, balki jamiyatni uyg'otishga xizmat qiluvchi intellektual harakat sifatida talqin etdi. Behbudiy nigohida tanqid – millat o'zini anglash yo'lida zarur bo'lgan "fikr oynasi", "ilm elagi", "isloh quroli"dir. Uning maqolalari, teatr asarlari va matbuotdagi chiqishlari shuni ko'rsatadiki, tanqid millatning o'ziga qaytishi, ma'naviy uyg'onishi va tafakkur erkinligi uchun zarur bo'lgan eng muhim konsept sifatida shakllangan.

Maqola davomida shuni kuzatish mumkinki, Behbudiy tanqidni nafaqat adabiyot doirasida, balki siyosiy, ijtimoiy va ma'rifiy jarayonlar bilan bog'liq holda ko'radi. U tanqidni millatni jaholatdan xalos etuvchi ma'rifiy chora, ma'naviy yangilanishning boshlanish nuqtasi sifatida baholaydi. Behbudiy uchun tanqid – milliy g'oyaning harakatlantiruvchi kuchi, jadidchilik mafkurasining tamal toshidir. Boshqa jadid mutafakkirlarining ham qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqid konsepti barcha jadidlar tafakkurida uyg'onish quroli sifatida talqin etilgan, biroq Behbudiy bu konseptni eng mukammal shaklda nazariy asoslagan va amaliyotga tatbiq etgan.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy tanqidni konseptual birlik sifatida yuksak darajaga ko'targan, uni millatning ruhiy qutqaruvchisi sifatida talqin etgan. Bugungi kunda ham Behbudiy ilgari surgan tanqid konsepti o'z dolzarbligini yo'qotmagan

bo'lib, zamonaviy o'zbek adabiyoti va ilmiy fikrida metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.B Nazarov, A Rasulov, Q Qahramonova, Sh Axmedova O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi, Cho'lpon nashriyoti, Toshkent 2012
- 2.Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. "Ma'naviyat" nashriyoti 2009
- 3.O'zbek adabiy tanqidi. Toshkent, "Turon-iqbol", 2011.
- 4.Umurov H, Adabiyot nazariyasi, Toshkent, 2012
- 5.Xudoyberganov N, Rasulov A. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi tarixi, Toshkent, O'qituvchi, 1990.

BEHBUDIY VA MATBUOT

Ozoda Abdusamatova Xolmamat qizi
Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti
talabasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning matbuotda e'lon qilingan maqolalari bugungi kun nuqtayi nazaridan talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Matbuot, yoshlar, jamiyat, til, maktab, ilm, illat, tanqid, shaxsiyat, dunyoqarash, teatr, kelajak, tarix, jadid, vasiyat, sirli o'lim, burch.

Mahmudxo'ja Behbudiy tariximizning murakkab bir davrida yashadi. U o'zining ilmi, dunyoqarashi, jonkuyarligi va vatanparvarligi sabab, shunchaki yashay olmadi. Behbudiy millatning, yurtning kelajagini o'yladi, zamonasidagi voqeliklarga loqayd qarab tura olmadi.

Adibning 1915-yildagi "Oyna" jurnalining 13-sonida "Bizni kemirguvchi illatlar" nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda to'y va a'za marosimini "... bizni jahannamg'a va tahlikag'a yumalatadurg'on ikki qattol dushman" – deb yozdi.

Maqolada odamlarning haftalab, oylab o'z ishi qolib marosimlarga vaqt ajratib yurishi, a'za bo'lgan uy, o'lik egalarining borini har kuni odamlar oldiga qo'yib, o'zlarining har tomonlama qiynalib qolganligi holatlari yoritilgan.

Sog'adigan sigiri yo'q, lekin ko'pkarida ot chopish uchun bor puliga ot sotib oladigan odamlar, ko'pkarida esa ot tagida qolib mayib- majruh bo'lganlarning ko'pini muallif kuyunib yozadi. Bu borada, Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasidagi ko'pkariga borgan Esanboyning, ot tagida qolib halok bo'lgani voqeasini ham esga olish mumkin.

Bu mavzular oradan 100 yildan ortiq vaqt o'tibdi, bugun uchun ham dolzarb. Bu borada tushuntirish ishlari va hukumat qarorlari e'lon qilinmoqda. Ammo, bulardan tashqari, xalqning o'zi ham, bugungi kun kishisi jamiyatimizning har bir a'zosi to'y va a'za haqida, uni o'tkazish tartibi to'g'risida o'ylab, o'zining odil va mustaqil fikriga ega bo'lmog'i lozim.

Behbudiy to'y va ta'ziyaga ketkazadigan pulimizni, ilm yo'liga sarf etsak, Yevropadagidek taraqqiy etshimizni yozadi. Va mavzuni o'zining keskin fikri bilan

yakunlaydi:

“Yo‘q, agar hozirgi holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”.

Behbudiyning 1914- yil “Oyna” jurnalining 32- sonida “Teatr nadur” nomli maqolasi chop etilgan. Unda muallif “Teatr- ibratnomadur”- deb yozadi. Maqoladan parcha:

“Teatrxona sahnalarinda qo‘yilaturg‘an asarlar, fojea ya‘ni qayg‘ulik, mazhaqa ya‘ni kulgu drama ya‘ni hangomalik bir voqea hodisani tasvir etib, xaloyiqg‘a ko‘rsatilur. U voqeadagi yamonliq va yaxshiliqning paydo bo‘lish sababini har kim ko‘rub, anglab, ibrat olur. Va yamonliqdan qochib, yaxshiliqg‘a harakat qilmoqqa, teatrdan ko‘rsatilg‘on voqealar sabab bo‘lur”.

Bu fikrlar bugungi kun kishisiga ham teatrga bormoqlik lozimligini uqtiradi. Ushbu maqolada, yana muallif turli kitoblarni o‘qib ta’sirlanamiz, ammo teatrdan voqeani aynan ko‘rib xulosa qilishimiz, bu esa eshitgandan ko‘ra ziyoda ekanligini yozadi.

Maqolada, “Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teatrbop asar yo‘q edi”- deyiladi va o‘zining “Padarkush” dramasi ilk teatrlarimizga moslab yozilgan sahna asari bo‘lganini Behbudiy ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, teatr bugun ham ibratxona. Teatrlarimizga faqat borish kerak, xolos. Sababi hozir teatr va sahna uchun yozilgan asarlar ko‘p.

Behbudiy “Oyna” jurnalining 1913-yil 1-sonida esa “Ikki emas to‘rt til lozim” nomli Behbudiyning maqolasi chop etilgan.

Unda “Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa’diy, “Masnaviy”(J.Rumi asari) dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Navoiy, Boqiy, Sanoiy, Nobiy, Nojiy, Somiy, Akrambek, Abdulhaq Somiylardan shunday lazzat oladur”- deyiladi. Yana bir o‘rinda, “Bizga ma’lumki, o‘z naf‘imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o‘quylik. Davlat mansablarig‘a kirayluk”- deyiladi. Mana shu qisqagina jumlaning o‘zi bugungi kun uchun ham o‘ta muhim.

O‘z foydamiz uchun ruschani bilishimiz lozimligini yuz yil oldin Behbudiy aytgan edi. Yoki biz qo‘shimcha tilni biladigan bo‘lsa, bu muloqot vositasi bo‘lishdan tashqari, Behbudiy ta’kidlaganidek, o‘sha tilda yozilgan asarlarni ham asl variantida o‘qiy olish, tushunish imkoniyati degani emasmi?!

“Xulosa bugun bizlarg‘a to‘rt tilg‘a tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya‘ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy”- deb fikrini yakunlaydi muallif.

Ko‘rish mumkinki, Behbudiy kabi olim insonlar, ilm kishilari millatning kelajagini oldindan ko‘ra oldilar, 45 yillik qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, bugungi muammo va vaziyatlarga, qolaversa, bugungi kun kishisiga bir asr oldin o‘z munosabatini aytishga ulgurgan edi.

Behbudiy o‘z davrida “Turkiston hukumati bolsheviklar qo‘linda bo‘lmay, balki xaloyiq qo‘lunda bo‘lsun”. [O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi 1995-yil 6-yanvar soni] - deya olgan millat va xalq farzandi edi.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li tomonidan 1922- yil 7-yanvarda Samarqandda e’lon qilingan Behbudiyning “Vasiyatnoma”si ayniqsa, o‘quvchining diqqatini tortishi, shubhasiz:

“Ey, Turkiston maorifida bo‘lg‘on o‘rtoq va o‘g‘lonlarim! Men garchi o‘zim

bandi bo'lsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib o'taman:... Manim so'zlarimni quloqlaring'izg'a olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi bo'lub yurub, axir o'n kundan beri (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo'lig'a tushib bandi bo'ldik. Jadid, kofirlik otini ko'tardik... Bu yerdan qutulmogo'imiz gumon bo'ldi... Maorif yo'lida ishlaydurg'on muallimlarning boshini silangizlar...Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar. Bizning otimizg'a maktablar ochungizlar. Biz qabrimizda tinch yoturmiz..."

Bu so'zlarni har bir o'zbek millatiga mansub odam, shu yurtida yashayotgan vatandoshlarimiz, hammamiz yuragimizning tubida saqlamog'imiz va bu so'zlar bugun qilayotgan har bir natijamiz va muvaffaqiyatimiz uchun turtki bo'lishini ta'kidlash joiz.

Bugungi kun buyuklarimiz ko'ksiga otilgan o'qlar, joynamoz ustida kesilgan boshlar, qabrsiz daxshatli o'limlar evaziga kelganini anglash har birimizga yurt uchun yanada mas'ullikni yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaynobiddin Abdirashidov, Alisher Sa'dullayev, Bahodir Karimov, "Mahmudxo'ja Behbudi". Toshkent.: 2022.
2. Begali Qosimov, "Mahmudxo'ja Behbudi" Tanlangan asarlar. Toshkent.: Ma'naviyat. 1997.
3. Farmon Toshev, G'olib Hasanov, Akram Haydarov. "Zarafshonning Behbudiysi". (Maqolalar) Toshkent.: 2020.
4. Halim Saidov. "Turkiston dahosi". Toshkent.: 2025.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING "PADARKUSH" DRAMASIDA ILM-MA'RIFAT MASALASI

Boqiyeva Dildora Soxib qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari tahlil qilinadi.

Annotation: This article analyzes the importance of science and enlightenment in the drama "Padarkush" by Mahmudkhoj Bebudi, one of the founders of the jadid movement.

Tayanch so'zlar: ilm-ma'rifat, jadid, Samarqand, Toshmurod, domulla, ziyoli, Tangriqul, marifatparvar, jaholat, dramaturg.

Keywords: science and enlightenment, new, Samarkand, Tashmurod, domulla, ziyoli, Tangriqul, enlightenment, ignorance, playwright.

Taniqli publitsist, dramaturg, din va jamoat arbobi jadidchilik harakatining

asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy ko‘p qirrali ijodkor, qolaversa, dramaturg sifatida taniymiz.

Behbudiy pedagog sifatida maktablar uchun “Risoi asbobi savod”, “Kitob ul-atfol”, “Muxtarasi tarixi islom” kabi kitob va darsliklar yaratdi. U 1901-yildan boshlab turli gazetalarida maqolalari e‘lon qilinadi. Keyinchalik u 1911-yilda “Padarkush” dramasi yaratdi. Bu birinchi o‘zbek dramasi hisoblanadi. Bu drama “Milliy fojia” nomini olgan. Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” qissalari yaratilishiga turtki bo‘lgan. O‘zbek dramaturgiyasiga yani teatrga asos bo‘lgan. Asar boy bilan domullani suhbatida asosida boshlanadi. O‘z zamonasining obro‘li insonlar suhbatida boylik ilmida ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, ilm bilan boylik o‘rtasida katta bir jarlik bor. Ikkalasi shu jarlikning ikki tomonidaligi, o‘sha davrda ilmga boylar tomonidan mablag‘lar ajratilish kerakligi yoritiladi. Domulla ham shu asnoda boydan yordam so‘raydi. Unga maslahat tarzida farzandini o‘qitishini aytib o‘tadi. Boyga farzandining ilm olishi qiziqitirmas edi. O‘z ilmlaridan o‘rgatishini aytib o‘tadi. O‘zining salohiyati, ilm darajasi yetuk bo‘lmagan boy hayotidagi eng katta xatoga yo‘l qo‘yadi, ya‘ni bola tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish nu ota–onaning zimmasida ekanligi yoritilgan.

Boyning farzandi faxsh va yomon ishlar ila band bo‘lar uni hech narsa qiziqitirmas edi. Yonidagi do‘stlari ham o‘ziga o‘xshagan tayinsiz edi. Hatto pul uchun o‘z uyiga o‘g‘irlikka tushadi. Ota qotili bo‘lib ona qarg‘ishini oladi. Hayotini go‘zalligini maishat deb bilgan Toshmurod o‘zining hali hayotini yaratmasidanoq sovuq Sibir tomon surgun bo‘ladi. Qahramonlarni ikki guruhga ajratsak birinchi guruh boy, Toshmurod va uning gumashta do‘stlari, ikkinchi guruh domulla, ziyoli Toshmurod befarq o‘z manfaati yo‘lida har qanday to‘siqni olib tashlaydigan manqurt farzand. O‘zini anglab yetmagan, hayotidan birgina manfaati maishat. Asosiy bola hayotida ota-onaning o‘rni katta. Ilmli ma’rifatli bo‘lgan bola hech ham qabohat botqog‘iga botmaydi.

Dramada domulla tomonidan ibratomuz bir so‘z yangraydi: “Chilen va boylarni izzatlari vaqtincha xalqni kuzi ochilguncha, ishi tushganlari izzat qilar. Mulloni barcha xalq izzat qilar. Mulloni ilmi izzat qilinadi. Haqiqatdan olib qaralganda boy vaqti kelib martabasini boyligini yo‘qotishi mumkin. Ilm ahli esa hech qachon ilmini yo‘qotmaydi. Yillar davomida unga hamroh bo‘ladi.

Boyning hayoti o‘z farzandi sababli barbod bo‘ldi. Farzandini jaholatli qilib qo‘ydi. Dramada Boyni pichoqlanish voqealariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak; Tangriqul otasini ahvolidan hech ham achinmaydi hatto o‘ylamaydi. Toshmurod Boyga kim edi. Javobi oddiy hech kim.

Tangriqul-chi? Jigarbandi hayotining yarmi farzandi ediku. Otasining

o'limiga sababchi bo'lgan bunday farzandni nima deb atash mumkin. Asar nomlanishi ham shunga borib taqaladi. "Padarkush" ya'ni ota qotili.

Biz bir narsani anglab olishimiz darkor. Insonni jamiyatlardagi o'rnini salohiyati tarbiyasi muomalasi ko'rsatib turadi. Ilmli inson shu hislarni o'zida mujassam qila oladi. Drama maqsadi bolalarni ilmli qilishga chaqirish. Hayotni to'lig'icha anglaguncha bo'lgan muddat bola uchun ko'p sinovlarga boy bo'ladi. To'g'ri yo'l ko'rsatishda albatta ota-ona mas'ul shaxs. Bolani ilmga yo'naltirishi, yaxshi tarbiya ila o'stirmog'i kerak. Boy ham Ziyoli bilan Domullaning gaplariga quloq solganida balki hayoti bunday yakun topmasmidi. Drama so'ngida onaning farzandini qarg'agan o'rinlari e'tiborni tortadi. Onayizorni og'riqli so'zlari quliqqa og'ir eshitiladi. U ham hayotni bergan bu sinovga o'g'lini ayiblaydida. Ayb nafaqat Toshmurodda balki, o'zida turmush o'rtog'ida ham.

Boy xotining ayanchli dilni o'rtaydi hayqirig'i har bir inson qalbini larzaga soladi. Farzandining bir umrlik ota qotili tamg'asini olishi. Turmush o'rtog'ining o'z uyida o'ldirilishi. Ona qalbini parcha-parcha qilib yuboradi. Bu sabablarga ilmsizlik masalasini asos qilib olamiz. Insonlarning bu dramadan oladigan taassurotlari beqiyos bo'lishi turgan gap. Asosiy g'oyasi "ilm va tarbiya" bo'lgan bu dramada. inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi holatlar ham bir talay.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, ilm-ma'rifat asosiy g'oya bo'lib xizmat qilgan. Jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan erishish lozimligi e'tirof etiladi. Inson faqat va faqat jaholatga ilm orqali najot topadi. Ma'rifatning kaliti bu ilm. Ota-ona farzandini ilmga yo'naltirishlari kerak. Har bir muammoni yechimi bu ilmdir. Bundan qariyb XII asr oldin yashab o'tgan bobomiz Imom al-Buxoriy aytganidek – "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay". Farzandni yoshligidan ilm ahloqqa o'rgatish kerak. Shundagina kamolatga erishadi. Farzandni tarbiyasiga ota-ona javobgardir. Ota-ona farzandini mehnatga o'rgatish kerakligi o'qtilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. Jadid adabiyoti yoki ma'rifatparvarlik (maqolalar to'plami)
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.: T.: Ma'naviyat, 2002.
3. Abdirashidov Z., Egamqulov N. – Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Oyna" jurnali (2019).
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARIDA TARIXIY XOTIRA VA ADABIY QADRIYATLAR

Burhonova Zumrad

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili”

yo‘nalish talabasi Asror qizi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d Rajabov Faxriddin

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining tarixiy va adabiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Behbudiy asarlarining tarixiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati, ularning milliy taraqqiyot va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada Behbudiy ijodida tarixiy xotira, milliy o‘zlik, adabiy-estetik qadriyatlar va axloqiy tamoyillar uyg‘unligi ko‘rsatib berilgan. **Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudiy, tarixiy meros, adabiy meros, milliy o‘zlik, ma‘naviy qadriyatlar, adabiyotshunoslik, madaniyat.

Annotation: This article is devoted to the study of Mahmudkhodja Behbudi’s historical and literary heritage. The research analyzes the significance of his works in the context of history, culture, and society, as well as their role in shaping national identity and spiritual values. The article demonstrates the unity of historical memory, national identity, literary-aesthetic values, and moral principles in Behbudi’s creativity.

Keywords: Mahmudkhodja Behbudi, historical heritage, literary heritage, national identity, spiritual values, literary studies, culture.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida milliy uyg‘onish harakati jadidchilik orqali kuchli namoyon bo‘ldi. Ushbu harakatning yetakchi arboblardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) bo‘lib, u ma‘rifatparvarlik, publitsistika, dramaturgiya va jamoat ishlari orqali xalqni taraqqiyotga da‘vat etgan. Behbudiy faoliyati nafaqat ta‘lim islohotlarini ilgari surishi, balki milliy adabiy merosni yangicha mazmun bilan boyitishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlarda Behbudiy asarlari ma‘rifiy va ijtimoiy mazmuni jihatidan ko‘p bora tahlil qilingan. Masalan, H. Yoqubov “Behbudiy dramaturgiyasi Turkiston ma‘rifatparvarlik ruhining yorqin ifodasi bo‘lib, u jamiyatda yangi tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaganini” ta‘kidlaydi¹¹. Shuningdek, E. Rustamov ham “Behbudiy publitsistik merosi xalqning milliy o‘zligini anglash va tarixiy xotirasini mustahkamlashda asosiy omillardan biri bo‘ldi” deya qayd etadi¹². Biroq bu tadqiqotlarda asosan uning pedagogik faoliyati

¹¹ Yoqubov, H. Alisher Navoiy va Sharq adabiyoti. Toshkent: Fan, 1981. – B. 97.

¹² Rustamov, E. Navoiy va ma‘naviy meros. Toshkent: Fan, 1991. – B. 87.

va teatr merosiga urg'u berilgan bo'lib, adabiy-estetik qadriyatlar va tarixiy xotiraning badiiy ifodasi yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Behbudiy merosida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlar o'zaro uyg'unlashgan. Chunki Behbudiy nafaqat ma'rifatchi sifatida, balki xalqning tarixiy ongini shakllantiruvchi, badiiy vositalar orqali milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi ijodkor sifatida ham muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotning maqsadi – Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarning ifodalanish usullarini aniqlash va ularning jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Behbudiy hayoti va ijtimoiy-madaniy faoliyatining tarixiy sharoitini tahlil qilish;
2. "Padarkush" dramasi va publitsistik maqolalarida tarixiy xotira ifodasini aniqlash;
3. Uning asarlarida adabiy qadriyatlarning shakllanishi va ma'naviy-tarbiyaviy xususiyatlarini ochib berish;
4. Behbudiy merosining hozirgi davr uchun dolzarbligini baholash.

Mahmudxo'ja Behbudiy merosi tarixiy va adabiy jihatdan o'zbek milliy uyg'unish davrida katta ahamiyat kasb etgan. Uning asarlari orqali xalqni ma'rifat, ozodlik va milliy ong sari yetaklash jarayonlari ko'rinadi. Behbudiy o'z dramatik, publitsistik va ilmiy faoliyati orqali xalq tafakkurida tarixiy xotirani uyg'otish va adabiy qadriyatlarni yangicha ruhda ifodalashga intilgan. Avvalo, uning dramatik asarlari milliy teatrning shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Masalan, "Padarkush" dramasi orqali u xalq ongiga jaholat va nodonlik oqibatlarini ko'rsatib, ma'rifatli jamiyat zarurligini ta'kidladi. Adabiyotshunos N.Mallayev bu borada shunday deydi: "Behbudiy dramasi nafaqat badiiy asar sifatida, balki xalqni uyg'otuvchi ijtimoiy vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan"¹³. Bu asar orqali u o'z davri muammolarini adabiyot orqali ifodalashning yangi uslubini boshlab berdi. Ikkinchidan, Behbudiy o'zining publitsistik maqolalarida tarixiy voqealar va milliy merosni xalq ongiga yaqinlashtirdi. Uning fikrlari xalqni savodli bo'lishga, ilm olishga undagan. Bu haqda adabiyotshunos H.Yoqubov shunday yozadi: "Behbudiy publitsistikasi tarixiy ong va milliy o'zlikni uyg'otishda hal qiluvchi omil bo'lgan"¹⁴. Demak, u publitsistik asarlarni milliy qadriyatlarni mustahkamlash va tarixiy xotirani tiklash vositasi sifatida qo'llagan. Uchinchidan, Behbudiy ijodida milliy uyg'unish g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi

I. Sulton bu haqda shunday deydi: "Behbudiy merosida xalqni milliy uyg'unish sari chorlovchi kuchli ijtimoiy va ma'rifiy ohang mavjud"¹⁵. Shu jihatdan uning ijodi faqat o'z davri bilan emas, balki keyingi o'zbek adabiyoti va ma'naviy hayotining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. To'rtinchidan, Behbudiy o'z asarlarida tarixiylik va badiiylikni uyg'unlashtirishga erishdi. Adabiyotshunos

¹³ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976. – B. 214.

¹⁴ Yoqubov H. Alisher Navoiy va Sharq adabiyoti. Toshkent: Fan, 1981. – B. 97.

¹⁵ Sulton I. Adabiy meros va milliy uyg'unish. Toshkent: Universitet, 1991. – B. 118.

E.Rustamov ta'kidlaganidek: "Behbudiy o'z ijodida tarixiy voqealarni badiiy shaklda berib, o'quvchini milliy qadriyatlar va tarixiy saboqlar haqida o'ylashga majbur etadi"¹⁶. Bu esa uning asarlarining nafaqat davriy, balki umummilliy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Natijada aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiy merosi tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi orqali millatni ma'rifat sari yetaklagan bebaho manba hisoblanadi. Uning asarlari o'z davrida xalqni uyg'otishga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda ham milliy adabiyot va tarixiy ongini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

Behbudiyning ijodida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarning bir-birini to'ldiruvchi, uyg'un sistema hosil qilgan.

1. Dramatik strategiyalar — ta'lim va axloqiy ogohlik shakli. "Padarkush" asarida Behbudiy ta'lim va ilmni nafaqat individual rivojlanish, balki ijtimoiy obro'-e'tibor va jamoat salomatligi mezoni sifatida tasvirlaydi. Domulla qahramoni orqali berilgan aniq xulosalardan biri shunday ifodalanadi: "Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur"¹⁷. Bu satr dramatik matn ichida ta'limning axloqiy-tarbiya vazifasini, jamiyatni jaholatdan saqlash va milliy taraqqiyotni ta'minlashdagi markaziy o'rnini ta'kidlaydi. Muhokamada ko'zga tashlanadiki, Behbudiy dramatik voqealarni ijtimoiy tanqid va ma'rifiy darsga aylantiradi: sahnadagi konfliktlar – boylikning jaholatga tortishi, oilaviy ajrimlar, nohaqlik – bularning barchasi ta'lim orqali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar sifatida beriladi. Shu tarzda drama nafaqat estetik voqea, balki tarbiyaviy tekstga aylanadi; tomoshabinlar orasida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarning emotsional singdirilishi amalga oshiriladi.

2. Publitsistika va shiorlar – xabardorlik va mobilizatsiya vositasi. Behbudiy politikasiga va ma'rifiy tashviqotiga xos jihatlardan biri – qisqa, aniqlik bilan ifodalangan shior va ochiq maqolalar yordamida keng ommani uyg'otishdir. 1917 yildagi mashhur chaqirig'i bu jihatning yaqqol namunasidir: "Haq olinur, berilmas!"¹⁸. Bu ibora soddaligi va kuchi bilan ijtimoiy-xarakterdagi talabni obsessiv tarzda yetkazadi: huquq, erkinlik, adolat – bular sovg'a sifatida berilmaydi, balki jamiyat tomonidan talab qilib olinishi yoki himoya qilib olinishi kerak. Muhokamada aniqlanadiki, bunday formulalar Behbudiy uchun «tarixiy xotira»ni jamiyat ongida faollashtirish mexanizmi bo'lgan. U ozodlik va milliy o'zlik shakllanishini faqat estetik tasvirlar orqali emas, balki siyosiy-ma'rifiy kodlarga suyanan holda amalga oshiradi. Bu esa jadid harakatining siyosiy-tezkor repertuarini kengaytirib, keyingi bosqich – Turon muxtoriyati va boshqa siyosiy tashabbuslarda qayta ishlangan platformani yaratishda muhim rol o'ynaydi.

3. Ijtimoiy xulq va iqtisodiy-ma'rifiy asoslar. Behbudiyning publitsistik maqolalarida (masalan, "Bizga islohot kerak") ijtimoiy odatlarni tanqid qilish va

¹⁶ Rustamov E. Navoiy va ma'naviy meros. Toshkent: Fan, 1991. – B. 87.

¹⁷ Behbudiy M. Padarkush (drama). (sahna matni; Ziyo.uz onlayn nusxasi).

¹⁸ Behbudiy M. Haq olinur, berilmas! // Hurriyat, 13 iyul 1917yil.

ularni ma'rifiy kurash orqali o'zgartirish tashabbusi aniq ko'rinadi. U bayon etgan gapi bugungi kunda ham muhim pedagogik strategiyani ifodalaydi: "To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniyalar, ilm ba din yo'lga sarf etsak, anqarib avropoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro' va rivoj topar"¹⁹. Bu iqtibos Behbudiyning jamiyatni yangilash yo'lida moliyaviy va madaniy ustuvorliklarni qayta belgilash taklifini aks ettiradi: oila va mahalladagi xarajatlarning strukturasi o'zgartirish orqali resurslarni ta'lim va ilmga yo'naltirish kerakligi ta'kidlanadi. Muhokamada bu ijodiy strategiya tarixiy xotirani «to'g'ri yo'naltirish» vositasi sifatida baholanadi – ya'ni jamiyat o'z tarixiy tajribasini qayta sharhlab, ma'rifatga sarmoya kiritish orqali kelajakni qurishi kerak, degan xulosa.

4. Til siyosati va madaniy o'zlik – bilim olish va strategik til tanlovi. Behbudiyning tilga oid qarashlari («Ikki emas, to'rt til lozim» va «ruscha bilish zarurligi») milliy taraqqiyot strategiyasining muhim bo'lagi sifatida ko'rib chiqilgan. U yozadi: "Bizga lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilaylik. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hattoki, diniy islom va millatga xizmat ilmsiz bo'lmaydi"²⁰. Bu iqtibosdan ko'rinadiki, Behbudiylarni faqat madaniy identifikator emas, balki iqtisodiy va siyosiy samaradorlik vositasi sifatida qabul qiladi. Bu fikr Behbudiyning milliy xotirani shakllantirishdagi pragmatik yondoshuvini ochib beradi: tarixiy ongini va milliy o'zlikni mustahkamlash uchun xalq an'analari va tilini hurmat qilgan holda, zarur texnik tillarni egallash orqali zamonaviy olam bilan bog'lanish lozim. Bu strategiya ijtimoiy transformatsiyaning ikki yoqlamasini – an'ana va modernizatsiyaning – uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida baholanadi.

5. Behbudiylarning merosi: tarixiy xotira, adabiy qadriyat va amaliy ta'sir. Behbudiyning dramatik matnlari (masalan, "Padarkush") ijtimoiy muammolarni badiiylashtirib, tomoshabinni axloqiy-ijtimoiy tanqiddan o'tqazuvchi vositaga aylanadi; publitsistika esa qisqa, aniq formulalar orqali ommaviy ongini mobilizatsiya qiladi; til-siyosatga oid maqolalar esa milliy taraqqiyot strategiyasining ilmiy-asosli elementlari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bularning barchasi birgalikda tarixiy xotirani faollashtirish va adabiy qadriyatlarni jamiyatga singdirish mexanizmini tashkil etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiylarning ijodi nafaqat o'z davrining tarixiy va adabiy jarayonlarini aks ettirgan, balki bugungi kun uchun ham muhim ma'naviy-meros vazifasini bajaradi. Uning asarlarida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlar bir butun sifatida uyg'unlashgan bo'lib, ular jamiyatning ma'rifiy rivojlanishi, milliy o'zligini saqlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash yo'lida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Behbudiylarning dramatik ijodida, xususan "Padarkush" kabi asarlarida, insoniy hayotdagi murakkab muammolar – adolat, sadoqat,

¹⁹ Behbudiylarning M. Bizga islohot kerak // Najot, 17 aprel 1917 yil.

²⁰ Behbudiylarning M. Ikki emas, to'rt til lozim // Oyna, 13 avgust 1913 yil.

insonparvarlik, bilimga intilish – badiiy obrazlar orqali ifodalanadi va tomoshabin ongiga chuqur singdiriladi. Bu ijodiy yondashuv nafaqat estetik zavq berish, balki tarbiyaviy va ma'rifiy missiyani amalga oshirishga qaratilgan. Shuningdek, uning publitsistik merosi qisqa, lekin ma'noli shiorlar va maqolalar orqali keng ommaga ta'sir ko'rsatadi, tarixiy xotirani uyg'otadi va jamiyatni yangilanishga chorlaydi.

Til siyosatiga oid qarashlari Behbudiyning milliy taraqqiyot strategiyasidagi muhim element bo'lib, u o'zbek tilining qadriyatini himoya qilgan holda, boshqa tillarni o'rganish zaruratini ham ta'kidlagan. Bu yondashuv ijtimoiy transformatsiyaning ikki yo'nalishini – an'ana va modernizatsiyani uyg'unlashtirish – ta'minlaydi. Behbudiyning merosi tarixiy xotira, adabiy qadriyat va amaliy faoliyatning uzviy birlashmasi bo'lib, u bugungi kun ijtimoiy-ma'naviy jarayonlariga ham muhim hissa qo'shadi. Uning ijodi yosh avlod uchun nafaqat adabiy namuna, balki ma'rifiy maktab, milliy ong va axloqiy tamoyillar manbai hisoblanadi.

Shunday qilib, Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlari tarixiy va adabiy meros sifatida o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. U nafaqat o'z davrida, balki zamonaviy jamiyatda ham milliy qadriyatlarni asrash, tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish va milliy ongni yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Behbudiyning merosi bugungi kunda ham ilmiy, ma'rifiy va madaniy jihatdan chuqur o'rganishga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiyning M. Bizga islohot kerak // Najot, 17 aprel 1917 yil.
2. Behbudiyning M. Ikki emas, to'rt til lozim // Oyna, 13 avgust 1913 yil.
3. Behbudiyning M. Padarkush (drama). (sahna matni; Ziyoz.uz onlayn nusxasi).
4. Behbudiyning M. Haq olinur, berilmas! // Hurriyat, 13 iyul 1917yil.
5. Mallayev, N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976.
6. Rustamov, E. Navoiy va ma'naviy meros. Toshkent: Fan, 1991.
7. Sulton I. Adabiy meros va milliy uyg'onish. Toshkent: Universitet, 1991.
8. Yoqubov H. Alisher Navoiy va Sharq adabiyoti. Toshkent: Fan, 1981.

JADIDCHILIK HARAKATIDA NAVOIY AN'ANALARI: BEHBUDIY NIGOHIDA NAVOIYNING MA'NAVIY MEROSI

Axrorova Mahina Avazovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti, filologiya fanlari nomzodi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati vakillaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodida Alisher Navoiyning ma'naviy merosi,

uning milliy uygʻonish gʻoyalariga taʼsiri tahlil qilinadi. Behbudiy nigohida Navoiyning maʼnaviy merosi qanday talqin qilinganligi, jadid maʼrifatparvarlik harakati va Navoiyning insonparvarlik, ilm va axloq haqidagi qarashlari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik yoritiladi.

Kalit soʻzlar: jadidchilik, Behbudiy, Alisher Navoiy, maʼnaviyat, milliy uygʻonish, maʼrifat, adabiy meros.

Аннотация. В статье анализируется духовное наследие Алишера Навои в творчестве Махмудходжи Бехбуди, одного из представителей джадидского движения, и его влияние на идеи национального возрождения. Показано, как духовное наследие Навои осмыслялось Бехбуди, и неразрывная связь между джадидским просветительским движением и взглядами Навои на гуманизм, науку и нравственность.

Ключевые слова: джадидизм, Бехбуди, Алишер Навои, духовность, национальное возрождение, просвещение, литературное наследие.

Abstract. The article analyzes the spiritual heritage of Alisher Navoi in the works of Mahmudkhoja Behbudi, one of the representatives of the Jadid movement, and its influence on the ideas of national revival. It is shown how Behbudi interpreted Navoi's spiritual legacy and how inseparable the connection is between the Jadid educational movement and Navoi's views on humanism, science, and morality.

Keywords: Jadidism, Behbudi, Alisher Navoi, spirituality, national revival, enlightenment, literary heritage.

Anʼana shunday ijodiy jarayonki, u uzluksiz izlanish, doimiy mashq, sabr- toqat va mashaqqatli mehnat tufayligina yuzaga keladi. Shu bilan bir qatorda anʼana deyilganda ulugʻ sanʼatkorlarning adabiy merosi va tajribalarini hamda badiiy mahorat “sirlar”ini ijodiy oʻrganish va davom ettirish nazarda tutiladi. Anʼana – olamni badiiy idrok etish sohasida boʻgʻindan boʻgʻinga, davrdan davrga oʻtib kelgan adabiy tajribalardir. Zotan, “arabcha soʻz boʻlgan “anʼana” atamasining lugʻaviy maʼnosi ham kekxa boʻgʻinning maishiy hayoti-yu, ijodiy maktabida sinalgan, jilosi oʻchmaydigan narsalarni, vositalarni yangi boʻgʻinga oshirish”⁴ demakdir. Aslida dunyoda oʻtmish adiblari ijodini qayta badiiy idrok etmaydigan va ularning ijodiy xususiyatlari, badiiy elementlari, obrazlarini oʻzida jamlamaydigan, oʻz taraqqiyoti davomida oʻzigacha yashagan ijodkorlar maʼnaviy merosiga tayanmaydigan milliy adabiyotning oʻzi yoʻq. Mavjud anʼanalarni yangilash, ularni yangi davr sharoitiga mos holda kelajakka taqdim qilish mumtoz badiiy merosga vorislik sanaladi. Shu boisdan ham adabiy jarayon hodisasini oʻrganishda anʼana va novatorlik, adabiy taʼsir masalalari hamda madaniy merosga vorislik adabiyotshunoslikning muhim ilmiy muammolaridan hisoblanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholatdan xalos etish, maʼrifat va taraqqiyot sari yetaklashga qaratilgan edi. Bu davr ziyolilari — Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fitrat kabi maʼrifatparvarlar oʻz faoliyatlarida milliy adabiyotning buyuk namoyandalari, xususan, Alisher Navoiy asarlaridan ilhom olganlar.

Behbudiy Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki millatning axloqiy-ruhoniyl yetakchisi, maʼnaviyat timsoli sifatida koʻrgan. U Navoiyning “insonga xizmat qilish” va “ilm bilan jamiyatni yuksaltirish” haqidagi qarashlarini jadidchilik gʻoyalariga uygʻun

⁴ Соатова Н. Анъанавийлик ва vorislik. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2019. – B. 69.

holda talqin etgan.

Navoiy an'analari va jadidchilik mafkurasi o'rtasidagi uzviylik

Alisher Navoiy o'zining boy ma'naviy merosi, insonparvarlik g'oyalari, ilm- fan va axloqiy barkamollikka da'vat etuvchi asarlari bilan nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham o'zbek madaniyati va tafakkurining poydevorini yaratgan buyuk mutafakkirdir. Uning asarlarida millat, til, ma'naviyat va ilmga bo'lgan chuqur hurmat keyinchalik jadidchilik harakatining shakllanishida muhim manba bo'ldi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholatdan qutqarish, ma'rifat, ilm va milliy o'zlikni anglash g'oyalariga asoslandi. Bu maqsadlar o'z ildizlarini Navoiy ta'limotidan olgan edi. Alisher Navoiy insonni kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida ilm va ma'rifatni ulug'lagan bo'lsa, jadidlar ham aynan shu g'oyani amaliy hayotga tatbiq etishga intildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy — jadidchilik mafkurasining yirik vakillaridan biri sifatida Navoiy an'analarini zamonaviy ruhda davom ettirdi. Uning **“Padarkush”** dramasi, maqolalari va publitsistik faoliyatida Navoiy asarlaridagi insoniylik, adolat, vatanparvarlik va axloqiy poklik g'oyalari yangicha shaklda ifodasini topadi. Behbudiy uchun ma'rifat — xalqni uyg'otuvchi, millatni yuksaltiruvchi kuch bo'lgan, bu esa Navoiy ilgari surgan ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi.

Behbudiy ijodida Alisher Navoiyning “komil inson” haqidagi tasavvuri yangicha mazmun kasb etadi. U zamonaviy dunyoqarash, fan va ta'lim orqali komillikka erishish mumkinligini ta'kidlab, Navoiy g'oyalarini yangi davr ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirgan. Shu bois, Behbudiy asarlarida Navoiyning ma'naviy merosi nafaqat eslatma sifatida, balki jadidchilik mafkurasining g'oyaviy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Behbudiy Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi “Elga xizmat qilmoq — eng oliy fazilat” degan g'oyani o'zining ijtimoiy faoliyatining shiori sifatida qabul qilgan. U **xalqni ma'rifat bilan ozod qilish** — Navoiyning “jaholat zulmati”ni yengish haqidagi orzusining davomidir, deb bilgan.

Shuningdek, Behbudiy maktab islohoti, yangi o'quv dasturlari, diniy- ma'naviy yangilanish masalalarida ham Navoiyning “ilm ahliga ehtirom” tamoyiliga amal qilgan. Uningcha, Navoiyning har bir asari “millat uyg'onishining manbai”dir. Shunday qilib, Alisher Navoiy an'analari va jadidchilik mafkurasi o'rtasidagi uzviylik Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy merosi Behbudiy tafakkurida yangi davr ruhiga mos tarzda talqin etilib, milliy uyg'onish va ma'rifat g'oyalariga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Behbudiy nigohida Navoiy — ma'naviy ideal

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining eng ilg'or ma'rifatparvar ziyolilaridan biri bo'lib, o'zining fikriy qarashlarida milliy uyg'onish, ma'rifat va axloqiy kamolot masalalariga alohida e'tibor bergan. Uning dunyoqarashi va ma'naviy izlanishlarida Alisher Navoiy shaxsi va merosi alohida o'rin tutadi. Behbudiy nazarida Navoiy nafaqat o'zbek adabiyoti asoschisi, balki butun turkiy xalqlar uchun ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi, axloqiy va intellektual kamolot timsolidir.

Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilm va ma'rifatga muhabbat kabi g'oyalar Behbudiy faoliyatining asosiy ma'naviy tayanchiga aylangan. Behbudiy uchun Navoiy — bu o'z umrini xalq xizmatiga bag'ishlagan, adolat va haqiqatni yuksak qadrlagan, ma'naviyatni jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida anglagan

ideal shaxs edi. Shu bois Behbudiy o‘z ma’rifiy faoliyatida Navoiy merosini faqat adabiy manba sifatida emas, balki millatni uyg‘otuvchi ma’naviy dastur sifatida talqin etgan.

Behbudiy fikricha, Navoiy merosini chuqur o‘rganish yosh avlodni ma’naviy poklik, ilm va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng samarali yo‘li edi. U o‘z maqolalarida jamiyatlardagi tanazzulning ildizini jaholatda deb bilgan va undan qutulishning yagona yo‘li sifatida ilm-ma’rifatni targ‘ib qilgan. Bu g‘oya, aslida, Navoiyning “ilm bilan inson kamol topadi” degan fikrining davomi edi. Shunday qilib, Behbudiy o‘zining pedagogik va ijtimoiy qarashlarida Navoiyning ruhiy merosini zamonaviy islohotlar bilan uyg‘unlashtirgan.

Behbudiy o‘z maqolalarida Navoiy obrazini ko‘p bora tilga olgan. “Risoi al-jadid” hamda “Taraqqiy” gazetalaridagi chiqishlarida u Navoiyning “millatning ko‘zgusi” deb ataydi. Behbudiy nazarida, Navoiyning har bir asari yosh avlodni axloq, halollik va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Navoiyning insonparvarlik qarashlari — “Har kimki elga qilsa xizmat, anga davlatdur bu” degan g‘oyasi — Behbudiy pedagogik konsepsiyasining asosiy tamoyiliga aylangan. U shoirning ma’naviy merosini “milliy uyg‘onishning asosi” sifatida talqin qilgan.

Behbudiy uchun Navoiy timsoli nafaqat o‘tgan davrning buyuk shoiri, balki har bir jadid uchun ibrat namunasi edi. U Navoiy siymosida musulmon Sharqining ma’naviy uyg‘onishini, adolatli jamiyat qurish orzusini va milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini ko‘rgan. Shu ma’noda, Navoiy Behbudiy tafakkurida nafaqat tarixiy shaxs, balki zamonlardan o‘tuvchi ma’naviy ideal sifatida gavdalanadi. Behbudiy nigohida Alisher Navoiy — bu milliy o‘zlik, ilm-ma’rifat, adolat va insonparvarlik timsoli bo‘lgan ma’naviy ideal edi. Behbudiy Navoiy merosini o‘z davrining muammolari bilan bog‘lab talqin etib, uni yangi zamon uyg‘onishining ruhiy manbaiga aylantirdi. Natijada, Navoiyning ma’naviy qadriyatlari Behbudiy ijodida yangi mazmun kasb etib, jadidchilik harakatining g‘oyaviy poydevoriga aylandi.

Navoiy merosining amaliy ifodasi Behbudiy faoliyatida

Behbudiy o‘z faoliyatida Navoiy ruhini amalda davom ettirdi. U “Padarkush” pyesasida jaholat va ma’rifatsizlik oqibatlarini ko‘rsatib, xalqni ilmga chorlaydi — bu Navoiy “Hayrat ul-abror”dagi adolat, aql va tarbiya haqidagi g‘oyalarning zamonaviy talqinidir. Quyidagi jadvalda biz Alisher Navoiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarini qiyosiy tahlilga tortdik.

Mushtarak jihatlari	Alisher Navoiy	Mahmudxo‘ja Behbudiy
Ma’rifat o‘choqlari barpo qilishlari	1480–1500-yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo‘lovchilar to‘xtab o‘tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ta hovuz qurdiradi.	Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog‘ida <u>“usuli savtiya”</u> maktabini ochadi.

Ilmiy qarashlari	Ilm, Navoiy senga maqsud bil, Emdiki, ilm o'ldi, amal aylagil.	Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqru- zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir.
Ilm fanga oid darsliklar	Alisher Navoiy "Lison ut-tayr", "Nasoyim ul- muhabbat", "Arbain" va "Munojot" kabi asarlari o'quvchilarga ta'lim beruvchi, ma'naviy va axloqiy saboqlar beruvchi manbalar hisoblanadi.	1904-yilda "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi"), 1905-yilda "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), 1906- yilda "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), 1908- yilda "Kitobatul atfol" ("Bolalar xati"), 1908-yilda "Amaliyoti islom", 1909- yilda "Tarixi islom" kitoblarini nashr ettirgan.
Komil inson haqidagi qarashlari	"komil insonga" yo'nalgan ta'limni ilgari surgan — til-adabiyot orqali, ma'rifat orqali axloqni shakllantirish	bu g'oyalarni amalda — maktablar, darsliklar, jadid metodika orqali amalga oshirishga yo'nalgani.

Xulosa

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida Alisher Navoiyning ma'naviy merosi chuqur ildiz otgan. Navoiy an'analari jadidchilik harakatining g'oyaviy asosini tashkil etgan bo'lib, xalqni ilmga, ma'rifatga, insonparvarlik va axloqqa da'vat etuvchi qudratli manba sifatida talqin qilingan. Behbudiy nigohida Navoiy — millatni yuksaltiruvchi, xalqni uyg'otuvchi ma'naviy rahnamo, uning g'oyalari esa jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlarida amaliy ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1983.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent, 1992.
4. Qosimov B. Jadidchilik va ma'rifatparvarlik. — Toshkent: Fan, 2012.
5. Yo'ldoshev Q. Navoiyning ma'naviy merosi va zamonaviy tafakkur. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017.
6. Sharipov M. Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy faoliyatida inson kapitalini yuksaltirish masalalari. Academic Research in Educational Sciences jrnali, Volume 4 | Issue 3 | 2023.

JADID MAKTABLARI: NIZOLI MUHITDA MA'RIFAT ORQALI YECHIM TOPISH TAJRIBASI

F.M.Sadriddinova

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)

N.V.Anvarova

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid maktablarining Turkiston jamiyatidagi nizoli vaziyatlarni yumshatish va ularni bartaraf etishda tutgan o'rni yoritilgan. Jadidlar yangi ta'lim metodlari, darsliklar va ma'rifiy g'oyalar orqali savodsizlik, ijtimoiy tengsizlik va milliy o'zlikni anglash muammolariga yechim topishga intildilar. Maqolada jadid maktablarining ta'lim-tarbiyadagi islohotlari, ma'rifat orqali nizolarni bartaraf etish tajribasi hamda bugungi pedagogik konfliktologiya uchun tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadid maktablari, nizolar, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, pedagogik konfliktologiya, milliy ong.

Аннотация: В статье рассматривается опыт джадидских школ как эффективного средства разрешения социальных и образовательных конфликтов в Туркестане конца XIX – начала XX веков. Джадиды через просвещение стремились смягчить противоречия, возникшие в обществе, внедряя новые методы обучения, учебники и воспитательные идеи. Их деятельность сыграла важную роль в формировании национального самосознания и поиске мирных путей выхода из конфликтных ситуаций.

Ключевые слова: джадидские школы, конфликты, просвещение, педагогическая конфликтология, национальное самосознание.

Annotation: This article explores the experience of Jadid schools as an effective means of resolving social and educational conflicts in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries. The Jadids sought to mitigate contradictions in society through enlightenment by introducing new teaching methods, textbooks, and educational ideas. Their activities played a significant role in shaping national identity and in finding peaceful ways to overcome conflict situations.

Keywords: Jadid schools, conflicts, enlightenment, pedagogical conflictology, national identity.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot keskin ziddiyatlar va nizolar bilan to'la bo'lgan. An'anaviy ta'lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga javob bermas, iqtisodiy-siyosiy bosim, mustamlakachilik va mahalliy ijtimoiy muammolar o'quvchi-yoshlarning ma'naviy hamda intellektual rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Ana shunday murakkab muhitda jadid maktablari yangi ta'lim metodlari, yangicha darsliklar va milliy ongni uyg'otuvchi g'oyalari orqali ma'rifatni targ'ib qildi. Jadid maktablari faqat o'quv jarayonini isloh qilish bilan kifoyalanmay, balki ijtimoiy nizolarni yumshatish, millatni birlashtirish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ma'rifat vositasida ijtimoiy tengsizlik, savodsizlik va milliy o'zlikni anglash muammolariga yechim topishga intildi. Shunday qilib, jadid maktablari pedagogik konfliktologiya tarixiy ildizlari sifatida ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish texnologiyalarini ishlab

chiqishda jadidlarning tajribasi muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning faoliyati ma'rifat orqali jamiyatni yangilash, ijtimoiy muvozanatga erishish va nizoli muhitda konstruktiv yo'l topishning yorqin namunasi bo'ldi.

Ma'rifat — bu ilmga chanqoqlik, o'zini va jamiyatni rivojlantirishga intilish, ta'lim va tarbiya orqali yuksalish, keng ma'noda bilim olish, ilmiy va madaniy yuksalish, jaholatdan chiqishni anglatadi va insonning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniyati bilim asosida boyib, komillikka tomon rivojlanish jarayonidir. U faqat ilmiy bilim emas, balki axloq, odob, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashni ham o'z ichiga oladi. Arabcha "ma'rifa" so'zidan olingan bo'lib, "bilish", "anglash", "idrok etish" degan ma'noni bildiradi. Sharqda ma'rifat tushunchasi qadimdan buyuk mutafakkirlar (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy) asarlarida keng qo'llanilgan. Ular ma'rifatni insonni komillikka eltuvchi eng asosiy vosita sifatida talqin qilganlar. Jadidlar "jaholat — dushman, ma'rifat — qurol" degan g'oyani ilgari surgan. Bu shuni anglatardiki, agar jamiyat bilim va ma'rifatga tayansa, nizolar keskinlashmaydi, balki ularning ildizi ham quriydi.

Jadid ma'rifatchiligi davrida esa "ma'rifat" tushunchasi xalqni savodsizlikdan qutqarish, zamonaviy fanlarni o'rgatish, jamiyatni yangilash g'oyasi bilan chambarchas bog'liq edi. Ma'rifatli inson nafaqat bilimli, balki odobi, ma'naviyati, ijtimoiy mas'uliyati yuqori shaxsdir. Jadid maktablari eski uslubdagi maktablardan farqli ravishda zamonaviy fanlarni o'qitishga, yangi darsliklar yaratishga va yoshlarni milliy uyg'onishga chorlovchi g'oyalarni singdirishga qaratilgan edi. Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilari ta'limni modernizatsiya qilish orqali xalqning ijtimoiy hayotida nizolarni yumshatish mumkin, degan g'oyani ilgari surganlar.

Turkiston jamiyatida nizolar turli ko'rinishda namoyon bo'lgan:

- Ijtimoiy nizolar – boy va kambag'al qatlamlar o'rtasidagi tengsizlik, savodsizlik;
- Milliy nizolar – mustamlaka siyosati ta'siri ostidagi milliy o'zlikni yo'qotish xavfi;

Madaniy-ma'rifiy nizolar – eski usul va yangi usul tarafdorlari o'rtasidagi qarama-qarshilik. Jadid maktablari ana shu nizoli muhitda ma'rifatni asosiy yechim sifatida ilgari surdi. Ular yangi bilimlar berish, yoshlarni dunyoqarash jihatdan o'stirish, milliy ongini shakllantirish orqali jamiyatni ijtimoiy kelishuv va taraqqiyot sari yetakladilar.

Pedagogik konfliktologiya nuqtayi nazaridan jadid maktablarining faoliyati quyidagicha talqin etilishi mumkin:

1. Profilaktik ahamiyat – savodsizlik va johillik oqibatidagi kelishmovchiliklarni bilim orqali oldini olishdir. Jadid maktablarining asosiy yutuqlaridan biri — ularning faoliyati konfliktlarning kelib chiqishini oldini olishga (profilaktikaga) qaratilganidir. XIX–XX asr boshlarida savodsizlik jamiyatdagi noto'g'ri qarashlar, urf-odatdagi jaholat, diniy ekstremizmga moyillik, milliy ongdan uzoqlashish kabi nizolarning ildizi edi. Jadid maktablari arab yozuvida va turkiy tilda yangi alifbo, darsliklar va zamonaviy fanlarni o'qitish orqali savodsizlikning oldini olishga xizmat qildi. Savodli shaxs jamiyatdagi nizoli vaziyatlarga tanqidiy yondashib, oqilona yechim topa olishi mumkin edi.

2. Tarbiyaviy ahamiyat – yoshlarni milliy birlik, vatanparvarlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashdan iborat. Jadid maktablari faqat bilim beruvchi maskan emas, balki yosh avlodni jamiyatga foydali, ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashga qaratilgan ma'rifiy muassasalar bo'lgan. Ularning tarbiyaviy faoliyati bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'lgan:

- Axloqiy tarbiya. Jadid maktablarida yoshlar halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va

insonparvarlik ruhida tarbiyalangan. Ustozlar dars jarayonida shaxsiy namuna ko'rsatib, bolalarni odob-axloq qoidalariga o'rgatgan. Bu esa yoshlarning turmush tarzida nizolarni kuch bilan emas, balki axloqiy qadriyatlarga asoslangan muloqot orqali hal qilishiga yordam bergan.

-Milliy tarbiya. Jadid maktablarida o'zbek tili va adabiyoti, milliy tarix va madaniyatga alohida e'tibor qaratilgan. Behbudiy, Fitrat, Avloniy kabi ma'rifatparvarlar milliy o'zlikni anglash va uni asrab-avaylashni tarbiya jarayonining markaziga qo'yganlar. Bu tarbiya yoshlarni millatga sodiq, vatanparvar va birlik g'oyasiga tayyorlagan.

-Ijtimoiy tarbiya. Jadid maktablari yoshlarni jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalagan. "Yaxshi fuqarolik", "xalq uchun xizmat" kabi tushunchalar ularning dasturida muhim o'rin tutgan. Bu yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli qilib, o'zaro kelishmovchiliklarda murosaga intilishiga undagan.

-Estetik va ma'naviy tarbiya. Darslarda adabiyot, san'at va teatr orqali go'zallikni anglash, ma'naviyatni boyitish o'rgatilgan. Masalan, Behbudiyning "Padarkush" dramasida oilaviy nizolar tarbiyaviy saboq asosida ko'rsatilgan. Bu yoshlarni xulosa chiqarishga, hayotiy qarorlarni to'g'ri qabul qilishga o'rgatgan.

Jadid maktablari ta'limni tarbiya bilan chambarchas bog'lagan. Ular faqat bilim emas, balki axloqiy qadriyatlarni ham singdirishga intildi. Bu esa yosh avlodning kelajakda ijtimoiy kelishmovchiliklarga aralashmasdan, balki ularni bartaraf etuvchi yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minladi. Mustamlaka davrida xalq orasida bo'linish, milliy ongni yo'qotish xavfi mavjud edi. Bu ham katta ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Jadidlar matbuot va maktablar orqali milliy g'oya, vatanparvarlik va birlikni targ'ib qildilar. Bu millatning o'zaro nizolarini kamaytirib, umumiy maqsad sari birlashishga xizmat qildi. Jadid maktablari eski usul tarafdorlari va yangi usul tarafdorlari o'rtasidagi keskin nizolarning oldini olishga harakat qildi. Ular diniy qadriyatlarni inkor qilmagan holda, zamonaviy bilimlarni joriy etib, jamiyatda murosaga asoslangan yo'lni tanladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda jadidlarning ma'rifiy yondashuvi tarixiy tajriba sifatida muhimdir. Zamonaviy pedagogik konfliktologiyada ham bilim va tarbiya orqali nizolarni oldini olish, o'zaro kelishuvni ta'minlash, tolerantlik va hamkorlikni rivojlantirish g'oyalari jadidlarning faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jadid maktablari o'z davrida nizoli muhitda jamiyatni uyg'otish va yangilashda muhim vosita bo'ldi. Ularning ma'rifatga asoslangan yondashuvi savodsizlik, ijtimoiy tengsizlik va milliy o'zlikni anglash muammolarini hal etishga qaratilgan edi. Bugungi kunda ham jadidlarning merosi ta'lim-tarbiya jarayonida nizolarni bartaraf etish texnologiyalari uchun boy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
2. Munavvarqori Abdurashidxonov. Maktab va tarbiya haqida. – Toshkent: 1915.
4. A'zamxo'jayev S. Jadid maktablari va ma'rifatparvarlik harakati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
6. Salohiddinov A. Pedagogik konfliktologiya asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2017.
7. Ziyo A. Ma'rifat va taraqqiyot tarixida jadidlarning o'rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

MUNDARIJA:

1	Қаҳрамонов Қ. “Падаркуш” драмасида давр ва шахс фожиаси талқини	3
2	Hasanov Sh. Behbudiyning yana bir izdoshi	6
3	Ercan Alkaya, Аубакирова Ж. Бүркіт Ысқақов әдеби мұрасының мектеп бағдарламасында қамтылуы	10
4	Hamroyeva H., Naraliyeva Sh. Mahmudxo‘ja Behbudi y badiiy tafakkurida yoshlar ma’naviyati asalalari	17
5	G‘afforov Sh. El ardog‘idagi inson - avlodlar ehtiomida	21
6	Karimov S, Raxmatova D. Mahmudxo‘ja behbudi y - tilshunos olim	27
7	Pardayev A. Behbudiyning tilshunoslik haqidagi qarashlaiga tahliliy yondashuv	35
8	Абенова Л. Түркі тұтастығын көксеген ұлт көсемдері	37
9	Botaboyeva J., Jumabayeva G. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston teatr san’ati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi	43
10	Nasirov A., Qobilov U., Ernazarova G. Tanazzulga yetaklovchi a’mollarning talqini	47
11	Raxmonov S. Vatan ozodligi yo‘lida shahid bo‘lgan Behbudi y	51
12	Алимова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий ва Еуркистондаги сиёсий жараёнлар	58
13	Djalilova X. jadidchilik g‘oyalarining shakllanishida xoriy safarlarning o‘rni	62
14	Normurodova G., Abdujabborova M., Yaqubova D. Mahmudxo‘ja Behbudi y qarashlarida millatlararo totuvlik masalasi	67
15	Qo‘ldoshev Sh., Idiev Akbar Avaz o‘g‘li. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bolalar uchun yozuv kitobi” haqida.	72
16	Toshpo‘latov A. Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy-tanqidiy qarashlari haqida...	75
17	Yuldashev R. Yoshlarda dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirishda tarbiya metodlarining o‘rni	78
18	Maxmudova D. Mahmudxo‘ja Behbudi y tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi	87
19	Jabborova D. Samarqand jadidlarining Turkiston ma’rifatparvarligidagi o‘rni	89
20	Boboyev X. Mahmudxo‘ja Behbudiyning jasorati – yoshlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashda ibrat maktabidir	93
21	Курбанов Г. Подготовка преподавателей высших военных образовательных учреждений на основе уникального наследия Махмудхожа Бехбуди	97
22	Mirzayev G. Jadidlarning turkistonda harbiy islohotlar o‘tkazishga qarashlari tahlili	101

23	Jabbarov Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning yoshlar tarbiyasi haqidagi qarashlari	110
24	Кутлымуратов Б.Х., Абдиев Ж. Г. Распространение просветительства и идей джадидизма в каракалпакстане	114
25	Anorboyev A. A. Turkiston jadidlari matbuotida harbiy-vatanparvarlik g‘oyalari	117
26	Xonqulov Sh. X. Hamza Hakimzoda niyoziyning jadid teatri rivojiga qo‘shgan hissasi	119
27	Ergashev S.M. Turkistonda ma’rifatparvarlik va xalq ta’limi masalasi (XX asr boshlari)	122
28	Nyutonova X.L. Mahmudxo‘ja Behbudi merosi va jadidchilik harakati	126
29	Umorova D. O. Xorazm jadid ma’rifatparvari Muhammad Rahimxon Feruz homiyligida teatr va matbuot taraqqiyoti	129
30	Костин А.В. Критическое мышление и зарубежный опыт в подготовке военных профессионалов	133
31	Sadriddinova F. M., Mansurova M.A. Jadidchilik harakati namoyandalarining pedagogik faoliyati	136
32	Qurbonov Z. Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasidagi tushunchalar haqida	138
33	Ernazarova I. Samarqand jadidlarining faoliyatiga bir nazar	140
34	Qurbonova M. Okkazional birliklar-mahmudxo‘ja behbudi individual uslubining o‘ziga xosligi sifatida	145
35	Tangirov O., Jabborova O. Toshkentda jadid matbuoti faoliyati va Behbudiyning o‘rni	147
36	Raxmatova D. Jadidchilik harakatida ilm-ma’rifat g‘oyasi va Behbudiyning o‘rni	151
37	Qorayev Sh.P. Ismoil Gaspirali va Amir Abdulahad	154
38	Urinbayevna Sh. “Haq olinur, berilmas”	157
39	Tashqo‘lova D. Mahmudxo‘ja Behbudi tarixiy asarlarini o‘rganishning dolzarbligi	159
40	Yuldasheva D. Mahmudxo‘ja Behbudi asarlarida ornitonimlarning qo‘llanilishi	161
41	Gulimmatova R. Mahmudxo‘ja Behbudi va “Oyna” jurnalining jadid adabiyoti rivojidagi o‘rni	163
42	Mamatqulov B. Mahmudxo‘ja Behbudi merosida ta’lim, fan va sanoat uyg‘unligi	166
43	Raxmonov J. Jadidlar merosida huquqshunoslik sohadagi islohotlarning zamonaviy ahamiyati	169
44	Abdullakhojayev A. The commonality of behdudi and ibrat activities in turkestan jadidism: social-philosophical analysis	171
45	Xakimov Sh. Mahmudxo‘ja Behbudi tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi	176
46	Maxmudova S. Turkiston jadidlarining xotin-qizlar va oila haqidagi qarashlari	179

47	Rakhimov B., Pirmamatov R. turkiston jadidlari matbuotida ta'lim-tarbiya masalasi	181
48	Таирова Ю. Просвещение через театр: реформаторский потенциал сценического искусства в эпоху джадидов	184
49	Sharipov Sh. Mahmudxo'ja Behbudiyning turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni	188
50	Suyarova Z. jadid pedagogy and its impact on the modern education system	190
51	Xazirov B. Mahmudxo'ja Behbudiyning tafakkurida yoshlar va millat ravnaqi	192
52	Isomiddinov Y. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik harakati	195
53	Axmedov G. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari	198
54	Хуррамова С. История возникновения новометодных школ в самарканде	209
55	Tavakalov A. Jadida namoyondalarining harbiy islohatlarga munosabati	213
56	Yuldashov F. Mahmudxo'ja Behbudiyning so'nggi manzili haqida muhaqqiqlarning qarashlari	217
57	Mirzajonov G. Turkiston jadidlari faoliyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari	223
58	Ismoilova M. Mahmudxo'ja Behbudiyning va Abdurauf Fitrat qarashlarida oila va tarbiya masalalari	229
59	Rustamova D. Mahmudxo'ja Behbudiyning taraqqiyparvar publicist	233
60	Hamroyeva M. Behbudiyning pedagogik qarashlari	235
61	Irisova Komila. "Tanqid konsepti behbudiyning nigojida"	237
62	Abdusamatova O. Behbudiyning va matbuot	241
63	Boqiyeva D. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasida ilm-ma'rifat masalasi	243
64	Burhonova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarida tarixiy xotira va adabiy qadriyatlar	247
65	Axrora M. Jadidchilik harakatida Navoiy an'analari: Behbudiyning nigojida Navoiyning ma'naviy merosi	251
66	Sadriddinova F.M, Anvarova N.V. Jadid maktablari: nizoli muhitda ma'rifat orqali yechim topish tajribasi	256

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSI VA JADIDCHILIK
HARAKATINI O‘RGANISHNING DOLZARB MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

(Samarqand, 29-30 oktabr, 2025-yil)

Muharrir: Norxo‘ja Choriyev

Musahhih va texnik muharrir: A.Nasirov

ISBN 978-9922-9829-5-7

2025-yil 18-noyabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil_24-noyabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturasini.

Offset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i –15.75.

Adadi 10 nusxa. Buyurtma №738

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



